В исследованиях З.Дж.Адыловой [15] изучены вопросы выявления необходимости развития инклюзивного образования в республике Узбекистан, осуществлен анализ существующих проблем при реализации инклюзивной модели образования в республике Узбекистан, а также направления их разрешения. Автором при изложении данной работы преследуется цель проанализировать текущую ситуацию в области развития инклюзивного образования в ВУЗах Узбекистана, выявить имеющиеся проблемы, а также разработка рекомендаций по улучшению внедрению инклюзии в ВУЗ. Методологической базой исследования данной работы выступили нормативно-правовые акты республики Узбекистан в области развития инклюзивного образования, диалектический и статистический методы, анализ литературы и данных периодической печати, а также личностно-творческий подход при исследовании тематики.

Анализ и результаты. Практика инклюзивного образования в образовательных учреждениях Узбекистана берёт своё начало ещё с эпохи советских времён. Тогда при советской власти лица с ограниченными возможностями здоровья обучались в специализированных образовательных учреждениях в изолированности от своих сверстников. Сегодня наука ушла далеко вперёд, во многих научных и практически апробированных научных исследованиях западных учёных доказано, что наибольший

эффект при обучение лиц с инвалидностью достигается при их совместном обучении в группе со своими сверстниками.

Согласно статистике ООН 15% населения земного шара имеют отклонения в физическом или психическом развитии, и соответственно зарегистрированы в качестве лиц с инвалидностью. Следует отметить, что данный показатель имеет тенденцию к росту из года в год, которое во многом связывают с ухудшением экологии и нарушения нормального образа жизни, причём 80% всех лиц с инвалидностью приходится на долю развивающихся стран, а это непосредственно является предупреждающим звонком для правительства этих стран к принятию неотлагательных мер для адаптации данной категории лиц к полноценной жизни в обществе. По итогам 2022 года население Республики Узбекистан достигло 36 млн. человек, 60% из которых это молодёжь в возрасте до 30 лет. Согласно статданным Республики официально зарегистрированные лица с инвалидностью в республике составляют 2,1% от всего населения страны. Но данный показатель может довольно искажаться в связи отсутствием переписи населения страны.

В Узбекистане перепись населения не проводилась с момента обретения независимости в 1991 году; первая перепись запланирована на 2023 год, однако Государственный комитет по статистике не включает вопросы об инвалидности в перепись согласно рекомендациям Вашингтонской группы по статистике инвалидности, ссылаясь на отсутствие средств и экспертных знаний в определении инвалидности [16]. В Республике Узбекистан с целью реализации принципа интеграции науки, образования и науки под руководством президента Республики Узбекистан Мирзиёева Шавката Миромоновича разработана концепция развития системы высшего образования до 2030 года. Целью данной концепции является углубление реформ в сфере высшего образования, преследующей подготовку конкурентоспособных высококвалифи-цированных кадров на основе передового зарубежного опыта. В концепции развития высшего образования особое внимание уделяется внедрению и развитию основ инклюзивного образования.

В частности предусмотрено:

• увеличить виды образовательных услуг, предоставляемых обучающимся лицам с ограниченными возможностями здоровья, и повысить их качество;

• широкое развитие инклюзивных процессов в образовании, внедрение адаптивных технологий;

• создать дополнительные условия для обучающихся с ограниченными возмож-ностями здоровья в корпусах студенческих общежитий и высших учебных заведений;

• принять меры по обеспечению образовательных учреждений необходимой литературой и учебно-методическими пособиями для данной категории обучающихся, материальному поощрению и поддержке обучающихся из групп населения, нуждающихся в социальной защите.

1 декабря 2017 года вышел указ Президента РУз «О мерах по кардинальному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с инвалидностью»[17] согласно которому предоставлены ряд преимуществ для лиц с инвалидностью при поступлении в ВУЗ. В частности с 2018 – 2019 учебного года лицам с инвалидностью I и II группы была предоставлена дополнительная 2-процентная квота на поступление в национальные университеты страны. При этом минимальный балл на вступительных экзаменах также был снижен до 56,7 балла (30% от максимально возможного балла в 189 баллов), чтобы лица с инвалидностью могли получить доступ к системе высшего образования.

Однако несмотря на существующие льготы при поступлении лиц с инвалидностью в ВУЗ, процент охвата высшим образованием данной категории лиц остаётся довольно низким, и связано это в первую очередь не готовностью большинства ВУЗов страны к обучению этих лиц, которое проявляется в отсутствие доступной среды для лиц с

инвалидностью, что создает своеобразную сегрегацию и дискриминацию по признаку инвалидности в высших учебных заведениях.

Отсутствие доступной среды для обучения лиц с инвалидностью в ВУЗах проявляется прежде всего:

➢ архитектура зданий и инфраструктура сооружений прилегающих к зданиям не адаптирована к обучению лиц с ОВЗ;

➢ учебные корпуса большинства ВУЗов Узбекистана от четырёх этажей и выше, пр этом если рассматривать в региональном разрезе во много из них лифты отсутствуют, а у имеющих, лифт не работает и подлежит соответствующему ремонту, что в свою очередь создаёт трудности при передвижении по корпусам лиц с инвалидностью имеющих отклонения в опорнодвигательном аппарате;

➢ в связи с резким ростом квот при поступление в ВУЗы страны большинство ВУЗов столкнулись с нехваткой аудиторного фонда, вследствие чего расписание занятий приходиться ранжировать и менять аудиторию для проведения занятий одной группы студентов в разрезе каждой пары, а это способствует к обучению студентами каждой пары в разных аудиториях расположенных на различных этажах.

В данном случае высокие лестницы и отсутствие пандусов являются серьёзным барьером для входа и передвижения в здании лиц находящихся в инвалидных креслах;

➢ во многих ВУЗах страны наблюдается нехватка или отсутствие специальной учебной и учебно-методической литературы, предназначенной для обучения лиц с ОВЗ;

➢ весьма серьёзной проблемой высшего образования в Узбекистане, вообще, инклюзивного, в частности, является низкая обеспеченность образовательных учреждений высококвалифицированными кадрами;

➢ места общего пользования (столавая, библиотека, туалет) многих ВУЗов страны не адаптиована под нужды лиц с инвалидностью, не оснащены специализированным инвентарём, что доставляет трудности при посещение этих мест со стороны студентов с ограниченными возможностями здоровья;

➢ профессорско-преподавательский состав

ВУЗов страны в большинстве не обладает специальными навыками при обучение лиц с инвалидностью; Сегодня для многих лиц с инвалидностью обучение в ВУЗе должно преследовать не только получение соответствующих знаний, но и приобретение жизненных и социальных навыков, предоставлению которых должны быть готовы ВУЗы страны. В связи с этим считаем что одной из приоритетных задач правительства Республики Узбекистан является дальнейшее развитие инклюзивного образования, укрепление материально-технической базы образовательных учреждений, а также создания всех условий для полной реализации принципа прав и своды лиц с инвалидностью прописанных в конвенции ООН «О правах инвалидов» который наша республика уже ратифицировала.

Следует отметить, что в данном направление наблюдается ряд положительных тенденций, основные из которых проявляются в практических действиях правительства по углублению реформ направленных на развитие инклюзивного образования в стране. В частности: за счёт привлечённых средств Азиатского банка развития реализуется проект по развитию инклюзивного образования в стране, разработаны и внедрены в жизнь проекты по укреплению материально-технической базы специализированных школ-интернатов и детских домов «Мехрибонлик».[1]

Проблема развития инклюзивного образования и поддержки прав и свобод лиц с инвалидностью в республике Узбекистан затронута и в Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022 – 2026 годы. В частности в 4-ом приоритетном направление «Проведение справедливой социальной политики, развитие человеческого капитала», 66-цель «Формирование эффективной системы поддержки лиц с инвалидностью, повышение качества и уровня их жизни» непосредственно посвящена защите и реализации

жизненных прав лиц с инвалидностью в нашей республике.[18] 3 декабря 2021 года в “Международный день инвалидов” президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев отметил: “Критически оценивая нашу работу с наиболее уязвимой категорией населения – инвалидами, мы и впредь будем мобилизовать все силы и возможности для того, чтобы они никогда не чувствовали себя одинокими, активно участвовали в общественной и экономической жизни”[19] – отметил президент, что ещё раз свидельствует об пристальном внимание руководства Узбекистана защите прав и свобод лиц с инвалидностью, а также дальнейшему развитию и усовершенствованию системы инклюзивного образования в нашей стране.

Исходя из вышеизложенного считаем политику проводимой руководством страны в области развития инклюзии в нашей стране как наиболее востребованной и актуальной в современных реалиях, способствующей лицам с инвалидностью в нашей стране вести полноценный образ жизни, активно участвовать в экономической и политической жизни общества, а также выполнять свои гражданские обязанности.

Выводы и предложения. В современных реалиях социально-экономического развития Республики Узбекистан построение системы образования республики с учётом реализации доступности к образованию лиц с ограниченными возможностями здоровья является на стадии своего формирования и нуждается во всесторонней поддержки со стороны государства. В Узбекистане ведется значительная работа по созданию условий жизни, получения образования для лиц с ограниченными возможностями, создана законодательная база для создания условий для дальнейшего развития лиц с инвалидностью, приняты Концепция развития инклюзивного образования в системе народного образования в 2020 – 2025 годах, Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года.

Кроме того, Президентом страны была утверждена Стратегия развития Республики Узбекистан на 2022 – 2026 годы, направленная на создание социально значимой системы поддержки лиц с ограниченными возможностями здоровья, повышение качества и уровня их жизни. Несмотря на достигнутые успехи по формированию и внедрению инклюзии в высшей школе Узбекистана выявлены ряд проблем связанных с не надлежащим уровнем подготовки профессорско-преподавательского состава к инклюзивной форме обучения, не соответствующая требованиям лиц с инвалидностью архитектурно-инженерная инфраструктура зданий и сооружений, а также отсутствие специальных адаптированных к инклюзивному обучению учебных программ.

В целях развития и эффективного внедрения инклюзивной формы обучения в высших учебных заведениях Узбекистана на наш взгляд будет приемлемым решение следующих задач:

➢ совершенствование нормативно-правовой базы инклюзивной модели образования в соответствие с положениями и принципами Конвенции ООН о правах инвалидов; гармонизации системы статистики и сбора данных, касающихся лиц с инвалидностью, на основе общепризнанных международных определений и инструментов;

➢ строительство новых и реконструкция существующих новых зданий и сооружений с учётом адаптиции их архитектурно-плановой застройки нуждам и требованиям лиц с инвалидностью;

➢ совершенствование системы по подготовке и повышению квалификации педагогических кадров непосредственно участвующих в инклюзивной модели образования;

➢ исходя из возможностей республики и отдельных регионов сформировать систему по мониторингу текущего состояния и тенденций развития инклюзивного образования, при активном участии социальных служб по уходу за лицами с инвалидностью и внедрение программ по их реабилитации, обучению и трудоустройству согласно международным стандартам и нормам; Считаем, что выполнение данных рекомендаций

поможет достичь целей, предусмотренных Концепцией реформирования системы высшего образования до 2030 года, и реализовать реформы по эффективной интеграции, адаптации и развитию инклюзивного образования в образовательных учреждениях.

Список использованной литературы:

1. Махмудходжаева Л.С., Архангельская Е.Г. «Перспективы совершенствования системы инклюзивного образования в республике Узбекистан» https://inlibrary.uz/ index.php/ industry_4/article/view/3580
2. Закон Республики Узбекистан «О правах лиц с инвалидностью» №ЗРУ-641 от 15.20.2020 г. https://lex.uz/ru/docs/5049549
3. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-695 «О ратификации Конвенции о правах инвалидов» https://lex.uz/ru/docs/5447430
4. Постановление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева № 4860 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания детей с особыми образовательными потребностями» https://lex.uz/ru/docs/5044745
5. Указ Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» https://lex.uz/ru/docs/4545887
6. Зейтц У. Кризис и восстановление в Узбекистане: экономические и социальные последствия COVID19. Группа Всемирного банка. 2021 г. https://thedocs.worldbank.org/ en/doc/a141cb6bace3f340df173e75d4463970-0080062021/original/L2CU-COVID-19-Rev2020-Cleared-UZB.pdf.
7. Зейтц У. и др. Узбекистан: выявление рисков воздействия COVID-19 на уровне общин. Группа Всемирногобанка. https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/ 10986/34925/UzbekistanDynamicallyIdentifying-Community-Level-COVID-19-Impact-Risks.pdf?sequence=1&isAllowed=y.
8. Юсупов Д. Узбекистан: как обеспечить доступность высшего образования для людей с инвалидностью? https://cabar.asia/en/uzbekistan-how-to-ensure-higher-education-accessibility-for-people-with-disabilities
9. Бакаева Ф., Муратова Д. Аналитический доклад по результатам мониторинга прав инвалидов на доступ к транспортным услугам. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, ПРООН в Узбекистане. 2015.
10. Алехина С.В. Инклюзивное образование: от политики к практике. // Психологическая наука и образование. 2016. Т. 21. № 1. – С. 136 – 145.
11. Акимова О.И. Инклюзивное образование как современная модель образования лиц с ограниченными возможностями здоровья. // Инклюзивное образование: методология, практика, технология. – 2011. Материалы международной научно-практической конференции 20 – 22 июня 2011.
12. Шипицына Л.М. Тенденции и трудности инклюзивногообразования в современной России // Инклюзивное образование: практика, исследования, методология: Сб.материалов II Международной научно-практической конференции / Отв. ред. Алехина С.В. – М.: МГППУ, 2013, Санкт-Петербург, Россия.
13. Крайнева Е.И.Социально-педагогические эффекты инклюзивного образования. // Инклюзивное образование: практика, исследования, методология: Сб. материалов II Международной научно-практической конференции / Отв. ред. Алехина С.В. – М.: МГППУ, 2013.
14. Пугачев А.С. Инклюзивное образование / А.С.Пугачев. – Текст: непосредственный. // Молодой ученый. – 2012. – №10 (45). – С. 374 – 377.
15. Адилова З.Д, Хонтураев Б.А. Ўзбекистон Республикасида инклюзив таълимга эҳтиёжни аниқлаш: муаммо ва ечимлар. Ахборот-таҳлилий маълумот. – Т., 2019. 42 б.
16. В программу переписи населения не включили вопросы об инвалидности, Gazeta.uz. 3 марта 2020 г. https://www.gazeta.uz/ru/2020/03/03/disability-questions/

17. Указ Президента Республики Узбекистан О мерах по кардинальному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с инвалидностью №УП-5270 от 01.12.2017 г. https://lex.uz/docs/3436196

18. Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 29.01.2022 г. «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы». https://lex.uz/docs/5841077

19. Президент рассказал, какие возможности получат инвалиды в Узбекистане. 03.12.2021. https://uz.sputniknews.ru/20211203/prezident-rasskazal-kakie-vozmojnosti-poluchat-invalidy-v-uzbekistane-21642670.html

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHINING ESTETIK DIDINI OSHIRISH ZAMON TALABI

Xaqqulov Komil,
JDPU "Pedagogika-psixologiya, musiqa yo'nalishlarida masofaviy ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada musiqa ta'limidagi o'quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalashning o'ziga xosliklari, bolalar tarbiyasida estetik didni, musiqani shakllantirish, milliy musiqa san'atimizning yoshlar tarbiyasidagi ro'li yozilgan bo'lib, maqolada ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarni samarali va sifatli olib borishda musiqa o'qituvchilarining yuksak bilim, malaka va iqtidorlarini orttirish, o'qituvchining pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligiga o'z ta'sirini o'tkazish, metodik tayyorgarlikka asos bo'ladigan mi'yoriy bilim va maalaka majmuasi ko'rsatilgan.*

Yangi O'zbekistonni yangicha boshqarish ijtimoiy va iqtisodiy sohalardan yangicha innovatsion g'oyalar ilgari surilayotgan bir paytda ta'lim sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlar bugungi kun ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar oldiga ham talaygina vazifalar va o'z ustilarida tinimsiz ish olib borish masuliyatini yuklaydi. Ayniqsa madaniy sohada ish olib borayotgan ma'naviy ma'rifiy soha vakillari va musiqa o'qituvchilari ilg'or va tezkorlik bilan o'sib kelayotgan yosh avlodga talab darajasidagi bilim va ko'nikmalarni berish uchun o'zlarini tayyorlashlari zarur.

Ma'lumki, g'oyaviy-siyosiy yetuklik ilmiy-metodik tayyorgarlikning tarkibiy qismi bo'lgan metodologik bilim, ko'nikma va malakalarga asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy va ijodiy faollik o'qituvchining o'z kasbiy tayyorgarligini muntazam orttirishi, yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchining pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Musiqa o'qituvchisining metodik tayyorgarligiga asos bo'ladigan me'yoriy hujjatlar bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi:

– ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlitligi, ta'lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini tasavvur qilishi;

– musiqa bo'yicha darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakllari va mazkur mashg'ulotlarni tashkil qilish yo'llarini;

– umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini;

– yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturining amaldagi DTS va dasturdan farqini;

– umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib qoidalarini bilishni;

– umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarining tartibi, maqsad va vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'lishi, musiqa yo'nalishida kasbga yo'llash ishlarini olib borishni;

– musiqani chuqur o’zlashtirishga ixtisoslashgan maktab yoki sinflarda qo’llanilayotgan dastur, ta’limiy va tarbiyaviy ishlarning mazmun-mundarijasi, DTS, mazkur ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishga qo’yiladigan didaktik talablar, shakl va usullarini;

– musiqani o’qitish jarayonida o’quvchilar qalbi, ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini;

– musiqani o’qitish jarayonida o’quvchilarni huquqiy, iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigienik tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga qo’llay olishni;

– zamaonaviy axborot kommunikatsion texnologiya vositalarni dars jarayonida qo’llay olish mahoratiga ega bo’lishi;

– musiqani o’qitish jarayonida o’quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik printsiplari va ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilish va amaliyotga qo’llay olishni;

– musiqadan o’quv dasturi, DTS, darsliklar va o’quv-metodik qo’llanmalarni tahlil qilishni;

– musiqani o’qitish kontseptsiyasi, metodik yondashuvlar asosida o’quv jarayonini tashkil eta olishni;

– musiqa o’quv fanining asosiy g’oyalari, maqsadi va vazifalari, shuningdek, boblar, mavzularning maqsadi va vazifalarini aniqlay olishni;

– musiqani o’qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llay olishni;

– o’quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini bilishi va olingan natijalarni tahlil qila olishi, baholash tizimini mukammal bilish va qo’llay olishni;

– musiqa darslariga qo’yiladigan didaktik talablardan xabardor bo’lishi, ularni kuzatish va tahlil qilish malakasini o’zlashtirishni;

– musiqa o’qituvchilarining ilg’or ish tajribalarini aniqlashi va ularni o’zlashtira olishi hamda amaliyotga qo’llash malakasiga ega bo’lishi;

– musiqa o’quv xonalari, laboratoriyalarini namunaviy jihozlash, tegishli me’yoriy hujjatlarni bilishi, jihoz, ko’rgazmali vosita, didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash, saqlash, butlash va boyitish yo’llarini bilishi, ulardan samarali foydalangan holda o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish va o’tkazish tajribasiga ega bo’lishi lozim.

Dars samaradorligini oshirishda o'qituvchiga tayyorgarligi yaxshi bo'lgan o'quvchilarga va musiqa sohasida muvafaqqiyat qozongan iqtidorli sinflar uchun dastur talabini bir oz oshirish huquqi berish muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda o'quvchilaraga yakka tartibda musiqa o'rgatish, tashkillashtirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchiligini ham jalb etish lozim. O'qitish davrida musiqa sohasida muntazam ravishda ish olib borilishi natijasida o'quvchilar musiqa savodiga ega bo'lib, musiqani sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, konsertlarni, radio va televideniye orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo'yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo'lib yetishadilar. Bu tadbirlarni amalga oshirishda sinf rahbarlari va ota-onalar musiqa o'qituvchisiga yaqindan yordam berishlari zarurdir. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida zamonaviy texnik vositalar: DVD, MP-3, televizor, kompyuterlardan foydalanib musiqiy darslarni tashkil etish, texnika yangiliklaridan hamda ijtimoiy fanlar pedagogika, xususiy mutaxasislik bo'yicha ilg'or texnologiyalar asosida darslarni olib borish ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, bugungi kun ta'limi oldida qo'yilgan zamonaviy talablardan yana biri musiqa o'qituvchilarining kasbiy mahoratida psixologik bimdonligi, savodxonligi va madaniyatini o'zliksiz oshirib borishdan iboratdir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini tashkil etishda ya'ni jamoa bo'lib kuylashi, musiqa tinglashi, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishi va musiqiy ritmik xarakatlar bajarishida asosan yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olish, rag'barlantirishning o'ziga xos psixologik mexanizimidan foydalanish, idrok etish qobiliyati, eshitish xotirasini mashq qildirish, fikrlash va ijodiy yondovushini yo'naltirish o'qituvchining darsni psixologik talablarga asosan tashkil etishiga ko'p jihatdan bog'lidir.

Musiqa madaniyati darslariga psixologik nuqtai nazar bilan qaraganda, darsning asosiy vazifasi va qator maqsadlarini samarali amalga oshirish musiqa o'qituvchisidan jismoniy, ijodiy mehnat, astoydil kuch-quvvat, his-tuyg'u va irodaviy zo'r berishni talab etadi. Amalyot shuni ko'rsatadiki, barcha musiqa o'qituvchilari ham maktabda o'quv-tarbiyaviy ishlarni, darslarning maqsad va vazifalarini bir xilda tushunmaydilar.

Aslida o'qituvchi o'z diqqatini o'quvchi shaxsining qabul qilish xususiyatlariga, diqqati faolligiga, darsning didaktik tomoniga, o'quvchining ma'lumotlilik darajasiga qoniqish doirasiga, musiqa o'qitishning usullarini va optimal metodlarini tanlashga va boshqalarga jalb qilmog'i muhimdir.

Yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo’lgan mutaxassis sifatida o’zida ijtimoiy va ijodiy faollik, g’oyaviy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy yetuklikni mujassamlashtirsa, yuqori malakali raqobatbardosh pedagog sifatida respublikaning iqtisodiy tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlash ishida o’zining munosib hissasini qo’sha oladi. Pedagog kadrlarning ijtimoiy va ijodiy faolligi, g’oyaviy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy yetukligi o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ularning tarkibiy qismlariga bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatadi. Musiqani yaratishda ijodkor muayyan obrazlar vositasida yuksak insoniy sifatlarni yoritadi. Musiqa va qo’shiqlarda tabiat manzaralari, insonlarga xos xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijobiy psixologik xolatlar xursandchilik yoki aksincha, salbiy xolat g’am-alam, istirob, tushkunlik kabi hodisalar ifodalanadi. Musiqiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular kishilarning ongini o’stirish, estetik didini oshirib,irodaviy sifatlarini rivojlantirib, hissiyotini boyitishga emotsional ta’sir ko’rsatadi. Yuksak mahorat bilan bilan ijro etiluvchi mumtoz musiqa asarlarining barchasi insonda ko’tarinki kayfiyatni hosil kiladi. Mumtoz asarlarni doimiy ravishda o’rganib borish o’quvchilarda haqiqiy san’at asarlarining qiymatini to’g’ri baholash ko’nikmalarini shakllantiradi.Musiqa ta’limi jarayonida o’quvchilarning tarbiyasi, psixologik xususiyatlari ham intensiv rivojlanadi. Binobarin, asarlarni o’rganish ularning his-tuyg’ulari, diqqati, idroki, xotirasi, fikrlashi va tasavvuri kabi psixologik xususiyatlariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Musiqiy asarlarning o’quvchilar tomonidan idrok etilishi, eng avvalo ularda diqqatni jamlash va uning barqarorlashga erishish ko’nikmalarini shakllantiradi.

Musiqa san’atini ijtimoiy madaniy nufuzini oshirish, uni xalqimiz ma’naviy hayotiga chuqurroq singdirish,qadriyatlar darajasiga ko’tarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu esa yosh avlodni tarbiyasi oilada, mahallada, jamiyatda komil inson bo’lib yetishishida poydevor bo’ladi.

Qo’shiqlarning g’oyaviy mazmuni, undagi obrazli holatlar ijrochiga katta ruhiy kuch bag’ishlaydi va uning tarbiyasini, tasavvurini yanada kengaytiradi. Mumtoz asarlarni tinglash va ularni bevosita ijro etish o’quvchilarning xotiralarini mustahkamlanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi. Ijrochining ichki ehtiyoji, hoxish-istagi, qiziqishi, bilim darajasi va ijro mahoratiga muvofiq tanlangan asar xotirada yaxshi saqlanishi bilan birga ijroning muvaffaqiyatini ham ta’minlaydi. O’rganilgan musiqiy asarlarning sonigina emas, balki ularning sifati talabalarda ijro tajribasining boyib borishini ta’minlaydi. Ijrochilik tajribasining darajasi o’quvchilarning badiiy didlarining yuksalishiga ijobiy ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida kuzga tashlanadi. Yangi asarni o’rganish jarayonida o’quvchi ilgari orttirgan malakalariga tayanish bilangina cheklanmaydi, balki yanada yangi va murakkab elementlardan foydalanishga intiladi.O’ziga xos psixologik holatlar o’quvchining badiiy tafakkurining yanada kengayib borishi uchun imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr bo’lgan musiqa o’qituvchisi, o’z navbatida, yuksak ma’naviyat va madaniyat sohibi, milliy istiqlol mafkurasi va g’oyalarini singdirgan shaxs sifatida, ta’lim-tarbiya jarayonidagi istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etish orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo’shadi, hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g’ri ola biladi. Musiqa o’qituvchisini tayyorlashda kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlari, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr va shaxs sifatidagi xususiyatlarini yaxlit holda tasavvur qilib, ularning o’rtasidagi uzviylikni amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: «O’qituvchi», 1992.
2. Majidov, D. (2020). O’quvchi shaxsining estitik kamolatida xalq qo’shiqlaridan foydalanish imkoniyatlari. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. Fayzullaev, E.M., & Majidov, D. (2022). TAKING ADVANTAGE OF UZBEK CLASSICAL MUSIC OPPORTUNITIES FORMING MUSIC TEACHERS ARTISTIC TASTE. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(2), 34.
4. Majidov, D. (2020). O’quvchi shaxsining estitik kamolatida xalq qo’shiqlaridan foydalanish imkoniyatlari. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Fayzullaev, E.M., & Majidov, D. (2022). TAKING ADVANTAGE OF UZBEK CLASSICAL MUSIC OPPORTUNITIES FORMING MUSIC TEACHERS ARTISTIC TASTE. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(2), 34.

SIFATLI TA’LIM VA KADRLARNI TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich,
NamDU doktoranti
Xolmirzayeva Diyora Fazliddin qizi,
NamDU Pedagogika va psixologiya
yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchi o‘zi kim va unga qanday talablar qo‘yilishi, kelajak o‘qituvchilarini tayyorlashda nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagog, ta’lim, tarbiya, ma’rifat, ilm.*

O‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta’lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma’rifatga talpinadi. Dastlabki, saboqini u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarga ta’lim berish ularni o‘qitish bilan bog‘liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o‘ylantirib qo‘yayotgani tabiiy. Chunki, zamonaviy shiddatkor jamiyat doim yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muxtoj bo‘lib boraveradi. Bu ham tabiat qonuni “Eng muhimi shuni anglab yetishimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, say’i-harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz ma’naviyatimiz o‘zgarishi qiyin kichadi. Demakki, zamonaviy ta’lim- tarbiya tizimini islox qilishi zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo‘lga qo‘yish faoliyatimizning bosh yo‘nalishi bo‘lmog‘i darkor” – deb ta’kidlagan edi birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Shunday ekan o‘qituvchilarni tayyorlashga katta e’tibor berishimiz zarur.

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo‘lib, paida – «bola» va gogike – «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.[1.23]

Rim imperiyasida o‘qituvchi imperator nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. O‘rta asrlarga kelib, G‘arb mamlakatlarida o‘qituvchilik bilan, asosan, cherkov xizmatchilari shug‘ullanishgan. Sharq mamlakatlarida ham jumladan, Turkiston o‘lkasida ham o‘qituvchilik eng qadimiy va obro‘li kasb hisoblanib, „ustoz“ deb e’zozlangan. O‘lkaga islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning o‘qituvchilarni domla deb atalgan. Shuningdek, maktablar alohida shaxslar uyida ham tashkil etilib, ular maktabdor deyilgan. Ta’lim davlatdan ajratilganligi, bolalarning o‘qishi, asosan, ota-onalarning ishi hisoblangani uchun ham Turkistonda o‘qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanilmagan. Madrasa ko‘rgan yoki maktabdan so‘ng o‘z ustida ishlagan savodli kishi o‘qituvchilik bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan. Asta-

sekinlik bilan o‘qituvchilik kasbi rivojlanib keldi va hozirgi kunda eng ko‘p e’tibor qaratilayotgan sohalardan biri desam adashmagan bo‘laman. Asosan, yoshlarning ko‘p qismi ham o‘qituvchilik kasbini tanlamoqda. Yoshlar kelajakdagi kasbini kimgadir taqlid qilib yokida unga mehribonchilik qilgan insonlarga o‘xshash maqsadida tanlashadi. Bugungi kunda yoshlarimizning ham ushbu kasbni tanlayotganimi sababi ham shudir. O‘qituvchilik kasbi ham mashaqqatli, ham sahovatli bo'lgan o'ziga xos bir olamdir. O‘qituvchi kasbini egallash ham juda qiyin. Ayniqsa XXI asrga kelib o‘qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o‘qituvchidan yuksak mahoratni, o‘tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo‘lishni talab qiladi.” Dilrabo Rahmonovaning “Zamonaviy o‘qituvchi va uning obrazi” nomli maqolasida bayon etilganidek, Hozirgi zamon o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas‘uliyatlar o‘qituvchilardan talab qilinadi:

- o‘qituvchi eng avvalo mas‘uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma‘rifat targ‘ibotchisidir.

- o‘qituvchi tabiatan o‘quvchilarni seva olishi, o‘z mehrini, his-tuyg‘ularini har lahzada o‘quvchilar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo‘lishi kerak;

- o‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma‘lumotlarni doimiy bera olishi lozim;

- zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo‘lib borishi talab etiladi;

- o‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirib borishi, bunda o‘z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi;

- o‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta‘lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak;

- o‘qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta‘lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim;

- o‘qituvchi ijodkor, ta‘lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir;

- o‘qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o‘zlashtirib borishi shart;

- o‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettirishi kerak: turli sheva so‘zlardan holi bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi; hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli foydalana olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent, 2011

3. Dilrabo Ibrohim Qizi Rahmonova, & Nazar Rahmatullaevich Ashurov (2021). Zamonaviy o‘qituvchi va uning obrazi. Akademik research in educational sciences, 2 (9), 528-533.

4. Meyliyeva L.N. (2022). Sharq mutafakkirlari o‘qituvchi imidji haqida. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 96–99.

“KELAJAK O‘QITUVCHISI” EGA BO‘LISHI KERAK BO‘LGAN MAHORATLAR HAMDA TA’LIMDAGI ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLAR TAHLILI

Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonlarini tashkil etishdagi asosiy ishtirokchi hisoblangan o‘qituvchilar uchun qo‘yilgan zamonaviy talablar, ularda mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan pedagogic mahoratlar tahlil etilgan. Muallif tomonidan manbalardan foydalangan holda ushbu mahoratlarlarga alohida to‘xtalib o‘tib, misollar bilan ularni yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, “kelajak o‘qituvchisi”, interaktiv, muloqot, hamkorlik, pedagogik mahorat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются современные требования к учителям, которые являются основными участниками организации образовательного процесса, и педагогическим навыкам, которыми они должны обладать. Автор выделил эти навыки, используя источники, и проиллюстрировал их примерами.*

Ключевые слова: *информационные технологии, “учитель будущего”, интерактив, общение, сотрудничество, педагогическое мастерство.*

Abstract. *This article analyzes the modern requirements for teachers, who are the main participants in the organization of educational processes, and the pedagogical skills they should have. The author has highlighted these skills using sources and illustrated them with examples.*

Keywords: *information technologies, “teacher of the future”, interactive, communication, cooperation, pedagogical skills.*

Kirish

Ma’lumki, 21-asr zamonaviy texnologiya va yangilanishlar davri hisoblanib, turli qurilmalar hayotning barcha sohalariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy hayot, shu bilan birgalikda ta’lim tizimiga ham kirib kelgan bo‘lib, o‘qitish jarayonini raqamlashtirish va zamonaviylashtirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ta’lim jarayoni tobora zamonaviylashgani sari o‘qituvchilar uchun qo‘yilgan talablar hamda zaruriy metodikalar ham o‘zgarib bormoqda. O‘qituvchilarning yangi zamonga mos bo‘lgan pedagogik mahoratlar egalari bo‘lishlari asosiy shartlardan biriga aylanmoqda.

Muhokama va natijalar

Zamon o‘zgargani sayin insonlarning kelajakka bo‘lgan qarashlari ham takomillashib bormoqda. Mutaxassislardan o‘z kasblarining mohir egalari bo‘lishlari uchun yangi uslubdagi zaruriy ko‘nikmalarni egallashlari talab etilmoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, kelajakning muvaffaqiyatli o‘qituvchisi bo‘lish uchun bo‘lajak mutaxassislar quyidagi mahoratlarga ega bo‘lishlari kerak:

- Zamonaviy texnologiyalardan mohirona foydalana olish;
- Qog‘ozlardan voz kechish;
- Onlayn ta’lim platformalaridan foydalana olish;
- O‘quvchilarni baholashning yangi texnikalaridan foydalana olish;
- Hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- Dars jarayonini ineraktivlashtirish. [1]

Yuqorida ta’kidlanganidek, kelajak o‘qituvchisi bo‘lish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydala olish mahorati katta ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalarning ta’lim jarayonida integrallashuvi, asosan, dars davomida o‘qituvchilar tomonidan foydalaniluvchi mavzuga oid taqdimot-slaydlar, interaktiv o‘yinlar hamda o‘quvchilar uchun beriladigan onlayn vazifalar orqali ko‘rinadi. [2] Aynan shular orqali ta’lim jarayonini raqamlashtirish hodisasi yuz beradi. O‘qitishda qog‘ozlardan ko‘ra ko‘proq texnik vositalar (noutbuk, planshet va h.k.)dan foydalanish ham kelajak ta’limining yana bir ko‘rinishidir. Ularga qo‘shimcha sifatida aytish

mumkinki, hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab onlayn ta’lim platformalari shakllantirilgan bo‘lib, ular ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan eng ommabop zamonaviy texnologiya hisoblanadi. Bu orqali o‘qituvchi hamda o‘quvchilar qator qulayliklarga ega bo‘ladilar. Jumladan, talabalarning o‘z ustilarida ishlashlari uchun mustaqil ta’lim soatlarining ko‘pligi; talabalarda fanlar tanlovi imkoniyatining mavjudligi hamda istalgan manzilda, istalgan sohada zaruriy ko‘nikmalarni o‘zlashtira olish uchun sharoit yaratilganligidir. Bundan tashqari, o‘qituvchilar uchun ham talabalarning akademik salohiyatlarini baholashning raqamlashtirilishi hamda talabalar bilan masofadan turib ishlay olish imkoniga egaliklari ushbu platformalar taqdim etuvchi qulayliklaridan biridir.

Kelajakda o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni istagan har bir o‘qituvchidan, albatta, o‘z ustilarida muntazam ishlashlari talab etiladi. Yillar davomida yangilanayotgan metodikalardan boxabar bo‘lish va dars jarayonida ularni qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirsh uchun o‘qituvchilar bir-birlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari hamda zaruriy bilimlarni ulashishlari maqsadga muvofiqdir. Bu dars jarayonlarining yanada qiziqarli hamda interaktiv o‘tishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Qo‘shimcha sifatida ta’kidlash lozimki, “yetuk kelajak o‘qituvchisi” bo‘lish uchun bo‘lajak mutaxassislarda yetarli qobiliyat va energiyaning mavjudligi ham zaruriy ahamiyat kasb etadi. Boisi, ulardan birinchi navbatda o‘quvchilarni o‘z fanlariga qiziqtira olish hamda ularning e’tiborlarini bir mavzu doirasida jamlay olish mahoratining bo‘lishi talab etiladi. [3]

Dars jarayoning qiziqarli va samarali o‘tishi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotning samimiy hamda hurmat doirasida bo‘lishiga ham bog‘liqdir. [4] Shu sababdan, kelajak o‘qituvchilarining yaxshi muloqot mahoratiga ega bo‘lishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan til topisha olishi dars jarayonining sifatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Yaxshi muloqot o‘rnatilgan muhitda sifatli ta’lim jarayoni tashkil etiladi.

Xulosa

O‘qituvchilik kasbi ulug‘ va sharafli, murakkab, o‘z o‘rnida mas’uliyatli kasblardan biridir. Dunyodagi barcha insonlarning komil bo‘lib yetilishiga o‘qituvchi sababchi bo‘ladi. Barcha joylardagi hamma kasb-hunar, ilmli, olim-u fuzalolar o‘qituvchi mehnatining samarasidir. O‘qituvchi mehnatini biror narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydi. O‘qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson o‘zida avvalo iroda, sabr-matonat, pedagogik mahoratni, o‘qituvchilik ixtisosligiga xos bilim, malaka, ko‘nikmalarni egallashi lozimdir. [5]. Mohir pedagogik qobiliyat va kuchli bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar chinakam “kelajak o‘qituvchilari” bo‘la oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.Renard. “8 essential skills of the teacher of the future”. Avgust, 2023
2. https://drexel.edu/soe/resources/student-teaching/advice/how-to-use-technology-in-the-classroom/
3. K.Ivens. “Future of teachers: What skills do we need?” Fevral, 2023
4. https://www.futureeducators.org/12-things-successful-teachers-do/
5. D.X.Aslanova., F.F.Salamov., Y.M.Xalikov. “Kasbiy kompetentlik”. Samarqand, 2020. B 10.

BO‘LAJAK PEDAGOG-TARBIYACHILARNI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ergashev Abdulloh,
Farg’ona Davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya fakulteti
o’qituvchisi
Ergasheva Nigoraxon,
Pedagogika va psixologiya yo’nalishi
4-kurs talabasi

Annotatsiya. *Maqolada hozirgi kunda dolzarb bo’lgan muammo aniqlandi, ya’ni "o'qituvchining ekologik madaniyati" tushunchasi va maktabgacha ta'lim muassasalarining bo'lajak o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik sharoitlar , tavsif va metodologiya ko’rsatib o’tilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchining ekologik madaniyati, maktabgacha ta'lim, pedagogik sharoitlar, ekologik madaniyatni rivojlantirish, metodologiya.*

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta’limni isloh qilish, unga yangicha yondashuvlarni olib kirish bilan birga ilg‘or xorijiy tajribani ham o‘rganish, rivojlangan davlatlarning kadrlar tayyorlashdagi pozitsiyasini tadqiq etish va samarador jihatdlarini mahalliylashtirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida takidlaganidek, «Avvalgi uchrashuvlarda ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi. Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani sababli ushbu sohadagi ishlar shaxsan Bosh vazirga yuklatilgan. Sizning e’tiboringizni quyidagi vazifalarni amalga oshirishga qarataman. Birinchi vazifa – maktabgacha ta’lim sohasida”.

Mazkur vazifani bajarish borasida joriy yil mobaynida maktabgacha ta’limni uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas, birlamchi bo‘g‘ini sifatida takomillashtirish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi «2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-son qarori qabul qilindi. Shu qaror bilan tasdiqlangan «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017 – 2021-yillarga mo‘ljallangan dastur»ning asosiy maqsadli vazifalari va yo‘nalishlari qatorida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-son qarorida mavjud tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta’lim sohasida davlat siyosatini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan sabablar ko‘rsatilgan, xususan: birinchidan, maktabgacha ta’limni boshqarishning amaldagi holati tizimli muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, mazkur sohada, shu jumladan, nodavlat sektorda zamonaviy innovatsion

texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermayapti; ikkinchidan, maktabgacha ta’lim sohasiga investitsiyalarni jalb qilishga, shu jumladan, ijtimoiy-hammabop maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish, ularni moddiy-texnika jihatidan qayta jihozlash va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy qilinmagan; uchinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnika bazasining amaldagi holati bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalari bilan to‘liq qamrab olishni ta’minlashga imkon bermayapti, mamlakatda aholi sonining o‘sishi ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarining haddan tashqari to‘lib ketishiga olib kelmoqda; to‘rtinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik (shu jumladan, o‘yinlar va o‘yinchoqlar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga joriy etish ishlari zamonaviy talablarga javob bermaydi; beshinchidan, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta’lim sohasini bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlay olmaydi; oltinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tizimining past darajada ekanligi malakali kadrlarni jalb qilish imkonini bermayapti; yettinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha hududiy sog‘liqni saqlash organlari ishini tashkil etishdagi kamchiliklar bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, shu jumladan, sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda. Qarorga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tizimini tanqidiy o‘rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha komissiya tashkil etilgan hamda uning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilangan:

● maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg‘un rivojlantirish sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish;

● mavjud amaliyot va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

O‘zbekiston Respublkasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan bolalar tarbiyasi jarayoniga o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘dakligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim, ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlod tarbiyasining birinchi va muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Mazkur yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tizimida ko‘pgina islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning barchasi tarbiyalanuvchilar va tarbiyachi-pedagoglar manfaatlari yo‘lida xizmat qilishi va maktabgacha ta’lim sifatini tubdan yaxshilashga qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar uning pedagogik jihatlarini tubdan yangilash, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim – tarbiya ishlarini yangi sifat pog‘onasiga ko‘tarish, shuningdek, jahon andozalariga mos kadrlarni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘ymoqda. Shu bois ham yosh avlodning aqliy ma’naviy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan hayotga tayyor shaxslar bo‘lib yetishishlari jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ularni tarbiyalovchi mutaxasislarni tayyorlashda nazariy va amaliy yondashuvni talab qiladi. Pedagog olim N.Muslimovning fikricha: “Amaliy pedagogik faoliyat muntazam o‘zgaruvchi yangilanuvchan, rivojlanuvchanlik bilan ajralib turadi, unga ijtimoiy buyurtma sifatida uzluksiz ta’sir ko‘rsatishni lozim” – deb ta’kidlaydi. Shunday ekan, bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish ularda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik asoslarni modernizatsiya qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni sifatli ta’lim bilan ta’minlash uchun ta’lim jarayonini modernizatsiyalash nihoyatda zarur hisoblanadi. Buning uchun bolani ijtimoiy

hayotga tayyorlashga xizmat qiladigan barcha pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish va o‘zaro mujassamlashtirish talab etiladi. Maktabgacha ta’limning sifati ta’limning keyingi bosqichlarida bolalarning bilimlarni sifatli o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarini modernizatsiyalashga oid yagona talablarni ishlab chiqish, ushbu talablar sifatli ta’lim va tayanch ko‘nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bu talablar asosida bolalarga ta’lim berish erta bolalik davridan boshlanadi va uzluksiz davom etadi. Maktabgacha ta’limni individuallashtirish tamoyili o‘zida bir qator talablarni mujassamlashtiradi. Bu esa o‘ziga xos tabiiy jarayon hisoblanadi. Jamiyatning rivojlanishi barobarida shaxs faoliyati ham ko‘proq darajada individuallashtiriladi va uning mavqei o‘zgaradi. Agar mamlakat va jamiyat qanchalik rivojlangan bo‘lsa, unda har bir inson alohida qadrlanadi va o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tavsiya xarakteriga ega bo‘ladi. Jamoatchilikning tasavvurida bolalar bog‘chasi ijtimoiy institut hisoblanmaydi. Shuning uchun ham u bolalarning qatnashi va muayyan bilimlarni o‘zlashtirishlari uchun qulay hisoblanadi. Modernizatsiyalash doirasida maktabgacha ta’limning sifati uzluksizlik nuqtai nazaridan yondashgan holda tahlil qilinadi. Bu jarayonda barcha bolalar uchun teng imkoniyatga ega bo‘lgan dastlabki bilim va tushunchalar shakllantiriladi. Buning uchun maktabgacha ta’limni modernizatsiyalash nihoyatda zarur hisoblanadi. Maktabgacha ta’limning yangi sifati manfaatdor taraflarning davlat buyurtmasiga javobi hisoblanadi. Buning uchun, birinchi navbatda, maktabgacha ta’limning sifati aniq namoyon bo‘lishi lozim. Sifatni baholashning boshqa variantlari ham mavjud. Agar ta’lim xizmatlari iste’molchilarida ta’limning yangi sifatiga ehtiyoj mavjud bo‘lmasa, pedagoglar modernizatsiyalashgan ta’lim sharoitida ishlash layoqatiga ega bo‘lmaydilar. Shuning uchun ham maktabgacha ta’limning yangi sifatiga bo‘lgan ehtiyoj modernizatsiyalashning harakatlantiruvchi omili hisoblanadi. Darhaqiqat, maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, barkamol avlod ta’lim tarbiya jarayonining tarbiyachilar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlashda tarbiyachilarning kasbiy mahorati hamda ularning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. От рождения до школы. Типовая образовательная программа дошкольного образования / сост. Арутюнян Л.Н., Сипачева Е.В., Губанова Н.В.; ДИППО. – Донецк: Истоки, 2015

2. Ashurova, O.A. (2021). AESTHETIC EDUCATION AS A FACTOR OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN A PEDAGOGICAL UNIVERSITY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 425-427.

3. Ashurova, O. (2021). Analysis of foreign experience on the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(10), 1478-1484.

4. Ashurova, O.A. (2021). SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(05), 46-52.

5. Ashurova, O. (2021, December). THE IMPORTANCE OF AESTHETICITY OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN THE ACTIVITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 88-90).

6. Anvarjonovna, A.O. (2021). Factors for the Development of Ecoesthetic Culture of Future Preschool Educational Professionals. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, *2*(5), 162-164.

7. Anvarjonovna, A. O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 2, pp. 254-258).

8. Anvarjonovna, A.O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 2, pp. 254-258).

9. Anvarjonovna, A.O. (2021). AESTHETIC CULTURE OF THE EDUCATOR. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences* (pp. 253-255).

10. Anvarjonovna, A.O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In *international conference on multidisciplinary research and innovative technologies* (Vol. 2, pp. 254-258).

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH VA HAYOTIY MAQSADLARNI BELGILASH

Maxamadjonov Jaxongir,
FarDU psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotasiya. *Mazkur maqolada bugungi kunda zamonaviy jamiyatda bo'lajak pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri o'z kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishidir. Bu pedagoglarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Ta'lim sifatini va samaradorligini takomillashtirish, ularning fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab dasturlar ustuvor vazifalar to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so'z va iboralar: *bo'lajak pedagoglar, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.*

Аннотация. *В данной статье одной из основных задач будущих педагогов в современном обществе сегодня является высокая профессиональная компетентность и интеллектуальный потенциал, лояльность, идейная убежденность и любовь к своей профессии. Это отличает педагогов от других профессий. Было высказано множество программ по повышению качества и эффективности образования, формированию практических навыков по предметам, мнения по приоритетным задачам.*

Ключевые слова и фразы: *будущие педагоги, новые разработки, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное образование, индивидуальные качества, всесторонне развитая личность, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методология.*

Abstract. *In this article, one of the main tasks of future pedagogues in modern society today is high professional competence and intellectual potential, loyalty, ideological conviction, and love for their profession. This distinguishes educators from other professions. Many programs on improving the quality and efficiency of education, forming their practical skills in subjects, and opinions on the priority tasks were expressed.*

Key words and phrases: *future pedagogues, new development, modern outlook, scientific-theoretical views, continuous education, individual qualities, well-rounded person, educational standards, civil society, scientific-methodology.*

Hozirgi zamon bo'lajak pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri o'z kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishidir. Bu pedagoglarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Ta'lim sifatini va samaradorligini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qarorlari va farmonlari qabul qilinib, ta'lim mazmunini, ta'lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalanish zaruriyati tug'ilmoqda.Talaba-yoshlarni zamon talablari asosida tarbiyalash va ularga jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda shakllanib

borayotgan fanlar asosida nazariy va amaliy bilim berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa o‘qituvchilar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Bugungi kundagi o‘qituvchi o‘zi dars beradigan fanning mohir ustasi, bilimdoni, ta’lim-tarbiya jarayonidagi har qanday muammoning yechimini topa oladigan, o‘z ustida doimo ijodiy ishlab, yangiliklar yarata oladigan, o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa oladigan, bir so‘z bilan aytganda zamon talabiga javob bera oladigan mutaxassis bo‘lishi lozim.

Ta’lim jarayonida o’quvchilarni hayotga tarbiyalash bugunning kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun, albatta, har bir pedagog o’quv jarayonini amaliy hayot bilan bog’lagan holda to’g’ri tashkil etishi zarur. Ta’limda nazariyani amaliyot bilan bog’lash prinsipi bu jarayoni yanada osonlashtiradi. O’quvchilarda onglilik va faollikni yuzaga keltirish, ularni o’z-o’zini baholashiga imkon yaratish hamda badiiy adabiyot na’munalarining asl mohiyatini o’quvchiga yetkazib berish ta’lim oluvchida hayot haqidagi ko’nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Shuning uchun bugungi kunda biz o‘qituvchi kompetentligi haqidagi fikrlarni takror va takror tilga olmoqdamiz. Barcha pedagogik va psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” so‘zining izohli ma’nosi berilib, ingliz tilidan olingan “competence” – tushungan, qobiliyatli ma’nosini anglatadi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” degan tushunchani anglatadi. Hozirgi kunda respublikamizda ro‘y berayotgan islohatlar bevosita innovatsion ta’lim tizimi bilan bog‘liqdir.

Bo‘lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o‘rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, ammo, bo‘lajak pedagoglarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi. Patti Drapeau o‘z asarida bir qator bo‘lajak pedagoglarda interfaollik va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘lgan yo‘l va metodlarni keltirib o‘tadi. Xususan:

- Veb-saytlar bilan ishlash;
- vizuallashtirish;
- barcha nuqtai nazarlarni inobatga olish;
- muhim g’oyalarni turli vaziyatlarda va o‘rinli qo‘llash (g‘oyani boshqa sharoitga ko‘chirish – transformatsiya);
- ramziylashtirish kabi yo‘llar;
- “Aqliy hujum”;
- “Keys-stadi” kabi metodlar.

Mazkur yo‘l bo‘lajak pedagoglarni muammoni echish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan: “Yurak va qon aylanishi tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish” (Isaksen & Treffinger, 1985). Topshiriqni bajarar ekan, bo‘lajak pedagoglar odamning qon aylanishi tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.

2019-yil 23-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev respublikamiz xalq ta’limi xodimlari bilan qilgan muloqotida “…bugungi ustoz shogirdlarini o‘z orqasidan ergashtira olishi lozim, agar ergashtira olmasa u ustoz emas,” degan fikrlarni ta’kidlab o‘tdilar.

Demak, bugungi ustoz o‘z shogirdlari oldida tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib, har doim tetik, g‘ayratli, o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishongan bo‘lishi lozim. Kasbiy faoliyatga (kompetent) ega bo‘lish uchun esa quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

a) kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;

b) yangidan-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;

c) hamkorlik bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish.

O‘qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o‘qituvchining salomatligiga ham muhim talablar qo‘yiladi. O‘qituvchining ovoz paychalari yaxshi rivojlangan, ko‘rish qobilyati yaxshi bo‘lishi, uzoq vaqt tik tura olishi va o‘quvchilar bilan chiroyli muloqatga kira olishi lozim. Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari’’ asarida ham o‘qituvchining nutq gigiyenasiga doir maslahatlar bergan: “Uzoq muddat davomida qattiq tovush bilan baqirish ko‘p miqdorda havoni tashqariga chiqarishni talab qiladi. Bularning har ikkisi ham xavflidir’’. Jamiyatda ro‘y berayotgan barcha islohotlar, ta’limning yangi bosqichlarga ko‘tarilishi, ilm-fan texnikasining jadal rivojlanishi, eng asosiysi yurtimizda ijod va Prezident maktablarining tashkil etilishi ham ta’lim tizimidagi innovatsiyalar hisoblanadi. Shuningdek, bugungi pedagog nafaqat ta’lim beruvchi, balki shu bilan bir qatorda tarbiyachi hamdir.

Bugungi kunda ta’lim mazmunida modernizatsiya ishlari, ya’ni DTSda, o‘quv rejasida va fan dasturlarida ham islohatlar olib borilmoqda. Bugungi zamon o‘qituvchisi yuqoridagi islohatlarni ham hisobga olishi zarur. Pedagogning kreativligi haqida fikr yuritganda biz standart va nostandart ta’lim shaklida ham fikr yuritmoqdamiz. Standart – bu ta’lim mazmuniga mos shakldir, bunda o‘qituvchi subyekt, o‘quvchi, tinglovchi obyekt sifatida faoliyat olib boradi. Nostandart ta’lim shaklida o‘qituvchi ham o‘quvchi, tinglovchi ham subyekt sifatida faoliyat olib boradi, o‘qituvchi ta’lim jarayonida mustaqil qarorlar chiqarishi mumkin bo‘ladi. O‘qituvchining kompetentligida kasbiy bilim va madaniyat tushunchalarini to‘g‘ri tahlil qilishi lozim. Kasbiy bilim – bu o‘qituvchinig o‘z sohasini mukammal bilishi bo‘lsa, madaniyat tushunchasida uning nutq madaniyati, estetik va boshqa tomonlari namoyon bo‘ladi. Kreativlik qobiliyatiga ega mutaxassis o‘z bilimini izchil boyitib borishi, yangilikka intiluvchan mahorat egasi bo‘lishi lozim. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi kompetentligini ta’minlaydi. Ta’lim tizimini boshqarish orqali har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishish maqsadida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, zamonaviy axborot vositalari yordamida video darsliklar, multimedialar ishlab chiqarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg’unlikni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda yoshlar, o’quvchilarning qobilyatlari, iste’dodlari, ichki imkoniyatlari o’ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Kishi dunyoga kelgandan so’ng, avvalo, uning ota-onasi, farzandini unib-o’sishini , kamol topishini istaydi. Kelajakda esa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib shu yurtning biror koriga nafi tegadigan barkamol avlod sifatida ulg’ayadi.

Hozirgi vaqtga kelib dunyo aholisining soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tug’ilgan bolalarning aksariyatida esa turli xil nuqsonlar kuzatilmoqda. Ushbu holatlarning kelib chiqishiga sabab bo’lgan bir qancha omillar mavjud. Jumladan, ekologik holatning yomonlashuvi, turmush qurishda yo’l qo’yilgan xatolar va sog’lom turmush tarziga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelmoqda. Lekin hozirgi vaqtga kelib davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ushbu turdagi shaxslarga ham keng yo’l ochdi. Maxsus maktablar hamda inklyuziv ta’limning to’gri yo’lga qo’yilganligi, ularga ta’lim-tarbiya berish jarayoni davlat standartlariga javob bera oladigan darajada shakllanib bormoqda Ta’lim jarayonida o’quvchilarni hayotga tarbiyalash bugunning kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun, albatta, har bir pedagog o’quv jarayonini amaliy hayot bilan bog’lagan holda to’g’ri tashkil etishi zarur. Ta’limda nazariyani amaliyot bilan bog’lash prinsipi bu jarayoni yanada osonlashtiradi. O’quvchilarda onglilik va faollikni yuzaga keltirish, ularni o’z-o’zini baholashiga imkon yaratish hamda badiiy adabiyot na’munalarining asl mohiyatini o’quvchiga yetkazib berish ta’lim oluvchida hayot haqidagi ko’nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilarni tashvishga solayotgan muammolardan biri – o’quvchida qanday qilib bilim olishga bo`lgan doimiy qiziqishni rivojlantirish va ularning mustaqil izlanishiga bo'lgan ehtiyoj, boshqacha qilib aytganda, o'quv jarayonida bilish faoliyatini qanday faollashtirish kerakligi. Maktab ta'limining davlat, jamiyat va oila oldiga qo'ygan maqsadlari, ma'lum bir bilim va ko'nikmalarni to'plashdan tashqari, o‘quvchining salohiyatini ochib berish va rivojlantirish, uni amalga oshirish uchun

qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. O`quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish orqali o`quvchilarni hayotga tayyorlashga katta e`tibor qaratmoq lozim. Yaxshi natijalar ko`rsatish uchun hech bo`lmaganda o`qituvchi ikki maqsadga ega bo`lish kerak: Birinchisi, o`qituvchilar va ular ishlaydigan va foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir.

1. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini tashxis etish.
2. Ta`lim va tarbiya jarayonining mohiyati.
3. Ta`lim va tarbiyaning asosiy funktsiyasi.
4. Didaktika va tarbiya jarayoning asosiy kategoriyalari.
5. Ta`lim-tarbiya jarayonida o`qituvchi va talabaning hamkorligi.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, pedagogik mahorat haqida umumiy ma`lumot, bilim, ko`nikma va malakalarni puxta egallab olishga imkon yaratib beradi. Shuningdek, maktab amaliyotida va pedagogik fikr tarixida o`qituvchining mahorati masalalari, pedagogika qobiliyat, o`qituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot madaniyati va o`quvchining psixologik faoliyati, pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari, darsda va tarbiya jarayonida o`qituvchi mahorati, o`qituvchi mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari, pedagogik tajriba orttirishi, tadqiqot metodlari; hozirgi Ta`lim muassasalarida ilg`or pedagogik g`oyalar, tajriabalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo`llari, pedagogik mahorat taraqqiyoti tarixi, mustaqil malaka oshirish va o`z-o`zini nazorat qilish o`quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, o`qituvchi faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslarini o`rganish, tahlil etish to`g`risida Boshlang`ich ma`lumotlar berishni nazarda tutadi. Pedagogik mahorat fani yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini,pedagogik texnikani egallashini, shuningdek, pedagogik shaxsi uning tajribasi, fuqaro`lik va kasbiy mavqeini o`rgatadi. «Pedagogik mahorat» fani «Pedagogika nazariyasi va tarixi», «Yosh pedagogikasi va psixologiyasi», «Tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Pedagogik texnologiya»lar bilan birgalikda bilim va malakalar tizimini yaratadi. Pedagogik mahorat fanining maqsadi bo`lajak o`qituvchiga hozirgi zamon pedagogika sohasidagi dolzarb muammolarni, o`qituvchi shaxsi va kasbi haqidagi bilim va malakalarni hamda har bir tarixiy bosqichda ta`lim – tarbiya tizimi, ijtimoiy-pedagogik fikrlar, ta`lim-tarbiya mazmuniga ijodiy munosabatda bo`lishini o`rgatadi. Pedagogik mahorat fanining predmeti – «ta`lim to`g`risida»gi qonun va «kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqib, o`z sohasini mukammal egallagan, bilimdon, axloqan pok, ma`nan etuk, jismonan sog`lom bo`lgan pedagoglarni tarbiyalashdir.

Xulosa qilib aytganda maktab o’quvchilarida hayotiy ko’nikmalarni rivojlantirish va hayotiy maqsadlarni belgilashning asosiy yo’nalishlaridan biri bu bo'lajak pedagoglarni o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Demak, bo'lajak pedagoglarni o'quvchilarda avvalo o’zining mustaqil fikriga ega bo’lishi, o’z-o’zini boshqara olishi ham juda muhim sanaladi. Ularda hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish uchun kasb hunarga o’rgatish, mehnatkash, sabr toqatli, qat’iyatli va tirishqoq qilib tarbiyalash o’quvchilarda hayotiy maqsadlarini belgilashda ancha qo’l keladi. Shu bilan bir qatorda mustaqil shug’ullanishlari uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati ham rivohjlangan bo’lishi kerak. Ko’proq badiiy adabiyotlar mutolaa qilishi asosiy mezonlardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

2. Raximovna, S.A. (2022). Development of Gender Culture. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, *16*, 88-92.

3. Сайдуллаева, А.Р. (2022). НАЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(18), 705-711.

4. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *湖南大学学报 (自然科学版), 48*(8).

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY FAOLLIGIDA CHINIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ergasheva Ozoda Asqar qizi,
Farg'ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti
Jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini o'qitish metodikasi
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
Email: oergasheva9430@gmail.com
Abdumalikova Mehruzabonu Sharofjon qizi,
Farg'ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat
fakulteti 2-bosqich talabasi

Qadimgi filosoflar "Kishini hushsizlantiruvchi va sog'ligiga shikast yetkazuvchi narsa uzoq vaqt jismoniy harakat qilmaslikdir", degan fikrni bayon etganlar. Buyuk hakim Abu Ali ibn Sinoning: "Badantarbiya – sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir", degan o'gitlari har qanday insonning hayotiy shioriga aylansa jamiyatimizdagi turli kasalliklarga chalinish va ularning oldini olishga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan bo'lar edi.

Jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi inson salomatligini asrash va yaxshilashdir. Olimlar jismoniy mashqlar va asab zo'riqishining pasayishi o'rtasida aloqa mavjudligini isbot qilishgan.

Organizmni jismoniy sog'lomlashtirish usullari turli-tuman bo'lib, har bir oliy ta'lim muassasasi talabalari o'z imkoniyatidan va intilishidan kelib chiqqan holda, o'zi uchun qulay bo'lgan turlarini tanlab olishi va muntazam ravishda shug'ullanishi lozim. Jismoniy sog'lomlashtirishning maxsus usullari va jismoniy faollikning oddiy usullari mavjuddir:

Jismoniy faollikning oddiy usullari.

1. Ertalabki gigienik mashqlar.
2. Organizmni jismoniy chiniqtirish.
3. Sog'lomlashtiruvchi yugurish.

Salomatlikni mustahkamlash va tanani chiniqtirish insonning turli kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. Salomatlikni mustahkamlashga esa muntazam jismoniy mashqlar orqali erishish mumkin. Jismoniy sog'lomlashtirish usullari orasida keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan turi – bu ertalabki gigiyenik gimnastika mashqlaridir.

Buning uchun zarur bo'lgan shartlar qatoriga talabalarning har kuni ertalab belgilangan rejim asosida o'rnidan turish, uy havosini almashtirish, mashqlarni bajarishda chuqur va to'g'ri nafas olishni nazorat qilish zarur.

Ertalabki gimnastika mashqlarini tuzishda uning tarkibiga:

- Tananing tortilishi bilan bog'liq mashqlari;
- Yurish mashqlari;
- Bo'yin, yelka, va qo'l mushaklari uchun mashqlar;
- Tana va qorin mushaklari uchun mashqlar;
- Oyoq mushaklari uchun mashqlar (o'tirib-turish va sakrash);
- Zo'riqib ishlashga majbur qiluvchi mashqlar;
- Bo'shashtiruvchi mashqlar;
- Nafas mashqlarini kiritishga e'tibor berish lozim.

Ertalabki gimnastika mashqlarini samaradorligini oshirish maqsadida: gantel, gimnastika tayoqchasi, sakratuvchi ip, to'p va boshqalardan foydalanish tavsiya etiladi. Katta yoshdagilarda

mashg'ulotlardan so'ng yurak urishi har daqiqada 90 – 100, bolalarda esa, 100 – 110 bo'lishi me'yoriy holat hisoblanadi. Davomiyligi 15 – 20 daqiqadan oshmaydigan mashg'ulotlarni tugatgach, suv muolajalarini qabul qilish tavsiya rtiladi.

Chiniqish uchun tibbiy qarshiliklar yo'q, o'tkir bezgakli kasalliklar bundan istisno. Yuqori yoki past haroratlar ta'sirida inson organizmida fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Chiniqish tufayli markaziy asab tizimining qo'zg'aluvchanligi pasayadi, ichki sekretsiya bezlarining faoliyati kuchayadi, hujayra fermentlarining faolligi oshadi. Bularning hammasi organizmning tashqi muhit sharoitlariga chidamliligini oshiradi.

Chiniqtirishning ta'siri uncha uzoq bo'lmaydi, u faqat organizmni chiniqtirish paytida va undan keyin ozgina muddat davom etadi, shuning uchun chiniqtirish doimiy va izchil bo'lib, u bilan har kuni shug'ullanish kerak.

Chiniqtiruvchi chora-tadbirlar umumiy (to'g'ri kun tartibi, oqilona ovqatlanish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish) choralarga bo'linadi. Uning yordamida ko'pgina kasalliklardan xalos bo'lib, umrini uzaytirish va uzoq yilar davomida mehnat layoqatini, hayotdan mamnunligini saqlab qolish mumkin. Chiniqtirishning ayniqsa, shamollash kasalliklarining oldini olishda ahamiyati juda katta. Chiniqtiruvchi amallar shamollash kasalliklarining sonini 2 – 4 baravar kamaytiradi, ayrim hollarda esa umuman ulardan xalos bo'lishga yordam beradi.

Agar talabalar o'z faoliyatlaridan kelib chiqib, o'z sog'ligi talablariga ko'ra jismoniy mashq qilish imkoniyatiga ega bo'lmsa, uning o'rniga piyoda yurishlari kerak. Piyoda yurishni avval kuniga 2 – 3 km. dan boshlab keyinchalik esa 10 – 15 km.ga oshirishi mumkin. Ochiq havoda piyoda sayr qilish odamning ish qobiliyatini oshiradi, organizmni chiniqtiradi.

Sog'lomlashtiruvchi yugurish tana a'zolarini zo'riqib ishlashga majbur qiladi. Mashg'ulotni tez yurish bilan boshlab, keyinchalik yugurish mashqiga o'tiladi. Dastlab yugurish tezligi 1 km masofani 6 – 7 daqiqada bosib o'tish va 300 metr masofani 8 – 9 daqiqa davomida tez yurish bilan barobariga va haftasiga, kamida 3 marotaba bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'zDJTI, 2005. – 300 b.

2. Ашмарин Б.А. Теория и методика исследований в физическом воспитании: Учебное пособия для студ.аспир. и препод. ин-тов физ. культури. М., фис, 1978. – 223 с.

3. Saidov B.M. Sport tibbiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 479 b.

ADDRESSING CONTEMPORARY CHALLENGES IN TRAINING FUTURE TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Karimjonova Shahlo,
Fergana state university

Abstract. *The preparation of future educators is crucial for the advancement of society and the enhancement of educational systems worldwide. However, the training of future teachers in higher education institutions faces numerous challenges in the contemporary landscape. This article explores the current issues surrounding the training of future teachers and offers insights into potential solutions to address these challenges. Drawing upon existing literature and research findings, this article highlights the need for innovative approaches and comprehensive strategies to effectively train future educators.*

Keywords: *Future teachers, Higher education institutions, Training, Challenges, Solutions.*

The role of teachers in shaping the future of education and society cannot be overstated. Higher education institutions play a pivotal role in preparing future educators who possess the knowledge, skills, and competencies necessary to excel in diverse educational settings. However,

the training of future teachers is confronted with various challenges in today's dynamic educational landscape. This article aims to identify and analyze the current problems encountered in the training of future teachers in higher education institutions and proposes potential solutions to address these challenges.

Challenges in Training Future Teachers: Technological Integration: With the rapid advancement of technology, future teachers must be equipped with digital literacy skills and the ability to integrate technology into their teaching practices. However, many higher education institutions struggle to provide adequate training in this area, resulting in a digital skills gap among future educators.

Diverse Learning Needs: Today's classrooms are increasingly diverse, encompassing students with varying learning needs, backgrounds, and abilities. Future teachers must be prepared to effectively cater to this diversity; however, traditional teacher training programs often lack sufficient emphasis on inclusive education practices and culturally responsive teaching strategies.

Pedagogical Innovation: The traditional lecture-based approach to teacher training may not adequately prepare future educators for the demands of modern classrooms. There is a growing need for innovative pedagogical methods that foster active learning, critical thinking, and problem-solving skills among future teachers.

Globalization and Cultural Competence: In an increasingly interconnected world, future teachers must possess cultural competence and an understanding of global perspectives. However, many teacher training programs lack sufficient emphasis on multicultural education and international experiences, hindering the development of culturally responsive educators.

Mental Health and Well-being: The teaching profession can be emotionally demanding, with high levels of stress and burnout reported among educators. Future teachers must be equipped with the necessary coping mechanisms and support systems to maintain their mental health and well-being; however, training programs often overlook this aspect of professional development.

Solutions to Address Challenges: Integrating Technology: Higher education institutions should prioritize the integration of technology into teacher training programs, offering courses and workshops on digital literacy, educational software, and online teaching methodologies.

Promoting Inclusive Education: Teacher training programs should incorporate modules on inclusive education practices, cultural competence, and strategies for accommodating diverse learning needs, ensuring that future educators are prepared to create inclusive learning environments.

Fostering Pedagogical Innovation: Higher education institutions should encourage the adoption of innovative pedagogical approaches, such as project-based learning, flipped classrooms, and experiential learning, to enhance the effectiveness of teacher training programs.

Emphasizing Global Perspectives: Teacher training programs should provide opportunities for international experiences, cultural immersion, and collaboration with educators from diverse backgrounds, fostering a global mindset among future teachers.

Supporting Mental Health: Higher education institutions should prioritize the well-being of future teachers by offering resources and support services for stress management, self-care, and resilience building, promoting a healthy work-life balance in the teaching profession.

Conclusion: The training of future teachers in higher education institutions is confronted with numerous challenges in the contemporary educational landscape. However, by embracing innovative approaches and comprehensive strategies, higher education institutions can effectively prepare future educators to meet the diverse needs of students and excel in the teaching profession. It is imperative for policymakers, educators, and stakeholders to collaborate in addressing these challenges and ensuring the quality and relevance of teacher training programs in the 21st century.

References:

1. Barron, B.J., & Gomez, K. (2016). Digital Literacies for Future Teachers: Developing Pedagogical Practices and Technological Knowledge. Journal of Technology and Teacher Education, 24(1), 5-28.
2. Gay, G. (2018). Culturally Responsive Teaching: Theory, Research, and Practice (3rd ed.). Teachers College Press.
3. Hattie, J. (2017). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement (2nd ed.). Routledge.
4. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.
5. National Association for Multicultural Education. (2019). Multicultural Education: Issues and Perspectives (10th ed.). Wiley.
6. Powers, M., & Rossman, M. (2020). Teaching Teachers: A Framework for Professional Development (2nd ed.). Harvard Education Press.

KELAJAK O‘QITUVCHISI FENOMENI

Boydavlatov Azamat Ahmadali o‘g‘li,
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
e-mail: azamatboydavlatov77@gmail.com
tel:+998913649964

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kelajak o‘qituvchisi shaxsi qanday bo‘lishligi, qo‘yiladigan talablar, egallanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar va shu kabi masalalar bo‘yicha subyektiv fikrlar aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kelajak o‘qituvchisi, ilm, kompetensiya, tajriba, mahorat, qobiliyat, texnologik mahorat, kreativlik.*

Annotation. *This article reflects subjective opinions on how the personality of the future teacher is divided, the requirements to be put, competencies to be occupied and similar issues.*

Key words: *teacher of the future, science, competence, experience, skill, ability, technological skill, creativity.*

Аннотация. *В данной статье отражены субъективные мнения о том, какой должна быть личность будущего педагога, предъявляемые требования, компетенции, которые необходимо приобрести, и тому подобное.*

Ключевые слова: *будущий учитель, наука, компетентность, опыт, мастерство, способности технологичность, креативность.*

KIRISH

XXI asr qator sohalar singari ta’limda ham jadal rivojlanishni boshdan kechirayotgan davr hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot, o‘zgaruvchan ijtimoiy muhit va rivojlanayotgan pedagogik nazariyalar fonida ta’lim manzarasi ham tobora mukammallik kasb etmoqda. Ushbu dinamik muhitda o‘qituvchilarning roli ham rivojlanib bormoqda va bu tabiiyki, kelajakdagi ta’limga oid muammolarni hal etish hamda pedagogik jarayonlarni samarali boshqarish bo‘yicha yangi ko‘nikma va malakalarni talab qiladi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda, ushbu maqolada rivojlanayotgan ta’lim muhitida muvaffaqiyat qozonish uchun pedagoglarga zarur bo‘lgan muhim fazilatlar, rollar va strategiyalarni belgilab beruvchi zarur mavzular yuzasidan fikr bildirmoqlikni joiz deb topdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kelajak o‘qituvchisi fenomeni ko‘pchilik pedagoglar uchun qiziq va dolzarb mavzu hisoblanib, ilmiy soha vakillari tomonidan bu bo‘yicha qator maqolalar, tezislar nashr ettirilmoqda. Ushbu mavzuni yoritishda aynan mana shu kabi manbalarga bevosita murojaat

etdikki, bu ham bo‘lsa o‘rganilganlik darajasini tahlil etgan holda hali e’tibor berilmagan nuqtalari bo‘yicha fikrlar bildirish, tavsiyalar berish va mavzuni kengroq muhokama qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida ilmiy, nazariy, uslubiy adabiyotlar, xorij va o‘zbek olimlarining qator ilmiy maqolalari, tezislari va adabiyotlarini nazariy tahlili va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, qiyosiy-pedagogik tahlil va suhbat asosida malakali soha vakillari bilan fikr almashish kabi metodlardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Kelajak o‘qituvchisi shaxsi pedagoglar va bo‘lajak pedagoglar uchun kasbiy ideal vazifasini bajarishi lozim. Bu shaxsiyatni hosil qilishda jamiyat, ta’lim, ilm-fan, pedagogika, didaktika, psixologiya, zamonaviy axborot texnologiyalari kabi bir qator sohalarning ilg‘or yutuqlarini o‘rganish, tahlil qilish va bu sohalar bo‘yicha yetarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lgan holda bu bilimlarni bir nuqtada birlashtirish talabi qo‘yiladi. Kasbiy va shaxsiy yetuklik kelajak o‘qituvchisi fenomenining asosiy shartidir.

Tadqiqot davomida kelajak o‘qituvchisi siymosida aks etishi lozim bo‘lgan qator sifatlarni ikki guruhga bo‘lgan holda ishlab chiqdik.

Birinchisi o‘qituvchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsiyatida mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan xislatlari. Bular:

- O‘z kasbiga bo‘lgan yuksak muhabbat;
- Kasbiy mas’uliyatni his qila olish;
- O‘quvchilarni yaxshi ko‘rish;
- Vatanparvarlik;
- Ijtimoiylashuvchanlik;
- Mehribonlik;
- Samimiylik;
- Mehnatsevarlik, tirishqoqlik;
- Kamtarlik, go‘zal xulq va odobga ega bo‘lish;
- Sabrli, matonatli va irodali bo‘lishi;
- O‘z ustida doimiy ishlashi;
- Sof vijdon, mustahkam e’tiqod, odamiylik sifatlarga ega bo‘lish;

Ikkinchisi esa bevosita pedagogik mahoratiga, kasbiy malakalariga qo‘yiladigan talablar. Bular:

- **Texnologik mahorat:** raqamli texnologiyalar asrida o‘qituvchilar talabalarni o‘qitish va o‘zi ham yangi bilimlarni o‘rganishi, tajribalarini oshirishi uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda yetarlicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bular qatoriga raqamli vositalar, ta’limni boshqarish tizimlari va multimedia resurslaridan foydalanish malakasi kiradi.

- **Moslashuvchanlik** (ta’lim muhitiga): ta’limdagi tez sur’atlardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, kelajak o‘qituvchilari yangi pedagogik yondashuvlarni, ilmiy yangiliklarni va texnologik yutuqlarni qabul qilish uchun moslashuvchan harakter sohibi bo‘lishi kerak.

- **Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish:** o‘qituvchilar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi, ularni ma’lumotni tanqidiy tahlil qilishga, muammolarni ijodiy hal qilishga va asosli qarorlar qabul qilishga o‘rgata olishi va o‘zi ham ushbu darajaga ega bo‘lishi kerak.

- **Muloqot qobiliyatlari:** talabalar bilan samarali muloqot munosabatlarini o‘rnatish, ijobiy o‘quv muhitini tashkil etish va rivojlantirish, shuningdek, hamkasblar, ota-onalar bilan hamkorlik qilish uchun juda muhimdir.

- **Madaniy kompetensiya**: pedagogik jarayonda o‘qituvchilar talabalarning kelib chiqishi, e’tiqodi, ijtimoiy holatini tushunishi va hurmat qilishi uchun madaniy malakaga ega bo‘lishi kerak. Chunki, ta’lim muassasalarida turli millatga mansub o‘quvchilar tahsil olishadi. Bu jarayonda barcha uchun birdek munosabatda bo‘lish muhimdir. Bundan tashqari, yurtimiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim keng qamrovga ega bo‘lib bormoqda. Anomal bolalar bilan ishlashda ilmiy bilimlar bilan bir qatorda madaniy kompetensiya ham alohida o‘ringa ega.

- **Jamoaviylik:** o‘qituvchilar fanlararo loyihalarni ishlab chiqish, ilg‘or tajribalarni baham ko‘rish va muammolarni birgalikda hal qilish uchun hamkasblari, ma’murlari va boshqa tadqiqotchilar bilan samarali hamkorlik qilishlari kerak.
- **Ijodkorlik va innovatsiya:** o‘qitish jarayonlarida ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirish talabalarni ma’lum doiradan tashqarida fikrlashga, yangi g‘oyalarni o‘rganishga va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam bera olishi lozim.
- **Xorijiy tillarni bilish:** o‘z kasbida kamolotga erishish uchun xalqaro tajribalardan xabardor bo‘lish, rivojlangan davlatlardagi ta’limiy yutuqlarni o‘rganish uchun xorijiy tillar bilish bo‘yicha darajaga ega bo‘lishi muhimdir. Bu o‘qituvchining personal rivojlanishiga turtki bo‘ladigan omillardan biri hisoblanadi.
- **Kreativlik:** O‘qituvchi uchun eng muhim sifatlardan biri. Dars jarayonini tashkil qilishda, o‘quvchilarga yangi bilimlarni berishda, an’anaviy uslubdan voz kechib noodatiy tarzda mashg‘ulotlarni olib borishda ushbu jihat alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan jihatlar takomillashib borayotgan ta’lim muhitida o‘quvchilarni yetarli bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularni raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlashda muhim o‘ringa ega. Ko‘rsatib o‘tilgan har bir jihat pedagog faoliyatida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, pedagogik jarayonni samarali tashkil qilishda va yuqori natijaviylikka erishishda muhim sifatlar hisoblanadi. Shu o‘rinda qo‘shimcha qilish lozimki, o‘qituvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning malakasini, ilmiy dunyoqarashini yanada takomillashtirish uchun mahalliy va xalqaro stajirovkalar tashkil qilish ham muhim sanaladi. Chunki, yuqori sur’atda rivojlanib borayotgan bu davrda ilm-fan yangiliklaridan doimiy xabardor bo‘lish, fikrlar va tajriba almashish, sohadagi so‘ngi ta’lim texnologiyalaridan nasibador bo‘lish uchun bu kabi tashkil etilishi lozim bo‘lgan ilmiy xalqalar zarurdir. Shuningdek, ta’lim muassasalari tomonidan mahalliy va xalqaro konferensiyalar tashkil etish, bunga pedagog xodimlar ishtirokini to‘liq qamrab olish, respublikamizda yoki xalqaro miqyosda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yuqori saviyali soha mutaxassislari bilan onlayn yoki oflayn uchrashuvlarni muntazam ravishda, aniq grafik asosida tashkil etib borish ham yaxshi samara berishini ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, istalgan bir jamiyat rivojini ta’minlab beruvchi eng muhim omil – bu ta’lim hisoblanadi. Intelekti yuqori farzandlar esa davlatning eng katta boyligidir. O‘qituvchilar esa bu kabi yoshlarni qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim richag sanaladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, yuqori malakali o‘qituvchilar jamiyat taraqqiyotiga bevosita daxldor shaxsdirlar. Bu esa salohiyatli kelajak o‘qituvchisini yetishtirish masalasini yanada dolzarblashtiradi. Demak, soha vakillari zimmasida doimiy ravishda o‘z ustida ishlagan holda bilim sarhadlarini kengaytirib, jahon miqyosida ham raqobat taklif qila oladigan, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilguvchi ilmli farzandlarni tarbiyalashdek muhim masala turibdi. Bu yo‘lda ushbu maqolamizda keltirilgan ma’lumotlar, sharxlab o‘tilgan fikrlar kelajak o‘qituvchisi fenomenini gavdalantirishda kerakli manbalardan biri sifatida xizmat qiladi degan umiddamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botirova Sh.I. Kelajak o‘qituvchisi shaxsining professiogrammasi. *Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar. Xalqaro konferensiya. Chirchiq, Uzbekistan,* 2021-y.

2. Mukhamedov, G.I., Khodjamkulov, U.N., Shofkorov, A.M., & Makhmudov, K.S. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 250-257.

3. Materialы nauch. sessii APN RSFSR, posvyaщyonnoy 300-letiyu opublikovaniya sobraniya didakticheskix trudov Ya.A.Komenskogo (13 – 14-dekabrya 1957 g.), M., 1959.

4. Safarova D.Q. Kelajak o‘qituvchisi konsepsiyasi: hayotiy vaziyatlarga moslashish talablari. *Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar. Xalqaro konferensiya. Chirchiq, Uzbekistan,* 2021-y.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich,
NamDU doktoranti
Xolmirzayeva Diyora Fazliddin qizi,
NamDU Pedagogika va psixologiya
yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchi o‘zi kim va unga qanday talablar qo‘yilishi kelajak pedagoglarini tayyorlashda nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida ma’lumot va tavsiyalar berildan.*

Kalit so‘zlar: *pedagog, darslik, ta’lim, tarbiya, ma’rifat, ilm.*

Mamlakatimizda yildan-yilga xalq manfaatlariga qaratilgan qonun, qaror, farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan 2023-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra:

Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

– 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar yaratish;

– yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratish;

– ta’lim tashkilotlariga har yili 500 nafar “til egalari” bo‘lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

– barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslarini joriy etish;

– prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta’lim metodikasini barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonlariga joriy qilish nazarda tutilgan [1,5].

Hozirda zamonaviy pedagog yuksak madaniyatli, notiq, o‘quvchilarni sevuvchi, mehribon, ijodkor, o‘z fanini chuqur biluvchi, psixolog, zamonaviy texnikalardan foydalana oluvchi, qobiliyatli shaxs bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda bizning buyuk bobolarimizning fikrlarini eslab o‘tishni joiz deb bildik. «O‘qituvchi, – deydi Forobiy, – aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi», – deb ta'kidlaydi. Ko‘plab sharq mutafakkirlarimiz o‘qituvchi haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Mutafakkirlarimiz ushbu fikrlarni bildirar ekan o‘qituvchining har bir jihatiga e’tibor berishgan. Hozirgi kunda ham, bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash mobaynida uning har bir jihatiga e’tibor beriladi. O‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi uning pedagogik faoliyatida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uning faoliyatining asosiy yo‘nalishlari – pedagogik faoliyat to‘g‘ri, pedagogik muloqot va uning shaxsiy fazilatlari – bularning barchasi bir-biriga bog'liq va bir-biriga ta’sir qiladi. O‘qituvchining shaxsiy tarkibidagi asosiy tarkibiy qism sifatida ko‘rsatiladigan o‘qituvchining faoliyati, uning sub’ektiv pozitsiyasi (A.K.Markova fikriga ko‘ra) ularning rivojlanishiga alohida ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, o‘qituvchilik kasbi yuksak sharafli kasbdir. Bu kasb hech bir kasbga o‘xshamaydi. Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o‘qituvchilik kasbiga juda yuqori baho berib, unga shunday ta’rif beradi: „Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni,quvnoq yoki jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin“. Bu ta’rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki, pedagog har tomonlama mukammal, o‘quvchilar uchun ideal shaxs bo‘lishi lozim. Hattoki, pedagogning kiyinishi ham bolalarni tarbiyalashi lozim.

Hozirgi zamonda ayniqsa, kiyinish odobi dolzarb muammolardan biri bo‘lmoqda. XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri deb, G‘arb mamlakatlarining ma’daniyati va kiyinish odobining mamlakatimizga kirib kelishi va bunga yoshlarimizning ko‘pchiligi ushbu yo‘nalishda borishini misol keltirsak bo‘ladi. Kelajakda o‘qituvchi bo‘lib yetishadigan yoshlarimizni kiyinish odobiga alohida e’tibor berishimiz lozim. Biz ularni asta-sekinlik bilan o‘qituvchi nomiga musonib tarzda, kiyinish odobidan tortib, muomala madaniyatigacha tarbiyalashimiz lozim. Bundan tashqari, har bir o‘qituvchi o‘zini kasbidan tashqari boshqa fanlarni ham bilishi darkor hozirgi zamonda. Chunki ko‘p fanlar bir-biri bog‘liq bo‘lmoqda. O‘qituvchi o‘quvchilar beradigan har qanday, qanday savol bo‘lishiga qaramay o‘quvchining savoliga to‘g‘ri javob bera olishi kerak. Zamonaviy pedagog o‘z fanini chuqur bilishi, pedagogik mahoratga ega bo‘lishi bilan birgalikda chet tillarini ham bilishi lozim. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ham ingliz tilini hech bo‘lmaganda mukammal darajada bo‘lmasa ham qisman bilishi kerak. Sababi boshlang‘ich sinflarning yangi nashrdan chiqqan matematika darsliklarida o‘lchov birliklari ingliz tilida kiritilgan. O‘qituvchi bolaga buni tushuntira olishi kerak, buning uchun albatta ingliz tilidan xabardor bo‘lishi lozim. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va smart doskalar bilan ishlash uchun ham til bilimdonligi pedagog uchun zarur. Biz uchun yaratilayotdigan shuncha shariotlar biz yoshlar to‘g‘ri foydalanib, kelajakgmiz uchun yetur kadrlar bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoniga 1-ilova.

2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent, 2011.

3. Dilrabo Ibrohim Qizi Rahmonova, & Nazar Rahmatullaevich Ashurov (2021). Zamonaviy o‘qituvchi va uning obrazi. Akademik research in educational sciences, 2 (9), 528-533.

4. Meyliyeva, L.N. (2022). Sharq mutafakkirlari o‘qituvchi imidji haqida. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 96–99.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA AKT KOMPETENTSIYASINING DOLZARBLIGI

Xasanov Xayrullo Maxmudovich,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Informatika” kafedrasi assistent-o‘qituvchi
Telefon: +998 90 506 89 79.
Elektron pochta manzili: hayrullo-hasanov@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’limning yangi standartlari nuqtai nazaridan bo‘lajak o‘qituvchining AKT kompetentsiyasining ahamiyati muhokama qilinadi. Mavzuning dolzarbligi AKT kompetentsiyasining zaif shakllanishi va zamonaviy jamiyat tomonidan o‘qituvchiga qo‘yadigan talablar bilan bog‘liq. Talabalar bilan ishlash yo‘nalishlari tavsiflangan, ularni amalga oshirish axborot-kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladi. Har bir o‘quv mashg‘ulotida axborot mazmuni va ko‘rinishini oshirishda AKT kompetentsiyasining roli ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *individual ta’lim, talabalarning mustaqil ishi, AKT kompetensiyasi, kasbiy tayyorgarlik, raqamli ta’lim, transformatsiya.*

KIRISH

Bugungi davrda jahon miqyosida oliy ta’lim sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy o‘quv loyihalari negizida ishlab chiqilib, mamlakatlarning milliy

kasbiy malaka talablarini xalqaro andozalarga moslashtirish asosida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz yoshlarning sifatli ta’lim olishlariga erishish, ularning o’z qobiliyati va iste’dodini ro’yobga chiqarish uchun barcha bilimlarimizni yetkazib berishdan iborat. Zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi tendentsiyalariga eng mos keladigan ta’lim faoliyati uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda mavjud usullar va vositalarni takomillashgan yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashga xizmat qiladi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasi [1] axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etishga asoslangan bo’lib, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda elektron ta’lim va masofaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda bilim olish nazarda tutilgan. Elektron ta’lim va masafoviy ta’lim nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim faoliyatini tashkil etish, balki, eng muhimi, talabalar va o’qituvchilarning o’zaro hamkorligini auditoriyada yoki masofadan tashkil etish tushuniladi. Albatta bu jarayonni samarali tashkil etishda professor o’qituvchining axborot kommunikatsion kasbiy kompetentligi birinchi o‘ringa chiqadi.

Qobiliyat va zehn. O’qituvchining o’z qobiliyatini rivojlantirib borishi. Zehn qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, yo’llarining tovush naychalari va tomon ustki qismining tuzilishi o’quvchida vokal qobiliyatlarning diktor, lektor bo’lish qobiliyatlarining rivojlanishi uchun zehn kurtak bo’lib xizmat qilishi mumkin. Shu narsani alohida ta’kidlash lozimki,har qanday zehn turlicha ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatning rivojlanish uchun xizmat zehnning mavjudligi muhimdir. Zehn qobiliyatlar rivojlanishining shartlaridan biridir. Biror kishi muayyan faoliyatiga nisbatan ajoyib zehnli bo’lishi mumkin, agarda sharoit bo’lmasa, mana shu zehn asosida qobiliyatlar rivojlanmay qolishi mumkin.

Ko‘nikma – o‘qituvchi kasbiy faoliyati natijasida hosil qilingan tajribalar va bilimlar asosidagi ishning mukammal usuli. Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, u o‘qituvchini tajribasi va bilimiga tayanib o‘z ish faoliyatini yuritish yo‘lidir.

Malaka – o‘qituvchining ongli faoliyatini bajarishda hosil bo‘ladigan kasbiy intellektning avtomatlashgan komponentlari yig‘indisi.

Demak, malaka o‘qituvchining kasbiy intellektiga tayanadi hamda ish faoliyatini yuritishda o‘z aksini topadi.

Mohirlik – pedagogik ko‘nikmalar yig‘indisi. O‘qituvchining ish faoliyati davomidagi ko‘nikmalari asosida dars jarayonini Davlat ta’lim standartlari asosida tashkillashtirishi va bajarish.

Mahsuldorlik – muayyan muammoga ijodkorona yondashib unga tegishli yechim berish. Buning uchun avvalo muammoning kelib chiqishini o‘rganib ularni bartaraf etish hamda uni amaliyotga tadbiq etishdir.

Evristik – kasbiga oid yangiliklardan xabardor bo‘lish, ularni o‘z faoliyati davomida qo‘llash hamda targ‘ib qilish.

Kreativlik – tajribalar asosida yangi nazariyalar yaratish. Zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda o‘z g‘oyalariga tayangan holda yangi metod va yondashuvlar yaratishdir. Pedagogik qobiliyatlar funksiyaisga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. Umumiy (aqliy faoliyat, tanqidiylik, tizimiylik, tahlil qilish, reaksiya tezligi, sintezlash, diqqatni jamlash, e’tiborlilik);

2. Maxsus (tashkilotchilik, injener-texnik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqaviy).

Talant – bu biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta’minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi.

O’quvchi qobiliyatini rivojlantirish uchun uning iste’dod nishonalari zehnini hisobga olish juda muhimdir. Qobiliyatning erta namoyon bo’lishi bolaning favqulotda zehnga ega ekanligini ko’rsatadi. Biz qobiliyatli kishilar haqida gapirganimizda, ko’pincha, shu kishilarning hayot yo’lini belgilab bergan shaxslar haqida gapirishni unutib quyamiz. Holbuki shu odamlarning maslahati, qo’llab-quvvatlashi shunday mashhur kishilar yetilib chiqqanligidan guvohdir.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlar – o’qituvchi faoliyatining ajralmas qismi. U ota-onalarni pedagogika va psixologiyaning turli sohalari bilan, o’quvchilarni o’z-o’zini tarbiyalash asoslari bilan tanishtiradi, so’nggi psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalarini ommalashtiradi va tushuntiradi, psixologik-pedagogik bilimlarga bo’lgan ehtiyojni va otaonalarda ham undan foydalanish istagini shakllantiradi. Pedagogik bag’rikenglikni shakllantirish modeli 5 bosqichni o’z ichiga oladi: tayyorgarlik, xabardorlik, qayta baholash, harakat, aks ettirish. Shu bilan birga,

bag’rikenglikni rivojlantirish yaxlit yondashuvga asoslanishi kerak va tolerantlikning tasodifiy-situatsion namoyon bo’lishidan, mumkin bo’lgan bag’rikenglik munosabatlarini tan olish orqali, kichik guruhdagi do’stona munosabatlarga, ulardan kichik guruhga qadar bo’lgan harakat sifatida ko’rib chiqilishi kerak. O’quv guruhidan tashqarida bo’lgan bag’rikenglikni shakllantirish, shaxsning o’zini takomillashtirishga tayyorligi. O’qituvchining taktikasi darsning barcha bosqichlarida zarurdir. Talabalar bilimlarini tekshirish va baholash paytida uning xatti-harakatlariga alohida e’tibor berish kerak. Bu erda o’lchov talabaning javobini tinglash qobiliyatida ifodalanadi: javob mazmuni va shakliga diqqat bilan qiziqish, talaba duch kelgan qiyinchiliklarga duch kelganda o’zini tutish. Barcha talabalar diqqat bilan, hurmat bilan, tinglashlari mumkin bo’lganlarga javob berishni yaxshi ko’radilar. Shu bilan birga, javob, tabassum, bosh baqirish bilan javob berish vaqtida qo’llab-quvvatlash muhimdir. Baholash vaqti ham muhimdir. Pedagogik baholash psixologiyasini qiziqarli o’rganish B.G.Ananyev tomonidan olib borilgan bo’lib, u maktab o’quvchilarining zaif javoblarini asosli baholashning yo’qligi keyingi bir necha oylar davomida talaba o’qituvchining savollarini tushunishni to’xtatib qo’yishiga olib kelishi mumkinligini ko’rsatdi, chunki u ishonchsizlik tufayli u yana so’rashni va takroriy savollar bilan jim bo’lishni o’rganadi. Muallif isbot qiladiki, shak-shubhasiz salbiy fikrlar ijobiy ma’noga ega va kelajakka xos xususiyatlarga ega bo’lishi kerak. Xushmuomalalik bilan o’qituvchi talabalarni doimiy ravishda kuzatib borishi, ularning har bir harakatlarini nazorat qilishi shart emas. Uning talabaga bo’lgan munosabati ishonchga asoslangan, uning munosabati sir tutilishi zarur. Pedagogik takt o’qituvchi tomonidan o’quv vositalaridan foydalanishda namoyon bo’ladi. O’qituvchining metod va usullari eng maqbul, nozik tarzda qo’llanilishi kerak.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozim-ki, pedagogik kasbiy bilim asosida uning xattiharakati va o’zini tutishining asosiy prinsiplari, qoidalari, ya’ni pedagogik ongi shakllanadi. Bu prinsiplar, qoidalarni har bir pedagog o’zining tajribasi asosida yaratadi, lekin ularni tushunib yetish, qonuniyatlarini ko’ra bilish faqat doimiy izlanish, o’rganishni talab etadi. Bu esa ilmiy bilimlarni egallash orqali amalga oshiriladi. O’qituvchining ta’lim berishidagi qiyinchiligi kasbiy yaroqlikni egallashning murakkabligi shundaki, kasbiy bilim, birdaniga bir necha darajada, sohada shakllanadi:

a) metodologik (falsafa qonunlarini bilish, tarbiya maqsadini belgilash zaruriyatini anglab yetish) soxasida;

b) nazariy (pedagogika, psixologiya qonunlarini, prinsip qoidalarini faoliyat formalarini bilish) bilimlar sohasida;

d) metodik (o’quv-tarbiya jarayonini modellashtirish, konstruksiyalash darajasini o’zlashtirish) bilimlarni o’zlashtirishda;

e) texnologik (aniq sharoitda ta’lim va tarbiyaning amaliy vazifalarini yechish darajasini o’zlashtirish) sohasida shakllanadi. Bu esa tajribali pedagogdan yetarlicha rivojlangan kasbiy fikrlashning keraklisini ajratib ola oladigan, pedagogik maqsadga erishishda egallangan bilimlar tahlili va umumlashtira oladigan, ularning texnologik tarzda ko’rsata oladigan qobiliyat bo’lishni taqzo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent, 1997 yil.
2. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, 2000 yil.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, O’zbekiston, 1967 yil.
4. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. Toshkent 1997 yil.
5. Pedagogika. Darslik, L.P.Krivshenko tahriri. M., 2005. B. 418 Ch30.0 ... Pedagogik terminologik lug’at.
6. Rus pedagogika ensiklopediyasi. – M., 1993.
7. L.N.Tolstoy Kimdan va kimdan yozishni, dehqon bolalari bizdan yoki biz dehqon bolalaridan? // Ped. soch., M., 1989. – 278-bet.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “KELAJAK O’QITUVCHISINI” TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Jo’rakabirova Madinaxon Xurshidjon qizi,
Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika (qo’shimcha tarbiya fani) yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annatatsiya. *Ushbu maqolaning qisqacha mazmuni shundan iboratki, Oliy ta’lim muassasasida zamonaviy kadrlarni o’qitish, ularni har tomomlama yetuk kadr qilib shakllantirish, ta’lim to’g’risidagi qonunlar, o’qituvchilarga yaratilayotgan turli xil sharoitlar, va shu qatorida yuzaga keladigan bir qator muammolarni bartaraf etish to’g’risida fikr yuritilgan.*

Kalit so’z: *pedagog, innovatsiya, takomillashtirish,kadr, muttahasis, ilmiy tadqiqot, magistratura, bakalavriat, metod, ta’lim, tamoyil,kommunikativ,kompitensiya.*

Annation. *The summary of this article is that the training of modern personnel in higher educational institutions, their formation as fully mature personnel, the laws on education, the various conditions created for teachers, etc. a number of upcoming problems are thought to be eliminated.*

Keywords: *pedagogue, innovation, improvement, personnel, specialist, scientific research, master's degree, bachelor's degree, method, education, principle, communicative, competence*

Аннотация. *Резюме данной статьи заключается в том, что подготовка современных кадров в высших учебных заведениях, их формирование как вполне зрелых кадров, законы об образовании, различные условия, созданные для преподавателей и т.д., ряд предстоящих проблем предполагается устранить.*

Ключевые слова: *педагог, инновация, совершенствование, кадры, специалист, научные исследования, магистр, бакалавр, метод, образование, принцип, коммуникативность, компетентность.*

Xalq ta’limini rivojlantirish va uning yaqin yillardagi asosiy yo’nalishlarini belgilab beradigan ikkita muhim hujjat O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturini tasdiqlash to’g’risida” farmoni hamda “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori imzolandi.

Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va magistratura muttahasisliklari bo’yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlash bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Ta’lim to’g’risidagi qonunining 11-moddasida ko’rsatib o’tilgan.

So’ngi yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilmiy fanni rivojlantirish, o’qitishning zamonaviy shakl va metodlarini joriy etish bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda yuqori raqobatchilik sharoitida va ta’lim berishga qo’yilgan vazifalarning qat’iyligi tufayli zamonaviy o’qituvchi o’zining ilmiy ijodiy, innovatsion, salohiyatini to’liq ochib berishga to’sqinlik qiladigan muammolarga duch kelishini tushunib yetish zarur.Bunda muammolarni aniqlash va ularning ijobiy yechimini topish muhim hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasida pedagog o’qituvchining malakali kadrlar tayyorlashdagi faoliyati zarur va dolzarb bo’lgan quyidagi beshta asosiy o’rni mavjud bo’lib, aslida bular pedagogning mehnat vazifalari hamda talablariga kiritilgan.

- O’z muttahasisligi bo’yicha bilimlarni takomillashtirish va ushbu jarayonni sifatli tashkil etish.
- Ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish va ilmiy uslubiy natijaga erishish
- Ilmiy va ishlab chiqarish jarayonining predmeti, talabalarni mavzu bo’yicha yo’naltirilgan faoliyatga tegishli amaliyotni tashkil etish jarayonini takomillashtirish.
- Yagona natijaga erishishga qaratilgan hamjihat jamoani tizimli va maqsadli yo’naltirish
- Innovatsion jarayonni predmeti, umuminsoniy ijod jarayoni hisoblanadi.

Hozirgi kunda maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda.Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o’tkazilgan videoselektr yig’ilishida quyidagi masalalar ilgari surilgan.

1. O’qitish metodikasi,darsliklar,to’liq va qayta ko’rib chiqish. O’quvchilarga to’liq shart sharoitlar yaratish, ularning bilim va malakasi oshirilib, dars o’tishga talab ham tubdan kuchaytirildi.

2. Joriy yilning o’zida 527 ta maktabni rekonstruksiya qilishga 2,5 yarim trillion so’m ajratildi.

3. Yuqori malakali,o’z ustida doimiy ishlaydigan zamonaviy pedagoglarni har tomonlama qo’llab quvvatlash ularning ish haqqi ham ezilarli darajada oshirildi.

4. Oliy ma’liumotli pedagog kadrlarni oliygohlarga tayyorlash tizimi ham tubdan takomillashtirildi. Toshkent shahridagi 5 ta hamda hududlardagi 17 ta pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliygohlarning fakultetlari doimiy tarzda maktablarga biriktirildi.

Hozirgi kunda ta’lim olish uchun katta shart sharoitlar yaratilmoqda ulardan samarali foydalanish zarur.

Pedagog maqsadi va vazifalarni belgilashda ijtimoiy munosabatlar mazmuni davlat va jamiyat qurilishi va uning hayotida yetakchi o’rin tutuvchi g’oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega .O’quv jarayoni haqida birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu fikrlari ko’rsatib o’tilgan “O’quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnalogiyalarni keng joriy etish bolalarimizni komil inson etib tarbiyalashda jonbozlik ko’rsatadigan o’qituvchilarimizga e’tiborimiz yanada oshirishimiz ularni yangi bosqichga ko’tarishimiz diqqat markazimizda bo’lishi lozim”deya ta’kidlaganlar. XXI asr olimlarimiz tomonidan axborot texnalogiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnalogiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotganligi, jumladan, ta’lim sohasida ham yangi axborot texnalogiyalaridan keng foydalanish an’anaviy o’qitish usullaridan ko’ra samarali va yuqori natijaga olib kelmoqda. Zamonaviy ta’limga xos muhim jihatlardan biri pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalalari o’tgan asrning 60-yillarida boshlab jiddiy o’rganila boshlagan.

Oliy ta’lim muassasalarida kelajak o’qituvchisini tayyorlashdagi muammolarni yechimlaridan ba’zilarini sanab o’tamiz.

- Zamon talablari darajasidagi pedagog-o’qituvchi ilmiy tadqiqot vazifalarini belgilash tadqiqot ishlarini samarali rejalashtirish, dolzarb mavzu bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib boorish va ularni tez baholash kabilarga ega bo’lish.
- Zamonaviy texnika va texnalogiyalardan samarali foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lish.
- Ko’pchilik o’qituvchilar ilmiy kasbiy va kommunikativ, ya’ni nutq kompitensiyalari kabi hislatlarga ega bo’lishi kerak.

Ta’limdagi kamchiliklarni tanqiydiy tahlil qilib uni bartaraf etish yo’llarini ko’rsatib beradi. Ta’lim tizimini rivojlantirish pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, innovatsion ta’lim va axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta’limga joriy etishga katta e’tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashuv. Zamonaviy ilm fan va ishlab chiqarish tomonidan ilgari surilgan barcha masalalarni ishonch bilan hal qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish uchun oliy o’quv yurtlarida barcha shart Prezidentimiz sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ma’lumot olmoqchi bo’lgan har qanday fuqaro uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Yoshidan qat’iy nazar, oliy ma’lumotni kunduzgi, kechgi va sirtqi ta’lim shaklida olishga sharoit yaratildi. Ya’ni mamlakatimizning har bir fuqarosi yoshi, millati va elatidan qat’i nazar o’zining konstitutsion huquqlaridan to’liq foydalanish imkoniyatiga ega bo’ldi. Jumladan, kamida 5 yil ish stajiga ega bo’lgan xodimlarni 2021/2022 o’quv yilida davlat OTM larning sirtqi va kunduzgi ta’lim shakliga kirish uchun imtiyoz berildi.

Oliy ta’lim muassasalari soni 141 taga yetib qabul o’rinlari 66 mingtadan 182 mingtaga oshdi. Oliy ta’limning qamrov darajasini bosqicha – bosqich oshirish, tizimida sog’lom raqobat

muhitini shakllantirish, ta’lim jarayonida raqamli texnalogiyalarni joriy etish oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta’minlash professor o’qituvchilarning maoshini o’rtacha 3,5 barobarga oshirish oliy ta’lim islohotlarining dastlabki natijasidir.

Ta’limning maqsadi – (o’qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning aniq yo’nalishini belgilab beruvchi yetakchi g’oya.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bugunki kunda ta’lim olish uchun barcha sharoitlar mavjud. Ta’lim sifatini oshirishdagi mavjud kamchiliklar va muammolarni bartaraf etish uchun turli xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish, ta’lim jarayonida texnika va texnalogiyalarni qo’llay bilish hozirgi zamon pedagogiga qo’yilgan asosiy ta’lab hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to’g’risidagi” qonuni.
2. Mavliyanov A. O’quv mashg’ulotlarini tashkil etishda ta’lim texnalogiyalari, O’quv qo’llanma / Toshkent 2013.
3. www.yuz.uz
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to’g’risidagi farmoni.
5. Mavliyanov A. “Ilg’or pedagogik texnalogiya bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini loyihalashtirish”.

ADDRESSING CHALLENGES IN PREPARING FUTURE ENGLISH TEACHERS: SOLUTIONS FOR RESILIENT PEDAGOGY

Ropiyeva Gulzoda Uralovna,
Teacher of English language teaching methodology department
Jizzakh State Pedagogical University
Phone: +998 88 646 94 46
e-mail: gulzoda8787@mail.ru
Hidirova Marjona Rustam qizi,
Student of Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. *In today's rapidly changing educational world, preparing future English instructors is a complicated challenge. This essay investigates the major issues encountered in preparing aspiring educators for the intricacies of English language teaching and suggests proactive methods to successfully address these obstacles. Future English teachers will confront numerous challenges, including responding to various student demands, negotiating rapid technological improvements, and shifting instructional techniques. Teacher education programs can prepare aspiring educators to face these challenges with confidence and competence by implementing personalized professional development, incorporating technology training, fostering continuous learning opportunities, improving practical experiences, and cultivating reflective practice.*

Keywords: *Future English teachers, student needs, professional development, technological advancement, curriculum, practical experiences.*

Introduction

In an increasingly interconnected world, English fluency has become a need for success in a variety of fields, including education and industry, as well as social engagement and cultural exchange. As a result, English teachers play an important role in supporting language acquisition and developing effective communication skills among students. However, the mission of training

future English instructors is not without its challenges. In today's changing educational world, instructors face a slew of obstacles, including responding to various student demands, navigating rapid technological improvements, and shifting pedagogical techniques.

The issues confronting future English instructors are varied, necessitating new solutions to assure the development of competent and flexible educators. This essay discusses some of the major issues encountered in educating future English instructors and provides proactive solutions to overcome these obstacles. Teacher education programs can help aspiring educators navigate the complexities of English language teaching with confidence and competence by implementing personalized professional development, incorporating technology training, fostering continuous learning opportunities, improving practical experiences, and cultivating reflective practice. The journey of generating capable and adaptable English instructors can be started with optimism and efficacy thanks to joint efforts and targeted interventions.

1. *Meeting Diverse Student Needs:*

Today's schools prioritize diversity. Students come from a variety of linguistic backgrounds, have distinct learning styles, and offer a diverse set of cultural experiences. As a result, future English teachers face the difficulty of effectively addressing this variety while ensuring fair learning results for all pupils. To address this issue, teacher education programs should include modules on multicultural education, individualized instruction, and inclusive teaching approaches (Tomlinson, 2012). Teacher preparation programs can empower future educators by providing them with strategies for accommodating diverse student needs, such as scaffolding techniques, cooperative learning structures, and culturally responsive teaching approaches.

2. *Rapid Technological Advancement:*

The digital revolution has changed the face of education, bringing both opportunities and problems for English language teachers. While technology provides novel tools and resources to improve language learning experiences, its rapid evolution needs ongoing professional development for instructors (Warschauer & Meskill, 2000). To meet this issue, teacher education programs must include technology training a major component of their curriculum. This includes not only introducing future English teachers to digital tools and platforms, but also developing critical thinking abilities for assessing the pedagogical efficacy of technology-enhanced learning activities. Furthermore, working with technology specialists and educational technologists can provide essential insights and assistance in efficiently harnessing digital resources to improve English language training.

3. *Evolving Curriculum and Methodologies:* English language education is constantly evolving, with new research, pedagogical ideas, and curriculum standards appearing (Richards & Rodgers, 2014). As a result, prospective English instructors must stay current on the newest advancements in the area in order to provide high-quality instruction that fits the changing demands of their students.

Teacher education programs can help to address this issue by offering chances for continued professional development and engagement with colleagues and industry experts (Darling-Hammond & Bransford, 2005). Incorporating modules on current trends and best practices in English language teaching, as well as promoting participation in conferences, workshops, and online communities, will assist prospective educators stay up to date on evolving pedagogical methods and curriculum standards.

4. *Limited Practical Experience:*

Practical experience is necessary for potential English instructors to flourish in the classroom, alongside theoretical knowledge. Unfortunately, many teacher preparation programs fail to provide adequate hands-on experience, leaving educators unprepared to handle the complexity of real-world classroom dynamics (Zeichner & Noffke, 2001). To address this issue, teacher education programs can improve practicum experiences by providing supervised teaching internships, practicums in a variety of classroom settings, and mentoring opportunities from experienced educators. Furthermore, including reflective practice components into

practicum experiences can assist future English teachers to critically analyze their teaching tactics, classroom interactions, and student outcomes, allowing for ongoing growth and progress.

Conclusion

Preparing future English instructors presents considerable obstacles, but they are not insurmountable. Teacher education programs can prepare aspiring educators for success in the ever-changing field of English language teaching by implementing proactive measures such as personalized professional development, technology integration training, continuous learning opportunities, enhanced practicum experiences, and reflective practice. Furthermore, educational institutions, governments, and practitioners must work closely together to effectively address these difficulties. By developing a collaborative and innovative culture, stakeholders may use their pooled experience and resources to help future English teachers grow and develop professionally. The ultimate goal is to ensure that students receive the quality training they require to flourish in an increasingly linked society. We can empower individuals to prosper academically, professionally, and personally by generating competent and flexible English teachers who are prepared to meet their students' different needs. This will contribute to a more inclusive and equitable society. Through collaborative efforts and a dedication to continual development, the journey to training future English teachers becomes not only a task, but also an opportunity to impact the future of education and promote good change on a worldwide scale.

References:

1. Brown, H.D. (2014). Principles of language learning and teaching. Pearson Education Limited.

2. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and methods in language teaching. Cambridge University Press.

3. Tomlinson, B. (2012). Materials development for language learning and teaching. Cambridge University Press.

4. UNESCO. (2019). Global Education Monitoring Report 2019: Migration, displacement and education: Building bridges, not walls. UNESCO Publishing.

5. Warschauer, M., & Meskill, C. (Eds.). (2000). Technology and second language learning. Oxford University Press.

6. Zeichner, K., & Noffke, S. (2001). Practitioner research. In V. Richardson (Ed.), Handbook of research on teaching (4th ed., pp. 298 – 330). American Educational Research Association.

7. Darling-Hammond, L., & Bransford, J. (Eds.). (2005). Preparing teachers for a changing world: What teachers should learn and be able to do. John Wiley & Sons.

8. Association for Supervision and Curriculum Development. (2015). Advancing formative assessment in every classroom: A guide for instructional leaders. ASCD.

9. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Cambridge University Press.

10. Shulman, L.S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1–22.

TALABALARDA VATANPARVARLIKNI MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Dadaboyev Suhrob Mansurjonovich,
Namangan davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:dadaboyevsuhrob89@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola talabalarda vataparvarlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kompetansiyalar va talabalarda Vatanga bo‘lgan muhabbatini oshirish haqida so‘z yurutilgan.*

Abstract: *This article is about compencies that are importantfor developing patriotism in students through museum pedagogy and increasing students’ love for the Motherland.*

Аннотация. *В данной статье речь о компетенцгях которые важны для развития у нчфщихся пфериотизма посредством музейной педагогика и повышения любви учащихся к Родине.*

Kalit so'zlar: *muzey, Vatanga muhabbat, yosh avlod, bilim, muzey pedagogikasi, muzey xodimlari, o‘quvchi, maktab, ajdodlar, oliy ta’lim, vatanparvarlik.*

Key words: *musesum, love for the Mother, young generation, knowledge, museum pedagogy, museum straff, student, school, higher education, patriotism.*

Ключевые слова: *музей, любовь Родине, молодое поколеие, знания, музейная педагогика, сотрудника музея, студент, школа, высшее образование, паериотизм.*

Respublikamizda so‘ngi yillarda yoshlarning faoligi va ularning tashabbuskorligini faol fuqorolik pozitsiyasini oshirish maqsadida o‘sib kelayotgan yoshlarni umuminsoniy qadryatlarga hurmat vatanparvarlik ruxida tarbiyalash eng ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Shu bilan birga bo‘lajak o‘qituvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish va pedagogik imkoniyatlar kengaytirildi. Shuningdek talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish maqsadida o‘tmish ajdodlarga hurmat va Vatanga bo‘lgan sadoqatni yanada oshirish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirildi. Bu borada muzeylarning o‘rni beqiyosdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda 444 ta muzey mavjud bo‘lib, muzeylar ichida 155 tasi turli sohalarda masalan, transport, o‘lkashunoslik, tabiat, tarix va ochiq osmon ostidagi davlat muzeylari hisoblanadi.

Muzey so‘ziga alohida to‘xtalib o‘tar ekanmiz Muzey (lotincha museun, yunoncha musein-muzlar ibodatxonasi) degan ma’noni anglatadi. Muzey – bu go‘zal buyumlar saqalanadigan joy hisoblanib sa’nat, texnika, tabiat namunalari, tarixiy va ilmiy-tabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsalarni yig‘ish saqlash o‘rganish va xalqqa namoyon qilish bilan shug‘ullanadigan muassasa hamdir.

Butun dunyo bo‘ylab muzeylarni rivojlantirish madaniy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazib berish maqsadida muzey muassasalari va muzey hodimlarining kasbiy salohiyatlarini oshirish maqsadida 1963-yilda Germaniya xalq ta’limi vazirligi qoshida “muzey va maktab”guruhlari tashkil etiladi va 1981-yilda muzey pedagogikasi bo‘yicha birinchi nemis qo‘llanmasi chop etiladi.Muzey pedagogikasi atamasi birinchi bo‘lib G.Froydentalning “muzey-xalq ta’lim – maktab” (1931) kitobida qo‘langan bo‘lib bu kitobda muallif muzey va maktab o‘rtasidagi farqning mohiyatini shuningdek talabalar bilan ishlash uslubi talabalarni muzeyga tashrifini ta‘minlash va olingan bilim ta’surotlarini mustahkamlash tasvirlangan.

Muzey pedagogikasi asosiy vazifasi tashrif buyurgan talabalarga har buyumning kelib chiqishi ishlatilish tartibi va o‘sha davrdagi voqea hodislarni his etira olishi lozim, shundagina talaba mulohoza yuritadi va soboq oladi.Har bir talabaning muzey haqidagi ta’surotlati ularda yangicha qarash yangicha fikr va dunyoqarashini rivojlantiradi. O‘z vataniga muhabbat shu vatanning kelajagi va har bir bunyotkorlik uning qo‘lida ekanligini o‘z-o‘ziga sindira oladi. Yashab kelayotgan Vatanning mustaqiligi uning bu darajaga kelishi shu bilan birga qanchadan

qancha ajdodlar qoni to‘kilgani haqida u mulohaza yuritadi. Muzey asli shu ishlarni amalga oshiradi va talabalarning ruhiyatida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi.

Albatta mustaqillikdan so‘ng mustaqillikkacha bo‘lgan davrni o‘rganish imkoniyat va shart sharoitlar yuzaga keldi. Mustabid-sovet tuzimi davrida buyuk bobolarimiz Amir Temur, Zahriddin Muhammad Bobur hayot va faoliyatini xatto ularni nomini tilga olish ham man etilgan edi. Mustaqillik tufayli Amur Temurning hayot faoliyati, davlatchilik siyosati, sarkardalik san’ati, me’morchik qobiliyati, diplomatik sohasidagi ilgari surgan g‘oyalarini o‘rganishga muyassar bo‘ldik. Birgina Amir Temurning faoliyatini o‘rganish orqali yoshlarda ularning kelajakdagi rejalarining puxtaligi, o‘z ishlariga adolat bilan yondashishi, o‘tmishdan saboq olib har bir yosh avlodning ongida vatanparvarlikni singdira olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Vatanparvarlik barcha tarixiy davrlar va barcha avlod uchun xos xususiyatdir. Jamiyatning rivojlanishi, mavjud shart-sharoitlarning o‘zgarishi bilan vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etib boradi. Avvalo vatanparvarlik tushunchasini mazmun mohiyatini anglash uchun har bir davlatning tashkil topishi va mustahkamlanishi,uning milliy mustaqilligi uchun kurash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sayharakatlarini bilishi lozim. Talaba tarixni, o‘tmishni undagi har bir jangni, amalga oshirilgan ishlarni ko‘z oldiga keldirib his qilmas ekan undagi Vataniga bo‘lgan sadoqat va o‘z vatanining rivojlantirishga bo‘lgan layoqat ham oshmaydi. Bu borada talabalar ongida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantishda muzeylar va muzey pedagogikasining o‘rni beqiyosdir.

Muzey pedagogikasi pedagogika, pisixologiya va muzeyshunoslik fanlarining uyg‘unligi natijasida shakllangan fan hisoblanib har bir muzey xodimining talabalarga ta‘siri natijasida ularda insoniylik tuyg‘usini, ma’daniyat tushunchasini, jamiyatimizning ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalashni, milliy qadryatlarimiz va urf-odatlarimizga sadoqatni yanada sindirib boradi. O‘tmishga nazar tashlagan insonda kelajakka intilish, o‘z mustaqilligini qadriga yetish mujassam bo‘ladi zeroki O‘zbekistoning birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Tarixsiz xotira yo‘q” asarida “Mening ajdodlarim kim bo‘lgan, ibtidosi qayerda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanish jarayoni qanday kechgan” degan savollar biz yosh avlodlarga o‘z o‘zimizga berishimizni bejizga ta’kidlamaganlar. Tarixni o‘rgangan insondagina o‘zligini tushunish boshlanadi sadoqatli sarkardalarning jang taktikalarini o‘rganish orqali esa o‘z ishlariga puxtalik oshadi,buyuk allomalarning asarlarini o‘rganish orqali bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, tinch-totuv hayotni qadriga yetish targ‘ib qilinadi. Ota-boborimizning asrlar davomida to‘plangan nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish va ularning asarlarning tub zamiriga yetib borib tushunish har bir talabada shunday ajdodlarning farzandi ekanligidan faxr tuyg‘usi namoyon bo‘ladi, ularning asarlarida Vatanni sevish, insonni aqliy va axloqiy jihatdan tarbiya topishi, har bir shaxsning shakllanib borishi va insoniylik jamiyatiga qo‘shilishi uchun poydevor bo‘ladi. Bu go‘zal fazilatlarni har bir yoshning tafakkuriga uning qon qoniga sindirish borasida muzey va muzey pedagogikasini o‘rni katta. Bugungi kunda yurtimiz allomalariga va ma’daniy me’rosiga nisbatan butun dunyo bo‘ylab qiziqish va intilish kuchayib bormoqda shu sababdan yurtimizda muzeylarga katta e’tibor berilmoqda. Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi qayta tashkil qilindi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni (1998-yil 12-yanvar) ko‘ra muzeylar eng yirik ilmiy markaz sifatida qarala boshlandi. Yurtimizda eng ko‘p tashrif buyuruvchi muzeylar mavjud bo‘lib ular:

- Qoraqalpog‘iston Respuplikasi I.V.Savitskiy nomidagi davlat muzeyi – 48,3 ming kishi,
- Temuriylar tarixi davlat muzeyi – 86,5 ming kishi,
- Xivadagi “Ichan Qal’a” majmuasi – 211,9 ming kishi
- Buxoro davlat badiiy me’morchilik muzey qo‘riqxonasi – 399,4 ming kishi
- Samarqand davlat badiiy muzey qo‘riqxonasi – 68,9 ming kishi.

Muzey va muzey pedagogikasiga qaratilayotgan e’tiborning barchasi Respublikamiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shayotgan yoshlarga ijobiy ta’sir qila oladi. Yoshlar asosan muzeyda ko‘rgan bilganlarini barcha tushunganlarini tafakkur qilishi bu ular ongida yangicha qarash va uning dunyoqarashlarini o‘zgartirishlari uchun asosiy turtki, shu sababli har bir yoshni muzeyga

tashrifini ta‘minlash muzey va maktab hamkorliklarini tashkillash juda o‘rinli ish demakdir, muzey xodimlarini malakali kadr qilib tarbiyalash uchun muzey va oliy ta’lim bilan ish olib borishi ularni yanada bilimli bo‘lib yetishishiga asos bo‘la oladi. Bo‘lajak yosh avlodni bilimli, zakovatli bo‘lib yetishishlari uchun yaratilayotgan bu shart-sharoitlar yurtimizning barcha hududlarida targ‘ib qilinib har bir yoshda vatanparvarlik, kelajakga intilish xisini kuchaytirdi. Respublikamizning barcha hududlarida muzeyga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Hususan oliy ta’lim muassalarida ham kichik muzeylar tashkil etilishi va bu mezeylar asosida yashab turgan zaminlarini tarixini, u yerda yetishib chiqqan buyuk allomalarning hayotini, asarlarini yaqindan bilish imkoniyatini bermoqda. Ustozlar va talabalar tomonidan olib kelingan tarixiy buyumlar o‘tmishda o‘zlari yashab turgan joyning ko‘rinishi va o‘sha davrdagi muhit qandayligi haqida habar beradi.

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, muzey muhitida talabalar tarbiyalanadi, ya’ni estetik idrok etish, muzey madaniyati, badiiy did shakllanishi asosida tarbiya beriladi. Ijodkor shaxs kamolotga erishib rivojlanadi, shuningdek, muzey yodgorliklarini ko‘rish, eshitish, ma’lumot olish orqali bilish (ta’lim olish) faoliyati shakllanadi. Demak, muzey va ta’lim muassasalari sharoitida pedagogik faoliyat – ta’lim-tarbiya va rivojlanishning yaxlit majmui bo‘lib, shaxsni estetik tarbiyalash, bilim berish va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayev B Muzeyshunoslik: uslubiy qo‘llanma/ Toshkent:Sadriddin Salim Buxoriy 2017.
2. Kuryazova D. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. T. San’at 2010.
3. Sh.Karimov “Vatan tarixi” Toshkent, 2010-yil.
4. www.Ziyonet.uz
5. www.pedagog.uz.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIV SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Ravshanova Gulnoza Asqar qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada bo’lajak o’qituvchilarning kreativlik salohiyatini oshirish yo’llari va buning uchun nimalarga e’tibor qaratish kerakligi haaqida so’z yuritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda yosh avlodga milliyligimizdan voz kechmaagan va shu milliy an’analarga yo’g’irilgan ta’limni tashkil etish asoslab o’tilgan.*

Tayanch so‘zlar: *texnologiya, ta’lim tizimi, kreativ muhit, kreativlik, tafakkur, ijodkorlik, ta’lim, ijod, yetuklik, iqtidor, istedod, talent, qobiliyat, retrospektiv, innovatsiya.*

Аннотация. *В статье говорится о путях повышения творческого потенциала будущих учителей и на что следует обратить внимание. Наряду с использованием современных педагогических технологий молодое поколение должно не отказываться от своей национальности и придерживаться этих национальных традиций. Организация образование оправдано.*

Ключевые слова: *технология, система образования, творческая среда, творчество, мышление, творчество, образование, творчество, зрелость, талант, талант, талант, способности, ретроспектива, новаторство.*

Annotation. *The article talks about ways to increase the creative potential of future teachers and what to pay attention to. Along with the use of modern pedagogical technologies, the young generation should not give up their nationality and adhere to these national traditions. The organization of the education is justified.*

Key words: *technology, educational system, creative environment, creativity, thinking, creativity, education, creativity, maturity, talent, talent, talent, ability, retrospective, innovation.*

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni texnologiyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan.Bugungi kunda o'qituvchilarning oldiga qo'yilayotgan talab ham aynan buning isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur..." deb ta'kidlab o'tganlar. Buning uchun prezidentimiz tomonidan barcha imkoniyatlar va qulayliklar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda ta'limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

Malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimida ixtisoslik o'quv predmetlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Chunki ixtisoslikka oid kasbiy va shaxsiy kompetentlik (bilim, ko'nikma va malakalar) asosan ixtisoslik o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida shakllantiriladi.

Bugungi kunda pedagogika fanlarini o'qitishda o'quv fani tegishli yo'nalishda oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy-pedagogik sifatlarni shakllantirish, ularni kasbiy tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy sharoitda fanni o'qitish o'qituvchi kadrlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan ilg'or yutuqlar, umuminsoniy g'oyalar, milliy qadriyatlarga tayangan holda tayyorlash, ularda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarkib toptirish, tarbiyachi, o'qituvchi hamda yoshlar murabbiysi sifatida pedagogik jarayonlarni to'g'ri tashkil etish malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan. Fanni olib borishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, o'quv-uslubiy majmualar, monografiyalar, xorijiy va respublikamizning yetakchi olimlari ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalaniladi. Fanning o'qitish dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy (yoki seminar, laboratoriya) kurs ishi mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim shaklida olib boriladi.

Talabalarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslari bilan qurollantirish, pedagogik faoliyat mazmuni, ta`lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo`llari, ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda pedagogik tafakkurni, ijobiy fikrlash qobiliyatini, ta`lim oluvchilar bilan muvafaqqiyatli ishlashga doir zarur malakalarni, vaziyatni to`g`ri baholash, oqilona qarorlarni qabul qilish, ularni maqsadga muvofiq tarbiyalash ko`nikmalarini shakllantirish, milliy pedagogik meros g`oyalarini, Sharq mutafakkirlarining ta`lim-tarbiyaga oid qarashlarini ta`lim muassasalari amaliyotiga maqsadli tatbiq etish tajribasini hosil qilishdan iborat.

Kreativ fikrlash ko‘nikmasidan o‘quvchilar individual va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ham foydalanadilar.Ijtimoiy muammolarni hal qilish bo‘limida muammoga ijtimoiy ravishda yondashiladi. Bunda mavjud muammoga ijtimoiy jihatidan qaraladi, ya'ni muammo shaxsiy, ta'limiy hamda ijtimoiy globalligidan qat'iy nazar har bir shaxsning ehtiyojlariga yechim topish yo‘llari izlab topiladi. Bu sohada o‘quvchilarning kreativ fikrlashi orqali innovatsion,global muammolarning amaliy yechimi, ijtimoiy guruh ehtiyojlarini aniqlash, o‘zgalar fikriga ijobiy munosabat bildirish kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Itimoiy muammolarni hal qilish doirasida tuzilgan testlardagi topshiriqlarni bajaruvchi o‘quvchilardan, qo‘yiladigan

muammo shaxsiy yoki global bo‘lishidan qat’iy nazar muammoga ijtimoiy yechim topiladigan g‘oyalarni to‘plash talab etiladi.

Ilmiy sohadagi kreativ fikrlash quyidagi usullar orqali vujudga kelishi mumkin:farazni oshiradigan tajribalar doirasida, bilimni rivojlantiradigan g‘oyalar asosida, amaliy qiziqishni oshiradigan g‘oyalarni olg‘a surish, ixtirolar va yangicha muhandislik rejalarini ishlab chiqish kabilar. Beriladigan so‘rovnoma sessiyalarida o‘quvchilar xohlagan usuldagi materiallar bilan istagan tajribani bajarish va yangi ixtirolarni kashf etishlari mumkin bo‘ladi.Ilim-fan sohasida kreativ fikrlash ilmiy izlanish ko‘nikmalariga uzviy bog‘langan.Ilmiy muammolarni yechimini topishga doir berilgan mashg‘ulotlar har xil ilmiy kontekstlarda kreativ fikrlashning xilma-xil jihatlarini o‘z ichiga oladi.Bunda o‘quvchilar ilmiy kontekstdagi ochiq turdagi muammoni yechimini topishga doir mashg‘ulotlarni bajarishi, berilganlardan foydalanib, ilmiy ma’nodagi farazlarni beradigan fikr va g‘oyalarni olg‘a surishi yoki muammo yechimi va tajribalarni o‘zgartiruvchi taklif berishi kerak bo‘ladi.Interfaol simulyatsiyalar va o‘yinlar ilmiy muammoni yechimini topishda kreativ fikrlashni baholashda yasxshi natija bradigan usullar qatoriga kiradi,sababi shundaki bu kabi muhitlar o‘quvchilarning shaxsiy tanlagan tanlov hamda harakatlariga bildira oladigan fikrini bilish,ularning bildira olgan munosabatiga qarshi harakatlari, ilmiy innovatsiyalar bilan belgilanadigan uddalay olmaslik va kashf eta olish jarayonida ularning ishtiroki orqali mana shunday baholash imkoniyatlarini bera oladi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 213-modda, 22-son, 406-modda.
2. Babadjonov S.S. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetent-ligini rivojlantirish global ijtimoiy muammo sifatida. – T.: Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2017 yil 2-son, 79 b.
3. G.Siddiqova “Kasb tanlash xususiyatlari” 2022-yil “O’qituvchi “ nashiryot.
4. Bo’lajak o’qituvchilarni kreativ fikrlashga o’rgatish G.Ravshanova Innovative Development in Educational Activities. (ISSN:2181-3523) Vol.2. No.5 (2023) MARCH 334 – 340-betlar.
5. Ravshanova G.A. “Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish an’analari, mohiyati, tuzilmasi va ilmiy tamoyillari” Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 25 – 27-betlar.
6. O’quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda mediata’lim texnolo-giyalarining o’rni G.Ravshanova “Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbiqlari: muammolar va yechimlar” Respublika ilmiyamaliy anjumani (Jizzax shahri, 2022 yil 5-oktabr) 225 – 231-betlar.
7. A.A.Ismoilov, X.J.Daminov, Z.A.Kosimova, G.A.Primov “Kreativ fikrlashni baholash”. Toshkent, 2021.

ZAMONAVIY PEDAGOG SHAXSIGA QO’YILADIGAN KASBIY TALABLAR

Abdullayeva Durdona Ravshanjon qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya fanlarini o’qitish metodikasi mutaxassisligi
1-bosqich magistranti
E-mail:durdonaabdullayeva914@gmail.com
Tel:+998931454709

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagog shaxsining shakllanishi, pedagog uchun qo’yiladigan talablar, zamonaviy o’qituvchining shaxsiy sifatlari, o’qituvchi shaxsida rivojlanishi zarur bo’lgan qobiliyatlar hamda yurtimizda o'quv jarayonini takomillashtirish uchun olib borilayotgan islohotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *pedagog, axloq, kommunikativlik layoqati, ziyolilik, texnologiya, kasbiy mahorat, pantomimika, mimika, jest, kasbiy bilim, pedagogik mahorat.*

Аннотация. *В данной статье представлены формирование личности педагога, требования к педагогу, личностные качества современного учителя, способности, которые необходимо развивать в личности педагога, а также реформы, которые проводятся для совершенствования Образовательный процесс в нашей стране.*

Ключевые слова: *педагог, нравственность, коммуникативные способности, интеллект, техника, профессиональное мастерство, пантомима, мимика, жест, профессиональные знания, педагогическое мастерство.*

Abstract. *This article presents the formation of the personality of a pedagogue, the requirements for a pedagogue, the personal qualities of a modern teacher, the abilities that need to be developed in the personality of a teacher, and the reforms that are being carried out to improve the educational process in our country.*

Key words: *pedagogue, morality, communicative ability, intelligence, technology, professional skill, pantomime, mimicry, gesture, professional knowledge, pedagogical skill.*

O‘qituvchining ko’p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, axloqli, bilimli qilib tarbiyalash kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu vazifalar O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida’’gi Qonuni, hamda Oliy ta’lim konsepsiyasida aniq belgilab berilgan. “Ta’lim to’g’risida’’gi Qonun 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo’lib , u 5 bo’lim va 34 moddadan iborat. Qonunning 5-moddasida pedagoglik faoliyati bilan shug’ullanish huquqi aniq ifodalangan: “Tegishli kasb-kor malakasiga ega bo’lgan, o’zida yuksak axloqiy jihatlarni mujassamlashtirgan kishilar pedagoglik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga egadirlar’’.[1] Ko’rinib turibdiki, kasbiy malumotga ega, har tomonlama yetuk, keng dunyoqarash hamda axloqiy jihatdan o’z o’quvchilariga o’rnak bo’la oladigan kishilar o’qituvchilik kasbi bilan shug’ullanishlari mumkinligi ta’kidlab o’tilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim konsepsiyasida o’qituvchi-mutaxassisning vazifalari quyidagicha belgilanadi: “Mutaxassis malakasi-chuqur umumiy bilim, keng dunyoqarash va kasb tayyorgarligi, kompyuter savodxonligi, o’z bilimini tezlik bilan yangilash va to’ldira olish qobiliyati singari omillardan tashkil topadi. Shular qatorida uning intizomi, mas’uliyat, ziyolilik, o’z ishiga, mamlakati mustaqilligiga, Vatan va jahon taraqqiyoti yo’lida ezgulik va adolatga sadoqat tuyg’ularini ham tarbiyalash zarur’’.[2] Bugungi islohotlar davri o’qitishning samarali metodlarini yaratishni, o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni, inson shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning yetakchiligini ta’minlashni, o’quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg’ularini e’tiborga olib, ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda. Pedagogik jarayondagi ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish uchun o’qitish sifatini tubdan yangilash, o’qituvchi va o’quvchining hamkorlikdagi munosabatini yo’lga qo’yish, o’zaro sog’lom raqobat muhitini qaror toptirish va yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etishimiz maqsadga muvofiqdir. O’zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga binoan ishlab chiqilgan 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ning to'rtinchi va beshinchi boblari alohida ta'lim tarbiya masalalari, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ma'naviy taraqqiyot va inson manfaatlarini rivojlantirishga qaratilganligi mamlakatimizda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi va ta'limga e'tibor nechog'lik muhimligini ko'rsatadi. Jumladan, ushbu taraqqiyot strategiyaning 44-maqsadida: maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqishni alohida takidlab o'tilgan. [3]. Zamonaviy ta'lim tizimi har bir pedagogdan juda katta kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishni, o'qitishning eng ilg'or texnologiyalarini o'zlashtirishni, fanning so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lishni, o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish malakasiga ega bo'lishni taqozo etmoqda.

Но на данный момент в образовательных педагогических программах для педвузов, технология STEAM или совсем не упоминается, или упоминается вскользь в курсе изучения технологий проблемного обучения и проектов. Для выявления готовности будущих учителей к формированию проектно-исследовательских компетенций, в марте 2024 года в Наманганском государственном университете было проведено анкетирование. В опросе приняли участие 113 студентов. По данным нашего опроса, менее 12% студентов вуза знакомы с концепцией STEAM – обучения, 24% имеют общее представление, остальные – 64% ничего об этом не знают. Результаты проведенного исследования подтверждаются исследованиями из других вузов[2]. Эти данные свидетельствуют о том, что на передний план выходит не только проблема готовности педагогов к реализации новых образовательных программ, но и проблема подготовки будущих педагогов к осуществлению практико-ориентированной образовательной деятельности, основанной на формировании проектно-исследовательских компетенций в рамках STEAM – образования.

Реализация концепции STEAM – образования в Узбекистане ставит перед высшей педагогической школой задачу подготовки кадров-учителей, обладающих метапредмет-

ными и проектно-исследовательскими компетенциями. Это означает, что выпускник педагогического вуза, кроме умений решать стандартные профессиональные задачи в сфере обучения, воспитания и развития подрастающего поколения, должен быть готов к генерации новых идей и реализации их в проектах, к проведению научных исследований и внедрению их результатов.

На основе всего вышеизложенного, рекомендуется в качестве одной из возможных инноваций в подготовке педагогов для STEAM – образования в Узбекистане – введение в программу обучения междисциплинарного курса «STEAM», объединяющего дисциплины и практики по каждому блоку STEAM. Блок SCIENCE должен включать такие дисциплины, как «Физика», «Биология» «Химия», «Естествознание» и, возможно, и другие предметы по усмотрению учебного заведения. В блоке TECHNOLOGY должны быть представлены такие направления как «Образовательная робототехника», «Технологии использования цифровых ресурсов», «Дистанционные технологии обучения». Дисциплины блока ENGINEERING следует ориентировать на формирование у студентов проектно-исследовательских компетенций, навыков в конструировании и моделировании, необходимых будущему педагогу. Категория ARTS, реализуемая в соответствующем модуле, предполагает творческую учебную деятельность в рамках таких предметов как «Дизайн», «Мировая художественная культура», «Артпедагогика» и др. И блок MATHEMATICS должен включать математические дисциплины, в том числе информатику и программирование.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента республики Узбекистан за № 134 «Об утверждении Национальной программы по развитию народного образования в 2022 – 2026 годах».

2. Анисимова Татьяна Ивановна, Сабирова Файруза Мусовна, Шатунова Ольга Васильевна ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГОВ ДЛЯ STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ // Высшее образование сегодня. 2019. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/podgotovka-pedagogov-dlya-steam-obrazovaniya (дата обращения: 17.04.2024).

3. Кудинова О.С., Скульмовская Л.Г. Проектная деятельность в вузе как основа инноваций//Современные проблемы науки и образования. 2018. №4

4. Электронный ресурс: https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php/?id=21454

ZAMONAVIY VA INTEGRATSION TA’LIM – O’QUVCHI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH KAFOLATI

Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna,
NamDU pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrasi katta o’qituvchisi, p.f.f.d., (PhD)

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat konsepsiyasini amalga oshirish”, “Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkori” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renensans”[1] g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, “Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etishga alohida urg‘u berishini hisobga olgan holda, zamonaviy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish”[1] kabi vazifalar belgilab berilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida mazkur jarayonni bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimini yaratishni ko’zda tutadi.

Harakatlar strategiyasining to’rtinchi ustivor yo’nalishida ham ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish nazarda tutilgan.

- uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

- ta’lim muassasalari tarmog’ini kengaytirish va ushbu muassasalarda o’quvchilarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zamonaviy darslarni tashkil etishda pedagoglar O’rta Osiyoda ta’limning barcha masalalariga Al-Xorazmiy,

Al-Farg’oniy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az-Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Ulug’bek, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg’ariy, Alisher Navoiy singari ko’plab daholarning asarlarini integratsiyalashgan holatda o’quvchilar ongiga singdirish bugunimizning eng dolzarb masalalaridan biridir, chunki, ular ilm-fan, adabiyot va san’at, ta’lim-tarbiya, ma’naviyatni rivojlantirishga, umuman, o’quvchilarni faolligini oshirishga beqiyos hissa qo’shganlar.

Xalqimizning mard qahramon farzandlaridan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurning hayoti, ularning bosib o’tgan yo’li, butun faoliyat yo’li, butun faoliyati bugungi va kelgusi avlod uchun ibratli ekanini hamisha yodda tutish lozim. Chunki, o’sha fan arboblari-yu xalq qahramonlarining faoliyati har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

O’zbekistoning barkamol avlodiga yanada mukammalashtirilgan ta’lim berish va ularga ta’lim berish jarayonida buyuk mutafakkir olimlarimizni ijod yo’llarini tanishtirib, yoshlarda yanada mustaqil O’zbekistonimizga vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng asosiy vazifalardan biridir.

Bugungi kunda zamonaviy o’qituvchi darsini o’tishi bilan birga milliy urf-odatlarimiz, an’ana va qadriyatlarimiz, xalq og’zaki ijodini o’quvchi ongiga singdirib, darsni integratsiyalashgan tarzda tashkil etishi kerak. Shu jihatdan har tomonlama mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va ma’orifni yuksaltirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustivor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Zeroki, istiqlol davrida ma’naviy merosimizni tiklashda amalga oshirilgan ulug’vor ishlar, tariximizni xolisona o’rganish, ulug’ allomalar adabiy-ilmiy asarlarining tarjima va nashr qilinishi, ta’lim berishni takomillashtirish, adabiyot, san’at sohasidagi yutuqlar – bularning barchasi jamiyatda ma’naviy-ruhiy ko’tarilishga olib keldi va iqtisodiyotimizning ustivor yo’nalishlaridagi islohotlarga qo’shimcha kuch bag’ishladi.

Sharq allomalari va mutafakkirlari yosh avlodni tarbiyalash, kasbga yo’naltirish bo’yicha tengi yo’q fikr, g’oyalarni ilgari surganlar, ta’limotlar yaratganlar. Ilmiy merosni sinchkovlik bilan o’rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish hamda jahon fanining mazkur sohadagi yutuqlari bilan taqqoslash o’zligimizni anglash imkonini kengaytirib, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-e’tiborini yanada oshiradi. Milliy pedagogikamiz tarixini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash bo’yicha ajdodlarimizning asrlar davomida to’plagan tajribalarini o’rganish esa ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Bugungi zamonaviy ta’lim ham integratsiyalashgan darsni talab etadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar asosida o’quvchi – talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo’lishliklarini ta’minlaydi.

Integratsiya **–** lotincha “integration” so’zidan olingan bo’lib, qayta qurish, tiklash, to’ldirish; “integr” – to’liq, butun, yaxlit degan ma’noni anglatadi. Integratsiya – o’quv

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // qonunchilik ma’lumotlari milliy ba’zasi, 29.04.2019 y., Elektron resurs. https://lex.uz/docs/431275.

fanlarining o’zaro aloqadorligi, bir-biri bilan birlashib ketish, bir-biriga o’zaro singdirish, bir-biri bilan birlashib yangi, yagona barqaror umumlashgan yaxlit g’oyani hosil qilish.

O’qitishning integratsiyalashuvi-o’quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o’zaro aloqadorlik bog’lanish asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir. Integratsiyalashgan ta’limni o’quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo’lmasin, qaerda o’tkazilmasin darsda o’qituvchi bilan o’quvchining hamkorlikda ishlashini va o’quvchini faolligini oshirishi va natijada yuqori o’zlashtirishlarni ta’minlashi lozim. Bunda o’qituvchi faqat fasilitator (yo’l-yo’riq ko’rsatuvchi, kuzatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi.

Masalan, o’qituvchi kichik guruhlarda ishlash jarayonida “Fikriy hujum” (“Fikr jangi”), “Sinektika”, ”Mojaro” metodi, “Dumaloq stol”, “Stol o’rtasidagi ruchka”, “Galeriyani aylanish”, “Akademik munozara”, “Qorbo’ron” metodi, “Asalari galasi”, “Kritik vaziyatni taxlil qilish” metodlari ustida ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, bir fanni boshqa fanlarga ham bog’lagan holatda, shu bilimlarni yanada mustahkamlashga erishish mumkin.

“Ruchka stol ustida” metodini qo’llash jarayonida o’qituvchi butun guruhga topshiriq beradi. Har bir o’quvchi bitta javob variantini bir varoq qog’ozga yozib,uni qo’shnisiga beradi,o’z ruchkasini esa stolning o’rtasiga surib qo’yadi.

Topshiriqqa misol: Sharq mutafakkirlari va qomusiy olimlarimizning ulkan merosini hayotiy misollar bilan sharxlab berish.

Ajratilgan 10 – 15 daqiqa vaqtichida guruh mumkin qadar ko’proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog’ozga yozilgan topshiriq bir o’quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O’quvchi javobini yozib, qog’ozni keyingi o’quvchiga uzatadi, ruchkasini esa, o’ziga ro’baro qilib, stolga qo’yib qo’yadi. Javobni bilmaydigan o’quvchi qog’ozni keyingi o’quvchiga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo’lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki marta qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo’lishiga bu o’rinda yo’l qo’yilmaydi.

Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog’oz o’qituvchida. U o’sha variantlarni sanab o’tadi. Variantlar sanab o’tilar ekan, ularning har biri biryo’la muhokama qilib boriladi: “Ruchka stol o’rtasida” metodining birqancha afzalliklari bor:

- o’qituvchi mashg’ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko’rib turadi;
- mashg’ulotga tayyorlanmagan o’quvchi og’zaki muhokama paytida ko’rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin;
- bu guruhda olib boriladigan ish bo’lib, o’quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o’z variant ustida juda uzoq o’ylab o’tiradigan o’quvchi butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflaydi;
- o’quvchilar o’z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og’zaki muhokama vaqtida taxlil qilib chiqyapti va mavzuni xotirasida uzoq muddat saqlab qolishga erishilyapti.

Ushbu integratsiyalashuv orqali o’quvchilarning yozma malakalari bilan birga, mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritish bilan birga o’quvchining faollashuvi rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Adabiyotlar:

1. O’.Q.Tolipov “O’qituvchilar tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalar” Xalq ta’limi j. 2000 №2.
2. Sh.X.Xonqulov, O’quvchi-yoshlarda ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Farg’ona – 2018.
3. I.V.Xoldarova. Innovatsion yondoshuvlar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. Farg’ona – 2018.
4. K.R.Abdullayeva. Xalq pedagogikasi vositasida o’quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari. Diss. Namangan – 2023.

«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ»

Хусанов Аъзамжон Ахмаджанович,
НамГУ,
старший преподаватель кафедры управления образованием

Аннотация. *В статье рассматривается научная организация педагогической деятельности будущих учителей – логопедов в контексте инклюзивного образования как педагогическая проблема, ее педагогические и психологические особенности, технологии подготовки к педагогической деятельности и актуальные проблемы.*

Ключевые слова: *дети с особыми потребностями, инклюзивное образование, социальная среда, интеграция, церебральный паралич, реабилитация, сегрегационное обучение, дифференциация, адаптация.*

Abstract. *This article discusses the scientific organization of the pedagogical activity of future teachers – speech therapists in the context of inclusive education as a pedagogical problem, its pedagogical and psychological features, technologies of preparation for pedagogical activity and current problems.*

Keywords: *children with special needs, inclusive education, social environment, integration, cerebral palsy, rehabilitation, segregation education, differentiation, adaptation.*

Главной целью и движущей силой прогрессивных реформ, реализуемых в сфере образования в Новом Узбекистане, являются развитые страны, всесторонне развитые, проникнутые национальной гордостью и традициями, богатые новыми новаторскими взглядами, способные в полной мере выражать свое независимое мнение. Воспитать физически развитого, интеллектуально развитого человека, способного участвовать в соревнованиях во всех аспектах.

В выступлениях Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева 1 октября 2020 года на торжественной церемонии, посвященной «Дню учителей и наставников» – «Сегодня каждый учитель и воспитатель, преподаватель вуза – лучший в сфере образования и науки говорят, что это должны быть самые передовые представители современности и общества, умеющие применять последние положительные новости в образовательных процессах, обладающие глубокими знаниями и мировоззрением. [1]

В частности, глава нашего государства уделяет особое внимание развитию системы дошкольного образования, которая является первым и важнейшим звеном в воспитании подрастающего поколения. Также наш уважаемый Президент Шавкат Мирзиёев сказал, что «если мы с младенчества не будем правильно формировать их сознание и мышление, привлекая педагогов, которые досконально знают свое дело, имеют квалификацию и могут подойти к каждому ребенку индивидуально, то мы будем кайфовать в будущем». «Будет сложно воспитать зрелое поколение, обладающее качеством, знаниями и духовностью». [2]

Закон Республики Узбекистан «Об образовании» 2020 года, Указ Президента Республики Узбекистан № PQ-4860 от 13 октября 2020 года и прилагаемая «Народное образование на 2020 – 2025 годы, концепция развития инклюзивного образования». в системе». Статья 20 (Инклюзивное образование), статья 55 (Образование и воспитание детей (лиц) с физическими, психическими, сенсорными или умственными недостатками) настоящего Закона, статья 56 (Нуждающиеся в социальной реабилитации образование и воспитание детей (лиц) являются ориентированный на обучение детей, нуждающихся в особой поддержке, подчеркивает необходимость развития профессиональной деятельности будущих педагогов-логопедов в условиях инклюзивной образовательной среды.[3]

Как видно из вышеизложенных идей, наша работа в сфере инклюзивного образования и наша диссертация на эту тему являются очень актуальными темами. Если

мы посмотрим на разные эпохи человеческой цивилизации, то увидим, что проблемы населения, нуждающегося в социальной защите, стали одной из важных проблем в любом обществе. Этот исторический путь долог, на нем инвалиды ощущают не только доброту и сострадание, но и разное отношение, такое как пренебрежение, ненависть и даже агрессию.

Однако за последние многие годы в отношении таких лиц не наблюдалось отношений сотрудничества на основе равенства. На этих философских воззрениях в последние годы базируется инклюзивное образование, получающее все большее признание мирового сообщества. придет. То есть такое образование направлено на то, чтобы каждый ребенок имел свободу выбора вида образования, право находиться в семье, расти в своем доме и районе, равноправно получать образование. Сегодня в систему образования все чаще входит термин «инклюзивное образование», под которым понимается обучение детей с особыми потребностями в общеобразовательных школах, исключающее дискриминацию и обеспечивающее благоприятные условия для каждого ребенка.

Эффективность внедрения инклюзивного подхода в систему образования, прежде всего, заключается в том, что учащиеся понимают социальную значимость своей профессии, имеют высокую мотивацию к осуществлению профессиональной деятельности, знают возрастные и психологические особенности учащихся, имеющих различные патологии развития, образование зависит от подготовки квалифицированных педагогических кадров, способных осуществлять конструктивное педагогическое сотрудничество между всеми субъектами среды.

Идея инклюзивного образования пришла в нашу республику в 1996 году. Прежде чем приступить к внедрению инклюзивного образования, необходимо работать, исходя из идеи, что семья – это наиболее эффективное место для развития ребенка с теми или иными отклонениями в развитии, и что присутствие ребенка дома в своей семье является одним из самые основные правила начинается.

По статистике, в Узбекистане официально зарегистрировано более 710 тысяч людей с ограниченными возможностями. Из них более 101 000 – дети-инвалиды в возрасте до 16 лет. До сих пор имеются недостатки в включении этих детей в образование.

Например, есть дети с ограниченными возможностями, которые не охвачены образованием и остаются дома. Если в школах будут созданы условия для инклюзивного образования, то из 101 тысячи детей с ограниченными возможностями 80 тысяч смогут ходить в школу. Это требует от нас серьезного подхода к системе образования детей с особыми потребностями. В частности, ярким подтверждением нашего мнения является тот факт, что правовые основы специального образования обновляются в соответствии с новым временем и применяются в нашей повседневной жизни.

Сегодня в 86 специализированных школах и школах-интернатах для детей с отклонениями в физическом и умственном развитии обучаются 21200 учащихся, в 21 школе-интернате санаторного типа получают образование 6100 учащихся. Также 13 300 студентов, нуждающихся в длительном лечении, обучаются индивидуально на дому.

В целях развития практики обучения детей с особыми образовательными потребностями наравне со здоровыми детьми в общеобразовательных школах, интеграция учащихся, обучающихся в специализированных образовательных учреждениях, в общеобразовательные школы (адаптация обучения – как результат применения опыта воспитания.

За последние годы в общеобразовательные школы было возвращено около 500 учащихся с особыми образовательными потребностями. В настоящее время в более чем 3200 общеобразовательных школах инклюзивным образованием обучаются около 13 тысяч учащихся. В инклюзивные классы этих школ были приняты 76 учащихся. В психолого-педагогическом республиканском диагностическом центре профессиональной ориентации студентов создана лаборатория инклюзивного образования. «Критерии определения качества и эффективности инклюзивного образования», «Использование

инновационных технологий в инклюзивном образовании детей с особыми потребностями» методика для руководителей, психологов и педагогов лабораторией методических пособий инклюзивного образования и 17 наименований для инклюзивных классов, 28 наименований для коррекционных 1-х классов и 28 наименований для коррекционных классов, разработано учебное пособие под названием «Красиво слышим, видим, говорим».

Несмотря на вышеуказанные действия, в сфере инклюзивного образования в нашей стране существуют следующие проблемы, в том числе:

В сфере организации инклюзивного образования:

- в некоторых образовательных учреждениях, где обучаются дети с особыми образовательными потребностями, для них не создана без барьерная среда и возможности;
- образовательные учреждения, в которых обучаются дети с особыми образовательными потребностями, недостаточно обеспечены необходимой литературой, методическими пособиями, оборудованием и инвентарем для обучения различным профессиям;
- в результате недостаточной информированности населения о праве на образование детей с особыми образовательными потребностями, сути системы инклюзивного образования, родители своих детей с особыми образовательными потребностями не имеют достаточной информации о возможности преподавания в общеобразовательных учреждениях;
- пять инициатив, включающих комплексные меры, направленные на создание дополнительных условий для обучения детей с особыми образовательными потребностями, не реализованы в полной мере;
- недостаточное внимание уделяется местными исполнительными органами решению проблем, связанных с вовлечением детей с особыми образовательными потребностями в инклюзивное образование;

В области подготовки кадров:

- требуется качественно обновить содержание системы инклюзивного образования в общеобразовательных учреждениях;
- возникает ряд проблем в обучении детей с особыми образовательными потребностями вследствие недостаточного уровня профессиональной подготовки и профессиональной квалификации педагогических кадров для инклюзивного образования;
- предметы, связанные с методологией инклюзивного образования, не включены в образовательные программы высших учебных заведений по направлению педагогика;
- то, что программы инклюзивного образования не включены в учебники педагогики и методики, а также то, что будущие педагоги не проходят практику в образовательных учреждениях, где занимаются дети с особыми образовательными потребностями, отрицательно сказывается на качестве их обучения. профессиональная подготовка;
- отсутствие у руководителей и педагогов общеобразовательных учреждений достаточной информации об инклюзивном образовании снижает эффективность внедрения инклюзивного образования;
- в образовательных учреждениях повышения квалификации и переподготовки педагогических кадров не были организованы учебные курсы по обучению детей с особыми образовательными потребностями, в их деятельность не внедрены современные информационно-коммуникационные технологии инклюзивного образования;

В области организации образовательного процесса:

- методика предоставления инклюзивного образования детям с особыми образовательными потребностями в общеобразовательных учреждениях недостаточно разработана;
- критерии определения качества и эффективности инклюзивного образования для детей с особыми образовательными потребностями не до конца разработаны;
- дети с особыми образовательными потребностями недостаточно обеспечены необходимой специальной учебной литературой и методическими пособиями*;*

Целью нашего анализа, исходя из вышеизложенного, является развитие системы инклюзивного образования, обеспечивающей широкие возможности обучения и образования для всех детей, независимо от индивидуальных особенностей, предыдущих образовательных достижений, языка, культуры, социального и экономического статуса родителей. создать необходимые условия для успеха.

Завершить эту статью хотелось бы следующим мнением Зироат Мирзиёевой, председателя Попечительского совета Фонда «ЗАМИН»: «Права и свободы всех детей должны быть гарантированы на одинаковом уровне. Их интересы должны быть приоритетными. Каждый ребенок в мире заслуживает этого. Дети с ограниченными возможностями являются полноправными членами общества. Несомненно, очень важно создать для них необходимые условия для активной и приятной жизни", – сказал он в своем выступлении. [4]

Список использованной литературы.

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии, посвященной «Дню учителя и тренера» 1 октября., г. Ташкент., 1 октября 2020 года.

2. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на видеоселекторном совещании, посвященном «Анализ эффективности принимаемых мер по реформированию и развитию системы дошкольного образования», Ташкент, 14 февраля 2018 года.

3. «Закон об образовании» Республики Узбекистан, г. Ташкент, 2020 г.

4. Из выступления Зироат Мирзиёевой, председателя попечительского совета фонда «ЗАМИН», на международном форуме высокого уровня, посвященном Всемирному дню ребенка и 75-летию ЮНИСЕФ «Обеспечение инклюзии детей с ограниченными возможностями» , Ташкент, 19 ноября 2021 г.

5. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с ограниченными возможностями». Ташкент., 1 декабря 2017 г., №ПФ-5270.

Электронные учебные ресурсы

1. www. тдпу. ru
2. www. педагог. ru
3. www. повреждать ru
4. www. образование. ru

BOSHLANG’ICH SINFLARDA O‘QITUVCHI-O‘QUVCHI FAOLIYATINI MODELLASHTIRISHNING ILMIY METODIK MANBALARDA YORITILISHI AHAMIYATLILIGI

Kirg’izov Nuriddin Olimjonovich,
Namangan davlat pedagogika instituti
(PhD) katta o’qituvchisi
Тел. 902793130 nuriddinqirg’izov43 @ gmail.com

Annotasiya. *Maqolada boshlang’ich sinflarda ona tili darslarini o’qitishning maqsad va vazifalar foydalaniladigan usullar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *maktab, boshlang’ich sinflar, darslarda o‘yinlardan unumli foydalanish, o’qituvchi uslubi, ko‘rgazmalar, tarqatmalar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются цели и задачи обучения на уроках родного языка в начальной школе.*

Ключевые слова: *школа, начальные классы, эффективное использование на уроках игровых методов, стиль учителя, выставки, раздаточный материал*

Annotation. *There is an idea about. Some ways,which is used during the teaching mother tongue lessons for the primary schools in this article.*

Key words: *shohool, primary schools, subject, images, adjective, game method, numeral exhibitions.*

Ma’lumki, XXI asr – axborot asri. Bu asrda faol hayot kechirayotgan shaxs uchun zarur bilimlarning barchasini egallash imkoniyati cheklangandir. Buning uchun esa har bir o‘quvchi axborot banklarini bilishi va ular bilan ishlash ko‘nikmasini egallashi lozim. Xususan, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, ularning ongiga ijodiylik urug‘larini sepish va undirish darkor. Yan Komenskiyning muallimlar kamroq gapirib, o‘quvchilar ko‘proq bilim olish yo‘llarini izlashlari zarurligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham xuddi XVII asrdagidek dolzarbdir. Ta’lim oluvchiga bilimlarni nafaqat qanday va qanaqa tarzda yetkazish emas, balki o‘quvchida bilimni qanday hosil qildirish: tinglabmi, mustaqil o‘qibmi, dars davomidami yoki o‘qituvchi rahbarligidagi tizimli mustaqil faoliyatdami, kuzatish, izlanish, topish, qiyoslash, umumlashtirish va h.k. asosidami kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim usuli, malaka va ko‘nikma hosil qilish yo‘llari muammosi bilan bog‘lanib ketadi. Quyida ta’lim usullarining ta’lim maqsadi bilan mutanosibiligi ustida fikr yuritamiz.

Ko‘nikma va malakalar shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilaydi. Shuning uchun davlat va jamiyatning ta’lim tizimi hamda shaxs oldiga qo‘yayotgan talablari, ya’ni ijtimoiy buyurtmasi o‘qitish tizimida ta’lim mazmunini belgilashda o‘z aksini topishi lozim.

O‘quvchida o‘quv-biluv jarayonida hosil qilingan ko‘nikma va malakalar ko‘proq o‘zgarib turadigan sharoitlardagi harakatlarni ongli ravishda puxta bajara olishi, natijalarning ishonchli bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish o‘quv-biluv jarayonida o‘quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanganidek, o‘quv topshiriqlari – aqliy yoki amaliy ishni egallash yoki uning sifatini oshirish maqsadida o‘quvchi o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlarni uning real bilish imkoniyatlariga moslashtirishdan iboratdir.

Bugungi kunda davlat va jamiyat bilimli shaxsni emas, balki bilimlaridan jamiyat talablariga mos foydalanuvchi, bunday odat uning tabiatiga aylangan, ya’ni tarbiyalangan, madaniyatli, ma’naviyatli shaxsni yetishtirib chiqarishni maktab ta’limi oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Demak, fikr nafaqat ko‘nikma va malaka tizimi, balki bilim – ko‘nikma malaka o‘quvchi egallagan shaxsiy sifatlar uzviy tizimi haqida borishi kerak. So‘ngi bosqichga ko‘tarilgan, ya’ni shaxsiy sifatlarga ega bo‘lgan o‘quvchigina mujassam rivojlangan shaxs hisoblanadi.

O‘quvchi egallagan bilimlarini ijtimoiy sharoitga mos tarzda ma’naviy-axloqiy me’yorlarga muvofiq amalga tatbiq etishi lozim. O‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotga to‘la tatbiq eta oladigan o‘quvchigina muayyan ko‘nika, malaka hamda shaxsiy sifatlarni egallagan hisoblanadi. Bu esa ta’lim oluvchining bilimni quruq yodlamasligi, balki uni ta’lim usuli, ta’lim metodlari bilan uzviy bog‘liqlik, aloqadorliklarda o‘zlashtirishi, ularda ijodiylik tabiatini shakllantirishdan iboratdir. Bilimlar tizimida o‘zaro aloqadorlik bog‘lanish, taqqoslash, sabab-natija munosabatlari bo‘lmasa, u o‘quvchi shaxsi tafakkurini rivojlantira olmaydi. O‘quvchilarga bilimlarni taqdim etishning, shu asosida muayyan ko‘nikma, malakalar hosil qilishning xilma-xil vosita, yo‘l va usullari mavjud.

Usul – faoliyatni amalga oshirish yo‘li bo‘lib, u ko‘zlangan maqsadga erishishga olib boradi, ya’ni maqsadning natijaga aylanishi usul orqali amalga oshiriladi. Usul insonning bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror obyektni amaliy o‘zgartirishdan iborat. Usul aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga keladi. Inson amaliy harakatining usullari anglanuvchi moddiy omilga aylangach, bu usullar tafakkur manbalari shakliga ega bo‘ladi. Faoliyat usullarining asosiy mazmunini avvalo amaliyotda sinalgan hodisalar, masalan, tadqiqot, bilish yo‘li, nazariya, ta’limotlar tashkil etadi. Faoliyat usullari orqali amalga oshirilgan

keyingi maqsadni yoki bosh maqsadni yaratuvchi yoxud amaliyot mazmunining izchilligini belgilovchi usullar vazifasini bajaradi.

Faoliyat usullari qanchalik to‘g‘ri bo‘lsa, ko‘zlangan natijaga shunchalik aniqlik bilan erishish mumkin. Bugungi kunga qadar insoniyat tomonidan faoliyat usullarining boy xazinasi to‘plangan. Ammo ilm-fan, texnikaning to‘xtovsiz rivojlanib, murakkablashib borishi, yangi imkoniyatlarning vujudga kelishi ularni hal etish usullarini muttasil takomillashtirishni talab etadi. Bular, albatta, ta’lim jarayoniga ham bevosita aloqadordir.

Ta’lim usuli ta’lim mazmunining namoyon bo‘lish shakli bo‘lganligi sababli pedagogikaga oid adabiyotlarda, ta’lim mazmuni haqidagi nazariy yondashuvlarda, ma’lum bir mavzuni o‘quv-biluv jarayonida o‘rgatishda, metodik ishlanma va tavsiyalarda ham keng muhokama etiladi. Ma’lumki, didaktik jarayon o‘quvchiga bilim berish, uni ijodiy faoliyatga yo‘llash, unda muayyan ko‘nikma va malaka hosil qilish, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik hamda ijodiy yondashishni o‘rgatish, xilma-xil yo‘l, usul hamda vositalardan foydalanishni talab qiladi.

Boshlang’ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, uning mahsuli bo‘lgan mustaqil fikrni yozma va og‘zaki shakllarda to‘g‘ri hamda ravon bayon qilishni o‘rgatishga xizmat qilmog‘i lozim. Bu maqsad uchun eng qulay usul o‘quvchilardan qoidalar yodlashni talab qilish emas, balki hodisalarni kuzatish, ularni umumlashtirish, narsa-buyum, holatlarni o‘zaro qiyoslash, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan o‘quvchilarni o‘ylash, fikrlash, izlash, topish va umumlashtirishga undovchi ta’lim usuli, muammoli vaziyatlar, mashq va topshiriqlarni talab etadi.

Ta’lim maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida hukumat qaror, buyruq va ko‘rsatmalari bilan ta’lim mazmuni, uni o‘zida ifodalagan o‘quv vositalari ta’lim maqsadiga muvofiq ravishda mutaxassislar tomonidan tanlanadi. Bu esa o‘quv-biluv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni taqozo qiladi. Muayyan o‘quv predmetidan tuziladigan darslik yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda muhim ahamiyatga ega. Zeroki, o‘quv dasturi asosida tuzilgan darslik ta’lim mazmunini aks ettiruvchi o‘quv materiali, uning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilish usullari, o‘quvchi va o‘qituvchi uchun zarur hisoblangan tahlil, umumlashtirish uchun material, o‘quv materiallari mazmunini uyg‘unlashtiruvchi qonuniyatlarni o‘z ichiga oladi. Darslik – ta’lim oluvchi uchun ma’lum miqdordagi bilimlarni, malaka, ko‘nikma, odatlarni o‘ziga singdirish uchun o‘rganiladigan manba. Ammo faqat darslik bilan ishlash tom ma’nodagi ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

Boshlang’ich sinf ona tili darsligida beriladigan o‘quv topshiriqlari o‘quvchining mustaqil izlanishi uchun yo‘llanmalar berganda, ularning axborot banklariga doimiy ehtiyojini qondirganda, ijodiy faoliyatga undagandagina ta’lim maqsadiga muvofiq kelishi mumkin. Shuning uchun darslik bilan dars davomida o‘quvchi bajarishi nazarda tutilgan topshiriqlar tizimi va zaruriy o‘quv materialini aralashtirmaslik lozim. Biz darslik deganda, mavzu talqini, o‘quv materiali, o‘quvchi bajarishi lozim bo‘lgan mashq, masala, topshiriqlar tizimini o‘z ichiga olgan majmuani tushunamiz. Haqiqiy ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish va rivojlantirishga mo‘ljallangan darslik bugungi kunda mavjud bo‘lgan darsliklardan farq qilishi lozim. Demak, ta’limning yangi maqsadiga erishish uchun yangi tipdagi darsliklar zarur. Ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish uchun o‘quv materiali darslik materiallaridan ancha keng bo‘lishi talab etiladi. Jumladan, ona tili darsliklari o‘quvchilarni xilma-xil lug‘atlardan (axborot banklaridan), qomuslardan, ma’lumotnoma (spravochnik)lardan, maktabda o‘qitiladigan boshqa o‘quv predmetlari bo‘yicha olgan bilimlari va ma’lumotlaridan, tajribali kishilar (o‘quvchilarning yaqinlari)dan qo‘shimcha material olishga, bu darslikda berilmagan materiallar ustida ijodiy ishlar tizimini loyihalashtirishga undamog‘i lozim, shu holatdagina ko‘zlangan maqsadga oson yo‘l bilan erishish mumkin bo‘ladi. O‘qituvchi darslikda berilmagan materiallar hisobidan har bir darsda o‘tiladigan o‘quv materiallarini kengaytirgan holda o‘quv-biluv jarayonini loyihalashtirishi kerak. Ta’limning yangi maqsadiga erishish yangi tipdagi darsliklarni taqozo qiladi. Bunday darsliklar yordamida o’quvchi, axborot manbalarini chuqur biladigan, undan o‘ziga kerakli ma’lumotlarni tez topa oladigan, bulardan o‘zi yashab turgan muayyan sharoit uchun eng qulay va unumlisidan foydalana oladigan faol shaxsni yetishtirish imkonini beradi.

Shuning uchun yangi darsliklar mashqlar, masalalar, qoidalar yoki aksiomalar majmuasidan emas, balki o‘quv topshiriqlari tizimidan iborat bo‘lmog‘i kerak.

Ma’lumot mazmuni, shuningdek, o‘qitish va o‘qish uchun sinfga olib kirilgan qismi ta’lim mazmunini ijodiy egallash (o‘zlashtirish) muammosi, bir tomondan, ijodiy faoliyat tajribasining o‘rganilayotgan o‘quv materiallarida moddiylashganligi, ikkinchi tomondan esa ijodiy faoliyatni egallash usullari, vositalarini aniq tanlay olish bilan xarakterlanadi.

Yosh avlod ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish, ularda Vatanni sevish tuyg‘usini uyg‘otish boshqa fanlar qatori ona tili talimida ham muhim o‘rin egallaydi. Vaholanki, boshlang’ich sinf ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar turli mavzularda yoki rasm asosida matnlar tuzish vositasida fikr mahsulini ravon va to‘g‘ri ifodalash bo‘yicha amaliy ko‘nikma hamda malaka hosil qilishlari lozim. Ona tili mashg‘ulotlarida quyidagi matnlar tahlili, tasviriy vositalar, iboralar, so‘z ma’nolari ustida ishlash, matn mazmunining g‘oyasini izohlash ham o‘quvchilarga ma’naviy ozuqa beradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limining ustuvor maqsadi sifatida o‘quvchi shaxsi kamolotini ta’minlashni e’tirof etish va butun ta’lim mazmunini xuddi mana shu maqsadga yo‘naltirish lozim.

Adabiyotlar ro’yhati

1. O’zbekiston Respublikasi “Ommaviy axborot vositalari to’g’risida”gi qonun – 2018 yangi tahrir.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi” to’g’risidagi farmonida – 2017; PF-4947sonli

3. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2022. – 354 b.

4. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o`qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2009. – 70 b.

5. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o’qish savodxonligi 2-sinf. – Toshkent, 2021. – 120 b.

7. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o’qish savodxonligi 1-sinf. – Toshkent, 2021. – 104 b.

8. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov. Ona tili va o’qish savodxonligi 3-sinf. – Toshkent, 2022. – 144 b.

FAZOVIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISH ODDIY QIRQIMLARDAN FOYDALANISH

Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti v.b. dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqola umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilariga chizmachilik darslarini o‘tish jarayonida oddiy qirqimlar bajarish mavzusini yangi innovatsion texnologiyalar asosida o‘tish hamda o‘quvchilarning fazoviy tasvvvurlarini o‘stirish bo‘yicha yangicha yondashish ko‘rsatib berilgan. Maqolada qirqim va uning turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kesim, oddiy qirqim turlari, aksonometriya, standart, chizmachilik, grafika.*

O‘zbekiston Respublikasining 2017 – 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishida “Harakatlar strategiyasi”da ta’lim va fan sohasini rivojlantrishning uzluksiz ta’lim tizimni yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom

ettirish; kelajakda zamonaviy xalqaro standartlarga mos keladigan ziyolilar safini yanada ko‘paytirish omillari to‘laqonli bayon etilgan. Umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtrish, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qatiy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyatni rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi masalalar qo‘yildi.

Bunday vazifalar umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlarida chizmachilik fanini o‘qitishda ta’lim sifati hamda samardorligni oshirishga katta e’tibor qaratilishi lozimligni bildiradi. Bu esa o‘qituvchi-pedagoglar zimmasidagi ma’suliyatini yanada oshiradi. Dars sifati va samaradorligini oshirishda turli xil yangi pedagogik texnologiyalardan, innovatsion metodlardan foydalanishni talab etadi. Bu esa o‘qituvchidan o‘z ustida ko‘proq mustaqil izlanishlar olib borishni talab qiladi.[1]

Demak, mashg‘ulot jarayonini mukammal va o‘ylab chiqilgan andoza asosida loyihalashga erishish, ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarini puxta va chuqur o‘zlashtirishiga hamda ularga amaliy tajriba va malakalarining hosil bo‘lishiga erishish zarur bo‘ladi.

Bunda chizmachilik fanidan o‘quvchilarning chizma chizish va grafik topshiriqlarni amalga oshirishda oddiy qirqimlar bajarish usuli va mavzusi ularning fazoviy tasavvur savodxonligni oshirishga, o‘quvchilar bilim ko‘nikma va malakalarni yanada shakillantirishga asos bo‘ladi.

Qirqim-bu biror bir detalni bir yoki bir nechta teksliklar bilan xayolan kesish orqali hosil qilingan tasvir. Bunda kesuvchi tekslik yuzasida hosil bo‘lgan tasvir va uning orqa tomonida ko‘rinib turgan detal qismlari ham qo‘shib chiziladi.

Qirqimlar odatda predmetlarning ichki tuzilishlarini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Detalning ichki tuzilishini bitta tekislik orqali ko‘rsatish mumkin bo‘lsa, bunday qirqim ***oddiy qirqim*** hisoblanadi.

O‘quvchilarning oddiy qirqimlarni bajarish bo‘yicha savodxonligni takomilashtirishda quyidagi asosiy masalalarga e’tibor berish kerak.

1. Qirqim haqida tushuncha;
2. Oddiy qirqim turlari;
3. Oddiy qirqimning detalni to‘laroq tasavvur qilishdagi ahamiyati;
4. O‘quvchilarning chizma chizish jarayonida fazoviy tasavvurlarini kengaytirishda oddiy qirqimlar mavzusinig ahamiyati.

Chizmadagi tasvirlar detalning tashqi ko‘rinishi haqidagina emas, balki uning ichki tuzilishi haqida ham aniq yoki yaqqol tasavvur berishi lozim. Bizga ma’lumki, detalning ichki tuzilish shakllari ko‘rinishda shtrix chiziqlar bilan tasvirlash belgilangan.

Chizmalarda aniqroq va tushunarliroq tasvirlarni yaratish uchun qirqim deb ataluvchi shartli tasvirlash usulidan foydalaniladi. Biz oddiy qirqimlar bilan ishlashimizda qirqimning o‘zini bilishmiz zarur bo‘ladi.

Qirqim o‘zi nima?

Qirqim qanday hosil bo‘ladi va u qanaqa talablarga javob berishi kerak?

Qirqim bir yoki bir necha tekislk bilan hayolan qirqilgan buyumning tasvirdir.

Qirqim quyidagi tartib bilan hosil qilinadi.

Proyeksiyalar tekisligiga parallel bo‘lgan kesuvchi tekislik detalning go‘yo uning simmetiriya tekisligi bo‘ylab ikki bo‘lakka bo‘ladi. Qirqim bajarilyotganda uning turlariga ham alohida etibor qaratish lozim. Detalning ko‘rinishda qirqim hosil qilish uchun agar kesuvchi tekislik bitta bo‘lsa, hosil bo‘lgan qirqim oddiy qirqim deb ataladi. Kesuvchi tekslikning proeksiyalar teksligiga nisbatan shakliga qarab, qirqimlar quydagi turlarga bo‘linadi.

1. Frontal qirqimlar: bunda kesuvchi tekslik frontal proyeksiyalar tekisligiga parallel bo‘ladi.

[1] Kukiev, B., O‘g‘li, A.N.N. & Shaydulloyevich, B.Q. (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12), 49-54.

2. Gorizontal qirqimlar: bundagi kesuvchi tekislik gorizantal proeksiyalar tekisligiga parallel bo‘ladi.

3. Profil qirqimlar: bunda kesuvchi tekislik profil proeksiyalar teksligiga parallel bo‘lganda profil qirqim hosil bo‘ladi.

4. Qiya qirqim: agar kesuvchi tekslik proeksiyalar tekisligi bilan o‘tkir burchak hosil qilganda, qiya qirqim hosil bo‘ladi.

Oddiy qirqimlar kesimlardan ancha farq qiladi. Shuning uchun ham oddiy qirqimlarning farqini bilishimiz, mulohaza yuritishni o‘rgatishimiz zarur.

Chizmalarda qirqimlarning belgilanishi frontal, profil, va gorizontal qirqimlar tegishli ko‘rinishlar o‘rnida joylashishi mumkin, jumladan frontal qirqim oldidan ko‘rinish o‘rnida, profil qirqim yonidan ko‘rinish, gorizontal qirqim ustidan ko‘rinish o‘rnida joylashadi.

O‘quvchilarning fazoviy tasavvurni va taffakurni yanada oshirishga qobiliyatlarni yanada takomilashtirishga hamda berilgan detal chizmalarni yuqori darajada o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Oddiy qirqimlar bilan ishlashda aksonometrik proeksiyalarda qirqimlarni tasvirlash.

Aksonometrik qoidalarga amal qilib aniq bajarilgan detalning ichki shaklini, qirqim qo‘llanilmagan bo‘lsa o‘qish murakkablashadi. Shuning uchun ham, to‘g‘ri burchakli ko‘rinish chizmalardagi o‘xshash detalning ichki shaklini aniqlash maqsadida aksonometrik proeksiyada ham qirqim qo‘laniladi. Aksonometriyada ham qirqimlar ko‘rinishlardagi kabi frontal, profil va gorizantal qirqimlar tatbiq qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kun o‘quvchilarni chizmachilik faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ushbu fandan chuqur bilimga ega bo‘lishlari uchun oddiy qirqimlar mavzusidan sifatli dars o‘tish orqali birmuncha yutuqlarga erishish mumkin. Umuman olganda umumta’lim maktablari mashg‘ulotlarida yangicha innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarni mavzuga tadbiq etgan holda dars o‘tish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirsh bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘grisida”gi Farmoni. /Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. 112-b.

2. Raxmonov I., Valiyev A.N. Chizmachilik (chizmachilik fanida konstruksiyalash asoslari). – T., Voris-nashiryot, 2012.

3. Valiyev A., Saydaliyev S., Mardov S. “Ko‘rinishlar mavzusini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish “Xalq ta’limi” jurnali, 2013-yil 6- son, 90-bet.

4. Ro‘ziyev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2010.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI MEHNAT FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARNI AQLIY TARBIYALASH

Yakubova M.A.,
JDPU Maktabgacha ta’lim va boshlang’ich ta’lim yo’nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi v/b dotsenti

Annotatsiya. *Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo’lishini talab etadi. Ushbu maqolada mehnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash xaqida so’z borgan.*

Аннотация. *Умственная деятельность требует постоянного внимания. Эта статья о психологическом обучении детей на рабочем месте.*

Abstract. *Mental activity requires constant attention. This article is about psychological education for children in the workplace.*

Kalit so’zlar: *mehnat tarbiyasi, mustaqillik, faollik, tartiblilik, javobgarlik, mas'uliyatlilik, ta’lim – tarbiya, materialist, aqliy qobiliyat.*

Ключевые слова: *трудовое воспитание, самостоятельность, активность, дисциплина, ответственность, подотчетность, воспитание, материалист, интеллектуальные способности.*

Key words: *labor education, independence, activity, discipline, responsibility, accountability, education, materialist, intellectual abilities.*

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda aqliy sifatlaridan: mustaqillik, faollik, tartiblilik, javobgarlik, mas'uliyatlilik kabilarni shakllantirishdir. Kattalarning bolalarda aqliy qobiliyatlarni shakllantirishga e'tiborsizligi, to'g'ri baholay olmasligi, noto'g'ri munosabat bolada dangasalikni, o'zi bo'larchilikni, faqatgina o'zini o'ylash kabi salbiy hislatlarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha yosh davrida bolada aqliy qobiliyatlarni qay tarzda shakllanishi uning maktabda muvaffaqiyatli o'qishiga, hayotiy ko'nikmalarining shakllanishiga turtki beradi.

“Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo’lishi, baxtli bo’lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo’lishi yoki zaif bo’lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o’zgalarga tobe va qul, asir bo’lishi ularning o’z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog’liq”.

(O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” asari 25 bet)

Darhaqiqat Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek bugungi kunda farzandlarimizning ta’lim-tarbiyasi orqali Vatanimizning kelajagini ko’rib olishimiz mumkin. Tarbiya shakillari orasida bolani mehnat tarbiasi ham juda muhum o’rin tutadi. Agarda farzandlarimizni yoshligidanoq mehnat qilishga mehnat ko’nikmalariga o’rgatib borilsa ulardan kelajakda jamiyatimizga Ona Vatanimizga sodiq farzanlar bo’lib tarbiyalanishlariga shak shubha qolmaydi. Bolaning rivojlanishi o’sishi bu tabiy hol bo’lganidek ularda aqliy rivojlanish bilan birgalikda jismoniy rivojlanish bosqichlari sodir bo’ladi.Bu rivojlanish bosqichlarida bolada mehnat qilish mehnat tarbiyasi ham bosqichma bosqich murakkablashib boradi shu sababdan mehnat tarbiyasi orqali bolada aqliylik xususiyatlarni rivojlantirib borishimiz kerak bo’ladi. Aql keng ma’noda sezish va idrok etishidan boshlab to tafakkur va hayolni o’z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig’indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo’lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi (masalan, kattalarda mehnat faoliyati, bolalarda o’yin, o’quv faoliyati).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma’lum maqsad bilan ta’sir etishidir. U bolalarga tevarak – atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish

uyg’otishni, aqliy malaka va ko’nimklarni tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi.

Mehnat tarbiyasi g`oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo`lib, "mehnat ta’limi", "kasbga yo`naltirish", "politexnik ta’lim", "kasb ta’limi" singari tu-shunchalarni o`z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo`lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilo-hiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasi ga katta e’tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko`nikma va malakalarni shakllantirish ko`zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o`zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go`daklik bosqichiga o`tishlari bilanoq, ularga dastlabki Mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste’molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma’naviyati kemtik shaxs ham bo`lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga Mehnat tarbiyasi berishda bog`cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o`rin tutadi.Chunki bu muassasalarda Mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo`lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil Mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og`ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizom bo`lishiga qat’iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin.Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o`qish jarayonining o`zi og`ir akdiyjismoniy mehnatdir.

Xulosa qilib aytganda, Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta’limi va kasbga yo`naltirish jarayonlarining ham o`rni katta. Chunki bu jarayonlarda o`quvchilar bevosita tegishli mehnat ko`nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo`llash bosqichini o`taydilar.Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo`nalishi o`ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Г.Хасанова – Academic research in educational sciences, 2021.

2. Sharq mutafakkirlarining oilaviy munosabatlarni tarkib toptirishga oid qarashlari. M.Norquziyeva – Мактабгача таълим журнали, 2021.

3. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning maktab ta’limiga axloqiy tayyorgarligining mezoni. M.Norquziyeva – Мактабгача таълим журнали, 2021.

4. The current state of the problem of the formation of stability in the teaching profession. M Norkuzieva – Mental Enlightenment Scientific-Methodological …, 2021.

5. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигига таъсир этувчи деформацияларнинг олдини олиш технологияси. М.А.Норқўзиева – Academic research in educational sciences, 2021.

CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANIB O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Norboboyeva Maftuna Fazliddin qizi,
Islomova Ruxshona Salohiddin qizi,
Zokirov Elbek Nurbek o‘g‘li,
Salomova Zahro Botir qizi,
Rajabboyeva Hulkar Rashid qizi,
CHDPU talabalari.
Ko‘kiyev Boburmirzo Baxodir o‘g‘li,
CHDPU kafedra mudiri p.f.f.d.,

Mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirishning omillaridan biri o‘qitishning yangi zamonaviy texnologiyalarini joriy qilishdan iboratdir. O‘qituvchi o‘z mutahassisligi bo‘yicha egallagan bilimidan tashqari pedagogik va psixologik bilimlarni, yangi pedagogik texnologiya va o‘qitish metodikalari yig‘indisi bo‘lgan zarur pedagogik minimumlarni egallagan bo‘lishi shart.

Pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo‘lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yo‘lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin.

Pedagogik texnologiya o‘quv jarayoni (ya’ni o‘qituvchining, o‘quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko‘p darajada bog‘langan. Pedagogik texnologiya – pedagogning o‘quv faoliyatida hamda o‘qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo‘lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlar qatorida yosh mustaqil O‘zbekistonimizda ham bu borada katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Shularni hisobga olgan holda biz bir qancha interfaol metodlaridan *“Klasster”* metodni chizmachilik darslariga moslashtirib ishlab chiqishga va uni tatbiq qilishga oid materiallarni maqola holatiga keltirdik.

Biz o‘quv jarayonida bir qancha metodlarni bilamiz. Masalan, quyidagi interfaol metodlarni misol qilish mumkin:

- “Qarorlar shajarasi” metodi.
- “Yozma bahs” metodi.
- “Chaxpalak” metodi.
- “Baliq sikileti” metodi.
- “6x6x6” metodi.

Bulardan biz **“Klasster” metodini** (“Fikrlash kengligi shajarasi”) chizmageometriya fanida qo’llanilishini ko’rib chiqamiz. Bu metod pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biron mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Klassterlash jarayonida talabalarning bildirgan fikri muhokama va tanqid qilinmaydi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. 1-jadvalda ko‘rinishlarga oid klasster tuzish ko‘rsatilgan. Bu yerda tayanch so‘z sifatida «Uzatmalar» jumlasi olingan. Tayanch so‘z sifatida “Tishli uzatmalar”,“Silindr tishli”, “Chervyakli ilashmalar”, “Tish turlari”, “Qiyshiq tishli”, “Shevronli” va chizmachilik fanining boshqa asosiy mavzularini olish mumkin. Tayanch so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar – “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “tayanch” so‘z bilan chiziq (yoki strelka)lar yordamida birlashtiriladi. Bu

“yo‘ldoshlar”da “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.


Klassterni tuzish qoidasi.

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G‘oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.

2. Xatni to‘xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e’tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda aqlingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing.

1-jadval



Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Rahmonov, N.Qirg‘izboyeva, A.Ashirboyev, A.Valiyev, B.Nigmonov Toshkent, «VORIS-NASHRIYOTI» – 2016.

2. Valiyev A.N., Boboyeva Z.A., Mirzaliyev Z.E., Gulomova N.X., Nurmatov E.A. Toshkent – 2017.

3. M.Xalimov, F.E.Ochilov CHIZMACHILIK (Geometrik va proyeksion chizmachilikdan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar) QARSHI – 2012.

KELAJAK O‘QITUVCHISINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kelajak o‘qituvchisining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, o‘qituvchilarni ijodkorlikka yo`naltirishda ularning psixologiyasi muhim rol o‘ynashlari yoritib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *o‘quvchi, o‘qituvchi, psixologiya, fikr, qobiliyat, ijodkorlik, salohiyat.*

O‘qituvchilik – bu juda katta san’atdir. Bu san’atga muallim osongina, o‘z-o‘zidan erisha olmaydi. Mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy “O‘qituvchilik yer yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini ta’kidlaydi. Pedagog obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar bo‘lishi kerakligini aytadi: vijdonli, mehnatkash, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortidan ergashtiruvchi va o‘z e’tiqodiga ega bo‘lgan shaxs deb ta’rif berganlar. Zamonaviy ta’lim beruvchi, shogirdlarini aql-u donishlikka, iymon-etiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga, tashabbuskorlikka, tadbirkorlikka, ijodga yo‘naltirish kabi qator qobiliyatlarga ega bo‘lishi zarurligi ko‘zda tutilmoqda. Ushbu qobiliyat turi, ta’lim oluvchilarning kelajak faoliyatlariga yo‘naltiruvchidir. Avvalo, pedagogning nutq malakalarini, ya’ni savodli gapirish, nutqini chiroyli va tushunarli, ta’sirchan qilib bayon etish, o‘z fikr va his-tuyg‘ularini so‘zda aniq ifodalash malakalarini aytib o‘tish mumkin. Zamonaviy o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablardan biri bu o‘qituvchilar o‘zlari o‘qitayotgan o‘quvchilarining ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo‘la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o‘quv-tarbiyaviy jarayonda qo‘llay olishi kerak. Bugungi kunda an’anaviy ta’limni zamonaviylashtirish yo‘lida birgina texnologiyaga asoslangan o‘qitish uchramaydi. Odatda, o‘qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo‘llaniladi.

Kelajak o‘qituvchisi quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozim.

O‘z kasbini sevishi-o‘z kasbini sevgan odam albatta muntazam ravishda o‘z ustida ishlaydi, mas’uliyatli bo‘ladi. Kasbi yuzasidan ko‘proq bilimga ega bo‘lib, izlanishda davom etadi.

O‘quvchilarni hurmat qila olishi – har bir o‘quvchini tinglashga harakat qilishi, unga e’tibor berishi, jamoada bolalarga obro‘ orttira olishiga ko‘maklashishi zarur. Chunki jamoada insonni o‘rni bo‘lsa, hamma hurmat qiladi. Hamda o‘zini hotirjam xis qila oladi. Bu esa o‘quvchilarni darsga bo‘lgan faolligini oshiradi.

O‘qituvchi mehnati orqali hurmatga sazovor bo‘lishi – balandparvoz so‘zlar, buyruq ohangi bilan zamonaviy bolada taassurot uyg‘ota olish qiyin. Bari “gamburg”cha hisob-kitob bilan bo‘lishi kerak: yaxshi o‘qituvchi o‘z fanini yaxshi biladi, uning foydasini tushuntira oladi va materialni qiziq qilib yetkazadi. O‘quvchilarni qo‘rqitish, ularga jaxl qilish, ularni ayblash – befoyda. Hozirgi bolalar ancha bilimli, o‘zining dunyoqarashiga ega. Avvalgi odamlar qo‘rqqan narsalardan hadiksirashmaydi. Har bir bola mustaqil fikrga egadir.

O‘z vazifasini his qilishi – darsni o‘z vaqtida boshlash lozim, dars bosqichlarini o‘z o‘rnida amalga oshirish, darsda oltin so‘zlardan foydalanish, o‘quvchilarni faolligini oshirish, darslarda zamonaviy ta’lim texnologiyalardan, tarqatmali materiallardan, ko‘rgazmali qurollardan, interfaol metodlardan unumli foydalanish zarur.

O‘z-o‘zini tanqid qilish – agar o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, uni qanday rivojlantirish haqida o‘ylasa, u ko‘p narsaga erishadi. Jiddiy bo‘lmaslik va o‘zini hazil qilish qobiliyati-zo‘riqishlarga qarshi turishning tarkibiy qismi. Jamiyatdagi hayot uchun ham a'lo xislatdir. Hazil qilish murakkab vaziyatni yumshatib, chalg‘ish va qiyin masalalarni hal etishga yordam beradi.

Har bir kelajak o‘qituvchisi “oltin qoidalar” ko‘rinishidagi tavsiyalarga rioya qilishlari lozim:

1. Garchi sizning tasavvurlaringiz va axloqiy ustanovkalaringizga muvofiq kelmasa ham, bolalarni tabiiy, bor holicha qabul qiling. Agar bola ayvon yoki sinf xona bo‘ylab yugurayotgan va qichqirayotgan bo‘lsa ham – bu uning ichki quvvatining o‘ziga xos va qonuniy namoyon bo‘lishi; bu vaziyatda bolaning o‘zi va boshqalarning salomatligiga zarar yetkazadigan holatlarga esa, yo‘l qo‘ymang.

2. Bolalardagi ham ijobiy, ham salbiy jihatlarni birdek qabul qiling, uning o‘z-o‘zini ijobiy tomondan namoyon qilishiga ko‘maklashing. Shuni esda saqlangki, bolalarning madaniy faoliyatiga har tomonlama yordam berish va qo‘llab-quvvatlash, uning kreativ g‘oyalarini rag‘batlaydi, jo‘shqin va quvnoq kayfiyatdagi bolalarda salbiy illatlar o‘z-o‘zidan yo‘qolib boradi.

3. Bolalarga qo‘rquv ohangida biror ishni bajarishga o‘rgatmang, o‘zingiz namuna va ibrat ko‘rsating. U holda o‘quvchi siz orqali ko‘ra olish, his qilish, bilish, qanday va nimaga o‘rganish lozimligini anglaydi; mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga qo‘shilib o‘zingiz ham chizing, she’r yozing yoki ertak to‘qing, topshiriqlarni ular bilan birga bajaring – shunda ular sizni yaxshi ko‘rishadi.

4. Tabiatdagi hamma chiroyli narsalar, undagi go‘zallikdan zavqlaning; bolalar sizning tabiat va ijodiy faoliyatdan ilhom olishingizni ko‘rib quvonsin.

Xulosa qilib aytganda: Har bir kelajak o‘qituvchisi mas`uliyatli, o‘z ishining ustasi bo‘lmog’i lozim. Vatanimiz taqdiri yosh avlodga bog’liqdir. Shuning uchun bolalarga puxta ta’lim-tarbiya berish orqali yuqori natijalarga erishiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Izmailova E.I. "Fikrlash va eslashni o'rganish (TRIZ texnologiyasi)" Moskva, ARKTI nashriyoti, 2010 y.

2. Utemov V.V., Zinovkina M.M., Gorev P.M. Ijodkorlik pedagogikasi: ilmiy ijodkorlikning amaliy kursi: darslik. – Kirov: ANOO "Hududlararo CITO", 2013. – 212 p.

3. Xodjayev B.X., Sattorov Sh., Artikova M.B. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 b.

BO‘LAJAK QURUVCHI MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA GEOGEBRA DASTURIDAN FOYDALANISH

Halimov O‘ktam Haydarovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrasi v.b.dotsenti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada asosan bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib axborot va ta’lim muhitini loyihalash, innovatsion uslubiy g'oyalarni ta’limga tatbiq etish ishlarida kompyuterli matematik dasturlardan biri GeoGebra dasturining tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar. *loyiha, axborat, texnologiya, muhandis, talaba.*

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimini zamonaviy usullar asosida takomillashtirish, loyihalash, uni amalga oshirish va samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan tuzilmasini yaratish dolzarbligicha qolmoqda. Ayniksa, texnika yo‘nalishi oliy ta’lim muassasalarida muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalariga mos muhandislarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetentligi negizida loyihalash kompetentligini rivojlantirish muammosi eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Talabalarda kasbiy va shu bilan birga loyihalash kompetentligini rivojlantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalari hamda didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Mamlakatimizda samarali muhandislik ta’limi tizimini joriy etishga qaratilgan tub islohotlar natijasida bo‘lajak muhandislar tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va

axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmonida “Oliy ta’lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish. Qurilish sohasini texnik tartibga solish. aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish. Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish” ustuvor maqsad qilib belgilangan. Shu nuqtai nazardan bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o‘quv-uslubiy ta’minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o‘zlashtirish natijalarini Obyektiv baholash maqsatida ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muofiq hisoblanadi [1].

Bo‘lajak muhandislarga matematika va unga turdosh (chizma geometiriya va muhandislik grafikasi) fanlarini o‘qitishda ayniqsa mustaqil ishlarni bajarish jarayonida kompeyuter amaliy dasturlaridan biri GeoGebra dasturining imkoniyatlari juda katta. O‘qituvchi tomonidan berilgan loyihalashga oid mustaqil ish topshiriqlarni talaba bajarish jarayonida foydalanishi maqsadga muofiq. Bu esa ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnalogiyalaridan foydalanishga olib keladi.

GeoGebra amaliy dasturi deyarli barcha taniqli platformalar – Windows, OS X, Linux tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Android va iOS smartfonlari / planshetlari uchun dastur mavjud. Shuningdek, Google Chrome ilovalar do‘konida brauzer versiyasi mavjud. GeoGebra, bu dinamik geometriya dasturi hisoblanib, ushbu dastur yordamida bo‘lajak muhandis konstruktsiyalarni nuqtalardan, segmentlardan, chiziqlardan va hokazolarni yaratishi mumkin va ularni turli xil geometrik formulalar orqali tiklashga undash va shu bilan kerakli tushunchalarni yaxshiroq o‘rganishi yoki kursdoshlari yaxshiroq o‘rganishi uchun maslahatlar berishi imkonini beradi. Geometriya, algebra, statistika va hisob-kitoblarni dinamik ravishda grafik, analitik va elektron jadvallar bo‘yicha tashkiliy ishlarni birlashtiradi. GeoGebra dasturidan kasbga yo‘naltirishda erkin foydalanish epchillikni taminlab beradi desak yanglishmaymiz.

GeoGebra dasturidagi geometrik jismlar nuqtalar yordamida hosil bo‘ladi. Ularning har biriga ma’lum bir parametrga nisbatan yaratiladi. Tayyor raqamlar yordamida siz turli xil manipulyatsiyalarni bajarishingiz mumkin, maslan, obyet modelini qurishda burchaklarni belgilab, chiziqlar uzunligini va burchaklarning kesishishini aniq o‘lchashingiz mumkin.

Mutahassislik fanlari mashg‘ulotlarida geometrik shakllar yuzlarini GeoGebra dasturidan foydalanib hisoblash kerak, Sababi mashg‘ulot jarayonida vaqtdan unumli foydalanish, dars samaradorligiga tez erishishni ta’minlaydi. Dastur yordamida geometrik yuzalarni hisoblash aniq hisob kitoblar yordamida amalga oshirilganligi uchun talaba hisoblagan son dastur yordamida hisoblangan miqdor bilan solishtirilganda talabaning hisoblashni to‘g‘ri bajarganligini yoki xatolik bilan hisoblaganligini ham tez aniqlash mumkin.

Bizga ma’lumki aniq fanlarni o‘zlashtirish boshqa fanlarga nisbatan murakkabroqdir. Ayniqsa matematika fani va geometriya kursida ko‘proq tasvirlar va grafiklar bilan ishlashga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘qituvchiga o‘z vaqtiad tasvirni aniq chizish biroz qiyinchilik tug‘diradi. Shakllar yuzlarini hisoblashda GeoGebra dasturidan foydalanish juda ko‘plab imkoniyatlarni, vaqtdan unumli foydalangan holda dars samaradorligiga erishishni ta’minlaydi.


GeoGebra dasturi yordamida ikkinchi tartibli sirtlarning yoqlarini istalgan birini hisoblash yoki barcha yoqlari yuzlarini yig‘indisini topish ham mumkin. Shu bilan birga qavariq, botiq ko‘pburchaklarni yuzalarini oson toppish imkoniyatini beradi. Bunday masalalarni bajarishda asosan ikki xil usulda hisoblash mumkin:

1) Obyektni sodda geometrik shakllarga bo‘lish yordamida;

2) Obyektni sodda geometrik shaklga to‘ldirgan holatda hisoblash [2-4].

Talabalar loyiha ishlarini bajarishda obyekt qism yuzlarini alohida hisoblashlari, shundan so‘ng ushbu dastur yordamida obyektning aniq yuzasini aniqlab, hisoblab topilgan yuzani aniq qiymatini solishtirishi va bajarilgan hisob kitoblarini to‘g‘ri yoki xato bajarilganligini tekshirishi mumkin bo‘ladi.

Masalan. To‘rt nishabli tom asosi tomonlari *a=18m, b=12m* bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lib, tom nishablari qiyalik burchaklari bir xil 40^0. Tomni yopish uchun lentali cherepitsa tanlangan. Agar 1 m^2 ga 15 dona cherepitsa talab qilinsa, tomni to‘liq yopish uchun necha dona cherepitsa zarur bo‘lishini hisoblang (tomonlarning qiyalik burchagi tomni yopishga ishlatilgan maxsulotga bog‘liq).



Rasm. Tom sirti yuzasi ko‘rinishi

Yechish. Tomning yuzasini hisoblash uchun ko‘pburchak ortogonal proeksiyasining yuzini hisoblash formulasidan ($S_{opm} = S_{кул} \cdot x \cdot \cos a$) foydalanish qulay. Qiyalik burchaklari bir xil 40^o bo‘lganligi uchun bu masalani yechish oson kechadi.

$$S_{кул} = \frac{S_{opm}}{\cos a} = \frac{a \cdot b}{\cos 40^o} = \frac{18 \cdot 12}{\cos 40^o} \approx 280.$$

1m^2 ga 15 dona tomga hammasi bo‘lib, $n = \frac{216}{\cos 40^o} \cdot 15 = \frac{3240}{\cos 40^o} = 4207$ ta cherepitsa zarur bo‘lar esan.

Demak yuqorida keltirilgan hayotiy masalalarni (loyiha) bajarishda talabalar ko‘z o‘ngida qaralayotgan obyektga nisbatan ma’lumotlar tez shaklanishida GeoGebra dasturining o’rni beqiyos hisoblanadi. Bundan tashqari **bo‘lajak muhandis kurs loyiha ishlarini, malakaviy bitiruv ishlarini tayyorgarlashda ushbu dasturidan foydalanishi mutahassislik fanlari masalalarning yechimini aniqroq tushunish va ko‘rish imkonini beradi.**

Xulosa shuki, GeoGebra amaliy dasturdan foydalanish birinchidan, yaxshi o‘zlashtira olmayotgan talabalarda qaralayotgan loyiha mavzusiga bo‘lgan qiziqishlari oshirish mumkin; ikkinchidan, talabada o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni oshiradi; uchunchidan, o‘zini-o‘zi nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi; to‘rtinchidan, o‘z bilimlarini kursdoshlari bilan bo‘lishish istagining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.

2. Ivanchuk, N.V. Ispolzovanie kompyuternoy programmы GeoGebra na urokax matematiki v 7 – 11 klassax: Metodicheskoe posobie / N.V.Ivanchuk, O.V.Eyken. – Murmansk: MGPU, 2013. 36 s.

3. GeoGebra [Elektronnыy resurs]. – Rejim dostupa: https://ru.wikipediaorg/wiki/GeoGebra

4. Ispolzovanie GeoGebra na urokax matematiki [Elektronnыy resurs]. Rejim dostupa: hhttp://soft.mydiv.net/win/downloadGeoGebra.htmlttp://s427.spb.ru

TA’LIM JARAYONLARIDA TOPSHIRIQLARNI IJODIY HAL ETISH IMKONIYATLARI

Tursunov Shavkat Sharibjonovich,
NamMQI “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi dotsenti

O‘qitish metodlarini takomillashtirish va pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish yo‘llarini aniqlash bilan bog‘liq bu vazifalarni amalga oshirishda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ularda ijodiy faoliyatning rivojlantirish usullarini tarkib toptirish muhim o‘rin tutadi.

Bugungi globallashuv jarayoni va “ommaviy madaniyat” xuruji ortib borayotgan davrda yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun misli ko‘rilmagan darajada kurash bormoqda. Hozirgi tashvishli masalalardan biri-yoshlarni ongida ma’naviy bo‘shliqni paydo bo‘lishidir. Bu esa ularni umuminsoniy va milliy an’analarga yot bo‘lgan g‘oyalarga moyilligini kuchaytiradi.

Ma’lumki, tasviriy san’at darslarida ham nazariy, ham amaliy bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘quvchida hosil qilishni talab etiladi. Inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Har bir fanning o‘qitilishida dars mashg‘ulotlarini va to‘garak ishlari jarayonidan unumli foydalanish, o‘quvchilarga bu fanga qiziqishlarini yanada orttirish hamda ularning bilimlarini kengaytirishda mazkur fan bo‘yicha olib boriladigan matbuot ishlari muhim o‘rin tutadi.

Ijodiy masalalar bilan inson butun hayoti davomida to‘qnashadi, lekin juda kam hollardagina uni ijodiy darajada hal qiladi. Ijodiy faoliyat o‘zi nima? Bu oddiy anglash nihoyatda qiyin bo‘lib ko‘ringan masalani sodda hal qilishdir. Ko‘p hollarda bunday yechimlarga o‘ta zukko va ixtiroviy yechimlar deyiladi. Yangilik yaratish ziddiyati ham shundan iboratki, tasodifiy yangilikni yaratish oson emas, oddiy yangilikni yaratish esa nihoyatda murakkab, ya’ni har qanday yangilik ham ijod mahsuloti hisoblanmaydi. Ijodiy ishlar bo‘yicha to‘plangan tajribani va fikrlash nazariyalarini tahlil qilish ijodiy fikrlashning asosiy printsiplarini shakllantirish va ijodiy fikrlashga o‘rgatishning psixologik pedagogik metodlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Talaba o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun vujudga keladigan muammolarni hal etishi zarur. Ma’lumki, talabalar o‘quv materiallarini turlicha o‘zlashtiradilar. Bunda ularda ayrim sifatlar sabab bo‘ladi: 1. Bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj; 2. Qiziqish va izlanish; 3. Sustlik yoki tushunchasizlik.

Bu muammolarni hal qilish uchun ta’lim jarayonida talabalarni ijodiy fikrlash jarayonini tashkil etish ma’lum imkoniyat yaratadi. O‘quv faoliyatining tashkil etishda talabalarning bilim darajasini, qiziqishini hisobga olingan holda, talabani berilayotgan topshiriqqa yo‘naltirilsa, talabani o‘zini ko‘proq ijodiy fikrlashga, masalalarni mustaqil ravishda (individual) yechimlarini topishga yondashtirilsa yaxshi natijaga erishish imkoniyati ko‘payadi. Talaba berilgan topshiriqni mustaqil ravishda o‘zlashtirishiga erishilsa, buning natijasida esa bilim olishga bo‘lgan ma’suliyati, fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Shunday ekan, har bir fanda va har bir mavzuda o‘qituvchi mavzuni o‘tishdan oldin, talabalar oldingi mavzu bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni bajarishida qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘ygani, talabaning bajarayotgan topshirig‘iga nisbatan o‘zining munosabati va ijodiy yondashuvi qay darajada ekanligini tahlil qilishi va buni inobatga olishi, topshiriqlarni talabalarning o‘zlashtirishlaridan kelib chiqib berish lozim.

Mustaqil shug‘ullanish orqali egallangan bilimlardan ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi. Bu esa, talaba faoliyatida har bir ishga ijodiy yondashish, o‘quv topshiriqlarni mustaqil bajarish, ularda mantiqiy tafakkur yuritish faoliyatlarini rivojlantiradi. Talabalarga mavzuni yoritib berishda talabalar qiziqqan sohalardan misollarni keltirish, talabalarda fanga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishga doir qiziqarli holatlardan foydalanish mumkin. Topshiriqlarni o‘z vaqtida bajartirish va ma’lum bir sohaga yo‘naltirish uchun, talabalarni o‘zlarini erkin

fikrlashlari, ijodiy tushunchalarini ijobiy hal qila olishlari, masalalarni erkin ravishda tahlil qilishlarida talaba va o‘qituvchi munosabatlari ham muhim rolь o‘ynaydi.

Agar o‘qitish mohiyati mantiqan to‘g‘ri ishlab chiqilmasa, mavzuni tushuntirishda aniq dalillarga tayanilmasa, talabalarni mavzuni ichiga ijodiy yondashtirilmasa, dars qiziqarsiz, zerikarli va samarasiz bo‘ladi. Dars davomida talabalar zerikmasligi va mavzuga o‘qituvchi bilan birga hamohang kirishishi uchun, o‘qituvchi talabalarni mavzuga to‘la jalb qilishi zarur. Masalan: Tasviriy san’atning qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik amaliy mashg‘ulot darslarida bevosita qo‘yilgan naturani o‘qituvchi tomonidan “master-klass” ko‘rinishida bosqichma – bosqich chizib ko‘rsatilgandan so‘ng, talabalarga berilgan vazifani induvidual mustaqil bajartirish lozim. Talabalar naturani his etolmay (tushunmay) qolgan joylarini o‘qituvchi tomonidan tushuntirib (ko‘rsatib) berilishi talabani tasavvurini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda talabalarni ishlarini xolis baholash, yutuq va kamchiliklarni bartaraf etishga oid kerakli maslahatlar, amaliy ko‘rsatmalar berish, ulardagi yutuqlarni rag‘batlantirish, ularda maqsad sari intilish, berilgan vazifani bajarishda izlanish, unga ma’suliyat bilan yondashish, ishonch hosil qilish kabi malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish jarayonning mazmunli va samarali bo‘lishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Турсунов, Ш.Ш., & Хамракулов, А.К. (2019). ГРАФИКА САНЪАТИ ТАВСИФИ, БАДИИЙ ИФОДА ТИЛИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ. *Научное знание современности*, (6), 6-10.

2. Турсунов, Ш.Ш., & Махкамов, Г.У. (2016). использование современных педагогических технологий в процессе обучения в целях развития знаний молодежи об изобразительном искусстве. *Science Time*, (5 (29)), 661-664.

3. Турсунов, Ш.Ш., & Бегматов, Д.К. (2017). Возможности в процессе создания произведения при использовании приёмов и средств композиции. *Научное знание современности*, (3), 288-291.

4. Турсунов, Ш.Ш. (2017). Условность и выразительность в произведениях искусства графики. *Научное знание современности*, (3), 284-287.

5. Турсунов, Ш.Ш. (2016). Использование новых педагогических технологий в процессе художественного образования. *Science Time*, (2 (26)), 554-556.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI O’QUV JARAYONIDA MNEMOTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
fizika-matematika fakulteti Informatika kafedrasi katta o’qituvchisi, PhD.
Gmail: xakimovaqdpi@mail.ru
Telefon: +99899 090-2021

Hozirgi kunda ta’lim oluvchilarning axborotlarni xotirada saqlab qolishi va va kerakli jarayonda ularni qo’llashi va foydalanishi uchun esa mnemotexnologiyalardan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi.

Maqolada mnemonikaning «Tog» usulidan Oliy ta’lim muassasalari o’quv jarayonida foydalanish metodikasi berilgan. Bugungi kunda talabalar turli yo’nalishdagi fanlar bo‘yicha katta hajmdagi ma‘lumotlarni yodlashi kerak. Talabalarga yangi bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga qanday yordam berish kerak va eng muhimi, fanlardan nazoratlarni o’tkazib bo’lgandan so‘ng o‘rgangan ma’lumotlarini darhol unutmaslik uchun mnemonikaning tog usulidan foydalanish kerak. Mnemotexnologiyalardan foydalanish bo’yicha juda ko’p

adabiyotlar va maqolalar yozilgan. Ulardan ayrimlarini tahlil sifatida keltiramiz. Jumladan: Rahmonov Shohruh-Mirzo “Mukkaml xotira” Kitobida fanlarga bo‘lgan chet el so‘zlarini yod olish va xotirda saqlash usullari tahlil etilgan. Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayevlarning “So’z yodlash sirlari” nomli qo’llanmasida ingliz tilidagi so’zlarni tezkor yodlash usullari mnemonika va mnemonikaning fundamental qonunlari, Tog usulidan foydalanib so’zlarni yodlash va eslab qolish to’g’risida keng doirada yoritib berilgan. Mnemonikaning «tog» usulidan so’zlarni yodlashda foydalanamiz. Shu o’rinda savol tug’iladi, TOG usuli nima? TOG usuli bu

T-arjima (so’zlarni tarjimasi)

O-braz (so’zlarga obraz tanlash)

G-ormonizatsiya (tasavvur qilish)

“Tog ” usulidan foydalanishda so’zlarning tarjimasini topib unga obraz kiritib bor fikru hayolimiz bilan o’sha so’zlarni obrazlantirishimiz kerak bo’ladi. Obraz tanlashda juda qo’rqinchli yoki judayam kulgili obraz tanlansa insonni ongida qolishishi oson bo’ladi. Har hafta takrorlab-takrorlab turish kerak bo’ladi.

Masalan:

1. Ruschadan душа so’zini olsak tarjimasi qalb endi bu so’zga obraz tanlaymiz душа-dush so’zini obrazini yaratamiz ya’ni dushni gonmonizatsiya qilamiz qalbga bog’lemiz tasavvur qilamiz ertalab turdiz va dush qabul qiliturganizda qalbiz og’rib qoldi keyin 5 – 6 marta душа-душа dib takrorlang tasavvurni cheklamang Eynshteyn ham tasavvur bilmdan kuchlidir deya aytib o’tgan shu tariqa so’zlarni obrazga kiritib tasavvur qilish mumkin.

2. Выжить – omon qolmoq obrazga solamiz qaysi so’zga o’xshash vizitka so’ziga to’g’rimi, tasavvur qiling jahon urushiga tushib qoldiz oyog’izdan o’q yediz va uzoqda vizitka oladigan joy bor shu yerga qanday qilib bo’lsa ham borishiz kerak o’sha yerga qarab tasavvur qiling выжить-выжить omon qolishingiz kerak.

3. Тяжелий – og’ir tarjimasi obraz kiritamiz Тяжелий-tuyani obraz qilamiz tasavvir qiling tarozini bir pallasida tuya turipti tuya og’irligidan tarozi sinib ketdi shu yerda Тяжелий-Тяжелий deya takrorlang.

Keyingi jarayonda Pedagogika Oliy ta’lim muassasalari matematika-informatika yo’nalishi 1-kurs talabalariga Kompyuter ta’minoti fanining o’quv mashg’ulotlaridan dush kelishi mummin bo’lgan chet el so’zlarini ko’rib o’taylik. Xulosa o’rnida shuni aytmoqchimizki mnemonikaning tog usulidan foydalanishda quyidagilarga amal qiling. 3 ta quti tayyorlab olamiz:

- birinchi qutiga yodlamoqchi bo’lgan so’zlaringizni;
- ikkinchi qutiga yodlangan so’zlarni;
- uchinchi qutiga muammoli so’zlarni yodlash qiyin bo’lgan so’zlarni solib qo’ying ya’ni tasavvur qilish qiyin bo’lgan so’zlarni soling va har hafta uni olib takrorlab turamiz.

Bu metodlarni takrorlash juda ham foydali bo’lib, Damenik Obrien degan inson shu metod orqali ikki kun ichida 3 mingta so’z yodlagan odam hisoblanadi va jahon chempionatida 8 marta rekort o’rnatgan insondir. Agar til o’rganmoqchi bo’lib o’quv kurslariga borsangiz bir yarim yilda 3 mingta so’z yodlaysiz agar tog usulini o’rganib amal qilsak bir yil ichida yodlamoqchi bo’lgan so’zlarni bir haftada tez va oson yodlashimiz mumkin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Блонский П.П. Избранные педагогические и психологические сочинения. – М.: Педагогика, 1979. – 64 с.

2. Бура Л.В. Мнемотехника в образовании: технологии эффективного усвоения информации / Л.В.Бура, Г.А.Чепурной // Проблемы современного педагогического образования. – Сер.: Педагогика и психология. – Сб. статей: Ялта: РИО ГПА, 2015. – Вып. 47. – Ч. 2. – С. 262.

3. Лишевский В.П. Педагогическое мастерство ученого. – М., 1975.

4. Иван Замесин. Техника обучения Фейнмана.

5. https://vc.ru/life/222360-tehnika-obucheniya-feynmana

6. Понять, запомнить, не забыть: метод Фейнмана для обучения школьников. https://imenapro.ru/knowledge-base/ponyat-zapomnit-ne-zabyt-metod-feynmana-dlya-obucheniya-shkolnikov/.

O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYA VOSITALARI

Valixanova N.A.,
“University of economics and pedagogy” NOTM
Pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. *Tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishning muhim komponentlaridan biri tarbiya vositalari hisoblanadi. To‘g‘ri tanlangan va pedagog tomonidan qo‘llanadigan metodlar tizimiga kiritilgan vositalar tarbiyalanuvchiga tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *tarbiya, badiiy adabiyot, rolli o’yinlar, ekskursiya, kinofilmlar.*

O‘quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi – pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog‘liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta’lim tizimida ham o‘ziga xos o‘zgarishlarni kiritish va yangiliklarni joriy etish zaruratini belgilab bermoqda.

Tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishning muhim komponentlaridan biri tarbiya vositalari hisoblanadi. O‘z davrida taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy tarbiya vositalarini bolaning hayoti, uning tashqi olam bilan munosabati, hamkorlikdagi ish va muloqotidan iborat deb ta’kidlagan edi. To‘g‘ri tanlangan va pedagog tomonidan qo‘llanadigan metodlar tizimiga kiritilgan vositalar tarbiyalanuvchiga tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Buning oqibatida ular o‘quvchi va talabalar tomonidan tarbiyaviy ta’sirning mohiyatini bevosita anglash va ularning kuzatuvchanligi va ta’sirchanligini kuchaytirib, fikrlash, ya’ni tarbiyachi maqsadini tezroq fahmlashga asos bo‘ladi. Tarbiya vositalariga o‘quv qo‘llanmalari, kitoblar, badiiy adabiyot, turli predmetlar – tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun foydalaniladigan buyumlar, kishilarning ibrat namunasi, tajribasi ommaviy axborot vositalari: radio, televideniya, internet, gazeta, jurnallar ham tarbiya vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, adabiyot va san’at asarlarining yoshlarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy-estetik ta’sir xususiyatidan iloji boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga ega. Adabiyot va san’at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarliligida, inson ichki dunyosiga ta’sir ko‘rsata olishidadir. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyotning ana shu xususiyatini hisobga olish muhim. Shu nuqtai nazardan P.Jafarov o‘zining “Milliy o‘zlikni anglash va ma’naviyat” asarida quyidagi fikrni keltirib o‘tgan: “Tarbiya jarayonida o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosidan keng foydalanish uning samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘la oladi. Yoshlarimiz ma’naviy tarbiyasida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi mumtoz so‘z ustalari asarlaridan foydalanish ular qalbini, ruhiy dunyosini ma’naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir”. Haqiqatan, ularning qoldirgan boy badiiy merosi chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Ma’naviy tarbiyada o’zbek milliy yozuvchi va shoirlarning asar va she’rlaridan keng foydalanish, badiiy asarlar, ulardagi qahramonlarning fe’l-atvori, axloqi, ma’naviy dunyosi to‘g‘risida suhbat,

munozara o‘tkazish katta samara beradi. Ayniqsa, o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatlari bo‘lgan yaxshilik va samimiylik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, insonparvarlik xislatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bitiklar ruhiyat va tarbiya kamolotida beqiyos kuchga ega. Shaxs ma’naviyatini shakllantirish va qaror toptirishda so‘z g‘oyaviy ta’sir vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z o‘rnida ishlatilgan so‘zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama’ni fikr doimo kishilarning xulq-atvoriga, ma’naviyatiga, tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pirovard natija har tomonlama kamol topgan, yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishga qaratiladi. Tarbiya jarayonining eng asosiy maqsadi har tomonlama va uyg‘un kamol topgan, yangicha fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdir. Bu qiyin jarayonda badiiy asarlardan keng foydalanish, o‘zaro muhokamalar tashkil qilish ikki tomonlama bo‘lib, pedagogdan uyushtirish va rahbarlikni boshqarish, o‘ziga xos notiqlik qobiliyati va muloqot psixologiyasini yaxshi o‘zlashtirganlik, tarbiyalanuvchi shaxslardan faollik ko‘rsatish talab qilinadi. Demak, tarbiya jarayoni umuminsoniy milliy va har bir shaxsning o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy jarayon bo‘lib, unda adabiyot manbalarining ahamiyati yuksakdir.

Badiiy adabiyot har qanday zamonda ham ezgulikka, insoniylikka xizmat qilib keladi. Ertaklardan boshlab maqollargacha, dostonlardan boshlab romanlargacha barcha badiiy asarlarda ezgulik ulug‘lanishini ko‘ramiz.

Tarbiya darslarida turli kinofilmlardan parchalar ko‘rish va uyda mazkur filmlar to‘liq ko‘rilgandan keyin darsda ularning muhokamasini o‘tkazish katta samara beradi. Bilamizki, hozirgi zamonamizni multimedia vositalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, shunday ekan, o‘quvchilarga filmlarni taqiqlashni emas, balki saralashni o‘rgatishimiz lozim bo‘ladi.

Rolli o‘yinlar metodining mohiyati shundan iboratki, unda o‘quvchilar boshqa kishining roliga kirib, uning «ichida» harakat qiladilar. O‘yinda o‘quvchilarga asosan tugallanmagan vaziyatlar beriladi. Ular qaror qabul qilishlari, munozarali holatlarni bartaraf etishlari yoki taklif etilgan vaziyatlarni nihoyasiga yetkazishlari kerak bo‘ladi. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarda boshqalarni tushunish, ularga xayrxohlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Boshqalar rolini o‘ynash orqali, o‘zgalarning o‘y-xayollarini tushunish oson. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga turli vaziyatlarda o‘zini tuta bilishning modellarini berishi mumkin.

Darslarda rolli o‘yinlarini qo‘llash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘yinli vaziyatni tanlash. Rolli o‘yinlar uchun ko‘plab materiallar mavjud. Ular individual qiyinchiliklarni (masalan, Internet xizmati provayderi bilan muloqot qilish) va muammoni hal qilish vaziyatlarini (masalan, dasturiy mahsulot buyurtmachisi bilan bahs) o‘z ichiga oladi. O‘yinlar maxsus savollar yoki muammolarni hal etishda qo‘llanilishi mumkin.Masalan, yosh bolalarga Internet tarmog‘ining barcha ma'lumotlariga kirishga ruxsat berish kerakmi yoki yo‘qmi, degan savolga javob topishda o‘yin metodidan foydalanish mumkin. Va nihoyat, o‘yin jarayonida o‘quvchilardan intervyu olish, muzokara olib borish, tadqiqot olib borish va qaror qabul qilish, o‘zini himoya qila olish ko‘nikmalari rivojlanadi.

2. Tayyorlash. O‘quvchilar vaziyat yoki muammo bilan tanishadilar va ular o‘rtasida rollar taqsimlanadi.

3. lshtirokchilarni tanlash. O‘qituvchi rolga o‘quvchilarni o‘zi tanlashi, guruhda o‘zlari taqsimlashlariga imkon berishi yoki xohlovchilarni taklif etishi mumkin. Rolli o‘yinlarda ishtirok etmayotgan o‘quvchilar kuzatuvchi bo‘lishlari yoki boshqa rolni o‘ynashlari mumkin.

4. O‘yinni o‘tkazish. O‘quvchilar o‘yin doirasida o‘zlarini tutish usulini o‘zlari tanlaydilar. Bunda, albatta, berilgan mvaziyatga tushganda inson o‘zini qanday tutishi mumkinligi asos qilib olinadi. O‘yinning borishiga o‘qituvchi aralashmasigi lozim. Ayrim hollarda o‘yin tugagandan keyin rollarni almashib, yana bir bor o‘yin o‘tkazish foydadan xoli bo‘lmaydi.

5. Muhokama. O‘yin muhokama qilinishi va baholanishi kerak. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar o‘yinda bo‘lib o‘tgan voqealarni va bu voqealar nima uchun ro‘y berganligini muho kama qilish va tahlil etish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari lozim.

Shuningdek, maxsus multfilm va filmlar orqali ham rolli o‘yin tashkil etish mumkin.

Ekskursiya ta’lim-tarbiya shakllaridan biri bo‘lib, unda o‘rganilayotgan obyekt va hodisalar turgan va ro‘y berayotgan joyida kuzatiladi. Ekskursiyada o‘quvchilar o‘rganayotgan

obyekt va hodisani bevosita o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib o‘rganish, shuningdek, o‘rganilayotgan obyekt va hodisani asl holida, o‘z o‘rnida kuzatish imkoniyatlariga ham ega bo‘lishadi. Ekskursiya o‘quvchilarda geografik, etnografik, tarixiy tushunchalar ham hosil qiladi. Ekskursiya o‘quvchilarga shunday kuchli ta’sir etadiki, pedagogning ta’siri ham shunchalik kuchli bo‘la olmaydi. O‘quvchining dalada, qirda va tog‘da o‘tkazilgan bir kunlik ekskursiyasi, maktabda o‘tkazilgan bir necha kunlik darslardan ko‘ra samaraliroq bo‘lishi mumkin. Ekskursiya o‘quvchilarni tetiklashtirish, ularning kuzatuvchanlik va sinchkovlik qobiliyatlarini, hayotiy faoliyatlarini oshiradi. O‘quvchilar ekskursiya vaqtida ma’lum darajada mehnat qiladilar, tabiat va atrof bilan tanishadilar, o‘z o‘lkalarini yaxshiroq o‘rganadilar. Ekskursiya o‘qituvchi bilan o‘quvchini bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita ham hisoblanadi.

Tarbiya fanida ekskursiyalarni uyushtirishda quyidagi ekskursiya turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Muzeylar – eng muhim ekskursiya markazlaridan biridir. Bu yerda o‘quvchilar tarixiy, etnografik ma’lumotlarga ega bo‘lishadi. Ayniqsa, bunday sayohatning o‘qituvchi bilan birga uyushtirilishi ularning xotirasida abadiy qoladi.
- Ziyorat maskanlari – bunday maskanlarga sayohat qilish tarixiy shaxslar hayotini o‘rganishda juda muhim hisoblanadi.
- Oliy ta’lim dargohlari – bunday maskanlarga ekskursiya o‘quvchi uchun kelajak rejalarini tuzib olishda kata turtki beradi.
- Tabiat qo‘yniga sayohat – Tarbiya darslaridagi ekologiyaga doir mavzularni o‘tayotgan vaqtda o‘tkazilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- Galereyalar – turli san’at galereyalariga ekskursiya uyushtirish o‘quvchilardagi ijodiy qobiliyatning rivojlanishiga katta yordam beradi.
- Markaziy kutubxonalar – o‘quvchilarning kitob bilan do‘st bo‘lishini ta’minlash bilan birga, ularda kitobxonlik madaniyatining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Tarbiya darslarida badiiy adabiyot, badiiy filmlar, rolli o‘yinlar va ekskursiyalarning ahamiyati beqiyos. Bunday sayohatlar o‘quvchining dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay, ularning kelajakdagi rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr, № 276 (7778).
2. Abduqudusov O. O‘quv muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
3. Erkaboyeva N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: 2020.
4. Quronov M. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya. / Monografiya. – T.: Fan, 1995.

PROYEKSIYALASH USULLARINI AMALIY AHAMIYATI HAQIDA

Norboboyeva Maftuna Fazliddin qizi,
CHDPU talaba
Islomova Ruxshona Salohiddin qizi,
CHDPU talaba
Ko‘kiyev Boburmirzo Baxodir o‘g‘li,
CHDPU kafedra mudiri p.f.f.d.


Chizma geometriya fani matematikaning bir tarmog‘i hisoblanib, u uch o‘lchamli fazodagi ob’ektlarning tekislikdagi grafik modelini qurish asoslarini o‘rganadi. Shu tufayli, chizmani fazodagi geometrik shaklning tekislikdagi grafik modeli deb qarash mumkin. Bu esa chizma geometriyani Oliy texnika ta’lim tizimidagi o‘rnini aniqlaydi [1].

Chizma geometriyaning qisqacha tarixiga to‘xtalsak, Chizma geometriyani fan sifatida rivojlanishiga buyuk hissa qo‘shgan shaxs bu frantsuz geometri va injeneri Gospar Monj (1746-1818) hisoblanadi. Fazoviy predmetlarni tekislikda tasvirlash nazariyasi va ularni amaliyotda qo‘llanishi masalalarini G.Monj o‘zigacha bo‘lgan ma'lumotlarni bir sistemaga solib, chizma geometriya fanini yaratdi. Rossiyada esa ushbu fan 1810-yildan birinchi marta Peturburg yo‘l-injenerlari korpusi institutida (hozirgi Petrburg temir yo‘llar transporti instituti) fransuz tilida o‘qitilgan. Bu fanni o‘qitish uchun Fransiyadan mutaxassislar taklif qilingan bo‘lib, ulardan birinchisi Gaspar Monjning shogirdlaridan biri K.Pote bo‘lgan. U 1816-yilda Rossiyada birinchi marta chizma geometriyadan fransuz tilida darslik chop ettirdi. K.Potening bu darsligini uning shogirdi Ya.A.Sevostayanov (1796 – 1849 y.) rus tiliga tarjima qildi va uni 1821-yilda «Chizma geometriya asoslari» darsligi sifatida chop ettirdi. Bu kitob o‘z davrida yevropadagi barcha «Chizma geometriya» haqidagi asarlardan o‘zining ancha ustunligi bilan farq qilgan. Ya.A.Sevostayanov chizma geometriyadan ilmiy tatqiqot ishlarini ham rivojlantirib, rassomchilik, chiziqli va fazoviy perspektiva yasash, soyalar yasash, kartalar chizish kabi masalalarni yechishda geometrik usullarning tadbig‘ini amalga oshirgan. Ya.A.Sevostayanov o‘z kitobida G.Monjning g‘oyalarini rivojlantirib, qo‘shimcha proeksiyalash usulini tavsiya etgan. Keyinchalik bu g‘oyani professor S.M.Kolotov (1880 – 1965 y.) har tomonlama rivojlantirib, “Yordamchi proeksiyalash” usuli deb nomladi va o‘zining 1933-yilda texnikumlar uchun chop etilgan “Chizma geometriya” darsligida pazitsion va metrik masalalarni yechishda qo‘llagan.


Yordamchi proeksiyalash usullari asosan chizma geometriyaning pozitsion masalalarini yechishda qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir, chunki metrik masalalarni ushbu usulda yechishda katta qiyinchiliklarga olib kelish mumkin.

Ushbu maqolda markaziy yordamchi proeksiyalash usulining nazariy asosloari keltiriladi.

Nuqtaning tekislikdagi markaziy proeksiyasini berilgan nuqta orqali o‘tuvchi nurning shu tekislikdagi izi deb qarash mumkin. Biror *A′,A″* nuqta *S′,S″* proeksiyalash markazi orqali umumiy holatdagi *B′S′*, *B″S″* va *B′D′*, *B″D″* ikki kesishuvchi kesmalar orqali berilgan tekislikka proeksiyalanayotgan bo‘lsin (1-rasm). *1′=1″* va *2′=2″* nuqtalar berilgan *B′S′*, *B″S″* va *B′D′*, *B″D″* kesmalarning mos xoldagi o‘zaro kesishuv nuqtalari bo‘lsin. Bu nuqtalar orqali o‘tuvchi P_K chiziqni berilgan tekislikning *moslik izi* deb nomlaymiz. *S′A′*, *S″A″* nur orqali N_h gorizantal proeksiyalovchi tekislik o‘tkazilganda u *V′S′D′*, *B″S″D″* tekislikni *3′4′*, *3″4″* to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesadi. *A′,A″* nuqtani R_K tekislikka proeksiyalovchi *S′A′*, *S″A″* nur *3′4′*,*3″4″* chiziq bilan A'_P,A''_P nuqtada kesishadi.



1-rasm.



2-rasm.

Hosil bo‘lgan A'_P, A''_P nuqta A nuqtaning R_K proeksiya tekisligidagi markaziy proeksiyasi, hamda A',A'' nuqtani R_K tekislikka proeksiyalovchi $S'A'$, $S''A''$ nurning ushbu proeksiya tekisligidagi izi bo‘ladi.


3′4′ chiziqning frontal proeksiyasi *proeksiyalovchi nur eltuvchisi* yoki *eltuvchi* deb yuritiladi. Proeksiya tekisligini moslik o‘qi va nuqta orqali berilishi qulay bo‘ladi.

2-rasmda *moslik izi* P_K va *P,P′* nuqta bilan berilgan tekislikda *S,S′* markaz orqali o‘tuvchi nurning A_P,A_P' izini yasash keltirilgan. Bunda *P,P′* nuqtadan o‘tib, *S S′* nurga paralel bo‘lgan N_H gorizantal proeksiyalovchi tekislik o‘tqazamiz. Ushbu tekislik berilgan tekislikni P_k,P_k' to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesadi. Natijada *eltuvchi* to‘g‘ri chiziq yo‘nalishi aniqlanadi. *S′S* nurlar orqali Q_H gorizantal proeksiyalovchi tekislik o‘tkazib, $1A_P$,$1'A'_P$ eltuvchini va izlangan A_P,A'_P - *S S′* markaz orqali o‘tuvchi nurning berilgan tekislikdagi izi aniqlanadi.


Yordamchi proeksiyalash usullari markaziy va parallel bo‘lishi mumkin.

Markaziy yordamchi proeksiyalashda nuqtalarni proeksiyalovchi nurlarning vertikal tekisliklari proeksiyalash markazi vertikal to‘g‘ri chizig‘i orqali o‘tib, umumiy vertikal to‘g‘ri chiziq bilan tekisliklar dastasini hosil qiladi. Ushbu tekisliklar dastasi bilan P_K moslik va proeksiya tekisliklari bilan kesishib, ularda *S* va *S′* markazlarga ega bo‘lgan to‘g‘ri chiziqlar dastalarini, ya’ni nurlar proeksiyalarini hosil qiladi.

Umumiy vaziyatdagi *P* tekislikka *AB* kesmani proeksiyalash 3-rasmda ko‘rsatilgan. Bunda *P* tekislikning P_H moslik izi va undagi yordamchi proeksiyalash markazi *S* nuqtadan o‘tgan vertikal to‘g‘ri chiziqning izi S'_P nuqtasi bilan berilgan. *S* proeksiyalash markazining *S′* gorizantal proeksiyasi bilan *AB* kesmaning *A′* gorizantal proeksiyasini birlashtirib, uning moslik o‘qi P_K bilan (3-rasm) kesishgan *1=1′* nuqtasini belgilaymiz. So‘ngra S'_P bilan *1* nuqtani birlashtirib, uning *S′ A′* bilan kesishgan A_P' nuqtasini, ya’ni *A* nuqtaning *P* tekislikdagi markaziy proeksiyasini aniqlaymiz. Hosil bo‘lgan S'_1 *1* to‘g‘ri chiziq eltuvchi bo‘ladi. Agar *P* tekislik vertikal bo‘lsa S'_1 proeksiyalash markazi cheksiz uzoqlashib, undan o‘tuvchi aniqlovchilar o‘zaro parallel vertikal to‘g‘ri chiziqlar bo‘lib qoladi. Bunday holat 4-rasmda *AB* kesmaning markaziy proeksiyasini yasashda ko‘rsatilgan. A'_P B'_P moslik o‘qidagi nuqtalardan o‘tgan aniqlovchi vertikal to‘g‘ri chiziqlar o‘zora parallel bo‘ladi.



3-rasm.



4-rasm.

Yuqoridagi keltirilgan usullarni chizma geometriyaning turli pozitsion va metrik masalalarini yechishda qo‘llash mumkin. Ba’zi pozitsion masalalarni yechishda berilgan geometrik shakllarni proeksiyalar tekisliklarining birortasiga qo‘shimcha proeksiyalashga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Murodov va boshqalar. «Chizma geometriya kursi». Oliy texnika o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1988.
2. Kolotov S.M. Vspomogatelnoe proektirovanie, Kiev. Gostroyizdat. UCCR, 1956.
3. Murodov Sh.K., Tashimov N. "Grafik tasvirlash asoslari". “Navro‘z” nashriyoti, 2013.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

Muladjanova Gulchexraxon Abidjanovna,
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi assistent o‘qituvchisi
Mullajonova Mubinabonu Doniyor qizi,
Andijon davlat chet tillar instituti talabasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi 5712-son Farmonida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari umumiy sonining qariyb 25 foizini «Pedagogika» mutaxassisligi bitiruvchilari tashkil etishi va bu mutaxassislik eng ommaviylardan biri bo‘lishiga qaramasdan, uning jozibadorligi pastligi sababli pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining o‘z kasbi bo‘yicha mehnat qilish motivasiyasi past darajada ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. [1]

Oliy ma’lumot olgan bitiruvchilarning hammasi ham talabga javob berayaptimi? Bo‘lajak kadrlarda, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy tayyorgarlik mukammal darajada shakllanganmi degan savol atroflicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan masala sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga asosan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar aniqlashtirilganligi va bulardan quyidagilari bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligining pastligiga ta’sirini o‘tkazmoqda:

talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmaganligi;

ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg’ulotlar samarali tashkil etilmaganligi, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermasligi;

professor-o‘qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasi pastligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolganligi;

o‘quv adabiyotlari yetishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermasligi, o‘quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo‘shimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmaganligi;

oliy ta’lim muassasalarida fan olimpiadalarini o‘tkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmaganligi, olimpiadalar g’oliblari bilan ishlash tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmaganligi;

iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emasligi; oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g’oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g’oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjudligi kabilar.[2]

Davlatimiz tomonidan yuqorida talab etilayotgan qator vazifalarning tub va asosiy maqsadi jamiyatimiz ravnaqiga hissa qo‘sha oladigan malakali kadrlarni tayyorlash hamda ularni kasbiy faoliyatiga yetuk kadr qilib yetishtirishdan iborat. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonini sifatli ta’minlash, unga yangicha yondashuvlarni tadbiq etish bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi. Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg’or ta’lim

texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

▪ tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash;

▪ pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish;

▪ pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg’or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovasion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;

▪ sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg’unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovasion faoliyatni samarali tashkil etish;

▪ pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish;

▪ oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integrasiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish;

▪ pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

▪ pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish;

▪ yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish. [3]

Bugungi kunda o`qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator omillarga tayanadi. Unda o`qituvchining muloqatchanligi, qarshi fikrlarga nisbatan xolisona munosabatga tayyorligi inobatga olinadi. Natijasida o`qituvchi o`z faoliyati ilmiy ta’minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo`ladi. O`qituvchi faoliyatida o`z-o`zini faollashtirish, o`z ijodkorligi, o`z-o`zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o`qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ta’lim tizimidagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o`qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o`qituvchi shaxsidir. O`qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo`lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg`ullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o`ch bo`lishi lozim.

O`qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo`nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o`rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o`quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o`rganish oliy maktab o`quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni quyidagi bosqichda amalga oshirish mumkin:

1. Innovatsiyalarni pedagogik faoliyatda qo‘llashda o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish.
2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.

3. Ta’lim jarayoniga innovatsiya kiritilib bo‘lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Ta’lim tizimida shaxsning fazilatlari faoliyat ko‘rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi, shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda yangilikka intilish va mustaqil ishlashga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki innovatsiyalar insonga ulug'vorlikdan ko‘ra ko‘proq zavq bag'ishlaydi. Agar bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash vazifalari yuqori saviyada amalga oshirilsa, ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish samarali bo‘ladi hamda sezilarli natijalarga erishish imkoniyati kengayadi.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi 5712-son Farmon.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga asosan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-4623-son Qarori.

4. http://zamtadqiqot.uz/index.php/ZTFITJ/issue/view/7

ALISHER NAVOIYNI PEDAGOGIK QARASHLARIDA TA’LIM TARBIYA MASALALARI

Axmedov Akmal Yusufovich,
FarDU o‘qituvchisi
Sherqo‘ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi,
FarDU 2-kurs talabasi

Annatatsiya. *Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs kamolotida ta’lim-tarbiyaning roli va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. O‘qituvchi-murabbiy faoliyati, uning kasbiy va shaxsiy sifatlari e’tirof etilgan bo’lib, hamda pedagogik qarashlarida ta’lim tarbiya masalalari ham keng yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ustoz-murabbiy, komillik, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’rifat, barkamol inson, shaxs kamoloti, maktab, ma’naviy meros.*

Sharq murafakkirlaridan biri, o‘zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o‘rganish, undan ta’limtarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g`ururi, sha`n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z sa`natkoridir.

Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo‘lsa ham, o‘zining bu haqidagi fikrlarini deyarli barcha ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiyning ilm-ma’rifat, ta’limtarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g`oyalari bosh o‘rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o‘z asarlarida har bir so‘zdan unumli va o‘rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo‘ladi. Ulug` shoir o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid

fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo‘shdi, umuminsoniy fazilatlar to‘g`risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir. Har bir o‘qituvchi -pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta’lim-tarbiyasining yanada samarali bo‘lishi uchun o‘z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o‘stirishi, o‘quvchilar bilan bo‘ladigan munosabatlarni puxta o‘ylab, ularning ko‘ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim. Sharqona ta’lim va tarbiya dunyo miqyosida ham alohida o‘ringa ega. Sharq madaniyatida ta’lim-tarbiya masalalari yoritilgan didaktik ruhdagi asarlar Mir Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liqdir. Navoiy o‘z asarlarida axloqiy qarashlarini yaxshi fazilatlar bilan birga yomon illatlarni ham ko‘rsatish orqali ifoda etadi. Uning nazdida insoniylik yaxshi g‘oyalarga amal qilish va uni targ‘ib etish bilan bog‘liqdir, turli illatlar esa odamni insoniylikdan uzoqlashtiradi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so‘zining ma’nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lgan kishi, demakdir. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilat va illatlar, ezgulik va yovuzlik, do‘st va dushmanlik, diyonat va hiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettirilgani e’tiborga molikdir.

Nafsing etsa shuxlug‘,
charx emgagidin qil adab,
Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib.

Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridan olingan mazkur misrada bolaga yoshligidanoq etarli va to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish kerakligi, bu nechog‘lik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondoshish zarurligi uqtiriladi.Olim bilim olishda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig‘ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e’tibor beradi. Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o‘rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini belgilab beradi: ya’ni Alisher Navoiy ta’lim tizimini o‘z davrida o‘quv muassasasi, madrasalarda o‘qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi. Alloma yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o‘zlari ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi zarurligini uqtiradi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug‘ bo‘lib, doimo izzatda, hurmatda bo‘ladilar, deb ta’kidlaydi. Shunday qilib, biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko‘rsatib o‘tadi. U ta’limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.Chunki boqiy hayotga intilgan Navoiy fikricha, dono inson o‘zining kuchquvvatiga aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong`ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsa-tadigan olim sifatida ta’riflaydi. Bu fikrni “Nazm ul-javohir” asarida:

Kim olim esa nuqtada barhak de oni,
Gap bazm tuzar bihishti mutlah de oni,
Har kimsaki yo‘q ilmga anga ahmoq de oni,
Majlisdaki ilm bo‘lsa uchmas de oni.

Umuman olganda, Navoiy ijodiyoti zamon va makon tanlamaydi. Uning asarlaridagi ta’lim-tarbiya, ahloqqa oid fikrlar hozirda ham nazariy va amaliy jihatdan e’tiborlidir. Necha asr avval yozilgan bo‘lishiga qaramay, yuqoridagi ruboiy va misralarida keltirilgan odamiylik, samimiylik, oqillik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, do‘stlik, hamjihatlik masalalari sharqona tarbiyada hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, kundan kunga zamonaviy hayotda Navoiyning asarlarini o‘rganish, ular asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda, davlatlararo do‘stona munosabatlarni rivojlantirishda ham asosiy omillardan biri hisoblanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta’limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning pedagogik qarashlari o‘zidan oldin o‘tgan olimlarning bu boradagi ilg`or ta’limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an’anaviy Sharq xalqlari ta’lim-tarbiya yo‘riqlariga asoslanadi. Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko‘rsatadi. U ta’limda ilmiylikka asoslanganlik tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O‘z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008 y.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 16-jild. T.: “Fan”, 2000. B. 26.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 14-jild. T.: “Fan”, 1998. B. 83.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O‘n besh jildlik. 13-jild. – T.: “Badiiy adabiyot” nashriyoti, 1966. – B. 189 – 190.
5. Alisher Navoiy “Hikmatlar”. O‘zbekiston. – T., 2011.
6. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. Fan. – T., 2007.
7. Inoyatov S. Do‘stlik va adolat kuychisi // Adolat gazetasi // 2020 yil, 18-son.

BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHISI KELAJAK BUNYODKORIDIR

Jo‘rayeva Turg‘unoy Umarjonovna,
Namangan davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: +998934909662
Electron pochta: turgunoy@gmail.com

Annotatasiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda o’qituvchilarga bo’lgan e’tibor, ular egallashi kerak bo’lgan muhim qobiliyatlar va ta’lim va tarbiyaning maqsadlari haqidagi fikrlar keltirib o’tilgan. Shu bilan birga olimlarning fikrlari ham qo’shimcha qilingan.*

Kalit so‘zlar: *qobilyat, o‘quvchi, layoqat, individual, zamonaviy yondashuv, o’quvchilar bilan hamkorlik, ta’lim sifati, ta’im, ta’limning maqsadi, tarbiyaning maqsadi, ta’lim va tarbiyaning uyg’unligi, o’qituvchi qobiliyati, psixologik qobiliyat, islohotlar.*

Mamlakatning ertangi taqdiri, ilm-fanning yurtimizdagi kelgusi taraqqiyoti ta’lim sohasida qilinayotgan yaxshi ishlar bilan belgilanadi. Shu bois, mamlakatimizda ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, o‘qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini oshirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Sababi, aynan inson resursini shakllantirish orqali kelajakda islohotlarni amalga oshiradigan, ularning ijrosini samarali tarzda ta’minlay oladigan kadrlar yetishib chiqadi.

Agar jahon tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, urushdan so‘ng iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolda qolgan Finlyandiya, Yaponiya hamda Janubiy Koreya singari davlatlar asosiy e’tibor va sarmoyani inson resursini shakllantirishga yo‘naltirganini ko‘rish mumkin.

Bu bejiz emas, albatta. Boisi millat sifatida qad rostlash va dunyoning rivojlangan davlatiga aylanishiga faqatgina ta’lim sohasini isloh etish, buning uchun o‘qituvchilarning jamiyatda eng obro‘li qatlamga aylantirish orqali erishish mumkin. Chunki ayni chog‘da ushbu davlatlar aholisining salmoqli qismi oliy ma’lumotga ega desak, mubolag‘a emas.[1]

Dunyo mamlakatlari juda tez fursatlarda o’zgarib rivojlanib bormoqda. Bu esa har bir kasb egasidan mustaxkam bilim va qobiliyatga ega bo’lish talabini qo’ymoqda. Shu jumladan,

boshlang’ich sinf o’qituvchilariga ham juda katta mas’uliyat yuklanmoqda. Ta'lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lmog’i lozim. Bu nafaqat ta’lim jarayonida balki unga hamohang tarzda tarbiyani ham o’zida mujassam etishi kerak. Darslar davomida o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarga yetkazib beradi, o‘quvchilar esa berilayotgan bilimlarni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. O’quvchilar o‘rganish jarayonida o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos xususiyatlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi o’zaro hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, o’z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari ishlarda faol ishtirok etishi ta'lim va tarbiya masalalarini hal etishda muhim hisoblanadi. Boshlang’ich ta’lim ta’limning boshlang’ich va eng muhim qismidir. Shu o’rinda boshlang’ich sinf o’qituvchilaridan katta sabr-toqat va bilim talab qilinadi. Sababi o’quvchilarni ta’lim jarayoniga moslashtirish, ularning savodini chiqarish juda mashaqqatli jarayondir. Bu davrda o’quvchilarning har biriga indivudial yondashish, ulardagi qobiliyatlarni aniqlash va ta’lim-tarbiya jarayoniga moslashtirish talab etiladi. Bularni barchasini bir vaqtda, uyg’un holda olib borish esa boshlang’ich sinf o’qituvchisi zimmasiga yuklatiladi.

Ta'lim – bu insonda axloqiy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash, shuningdek, bilim va kasbiy ko'nikmalarga o'tish jarayoni hisoblanadi. Insonni tarbiyalash jarayoni tug'ilgan paytidan boshlanadi va hayoti tugagunda qadar davom etadi. Bolalarni tarbiyalashning maqsadi insonning yoshiga bog'liqdir. Shu sababli, bola katta bo’lgan sari uning oldida egallashi kerak bo’lgan maqsadlar birin-ketin namoyon bo’la boshlaydi. Bu jarayonda ta’lim maqsadlari ham qo’shiladi. Ta'limning maqsadi hamisha jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi doimo mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlab o’tilgan. Ta'limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi deya olamiz. O’quvchilar kelgusida o’z oldilariga qo’ygan maqsadlariga erishish uchun esa o’qituvchi misoli shamchiroq kabi uning yo’lini yoritib turishi kerak.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda bugungi kunda o’qituvchiga ham talablar qo’yilmoqda. Nafaqat bugungi kunda balki o’tmishda ham o’qituvchi egallashi kerak bo’lgan qobiliyatlar aytib o’tilgan. Shu o’rinda qobiliyat so’ziga ta’rif berib o’taylik. Qobiliyat bu – shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisidir, Zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo‘lgani sababli, shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya’ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg‘ulariga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo‘yilishi kerak. Qobiliyatni inson tug‘ma, tabiat in’omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Psixolog olim Olga Matveeva quyidagi qobiliyatlarni ko‘rsatib o‘tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.

2. Voqealarni oldindan ko‘ra olish qobiliyati: Ushbu qobiliyat turi har bir o‘qituvchining sergakligida, o‘quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko‘ra olishida namoyon bo‘ladi. Shunda o‘qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.

3. Eshitish va his qilish qobiliyati. Shunday qobiliyatga ega bo‘lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o‘qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she’r va qo’shiqlarni sevib tinglaydi.

4. Kinetsetik (teri-muskul) qobiliyat. O‘qituvchining o‘z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo‘naltiradi, vaqtni harakat sur’ati bilan his qiladi, o‘zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. Mantiqiy qobiliyat. Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi.

6. Shaxsning ichki qobiliyati. O‘z-o‘zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qatiyatli, har qanday vaziyatda o‘z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.

Pedagogikada o‘qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o‘qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug‘ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste’dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma’lum faoliyatidagina mavjud bo‘lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishiga aytiladi. U o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo‘ladi.[2]

Bu qobiliyatlar o’qituvchilik faoliyati davomida juda zarur va hamisha asqotadidan qobiliyatlar hisoblanadi. Kimki o’z oldiga o’qituvchilik kasbini egallashni maqsad qilgan bo’lsa, avvalo u o’z ustida muntazam ishlashi va bilimlarga ega bo’lmog’i zarurdir. Barcha rivojlangan mamlakatlar ta’lim sifatini oshirish orqali shu darajaga erishishgan deya olamiz. Ta’limda esa o’qituvchining o’rni beqiyos. Shuning uchun ham biz kutayotgan va amalga oshishini xohlayotgan yorqin kelajak o’z kasbini haqiqiy egalari bo’lgan o’qituvchilar bilan birgalikda barpo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://parliament.gov.uz/articles/1502
2. https://fayllar.org/mavzu-oqituvchi-faoliyatida-pedagogik-qobiliyat-kommunikativ-m.html
3. https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/01/pedagog-maqomi/
4. Жўраева Т. Бошланғич таълим тизимидаги ислохотлар. “Таълим тизимида инновация, интеграция ва янги технологиялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конфереция. 28 апрель 2022. Наманган. 276 – 280 бетлар.
5. B.Xodjayev. Umumiy peagogikasi nazariyasi va amaliyoti. 2017.
6. M.Hamroyev, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva. Ona tili (darslik). Toshkent: TDPU, 2008.
7. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. – “A.Navoiy” nomidagi O’zbekiston milliy kutubxonasi, 2001.
8. R.Movlonova, N.Voxidova, N.Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi, 2010.
9. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O’quv qo’llanma) – T.: Tafakkur bo’stoni, 2011.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT TARBIYASI ORQALI ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISH

Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o‘g‘li,
University of Business and Science o‘qituvchisi
abdullayevdilshodbek1992@mail.ru
+99897-214-48-08

Annotatsiya. *Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat ko’nikmalarining shakllanishi, maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga axloqiy, jismoniy, ma’naviy-ma’rifiy, estetik tayyorgarlik, mehnat faoliyatini bola ruhiy faoliyatiga ta’siri, mehnat tarbiyasi orqali estetik didni shakllantirish, mehnat tarbiyasi haqida allomalar fikrlari bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *Mehnat tarbiyasi, estetik did, ta’lim-tarbiya, katta guruh, o’rta guruh, kichik guruh, oila, kognitiv jarayonlar nutq, diqqat , xayol, idrok, tasavvur.*

Bugungi kunda yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor berilmoqda. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish esa, birinchi navbatda oilada va albatta, ta’lim muassasalari miqyosida olib boriladi. Ta’lim tizimi xususida gapiradigan bo’lsak, ta’lim tizimining bosh bo’g’ini bu – maktabgacha ta'lim hisoblanadi. Haqiqattan ham bu soha ta'lim tizimining asosidir. Shuning uchun ham ushbu sohaga dunyo davlatlari ta’lim tizimida ham katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi ham aynan shu maktabgacha ta’lim sohasi bo’yicha ko’plab sayi-harakatlar amalga oshirilmoqda. 2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonivich qaroriga asosan; maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillash-tirish, moddiy texnika ba’zasini mustahkamlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnalogiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intelektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya jarayonini yangilangan dasturlar asosida ta'lim tarbiya berishni tadbiq etdi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontsepsiyasi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 1059-son qaroriga 1-ILOVA. 2019 yil 31 dekabr.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontsepsiyasi” asosida 3 – 6 (7) yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o’z tuyg’ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg’otish, milliy an’analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g’amxo’rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan “Baxtli bola ma’naviyati” kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.[1]

Ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o’quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim Vazirligi maktabgacha ta‘lim sifatiga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Bola rivojlanishi va tarbiyasida faoliyatning muhim turi hisoblangan o‘yin katta ahamiyatga ega. U maktabgacha yoshdagi bola shaxsiyati, axloqiy-irodaviy fazilatlarini shakllantirishda samarali usuldir, o‘yin orqali ta‘lim berishda atrof-olamga ta‘sir etish ehtiyoji ro‘yobga chiqadi.

1. Kichik guruh (3 – 4) bolalarda hali mehnat malakalari yaxshi shakllanmagan bòladi. Qo’l muskullari ham yirik va mayda motorika sohalari ham yaxshi rivojlanmagan boladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda biror bir ishni bajara olmaslik, biror narsani qo’lidan tushurib sindirib qo’yish holatlari kuzatiladi. Shunday paytda bolani urushmaslik kerak .Bu

[1] Uzluksiz ma’naviy tarbiya KONTSEPTSIYASI. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 1059-son qaroriga 1-ILOVA. 2019 yil 31 dekabr.

bolaning kognitiv jarayonlari ya'ni nutqiga va boshqa sohlariga ham salbiy ta'sirini kòrsatadi. O’z fikrini bayon eta olmaslik, fikrini yo’qotish kabi holatlar kuzatilishi mumkin.

2. O’rta guruh (4 – 5) bolalarda oilada yoki tengdoshlari orasida o’zlari kuchi yetadigan topshiriqlar bajarishga harakat qiladilar. Bu guruhlarda o’z o’ziga xizmat qilish malakalari shakllangan bo’ladi. Tarbiyachi pedagog ham bolalarga o’zlari kuchi yetadigan darajada topshiriq berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu orqali bolada mehnatsevarlik, mehnat ahliga xurmat ruhida qarash, birovni mehnatini qadrlash kabi tushunchalar shakllanadi.[1]

3. Katta guruh (5 – 6) bolalari o’yindan batamom farqlab olgan holda jiddiy munosabatda bo’ladilar. Ular mehnat qilish orqali aniq maqsadga yetishlarini tushunadilar. Qizlar oilada onalariga uy yumushlariga yordam beradilar. Onalarining bajarayotgan ishlarini ko’rib oshxona va xonalarni ozoda va saranjom qilib yig’ishtirish, xona gullarini parvarishlash orqali bolalarda mehnatsevarlik va estetik did shakllanadi.

4. Tayyorlov guruh (6 – 7) bolalarda o’yin faoliyatidan o’qish faoliyatiga o’tayotgan davr hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalarga ham o’z kuchlari yetadigan topshiriqlar bergan ma’qul. Bu yoshdagi bolalar aqliy jihatdan ham ancha oldinlagan payti hisoblanadi. Ya’ni, oladigan bilimlarining 70% ni olishga ulguradi. Shu bilan birga bolalarni mehnatga o’rgatish orqali bolalarni mustaqil faoliyat yuritishga, balki o’z fikrini mustaqil bildirishga har tomonlama aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlantirish va kelajakdagi mehnat faoliyatga psixologik tomondan tayyorlash mehnat qilishga bo’lgan qobilyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Buni quyidagi jumlalarda ham bilishimiz mumkin.

a) bolalarni maqsad qo’yishga, ko’nikma va malakalarini shakllantirishga mehnat uchun kerakli va mos bo’lgan materiallarni tanlashga o’rgatish, bunda o’z navbatida estetik didni namoyon qiladi;

b) bolalarda mehnat malakalarini shakllantirish mehnat orqali yaxshi natijalarga erishish mumkinligini tushuntirish va ulkan natijalarga erishishlariga undash;

c) bolalarga kattalarni mehnati bilan tanishtirish va ularni qanday yutuqlarga erishganliklarini ko’rsatish orqali o’z oldiga katta maqsad qo’yishni o’rgatish;

d) bolalarni mehnat ahliga hurmat va mehnat natijalarini asrab-avaylash kerakligi haqida tushuncha berish, o’rgatish;

e) bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatga qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, o’z maqsadini aniqlaydigan, tashabbuskorlilik sabr-toqat, chaqqonlik va ildamlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazishi kerakligini tushuntirish va shunga o’rgatish.[2] Bundan tashqari bolalarni mehnatga o’rgatish va ularda mehnat malakalari shakllantirish borasida ko’plab allomalar o’zlarining nodir asarlarida ma’lumotlar qoldirib ketishgan.

Mutafakkirlarimiz bola tarbiyasida va uning kamoloti haqida o’z asarlarida to’xtalib yoshlarni odob axloqi, jismoniy barkamolligi, aqlan yetukligi, mehnstsevarligi hamda vatanparvarlik kabi hislatlar shakllantirish uchun alohida e’tibor berilgan. Xususan, bolalarni mehnatga tayyorlash mehnatsevarlik ko’nikma va malakalarini shakllantirib barcha tarbiya shahobchalarini tarkib toptirish muhim omil ekanligi ta’kidlangan. Ular mehnatni yuksak baholab kishilarni bir biri bilan muomalasi, madaniyati mehnat orqali yuzaga kelgan deyishadi. Mehnat qilgan kishi hech qachon xor bo’lmasligi, o’zgalar mehnatni qadrlash va aksincha mehnat qilmagan kishilar o’zgalar mehnatini qadrlamaydi, hattoki, ustidan kuladi deyilgan.

Jumladan, Kaykovus o’zining "Qobusnoma" asarida: "Bolani yoshligidan mehnatga o’rgatish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga" alohida to’xtalgan.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham yosh avlodning ilm hunarli va eng yaxshi insoniy fazilatlarni egallagan kishilar bolishini orzu qilgan. Alisher Navoiy jamiyat kishilar oldiga qo’ygan maqsadlarini amalgam oshirish 1-omili bu mehnat deb uqtiradi. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ham inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etgan. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bòlgan. Og’ir mehnat – binokor

[1] Shohista Sodiqova Maktabgacha pedagogika "Tafakkur Bo’stoni" – Toshkent, 2013.
[2] Z.T.Nishonova G.K.Alimova, A.G’.Turg’unboyeva, M.X.Asranbayeva – Toshkent, 2017.

ya’ni quruvchilar, ko’mir qazuvchi konchilar, hunarmand fan sohiblari mehnatini keltirgan. Bundan tashqari o’zbek ma’rifatparvarlaridan Abdulla Avloniy yoshlarning biror kasb bilan mashg’ul bo’lishini 1-galdagi muhim ish deb bilgan. "Turkiy guliston yohud axloq" asarida dangasalik, yalqovlikni qoralab, harakatchanlikni ulug’lab shunday deb yozgan: "Sihatimiz, saodatimiz, sabrimiz, fazilatlarimiz, butun hayotimiz harakatimizga bog’liq.[1] Harakatsiz kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo’lib qoladilar." Shuning uchun yosh avlodni yoshligidan mehnat qilishga jalb qilish, bo’sh vaqtini unumli mashg’ulotlar bilan o’tkazishga o’rgatish bolaga har tomonlama ijobiy ta’sir qiladi. Demak, bundan kòrinib turibdiki, bolani mehnatga yoshligidan o’rgatish orqali mustaqil faoliyatga o’rgatish har tomonlaman rivojlantirish ya’ni bunda kognitiv jarayonlarining normal rivojlanishi, ma’naviy, axloqiy, jismoniy hamda estetik tarbiya asosida tarbiyalash ahamiyatlidir. Har bir tarbiya asosida estetik tarbiya turadi. Ta’lim-tarbiyani boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham alohida diqqat e’tiborga ega. Estetika go’zallik haqidagi fan hisoblanadi. Estetik tarbiyani shakllantirishda mehnat tarbiyasining o’rni katta. Shunday ekan estetik tarbiya orqali yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an’analarimiz va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhimdir.

Hozirgi kunda yuqoridagilarni amalga oshirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida estetik tarbiyaning asosiy vositalari sifatida quyidagilar yo’lga qo’yilgan:

-ijtimoiy muhit va turmush estetikasi;

-san’at asarlari;

-bayramlar, ko’ngilochar tadbirlar;

-bolaning ijodiy faoliyatlari;

-ma’lum maqsadga qaratilgan reja asosida amalga oshadigan tizimli ta'lim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida aynan mana shunday usullarni qo’llash orqali bolalarni ijodiy qobilyatlarini ruvojlantirish, har bir ishni qilishdan oldin estetik jihatdan yondashish kerakligini o’zgalar mehnatni qadrlash, mehnat ahliga xurmat ruhida qarash kerakligini anglab yetadilar. Bunda bolalarning kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko’rsatadi. Ya’ni, xayol, tafakkur, tasavvur, idrok, diqqat va nutqning rivojlanishida mehnat tarbiyasi va estetik tarbiya asosiy o’rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya KONTSEPTSIYASI. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 1059-son qaroriga 1-ILOVA. 2019 yil 31 dekabr.

2. Shohista Sodiqova Maktabgacha pedagogika "Tafakkur Bo’stoni" – Toshkent, 2013.

3. Z.T.Nishonova, G.K.Alimova, A.G’.Turg’unboyeva, M.X.Asranbayeva – Toshkent, 2017.

4.O’g’iloy Mamashokirovna Asqarova, Muqimjon Xayitboyev, Mahmudjon Sobirovich Nishonov. Pedagogika "Talqin" – 2008.

5. Shoira Shodmonova Maktabgacha pedagogika – Toshkent: "Fan va texnalogiya", 2008.

6. P. I.Ivanov, M.E.Zufarova Umumiy psixologiya – Toshkent, 2008.

[1] O’g’iloy Mamashokirovna Asqarova, Muqimjon Xayitboyev, Mahmudjon Sobirovich Nishonov. Pedagogika "Talqin" – 2008.

ФОРМЫ КОНТРОЛЯ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ

Дадахонова З.,
преподаватель, Ферганский государственный университет

Аннотация. *В данной статье дается определение термину «контроль» и описываются эффективные традиционные и нетрадиционные формы контроля знаний студентов.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada «nazorat» atamasi belgilangan va talabalar bilimini nazorat qilishning samarali an'anaviy va noan'anaviy shakllarini tavsiflangan.*

Annotation. *This article defines the term "control" and describes effective traditional and non-traditional forms of monitoring students' knowledge.*

Ключевые слова: *контроль, формы контроля, традиционные формы, нетрадиционные формы, работа, опрос, тест, задания.*

***Kalit so`zlar:*** *nazorat, nazorat shakllari, an`anaviy shakllar, noan`anaviy shakllar, ish, so`rovnoma, test, vazifa.*

Key words: *control, forms of control, traditional forms, nontraditional form, work, questionnaire, test, task.*

Контроль знаний студентов открывает большие возможности для совершенствования процесса обучения, поскольку проверка как действенное средство борьбы за прочные и осознанные знания студентов позволяет лучше изучить студентов, их индивидуальные особенности.

Контроль является важной функцией в каждой системе образования, поскольку он помогает свести к минимуму ошибки и улучшить корректирующие меры *[3]*.

Наиболее точно и качественно оценивать знания студентов позволяет разнообразие видов и форм контроля. В учебной деятельности студентов необходимо различать теоретические знания с практическими навыками работы. В качестве основных (традиционных) методов проверки теоретических знаний можно использовать устный опрос, письменную проверку, тестирование; для оценивания практических навыков – практическую работу. Все чаще на занятиях используются такие нетрадиционные формы контроля как рефераты, конкурсные проекты, дидактические игры. В качестве итогового контроля может служить проект, отражающий как теоретические знания студентов, так и уровень прикладных навыков работы с различными программными продуктами.

В педагогической литературе существуют две формы контроля: традиционный и нетрадиционные [1].

Традиционными формы контроля являются:

1. Устный опрос как контроль знаний студентов осуществляется в виде фронтальной и индивидуальной проверки. При фронтальном опросе за короткое время проверяется состояние знаний студентов всей группы по определенному вопросу или группе вопросов. Эта форма проверки используется для: выяснения готовности группы к изучению нового материала; определения сформированности понятий; проверки домашних заданий; поэтапной или окончательной проверки учебного материала, только что разобранного на занятии; при подготовке к выполнению практических и лабораторных работ. Индивидуальный устный опрос позволяет выявить правильность ответа по содержанию, его последовательность, самостоятельность суждений и выводов, степень развития логического мышления, культуру речи студентов. Эта форма применяется для текущего и тематического учета, а также для отработки и развития экспериментальных умений студентов. Причем устную проверку считают эффективной, если она направлена на выявление осмысленности восприятия знаний и осознанности их использования, если она стимулирует самостоятельность и творческую активность студентов.

2. Письменный контроль позволяет за короткое время проверить знания большого числа студентов одновременно. Используется письменный контроль знаний студентов в целях диагностики умения применять знания в учебной практике и осуществляется в виде диктантов, контрольных, проверочных и самостоятельных работ, тестов, рефератов.

3. Самостоятельная работа. Традиционная форма контроля знаний, которая по своему назначению делится на обучающую самостоятельную работу и контролирующую. Самостоятельная работа творческого характера позволит не только проверить определенные знания, умения, но и развивать творческие способности студентов. Самостоятельная работа является необходимым этапом любой темы. Как правило, она проводится после коллективного решения или обсуждения задач новой темы и обязательно предшествует контрольной работе по этой теме.

4. Контрольная работа. Контрольные работы проводятся с целью определения конечного результата в обучении по данной теме или разделу. Целесообразно проводить контрольные работы различного вида. С помощью промежуточной контрольной работы преподаватель проверяет усвоение студентами материала в период изучения темы. Итоговая контрольная работа проводится с целью проверки знаний и умений студентами по отдельной теме, курсу.

5. Лабораторная работа – достаточно необычная форма контроля, она требует от студентов не только наличия знаний, но еще и умений применять эти знания в новых ситуациях, сообразительности. Лабораторная работа активизирует познавательную деятельность студентов. Используется лабораторная работа для закрепления определенных навыков с программными средствами, когда кроме алгоритмических предписаний в задании студентов может получать консультации преподавателя.

6. Тест. Современный образовательный процесс студентов невозможно представить без такого средства контроля остаточных и промежуточных знаний, как тестирование. Традиционные формы контроля недостаточно оперативны, и для их осуществления требуется значительное время, поэтому возникает необходимость в новых видах проверки знаний [2].

Нетрадиционными формами контроля являются:

1. Проектные работы: студентам предлагается выполнить проект по определенной теме, где они могут продемонстрировать свои знания и навыки.

2. Интерактивные игры: использование игр и квестов для проверки знаний студентов

3. Открытые устные зачеты: студентам задаются открытые вопросы, на которые они должны ответить без подготовки.

4. Портфолио: студенты создают портфолио своих работ, проектов и достижений в течение учебного года.

5. Групповые задания: студенты работают в группах над конкретным проектом или задачей, что позволяет оценить их коллективные навыки и знания.

6. Самостоятельные исследования: студентам предлагается самостоятельно изучать тему и подготавливать отчет или презентацию.

Эти методы позволяют более глубоко оценить знания студентов и развить их критическое мышление и творческий потенциал.

Список использованной литератеры:

1. Бочкарёва Т.Н., Матвеева А.А., and Артемова П.В. "Нетрадиционные формы контроля знаний и анализ их применения в средней профессиональной организации" Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, no. 1 (78),

2. Маматова, О.Г. Формы контроля знаний студентов педагогических вузов. – Молодой ученый. – 2012. – №8. 018, pp. 194 – 197.

3. Jerwin E. Cabanero A Reflection Paper Submitted to Dr. Leonida S. Calagui April 23, 2022 EFFECTIVE CONTROL SYSTEM IN THE MANAGEMENT OF EDUCATIONAL INSTITUTION.

CHIZMACHILIK FANINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDAN FOYDALANIB O‘QITISH

Hayitov Javohir Maxtumqul o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti.
Muhandislik va kompyuter grafikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi
hayitov.javohir@cspu.uz
tel: +998946476594

Annotasiya. *Maqolada chizmachilik fanini raqamli texnologiyalari vositasida o‘qitishni qo'llash xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Jumladan, ta’lim samaradorligini oshirishda vositasi sifatida axborot kommunikatsion texnologiyalar imkoniyatlari tavsiflanadi.*


Kalit so'zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kompyuter texnologiyalari, kompyuter grafikasi dasturlari, QR texnologiyasi, raqamlashtirish.*

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadr mutaxassislarni tayyorlash tizimidagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, mutaxassislar tayyorlash tizimining sifat darajasini oshirishda pedagog kadr mutaxassis talabalarni rivojlantirishda, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Darhaqiqat, oliy ta’lim muassasalari chizmachilik fanlarini o’qitishda raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish masalasi bugungi kunda ta’lim sifatini ta’minlashdagi muhim yo‘nalishlardan biri sanalib, bu, o‘z navbatida, ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalariga nisbatan zaruratni shakllantiradi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, Internet tizimi, multimediyalar va har qanday raqamli texnologiyalar vositalari oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonini tashkil etishning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Yuqoridagilarni anglashda ta’lim beruvchida ham, ta’lim oluvchidan ham, albatta, mediakompetentlik shakllanishi zarur. Oliy ta’lim omillar asosiy ahamiyat kasb etadi: pedagog kadrlarning mediakompetentligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan samarali foydalanish yuzasidan didaktik ta’minotni ishlab chiqish; talabalarni mediakompetentligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi didaktik ta’minotni o‘zida aks ettirivchi masofaviy ta’lim platformasi va uning mobil ilovasidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish; talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus, QR texnologiyasini joriy etish; talabalarning mediakompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta’minotdan foydalanish bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammo va takliflarni muhokama qilishga mo‘ljallangan, Telegram ijtimoiy tarmog‘ida maxsus kanal, muhokamalar uchun guruh, o‘z pedagogik portfoliosi haqida ma’lumot beruvchi avtomatlashtirilgan bot yaratish zururati mavjud. Talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta’minotni o‘zida aks ettiruvchi masofaviy ta’lim platformasi va uning mobil ilovasidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda talabalarni masofaviy ta’lim platformasi va talaba portfoliosini yuritish bo‘yicha video darslar orqali ko‘nikmalari shakllanadi. Ma’lumki, raqamli texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi zamonaviy smartfon va planshetlarning ko‘payishi bilan QR kodlarini maxsus skanerlarsiz dastur darajasida o‘qish mumkin bo‘ldi. Maxsus dasturni o‘rnatish va mobil qurilmalar kamerasini kodga yo‘naltirish kifoya – shifrni ochish bilan darhol ekranda paydo bo‘ladi va

ba’zi hollarda (masalan, telefon raqami kodlangan bo‘lsa), ba’zi harakatlar avtomatik tarzda bajariladi (masalan, raqamni terish). QR texnologiyalari aloqa ma’lumotlarini, veb-sahifalarga havolalarning koordinatalarini uzatish uchun foydalidir.

Tizim administrator o‘qituvchi kabinetining bosh sahifasida tizimda tashkil etilgan masofaviy kurs haqida umumiy statistik ma’lumotlar muhandislik grafikasi fanlari aks etgan bo‘lib, ushbu fanlarni qisqa muddatda kerakli ma’lumotlarni olish mumkin bo‘ladi. Tizim administrator o‘qituvchi kabinetida muhandislik grafikasi, fanlar, mavzu yaratish hamda yaratilgan mavzuga o‘quv materialini kiritish hamda o‘chirish imkoniyati mavjud. Tizim administrator o‘qituvchi kabinetida oylar, yillar va kunlar kesimidagi ma’lumotlarni olish mumkin bo‘ladi.

O‘qituvchiga esa hozirgi axborot almashinuvi tezkor bir vaqtda malaka talablarida alohida takidlangan bugungi ishlab chiqarish jarayoniga hos bo‘lgan bilimlarni talabaga o‘z vaqtida taqdim etish imkoniyatini beradi. (1-jadval)



1-jadval

Bu jarayon talabalarning zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Biz QR texnologiyalaridan oliy ta’limda chizmachilik fanlarini o‘qitish jarayonida masofaviy o‘qitish tizimining maqsadi onlayn va oflayn o‘qitish texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, o‘quv kurslarini tashkil etish, kurs foydalanuvchilari hamda tashkilotchilarining o‘zaro virtual aloqasini ta’minlash hamda kurs materiallarini ishdan ajralmagan holda internet tarmog‘i orqali o‘zlashtirish, shuningdek, o‘zlashtirish natijalari monitoringini yuritishdan iborat. Masofadan o‘qitish tizimi talaba va o‘qituvchilardan iborat bo‘lgan veb-saytdir.

Masofaviy o‘qitish jarayonida talabani kabinetida, talabaga yozilgan kurs materiallari quyidagi ketma-ketlikda taqdim etiladi, talabalar kurs materiallarini fanlar va mavzular kesimida o‘zlashtiradilar.

O‘quv maqsadli platforma ta’lim resurslari zamonaviy axborot texnlogiyalari muhitida o‘qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan tashkil topadi. O‘quv maqsadli platforma an’anaviy majmualaridan farqliroq, o‘qitishning platforma va an’naviy texnologiyalari birligi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv maqsadli platforma asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda multimedia texnologiyalarining qo‘llanilishi talabalarga o‘qishga qiziqishni yanada orttiradi, ta’limning interaktiv xususiyati asosida talabalarning fikrlash qobilyatini rivojlantiradi va o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримович, М.Ш., ўғли, М.Э., & ўғли, Ҳ.Ж.М. (2021). Определения параметров отсеков поверхностей второго порядка по заданному объему. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, *2*(5), 32-34. Retrieved from https://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS/article/view/84

2. Hayitov, J. M. O. G. L. (2022). Muhandislik grafikasi fanlarini axborot-kommunikasiya texnologiyalari yordamida o’qitish orqali talabalarni ijodkorlik qobilyatini oshirish. *Science and Education*, *3*(11), 760-767.

CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA KOMPYUTER GRAFIKASI DASTURLARIDAN FOYDALANISH

Hayitov Javohir Maxtumqul o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti.
Muhandislik va kompyuter grafikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi
hayitov.javohir@cspu.uz
tel: +998946476594
Abdukarimov Shoxjahon Abdulaziz o‘g‘li,
CHDPU talabasi
Umarova Dinora Sharifjon qizi,
CHDPU talabasi

Annotasiya. *Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to'garak jarayonida qo'llash xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Jumladan, ta’lim jarayonida ta’lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida AKT imkoniyatlari tavsiflanadi.*


Kalit so'zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kompyuter texnologiyalari, AutoCad grafik dastur o'quv jarayonida, bilimlarni tizimlashtirish.*

Oliy ta’lim tizimida hozirgi vaqtda muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitish jarayonida tahsil oluvchi yosh mutahassis kadirlarni malakasini takomillashtirish uchun alohida ega bo‘lganligiga qaramay, u yagona axborot manbayi bo‘la olmasligi shart-sharoitlarni yaratish


dolzarb vazifaligicha qolmoqda. Hozirgi paytda ta’lim-tarbiya tizimida talabalarni tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ayni haqiqat. Shuning uchun ham ta’lim tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshiradigan omillardan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o‘qitishning texnik vositalaridir.

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadr mutaxassislarni tayyorlash tizimidagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, mutaxassislar tayyorlash tizimining sifat darajasini oshirishda pedagog kadr mutaxassis talabalarni rivojlantirishda, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Darhaqiqat, oliy ta’lim muassasalari chizmachilik fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish masalasi bugungi kunda ta’lim sifatini ta’minlashdagi muhim yo‘nalishlardan biri sanalib, bu, o‘z navbatida, ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalariga nisbatan zaruratni shakllantiradi.

Modelning ikki ko‘rinishi berilgan fazoviy ko‘rinishini chizish usulini keltiramiz. 1. Bunday detalni chizish uchun avval uning old ko‘rinishini chizib olish kerak. Buning uchun – Спереди tugmasi yordamida chizish maydoni frontal tekislika o‘tkaziladi. (1-rasmda). Modelning old ko‘rinishida ikki xil oddiy elementlar kesmadan tashkil topgan. Avval kesmalarni so‘ngra – отрезок tugmasi yordamida sichqoncha bilan ekranning ixtiyoriy joyida kesmaning birinchi nuqtasi (1) ko‘rsatiladi, vertikal yo‘nalish bo‘yicha pastga qarab sichqoncha yurgizilib klaviaturadan kesma uzunligi 16 raqamini yozib Enter bosiladi. Bu bilan sichqoncha (2) nuqtaga o‘tib oladi, ya’ni 1 – 2 nuqtalar orasidagi kesma chiziladi. Sichqoncha bilan chapga tomon yuriladi, gorizontal yo‘nalish topilgach klaviaturadan kesma uzunligi 68 raqami kiritilib, Enter bosiladi (2 – 3 kesma chiziladi). So‘ngra sichqoncha bilan tepaga qarab vertikal yo‘nalish tanlanib kesma uzunligi 26 raqami kiritilib 3 – 4 nuqtalar orasidagi kesma chizib olinadi. Va hokazo ketma-ket sichqoncha yordamida kesma yo‘nalishi va klaviaturadan uning uzunligi kiritilib qolgan kesmalar ham chizib olinadi. (2-rasmda).




1-rasm




2-rasm

Modelning old ko‘rinishini bir yo‘la – полилиния buyrug‘i bilan ham chizib olish mumkin. Yuqorida keltirilgan usul singari 1 nuqtadan 2 nuqtagacha ketma-ket yo‘nalish sichqoncha bilan ko‘rsatilib va kesma uzunligi klaviaturadan kiritilib kesmalar chizib olinadi. 5. Chizmaga hajm berish uchun uni uchinchi yo‘nalish bo‘yicha 40 birlikka o‘stirish kerak. O‘stirish buyrug‘ini faqat bitta elementdan tashkil topgan yopiq konturli obyektga qo‘llash mumkin. Chizilgan chizma konturi bir nechta alohida oddiy elementlardan (kesmalardan) tashkil topgan. Bu kesmalar Область buyrug‘i bilan bir butun sohaga aylantiriladi. – область buyrug‘i bosilgach sichqancha ko‘rsatkichi to‘rtburchak o belgini oladi. Chizmaning barcha elementi ko‘rsatilib, Enter bosiladi. Agar chizma konturi poliliniya buyrug‘i bilan chizilgan bo‘lsa, Oblast buyrug‘ini tanlash shart emas. 6. – Выдавить (o‘stirish) buyrug‘i berilgach, sichqoncha bilan chizmadagi atrof chizig‘i ko‘rsatiladi va Enter bosiladi. So‘ngra o‘stirish balandligi 30 raqami klaviaturadan yozilib Enter va yana bir marta Enter bosiladi. Bu bilan detalimiz uchinchi yo‘nalish Y o‘qi bo‘yicha 30 birlikka o‘sadi. Uchunchi yo‘nalishi chizilganda izzometriya ko‘rinishiga o‘tkaziladi (3-rasm).




3-rasm


- Скрытие liniye tugmasini bosib, detalning orqa chiziqlarini ko‘rinmas qilish (4-rasm) 7. Modeldagi o‘yiqni hosil qilish uchun uning o‘rtasiga prizma o‘lchami bo‘yicha ketma ket chizilib, frontal ko‘rinishi chizib chiqiladi va chiziqlar Соединить tugmasi bosilib bitta chiziq qilib olinadi va Выдавить  (o‘stirish) buyrug‘i berilgach 12 raqamini yozamiz va Enter bosiladi prizma hosil bo‘ladi detaldan prizmani ajratib olish kerak.



4-rasm




5-rasm




6-rasm

Biror bir detal yoki buyumni chizmasini hosil qilish uchun detal shakliga ko‘ra dastlab gabarit o‘lchamlari asosida yaxlit bir qism olib undan keraksiz joylarini o‘yib olib tashlanadi Dastlab yuqorida tariflangan shaklni Auto CAD grafik dasturi yordamida uch o‘lchamli xolda

chizib olamiz va kerakli qismlariga nuqta shaklidagi chiziqdan foydalanib o‘yib olish chiziqlari chiziladi. Ushbu chiziqlar orqali talabalarni detalni taxminiy xosil bo‘lish xolatini tasavvur qiladi (7-chizma). Nuqtali chiziqlarni koordinata o‘qlariga mos xolatda berilgan shakldan o‘yib olinadi. Uning uchun Auto CAD grafik dasturida nuqtali chiziqlarni yopiq chiziq bilan yani uzulmagan chiziq bilan chegaralab olinadi va shu chegaralab olingan chiziqlari  buyrug‘ yordamida keraklicha hajm beriladi (8-chizma) kerakli hajm berilgandan so‘ng detaldan aynan shu qismlar o‘yib olinadi. Buning uchun grafik dasturdagi o‘yib olish  buyrug‘dan foydalanamiz. Bu buyruq orqali grafik dasturda chizilgan modellarni keraksiz qismlarini o‘yib olish uchun qo‘llaniladi. Qo‘llanish tartibi dastlab asosiy model tanlab olinadi hamda ***Enter*** tugmasi bosilib, so‘ngra o‘yib olinuvchi qism tanlanadi va yana ***Enter*** tugmasi bosiladi. Natijada dastlab berilgan modelning ortiqcha qismlari olib tashlanadi va biz loyihalamoqchi bo‘lgan detalning konstruktiv holati xosil qilinadi.



7-chizma.



8-chizma.

Quyida yuqorida tasvirlangan detal kabi variantlar keltirilgan bo‘lib ushbu variantlardan talabalarni bilimini sinashda foydalanish mumkin.

O‘qituvchi yuqorida keltirilgan usuldan foydalanib Auto CAD grafik dasturi yordamida talabalarni bilim bersa odatdagi ananaviy usulda o‘tilgan darslardan bir necha barobar yuqori samaraga erishadi. Ananaviy usulda doskada chizmani talabalarga chizib uni tasvirlab ko‘rsatish talabalarda ko‘p vaqt va yuqori malakani talab qiladi. Chizmalarni grafik dasturlar yordamida chizish ham vaqtni tejaydi hamda chizmalari aniq va sifatli chizishni taminlaydi va talabalarni tasovvirini oshirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2020 yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” deb nomlangan №PQ-4699 qarori.

2. Murodov, Sh.K. va boshkalar, (2020). Chizma geometriya. Oliy pedagogika o‘kuv yurtlari uchun darslik, Toshkent, ”Iqtisod-moliya”.

3. Hayitov, J. M. O. G. L. (2022). Muhandislik grafikasi fanlarini axborot-kommunikasiya texnologiyalari yordamida o’qitish orqali talabalarni ijodkorlik qobilyatini oshirish. *Science and Education*, *3*(11), 760-767.

IJODIY TOPSHIRIQLARGA ASOSIDA BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOSI

Ziyayev Sherali Abdulaziz o‘g‘li,
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti
+998903054241, ziyayev1717@gmail.com

Annotatsiya. *Ijodiy topshiriqlarga asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi va ta’lim tarbiya sohasi bo‘yicha sharq mutafakkirlari qarashlarining tahlili xususiyatlari bayon etilgan.*

Tayanch so‘z va tushunchalar: *Internet texnologiyalari, tayyorgarlik, kasbiy faoliyat tayyorgarlik, psixologik, pedagogik, metodik, tashkiliy jihatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

Hozirgi rivojlanib boraytogan o‘zgarishlar aynan axborotlardan ta’lim jarayonida yetarlicha foydalanishni ta’minlashda internet texnologiyalarini kengroq qo‘llashni talab etmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga internet texnologiyalarining jadal kirib kelayot-ganligi, ulardan oqilona foydalanish orqali ta’lim jarayonini samarali qilish masalasini oldimizga vazifa etib qo‘ymoqda. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassasalari internet texnologiyalari bilan yetarlicha ta’minlangan bo‘lsa-da, ulardan ta’lim jarayonida foydalanish uchun pedagog xodimlar tegishli ko‘nikma va malakalarni egallashlari zarur. Pedagogik xodimlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri dunyoda bo‘layotgan yangiliklarga tezkorlik bilan moslashish, zamonaviy internet texnologiyalari bilan faol ishlay olish hisoblanadi.

Bu borada Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya sohasi borasidagi qarashlari tahlil etilganda, Al-Xorazmiy ham bilim berishning ko‘rgazmali tajriba usullari, savol javob, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash usullaridan foydalangani ayon bo‘ladi. Forobiy bilimni yod olish usuliga nisbatan uning ma’nosini tushuntirish afzalligi, ta’limning muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining o‘zi tarbiyali bo‘lmog‘i lozimligini, Abu Rayhon Beruniy esa ta’lim tarbiya sohasida o‘sha zamonlarda (X – XI asrlar), hatto hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan fikrlarni ilgari surgan holda ta’lim oluvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsalarni o‘rgatavermaslik, uzviylik, izchillik, mavzularni qiziqarli asoslab, ko‘rgazmali bayon etish zarurligini ta’kidlagan.

Ta’limda internet texnologiyalaridan foydalanish XX asrning birinchi yarmida faol joriy etila boshlandi. O‘qitishning texnik vositalari ta’lim jarayonida ilk bor AQSHda 1930 yillarda dasturlashtirilgan audiovizual o‘qitish vositasida qo‘llanilgan. 1940 yillardan AQSH maktablarida bu vositadan keng foydalanish boshlangan. 1950 yillarning o‘rtalarida dasturlashtirilgan ta’lim g‘oyasi va texnologik yondashuv elementlari paydo bo‘ldi. Bular maxsus o‘quv jarayoni tarkibi uchun mo‘ljallangan audiovizual vositalar, qayta aloqa vositalari – elektron sinflar, o‘rgatuvchi mashinalar, lingafon kabinetlari, trenajyorlar va boshqalardir. 1970-yillarda internet texnologiyalaridan foydalanish nazariy qayta ishlanib, kuchaytirildi. Shu tariqa yangi o‘rgatuvchi texnologiyalar yuzaga keldi[1].

Internet texnologiyalari bugungi kunda rivojlanishning eng muhim strategik omili bo‘lgan jamiyatning axborot resurslarini faollashtirish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot resurslarini faollashtirish, tarqatish va ulardan samarali foydalanish boshqa turdagi resurslar – xomashyo, energiya, foydali qazilmalar, materiallar va jihozlar, mehnat resurslari, ijtimoiy vaqtni sezilarli darajada tejash imkonini beradi.

Bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini kelajakdagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash masalasini hal qilishda, birinchi navbatda, ilmiy va o‘quv adabiyotlarida turlicha talqin qilinadigan “kasbiy faoliyatga tayyorgarlik” atamasining mazmunini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

A.A.Verbitskiy va T.A.Platonovning fikricha, o‘quv jarayonida olingan bilim, ko‘nikma malakalar ta’lim faoliyati sub’ekti sifatida emas, balki kasbiy faoliyat vositasi sifatida ishlaydi. Bu shuni anglatadiki, universitetda o‘qish davomida talabalar mehnat va faoliyatning asosini, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik tashkil qiladi [2].

Adabiyotlarda “tayyorgarlik” tushunchasining mazmuni turli jihatlarni inobatga olgan holda turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. K.K.Platonov [3] bu kontseptsiyani yuqori qobiliyatni ta’minlaydigan maxsus ruhiy holat yoki "ruhiy jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar o‘rtasida oraliq pozitsiyani egallaydigan, funktsional darajani tashkil etuvchi, kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan jarayonlarni tashkil etadigan holat" deb hisoblaydi.

M.I.Dyachenko va L.A.Kandybovichning fikriga ko‘ra [4], tayyorgarlik - bu shaxsning muayyan xatti-harakatlarga munosabati, harakatlar, shaxsning motivlari va aqliy xususiyatlari bilan belgilanadigan hozirgi vaqtda shaxsni muvaffaqiyatli harakatlarga moslashtirishga munosabati hisoblanadi.

V.A.Krutetskiy “tayyorgarlik”ni faoliyatga munosib, unga nisbatan faol ijobiy munosabatda ifodalangan, yuqori rivojlanish darajasida professionalga aylanib ketadigan harakatga moyillik sifatida belgilaydi. “Tayyorgarlik” tushunchasi, tegishli sohaga oid ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarning mavjudligini aks ettiradi [5].

Psixologik lug‘atda “kasbiy faoliyatga tayyorgarlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rifni beriladi: odamning boshlang‘ich faollashuvi, ruhiy holati, shu jumladan insonning o‘z maqsadlaridan xabardorligi, mavjud sharoitlarni baholash, harakatning eng maqbul usullarini aniqlash, motivatsion, ixtiyoriy, intellektual harakatlarni, natijalarga erishish ehtimolini, kuchlarni safarbar qilish asosida maqsadga erishishda o‘z-o‘zini anglash jarayoni sifatida aks etadi.

A.A.Gin ijodiy topshiriqni aniqlashning murakkabligini hisobga olib, “ochiq topshiriq” atamasini taklif qiladi. Ochiq topshiriq – bu talabaning o‘zini izohlashi, tushunishi va to‘ldirishi kerak bo‘lgan noaniq shartga, ko‘plab yechimlarga ega bo‘lishi mumkin [6].

R.I.Malafeeva va A.I.Bugaevning fikricha ijodiy topshiriqlar vazifasini – fizik qonunlar asosida bajarilishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir talab asosida ishlab chiqilgan, muayyan qonunlari ushbu muammoni hal qilish uchun ishlatilishi kerak bo‘lgan jismoniy hodisalarning bevosita yoki bilvosita ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lgan muammoli vaziyatni anglatadi.

[1] Карманеева К.М. Мировые информационные ресурсы. Санкт-Петербургский государственный инженерно-экономический университет (СПбГИЭУ), 2006. – 48 с.

B.G.Razumovskiy ijodiy vazifani yechish algoritmi o‘quvchilarga noma’lum bo‘lgan vazifa deb tushunadi. Bunday muammolarning shartlari niqoblangan bo‘lishi mumkin: yetishmayotgan ma’lumotlar bilan, ortiqcha ma’lumotlar bilan yoki o‘qituvchi muammoni hal qilishni kutayotgan bilim sohasidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olmaydi.

“Ijodiy vazifa” ta’rifining an’anaviyligi uning sub’ektivligidadir. Muammoning sharti uni hal qilish uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin, ammo uni hal qilish algoritmi hali o‘quvchilarga ma’lum bo‘lmasa, muammo baribir “ijodiy” bo‘lib qoladi. Va aksincha, eng qiyin olimpiada muammosi o‘qituvchilar va o‘quvchilarning umumiy qiziqishini jalb qilishi yoki maktab uchun majburiy bo‘lishi bilanoq ijodiy bo‘lishni to‘xtatadi, masalan, u darslikda tugaydi. Muammoning ijodiymi yoki yo‘qmi degan savolga hal qiluvchining xususiyatlaridan mavhumlik bilan javob berish mumkin emasligi muhimdir. Talaba uchun ijodiy vazifa ko‘pincha o‘qituvchi uchun bunday emas.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz ijodiy vazifani aniq aniq yechimga ega bo‘lmagan, kognitiv faoliyatni rag‘batlantirish, yangi bilimlar va individual moyillik, qobiliyatlarni ifodalovchi nostandart yechimlarni izlashni o‘z ichiga olgan ta’lim vazifasi deb hisoblaymiz va talabaning shaxsiy tajribasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2020 y., 07/20/4699/0520-son; 24.07.2020 y.
2. Вербицкий А.А., Платонова Т.А. Формирование познавательной и профессиональной мотивации. М.: Просвещение, 1986. 190 с.
3. Платонов К.К. Вопросы психологии труда. М., 1970. 264 с.
4. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А. Психологический словарь-справочник. Минск-Москва, 2001. 448 с.
5. Крутецкий В.А. Основы педагогической психологии. М., 1972. 255 с.
6. Гин А.А. Приемы педагогической техники: Свобода выбора. Открытость. Деятельность. Обратная связь. Идеальность: пособие для учителя. 4-е изд. М.: Вита-Пресс, 1999. 88 с.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH VA MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASH

Mirazimov A.T.,
Jizzax shahar 6-maktab o’qituvchisi

Annotasiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bolalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishni tarbiyalash vazifalari, ilmiy-metodik adabiyotlarida bolalar jismoniy sifatlarini rivojlanishi, harakatlanishi tayyorgarligini va ularni maktabda tahsil olishga tayyorlash tizimi holatining tahlili keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *jismoniy sifatlar, maktabgacha ta’lim, mashg’ulot, kuchlilik, yugurish, chaqqonlik, rivojlantirish, jismoniy tayyorgarlik.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimi doirasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida ye’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz rahnamoligida bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan alohida ye’tibor o’g’il-qizlarimizning irodasini toblab, o’z kuchi va imkoniyatlariga ishonch tuyg’usini mustahkamlanmoqda, jismonan sog’lom ulg’ayishida yuksak samaralar bermoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 19 mart kuni vedioselektor yig’ilishida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo’sh

vaqtini mazmunli tashkil yetish bo'yicha "BESH TASHABBUS" g'oyasini ilgari surildi. "Besh tashabbus"ning aynan ikkinchi bandi: "Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish" ga qaratilganligi, ayni damda maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarni yanada ko'chaytirib, bolalarni jismonan sog'lom va ma'nan tetik bo'lib, Vatanparvarlik ruhida o'sishlariga katta xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 13 fevraldagi 118-sonli "2019 – 2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi", 2018-yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli Farmoni "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq yetish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi hamda 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlarining qabul qilinishi bolalar sportiga bo`lgan ye`tiborni yanada kuchaytirmoqda.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta yegallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz. Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovasiyalarni taraqqiy yettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim[1].

Bolalarda jismoniy tarbiyaga mehr uyg'otish, ularni sportga jalb yetish har birimizning kundalik vazifamiz bo'lmog'i kerak. Jismoniy madaniyat va sport hamisha jamiyat hayotining ajralmas bir qismi bo'lib kelgan. Bizgacha mavjud bo'lgan ijtimoiy jamoalar ham o'z rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportga katta ahamiyat berganlar.

Bolalar jismoniy tarbiyasini ta'minlash dasturining tahlili natijasida ularning jismoniy sifatlarini rivojlanishi va harakatlanish tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanish jarayonini tavsiflovchi ma'lumotlar olindi.

Mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarda bolalar jismoniy sifatlarini rivojlanishi va harakatlanish tayyorgarligini hamda ularni maktabda tahsil olishga tayyorlash tizimi holatining tahlili keltirilgan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kuchlilik, chaqqonlik, yepchillik, chidamlilik, yegiluvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish uchun mashg'ulotlarga sport turlaridan mashqlar kiritish va ularga ajratilgan vaqtni ko'paytirish yo'li bilan jismoniy tarbiya dasturini takomillashtirishga harakat qilingan yedi. Keyingi yillarda bolalarni maktabda tahsil olishga tayyorlash dolzarb muammoga aylandi. Muammoni hal yetish yesa maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llarini izlashni taqozo yetadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya Davlat dasturida bolalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan harakatlar ro'yxati keltirilgan. Lekin ularning hayotiy muhim sifatlariga ye'tibor qaratilmagan. Maktabgacha ta'lim jarayonidagi jismoniy tarbiya tizimida shakllangan an'anaviy ta'lim metodikasi uch bosqichdan iborat:

a) o'rganilayotgan harakat haqida tushunchani shakllantirish;

b) ko'p marta takrorlash asosida uni o'rganish;

v) harakatni mustahkamlash va takomillashtirish;

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi-29.12.2020

5 – 7 yoshdagi bolalarni jismoniy tayyorgarligi vositalarining mutanosibligini o’rganish muhim ahamiyat kasb yetadi. Ilmiy-metodik manbalarda ta’kidlanishicha, bolalarni jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirishda zaruriy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga ta’sir o’tkazuvchi vositalarga ko’p vaqt ajratiladi.

Tadqiqotlarda belgilangan materiallardan tashqari zaruriy jismoniy sifatlarni shakllantirishga yo’naltirilgan jismoniy mashqlar tavsiya yetilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya dasturiga sport turlari bo’yicha mashg’ulotlar kiritilmagan. Shu tufayli dasturga davr talabi asosida tegishli o’zgartirishlar kiritish zarurdir.

O’tkazilgan so’rovnoma natijalari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi jismoniy tarbiya jarayonini o’zgartirish zarurligi aniqlandi. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish va o’rgatishga ajratilgan vaqtning mutanosibligi ham aniqlandi. So’rovnomada qatnashgan respondentlarning 27 % mutanosiblikni 50 % saqlagan holatda mashg’ulotlarni o’yin va musobaqa yo’nalishida tashkil yetishni taklif yetdilar.

Tadqiqotlar jarayonida joriy yetilgan dastur bolalar motorikasini rivojlantirishga yo’naltirilgan bo’lib, tajriba guruhlaridagi bolalarni harakatlanishi imkoniyatlarini yaxshilashni ta’minlaydi.

To’p otish mashqidan so’ng o’g’il bolalar va qizlarning jismoniy tayyorgarligining ko’rsatkichi mutanosib ravishda 42 va 48 %, 30 metrga yugurishda yesa 28 va 38 % ga oshdi. Katta guruhlarda quyidagi o’zgarishlar qayd yetildi: to’p otishda o’g’il bolalarda 72 %, qizlarda 63 %, 3x10 metrga yugurishda qizlarda 21 % va o’rnidan uzunlikka sakrashda 18 % o’sish kuzatildi.

Tadqiqotlar jarayonida qayd yetilgan natijalar ilmiy-metodik manbalarda keltirilgan raqamlar bilan taqqoslanganda o’yinli mashqlarning ustunligi yaqqol kuzatildi. Tezlik va kuchli sifatlar 62 % ga o’sganligi aniqlandi. O’rnidan uzunlikka sakrash va 30 metrga yugurish bo’yicha yesa 40 % ga o’sish ro’y berganligini ko’rdik.

O’yin va musobaqaga yo’naltirilgan dastur bo’yicha shug’ullangan tayyorlov guruhi bolalarini jismoniy tayyorgarliklari ko’rsatkichlarining tahlili asosida tajriba guruhlaridagi natijalar nazorat guruhlaridagiga nisbatan bir necha marotaba yuqori bo’lganligini ta’kidlash lozim.

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, maktabgacha ta’lim bo’g’inidagi jismoniy tarbiya tizimining mazmunini hamda darslar yo’nalishini optimal holatga keltirish maqsadida qayta ko’rib chiqish bolalar jismoniy tayyorgarligini oshishini va kasallanish holatlarini pasayishini ta’minlaydi.

Dasturni qo’llash natijasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyani tashkil etish yaxshilanadi, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi jismoniy tarbiyalash vositalari, shakllari va usullarining uzviyligiga yerishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. 2018-yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma’naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 13 fevraldagi 118-sonli “2019 – 2023 yillarda O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi”.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – 29.12.2020

4. 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli “Sog’lom turmush tarzini keng tatbiq yetish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risi”dagi Farmoni.

5. 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli “O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” Farmoni.

6. Umumta’lim maktablarida sportning badiiy gimnastika turidan to’garak mashg’ulotlarini tashkil yetish bo’yicha o’quv dastur, taqvim-mavzu reja va metodik tavsiyalar. Toshkent – 2010 yil.

7. T.S.Usmonxo’jayev, S.G.Arzumanov JISMONIY TARBIYA – Darslik. «O’qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007.


ION ALMASHINISH REAKSIYALARI MAVZUSINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O’QITISH METODIKASI

Xojiyeva Sarvinoz Sadriddinovna,
o’qituvchi, JDPU
Sedalova Iroda Saytmurod qizi,
stajyor o’qituvchi, JDPU

Annotasiya. *Ion almashinish reaksiyalarning turlari va turli xildagi muhitda borish jarayonlari haqidagi bilimlarga ega bo’lish, ularning reaksiyalarini yozishni o’rganish, cho’kmalar hosil qilish*

Kalit so’zlar: *suhbat, tushuntirish, aqliy hujum, eksperimental masalalar, elektrolitlar, noelektrolitlar.*

Elektrolitlarning eritmalarida sodir bo’ladigan reaksiyalarni almashinish reaksiyalari deymiz. Moddalar kislota, asos, oksidlovchi, qaytaruvchi xususiyatiga ko’ra reaksiyaga kirishadi. Bundan tashqari elektrolit eritmalari cho’kma, gaz, kuchsiz elektrolit kompleks birikma qilgani tufayli ham ion almashinish reaksiyasiga kirishishi mumkin.



Ionlar orasida sodir bo’ladigan reaksiyalar – ion almashinish reaksiyalari deyiladi. Ion almashinish reaksiyalari malekulyar, to’la ionli va qisqa ionli ko’rinishda yoziladi.

$$AlCl_3 + 3KOH \rightarrow Al(OH)_3 \downarrow + 3KCl$$ malekulyar shakli

$$Al^{+3} + \cancel{3Cl^-} + \cancel{3K^+} + 3OH^- \rightarrow Al(OH)_3 \downarrow + \cancel{3K^+} + \cancel{3Cl^-}$$ to'la ionli shakli

$$Al^{+3} + 3OH^- \rightarrow Al(OH)_3 \downarrow$$ qisqa ionli shakli

$$(NH_4)_2SO_4 + 2NaOH \rightarrow Na_2SO_4 + NH_3 \uparrow + H_2O$$ malekulyar shakli

$$2NH_4^+ + SO_4^{-2} + 2Na^+ + 2OH^- \rightarrow 2Na^+ + SO_4^{-2} + NH_3 \uparrow + H_2O$$ to'la ionli shakli

$$NH_4^+ + 2OH^- \rightarrow NH_3 \uparrow + H_2O$$ qisqa ionli shaki

Ion almashinish reaksiyalari har bir kation va anionlarga sifat reaksiyasi bo'lishi mumkin. Bunda shu ionlarga xos bo'lgan cho'kma va gazlar hosil bo'ladi, eritmaning muhiti o'zgaradi.

O'zaro sifat reaksiyasini beruvchi kation va anionlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ion	Reagent	Sifat reaksiya
H^+	indikator	Rang o'zgaradi
Li^+	alanga	Qizg'ish
Na^+	alanga	Sariq
Ca^{2+}	Alanga	Qizil g'isht
	CO_3^{2-}	Oq cho'kma
Sr^{2+}	alanga	Malina
K^+	alanga	Binafsha
Rb^+	alanga	Qizil
Cs^+	alanga	Ko'k
Ba^{2+}	Alanga	Yashil olma
	$SO_4$2-	Oq paxtasimon cho'kma

Ion almashinish reaksiyalarining oxirigacha borish bormasligini aniqlash uchun quyidagilardan foydalanish kerak.


1) Moddaning elektrolit yoki noelektrolit ekanligidan
2) Tuz, asos va kislotalarning suvda eruvchanligi jadvalidan
3) Ionlarning o'ziga xos xossalaridan

Ion almashinish reaksiyalari amaliy maqsadlar uchun keng qo'llaniladi, masalan, bularga, og'ir metall kationlari kiradi. Og'ir metallar (simob, qo'rg'oshin, kadmiy, rux, mis, mishyak) keng tarqalgan va juda zaharli ifloslantiruvchi moddalardir. Ular turli xil sanoat zavodlarida keng qo'llaniladi, shuning uchun tozalash choralariga qaramay, sanoat chiqindi suvlaridagi og'ir metallarning miqdori ancha yuqori. Ushbu birikmalarning katta massalari atmosfera orqali okeanga kiradi.

Qiziqarli ma'lumot

Ion almashinish reaksiyalari jonli va jonsiz tabiatda keng tarqalgan bo'lib, masalan, cho'kindi jinslarning (gips, ohaktosh, boshqa tuzlar) shakllanishida, hayvonlar va odamlarning buyraklaridagi toshlarning paydo bo'lishida ishtirok etadi. Tabiatda karst g'ori bor, uning devorlari sutrang-oq shaffof kaltsit bilan qoplangan. Devorlarga yotqizilgan toshlar xuddi ajoyib tosh gullari shakliga o'xshash bo'lib, ushbu g'or hozirgi kunda ham ilmiy va estetik ahamiyatini yo'qotmagan.

Mustaqil topshiriq



Savollarga javob bering

1. Rasmda berilgan ionlarga qarab neyrallanish reaksiyalarining mexanizmini tushuntirib bering.
2. Neytral eritmaga kislota yoki ishqor qo'shilsa nima sodir bo'ladi?

Topshiriq:

Ko'rsatmalarga va xavfsizlik qoidalariga rioya qilib tajribani bajaring

Mis (II) sulfat eritmasini probirkaga soling va unga natriy gidroksid (ishqor) eritmasini qo'shing. Kimyoviy reaktsiya tenglamasini molekulyar, to'liq va qisqartirilgan ion shaklida yozing.

Mavzuga oid masalalar yechishdan namunalar:

1. Na_2CO_3 eritmasiga ekvivalent miqdorda HCl qo'shilsa, eritmada qanday ionlar qoladi va to'la ionli tenglamada nechta ion qatnashadi?

Yechish: Na_2CO_3 bilan HCl ning reaksiya tenglamasini tuzamiz va qaysi ionlar reaksiyada ishtirok etayotganini ko'rib chiqamiz.

$$Na_2CO_3 + 2HCl \rightarrow 2NaCl + CO_2 \uparrow + H_2O \quad \text{bu malekulyar tenglamasi}$$

$$2Na^+ + CO_3^{-2} + 2H^+ + 2Cl^- \rightarrow 2Na^+ + 2Cl^- + CO_2 \uparrow + H_2O \quad \text{to'la ionli tenglamasi}$$

$$CO_3^{-2} + 2H^+ \rightarrow CO_2 \uparrow + H_2O \quad \text{qisqa ionli tenglamasi}$$

Bu reaksiyada ko'rinib turibdiki, to'la ionli tenglamasida 11 ta ion qatnashadi. Eritmada Na^+ va Cl^- ionlari qoladi.

2. Temir (III) xlorid va kumush nitrat eritmalari qo'shilganda sodir bo'ladigan reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamalarini yozing, to'liq ionli tenglamada hammasi bo'lib nechta ion ishtirok etishini aniqlang.

Yechish. $FeCl_3 + 3AgNO_3 \rightarrow Fe(NO_3)_3 + 3AgCl\downarrow$

$Fe^{3+} + 3Cl^- + 3Ag^+ + 3NO_3^- \rightarrow Fe^{3+} + 3NO_3^- + 3AgCl\downarrow$

$Ag^+ + Cl^- \rightarrow AgCl\downarrow$

To'liq ionli tenglamada hammasi bo'lib 14 ta ion ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xojiyeva S.S. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining 4+2 amaliyotida metodik tayyorgarligini rivojlantirish. O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/12/1] ISSN 2181-7324. https://science.nuu.uz/ C. 155.

2. Xojiyeva S.S. Xalqaro baholash dasturi PISA topshiriqlari asosida o‘quvchilarning tabiiy savodxonligini oshirish. “Kasb-hunar ta’limi”. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal №4, 2022. C. 109.

3. A.A.Ismoilov, G.Tog’ayeva, S.Akbarova, D.Asqarova Xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarning tabbiy fanlar bo’yicha savodxonligini baholash.Metodik qo’llanma. Toshkent. 2019. S. 47.

4. Sharipov Sh.R., Xojiyeva S.S. (2021). Maktabda kimyoviy eksperimentlar o‘tkazishning ilmiy-pedagogik asoslari. Журнал естественных наук, 1(5). 2021. C. 42 – 51.(10)

5. S.Xojiyeva, E.Qarshiyev, M.Rasulova Kimyoviy tushunchalarni shakllantirishning pedagogik asoslari. **“Journal of Natural Science” №5/3 2021 y.** http://natscience.jspi.uz C. 136 – 139.

6. S.S.Xojiyeva O‘quvchilarni kimyo faniga oid kompetensiyalarini shakllantirishda PISA tadqiqotlaridan foydalanish. Tafakkur ziyosi 2/2023. Ilmiy uslubiy jurnal. C. 63 – 166.

7. Xojiyeva S.S. Kimyodan kompyuter animatsiyalariga asoslangan didaktik materiallar yaratish metodikasi. Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 2023. 6-son. ISSN:2181-0427. C. 594 – 600.

BO’LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Nishanova Muslima Qambarali qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali Maktabgacha
ta’lim mutaxassisligi 2-bosqich magstranti

Annotatsiya*. Maqolada bo’lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentsiyalarni shakillantirish usullari va kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ko’rsatib o’tilgan. Kompetentli yondoshuvga asoslangan ta’lim tizimida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining roli ham o’zgaraishi ijodiy yodashuv asosida talqin etilgan.*

Kalit so’zlar: *kompetentli yondoshuv, shakillantirish, kreativ fikrlashi, qobiliyat, oliy ta’lim, ijodiy yondash, idrok, tarbiyaviy tadbirlar.*

Аннотация. *В статье показаны методы формирования профессиональных компетенций у будущих педагогов и педагогические основы развития компетентностей. В системе образования, основанной на компетентностном подходе, роль учителя и обучающегося также меняется на основе творческого подхода.*

Ключевые слова: *компетеный подход формирование способностей творческого мышления высшее образование творческий подход восприятие учебная деятельность.*

Annotation. *The article shows the methods of formation of professional competences in future educators and the pedagogical foundations of competence development. In the educational system based on the competent approach, the role of the teacher and the learner is also changed based on the creative approach.*

Keywords: *competent approach, formation of creative thinking ability,higher education, creative approach, perception educational activities.*

Ta’limni jamiyat madaniyatini o’zlashtirish asosida ta’lim oluvchilarda faoliyatning turli sohalarida shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirishning maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida qarash mumkin. Ta’lim maqsadini bunday tushunish esa, o’z navbatida kompetentli yondoshuvni ro’yobga chiqarish uchun asos yaratadi. Ta’limda kompetentli yondoshuv – bu Yangi O’zbekiston pedagogikasi uchun nisbatan yangi hodisa.

Kompetentli yondoshuvga asoslangan ta’lim tizimida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining roli ham o’zgaradi. Chunki, «bilimli» yondoshuvda ta’lim beruvchi faol va asosiy ishtirokchi bo’lsa, ta’lim oluvchi esa, sust qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. Kompetentli yondoshuvda ta’lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta’lim olish faoliyati ko’proq mustaqil individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg’ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo’ladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohotlarning muvaffaqiyatiga, eng avvalo, odamlarning o'z ishlariga mas'uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog'liq. Jamiyatda pedagog (o'qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan har tomonlama bilim berishdek savobli va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga ta'lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi uchun ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Har bir kasb oziga nisbatan maxsus yondashuvni talab etadi, shundan kelib chiqqan holda pedagagik yo’nalishdagi talabalarni kasbiy kompetentligini nazariy jihatdan shakillantirib borish maqsadga muofiqdir.

Bo’lg’usi tarbiyachi mutaxasislik fanlaridan chuqur bilishi boshqa fanlar yuzasidan ham muayyan bilimga ega bo’lishi zarur.

Bo’lg’usi tarbiyachilarni pedagagik yonalishdagi talabalarni mahoratli tarbiyachi bolishlari uchun nazariy bilim bilan birgalikda amaliy konikma tajriba, kasbiga mehr qobilyatlarini amaliyotda shakillantirib borish kerak.

Hozirgi zamon tarbiychilar zamon bilan raqobatlasha olaigan pedagog bolishlari zarur chunki yurtimiz kelajagi shu jaji bolajonlar qolida Bolajak tarbiyachilarimiz texnikani bilishi kreativ fikrlashi barkamol avlodni tarbiyalashda kasbga bolgan qiziqishini oshirishi STEAM texnologiyasi orqali bolajonlarga nazariy olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq etishni o’rgatishi zarur.

Bo’lg’usi tarbiyachi mutaxasislik fanlaridan chuqur bilishi boshqa fanlar yuzasidan muayyan bilimga ega bolishi zarur. Bulg’usi tarbiyachilarni pedagagik yonalishdagi talabalarni mahoratli tarbiyachi bo’lishlari uchun nazariy bilim bilan birgalikda amaliy konikma tajriba, kasbiga mehr qobilyatlarini amaliyotda shakillantirib borish kerak.

Bo’lajak tarbiyachilardaquyidagi kasbiy kompetentsiyalarni shakillantirish maqsadga mufofiq deb hisoblaymiz:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda bolalarning ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi ega bolishi;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash vataqsimlay bilish;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik va mehr korsata bilish;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish va uni qollay bilish;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olishni togri yolga qoyish;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkazaolish;
- o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini tarbiyali bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini o'rganish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy kelib chikishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish va hokozolar.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta’sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi yashash sharoitini bilish. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi-tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi.

Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachipedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatning amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egalanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Ijttimoiy kompatenlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalarga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqatga kirisha olish.

Maxsus kompatentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyatni natijalarini real boholash, Bilim ko'nikma malakani izchil rivojlantirib borish bo'lib ushbu kompatentlik negizida psixologik, metodik, infarmatsion, kiryativ, innavatsiyon va kominikativ kompatentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quidagi mazmunni ifodalaydi.

Psixologik kompatentlik – pedagagik jarayonda sog'lom psixolagik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqatni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

Metodik kompatentlik – psixologik jarayonni metodik jixatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiya faoliyati shakilarini to'g'ri belgilash, metod vavositalarni maqsadga muofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarnimuvaffiqiyatli qollash.

Informatsion kompatentlik – axborat muhitda zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish.

Kriativ kompatentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini nomoyish eta olish.

Innavatsion kompatentlik – pedagogik jarayonni takomilashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga tadbiq etish.

Komunikativ kompatentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, bolalar bilan samimiy muloqotda bo'lish ularni tinglay bilish, ularga ijobiy tasir ko'rsata olish.

Shaxsiy kompatentlik – izchil ravishta kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompatentlik – kasbiy-pedagogik Bilim, Ko'nikma Malakani boyitadigan ilg'or texnalogiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ekstremal kompatentlik – fuqorolarda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologikjarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Kaspiy-pedagagik kompatentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash –pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy bilim ko'nikma malaka va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. Bu kommunikativ oqituvchi uchun eng muhim hisoblanadi shuning uchun bunga amal qilishi shart deb hisoblaymiz.

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy bilim, ko'nikma, malakani takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatni rivojlantirish.

So'nggi yillarda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning o'sishi tufayli jamiyatning umidlari ham o'zgardi. Talabalar endi o'qituvchilaridan ko'proqochiqva ochiqfikrli bo'lishlarini kutishadi. Ularo'quvchilarni mazmunli suhbatga jalb qila olishi, o'z qadr-qimmatini tarbiyalashi, tanqidiy fikrlashga undashikerak. Bu yuqoridarajadagi hissiy intellekt va talabalar bilan haqiqiy munosabatdabo'lish qobiliyatini talab qiladi.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsini shakllantirishda jahon iqtisodiyoti ham muhim rol o'ynamoqda. Endi o'qituvchilar sinfdaham, ishda ham moslashuvchanva moslashuvchan bo'lishi

kutilmoqda. Ular, shuningdek, doimiy o'zgaruvchan mehnat bozori va zamonaviy ish joyining talablariga javob bera olishlari kerak. Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar yuqori. O'qitishdan tashqari, ular o'z talabalariga texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy yordam ko'rsatishga qodir bo'lishi kerak.

Talabalar o'qishlarida oldinga borishuchunzarur bo'lgan bilimlarga kirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishlari kerak. O'qituvchilar nafaqat bu vositalarni o'z talabalariga tanishtirish, balki ulardan samarali foydalanish jarayonlari bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Bunga Powerpoint va Excel kabi dasturiy vositalardan qanday foydalanishni tushunish, shuningdek, kodlash va kompyuter dasturlash haqida asosiy tushuncha kiradi. Zamonaviy o'qituvchi o'z talabalarini ijtimoiy qo'llabquvvatlashga qodirbo'lishi kerak. Bu o'quvchilarning ehtiyojlarini, his tuyg'ularini va kelib chiqishini tushunish va qayg'uli paytlarda aralashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Hozirda ko'plab o'qituvchilar o'z o'quvchilariga muvaffaqiyatga erishish uchun eng yaxshi imkoniyat berilishini ta'minlash uchun Pozitiv Behavioral Interventions and Supports (PBIS) dan foydalanadilar.

Zamonaviy o'qituvchining shaxsiyati texnologiya taraqqiyoti, jamiyatning umidlari va iqtisodiy manzara tufayli o'zgarib bormoqda. Ushbu o'zgarishlar o'z talabalariga eng yaxshi xizmat ko'rsatish uchun o'qituvchilar texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak bo'lgan yangi va ortib borayotgan talablarni keltirib chiqardi. Biroq, bu talablarni qondirish orqali zamonaviy o'qituvchilar doimiy o'zgaruvchan dunyoda dolzarb bo'lib qolishi mumkin. Zamonaviy pedagog shunchaki o'qituvchidan ko'proq bo'lishi kutilmoqda. Undan har xil kasbiy va shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga olgan har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lishi talab qilinadi. Zamonaviy o'qituvchi o'zi o'qitadigan fan bo'yicha kuchli bilimga egabo'lishi kerak. Bu materialni chuqur tushunish, uni aniq tushuntira olish va talabalar bilimini baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagog o‘z o‘quvchilari uchun qiziqarli ta’lim muhitini yarata olishi kerak.

Bunda bolajak tarbiyachi yangilanayotgan zamon talablariga javob bera olishi lozim...

Pedagogik mahorat va texnika elementlaridan foydalanish.

Bu borada bo’lajak tarbiyachi pedagagik texnologiyalardan samarali foydalanish yandi metodlarni kashf etishi va maktabga tayyorlashi lozim

Bo’lajak tarbiyachining o’rganishi kerak bo’lgan asosiy kasbiy vazifasi – bolalarning har tomonlama rivojlanishi qonuniyatlarini shrganishdan iboratdir. Buning uchun maktabgacha ta’lim pedagogi quyidagi kasbiy kompetentsiyani egallashi lozim:

- kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bilimiga ega bo’lishi;
- madaniy faoliyat vositalarini egallashi uchun sharoitlarni yarata bilishi;
- Har bir bolalarining tarbiyali, nafosatli, aqlli, baquvvat va mard bo`lishini
- bolalarning tafakkuri, nutki, muloqoti, tasavvuri va ijodkorligiga ta’sir etadigan shaxsiy, jismoniy va badiiy-estetik rivojining faoliyat turlarini o’rganishi;
- bolaning individual rivojlashini baholay bilishi.

Tarbiyachi kasbiy kompetentligi deganda, uning bilim, ko’nikma, qobiliyat, qarashlari tarbiyachining malakasi yoki ta’lim berish qobiliyatlarining namoyon bo’lishi belgilab beradigan shaxsiy sifatlari va qadriyatlarga ega bo’lish.

Xozirgi zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanish asrida tarbiyachidan katta mahorat talab etilmokda. Bu esa o’z navbatida tarbiyachining o’z ustida muntazam ishlashiga, mavjud zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmasiga egallashlarini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. “Umumiy pedagogika” darslik. Toshkent, 2018., 528 b. 81-bet.

2. F.R.Qodirova va boshqalar “Maktabgacha pedagogika” [Matn]

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni” 2020 y. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 24 sentyabr "Xalq so‘zi".

4. Ожегов. С. Словарь русского языка. – Москва: Русский язык, 1999.

5. Migranova Ye.A., Pozilova Sh.X. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. – Toshkent: Tafakkur bo’stoni, 2018.
6. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. Maktabgacha pedagogika Tafakkur" –Toshkent – 2019.
7. Qambarov M.M. Bo’lajak o’qituvchilarda pedagogik kompetentlik komponentlarini shakllantirish // NamDU Ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021-y. №11. – B. 681 – 686.
8. QambarovM.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari // NamDU Ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021-y. №12. – B. 693 – 697.
9. Qambarov M.M. Talabalar mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish. Monografiya – Namangan: Arjumandmediya. 2021-y.
10. Qambarov M.M. Pedagogika tarixi. Toshkent: Bayoz. 2022-y.

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KIBERIJTIMOYLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Istamova Dilnoza Norboyevna,
Termiz davlat Universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: istamovadilnoza60@gmail.com
Tel:+998902954595

Annotatsiya. *Mamlakatimizning innovatsion rivojlanishi raqamli texnologiyalar sohasida ma'lum bilim va ko'nikmalarni talab qiladi, shu boisdan hozirgi kunda ta’lim tizimimizda ilmiy-pedagogik asoslarning o'zgarishi va talabalarning axborotlardan shaxsiy foydalanishi, ularning kasbiy faoliyati uchun ham raqamli ko'nikmalarga, axborotdan foydalanish madaniyatiga ega bo'lishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan turli xil o'quv modellaridan foydalangan holda raqamli texnologiyalarning pedagogika sohasida asosiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari alohida dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqola ta’lim tizimini kiberijtimoiylashtirish asoslariga doir bir qator tahliliy ma’lumotlar asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli ta’lim, kiberijtimoiylashuv, interaktiv, texnologiya, virtual, axborot, pedagogik vosita, innovatsiya, integratsiya*

Abstract. *The innovative development of our country requires certain knowledge and skills in the field of digital technologies, therefore, the change of scientific and pedagogical foundations in our education system and the personal use of information by students, as well as digital skills for their professional activities, should be aimed at having a culture of information use. In this regard, the issues of forming basic and professional skills in the field of pedagogy of digital technologies using various educational models remain particularly relevant. The article is based on a number of analytical data on the basics of cyber socialization of the educational system.*

Keywords: *Digital education, cyber socialization, interactive, technology, virtual, information, pedagogical tool, innovation, integration.*

Аннотация. *Инновационное развитие нашей страны требует определенных знаний и навыков в области цифровых технологий, поэтому необходимо изменение научно-педагогических основ в нашей системе образования и личного использования информации студентами, а также цифровых навыков для своей профессиональной деятельности. Деятельность должна быть направлена на формирование культуры использования информации. В связи с этим особую актуальность сохраняют вопросы формирования базовых и профессиональных навыков в области педагогики цифровых технологий с использованием различных образовательных моделей. Статья основана на ряде аналитических данных об основах киберсоциализации образовательной системы.*

Ключевые слова: *цифровое образование, киберсоциализация, интерактив, технология, виртуальный, информация, педагогический инструмент, инновации, интеграция.*

Hozirgi kunda mamlakatimizda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim tizimi bir qator samarali natijalarga erishib kelmoqda. Shu boisdan ta’lim tizimi kiberijtimoiylashtirishni talab qilishi zamonaviy fan tarmoqlaridan hisoblanishi barchaga ma’lum.

Raqamli ta'lim – bu o'quv tajribasi va natijalarini yaxshilash uchun ta'lim muhitiga turli xil raqamli texnologiyalar va vositalarni kiritish va ulardan foydalanishdir. Unda o‘qitish va o'quv jarayonini yengillashtirish uchun raqamli qurilmalar, dasturiy ta'minot va interaktiv tarkibdan foydalaniladi. Ushbu strategiya o'rganishni yanada qiziqarli, individual va samarali qilish uchun muhimdir. Raqamli ta'lim – asosan aqlli sinf xonalari, planshetlarga asoslangan raqamli kutubxonalar va ta'lim bilan bog'liq mobil ilovalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalarning maqsadi talabalarga an'anaviy darsliklar va sinfda o'qitishdan tashqari ko'plab ta'lim resurslari, interaktiv tarkib va tadbirlardan foydalanish imkoniyatini berishdir.

Pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bir qator fanlarda yangi usul va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Biroq hozirgi jamiyatni raqamlashtirish davrining ijtimoiy-pedagogik muammolari ta’lim tizimi va uning tarkibiy tuzilmasini qayta ko’rib chiqishni taqozo etmoqda. Bunda nafaqat ta’lim sub’ektlari, balki uning makonini ham tubdan o’zgartirish talab etiladi.

Bugungi raqamlashtirish asrida ta’limda jamoaviy o’zaro hamkorlik shakllari juda muhimdir. Inson virtual olamga kirishi bilanoq to’liq anglab etmasdan boshqa odamlar jamoasida amaliy muloqotga kirisha boshlaydi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda yangi raqamli ta’lim muhitini yaratish yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori asosida “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta’minlashning muhim shartlari va u bilan bog’liq jarayonlar belgilab berildi.

Ta’lim tizimini raqamlashtirishga bag’ishlangan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, an’anaviy didaktikada barcha metodik vositalarga nisbatan ustunlik qiluvchi tushuntirish va o’qitishning ko’rgazmali usullari talabalarning faol-kognitiv va mustaqil ta’limi uchun ahamiyatsiz hisoblanadi. Raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish ta’limning tarkibiy tuzilmasini yaratish imkonini beradi.

Ta'limni raqamlashtirish – bu maktablar, universitetlar va masofaviy kurslarda ilovalar, dasturlar va boshqa raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish . Masalan, o'quvchilar topshiriqlarni daftarda emas, balki internetdagi platformadan foydalangan holda bajarmoqdalar. Raqamli texnologiyalar o'qitishni tashkil etishda ham qo'llaniladi.

Ta’limni raqamli transformatsiyasi – ulkan raqamlashtirishga erishish jarayoni hisoblanib, uning natijasida ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini umumlashtiruvchi axborot tizimlari yig’indisidan iborat raqamli ta’lim muhiti shakllanadi. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqa sohalarga nisbatan dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli ta’lim texnologiyalar ta’lim tizimining barcha bosqichlarida qo’llanilmoqda. Ushbu texnologiyadan foydalanish uchun avvalo uning imkoniyatlari bilan bog’liq bilim, ko’nikma va malakalar bo’lishi lozim. Ana shundagina raqamli ta’lim texnologiyasidan kutilgan samaraga erishiladi.

Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari va kontseptual tushunishni rivojlantirish uchun taqdim etilgan va ko’p hollarda talabalarning ijodkorligi, tasavvurlari va muammolarni hal qilish ko’nikmalarini yaxshilovchi innovatsion pedagogik modellarni nazarda tutadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar o’zlarining mantiqiy fikrlashlarini yaxshilashlari, turli tushunchalar bo’yicha ma’lumot ishlab chiqarishlari, muloqot qilish qobiliyatlarini yaxshilashlari va o’z faoliyatlarini samarali yo’lga qo’yishlari mumkin. Shuningdek, talabalarning masofaviy yoki virtual laboratoriya

simulyatsiyalardan faoydalanishlarini ta’minlaydi. Raqamli texnologiya “Xalqaro hamkorlik” ni ham osonlashtirdi. Talabalar bir-birlari bilan hatto kompyuter va mobil qurilmalarda ham yuzma-yuz muloqot qilishlari mumkin.

Bugungi kunda raqamli ta’limning mamlakatimiz ta’lim tizimida o’rni beqiyos bo’lib, bunda ta’lim oluvchilarning fanni o’zlashtirishlari bilan bir qatorda, ular bir vaqtning o’zida qanday o’qiyotganini, fanlarni qanday o’rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o’z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida ta’lim oluvchilarning mustaqil o’rganish, shaxsiy o’rganishga moslashish va o’z ustida ishlash kabi qobiliyatlari yanayam rivojlanadi.

Ta'lim uchun raqamli texnologiyalarning ahamiyati va imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:[1]

• Talabalarning motivatsiyasini oshirish va kognitiv rivojlanishini rag'batlantirish.

• Tarixga virtual kirish yoki virtual laboratoriya ishi (masalan, dissektsiya) va tez-tez shakllantiruvchi fikr-mulohazalar (masalan, talabalarning o'rganishini tez-tez kuzatib borish uchun auditoriyaga javob berish tizimlaridan foydalanish) kabi real hayot tajribasini o'z ichiga olgan yuqori interaktiv resurslarni taqdim etish orqali o'rganish;

• Talabalarning o'rganganlarini namoyish etishlarini osonlashtiradigan vositalar bilan ta'minlash. Texnologiyalarning multimodal imkoniyatlari: o'rganish uchun kontseptsiyaning bir nechta tasvirlarini yaratishga imkon beradi, masalan, mavhum va ko'rinmas tushunchalarni yanada aniqroq qilish uchun vizual va tovushlardan foydalanish kabi;

• Aloqa va hamkorlik uchun vositalar bilan ta'minlash, masalan, o'rganishni boshqarish tizimlari, tayinlangan guruh vazifalari uchun bloglar;

• Talabalarning individual ta’lim olish jarayonda o'z-o'zini baholashni oshirish orqali ta'lim tezligini va samaraliligini ta'minlaydi. Bunga erishishning yo'li esa interaktiv o'quv ob'ektlaridan foydalanishdir.

• Real vaqt rejimida tajriba o‘tkazish yoki virtual laboratoriyalarda ikkilamchi (simulyatsiya qilingan) ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish orqali to‘plangan asosiy ma’lumotlarni solishtirish, tahlil qilish va ko‘rsatish bilan tadqiqot o‘tkazish imkonini beradi;

• Internetdagi ma'lumotlar va resurslarga kirish uchun mobil qurilmalardan foydalanish yoki ta'limni boshqarish tizimlari va internetdagi boshqa virtual o'quv jamoalari orqali darsdan tashqari vaqtlarda o'rganishning uzluksizligini ta'minlaydi.

O'qituvchilar ham texnologiyadan foydalanish bo'yicha yuqori darajadagi kasbiy rivojlanishga ega bo'lsagina, ta'sir kuchliroq bo'ladi. Ushbu kasbiy rivojlanish dasturlari texnologiyadan foydalanish bo'yicha o'qitish ko'nikmalaridan tashqariga chiqishi va o'qitish maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun texnologiyadan samarali pedagogik foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi yanada muvaffaqiyatli bo'lishi uchun esa kengaytirilgan dastur yoki doimiy professional so'rovga asoslangan yondashuvlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli hamda an’anaviy ta’lim bir-biri bilan raqobatga kirishganda emas, balki integratsiyalashganda yuqori sifatli ta’lim berish tizimi paydo bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O’zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: 2020-yil 24 yanvar.

[1] Wan Ng New Digital Technology in Education Conceptualizing Professional Learning for Educators University of Technology Sydney, School of Education Sydney, NSW, Australia 2015.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi PQ-4642-sonli “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.

4. Salaeva M.S., Djumabayeva M. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // International Multidisciplinary Scientific Journal (IMSJ) ISSN: 2091-573X. With Impact Factor: 3.2. Volume 1. Issue 1, June 2021. – P. 36 – 37. Google scholarship https://www.sciencepublish.org/

5. Salaeva M.S., Djumabayeva M. Psixologlar faoliyatida bolalar salomatligini saqlovchi va shaxsini rivojlantiruvchi raqamli manbalar kolleksiyalarini ishlab chiqish zaruriyati / «Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторини ривожлантириш: янги шакллар ва таълим мазмуни» мавзусидаги Халқаро онлайн конференция / Низомий номидаги ТДПУ. - Тошкент. 2020 йил 13 май. – Электрон тўплам. – Б. 303 – 305.

6. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Xorijiy tillarni o’qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276 – 281.

7. Salaeva M.S., G’ulamova S.R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo’lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / “Xorijiy tillarni o’qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 209 – 213.

8. Wan Ng “New Digital Technology in Education, Conceptualizing Professional Learning for Educators” University of Technology Sydney, School of Education Sydney, NSW, Australia 2015

CHIZMA GEOMETRIYA FANIDA NUQTANING OKTANTDAGI PROYEKSIYALARINI O’QITISH ORQALI TALABALARNING NAZARIY VA AMALIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH

Jumayev Isroil Omandovlat o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi jumayev@cspi.uz +998909022793

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 2-oktantda joylashgan nuqtani tushuntirish yo’li bilan talabalarga nazariy va amaliy bilimlari aloqadorligini ta’minlash orqali fazoviy tasavvurini rivojlantirish ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *nuqta, chiziq, fazo, jism, metrik, pozitsion geometrik tushuncha, hajm, yuza, uzunlik.*

Hozirgi kunga kelib barcha Oliy O‘quv yurtlarida chizma geometriya fani, fan sifatida o‘tib kelinmoqda. Chizma geometriya fani aniq fanlardan biri hisoblanib, undagi mavjud bo‘lgan qonun-qoidalarga muvofiq tarzda tasvir(chizma)larni fazoviy tasavvurimiz orqali qog‘ozda chizishimizdir. Bu fan asosan insonda fazoviy tasavvurni yanada kuchliroq shakillantirib, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu fanning hayotimizda tutgan o‘rni juda katta hisoblanadi. Jumladan hozirgi kunda bu fanning hayotimizda tutgan o‘rniga misol tariqasida bino inshoatlari, kundalik hayotimizda foydalaniladigan maishiy texnikalarimiz, avtomobil va hokazolarda ko‘rishimiz mumkin.

Chizma geometriya fani bizning tasavvurimizni kengaytirib, dunyo qarashimizni yanada kuchliroq bo‘lishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Chizma chizishdan avval chizmaning qanday ekanligiga, mavzusiga va qonun-qoidalariga amal qilgan holda chizishimiz zarur. Chizmani tushunmasdan yokida uning qonun-qoidalariga ahamiyat bermasak bu fanni o‘zlashtira

ololmaymiz. Hozirgi kunda ko‘plab talabalarning muammosi ham mana shunda hisoblanib, yani talabalar chizma geometriya darsini tushunmay o‘zlashtirishga qiynalishadi va bevosita bunga ustozlar aybdordek ko‘rinadi. Chizmani tushunmaganliklari uchun ham bu fan ularga qiyin tuyuladi, xuddiki murakkab narsadek ko‘rinadi. Aslini olib qaraganda bu fan juda qiziqarli va o‘ziga xos aniq fan hisoblanadi. Chizma geometriya fani o‘zida aniqlikni talab qiladi, birorta arzimagan hatolikka yo‘l qo‘yilsa ham chizmangiz mukkamal darajada chizilmagan hisoblanadi.

Chizma geometriya fanining asosi sifatida uning asosiy geometrik tushunchalar va shakllar tushuniladi. Bunday tushunchalarga nuqta, to‘g‘ri chiziq, tekislik, geometrik fazolar kiradi. Bunday tuchunchalar chizma geometriya fanining asosiy tayanchi hisoblanadi.

Nuqtaning II-oktantdagi proyeksiyalarini aniqlash 3 bosqichda ko‘rsatib o‘tilgan.

Masala: *2-oktantda koordinatalari orqali berilgan A (50,-40,60) nuqtaning fazoiy holati va epyuri qurilsin.*

Masalaning yechimi: 2-oktantda ko‘rsatib o‘tamiz**.**

1-bosqich. (*Fazoviy holatida).* 2-oktantning fazoviy holati qurilib hosil qilinganidan so‘ng, o‘zaro perpendikulyar vaziyatda bo‘lgan 3 ta tekislik *H*-gorizantal, *V*-frontal, *W*-profil proyeksiyalar tekisligidagi *Ox,Oy,Oz* o‘qlarga koordinata boshidan *Ox absissa* o‘qiga *A* nuqtaning *x50* qiymatini o‘lchab olamiz va topilgan nuqtaga A_x yozib qo‘yiladi. Koordinata boshidan minus ishoradagi *Oy ordinata* o‘qiga *A* nuqtaning *y(-40)* qiymatini o‘lchab qo‘yiladi, natijada topilgan nuqta A_y nuqta bo‘ladi va koordinata boshidan *Oz aplikata* o‘qiga *A* nuqtaning *z60* qiymatini o‘lchab olamiz natijada topilgan nuqtamiz A_z nuqta bo‘ladi. ***1-rasm, a***

(*Epyur holatida).* 2-oktant epyur holatida H gorizantal proyeksiyalar tekisligi tepaga harakatlanib *V* frontal proyeksiyalar tekisligiga birlashadi. *V* frontal proyeksiyalar tekisligi qo‘zg‘almas, *W* profil proyeksiyalar tekisligi chapga ochilib uham *V* frontal proyeksiyalar tekisligiga birlashadi. Perpendikulyar bo‘lgan *Ox absissa*, *Oy ordinata* va *Oz aplikata* o‘qlariga, koordinata boshidan *A* nuqtaning *x50* qiymatini *Ox absissa* o‘qiga o‘lchab A_x nuqta topiladi, *A* nuqtaning *y(-40)* qiymatini minus ishoradagi *Oy ordinata* o‘qiga o‘lchab A_y nuqta topiladi va *A* nuqtaning *z60* qiymatini koordinata boshidan *Oz aplikata* o‘qiga o‘lchab A_z nuqta topiladi. ***1-rasm, b***

2-bosqich. (*Fazoviy holatida).* Topilgan A_x, A_y, A_z nuqtalar orqali fazodagi *A* nuqtaning *H* gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi A' proyeksiyasini, *V* frontal proyeksiyalar tekisiligidagi A'' proyeksiyasini, *A* nuqtaning *W* profil proyeksiyalar tekisiligidagi A''' proyeksiyalarini aniqlash uchun, topilgan A_x nuqtadan minus ishoradagi *Oy ordinata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi va A_y nuqtadan *Ox absissa* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi. Bu chizilgan ikki to‘g‘ri chiziqlar kesishgan joyi fazodagi *A* nuqtanig *H* gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi A' proyeksiyasi bo‘ladi.


A_x nuqtadan *Oz aplikata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi va A_z nuqtadan *Ox absissa* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi. Bu chizilgan ikki to‘g‘ri chiziqlar kesishgan joyi fazodagi *A* nuqtanig *V* frontal proyeksiyalar tekisligidagi A'' proyeksiyasi bo‘ladi. A_z nuqtadan minus ishoradagi *Oy ordinata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi va A_y nuqtadan *Oz aplikata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi. Bu chizilgan ikki to‘g‘ri chiziqlar kesishgan joyi fazodagi *A* nuqtanig *W* profil proyeksiyalar tekisligidagi A''' proyeksiyasi bo‘ladi. ***2-rasm, a***

(*Epyur ochilgan holatida).* 2-oktant epyur holatidagi *Ox absissa* o‘qida joylashgan A_x nuqtadan minus ishoradagi *Oy ordinata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi va A_y nuqtadan *Ox absissa* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziqlar chizib olinadi.


Bu chizilgan ikki to‘g‘ri chiziqlar kesishgan joyi *H* gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi A' proyeksiyasi bo‘ladi. *Ox absissa* o‘qida joylashgan A_x nuqtadan *Oz aplikata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi va A_z nuqtadan *Ox absissa* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziqlar chizib olinadi. Bu chizilgan ikki to‘g‘ri chiziqlar kesishgan joyi *V* frontal proyeksiyalar tekisligidagi A'' proyeksiyasi bo‘ladi. *Oz aplikata* o‘qida joylashgan A_z nuqtadan minus ishoradagi *Oy ordinata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chiziladi va A_y nuqtadan *Oz aplikata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziqlar chizib olinadi. Bu chizilgan ikki to‘g‘ri chiziqlar kesishgan joyi *W* profil proyeksiyalar tekisligidagi A''' proyeksiyasi bo‘ladi. ***2-rasm, b***

3-bosqich.(***Fazoviy holatida).*** 2-oktantda topilgan *H* gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi *A′* proyeksiyasidan *H* gorizantal proyeksiyalar tekisligiga nisbatan perpendikulyar to‘g‘ri chiziq chiziladi yoki *Oz aplikata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chizib olinadi. Huddi shu tartibda topilgan *V* frontal proyeksiyalar tekisligidagi *A″* proyeksiyasidan *V* frontal proyeksiyalar tekisligiga nisbatan perpendikulyar to‘g‘ri chiziq chiziladi yoki minus ishoradagi *Oy ordinata* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chizib olamiz. Huddi shu tartibda topilgan *W* profil proyeksiyalar tekisligidagi *A‴* proyeksiyasidan *W* profil proyeksiyalar tekisligiga nisbatan perpendikulyar to‘g‘ri chiziq chiziladi yoki *Ox absissa* o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq chizib olamiz. Bu chizilgan uchta to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro kesishib koordinatalari orqali berilgan fazodagi *A* nuqta hisoblanadi va berilgan masalaning 2-oktantdagi fazoviy holati tugallangan hisoblanadi. ***3-rasm, a***


(***Epyur holatida).*** 2-oktantdagi epyurdagi topilgan *H* gorizantal proyeksiyalar tekisligidagi *A′* proyeksiyasi, *V* frontal proyeksiyalar tekisligidagi *A″* proyeksiyasi, *W* profil proyeksiyalar tekisligidagi *A‴* proyeksiyasi topilganidan so‘ng berilgan masalaning 2-oktantda epyur holatidagi ish tugallangan hisoblanadi. ***3-rasm, b***




1-rasm, a




1-rasm, b




2-rasm, a



2-rasm, b



3-rasm, a



3-rasm, b

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pulat Adilov, Isroil Jumaev. (2018). New View to Executing Sketch and Technical Drawing. Eastern European Scientific Journal (ISSN 2199-7977), 102 – 104.

2. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O‘LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO‘LLASH USULLARI VA AHAMIYATI.”. MUҒALLIM ҲӘM YЗLIKSIЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 99 – 101.

3. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021) CHIZMALARNI AUTOCAD DASTURIDA CHIZISHDA DASTURNING MAVJUD MURAKKABLIKLARINI QO‘LDA CHIZISHGA MOSLASHTIRISH (O‘RGATISH) USULLARI.”. MUҒALLIM ҲӘM YЗLIKSIЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 94 – 99.

4. ugli Jumayev, I.O. (2022). USING THE MOST CONVENIENT METHOD OF FINDING EQUAL SIDED POLYGONS (By Dividing the Diameter into Equal Sections). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10*(11), 1271 – 1279.

5. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2020). CHIZMACHILIK DARSLARIDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANISHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI TAHLILI.”. *Maktab va hayot MAXSUS SON, 2*.

6. Jumayev, I. (2020). The conveniences of teaching using autocad software. *Экономика и социум*, (10 (77)), 94-97.

7. Jumayev I.O. (2021). CHIZMACHILIK DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. Экономика и социум, (11-2 (90)), 798 – 808.

8. Jumayev, I.O. (2021). CHIZMACHILIK FANINING PROYEKSION CHIZMACHILIK BO’LIMIDA AUTOCAD DASTURINING UCH O’LCHAMLI IMKONIYATLARINI QO’LLASH VA UNING AHAMIYATI. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 809 – 814.

9. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O‘LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO‘LLASH USULLARI VA AHAMIYATI.”. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 99 – 101.

10. Isroil, J. (2023). TEACHING STUDENTS TO PROVIDE THEORETICAL AND PRACTICAL KNOWLEDGE IN SOLVING PROBLEMS OF DRAWING GEOMETRY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *4*(11), 61 – 68.

TALABALARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA O`QITUVCHINING O‘RNI

Bayjumanova Laziza Abdumanonovna,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti
Ganiyeva Holida Rustamovna,
Angren texnologiya texnikumi ishlab chiqarish ta'lim ustasi
lbayjumanova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kreativ yondashuv asosida o`quvchilarning kommunikativ takomillashtirishda va pedagogik yo`nalish asosida kommunikativ nutq madaniyati, ta`lim-tarbiya jarayonida muloqat, yangicha qarashlarni shakllanishida o`qituvchining o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ, qobiliyat, kreativ, innovatsiya, ko`nikma, malaka, muvaffaqiyat, pedagogik mahorat.*

O`zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini tubdan rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni unib-o`sishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratishga muhim ahamiyat berilmoqda.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma`naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari mustaqil O`zbekiston kelajagi bo`lmish yoshlarni har tomonlama kamol topishiga berilayotga e`tibordan darakdir.Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, talabalarda kasbiy shakllanishida kommunikativ qobiliyatlarni takomillashtirishda muloqat texnikasidan foydalanish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘limiy va tarbiyaviy islohotlarning maqsadi-komil insonni shakllantirishdir. Bu borada pedagogik tizimdagi fanlarning ahamiyati kattadir.

Shu jumladan, «Pedagogik mahorat» fanini o’qitishda talabalarda mustaqillik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. O’z-o’zidan ayonki, pedagogik mahorat fanidan dars beruvchi oliy maktab o’qituvchisi, kuchli mahorat egasi o’z kasbining ustasi bo’lishi bilan birga keng dunyoqarashli, ichki va tashqi madaniyati bir-birini to`ldiradigan hamda boy pedagogik, hayotiy tajribaga ega bo’lishi lozim. Chunki bo`lajak mutaxassis o’qituvchi shaxsi va uning kasbiy sifatlariga alohida e‘tibor qaratadi.

Zamon talabi shundaki, o`quvchilar kompetentligining mavjud holatlarini va kommunikativ nutq madaniyatini rivojlantirish muhim omillardan biri sifatida qaralishi yetakchi funksiyalardan sanaladi. Bizga yaxshi ma`lumki, bir qator pedagog olimlar o`quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini va nutq madaniyatiga oid muammolarni quyidagicha keltirib o`tmoqda:

- ta`lim muassasasi o`quvchilari nutq faoliyatining mohiyati to`g`risidagi masalalar;
- xalq pedagogik ta`limda o`quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi masalalar;
- kommunikatsiya va muloqat toifalarning o`zaro bog`liqligi masalasi.

Shu bilan birga «O’qituvchining nutq mahorati», «Pedagogik jarayonda e‘tiqod va ishontirish», «O’qituvchining ta‘lim jarayonidagi mahorati», «O’qituvchining tarbiyachilik mahorati», «Ota – onalar bilan ishlash mahorati» kabi mavzularni o’rganish chog`ida talaba – domla, o’qituvchi – o’quvchi, o’qituvchi – ota-ona, o’qituvchi – ma‘muriyat kabi munosabatlarga xos bo’lgan o’zaro ta‘sir, muomala, ularning yechimlari to’g’risida, munosabatlari to’g’risida daslabki ko`nikma va malakalarga ega bo’ladi. Ana shunday sharoitda tajribali, ijodkor, izlanuvchan o’qituvchi o’z shogirdlarini ijodkorlik ishlariga keng jalb qilib, zamonaviy metod va usullar asosida o’quvchida qaror topayotgan shaxsiy sifatlar o`sib borishini o’rganib boradi. Olingan ilmiy ma‘lumotlar bolani muayyan kasbga, mehnatga, oilaviy, hayotga tayyorlash imkoniyatlarini beradi. «O’qituvchi – talaba» hamkorligiga xos kasbiy mahorat qirralarini yanada oydinlashtiradi. O’zaro pedagogik ta‘sirda o’qituvchining o’quvchilar bilan muomala madaniyati bolada intizom – madaniy xulq, boshlang`ich ko’nikma va malakalari shakllanishi deb qabul qilish mumkin. Ma‘lumki, ehtiyojlar rivojlanib faoliyat motivlariga aylanadi. Bu yerda aytmoqchi bo’lgan narsa intizom va madaniy xulq sifatlarining bola ehtiyoj motivlari sifati. Ular zaminida kelib chiqadigan muhim faoliyat turlari bilan bog’liqligidir. Bolalar bosqichma – bosqich emotsional – hissiy, ijtimoiy, o’quv, foydali ish, mehnat faoliyatlarini o’taydilar. Har bir ma‘lum yoshda yuqorida zikr etilgan bir faoliyat turi muhim bo’ladi va bola shaxsi rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’ladi. Bolalar dastlab faoliyat turi bilan shug’ullanishar ekan, natijalar samarali bo’lishi, xatti-harakatlar zarurligi, shuningdek, ushbu faoliyat jarayonida bashqa tengdoshlari, kattalar bilan to’g’ri shaxslararo munosabatlarni bog’liqligini amaliyotda o’zlashtirib oladi.

O’qituvchi o’quvchilari bilan shaxslararo intizom va madaniy xulq tarbiyasini muvaffaqqiyatli amalga oshirish uchun o’qituvchi tashqaridan turib ta‘sir etish usullaridan emas, balki o’quvchining muhim faoliyati yaqin rivojlanish chegarasi bilan bog’liq bo’lgan ehtiyoj-motivlari tizimi maqsadlarini rivojlantirish uslublari asosida tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlik qilish kerak. Bir so’z bilan aytganda, o’zaro munosabatlar va intizom madaniy xulq tashqaridan emas, ichkaridan, o’quvchilarni ehtiyoj-motivlar tizimiga asoslanib amalga oshirish lozim. Bu o’rinda o’zaro muomala madaniyati va munosabati va intizom, madaniy xulq tarbiyasini takomillashtirib borishda asos bo’ladigan qarama-qarshilik mavjud: shaxs ruhiy sifatga ega bo’lganligi uchun unda shakllangan o’zaro munosabat, muomala, intizom, madaniy xulq darajasi borliqqa doimo to’g’ri kelavermaydi. Ikkinchidan esa, borliq taqozo etayotgan qoidalar doimo shaxs, moddiy, ma‘naviy manfaatlariga mos bo’lavermaydi.

Yuqorida aytilgan fikrlarimizdan kelib chiqib, intizom va madaniy xulq tarbiyasiga quyidagicha ta‘rif berilishini maqsadga muvofiq deb bilamiz. O’zaro munosabat va muomala madaniyati, intizom va madaniy xulq tarbiyasi – bu shaxsning o’ziga xos sifati bo’lib, o’quv qoidalari bajarilishidan o’quvchining faol ijodiy yondoshishda va shaxslararo muloqot munosabatlarida, ijtimoiy-ta‘limiy natijalarga erishishda o’qituvchi bilan hamkorlik qilish

tushuniladi. Shunday ekan axboratlar shiddati, kommunikativ qobiliyatlari, kreativ fikrlash va yangiliklar oqimi tobora kundalik hayotimizning ajralmas bo`lagiga aylanib bormoqda. Bu esa o`z o`rnida har bir shaxsdan fikriy yetuklikni, to`g`ri mushohada yurita olishni, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni texnologiyalashtirishdan foydalanish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Sog`lom fikr yurituvchi va ma`naviy jihatdan mukammal, aqlan yetuk, fikran teran, rivojlangan shaxsni tarbiyalash ta`limda yosh xususiyatlariga e`tiborli bo`lish, o`qitishda ta`limning barcha bo`g`inlar aro aloqadorligini va shaxs ongi va ta`lim, fan va innovatsiya tafakkurida yangicha g`oya, tasavvurlarni shakllanishiga imkon beruvchi zamonaviy faol usullardan foydalanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 41-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim to‘g‘risidagi Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil, 23 sentyabr', O‘RQ-637-son (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
3. Mudrik A.V. Sotsial'naya pedagogika. – M.: Akademiya, 2003. –200 s.
4. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalar i asosida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.fan. PhD.diss. – T., 2017. – 158 b.
5. Hayitov O., Umarova N. Yoshlarda professional o‘sishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari. – T.: “TURON-IQBOL”, 2011. – 128 b.
6. E. G‘oziev Muloqot psixologiyasi. T.: Universitet, 2000 y.
7. B.Xusanov, V.G‘ulomov Muomala madaniyati Darslik – T.: “Iqtisod – Moliya” 2009 yil.
8. Ta'lim vositasi asosida talabalarning muloqotlarini rivojlantirish. Ta’lim, fan va innovatsiya // 5-сон, 2021. O.Po’latova
9. Bo’lajak o‘qituvchilar kompetentligi va kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish. https://journal.jspi.uz › article ›. S.H.Mahmudovich.

KOMPYUTER GRAFIKASIDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrasi v.b dotsenti
Xoldarova Dilafruz Dilmurod qizi,
Sayfullayeva Sevara Nodirovna,
Xolmatov Bakir Batirbay o‘g‘li,
Akromova Nozimaxon Alisher qizi,
Sharipova Sabina Sa’dulla qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya. *AutoCad dasturi orqali o‘yib olish orqali yangi detal hosil qilishning ba’zi holatlari va yasashning nazariy jihatlari keltirilgan. Shuning bilan birgalikda hosil bo‘lgan detal yaqqol tasviri va unda zaruriy qirqimlar berishning usullari keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *chizmachilik, aylana, yumaloqlash, faska, radius, izometriya, o‘lcham, ko‘rinish, aksonometriya.*

Oliy ta’limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta’lim talabasi o‘zi tanlagan yo‘nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan Respublikaning ilm-fan madaniyat, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda o‘z hissalarini qo‘shadigan, mustaqil fikrlaydigan yuksak ma’naviyatga ega

bo‘lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir. Bugungi kunda ta’lim sohasiga yangi axborot va kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi, barcha fanlar qatori tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishida o‘qitilayotgan fanlardan Chizmachilik fanida ham o‘quv jarayonini takomillashtirishni, ya’ni modernizasiyalashni taqozo etmoqda. Chunki yangi va zamonaviy elektron o‘qitish vositalari juda katta imkoniyatlarga egaki, ulardan maqsadli foydalanib ta’limda o‘qitish samaradorligini oshirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Bu bilan faqatgina o‘qitish sifati samaradorligini oshirish va talabalarning vaqtlarini tejashga ham katta imkoniyatlar yartib beradi. Bu muammolarini ijobiy va ijodiy yechishda barcha oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari masuldirlar.


XXI asr intellektual yoshlar asri bo‘lib, o‘qituvchi bilim va ko‘nikma malakalarga ega bo‘lishi kerak. Darsni yuqori darajada o‘tish yaxshi natijaga erishish o‘qituvchining izlanishiga bog‘liq. O‘qituvchi har doim o‘z ustida ish olib borishi, izlanish natijasida yangi pedagogik texnologiyalarni kashf etishi lozim. Hozirgi zomonda kompyuter, planshet, qo‘l telefon bularning ishlashi uchun turli xildagi rangbarang programalar kundan-kunga chiqa boshlayapti. Har bir fanga doir programmalar chiqqan matematiklarni ishini oson qilish uchun excel hujjat tayyorlash uchun word muharriri va ularning yangidan-yangi versiyalari chiqqan. Arxitektorlar uchun Archi CAD programmalari chizmachilik uchun Auto CAD grafik dasturi chiqqan bo‘lib grafik ish chizmalarini osongina bajara olish imkoniyati keng.

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarining shunday imkoniyatlari mavjudki, ular o‘qitish didaktikasining asosiylaridan biri bo‘lgan, ko‘rsatmalilik tamoyilini rivojlantirishga olib keladi. Buni qo‘yilgan masalalarni yechish va texnologik jarayonlarni modellashtirib, ketma-ket va bosqichma-bosqich bajarish hamda ularni asildagidek video lavhalar yordamida namoyish etadigan elektiron o‘quv va ishlab chiqarish ishlanmalarida ko‘rish mumkin.


Bulardan AutoCAD dasturidan foydalanish chizmachilik, mashinasozlik chizmachiligi va qurilish chizmachiligi va bir qancha fanalarda foydalanish o‘ta qulayligi bilan ham har qanday ko‘rgazmali material va plakatlardan ajralib turadi.

Ushbu maqolada chizmasi berilgan detalning yaqqol tasvirini AutoCAD dasturidan foydalanib loyihalashni talabalarga o‘rgatishni maqsad qilib, uning uslubiyatini ishlab chiqilgan.

Berilgan variant bo’yicha chizma AutoCAD dasturida chizib olinadi (1-rasm)




1-rasm.



2-rasm.

1. O‘lcham bo‘yicha aksonometrik proyeksiya chizib olinadi (2-rasm). Shunda so‘ng o‘yib olinishi kerak bo‘lgan qismlar belgilab olinadi. Foydalanish interfeysi ikki o‘lchamli muhitga “Вид”, “Визуальный стили”, “Моделероване”, “Орбита”, ва “ПСК” panellari kiritib, uch o‘lchamda 3D format muhiti hosil qilinadi, 3-rasmdagi interfeysida ko‘rsatilgan buyruqlardan foydalaniladi.




3-rasm.

2. Shundan so‘ng o‘yib olinish kerak bo‘lgan qismlar ketma-ketlikda o‘yib olib tashlanadi. O‘yib olish uchun ‘‘Моделероване’’ paneli (4-rasm) Вычитание ichidagi buyruqdan foydalaniladi.




4-rasm.

3. O‘yib olingandan keyin yangi detal hosil bo‘ladi (5-rasm)
4. Hosil bo‘lgan yangi detal orqali uning proyeksiyalari bajariladi (6-rasm).



5-rasm.



6-rasm.

Biz shunga o‘xshash detallarni shu ketma-ketlikda bajarishimiz mumkin. Yana bu detallarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar ham kiritishimiz mumkin. Shunga o‘xshash detallarni qo‘lda bajaradigan bo‘lsak vaqt va chizmaning sifati darajasi pastroq bo‘ladi. Qo‘lda bajargan vaqtimizda bu kabi detallarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishimiz murakkab bo‘ladi va bu chizmalarni bajarishga ketadigan vaqt ko‘payib ketadi.

Shunday qilib, AutoCad dasturida yaqqol tasvirlarni loyihalashning ayrim jihatlari hamda tasvirlarni uning tarkibiga kiruvchi oddiy jisimlarni uch o‘lchamli loyihalarini birin ketin modellab, AutoCad dasturida bajarish mumkin ekan.

Buning uchun yuqorida keltirilgan amallarni birin ketin aniqlik bilan bajarish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kukiev, B., O‘g‘li, N.N. & Shaydulloyevich, B.Q. (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12), 49-54.
2. Achilov, N.N. (2020). O‘yinli texnologiyalardan foydalanib chizmachilik darslarida o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish metodikasi. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 49-60.
3. Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li, Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, Ko‘kiyev Boburmirzo Baxodir o‘g‘li & Jumayev Isroil Omandovlat o‘g‘li (2020). Methods of developing creative abilities in children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (10) Part II, 151-153.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MUSIQIY ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISH

Majidov Dilshod,
Jizzax DPU o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O 'zbekistonda musiqa rivojlanishining asosiy omillari va uzluksiz ta'limda o'quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalashning o'ziga xosliklari, vositalari yoritib berilgan.*

Аннотация*. В данной статье освещены основные факторы развития музыки в Узбекистане и особенности, средства художественно-эстетического воспитания учащихся в непрерывном образовании.*

Annotation*. This article highlights the main factors of the development of music in Uzbekistan and the features, means of artistic and aesthetic education of students in continuing education.*

Musiqa ta'limi yosh avlodning milliy ma'naviyati va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda musiqa asosan xalq va og'zaki an'anadagi professional musiqa sifatida qadimdan rivojlanib kelgan. Xalq musiqasida lapar, terma, yalla, qo'shiqlaming turli xillari (marosim, maishiy, mehnat, o'yin, raqs, lirik, nasihatomuz va boshqa), og'zaki an'anadagi o'zbek professional musiqasida esa doston, katta ashula, ashula, maqom, cholg'u yo'llari kabi janrlar mavjud. O'zbek musiqa merosida 4 asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin (Buxoro-Samarqand musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslubi, Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi, Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubi). XX asrda o'zbek va O'rta Osiyo xalqlari musiqa merosini yozib olish va o'rganish bo'yicha muhim ishlar bajarildi, yuzlab nota to'plamlari nashr etildi. Bastakor, hofiz va sozandalar o'zbek musiqa merosi durdonalari (Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari)ni keng targ'ib qilibgina qolmay, yangi cholg'u kuy va ashulalar yaratdilar, dastlabki musiqali drama va komediya asarlarining mualliflari bo'lishdi. 1930 – 40-yillarda O'zbekistonda avvallari bo'lmagan yangi (opera, balet, simfonik musiqa, kamer musiqa kabi) musiqa janrlari yuzaga keldi. Ayniqsa, 1950-60-yillardan boshlab O'zbekiston kompozitorlari ijodi keng rivoj topdi, shuningdek, ommaviy musiqaning estrada musiqasi, yoshlar musiqasi kabi yo'nalishlari ham keng yoyildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "2009 – 2014-yillar davomida san'at maktablarini rivojlantirish va moddiy texnika ba'zasini mustahkamlash to'g'risida"gi farmonida yosh avlodning o'zbek madaniyati va san'ati boy merosidan bahraman4 bo'lib, zamonaviy san'at maktablarida ilg'or jahon andozalari asosida bilim olishini ta'minlash hamda ushbu sohada o'qituvchilari, ijtimoiy-ijodiy xodimlari mehnatini rag'batlantirish,

shuningdek, respublikada madaniyat va san'at bilim yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida olib borilishi zarur boigan dolzarb vazifalar ta'kidlab ko'rsatilgan.

Hozirgi kunda musiqa ta'limi va musiqa bilim dargohlari takomillashib bormoqda. O'zbekistonda tashkil etilgan ilk musiqa dargohlarini Buxoro musiqa maktablari, Samarqand musiqa va xoreografiya institutlari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, hozirda musiqa ta'limiga katta e'tibor qaratilayotganligining guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, har bir xalq yuksak axloqiy va estetik ideallarning yaratuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Yoshlarni tarbiyalashda o'zbek xalqining musiqa madaniyati namunalaridan foydalanish muammosini hal qilish g'oyat muhimdir. Binobarin, yosh avlodni xalq musiqasi vositasida tarbiyalashning asosiy prinsiplari hamma vaqt ham zarurdir. Demak, barcha sohalarda bo'lgani kabi musiqa pedagogikasida ham tub islohotlar izchil davom ettirildi, o'quv dasturlari, darsliklar mazmuni xalqimizning milliy madaniy yutuqlari, jahon musiqa ilmi va ta'limida erishilgan ilg'or tajribalar asosida shakllantirildi. Shu munosabat bilan Sharq musiqa madaniyatining, shu o'rinda eng mukammal tarixiy ildizlariga ega bo'lgan o'zbek xalq musiqasi hamda musiqa ma'rifatining taraqqiyoti, uning ayrim sohalari, janrlari, musiqani ta'lim-tarbiyaviy jihatlari yoritilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Amaldagi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun darsliklarning yangi avlodi yaratildi va ularni uzluksiz ravishda takomillashtirish ishlari izchillik bilan davom ettirilmoqda. Biz esa musiqa ta'limi jarayonida xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, an'analari, o'zbek milliy musiqa merosi va qo'shiqlaridan keng foydalanishimiz zarur. Shunday ekan, musiqa ta'limining yangi prinsiplarini, dars usullarini ishlab chiqishda xalq qo'shiqlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Biz O'zbekistonda tashkil etilgan ilk musiqa dargohlarini ularning uslub-larini, holatini o'rganish bilan bir vaqtning o'zida mustaqil O'zbekistonimizning musiqa ta'limning takomillashuvini o'rganishimiz va uni rivojlantirishning yangi uslub va vositalarini ishlab chiqishimiz lozim. Bu, albatta, musiqa o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'qituvchilar, xususan, musiqa o'qituvchilari yosh avlodni vatanparvarlik hamda istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashlari, bunday boy milliy ma'naviy merosimiz, hozirgi zamon ijodiy yutuqlarimiz, shuningdek, umum-insoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'rganish va o'zgartirish ishlarini yanada yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqib, amalga oshirishlari, umuman olganda, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashlari lozim.Musiqa ta'limidan, davta ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o`qituvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak, yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda «Musiqa madaniyati» darslarini axloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Ulardagi go`zallikka bo`lgan his-tuyg`ularini o`stiradi, musiqa san'atiga mehr-muhabbat, qiziqish uyg’otadi. Umumta’lim maktablarida boshlang’ich sinflarda musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o‘zining badiiyligi, qiziqarligi va bolalarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa darsi san’at darsidir. Maktab hayotida ham boshlang’ich musiqa o‘qituvchisining faoliyati keng. Sinfdan tashqari musiqa to’garaklarimi, musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarishmi, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllari (bayram konsertlarmi, leksiya – konsertlar, san’atkorlar bilan ijodiy uchrashuvlarmi, ashula va san’at bayramlari. v.b.)ni uyushtirish ham musiqa o‘qituvchisi zimmasidadir. Shu bilan birga maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi o’choqlari (bolalar musiqa maktablari, pionerlar uyi va saroylari, bolalar teatrlari) bilan aloqada bo‘lish, iqtidorli o‘quvchilarni ularga jalb etish va ularning faoliyatnii maktab xayotiga qo‘llash ham musiqa o‘qituvchisining vazifasidir.

Musiqa o‘qituvchisi musiqa san’atining nazariy va amaliy soxalaridan yetarli darajada, bilim, malaka va tajribaga ega bo‘lmog‘i lozim.

Musiqa san’atiga qiziquvchi iqtidorli yoshlarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san’atiga mehr va ishtiyoqini o’stirish va shu orqali ularning ma’naviy axloqiy tarbiyalarini va badiiy ehtiyojlarini qondirish, musiqa tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Musiqa san’ati

ham barcha san’at turlari kabi inson ruhiyati hamda ijtimoiy voqeiliklar holatini ifoda etuvchi vosita, shuningdek, idrok etishning o’ziga xos shakli hisoblanadi.

Musiqani yaratishda ijodkor muayyan obrazlar vositasida yuksak insoniy sifatlarni yoritadi. Musiqa va qo’shiqlarda tabiat manzaralari, insonlarga xos xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijobiy psixologik xolatlar xursandchilik yoki aksincha, salbiy xolat g’am-alam, istirob, tushkunlik kabi hodisalar ifodalanadi. Musiqiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular kishilarning ongini o’stirish, estetik didini oshirib, irodaviy sifatlarini rivojlantirib, hissiyotini boyitishga emotsional ta’sir ko’rsatadi. Yuksak mahorat bilan bilan ijro etiluvchi mumtoz musiqa asarlarining barchasi insonda ko’tarinki kayfiyatni hosil kiladi. Mumtoz asarlarni doimiy ravishda o’rganib borish o’quvchilarda haqiqiy san’at asarlarining qiymatini to’g’ri baholash ko’nikmalarini shakllantiradi. Musiqa ta’limi jarayonida o’quvchilarning tarbiyasi, psixologik xususiyatlari ham intensiv rivojlanadi. Binobarin, asarlarni o’rganish ularning his-tuyg’ulari, diqqati, idroki, xotirasi, fikrlashi va tasavvuri kabi psixologik xususiyatlariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Musiqiy asarlarning o’quvchilar tomonidan idrok etilishi, eng avvalo ularda diqqatni jamlash va uning barqarorlashga erishish ko’nikmalarini shakllantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Azimova, D., & Majidov, D. (2023). Regulatory framework of tehnologies for studying reading, mathematics and natural-scientific literacy through the international assessment program for elementary students. golden brain, 1(11), 229-233.
2. E.M.Fayzullayev. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. (O'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T. 2010. 23-bet.
3. Fayzullaev, E.M., & Majidov, D. (2022). Taking advantage of uzbek classical music opportunities forming music teachers artistic taste. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(2), 34.
4. I.Qudratov. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. Ped. f. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T., 2006. – 154-bet.
5. Majidov, D. (2020). O’quvchi shaxsining estitik kamolatida xalq qo’shiqlaridan foydalanish imkoniyatlari. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Majidov, D. (2021). Pedagogical And Psychological Issues Of Formation Of Aesthetic Culture Of Future Teachers. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(6).
7. Makhammatov, A., & Majidov, D. (2020). Using computer programs to students' musical ability development. Journal of Central Asian Social Studies, 1(02), 40-45.
8. Musiqa va milliy g'oya – prof. O.Fayzullayev.

BO’LAJAK O’QITUVCHILARNI ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHGA INNAVATSION YONDASHUVLAR

Majidov Dilshod,
JDPU “Pedagogika-psixologiya,musiqa yo’nalishlarida masofaviy ta’lim” kafedrasi o’qituvchisi.
Mo’minov A., Rahimjonova N.
JDPU Sirtqi musiqa yo’nalishi talabalari

Annotatsiya. *Maqolada musiqa ta’limidagi o‘quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalashning o‘ziga xosliklari, bolalar tarbiyasida estetik didni, musiqani shakllantirish, milliy musiqa san’atimizning yoshlar tarbiyasidagi ro’li yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogika, musiqa, tarbiya, maqom, san’at, estetik did, mumtoz musiqa, innavatsiya, ta’lim-tarbiya, estetik madaniyat.*

Tarbiya jarayoni ko’p qirrali jarayon bo’lib, unga tarbiya mohi-yatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko’zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo’nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o’qituvchi faoliyati, balki o’quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o’y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o’rin tutadi. nnovatsiyalar milliy ofisi faoliyati doirasida “Yoshlar akademiyasi” bilan hamkorlikda turli sohalarga tegishli ko‘plab startaplarni rivojlantirish va joriy qilishda ko‘maklashmoqda. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan startaplar orasida musiqaga tegishlilari talaygina. Innovatsion muhit, innovatorlarga sharoit yaratish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, o‘tgan yili 2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi qabul qilindi. Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, fan va iqtisodiyotning barcha tarmog‘ida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitali, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish maqsadida Innovatsiyalar milliy ofisi BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlikda tarmoq korxonalardagi innovatsiya bo‘yicha mas’ul bo‘linma rahbarlari uchun xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida muntazam maxsus seminarlar tashkil etadi.

Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo`lib yetishishlarida o`ziga xos takrorlanmas manba bo`lib xizmat qiladi.Xalqning tarixi, madaniyati, yashash tarzini o’zida mujassamlashtirgan xalq musiqasini yosh avlod qalbiga, ongiga qanchalik erta singdirilsa bu jamiyat uchun ham va shu jamiyatning ertangi bunyodkorlari uchun ham shunshalik foydalidir. Shuning uchun ham Respublikamizda ta’limni milliy asoslarda shakllantirishda xalqimizning milliy madaniyati, qadriyatlariga ustuvor ahamiyat berildi. Natijada milliy madaniy qadriyatlar tizimida muhim mavqeiga ega bo’lgan xalq musiqa ijodiyotini ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tadbiq etish imkoniyatlari yuzaga keldi. O`zbekistonda milliy madaniyatimizni o`ziga xosligini tiklash umumta'lim maktablarida yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish hamda hozirgi kunimizni to`laroq idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmog`lik hisoblanadi. Chunki, har bir yangilik, tarixiy bog`lanish orqali amalga oshiriladi. Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to`laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuyi va qo`shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faolitlari, maqom, shashmaqom, folklor, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o`z aksini topdi. Musiqa ta'limidan, davta ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o`qituvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak, yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda «Musiqa madaniyati» darslarini axloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Ulardagi go`zallikka bo`lgan his-tuyg`ularini o`stiradi, musiqa san'atiga mehr-muhabbat, qiziqish uyg’otadi.Umumta’lim maktablarida boshlang’ich sinflarda musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o‘zining badiiyligi, qiziqarligi va bolalarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarida uzliksiz ta’lim tizimi muassalarida o’tiladigan barcha musiqa fanlari mazmuni ham milliy istiqlol g’oyasi asoslari,hozirda maktablarda tarbiya fani negizida qaytadan shakllantirilayabdi. Musiqa madaniy hayotimizdan muhim o‘rin olgan va inson shaxsiyatining kamolotga yetishida muhim o‘rin tutadigan san’at turi bo‘lishi bilan birga ijtimoiy siyosiy va tarbiyaviy xarakter kasb etadi. O‘sib kelayotgan avlodni milliy ma’naviy ruhda tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarimizga ongli munosabat tushunchalarini shakllantirish hamda milliy musiqani o‘rganishning o‘rni va ahamiyatini yoshlarga tushuntirish asosiy vazifamizdir. Ongni, tafakkurni, dunyoqarashni o‘zgartirmasdan turib, ma’rifat sivilizatsiyasiga erishib bo‘lmaydi.

Bo’lajak musiqa fani o’qituvchisi estetik madaniyatini rivojlantirishda madaniyat va san’at asarlarini tushunishni, his qilishni, bu borada o’z estetik pozitsiyasiga ega bo’lishni taqozo qiladi. Buning mohiyatini katarsis hodisasi orqali ochib berish mumkin. Katarsis qadimgi yunoncha κάταrzis – "yuksalish, poklanish, davolanish" ma’nolarini anglatadi va bu aksariyat hollarda san’at orqali hissiy ko’tarinkilik kasb etish, axloqan yuksalish, ichki ziddiyatlardan forig’ bo’lish, yomon his tuyg’ulardan bo’shanish, qutulish, poklanishni anglatadi. Shuningdek, bu tushuncha insonga turli xil omillar ta’sirini yengillashtiradigan, tozalaydigan va jozibador ta’sir ko’rsatadigan jarayon va natijani anglatadi. Estetika tarixida san’atning insonga estetik ta’siriga katta e’tibor berilgan bo’lib, diniy ma’noda (hissiy tajribalar orqali ruhni tozalash), axloqiy (inson ongini ko’tarish, his-tuyg’ularini jalb qilish), fiziologik (kuchli hissiy stressdan keyin yengillik) va tibbiy vosita sifatida talqin qilingan.

Aristotelning fikriga ko’ra, san’at odamni junbushga soladi, rahm-shafqat va qo’rquvni uyg’otib, tomoshabinni asarda ko’tarilgan g’oyaga hamdard qiladi va bu bilan uning qalbini poklaydi, ko’nglini ko’taradi va tarbiyalaydi. Boshqacha qilib aytganda, katarsis ruhni turli ta’sirlardan tozalovchi estetik tajribaning mohiyati va samarasini bildiradi. Aristotel musiqaning tarbiyaviy va poklovchi ahamiyatini ta’kidlab, musiqa tufayli odamlar "zararsiz quvonch"ni boshdan kechiradilar va halovat topib, yomon ta’sirlardan tozalanadilar, deydi.Pedagogik fanlarni o’qitish jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining estetik madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi ko’rsatkichlarni belgilash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bular: motivatsiya; bilim; intellektual-ijodiylik; amaliy; faoliyatni go’zallik qonunlari asosida tashkil qilish; milliy estetik qadriyatlarni anglash; katarsis orqali o’z-o’zini takomillashtirib borishdir.Bularning natijasida bo’lajak boshlang’ich o’qituvchi shaxsiga xos estetik sifatlardan estetik bilim va taassurot olishga ishtiyoqmandlik; estetik qadriyatlarni baholash, qadrlash va anglash, kundalik hayot va kasbiy faoliyatgaa estetik talablarni joriy etish; estetik ijodiy-pedagogik faoliyatga qiziquvchanlik rivojlanadi.Yuqoridagilardan tashqari, bo’lajak musiqa o’qituvchilarida estetik bilim,(estetik tushuncha,estetik did,tasavvurlar, qonuniyatlar, kategoriyalar, estetik qadriyatlar, estetik faoliyat, talab, ehtiyoj, tafakkur, taassurot, zavq, shavq, muloha, munosabat va baholash); go’zallikni emotsional tasavvur qilish bevosita, erkin emotsional his qilish, estetik ob’ektni munosabatini belgilash; estetik faoliyatga layoqatlik,nafaqat estetik zavq olish, baholash, balki o’z mehnati bilan estetik tasavvur uyg’otish, faol pedagogik faoliyat ko’rsatish, tasavvur va layoqatni shakllantirish; estetik qadriyatlarga yo’naltirish ,bular: ob’ektning estetik qiymatini belgilash va uning ahamiyatini mantiqiy asoslash; estetik-ijodiy quvvat o’qituvchi ishida innovatsiya, uslub va ijodiylik; estetik-pedagogik faoliyatga qiziqish uyg’otish bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining estetik madaniyatni egallashga bo’lgan talab va ehtiyojlarning orttirilishiga erishilib,ularning estetik didini oshirish muhim hisoblanadi.

San’at insonning tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi bo‘yicha xalqaro jamiyatning IX konferensiyasida uqtirilganidek, san’at insonning ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatib va o‘zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb-korida zarur bo‘ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining yangidan yaratilgan musiqa fani bo’yicha o’quv dasturi va darsliklariga kiritilgan milliy musiqa ijodiyotiga mansub kuy, qo’shiqlar sirasida bolalar qo’shiqlari, estrada qo’shiqlari, xalq qo’shiqlari salmoqli o’rin tutadi. Bolalar va xalq qo’shiqlari o’z ifodaviy mazmuniga ko’ra qudratli tarbiyaviy kuchga ega bo’lgan san’at hisoblanadi. Musiqa madaniy xayotimizda keng o‘rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishda muhim ro’l o‘ynaydigan san’at bo’lib, eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atda emasmikan, zeroki ritm va garmoniya xammadan ko‘proq shu vaqtda qalbga chuqur yo‘l topadi va salovat baxsh etib, uni ko‘rkam qiladiki, agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa: aks xolda uning teskarisi bo‘lib chiqadi”. Uning shogirdi Aristotel Aflatun komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi “musiqa kishi ruhini ahloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi, shunday ekan u yoshlarning tarbiyalaydigan predmetlardan biri bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim” Sharqning buyuk allomalari musiqaning shaxs kamolotiga juda buyuk

baho berishganliklari bejiz emas. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga a'niq ta'sirini quyidagicha bayon etadi: "Bu fan (ya'ni musiqa shu ma'noda foydaliki, kimning fe'li atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi... Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir. Forobiyning iyqo' ta'limoti keyinchalik alloma Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo», «Kitob un-najot» va «Donishnoma» ilmiy asarlarida rivojlantirilgan. Musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Ch.Darvin umrining oxirlarida quvvai xofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi. "Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo'lganda edi, endigi xayotimda loaqal xaftada bir marta bo'lsa xam, bir necha she'r o'qishni va bir necha musiqa asari tinglashni o'zimga qoida qilib olardim" Musiqa kishi xissiyotini ayniqsa emotssional, estetik xissiyotini aktiv rivojlantiradi, zeroki, xaqiqatni anglash kishilik emotsional xissiyotsiz bo'lmagan, bo'lmaydi va bo'lishi xam mumkin emas" Bas shunday ekan musiqa kishining ruhiga aktiv ta'sir etadi uning axloqiy estetik qiyofasining shakllanishida muxim rol' o'ynaydi. Bobomiz Sa'diy aytganidek "Musiqa inson ruhining yo'ldoshidir" Shu bois o'quvchilarda inson ma'anaviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa ma'daniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish;
- musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojni rivojlantirish;
- musiqa haqida bilim va malakalar doirasini tarkib toptirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik xis tuyg'ularini rivojlantirish;
- asarlarni badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash;
- musiqa darslarida kasb, hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, musiqa o'qituvchisining professional darajasi va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Gap shundaki, har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarni olib borolmaydi. Uning boisini o'qituvchiga qo'yiladigan quyidagi talablardan ko'rishimiz mumkin. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga sitqidildan mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, ijodkor va izlanuvchan ma'naviy-ma'daniy dunyoqarashga ega didli shaxs bo'lmog'i lozim. Musiqa darsi san'at darsidir. Maktab hayotida ham boshlang'ich musiqa o'qituvchisining faoliyati keng. Sinfdan tashqari musiqa to'garaklarimi, musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarishmi, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllari (bayram konsertlarmi, leksiya – konsertlar, san'atkorlar bilan ijodiy uchrashuvlarmi, ashula va san'at bayramlari. v.b)ni uyushtirish ham musiqa o'qituvchisi zimmasidadir. Shu bilan birga maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi o'choqlari (bolalar musiqa maktablari, pionerlar uyi va saroylari, bolalar teatrlari) bilan aloqada bo'lish, iqtidorli o'quvchilarni ularga jalb etish va ularning faoliyatnii maktab xayotiga qo'llash ham musiqa o'qituvchisining vazifasidir.

Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy soxalaridan yetarli darajada, bilim, malaka va tajribaga ega bo'lmog'i lozim.

Musiqa san'atiga qiziquvchi iqtidorli yoshlarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini o'stirish va shu orqali ularning ma'naviy axloqiy tarbiyalarini va badiiy ehtiyojlarini qondirish, musiqa tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Musiqa san'ati ham barcha san'at turlari kabi inson ruhiyati hamda ijtimoiy voqeiliklar holatini ifoda etuvchi vosita, shuningdek, idrok etishning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Musiqani yaratishda ijodkor muayyan obrazlar vositasida yuksak insoniy sifatlarni yoritadi. Musiqa va qo'shiqlarda tabiat manzaralari, insonlarga xos xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijobiy psixologik xolatlar xursandchilik yoki aksincha, salbiy xolat g'am-alam, istirob, tushkunlik kabi hodisalar ifodalanadi. Musiqiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular kishilarning ongini o'stirish, estetik didini oshirib,irodaviy sifatlarini rivojlantirib, hissiyotini boyitishga emotsional ta'sir ko'rsatadi. Yuksak mahorat bilan bilan ijro etiluvchi mumtoz musiqa asarlarining barchasi insonda ko'tarinki kayfiyatni hosil kiladi. Mumtoz asarlarni doimiy ravishda o'rganib borish o'quvchilarda haqiqiy san'at asarlarining qiymatini

to’g’ri baholash ko’nikmalarini shakllantiradi. Musiqa ta’limi jarayonida o’quvchilarning tarbiyasi, psixologik xususiyatlari ham intensiv rivojlanadi. Binobarin, asarlarni o’rganish ularning his-tuyg’ulari, diqqati, idroki, xotirasi, fikrlashi va tasavvuri kabi psixologik xususiyatlariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Musiqiy asarlarning o’quvchilar tomonidan idrok etilishi, eng avvalo ularda diqqatni jamlash va uning barqarorlashga erishish ko’nikmalarini shakllantiradi.

Musiqa san’atini ijtimoiy madaniy nufuzini oshirish, uni xalqimiz ma’naviy hayotiga chuqurroq singdirish, qadriyatlar darajasiga ko’tarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu esa yosh avlodni tarbiyasi oilada, mahallada, jamiyatda komil inson bo’lib yetishishida poydevor bo’ladi.

Qo’shiqlarning g’oyaviy mazmuni, undagi obrazli holatlar ijrochiga katta ruhiy kuch bag’ishlaydi va uning tarbiyasini, tasavvurini yanada kengaytiradi. Mumtoz asarlarni tinglash va ularni bevosita ijro etish o’quvchilarning xotiralarini mustahkamlanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi. Ijrochining ichki ehtiyoji, hoxish-istagi, qiziqishi, bilim darajasi va ijro mahoratiga muvofiq tanlangan asar xotirada yaxshi saqlanishi bilan birga ijroning muvaffaqiyatini ham ta’minlaydi. O’rganilgan musiqiy asarlarning sonigina emas, balki ularning sifati talabalarda ijro tajribasining boyib borishini ta’minlaydi. Ijrochilik tajribasining darajasi o’quvchilarning badiiy didlarining yuksalishiga ijobiy ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida kuzga tashlanadi. Yangi asarni o’rganish jarayonida o’quvchi ilgari orttirgan malakalariga tayanish bilangina cheklanmaydi, balki yanada yangi va murakkab elementlardan foydalanishga intiladi. O’ziga xos psixologik holatlar o’quvchining badiiy tafakkurining yanada kengayib borishi uchun imkoniyat yaratadi. Mumtoz asarlarning g’oyaviy mazmuni va ohang tuzilishini tahlil qilish, matn va ohang tuzilmalarining jarangdorligi, nozik elementlarni his qilish, murakkab nola va qochirimlarni qiynalmasdan ijro etish hamda asarga xos barcha tafsilotlarni birlashtirib, umumiy xulosaga kelish o’quvchilarda musiqiy-badiiy estetik didning shakllanganlik darajasini yuqori deb baholanishi uchun asos bo’la oladi.O’zbek mumtoz musiqasi rivojlanishida jamiyatni,musiqa ijodkorlarni o’rni hissalari katta bo’lib,bolalarni tarbiyasida estetik didini dunyoqarashini kenkaytirishda milliy musiqalarimizni o’rni beqiyosdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash ta‘limning an‘anaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida o‘qish darslarining har bir jarayonida o‘quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o‘zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta‘lim jarayoniga to‘liq jalb etilishi yotadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan darsning an‘anaviy darsdan farqi shuki, bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib berishida ko‘rinadi. Bu imkoniyat o‘quvchiga hech qanday tazyiq o‘tkazmasdan, uning shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do‘stona munosabatdagi o‘quv muhitini yaratishidadir. O‘qitishning turli texnologiyalari pedagogik o‘yinlar, qiziqarli boshqotirmalar, rasmli ko‘rinishdagi rebuslar o‘quvchilarda o‘qish darslariga qiziqishlarini orttirish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilarda zamonaviy ta‘limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishning mohiyati-mazmunini tushuntirish, ularda muayyan tasavvurlarni hosil qilishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi konsepsiyasi. – Toshkent, XTB, 1995 yil.

2. Sharipova G. «Musiqa tarbiyasida metodika fanidan dastur». – T.: 1997-yil.

3. Aristotel. Poetika / Tarjima. N.I.Novosadskiy. – L., 1927. – S. 119 – 119.

4. Azimova, D., & Majidov, D. (2023). REGULATORY FRAMEWORK OF TEHNOLOGIES FOR STUDYING READING, MATHEMATICS AND NATURAL-SCIENTIFIC LITERACY THROUGH THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM FOR ELEMENTARY STUDENTS. GOLDEN BRAIN, 1(11), 229-233.

5. Majidov, D. (2020). O’quvchi shaxsining estitik kamolatida xalq qo’shiqlaridan foydalanish imkoniyatlari. Архив Научных Публикаций JSPI.

6. Fayzullaev, E.M., & Majidov, D. (2022). TAKING ADVANTAGE OF UZBEK CLASSICAL MUSIC OPPORTUNITIES FORMING MUSIC TEACHERS ARTISTIC TASTE. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(2), 34.

7. Majidov, D. (2021). Pedagogical And Psychological Issues Of Formation Of Aesthetic Culture Of Future Teachers. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(6).

UMUMTA'LIM MAKTABLARDA ADABIYOT FANINI O'QITISHNING SAMARALI METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamirov Ozodjon,
JDPU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'limning barcha bo'g'inlarida bo'lgani kabi adabiyot darslarini o'qitilishida ham fanlarning o'zaro aloqadorlik xususiyatlaridan maqsadli foydalanish ushbu fanning mazmunli va sifatli bo'lishini ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, fanlararo integratsiyalashuv, aloqadorlik, umumta'lim maktablari, musiqa, musiqa san'ati, o'quvchilar, estetik, pedagogik yondashuv.*

Yurtimizda ta'limni yaxshilashga, uni o'qitishni takomillashtirishga katta e'tibor berilyapti. Bu borada mamlakatimiz prezidenti tomonidan o'quvchilarga ta'lim berishning eng samarali usullarini tadbiq qilish haqidagi taklif va mulohazalari e'tiborga molik.

Shaxsni tarbiyalash – "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da Respublika ta'lim xodimlari zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklaydi. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni o'quvchilarni o'qitishga yangicha yondashish, o'qituvchilarni o'z kasbiga va o'zgalarga, ya'ni ta'lim oluvchilarga o'ta talabchanlik bilan munosabatda bo'lishni taqoza etadi. Pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almash-tirish, zamonaviy maktabga davr talablar asosida yondashish, darsga esa yangicha usullarning loyihasini tadbiq etish asosiy masalalardan biriga aylanmoqda. Shuningdek Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya haqida shunday degan: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni, ta'lim sifatini oshirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[1].

Pedagogik texnologiya amaliyotda bajariladigan ma'lum pedagogik tizim loyihasi ekanligi ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otadi. Odatda darsda ko'p gapiramiz, nazariy tushunchalar beramiz, biroq berayotgan ta'limimizning natijasi haqida o'ylamaymiz, uzundan-uzoq qilgan voizxonligimiz o'quvchi yoki talabalarimizning xotirasida mustahkam saqlanib qolayaptimi, ularning ruhiyatiga ta'sir qiluvchi qanday vositalarni qo'llayapmiz, nazariyani amaliyot bilan qay darajada bog'layapmiz, bu haqda o'ylab ko'rishning mavridi yetib kelmadimikan deb o'ylanib qolamiz. Dars jarayonida mavzuni taxlil qilish, jins va xodisalarni taqqoslab o'rganish muhim ahmiyat kasb etadi. O'qituvchi notiq tahlil yordamida voqea-hodisalarni qismlarga ajratib, tomonlarni fikran birlashtirib, bir butun holiga keltirib nutqda ifodalaydi. Tahlil va taqqoslash uzviy bog'liqdir. Sintezni taxlil jarayoni mavzu yoki voqea-xodisalarni qismlarga bo'lib, yana fikran birlashtirishdir. Interfaol darslarida masalaning mana shu tomoni yanada ravshanlashadi va sintez usuli eng qulay dars jarayonini ta'minlaydi.

Texnologiya yangicha usullar va vositalar tizimi bo'lib, ma'lum faoliyatning oldindan belgilangan natijalarini namoyon qiladi. Bu iborani ta'lim mezoniga bog'lab izohlamoqchi bo'lsak darsning miqdor va sifat jihatidan muvoffaqli chiqishini kafolatlaydi. Texnologik jarayonning yaxshi natija, samara berishini oldindan puxta loyihalashtirish va amalga oshirish, uning mujassamligiga bog'liq. Texnologiya usullarini dars jarayoniga tadbiq etish ko'p jihatdan

[1] Mamlakatimizning 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. T.: O'zbekiston, 2017. 104-b.

muhitga, sharoitga, ko’nikma va kuzatishlar bilan uzviydir. Turli xil usullarga dastlab ko’nikish, o’rganish bir qadar qiyin kechadi. Avval boshda o’qituvchida ham pedagogik mahorat yetishmay, qiyin vaziyatga tushib qolishi tabiiy bir hol. Keyinchalik darsning natijasi samaradorlikga olib keladi, interfaol darsning afzalligi o’z o’zidan namayon bo’la boshlaydi.

1. Tahlilni va o’ziga talabchanlikni kuchaytiradi.
2. Muommolarning yechimini osonlashtiradi.
3. Qiyosiy tahlil, qiyoslab o’rganish qulay usul.
4. Obrazlarni qiyoslash.
5. She’rlarni qiyoslash.
6. Adiblar ijodini qiyoslash.
7. Davrni qiyoslash.
8. Tarixiy jarayonni qiyoslash.
9. Yozuvchining uslubiy, tasviriy vositalarini qiyoslash.
10. Asarning zamonaviyligi, tarixiyligi to’g’risida baxs tug’dirish.
11. Obrazga nisbatan munosabat va mustaqil fikrlar.
12. Asar tizimining o’ziga xosligi haqidagi baxslar.
13. Asar mazmunini qayta hikoyalashda taqqoslash va sharqlash usuli.
14. “Diogramma Vena” usulida ikki asar yoki ikki obrazni qiyoslab, jadvalga solish.

Adabiyot fanining bevosita ona tili, tarix, biologiya, etnografiya fanlari bilan uzviy bog’liqligi barchaga ma’lum. Shuningdek, biz adabiyotni madaniyat, san’at, ma’naviyat, ruhshunoslik hamda musiqadan alohida ajratib ham o‘rgana olmaymiz. Bu haqida mamlakatimizda mutaxasislar hamda adiblarimiz tomonidan ko‘plab maqolalar e’lon qilingan. Qolaversa, o’rta maktab o’quvchilari uchun chiqarilgan 6 va 7-sinflar yangi ona tili darsliklarida alohida “Fanlararo aloqa” boblari keltirilgan bo‘lib, bunda fanlar bir-birini to’ldirishi, bir nuqtaga birlashtira olishi, ya’ni, fanlarni integratsiyalash nazarda tutilgan. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligi ancha keng bo’lib, u ta’lim jarayoning qulaylashtiradi, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi hamda o’quchilarning ta’lim va tarbiyasiga yangicha yondashadi.

Bugungi kun talabi ta’limga yangicha yondashishni talab etadi. O’quvchilarni Milliy ruhda tarbiyalash esa asosiy vazifalarimizdan biridir.

O’quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash eng avvalo ajdodlarimizni o’rganish bilan boshlanadi. Dastlab, xalq og’zaki ijodi va xalq og’zaki ijodi namunalari bo‘lmish, xalq qo’shiqlari, afsonalar ertaklar, miflar, aytishuvlar, topishmoqlar, tezaytishlar, maqollar hamda xalq dostonlari bilan tanishtirsak, so’ngra bosqichma bosqich adabiyot vakillarimiz hayoti va jodi bilan tanishtirib boramiz.

Shuningdek, o’quvchilarning nazariy ma’lumotlar bilan bir qatorda, ma’naviy bilimlari ham ortib boradi.

Ammo adabiyot darslarini o’tishda, ko’pgina qiyinchiliklarga duch kelamiz. Adabiyot darslarida o‘quvchilarga milliy ruhni singdirish ba’zan murakkablikni tug’diradi. Ba’zan nega aynan bu shoir yoki adibni o’rganyapmiz degan savol o’rtaga chiqadi. Vaholanki, mazkur adiblardan tashqari ham adiblarimiz talaygina-ku. Bu kabi savollarga javob berish uchun dars mazmunini o’quvchilarga to’liq ochib berishimiz kerak. Bu odatda qanday amalga oshadi?

Mavzu og’zaki tushuntiriladi,yo bo’lmasa o’qituvchi tomonidan tayyorlangan turli metodik o’yinlarni bajarish, interaktiv savollar berish bilan amalga oshadi. Tabiiyki, har doim ham og’zaki nutqda tushuntirish yoki muammoni o’rtaga qo’yib o’quvchining o’zini fikrlashga undash ham samara beravermaydi. Bunday muammolarni yechimi albatta fan o’qituvchisining mavzuga jiddiy tayyorgarlik ko’rishini talab etadi. Chunki jiddiy tayyorgarliksiz dars o’tish o’qituvhining o’ziga qiyinchiliklar tug’durishi sir emas.

Bundan tashqari o’quvchilar darsliklarda berilgan she’rlarni yodlashdan bo‘yin tovlashadilar. Ayniqsa, aruz vaznida yozilgan g‘azal, musamman, musaddas, mutazodlarni yod olish juda qiyin deb bilishadi. Bunday muammolarning yechimi birinchidan she’r matnini yaxshilab tahlil qilish, mazmunini jo’n va sodda qilib o’quvchilarga yetkazib berishdir. Ikkinchidan esa g’azal yoki she’rni musiqaga qo’shib o’quchilar ongiga singdirib yorish ham

yaxshi natija beradi. Biz quyida adabiyot fanini o’qitishda o’quvchilarni musiqa fani bilan hamohang olib borishni taklif qilmoqchimiz. Zotan, bolaning boshlang’ich savodini chiqarishda bola harflarni bir-biriga tizarkan, musiqiylikka jo’r bo’lgan holda savod chiqaradi.(harflarni cho’zib, ba’zan ovoz tonini o‘zgartirib o’qishga harakat qiladi). Buni biz ilk dafa o‘qishni o‘rganayotgan bolajonlarning Alifboni o‘rganishida guvohi bo’lamiz. Arab alifbosini o’rdanayotgan o’quvchilarda esa bu yanada yaqolroq namoyon bo’ladi. Tarixga nazar solganimizda esa biz jadid adabiyotimiz vakili ma’rifatparvar Hamza Hakimzoda Niyoziyning qoloq va qashshoq aholini ma’rifatli qilishdagi sa’y-harkatlarining guvohi bo’lamiz. U hali savodi yoq aholi uchun ma’rifat nurini sochish maqsadida o’zi yozgan she’rlariga milliy musiqalar yozib, she’rlarini ashula qilib xalqqa singdirib yuboradi. (Shoir katta yoshdagi kishilar uchun “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” nomi ostida “Gul” to’plamlarini e’lon qiladi). Shu sababdan bo’lsa kerak shoirning sher’rlari milliy marshlarga aylanib tillarda doston bo’lib ketadi.

Darsliklarda berilgan barmoq va aruz vaznida yozilgan she’rlarni musiqaga bog’lab o’rgatsak, natijaga erishishimiz oson bo’ladi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodini o’rgatishda Bobur g’azallariga bastalangan qo‘shiqlarni o‘quvchilarga eshittirsak, o’quvchilarda Bobur hayot yo’li haqida anchagina tushunchalar hosil bo’ladi. Qolaversa, Bobur portreti ko’z o‘ngida chiziladi. Biz tahlil qilayotgan sh’erda nima haqida bayon qilinayotgan bo’lda adabiyot o’sha fan bilan birlashadi.

Biz o’quvchilarga adabiyot o’qitish bilan birga ularning insoniylik ruhiyatini ham ko’tarishga harakat qilmog’imiz kerak. Ho’sh, nima deb o’ylaysiz, bu o’quvchilarga nima beradi? Biz quyida adabiyotni musiqa bilan hamohang tarzda o’qitishning bir qancha afzalliklarini sanab o’tamiz:

1. O’quvhilarning ruhiyati ko’tariladi
2. O’quvchilar g’azallarni tez va oson yodlashadilar
3. Yodlangan g’azallar o’quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi
4. Eshitish, tinglash qobilyatlari rivojlanadi
5. So’zlarni to’g’ri talaffuz qila oladilar
6. Darsda bolalar zerikmaydilar
7. G’azalni matnini tahlil qilshga yordam beradi
8. O’quvhilarga milliy ruhni beradi
9. Adibning individual jihatini farqlay oladilar
10. Eskirgan va tarixiy so’zlarni ma’nosini oson anglaydilar
11. Muammoga duch keladilar
12. Turli xil e’tirozlar bildira oladilar
13. O’zini baholay oladilar
14. Kommunikativ bilimlari shakllanadi
15. G’azal yoki she’r kim tomonidan ijro etilganini bilib oladilar

Biz quyida maktab adabiyot darsligida berilgan ayrim mavzularga mos holda tanlangan musiqa va ashulalardan namunalar ilova qilamiz.

T/r	Sinf	Mavzular	Mavzuga mos qo’shiqlar	Kim tomonidan ijro etilgan	QR kodi
1	8	“Kuntug’mish” dostoni	“Kuntug’mish” dostoni	Abdurashid baxshi Boymurodov	
2	8	Lutfiy hayoti va ijodi	“Xoh inon, xoh inonma” g’azali	Abdulla Shomag’rupov	
3	8	Lutfiy lirikasi	Lutfiyxonlik	Ozodbek Nazarbekov	
4	8	Alisher Navoiy hayoti va ijodi	“Mubtalo bo’ldim sango”	Zulayho Boyxonova	
5.	9	“Alpomish” dostoni	“Alpomish” dostoni	Shoberdi baxshi	

6	9	Ogahiy hayoti va ijodi	Mustahzod	Quvondiq Atajonov	
7	9	Furqat hayoti va ijodi	“Fasli navbahor o’ldu” g’azali	Tavakkal Qodirov	
8	9	“Sayding qo’yaber sayyod” musaddasi	“Sayding qo’yaber sayyod” musaddasi	Ziyoda	
9	9	Furqat lirikasi	“Kashmirda” g’azali	E’tibor Muzrobova	
10	9	Abdulla O’ripov hayoti va ijodi	“O’zbekiston Vatanim manim” she’ri	Bahrom Nazarov	
11	9	Omon Matchon hayoti va ijodi. “Vatan mehri” she’ri	“Vatan mehri” she’ri	Muyassar Razzoqova	
12	9	Omon Matchon lirikasi	Avvallarga o’xshamas	Sherali Jo’rayev	
13	10	Mashrab hayoti va ijodi	“O’rtar” g’azali	Nasiba Abdullayeva	
14	10	Alisher Navoiy hayoti va ijodi	“Ey, sabo”	Qobil Ibrohimov	
15	10	Navoiy lirikasi	“Aylagach” g’azali	Hosila Rahimova	
16	11	Erkin Vohidov	“O’zbegim” qasidasi	Sherali Jo’rayev	
17	11	Cho’lpon	Go’zal Turkiston	O’zbekiston jurnalistika va ommoviy kommunikatsiyalar universiteti talabalari	

“Fikriy hujum” (“Mozgovaya ataka”) metodi o’quvchi yoki talabalarning mashg’ulot jarayonidagi faolligini ta’minlab, erkin fikr yurtishga o’rgatadi. O’quvchilarni mustaqil fikrlash, muayyan mavzuni muhokama qilishga, yangi muommolarni keltirib chiqarishga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ko’ndalang turgan masalani hal etish, yechish jarayonini osonlashtiradi. Dars jarayonida o’rtaga tashlangan savol va uning javoblar luqma va hazil-mutoyiblardan iborat bo’lib, baxs-munozara mashg’ulotida o’quvchi yoki talabaning erkin ishtirokini oshiradi. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o’qituvchining pedagogik mahorati taffakur qo’lami kengligiga bog’liqdir. “Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog’ida o’quvchi yoki talabalar soni 15 nafardan oshmasligi lozim.

Yangi pedagogik texnologiya asosida darsni tashkil etish qadimgi sharqona tarbiya tamoyillaridan butunlay voz kechish degan gap emas. Yangi pedagogik texnologiya g’arb ta’lim jarayonining eng ilg’or tamoyillari bo’lsada, sharqona an’analar, pandnoma-didaktik ruhida tarbiyani kuchaytirishi hamma vaqt milliy tarbiyamizning asosini tashkil etadi.

“Bozor iqtisodi” bilan bog’liq davrda bolalarni biznesga o’rgatishning ham ahamiyati kattadir. Zeroki, bolalar ertangi kunda mustaqil hayotga qadam qo’yganlarida turli xil hayot to’siqlariga duch keladilar. Ana shu maqsadda “Aqliy hujum” uslubini qo’llagan holda, noan’anaviy uslubda o’tkazilgan “kichik va o’rta” biznesning afzalliklari va muommolari mavzusidagi dars ishlanmasini tajriba almashish jarayonida muhimdir.[1]

Mavzu: “Kichik va o’rta biznesning afzalliklari va muommolari”.

Dars maqsadlari: a) o’quvchilarga kichik, o’rta biznes, tadbirkorlik asoslari bo’lgan, xususan O’zbekistondagi biznes yo’nalishlari haqida bilim berish. B) o’quvchilarga taqqoslash, anglash, mustaqil fikrlashni o’rgatish; v) bozor iqtisodiyotiga o’tish davrining talablari, kichik va o’rta biznes korxonalarining respublikamiz xalq xo’jaligi uchun ahamiyati borasidagi bilimlarni mustahkamlash.

[1] Pedagogik mahorat” A.Xoliqov Toshkent, 2011.

Darsning tashkiliy qismi-o’quvchilar bilan salomlashgandan so’ng, ular 6 kishilik 4 ta guruhga bo’linadi.

Usluksiz ta’lim tizimida turli mazmundagi muloqotni tashkil etish, jarayonining milliy asoslari va mazkur jarayonda umuminsoniy kadriyatlar ustivorligi O’zbekiston respublikasi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan dir.

O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishining ma’naviy-axloqiy asoslari, o’qituvchining xamkasblari, o’quvchilar, jamoat tashkilotlarining vakillari va ota-onalari bilan muloqot kabi golobollashuv asosidagi pedagogik hamkorlik, bu borada muammolarni yechish, shu kunning asosiy masalalaridandir.

Sharq mutafakkirlari Yusuf xos Xojib, Kayovus Al-Xorazmiy, Abu

Bir soatlik ilm o’rganish uch kunlik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan ruzadan afzaldir deb donolar bekoga o’qtirishmagan. Shunday ekan har bir o’qituvchi o’z zimmasiga yuklangan burch va vazifani chuqur anglab yetgan holda, nihoyatda xayrli ishga qo’l urganini his qilish lozimdir.

Pedagogik tizim insoniyatning rivojlanishi davomida o’sib kelayotgan avlodni o’qitishga va tarbiyalashga bo’lgan zaruratdir. Demak, bu jarayonning qadimdanoq tizimi bo’lib, har bir davr uchun o’zining, davr talablariga javob beruvchi tizimi bo’lgan.

Adabiyot darslarida idrok xaritasidan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Idrok xaritasida o’quvchilar fikriy qobiliyatlarini xaritaga qarab yo’naltirib boradi. Ham o’quvchining ongiga tezda asar haqida ma’lumotlar keladi. Xaritada asar qahramonlarining rasmlari yoki yozuvchilarning asarlari yozilgan va ular ham mayda bo’laklarga bo’lingan holda shakllantiriladi.



Quyidagi xaritada ham badiiy uslub terminiga izoh berilgan. O’quvchilar bularni ko’radi ham o’qiydi va fikrlaydi. Demak badiiy uslubda nimalar berilgan va badiiy uslubga hos qaysi asarlar mavjud shu kabi savollarga javob berishadi.

Xulosa qilib aytganda adabiyot darslarida yuqoridagi metodlarni qo'llash o'qituvchiga ham o'quvchiga ham yaxshi samara beradi. Chunki bu metodlarni qo'llashga ko'p vaqt ketmaydi. O'quvchilar bu metodlar orqali o'z fikrlarini erkin ayta oladilar. Bu metodlarning barchasi o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakani shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T., 2004.
2. Pedagogika. Rasulov B. – T., 2016.
3. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar A.Tilovov, I.Saydullayev. – T.: "Sano-standart" 2016.
4. "Pedagogik mahorat" A.Xoliqov Toshkent 2011.
www.kahoot.com
www.quizizz.com
www.edu-games.org

AMALIY SAN'AT DARSLARIDA TALABALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING BADIIY TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTDAGI HOLATI

Xoshimova Umida Talat qizi,
Nizomiy nomidagi TDPU ning mustaqil tadqiqotchisi.
(90) 984-88-08

Annotatsiya. *Pedagogika oliy o'quv yurtlarida falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya, matematika va boshqa fanlardan saboq beriladi. Lekin ular har bir soha ixtisoslik fanlariga moslashtirilgan tarzda o'qitilmaydi. Shu qatorda, mantiq fani barcha sohalar kabi pedagogika universitetlarida ham o'rgatiladi, lekin o'sha mutaxassislikni o'ziga xos tomonlari hisobga olinib o'rgatilishi lozim.*

Аннотатсия. *В педагогических вузах преподаются философия, этика, эстетика, логика, психология, математика и другие предметы. Но их преподавание не адаптировано к каждой области специализации. Кроме того, в педагогических вузах преподают науку логику, как и все направления, но преподавание этой специальности должно осуществляться с учетом ее особенностей.*

Abstract. *Philosophy, ethics, aesthetics, logic, psychology, mathematics and other subjects are taught in pedagogical universities. But they are not taught in a way that is adapted to each field of specialization. In addition, the science of logic is taught in pedagogical universities, like all fields, but this specialty should be taught taking into account its specific aspects.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, islohotlar, mantiq, badiiy tahlil, tafakkur, fikrlash qobilyati, mantiqiy fikrlash, rivojlanish, ta'lim metodlari.*

Ключевые слова: *образовательная система, реформы, логика, художественный анализ, мышление, умение мыслить, логическое мышление, развитие, методы обучения.*

Keywords: *educational system, reforms, logic, artistic analysis, thinking, ability to think, logical thinking, development, educational methods.*

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim mazmunini umuminsoniy qadriyatlar va xalqimizning tarixiy-madaniy an'analari asosida tashkil etishga keng yo'l ochib berdi. Natijada ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Ayni paytda ular takomillashtirilmoqda, modernizatsiya qilinmoqda. Komil inson g'oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak

ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g’oyadir.

Zamonaviy dunyoda bilimli, yuqori malakali aholi bir mamlakat uchun muvaffaqiyatning kaliti ekanligini e’tirof etgan rus jurnalist va yozuvchisi G.S.Petrovning ta’kidlashicha, Finlandiya ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida shuni ko’rish mumkinki, mamlakatda ta’limning sifatining yuqori darajaga qo’yilishi, mamlakatni bir zamonlar botib qolgan “botqog’i”dan qutilib chiqqaniga guvoh bo’lishimiz mumkin.[1]

Pedagogika oliy o’quv yurtlarida falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya, matematika va boshqa fanlardan saboq beriladi. Lekin ular har bir soha ixtisoslik fanlariga moslashtirilgan tarzda o’qitilmaydi. Professor S.S.Bulatov tadqiqoti shuni ko’rsatadiki, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishlarida kompozitsiya, amaliy san’at, naqqoshlik, chizmatasvir, rangtasvir, san’at tarixi va boshqalar bilan birga tarix, oliy matematika, mantiq, falsafa, psixologiya, etika kabi umumkasbiy fanlar o’qitiladi. Lekin ularda umumkasbiy fanlar tasviriy va amaliy san’at fanlari bilan uyg’unlikda bog’lab o’rgatilmaydi.[2]

Shu qatorda, mantiq fani barcha sohalar kabi pedagogika universitetlarida ham o’rgatiladi, lekin o’sha mutaxassislikni o’ziga xos tomonlari hisobga olinib o’rgatilmaydi. Shuning uchun ham, tayyorlayotgan kadrlarimizda maxsus fanlar bo’yicha mantiqiy fikrlash, mushohada yuritish yetarli darajada shakllanmoqda deya olmaymiz. Bu holni oddiy savol-javoblardan ham bilib olishimiz mumkin. Badiiy iqtisoslikka yo’naltirilgan kadrlarning kasbiy sifatini yanada oshirish maqsadida o’quv rejadagi falsafaga ajratilgan soatlarning muayyan qismini mantiq faniga ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir ixtisoslikka mantiqni shu fan yo’nalishi bilan bog’lab, uzviy aloqadorlikda o’qitish kerak. Buning uchun dars beruvchi mutaxassis rassom-faylasuf, amaliy san’at ustasi-faylasuf, tilshunos-logik, musiqashunos-logik, ximik-logik iqtisoslik tafsilotlarini yaxshi bilgan mutaxassis bo’lishi lozim. Shunda, o’qituvchi ustoz o’z talabasiga Amaliy san’atning qonun va kategoriyalarini amaliy bezak san’ati misolida teran tahlil qilib bera oladigan bo’la oladi.

Mantiq – bu fikrlash haqidagi fan. Fikrlash bundan tashqari psixalogiya, oliy nerv tizimi fiziologiyasi va boshqa sohalarning asosiy tshunchasi hisoblanadi. Xo’sh, nima sababli fikrlash mantiq faninig asosi hisoblanadi? Sababi, mantiq fikrlash tizimi va tafakkur rivojlanishi, asosiy qoidalari va metodlari, hamda asosiy qonunlarini o’rganadi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy esa shunday deb yozadi: “Inson nutqqa ega bo’lgan va o’zining muxoliflari bilan dunyoviy va oxirat ishlari haqida bahs-munozara yuritganligi sababli o’z so’zlarida “mezonga” muhtoj bo’ldi. Gap o’z zoti bilan rostni ham, yolg’onni ham o’z ichiga olish ehtimoli borligidan mezon yordamida uni izchil tekshirish va shu yo’sinda uning shubhali yerini tuzatish kerak bo’lgan. Zeroki, bu bilan mubohasalarda so’zlardan tuzilgan sillogizmlarning kishini adashtiruvchi yolg’oni ham, haqiqatni ochuvchi rosti ham ayon qilingan. Inson shu mezonni topdi. Uni mantiq deyiladi.”[3]

Antik davrda mantiqqa “organon”, ya’ni bilimlarni asoslash quroli deb qaralgan bo’lsa, o’rta asrlar Yaqin va O’rta Sharq mantiqshunoslari uni “chin fikrni yolg’ondan ajratib ko’rsatuvchi tarozu” deb bilganlar. Abu Homid G’azzoliyning mantiqqa bag’ishlangan asarini “Al-qustas al-mustaqim”, ya’ni “to’g’ri tarozu” deb nomlanishi fikrimizni tasdiqlaydi. O’rta asrlar Yevropa mantiqshunoslari uni “kashfiyotlar qilish usuli” sifatida talqin qilganlar.

Nemis mantiqshunos olimi I.Kant esa mantiqni “kanon”, ya’ni fanlarni o’rganish qonunlarini beruvchi fan deb ta’riflagan. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o’rni va unda o’rganadigan masalalar doirasidan kelib chiqib, uni “propedevtika”, ya’ni boshqa fanlarni o’rganishga tayyorlovchi fan deb atash mumkin.[4]

Demak, mantiqni boshqa fanlarni o’rganishga tayyorlovchi fan deb qaraydigan bo’lsak, albatta, tasviriy san’at va amaliy san’at darslari jarayonida talabalarga tasviriy san’atni mantiq

[1] G.Petrov. Oq nilufarlar yurtida. Inglizchadan N.Sultonmurodov tarjimasi. Faktor press. Toshkent, 2021.
[2] Булатов С.С, Соипова М.С. “Бадиий таҳлил тамойиллари”, “Фан ва технология“ нашриёти, Т., 2016. 262 б.
[3] Абу Райхон Беруний. Геодезия. Т., 1982. – Б. 64.
[4] Mamadiyeva N.X. Falsafa (Mantiq qismidan). O`quv uslubiy qo`llanma. – T.: ToshDTU, 2021. – 79 b.

faniga bog’lagan holda o’tilishi maqsadga muvofiq bo’ladi desa bo’ladi. Amaldagi o’quv rejani ko’radigan bo’lsak, Mantiqga Falsafa fani tarkibida 6 soat ajratilgan. Bu ajratilgan dars soati faqat 1 bosqich talabalariga tegishli. Qolgan bosqichlarda Mantiq faniga soatlar ajratilmagan. Achinarlisi, pedagogika universiteti “Professional ta’lim” fakulteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi talabalarining badiiy estetik kompanentini rivojlantirishda mantiq faniga 4 yillik o’quv jarayonida bor yo’g’i 6 soatlik dars soati ajratilganidadir.

Mantiq va tasviriy san’atning o’zaro aloqadorligini tahlil etgan falsafa fanlari nomzodi, dotsent D.N.Demenov tadqiqotlariga ko’ra, badiiy jarayonda mantiqnining mohiyati “buni shunday qilish kerak” yoki “boshqa yo’l bilan emas”, balki jarayonning o’zgaruvchanligiga qarab o’zgaruvchan bo’lishi mumkinligida ifodalanadi. U o’rganilayotgan san’atning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlariga qarab farq qilishi mumkin. Mantiq badiiy taraqqiyot bosqichida har xil bo’lishi mumkin: makrodarajada badiiy jarayon- badiiy obrazlarning shakllanish mantig’iga; makro darajasiga – keng qamrovli badiiy uslublar va yo’nalishlarda mujassamlangan ko’plab formal yechimlar. Mantiq dunyoni ongli va ongsiz ravishda aks ettirish, shuningdek, san’atda o’z-o’zini namoyon qilish – ko’p qirrali badiiy jarayonning xilma-xilligining kichik bir qismidir.

D.N.Demenyov o`z tadqiqotlarida mantiq va tasviriy san`atning bog`liqligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Estetik mantiq – rangdan mantiqning umumiy qismi sifatida foydalanmoqda. Estetik mantiq- bu rassomda asarining shakl va mazmuni o’rtasidagi munosabatda ifodalanib, vaqt omili orqali o’zini namoyon qilish faoliyatidir. Bu mantiq badiiy jarayonning o’zgaruvchanligiga qarab o’zgaruvchan bo’lishi mumkin”.[1]

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda tasviriy va amaliy san’at yo’nalishlarida mantiq fani tasviriy san’at va amaliy san’atga bog’lab dars jarayonlari tashkil etilgan va bu borada maqolalar yozilib, ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi talabalariga mantiq fani nafaqat tasviriy san’at va amaliy san’at darslari jarayonida, balki muhandislik grafikasi yo’nalishida ham nuqtalarning fazoviy koordinatalarini belgilashda, binolarning inter’er va ekster’erini chizishda ham muhim bo’lak hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu yo’nalish bitiruvchilari badiiy va amaliy ijod bilan shug’ullanishlari uchun mantiqiy tafakkurlari rivojlangan bo’lsa yaratgan san’at asarlari kolorit va serma’no yechimlarga ega kompazitsiyaga aylanishi mumkin. Hamda, mantiqiy fikrlashi rivojlangan talabalar tasviriy va amaliy san’at asarlarini mazmun mohiyati, ortida yashirilgan sir-asrorlarini falsafiy g’oya sifatida tahlil qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Абу Райхон Беруний. Геодезия. Т., 1982. – Б. 64.
2. Булатов С.С., Соипова М.С. “Бадиий таҳлил тамойиллари”, “Фан ва технология” нашриёти, Т., 2016. 262 б.
3. Mamadiyeva N.X. Falsafa (Mantiq qismidan). O’quv uslubiy qo’llanma. – T.: ToshDTU, 2021. – 79 b.
4. G.Petrov. Oq nilufarlar yurtida. Inglizchadan N.Sultonmurodov tarjimasi. “Faktor press”. Toshkent, 2021.
5. Д.Н.Деменёв. Кандидат философски хнаук доцент, О логике художественного процесса. Статья из рубрики "Философия и искусство" / 2017.
6. Свинцов В.И., Логика: Учеб. для вузов. – М.: Высш.шк., 1987. – 287 с.
7. Ю.В.Ивлев, Логика: учеб. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Белби, Изд-во И25 Проспект, 2005. – 288 с.

[1] Д.Н.Деменёв. Кандидат философских наук доцент, О логике художественного процесса. Статья из рубрики "Философия и искусство" / 2017.

MASHG'ULOT JARAYONIDA NOAN'ANAVIY DARS USULLARINI QO'LLASH ORQALI TARBIYALANUVCHILARNING IJTIMOIY INTELLEKTINI OSHIRISH

Yusupova Nilufar Sobirjanovna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali magistranti

Annatatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida noanaviy mashg'ulotlarni o'tishda tarbiyalanuvchilargan qanday axamiyatliroqligi hamda pedagoglarni kompatenligini oshirish.*

Kalit so`zlar: *noan'anaviy mashg'ulotlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, noan'anaviy metodlar texnologiyasi, noan'anaviy faoliyatlarning bola ta'lim va tarbiyasidagi ahamiyati, noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining vazifalari.*

Annotation. *In this article, the importance of non-traditional training in pre-school education organizations is more important than that of students and to increase the competence of pedagogues.*

Key words: *non-traditional activities, modern educational technologies, technology of non-traditional methods, importance of non-traditional activities in child education and upbringing, functions of non-traditional educational technologies.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение нетрадиционной подготовки в дошкольных организациях как для воспитанников, так и для повышения компетентности педагогов.*

Ключевые слова: *нетрадиционная деятельность, современные образовательные технологии, технология нетрадиционных методов, значение нетрадиционной деятельности в обучении и воспитании детей, задачи нетрадиционных образовательных технологий.*

Noan'anaviy ta'lim aniq bir mavzudan uzoqlashmagan holda, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda, turli ta'lim metodlaridan foydalanib mashg'ulotni tashkil etishdir.

An'anaviy ta'lim – ta'lim tizimining negizidir. Uni noan'anaviy qilish uchun esa bolajonlarni qiziqtiradigan yangi texnologiyalaridan foydalanish kifoya. Davr shiddat bilan o'zgarib borayotganligi sababli maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun nostandart, noan'anaviy yondashuvni talab qiladi

Har bir markazda noan'anaviy tarzda olib borish mumkin. Bola markazlarga qiziqishi uygonadi va intellekti oshadi. Mashgulotda didaktik hamda ta'limiy oyinlardan AKT texnalogiyalardan foydalanib mashg'ulotlarga yangicha texnalogiyalar bilan foydalanib inavatsiya yaratsakgina bolada qiziqish hamda intellekti oshibdi. Noan'anaviy faoliyatlarning vazifalari: bolaning rivojlanish darajasini yaxshilash; insonning axloqiy fazilatlarini, qarashlari va individulliligini shakllantirish; tarbiyalanuvchilarda bilimga qiziqish, ijodkorlik, iroda, his-tuyg'ular, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatishda – nutq, xotira, e'tibor, tasavvur, idrok. Ta'limni noan'anaviy tashkil etish shakllari hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida eng samarali qo'lanmoqda. Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalami bilish kerak? Jiozirgi zamon pedagogikasi va psixologivasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifhing mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O 'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi. Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o ‘zaro bir-biri bilan bog'liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash] Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi[1]

Mashg’ulotning noan’anaviy shakllari guruh xonasining barcha tarbiyalanuvchilarning majburiy ishtiroki bilan amalga oshiriladi, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar ko’ruv va eshituv analiztorlarining tez refleksiv tarzda harakatlanishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi blalar uchun noan’anaviy faoliyatlarni tashkil etish faoliyatlarda uslubiy, pedagogik va psixologik xarakterdagi maqsadlarga erishish mumkin. Bular quyidagilar: talabalarning ma’lum bir mavzu bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilinadi; maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatlarni jiddiy qabul qilish ko’nikmasi vujudga kelib, ijodiy muhit tashkiletiladi; tarbiyachi faoliyat davomida minimal ishtirok etadi; Ta’lim jarayonining pedagogik samaradorligini pasaytiradigan noan’anaviy faoliyatlarning kamchiliklariga quyidagilar kiradi: Ijobiy o’zgarishlar – bilim va ko’nikmalar sifatining oshishi, talabalar rivojlanishidagi siljishlar prognozining yo’qligi. Hamma tarbiyachilar faoliyatlarning asosiy g’oyasini, uning rivojlantirvchi imkoniyatlarini aniqlay olmaydilar; Reproduktiv ta’lim texnologiyalarining tarqalishi. Ta’lim jarayonining mazmuniga emas, balki asosan uni tashkil etish shakliga e’tibor beriladi. Ba’zi bir faoliyat turlarida haddan tashqari didaktik materiallar ortiqcha yuklanadi; Faoliyatlar doimo integratsiyalashgan, ko’ngil ochar shaklda tashkil etiladi. Bu kabi faoliyatlarda alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lmagan faktik materiallar bilan ishlash ustunlik qiladi; Noan’anaviy faoliyatlarni tashkil etishda qo’yiladigan talablar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachi, pedagoglari, psixologlari noan’anaviy faoliyatlarni tashkil etishda bir necha talablarga javob berishlari kerak. Bular quyidagilar: Noan’anaviy faoliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini umumlashtirish va mustahkamlashda yakuniy mashg’ulot sifatida ishlatilishi kerak.

2. Boburmirzo, Kukiev., Achilov, Nurbek, Norboy o‘g‘li & Bekqulov, Qudrat, Shaydulloyevich. (2019). Technology for creating images in autocad. European Journal of Research and Reflection in Educational Science. 7 (12), 4954-220.

3. Shaydulloyevich, B.K. (2020). Increasing students’ graphic literacy through teaching the sciences of drafting and descriptive geometry. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 75-78.

4. Achilov Nurbek Norboy o‘gMi, Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, Ko‘kiyev Boburmirzo Baxodir o‘g‘li & Jumayev Isroil Omandovlat o‘g‘li (2020). Methods of developing creative abilities in children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (10), Part II, 151-153.

5. Ozodboyev, I. O. (2022). DRAWING ASSEMBLY DRAWINGS USING AUTOCAD COMPUTER GRAPHICS SOFTWARE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(11), 1085-1091.

SPORT TURIZMI ASOSIDA MASHG'ULOTLARINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Shomirzayeva N.X.,
JDPU v.b.dotsenti
Ravshanov S.,
JDPU talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turizm asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining inson asab tizimini me'yorlashtirishi, yurak-qon tomir tizimini yaxshilashi, jiddiy kasalliklar xavfining oldini olishi va semizlikni bartaraf etishi kabi jarayonlar yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm, jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlar, jismoniy mashg'ulotlar reaksiyasi, harakat turlari, gorizontal, mehnat qobiliyati, gavda holati, o'yinlar, sport turizmi, yurish, nafas olish.*

Annotation. *In this article, the processes such as normalization of the human nervous system, improvement of the cardiovascular system, prevention of the risk of serious diseases and elimination of obesity of physical education training on the basis of tourism are highlighted.*

Key words: *tourism, physical education, physical exercises, reaction to physical training, types of movement, horizontal, working ability, posture, games, sports tourism, walking, breathing.*

Аннотация. *В данной статье выделены такие процессы, как нормализация нервной системы человека, оздоровление сердечно-сосудистой системы, предотвращение риска тяжелых заболеваний и устранение ожирения физкультурными тренировками на базе туризма.*

Ключевые слова: *туризм, физическое воспитание, физические упражнения, реакция на физическую нагрузку, виды движений, горизонталь, работоспособность, осанка, игры, спортивный туризм, ходьба, дыхание.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni qabul qilindi. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda ularni jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish belgilab qo‘yilgan.[1] Turizm va jismoniy mashg’ulotlarning inson salomatligiga ta’siri deganda, biz avvalo jismoniy mashq tushunchasini anglamog’imiz zarur. kishi ning jismoniy taraqqiyot darajasini oshirish uchun maxsus tanlangan harakatlar. Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning asosini tashkil qiladi. Jismoniy tarbiya amaliyotida tarkib topgan jismoniy mashqlar (odamning mehnat, turmush, harbiy faoliyatidan olingan harakat va amallar asosida – yugurish, sakrash, irg‘itish, tosh ko‘tarish, suvda suzish va b.) gimnastika, yengil atletika, og‘ir atletika, harakatli va sport o‘yinlari, sport turizmi va h.k.ni keltirib chiqardi.[2] Ilmiy asosda tanlangan jismoniy mashqlar barcha harakat organlarining faoliyatini yaxshilaydi, mehnat qobiliyatini oshiradi. Jismoniy mashqlar turlari to‘g‘ri va aniq tasnif qilinishni taqozo etadi. Shunda ulardan ko‘zlangan samaraga erishish mumkin. Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi bo‘lib, u tarixan gimnastika, o‘yinlar, sport va turizm tarzida guruhlarga ajratilib, tarbiya jarayonining vositasi sifatida foydalanib kelindi. Jismoniy mashq – deb, jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi.[3] Ko‘pchilik jismoniy mashqlarning foydaliligi ko‘p hollarda faqat dastlabki holatga bog‘liq bo‘lmaydi, balki harakat jarayonidagi butun gavda holati yoki uning ayrim qismlari holatining muayyan, ancha foydaliroq vaziyatda bo‘lishiga ham bog‘liq. Masalan

turizmning gorizontal holati, konkichi va velosipedchining bukchayib olishi tashqi muhit qarshiligini kamaytiradi va bu bilan gavdaning tezroq oldinga harakat qilishiga imkon beradi.[4] Jismoniy mashqlar inson organizmiga ta'siri: Qonning qon oqimiga hissa qo'shadigan venoz gemodinamika;Qonda xolesterol miqdori kamayadi. Jismoniy mashqlar bajarishda, keyinroq qoldirmang teri osti to'qimalari yoki tanasi va tana tomonidan sarflangan kemalar. Qon mushaklarini qon bilan ta'minlaydi, umumiy qon oqimi va qon bosimi normallashtiriladi; Tananing turmush darajasini yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri har qanday kasallikka yoki oldingi kasalliklarga chidamliligi darajasini belgilaydi.; Asosiy rol. bu jarayon o'ynash asab tizimi. [5] Bu birinchi navbatda jismoniy mashqlarning tonna ta'siri: markaziy asab tizimida qo'zg'alish va tormozlash jarayoni mutanosib, vegetativ funktsiyalar normallashtiriladi, miyadagi turli xil tormoz sharoitlari buzilmoqda. turli xil organlar Bu uning ko'rsatmalarini va muvofiqlashtiruvchi faoliyatini takomillash-tirishga qaratilgan. Shunga ko'ra, individual organlar va tizimlarning funktsiyasi normal holatga keladi.[6] Masalan, asosiy sabab postlarning buzilishi bolalarda sodir bo’ladi. Bu to'qimalarning anatomik nuqsonlari va patologik qayta tug'ilishi emas va asab stereotipi yo'qligi to'g'ri holatni saqlash ko'nikmaidir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti qonunlarida inson omili eng muhim vositalardan biridir. Bunda inson salomatligi, jismoniy holatlar, jismoniy rivojlanish va chiniqishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning salomatligi, mehnat (aqliy va jismoniy) qobiliyatini oshirish, umrni uzaytirish, o'quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini tarbiyalash va sportchilarning mahoratlarini oshirishda jismoniy tarbiyaning tabiiy-ilmiy asoslari eng ustuvor tadbirlardan hisoblanadi. O'zbekistonning iqlim sharoiti, xalq xo'jaligining turli tarmoqli-ligi, aholining ko'p millatligi o'quvchi-yoshlarning jismoniy barkamolligini tarbiyalashdek o'ta muhim, muammolarni hal etishda jismoniy tarbiya va sport, uning tabiiy-ilmiy asoslari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son farmoni qabul qilindi.[1]

2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T., 2001.[2]

3. Jo'rayev R.M. Jismoniy tarbiya va sport fiziologiyasi – Samarqand 2019 223 b. [3]

4. Муғаллим ҳем узликсиз билимлендири Илимий-методикалық журнал “Turizm va sport uyg‘unlik jarayonida jamiyatdagi roli”. № 6/5 – 2022 жыл. [4]

5. Ta’lim, fan va innovatsiya jurnali. “Talabalarni sport turizmga qiziqishini rivojlantirish”. 5-son, 2022-yil 33 – 35 b. [5]

6. Kasb-hunar ta’limi jurnali. “Sport turizmini sayohatlar yordamida talabal o‘rtasida ommalashtirish”. №4, 2022 80 – 84 b. [6]

BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI O‘RNI

Shomurzaeva N.X.,
JDPU v.b.dotsenti
Toshniyozov S.M.,
JDPU talabasi

Annotatsiya. *Oliy ta’lim muassasalarida sportning ommaviyligini yanada oshirishda talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan an’anaviy spartakiadalar muhim o‘rin tutadi. Bu tadbir sport-sog‘lomlashtirish bayrami sifatida o‘tkazilib, unda minglab talabalarimiz, professor-o‘qituvchilarimiz ishtirok etib, o‘z salomatliklarini mustahkamlamoqda.*

Annotatsion. *Traditional sports competitions among students and professors play an important role in further popularizing sports in higher education institutions. This event is held as a sports and health holiday, which is attended by thousands of students, professors and teachers, who are improving their health.*

Kalit so'zi: *jismoniy tarbiya,sport,tugarak,mashk,uyin.*
Keywords: *physical education, sports, circle, exercise, game.*

Aholining salomatligini yaxshilash, o‘quvchi-yoshlarning jismoniy barkamolligini ta’minlash, ularni mehnat va mudofaa ishlariga layoqatli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning ko‘p tarmoqli va ko‘lami keng, chuqur bo‘lgan tarbiyaviy hamda pedagogik imkoniyatlardan maqsadli foydalanish mavjud. Buni quyidagilardan ko‘rishimiz mumkin:

Rivojlangan jamiyatda fuqarolarni ongli va faol qilib tarbiyalash vositalari ichida jismoniy tarbiya va sport alohida o‘rin tutadi. Aholining faol qismi bo‘lgan oliy ta’lim muassasalarining talabalarini jamiyat talabi darajasida, faol qilib tarbiyalashda, shaxs sifatida shakllantirishda jismoniy tarbiyaning, ommaviy sportning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bois, Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi (1992 yil). Hozirgacha qonun sharhi va respublikada sportni, alohida sport turlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘nlab qarorlar qabul qilinib, ularni hayotga tadbiq etish bo‘yicha misli ko‘rilmagan amaliy ishlar bajarildi. Bu ishlarning natijasi sifatida, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev rahbarligida har uch yilda o‘tkaziladigan uch bosqichli musobaqalar bugungi kunlarda yosh, barkamol avlod tarbiyasida muhim natijalar bermoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida sportning ommaviyligini yanada oshirishda talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan an’anaviy spartakiadalar muhim o‘rin tutadi. Bu tadbir sport-sog‘lomlashtirish bayrami sifatida o‘tkazilib, unda minglab talabalarimiz, professor-o‘qituvchilarimiz ishtirok etib, o‘z salomatliklarini mustahkamlamoqda. Jismoniy madaniyat, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish, shu sohada faoliyat yuritish, shaxsning shaxsiy va ijtimoiy faol rivojlanishida, butun dunyoda o‘zaro tushunish, bir-biriga yordam berish va tinchlik poydevorini yaratish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

U talabalarda quyidagi eng muhim imkoniyatlarni rivojlantiradi;

Bizning bugungi kunlarimizdagi sharoitda, sport va jismoniy madaniyat insoniy va ijtimoiy boylikni son va sifat jihatidan oshishiga olib keluvchi, eng samarali vosita sifatida, rivojlanishning qat’iy va asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Biz jismoniy madaniyatni, ommaviy sportni, sport musobaqalarini, mashqlar bilan shug‘ullanishni va jismoniy faoliyatni universitetlarni rivojlantirish konsepsiyasida o‘quv dasturlari va dasturdan tashqari ishlarning ajralmas qismi sifatida tan olishimiz va tushunishimiz lozim.

- oliy ta’lim tizimida har bir talabaga beriladigan va har bir talaba uchun jismoniy madaniyat va sportni o‘z ichiga oladigan bir sport turi bo‘yicha o‘qitish dasturini ishlab chiqishimiz va muvofiq ravishda rasmiy guvohnoma berishimiz yoki oliy ta’limda aniq ball beruvchi tizimni joriy qilishimiz lozim.

- universitetlarning talabalarga, professor-o‘qituvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga, ularning jismoniy madaniyati, sport faoliyati uchun va qiziqish hamda qobilyatlariga qarab sport inshootlari va asbob-uskunalarni berish, imtiyozli taqdim etishga tayyor bo‘lish lozim.

- universitetlarni jismoniy madaniyat, jismoniy faoliyat va sport bo‘yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va boshqa, sohaga oid ma’lumotlarni o‘rganish va tadqiqot qilish markaziga aylantirish;

- universitetlarni madaniyat almashish maqsadida, ta’lim va axborotlar almashish markaziga aylanib borishini ta’minlash;

- universitetlar o‘rtasida milliy va xalqaro darajadagi sport aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni yanada kuchaytirishdek vazifalar kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son farmoni qabul qilindi.

2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T., 2001.

3. Jo'rayev R.M. Jismoniy tarbiya va sport fiziologiyasi – Samarqand 2019 223 b.

4. Муғаллим ҳем узликсиз билимлендири Илимий-методикалық журнал “Turizm va sport uyg‘unlik jarayonida jamiyatdagi roli”. № 6/5 - 2022 жыл.

5. Ta’lim, fan va innovatsiya jurnali. “Talabalarni sport turizmga qiziqishini rivojlantirish”. 5-son, 2022-yil 33 – 35 b.

6. Kasb-hunar ta’limi jurnali. “Sport turizmini sayohatlar yordamida talabal o‘rtasida ommalashtirish”. №4, 2022 80 – 84 b.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA XOTIN-QIZLAR SPORT MASHQLARI

Shomurzayeva N.X.,
JDPU v.b.dotsenti
Abdulhakimova G.S.,
JDPU talabasi

Annatatsiya. *Jismoniy ish hajmini belgilashda, xotin-qizlar organizmning tuzilishi va funktsional xususiyatlarini chuqur bilgan holda berilishi shart, aks holda ularning salomatligi yomonlashib, jiddiy jarohatlar olishi, hatto nogiron bo`lishiga olib keladi. Ma`lumki har bir ayol onalik burchini o`taydi, kelgusi avlodni sog’lom, baquvvat bo`lishi, eng avvalo onaning salomatligiga bog’liqligini unutmasligimiz zarur.*

Ka’lit so’zlar: *Xotin-qizlar, Ayollarning bo`yi o`rtacha 165 sm, ayollarni oyoq-qo`llari qisqa, ayollar skeleti nozikroq, yengilroq.*

Annotatsion. *In determining the amount of physical work, women must be given a thorough knowledge of the structure and functional properties of the body, otherwise their health will deteriorate, leading to serious injuries and even disability. It is known that every woman is a mother. We must not forget that the health and well-being of the next generation depends, first of all, on the health of the mother.*

Keywords: *Women, The average height of women is 165 cm, women have shorter limbs, women's skeletons are thinner and lighter.*

Turli yoshdagi xotin-qizlarning jismoniy mashqlar bilan shug’ullanishi asosan ikkita maqsadga qaratilgan bo`lib, ularning biri salomatlikni yaxshilash bo`lsa, ikkinchisi sport sohasida erkaklar bilan yonma-yon turib, imkoniyatlarini namoyon qilib, o`z shon-shuxratini himoya qilishdir. Ma`lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanuvchi xotin-qizlarning soni yildan yilga ortib bormoqda. Bu holat respublikamizda kun sayin sportning rivojlanayotgani va yashash tarzimizda ro`y beradigan o`zgarishlar bilan bog’liqdir. Xotin-qizlar organizmining ish qobiliyati erkaklar organizmining ish qobiliyatidan bir oz darajada past bo`ladi, bu xotin-qizlar organizmining anatomik va fiziologik xususiyatlariga bog’liq. Shuning uchun xotin-qizlarni sportda yuqori natijalarga erishishlari uchun beriladigan jismoniy yuklamalar va mashqlar hajmini yuqori darajada belgilash maqsadga muvofiq. Jismoniy ish hajmini belgilashda, xotin-qizlar organizmning tuzilishi va funktsional xususiyatlarini chuqur bilgan holda berilishi shart, aks holda ularning salomatligi yomonlashib, jiddiy jarohatlar olishi, hatto nogiron bo`lishiga olib keladi. Ma`lumki har bir ayol onalik burchini o`taydi, kelgusi avlodni sog’lom, baquvvat bo`lishi, eng avvalo onaning salomatligiga bog’liqligini unutmasligimiz zarur. Buning uchun ayollar sportini olib boruvchi har bir mutaxassis, har bir murabbiy ayollar organizmning jismoniy imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur. Xotin-qizlar organizmining jismoniy ish qobiliyatlari erkaklar organizmining jis-moniy ish qobiliyatidan past bo`lishiga sabab xotin-qizlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlariga bog’liq. Bu xususiyatlarni taqqoslash natijasida quyidagi tafovutlarga duch kelamiz. Ayollarning sport bilan muntazam shug’ullanishi natijasida ular organizmining tuzilishi va funktsiyasida ijobiy o`zgarishlar yuzaga keladi. Jismoniy mashqlarni to`g’ri qo`llash, mashg’ulot hajmini to`g’ri belgilash, kuch va chidamlilik harakat uygunligini takomillashtiradi. Gavda tarkibida yog’ to`qimasi kamayadi, mushaklar va

boylamlar rivojlanadi, o`pkaning tiriklik sig'imi ortadi, nafas olish tezligi kamayadi, yurak urishi sekinlashadi, energiya sarfi kamayadi, organizmning turli kasalliklarga chidam-liligi ortadi, ish qobiliyati yaxshilanadi, qomat go`zallashadi, homiladorlik davrida u o`zini yaxshi his etadi, bola tug'ilishi oson bo`ladi. Ayollar organizmida ijobiy o`zgarishlarning yuzaga kelishida, ularning gimnastika mashqlari bilan shug'ullanishi alohida ahamiyatga egaligini ta`kidlash zarur. Ayniqsa, hozirgi vaqtda ritmik gimnastikani keng yoyilishi bu fikrimiz dalil bo`ladi.

Organizmni jismoniy sog`lomlashtirish usullari turli tuman bo'lib, har bir shaxs o'z imkoniyatidan va intilishidan kelib chiqqan holda, o'zi uchun qulay bo'lgan turlarini tanlab olishi va muntazam ravishda shug`ullanishi lozim. Jismoniy mashq bilan shug`ullanishda quyidagilarga amal qilish zarur. Jismoniy sog'lomlashtirish usullari orasida qulayligi va ommaviyligi jihatidan keng qo'llaniladigan turi bu ertalabki gigienik gimnastika mashqlaridir. Mashqlarni har kuni ertalab belgilangan rejim asosida bajarish va bajarish jarayonida chuqur va to'g`ri nafas olishni nazorat qilish zarur. Buning uchun esa xona havosini almashtirib turish lozim. Ertalabki gimnastika mashqlari samaradorligini oshirish uchun: gantel, gimnastika tayoqchasi, sakratuvchi ip, to'p va boshqalardan foydalaniladi. Mashg`ulotlarning davomiyligi 15 – 20 daqiqadan oshmaydigan, yurak urishi har daqiqada katta yoshdagilarda 90 – 100, bolalarda esa 100 – 110 bo'lishi me'yoriy holat hisoblanadi. Ertalabki soatlarda o'tkaziladigan gigienik gimnastika, uyqudan bedorlikka, tetik holatga o'tish va faol mehnatga kirishib ketishning hamda kuch g`ayratga ega bo'lishning eng yaxshi usulidir. Ertalabki gimnastika mashg`ulotlarini tanlashda har kim o'z salomatligi holatidan kelib chiqishi, yoshini hisobga olishi lozim. Odatda ertalabki gimnastika mashg`ulotlari 10 – 30 daqiqagacha davom etib, 9 – 16 xil mashg`ulot turlarini o'z ichiga olishi, ayniqsa tana va qorin mushaklarini mustahkamlovchi, bo'shashtiruvchi mashg`ulotlar bo'lishi kerak. Bunday mashg`ulotlar qon tomir tizimini, ko'krak qafasi harakatini, nafas olishni yaxshilaydi. 50 yoshdan oshgandan so'ng ertalabki gimnastika mashg`ulotlarini bajarishdagi zarur bo'lgan tezlik, ritm talablarini to'liq bajarishga harakat qilmaslik lozim. Bu yoshdagi kishilar nafas olish ritmini buzish, kuchanish, boshni pastga tushirish, tortilish, aylanib tushish, keskin o'tirib turish kabi mashg`ulotlarni bajarishdan chetlanishi lozim. Nafas olish mashg`ulotlarini bajarishda tik turgan holda qo'lni ko'tarib bir-biridan uzoqlashtarish nafas olishga; qo'llarni tushirib, oldinga va yonga engashish hamda oyoqlarni bukish nafasni chiqarishga yordamlashishini yodda saqlash lozim. Mashg`ulotlarni bajarishda ularning eng soddasidan boshlab, asta-sekin murakkablashtirib borish lozim. Dastlab qo'llardagi mayda mushaklar bilan mashq qilishni boshlash so'ngra katta mushaklarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Demak har kuni ertalabki gimnastika mashg`ulotlarini bajarish uchun 10 – 30 daqiqagacha vaqt ajratsangiz siz kun bo'yi o'zingizga zarur bo'lgan g`ayrat va tetiklikka ega bo'lasiz, organizmning turli xil kasalliklarga qarshi kurashish imkoniyatini oshirgan bo'lasiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir insonning sog'ligi o'z qo'lida bo'lib, uni ertalabki bajariladigan gimnastikalar orqali mustahkamlab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmoni qabul qilindi.

2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T., 2001.

3. Jo'rayev R.M. Jismoniy tarbiya va sport fiziologiyasi – Samarqand 2019 223 b.

4. Муғаллим ҳем узликсиз билимлендири Илимий-методикалық журнал “Turizm va sport uyg‘unlik jarayonida jamiyatdagi roli”. № 6/5 – 2022 жыл.

5. Ta'lim, fan va innovatsiya jurnali. “Talabalarni sport turizmga qiziqishini rivojlantirish”. 5-son, 2022-yil 33 – 35 b.

6. Kasb-hunar ta'limi jurnali. “Sport turizmini sayohatlar yordamida talabal o‘rtasida ommalashtirish”. №4, 2022 80 – 84 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SON-SANOQQA O'RGATISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Umrqulova Marjona Sunnatovna,
JDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Annotasiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni son-sanoqqa o'rgatishda multimedia vositalaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование мультимедиа в обучении детей дошкольного возраста счету.*

Annotation. *This article discusses the use of multimedia in teaching preschool children to count.*

Tayanch so'zlar: *multimedia, mediamadaniyat, media ta'lim, progressiv pedagogik texnologiya, nutq, kreativ fikrlash, kognitiv qobiliyat, mediapedagog, operatsion zal, animatsiya effekti, videotasvirlar, grafikli tasvirlar, ma'lumot grafiklari, mikrofon, kompakt disk, matn, grafika, tovush, multimedia mahsuloti.*

Ключевые слова: *мультимедиа, медиакультура, медиаобразование, прогрессивные педагогические технологии, речь, творческое мышление, познавательные способности, медиапедагог, операционная, анимационный эффект, видео, графика, информационная графика, микрофон, компакт-диск, текст, графика, звук, мультимедийный продукт.*

Key words: *multimedia, media culture, media education, progressive pedagogical technology, speech, creative thinking, cognitive ability, media educator, operating room, animation effect, video, graphics, information graphics, microphone, CD, text, graphics, sound, multimedia product.*

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshida yechilishi kerak bo'lgan vazifalar hal qilinmasa, maktabgacha o'qitish muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Bu vazifalardan biri konkret bilimlar va tafakkur usullaridan abstrakt bilim va usullarga o'tishdan iborat. Bu xil o'tish saviyasi, ayniqsa, matematika o'qitish uchun zarurdir. Bunday savyaining bo'lmasligi yoki etarli bo'lmaligi ikki tomonlama qiyinchilikka olib keladi. Bir tomondan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ko'pincha maktabga mavhum matematik usullarni egallagan holda keladilar, bularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bolalar maktabda abstract bilimlarni egallar ekanlar, ko'pincha ularni formal, asl mazmunini tushunib etmagan holda o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham konsret shart-sharoitlarda matematik usullarni egallagan holda keladilar, bularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bolalar maktabda asbtrakt bilimlarni egallar ekanlar, ko'pincha ularni formal, asl mazmunini tushunib etmagan holda o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham konkret shart-sharoitlarda matematik bilimlarni qo'llanish imkoniyati juda cheklangan bo'ladi. Shu sababli maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitishning muhim vazifasi matematik asbtraktlashlar bilan konkret borliq orasidagi bog'lanishni ta'minlaydigan bilim va harakatlarning oraliq saviyasini shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Tekshirishlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalarga matematika o'qitishda o'tish saviyasi mazmuni quyidagilardan iborat:

Birinchidan, shunday faoliyat va masalalarni o'zlashtirish kerakki, ularda matematik operasiyalarni qo'llashning zarurligi bolalarga yaqqol ko'rinib turadi. Bu, bir tomondan, bolaning seminar faoliyati bilan bevosita bog'liq (tenglashtirish, taqqoslashga oid) masalalar, ikkinchi tomondan, ularga shunday shartlar kiritiladiki, bunda mazkur masalalarni matematik vositalardan foydalanmay turib (masalan, fazoda ajratib qo'yilgan ikki to'plamni amalda tenglashtirish) amalga oshirish mumkin bo'lmaydi.

Ikkinchidan, muhitning shunday munosabatlarini ajratish kiradiki, bu munosabatlarni qo'llanish bolaga konkret buyumlardan matematik obektlarga o'tish (masalan, buyumlarni

ma’lum belgilari bo’yicha guruhga kiritish va shu asosda to’plam munosabatlarini, tenglik – tengsizlik munosabatlarini, qism – butun munosabatlarini hosil qilish) imkonini beradi.

Tekshirish natijalari shuni ko’rsatadiki, matematik operasiyalar maktabgacha yoshdagi o’zlashtirilgan shunday masalalar va munosabatlar asosida kiritilsa va qayta ishlansa, matematikani egallash samaraliroq bo’ladi. Yo haddan tashqari konkretlik, yo matematik bilimlarning formalligi tufayli paydo bo’ladigan qiyinchiliklar mao’kur holda paydo bo’lmaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o’qitishda matematik bilimlar tarkibini tekshirish tenglik – tengsizlik, qism – butun munosabatlari, bilvosita tenglashtirish sanoq va arifmetik amallarni to’liq va ongli o’zlashtirish uchun asos bo’ladigan sodda masalalar va munosabatlarning o’zidan iborat ekanini ko’rsatdi. Bu munosabat va masalalarni (ularning eng sodda shakllarini bolalar 3 yoshdan boshlab tushuna boshlaydilar. Ular bunday mashg’ulotlarga katta qiziqish bilan yondashadilar, xuddi shu erning o’zida o’zlashtirganlari (tenglik, qism – butun va h.k. munosabatlari)ni o’yinlarga ko’chiradilar, turmushda seminar ishlar qilishda foydalanadilar, bir – birlariga (katta va tayyorlov guruhi bolalari) shunga o’xshash masalalarni taklif qiladilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurlarnini o’rganish, tekshirish asosida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish dasturi tuzildi. Bu dastur quyidagi besh bo’limdan iborat: “Miqdor va sanoq”, “Kattalik”, “Geometrik figuralar”, “Fazoda mo’ljal olish”, “Vaqtga nisbatan mo’ljal olish”.

Maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalarini sanoqqa o’rgatishdagi bosh vazifalardan biri bir to’prlam elementlarini ikkinchi to’plam elementlari bilan taqqochlash, solishtirish yo’li orqali bolalarni to’plamlarni taqqoslashga o’rgatishdan iborat. Bu dastlabki bosqich kelgusida sanoq faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bola miqdoriy taqqoslash usullarini egallaydi. Bola sanashni bilmaydi, shu sababli u oldin taqqoslanayotgan to’plamlarning qaysinisi ko’p qaysinisi kam ekanini, yoki ular teng quvvatli ekanini aniqlashni o’rganadi. Bolalarda kelgusida matematik tasavvurlarni rivojlantirish ko’p jihatdan sanoqqa o’rgatishning boshlang’ich davriga bog’liq.

Ikkinchi kichik guruhda tarbiyachi bolalarda to’plam alohida bir jinsli elementlar (buyumlar) majmui haqidagi tasavvurni rivojlantirishi kerak.

O’qitishni buyumlarining sifat, xossalarini ajratishga oid mashqlardan boshlash kerak. Masalan, bir qancha o’yinchoqlar ichidan xuddi tarbiyachi qo’lidagidek o’yinchoqni topish taklif qilinadi. “Xuddi shunday o’yinchoqni topish taklif qilinadi. “Xuddi shunday kubchani (bayroqchani, sharni) ber”. Shundan keyin har kubchani (bayroqchani, sharni) ber”. Shunday keyin har xid rangli (o’lchamli, shakldagi) 2 – 3 ta buyum orasidan xuddi shu rangdagi (o’lchamli, shakldagi) buyumni tanlash topshirig’i beriladi.

Navbatdagi bosqich berilgan belgi – alomatlari bo’yicha buyumlarni tanlash va guruhlarga ajratishga, oid mashqlardan iborat bo’lishi kerak. Masalan: “Qizil rangli hamma kubchalarni mana bu qutiga sol, bu qutiga esa hamma kichik matryoshkalarni yig’, mana bunisiga esa hamma katta matryoshkalarni yig’”. Bunday mashqlar natijasida bolalar har xil buyumlarning umumiy belgilari bo’yicha bir guruhga birlashtirish mumkin ekanini tushuna boshlaydilar: “Bular qo’g’irchoqlar”, “Bular koptoklar”, “Bular bayroqchalar” kabi.

Tarbiyachi bolalarni guruhdagi buyumlarning birov qismi uchungina umumiy bo’lgan belgilarni ko’ra olishga o’rgatadi. Masalan, bayroqchalar ko’pligini, ammo ularning ba’zilari sariq, bu’zilari esa ko’k ekanini ko’rsatadi. (Sariq bayroqchalar ko’p, ko’k bayroqchalar ham ko’p).

Miqdor haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda bir jinsli (bir xil) buyumlardan guruhlar tuzish va guruhni alohida buyumlarga ajratishga doir har xil o’yin – mashqlar ma’lum o’rinni olishi kerak. Odatda bu o’yin – mashqlar ma’lum o’rinini olish kerak. Odatda bu o’yin mashqlar darsda ma’lum izchillikda o’tkaziladi.

Birinchi mashg’ulotda bir xil o’lcham va rangli mutlaq aynan o’yinchoqlarning – sabzilar, archalar, jo’ja qancha bo’lsa, o’yinchoqlar ham shuncha bo’lishi kerak. Tarbiyachi dastlab bolalarga bittadan o’yinchoq ulashadi, o’z harakatlarini ushbu so’zlar bilan tushuntiradi: “Men

archalar juda ko’p. Men bolalarning hammasiga bittadan archa berib chiqaman. Menda bitta ham ham archa qolmaydi...” shunday keyin bolalarga murojaat qiladi “Har biringizda nechtadan archa bor?” Shundan keyin tarbiyachi hamma o’yinchoqni yig’ib oladi, bunda u bitta ham yo’q (bolada) juda ko’p (tarbiyachida) so’zlariga urug’ beradi.

Mashqni boshqa o’yinchoqlar bilan yana bir marta takrorlash mumkin. Har gal tarbiyachi ko’p, bitta, bittadan, bitta ham yo’q, hech narsa yo’q so’zlarini ishlatadi; “Qancha?”, “Qanchadan?” – savollarini qo’yadi. Kichkintoylar buyumlarni va ular qanchadanligini (ko’p, bitta) aytadilar. Mashg’ulotning borishida bolalar to’plam alohida yuumlarga ajralishiga va alohida buyumlardan tuzilishi mumkinligiga ishonch hosil qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamrayeva, A. (2021). Ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnoloik yondoshuv. *Мактабгача таълим журнали*.

2. Hamrayeva, A. (2021). Педагог тарбиячиларда компетентликни ривожлантириш. *Мактабгача таълим журнали*, *3* (Preschool education journal).

3. Hamrayeva A. – Мактабгача таълим журнали, 2021 Ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnoloik yondoshuv.

4. Development of professional competence of the future pedagogical teacher X.A.Farxadovna – European Journal of Molecular&Clinical Medicine, 2021.

5. Oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni A.F.Xamrayeva – Academic research in educational sciences, 2021.

6. Хамраева, А.Ф. (2021). БЎЛАЖАК ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИ-НИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИНГ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, *2*(10), 1082-1086.

7. Хамраева, А.Ф. (2021). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТАВФСИФИ. *Academic research in educational sciences*, *2*(10), 1110-1114.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA O‘QUV JARAYONNI SAMARALI TASHKILLASHDA FOLKLOR NAMUNALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Mashrabboyev Toxirjon Mamatojiyevich,
Oltiariq pedagogika kolleji
onatili va dabiyot fani o’qtuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘quv jarayonini samarali tashkillashda xalq og‘zaki ijodi namunalari mazmuni, ta’lim va tarbiya jarayonida keng qo‘llanadigan xalq og‘zaki ijodi namunalari, folklore asosida ta’lim berishning interfaol metodlari haqida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiyachi, o‘yinli ta’limiy faoliyat, interfaol metod, ertak, vatanparvarlik, o‘quv jarayoni, sahnalashtirish, ertak qahramonlari, vatan tuyg‘usi.*

Hozirda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar yosh xususiyatlariga mos rivojlanish ko‘rsatkichlarini namoyon qilmoqda. Ammo bugungi globallashuv jarayoni bolalarga ta’lim-tarbiya berishda o‘quv jarayonini faqat bolaning aqliy salohiyatini rivojlantirish bilan chegaralanib qolmasdan, kelajak poydevori bo‘lgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida, o‘zbek xalqiga, millatiga hurmat tuyg‘usi asosida rivojlantirish metodikasini yaratish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Bu esa, MTTning o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish va uni amaliyotga joriy etishni yangi metodlarini ishlab chiqish, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi o‘yinli ta’limiy faoliyatlarni “Xalq og‘zaki” ijodi bilan integratsiyasini ta’minlashni taqazo etmoqda.

Tarbiyachi tomonidan taklif etilgan topshiriqlarni bajarish bilan birga bolalar o‘zlariga berilgan rollar, ertak qahramonlarining obrazlari, she’rlar orqali, o‘rtoqlarining quvonchiga, qayg‘usiga sherik bo‘lish, o‘stirgan guli qurib qolsa qayg‘urish, birovlarning narsasini so‘roqsiz olmaslik, o‘rtog‘i yiqilsa turg‘izib qo‘yish, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘lish kerakligini tushunib, “uvol”, “gunoh”, “savob”, “haq”, “nohaq” kabi so‘zlarning ma’nosini tushunib boradilar.

Xalq og‘zaki ijodi orqali tashkil etilgan faoliyatlar orqali bolalarda vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik qislari, milliy g‘urur, iftixor, mustaqillik g‘oyasi hamda o‘z hududi, o‘lkasi, xalqiga mehr va sadoqat kabi ulug‘ fazilatlar, milliy qadriyatlar shakllanadi. O‘zga xalqlarning hikoya, ertaklarini o‘qishi, eshitishi natijasida ularda umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar shakllana boshlaydi. Shuning bilan bir qatorda bolaning qalbi va ongiga badiiy adabiyot orqali interfaol metodni singdirish jarayonida quyidagi natijalarga erishiladi:

- folklor orqali bolalar tarixni o‘rganadilar, tarixdan xulosa chiqaradilar va saboq oladilar;

-folklor namunalari orqali “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal, umuman ezgulik” g‘oyasi singdiriladi;

-bolalarda mustaqil, erkin fikrlash ko‘nikmalari shakllantiriladi;

-bolaning badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishlari, ijobiy munosabatlari orttiriladi;

-bolalar ijodkorlikka o‘rgatiladi.

Xalq og‘zaki ijodining quyidagi janrlaridan maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘quv jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir: folklorning kichik shakllari, she’riy ertaklar, hikoyalar, she’rlar.

Ayni paytda bola uchun adabiy obrazlarning emotsional jozibadorligi quyidagi hollardagina ortadi: ya’ni,

- agarda badiiy mazmun uning qabul qilishi uchun imkon doirasida bo‘lsa;
- badiiy ertak yorqin va ifodali taqdim etilsa;
- bola badiiy matn mazmunini tashqi xarakatlarda ifodalasa;
- badiiy ertak asosida o‘zi ham improvizatsiya qilsa.

Xalq – bolalarning betakror o‘qituvchisidir. Xalq dahosi bilan yaratilgan ertaklar yosh avlodning tarbiyasiga kuchli ta’sir qiladi va ma’naviy hissiyotini uyg‘otadi. [1]Xalq ertaklaridan boshqa hech qaysi ertaklarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko‘ra bir-biridan zo‘rg‘a farq qiladigan so‘zlarni hayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik yumor, sanoq she’rlar – pedagogik ta’sir ko‘rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo‘rqoqlik, o‘jarlik, injiqlik, faqat o‘zini o‘ylash kabi hislatlarga qarshi yaxshigina “malhamdir”.

Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning hayvonot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o‘z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o‘zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni ertaklar vositasida tarbiyalash tizimini takomillashtirishda aniq metodologik yondashuv va nazariyalarga asoslanish, tarixiy-falsafiy, milliy pedagogic-psixologik omillarning yaxlitligi va birligini hisobga olish maqsadga muvofiq. Bolalar xayolot olamini boyitish va turmush bilan kengroq tanishtirish uchun xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qib berish, uning multfilmlarini tomosha qildirish yoki ertaklarni sahnalashtirish yo‘llaridan foydalanish juda katta ahamiyatga egadir. O‘zbek xalq ertaklari, ular asosida ishlangan milliy multfilmlar, qo‘g‘irchoq teatrlar, sahnalashtirilgan ertaklar faqat bolalarnigina emas, balki kattalarni aqliy, shuningdek axloqiy jihatdan tarbiyalovchi eng qudratli omildir.

[1] Jumabayev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. – Toshkent. 2006. 41-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-y.

2. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. 2022-y.

3. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamovna M.N. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: “Tafakkur”, 2019 y. 146-B.

4. N.M. Quchqorova. Pedagogik kasbiy kompitentligi va kreativlik. Darslik. “Bookmany print”. T., – 2022-y.189-b.

BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING INNNOVATSION FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARINI TASHKIL QILISH

Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti fizika-matematika fakulteti informatika kafedrasi stajyor o‘qituvchisi,
Qo‘qon, 150700, O‘zbekiston
maxkamovadilshodaxon@gmail.com

Annotatsiya. *Bo’lajak o’qituvchilarning innnovatsion faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanib o’quv jarayonni tashkil qilishning samarali usullari haqida maqolada so’z yuritiladi. Darslarda foydalanish uchun onlayn platformalar, ta’limiy kontentlar tayyorlovchi saytlar, elektron topshiriqlar to’plamlarining ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari haqida yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Bo’lajak o’qituvchi, raqamli texnologiyalar, onlayn ta’lim platformalari, elektron ta’lim resurslari, kvest topshiriqlar, innovatsion faoliyat, interaktiv darslar.*

So'nggi yillarda ta'limga raqamli texnologiyalarning integratsiyasi ta'lim vazifalarini tayyorlash va o'quv jarayonida foydalanish usullarini tubdan o'zgartirdi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan o'qituvchilar endi topshiriqlarni yanada interaktiv, qiziqarli va o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirgan ko'plab onlayn platformalar va vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Raqamlashtirishga o'tish o'qitish usullarini takomillashtirish va talabalarning faolligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Ushbu kichik mavzuda biz o'qituvchilar turli xil ta'lim uslublariga mos keladigan va asosiy tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan innovatsion va samarali ta'lim vazifalarini yaratish uchun raqamli texnologiyalardan qanday foydalanishi mumkinligini o'rganamiz.

Elektron ta'lim platformalari raqamli asrda ta'lim vazifalarini tayyorlash va talabalarga etkazish usulini inqilob qildi. Ushbu platformalar interfaol darslar va viktorinalardan tortib video darslar va simulyatsiyalargacha bo'lgan keng ko'lamli ta'lim resurslarini taqdim etish uchun texnologiyadan foydalanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, o'qituvchilar turli xil o'rganish uslublari va afzalliklariga mos keladigan qiziqarli va dinamik o'rganish tajribasini yaratishi mumkin. Onlayn ta'lim platformalari, shuningdek, o'qituvchilar va talabalar uchun moslashuvchanlikni taklif qiladi, bu ularga o'quv materiallariga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirish imkonini beradi. [1, 2]

Ta'lim vazifalariga raqamli texnologiyalarni kiritishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalar uchun yanada qiziqarli va interaktiv ta'lim tajribasini yaratish qobiliyatidir. Raqamli vositalardan foydalangan holda, o'qituvchilar turli xil o'rganish uslublari va afzalliklariga mos keladigan vazifalarni ishlab chiqishlari mumkin, bu esa ta'lim jarayonini shaxsiylashtirilgan va samaraliroq qiladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o'quv vazifalari sifatini oshirish, talabalarga eng so'nggi ma'lumotlar va multimedia kontentidan foydalanish imkoniyatini beradigan keng ko'lamli resurslar va materiallarni taklif etadi. [3, 4]

Bu nafaqat talabalarning faolligini oshirishga yordam beradi, balki tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va muammolarni hal qilishda ijodkorlikni rag'batlantiradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni ta'lim vazifalariga integratsiyalash talabalar uchun o'quv tajribasini sezilarli darajada boyitishi mumkin.

Onlayn ta'limga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, elektron ta'lim platformalari samarali o'qitish va o'qitish strategiyalarini osonlashtiradigan innovatsion vositalar va resurslarni taqdim etish orqali ta'lim jarayonini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu tahlilda biz ushbu platformalar raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali an'anaviy ta'lim amaliyotlarini qanday o'zgartirayotganini o'rganamiz. [5, 6]

Vazifalarni tayyorlash uchun onlayn resurslar va o'quv ilovalaridan foydalanish ta'lim sohasida keng tarqalgan amaliyotga aylandi. O'qituvchilar endi o'z o'quvchilari uchun qiziqarli va interaktiv vazifalarni yaratishda yordam beradigan keng turdagi raqamli vositalardan foydalanishlari mumkin. Ushbu manbalar o'qituvchilarga o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun vazifalarni osongina moslashtirishga imkon beradi, bu interfaol viktorinalar, multimedia taqdimotlari yoki hamkorlikdagi loyihalar orqali. [7, 8, 9]

Ushbu raqamli texnologiyalarni o'z darslarini rejalashtirishga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning faolligini oshirishlari, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari va shaxsiy o'rganish uchun imkoniyatlar yaratishlari mumkin. Bundan tashqari, onlayn manbalar va ta'lim ilovalari o'qituvchilarga o'quvchilarning fikr-mulohazalari yoki yutuqlari asosida real vaqt rejimida vazifalarni moslashtirish uchun moslashuvchanlikni taklif qiladi va natijada barcha ishtirokchilar uchun yanada dinamik va samarali ta'lim tajribasiga olib keladi. [10, 11]

Baholash vositalari talabalarning onlayn ta'limdagi yutuqlarini kuzatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu vositalar o'qituvchilarga o'z o'qitish strategiyalarining samaradorligini o'lchashga va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishga yordam beradi. Onlayn ta'limda qo'llaniladigan ba'zi umumiy baholash vositalariga viktorinalar, testlar, insholar, loyihalar va muhokama taxtalari kiradi. Bu vositalar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning materialni tushunishlarini baholash, ularning vaqt o‘tishi bilan erishgan yutuqlarini kuzatish va takomillashtirish bo‘yicha o‘z vaqtida fikr bildirish imkonini beradi. [12]

Bundan tashqari, ma'lumotlar tahlili va ta'limni boshqarish tizimlari talabalarning ishlashi va faollik darajasi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Ushbu baholash vositalaridan samarali foydalanish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning o'quv maqsadlariga erishishlarini va onlayn ta'lim sayohatlarida muhim yutuqlarga erishishlarini ta'minlashlari mumkin. [8]

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonida samaradorligini tahlil qilish ushbu vositalarning ta’lim natijalarini qanchalik oshirishi va o‘quvchilarni jalb etishini baholashni o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalarning o‘quvchilar faoliyatiga, faolligiga va motivatsiyasiga ta’sirini o‘rganib, o‘qituvchilar ta’lim vazifalarini takomillashtirishda ularning samaradorligini aniqlashlari mumkin.

Raqamli vositalarning o'rganishni osonlashtirishdagi muvaffaqiyatini aniqlashda mavjud-lik, foydalanuvchilarga qulaylik va interaktivlik kabi omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. [10]

Bundan tashqari, talabalar taraqqiyoti va fikr-mulohazalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish turli raqamli texnologiyalarning kuchli va zaif tomonlari haqida qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Ushbu vositalar ta'lim jarayoniga qanday hissa qo'shishini tushunib, o'qituvchilar o'quvchilar uchun yanada interfaol va samarali o'quv muhitini yaratish uchun ularni o'qitish amaliyotiga integratsiya qilish haqida ongli qarorlar qabul qilishlari mumkin. [8]

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. "The rise of ONLINE LEARNING PLATFORMS and their benefits for students", linkedin.com, Unknown, https://www.linkedin.com/pulse/rise-online-learning-platforms-benefits-students-ed-admin, Web, Accessed 28. Mar 2024

2. D.X.Makhkamova. “THE IMPORTANCE OF DISTANCE LEARNING TECHNOLOGIES IN THE TRAINING OF FUTURE INFORMATICS TEACHERS”.

Academia Repository, vol. 4, no. 10, Oct. 2023, pp. 86-89, https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/3.

3. D.X.Makhkamova. “METHODOLOGY FOR TEACHING FUTURE INFORMATICS TEACHERS TO PROPERLY DESIGN A LESSON AND EFFECTIVELY ORGANIZE A REINFORCEMENT SECTION OF THE LESSON”. *Academia Repository*, vol. 4, no. 10, Oct. 2023, pp. 355-9, https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/214.

4. D.X.Makhkamova. “THE IMPORTANCE OF DISTANCE LEARNING TECHNOLOGIES IN THE TRAINING OF FUTURE INFORMATICS TEACHERS”. *Academia Repository*, vol. 4, no. 10, Oct. 2023, pp. 86-89, https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/3.

5. "Unveiling E-Learning Platforms: Features, Benefits & Working", knovator.com, Unknown, https://knovator.com/blog/understanding-e-learning-platforms/, Web, Accessed 28. Mar 2024

6. S.V.Mamadzhanova. “TEACHER’S CHOICE OF ORGANIZATIONAL FORMS OF LEARNING IN A VIRTUAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT AS A PEDAGOGICAL PROBLEM”. *Open Access Repository*, vol. 9, no. 12, Dec. 2022, pp. 109-12, doi:10.17605/OSF.IO/2RWDK.

7. Mamajanova Svetlana Valentinovna. “APPLICATION OF AR TECHNOLOGY IN EDUCATION”. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, vol. 11, no. 11, Nov. 2023, pp. 171-5, https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/5918.

8. S.V.Mamadzhanova. “USING SCRIBING TECHNOLOGY IN COMPUTER SCIENCE LESSONS”. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, vol. 10, no. 12, Dec. 2022, pp. 360-4, https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/4586.

9. "Teachers' digital technology use after a period of online teaching | ELT Journal | Oxford Academic", academic.oup.com, Unknown, https://academic.oup.com/eltj/article/77/4/445/6972857, Web, Accessed 28. Mar 2024.

10. "How Does Technology Impact Student Learning?", bau.edu, Unknown, https://bau.edu/blog/technology-impact-on-learning/, Web, Accessed 28. Mar 2024.

11. "The 8 Best Online Learning Platforms for your School – BookWidgets", bookwidgets.com, Unknown, https://www.bookwidgets.com/blog/2016/12/top-8-online-learning-platforms, Web, Accessed 28. Mar 2024.

12. "Importance Of Online Assessment In Education – Sumadi", sumadi.net, Unknown, https://sumadi.net/importance-of-online-assessment-in-education/, Web, Accessed 28. Mar 2024.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINI KASBGA TAYYORLASHDA INFORMATIKA VA AXBOROT-TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Axmedov Shavkatbek Baltabayevich,
Andijon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Respublikamizda va dunyoning rivojlangan davlatlarida ta’lim sohasini isloh qilinishida pedagogika va axborot texnologiyalarining rivojlanishida zarur axborotlarni mustaqil izlab toppish hamda muammoni qo‘yish va uning yechimini hal etish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va yangi masalalarni yechishda qo‘llashga qodir mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan.*

Maqolada bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini kasbga tayyorlashda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari ko‘rib o‘tilgan. Ta’lim sohasini isloh qilish jarayonida informatika va axborot texnologiyalarining rivojlanishi zarur axborotlarni mustaqil izlab topish, muammoni qo‘ya bilish va uning yechimini hal eta olish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va yangi masalalarni yechishda qo‘llay oladigan mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot, texnologiya, pedagogika, muammo, ta’lim, tahlil, mutaxassis, muhit, qiziqish, qobiliyat, tamoyil.*

Аннотация. *В процессе реформирования сферы образования в нашей стране и в развитых странах мира необходимо развитие педагогических и информационных технологий для подготовки специалистов, способных самостоятельно искать необходимую информацию, уметь ставить проблемы и решить ее, критически проанализировать полученные знания и применить их при решении новых задач.*

В статье освещены вопросы эффективного использования передовых педагогических и информационных технологий в подготовке будущих учителей информатики. В процессе реформирования сферы образования развитие педагогических и информационных технологий должно быть направлено на подготовку специалистов, способных самостоятельно искать необходимую информацию, уметь ставить проблему и решать ее, критически анализировать полученные знания и использовать их, это для решения новых задач.

Ключевые слова: *информация, технология, педагогика, проблема, образование, анализ, эксперт, среда, интерес, способность, принцип.*

Annotation. *In the process of reforming the education sector in our country and in the developed countries of the world, it is necessary to develop pedagogical and information technologies to train specialists who are able to independently search for the necessary information, be able to pose problems and solve it, critically analyze the knowledge gained and apply it in solving new problems.*

The article highlights the issues of effective use of advanced pedagogical and information technologies in the training of future computer science teachers. In the process of reforming the education sector, the development of pedagogical and information technologies should be aimed at training specialists who are able to independently search for the necessary information, be able to pose a problem and solve it, critically analyze the knowledge gained and use it. it is for new challenges.

Keywords: *education, information, technology, problem, analysis, expert, environment, interest, ability, principle.*

Dunyo miqiyosida oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida o‘zaro integartsiya axborot almashinuvga asoslangan hamkorligining prinsipial yo‘nalishlari keng tadqiq qilib kelinmoqda. Shu nuqtai nazar bilan birga kasb ta’limi o‘qituvchilari sifati va raqobatbardoshligining jamiyatdagi ehtiyojlari va ta’lim talablariga mosligini ta’minlashda tarmoqlararo integratsiyaning birlamchi pedagogik imkoniyatlarini ko‘paytirish, integratsiyalashni amalga oshirish mexanizmlari, fanlar mazmu mohiyati texnologiyalari va innovatsion axborot tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda dunyoning rivojlangan mamlakatlari kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy Axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda [1]. Xozirgi davrda mamlakatning iqtisodiyoti hamda insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o‘rni axborot-texnologiyalari rivojlanishning holatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim tizimini barcha sohasini isloh qilish, o‘quv fanlari mazmunini ko‘paytish, fanlarni o‘qitishda ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim va ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasini ta’minlash, mutaxassis kadrlarni zamonaviy bilim jihozlari bilan qurollantirish va ularning bandligini ta’minlash masalalari soha olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Rivojlanish omili ko‘p jihatdan kadrlarning aqliy salohiyati va mehnat qobiliyati ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lib, ular ishlab chiqarishda o‘sish sur’atlarini belgilab berayotgan bir paytda bu boradagi tadqiqotlar o‘z yo‘nalishi va tarmog‘ini kengaytirib borishi kuzatilmoqda.

Ta’limning barcha tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar qator tadqiqotlarda amalga oshirilgan. Ta’limni axborotlashtirish

vositalarini yaratish va ulardan oqilona foydalanishning nazariy asoslari, mamlakatimiz ta’lim tizimida pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov[2], A.X.Abdullaev[3], M.Aripov[4]lar tomonidan amalga oshirilgan.

Inson hayoti va faoliyatidagi axborot jarayonlariga, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning baynalminallashuviga, mutaxassislarning harakatchanligi oshishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgan globallashuv sharoitida turli mamlakatlarning ta’lim tizimlarida Boloniya kelishuvini tezkorlik bilan amaliyotga tatbiq etishning ob’ektiv zarurati vujudga keldi. Ta’lim siyosatini xalqaro miqyosda unifikatsiya qilish va standartlashtirish milliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashning yagona strategiyasini ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Bunday strategiyani ishlab chiqish hozirda milliy elita tomonidan keng ma’noda siyosiy masala, nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaralmoqda. Bu holatlar dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi pedagogik jarayon va hodisalarni qiyosiy tahlil qilish va baholashning dolzarbligini belgilab beradi, bu esa o‘z navbatida o‘zaro ilg‘or pedagogik tajriba almashish imkonini yaratadi.

Barcha sohalarni axborotlashtirish, ta’lim jarayoniga informatika va axborot texnologiyalarni joriy etish munosabati bilan rivojlangan mamlakatlarda o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqildi. O‘qituvchilar malaka oshirish kurslari tashkil etildi va informatika o‘qituvchilarini uzluksiz tayyorlash dasturlari yaratildi.

Informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini tayyorlash pedagogik ta’lim tizimida amalga oshiriladi, bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim tizimi maktab bilan uzviy bog‘liqdir. Axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini tayyorlash ta’lim tizimini tashkil etish va ularning pedagogik ta’limining umumiy masalalarini o‘z ichiga olishi kerak, bu esa informatika o‘qituvchilarini tayyorlashni tashkil etishni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Mamlakatning taraqqiyoti aholi ta’lim darajasining o‘sishiga tobora ko‘proq bog‘liqligini anglagan holda jamiyatning xususiy ta’lim dasturlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Talabalarning rivojlanishiga, ularning qiziqishlari va moyilliklarini hisobga olish uchun shart-sharoit yaratishga, ta’lim ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini kasbga tayyorlashda induvidual ta’lim muhitini shakllantirish pedagog kadrlarni, jumladan, informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimlarini takomillashtirishga olib keladi.

Davr talabidagi zamonaviy o‘qituvchini tayyorlashdan maqsad kata ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan, uni o‘quvchi shaxsi, uning bilim va ijodiy qobiliyatlarini o‘rganish va rivojlantirish jarayonida o‘quvchi – shaxs va fuqaroning manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshira oladigan insonparvar o‘qituvchini shakllantirishdan iborat. Pedagog kadrlar tayyorlash maqsadlarining o‘zgarishi o‘quv rejalari va dasturlarida, o‘qitish tuzilmasida, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishga yordam beruvchi va bu pedagogik texnologiyalar va metodikalarda o‘z ifodasini topadi.

Ma’lumki, fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan, fan va texnikaning yangi soha hamda bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta’min layotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo‘lgan talablar ortib bormoqda va barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etilmoqda.

Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davrda ta’lim sohasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo

informatika va axborot texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga qaramay, ta’lim jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni, o‘qitishning yangi metodlari, shakllari va vositalari bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasi yetarli emas. Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini kasbga tayyorlashda individual ta’lim muhitini shakllantirishdan azariy manbalar mazmuni bilan tanishish, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganish va tajribalarni analitik tahlil etish bu muammoning dolzarbligi, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologi yalarini pedagogik ta’lim jarayoniga joriy etishning respublikamiz sharoitida yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va pedagogik jihatdan to‘liq tadqiq qilinmaganligi bir qator yechimini kutayotgan muammolarning manbai bo‘lib qolayotganligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini kasbga tayyorlashda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qo‘yilgan ta’limiy maqsadlarga erishishga imkon beradigan, nazariy asoslangan ta’lim jarayonini amalga oshirishning shakllari, metodlari, usullari hamda vositalar majmui hisoblanadi. Uhar qanday pedagogik tizimda – ilmiy muammolar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan tushunchadir [5]. Biroq, agar ilmiy masala, ta’lim-tarbiya maqsadlarini ifodalaydigan bo‘lsa, u holda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim-tarbiya yo‘llari, ularga erishish vositalarini ifodalaydi. Bu jarayonda ilmiy masala tuzilmasi talabalarning pedagogik tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirish o‘qitish maqsadlari sifatida ishtirok etadi, umumiy holda esa u ta’lim mazmunining o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda va dunyoning rivojlangan davlatlarida ta’lim sohasini isloh qilish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarining rivojlanishi zarur axborotlarni mustaqil izlab toppish, muammoni qo‘ya bilish va uning yechimini hal eta olish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va yangi masalalarni yechishda qo‘llashga qodir mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan.

Shu sababdan, individual ta’lim muhitini shakllantirish zaruriyligi barchaga ayon bo‘lmoqda.

Mustaqil individual ta’lim muhitini shakllantirish bu talabaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati hamda imkoniyatini inobatga oluvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan talaba shaxsini rivojlantir ishda samarali foydalanishga qaratilgandir. Shu bois, o‘qitishni differensiallash va individuallashtirish individual ta’lim muhitini shakllantirishning asosiy tamoyillari sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

–talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;

–o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga;

–o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;

–interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;

–sun’iy intellect tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga;

–axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

–o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faoll ikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23 maydagi «2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, “Internet”ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi 230-sonli Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2001, 24 may. – № 101.

2. Abduqodirov A.A. Masofali o‘qitish modellari va ularning sinflari. // J. Fizika, matematika va informatika. – Toshkent, 2004. – № 5. – B. 50 – 56.

3. Абдуллаев А.Х. Виртуальные лабораторные стенды и рекомендации по их использованию в непрерывном образовании // Образование через всю жизнь: становление и развитие непрерывного образования в рамках единого образовательного пространства Евразийского экономического сообщества: Материалы международной конференции.– Санкт-Петербург (Российская Федерация), 2004. – С. 3 – 7.

4. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. – Toshkent: Universitet, 2000. – 132 b.

5. Андреев А.А. Дидактические возможности средств информационных телекоммуникационных технологий в системе дистанционного обучения // http://www.ito.ru/1998-99 /h/андреев-@.html.

6. Луре, А. Реформа как источник процветания и испытания / А.Луре // Аима матер: Вестник высшей школы. – 2005. – No 2. – С. 16 – 19.

7. Deer C. Reforms of the Financing of Higher Education in Europe: Powerful Universities, paying Universities? / C.Deer, J.L. de Meulemeester // IAU Horizons (World Higher Education News). – 2005. – March. – Vol. 11. – N1. – P. 4.

TALABALARNI BO‘SH VAQTLARDA UNUMLI FOYDALANISH VA MUSTAQIL IJODIY ISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI

Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Sa’natshinoslik” fakulteti “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi p.f.f.d., v.b. dotsent
e-mail: q.bekqulov@cspi.uz tel:+998 902645158

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar bir tomondan, dars jarayonining uzviy davomi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash imkoniyatlarini ancha kengaytiradi. An’anaviy metodikaga ko‘ra sinfdan tashqari ishda ishtirok etishga o‘quvchilar ixtiyoriylik asosida jalb qilib kelingan. Mashg‘ulotlarni tashkil etishning ushbu shakli bir kator ijobiy tomonlari bilan birga jiddiy kamchiliklarga xam ega. Jumladan, tajribalarimizdan ma’lum bo‘ldiki, o‘quvchilarning sinfdan tashkari mashg‘ulotlarga nisbatan masuliyatsiz munosabatda bo‘lishi, berilgan topshiriq va vazifalarni bajarishda intizomsizlik, jamoaga aloqador umumiy maqsadlarini hurmat qilmaslik kabi salbiy holatlar mashg‘ulotlarning samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mashg‘ulotlarda o‘quv mashqlarini imkon boricha kamaytirishga intildik, mehnat obyektlarini o‘quvchilar mehnat darslarida egallagan mehnat o‘quvlarini hisobga olgan holda tanlab bordik. Materiallarga ishlov berish, yangi texnik yechimlarni ishlab chiqish jarayonida duch kelgan yangi jarayon mashqlar davomida faqat o‘zlashtirib olish vazifasigina emas, balki u haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lib, muayyan buyum yasashda undan foydalanish vazifasi ham qo‘yiladi.

Ma’lumki, ta’lim berish jarayoni-ikki yoqlama jarayondir. Bu jarayonda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham faol bo‘lishi kerak. Agar pedogog o‘z ishida muvafaqqiyatga erishishga intilsa u albatta talabalarning faolligini oshirish, faollikni rag‘batlantirish va kerakli yo‘lga solishi lozim. Talabalar faoliyatini oshirishning asosiy vositalaridan biri ularning mustaqil ta’limlarini to‘ri tashkil qilishdir. Chunki bu jarayonda o‘qitish samaradorligini oshirish va mutahassislarni tayyorlash sifatini yaxshilashning asosiy zaxiralari yashiringan. Shu sababli ham oliy ta’lim tizimida o‘qitish jarayoni o‘qituvchilar raxbarligida tashkil qilinadigan va boshqariladigan talabalarning mustaqil mehnatlari ko‘rinishini olmoqda.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni rejalashtirish.

Talabalar mustaqil ta’limining asosiy maqsadi-o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida yoki mustaqil ravishda talabada muayyan o‘quv ishlarining mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Talabalar mustaqil ish va amaliy mashg‘ulotlarni turli shakllarda bajarishadi, chunki mustaqil olingan bilimlarning o‘rni, kuchi va qiymati yuqoridir.

Mustaqil ta’lim – bu maqsad, vazifa, ifoda shakli va natijani tekshirishga ega bo‘lgan talabalarning faoliyati. Ularni ushbu faoliyatni turini tashkillashtirish va rag‘batlantirishga ko‘mak berish fan o‘qituvchilarining vazifasidir. Faqatgina o‘qituvchi talabaning yoshini, uning shaxsiy fazilatlarini inobatga olishi, talabalar xotirasi va e’tiboriga yuklarni teng taqsimlashi ularning mustaqil ta’lim olish qobilyatini shakllantirishga yordam beradi.

Mustaqil ta’limining asosiy vazifalarida quyidagilar aks etadi:

- talabalarning mavzularga oid yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi,

- axborot manbalari (adabiyotlar, gazeta va jurnallar, internet saytlari) dan samarali foydalangan holda kerakli ma`lumotlarni izlab topa olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari, uning qulay usullari va vositalarini aniqlashi,

- me’yoriy hujjatlar, elektron o‘quv va ilmiy adabiyotlar, o‘quv adabiyotlar va ma`lumotlar banki bilan ishlay olishi, internet tarmog‘idan maqsadli foydalanishi, turli topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondasha olishi nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki pedagogik adabiyotlarda oliy o‘quv yurtlari talabalarining o‘qishi faqat o‘qitish bilangina emas, balki ularning mustaqil ta’lim olishi bilan ham tavsiflanadi.

So‘nggi yillarda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish sohasida ma`lum tajribalar bo‘lsada, bu ishlarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Shuni alohida takidlash joizki, talabaning tor yoki keng ma’noda bo‘ladimi baribir shu mustaqil ta’limsiz ta’limni muvvaffaqiyatli o‘zlashtirish xaqida gap bo‘lishi mumkin emas. Yana shuni esda tutish kerakki, talabalarning mustaqil ta’limi ma’ruza, amaliy, seminar, mashg‘ulotlaridan tamoman ajralgan va dastur bilan aloqasi bo‘lmagan holda tartibsiz tashkil etiladigan ish degani emas. Aksincha u o‘qitiladigan fanning yo‘nalishi bilan uzviy dialektik bog‘liqdir.

“Mustaqil ish” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, talabalarning mustaqil ishi muammolari bo‘yicha katta miqdordagi pedagogik izlanishlarga qaramay, ushbu didaktik jarayonning mazmuni va mazmuniga yagona yondashuv mavjud emas. Turli xil talqinlar, birinchi navbatda, "mustaqil" so‘ziga qanday tarkibiy qism kiritilganligiga bog‘liq. Asosan, ushbu tushunchaning uchta ma'nosi bor:

- o‘quvchi o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz ishni o‘zi bajarishi kerak;

- talabadan mustaqil aqliy operatsiyalar, o‘quv materialida mustaqil yo‘naltirish talab etiladi;

- ish qat'iy tartibga solinmagan, talabaga topshiriqni bajarish tarkibi va usullarini tanlash erkinligi berilgan.

Mustaqil ish – bu mustaqillik kabi muhim shaxsiyat fazilatlarini shakllantirish vositasi, talabalarning bilim faoliyatini tashkil etish shakli bo‘lib, ular faoliyatning namoyon bo‘lishini, vazifani bajarishda fikrlash, ijodkorlik, qatiyatlilik va tashabbuskorlikni talab qiladi.

To‘garak darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishning keng tarqalgan va chuqur tadqiq etilgan shakli hisoblanib, ixtisoslashuvidan qat’iy nazar ularning ko‘plab umumiy tomonlari mavjud. Shuning uchun turli tipdagi to‘garaklarning rahbarlari boshqa ixtisosdagi to‘garaklar ishidagi kasbga yo‘naltirishga oid ilg‘or tajribalarini chuqur o‘rganib, eng yaxshi tomonlarini o‘z ishida qo‘llashlari yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Albatta, to‘garak ishini kasb tanlashga yo‘llash asosida olib borish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, uning metod va shakllariga ma’lum darajada tasir ko‘rsatadi. Maktablarning ish tajribasida turli-tuman to‘garaklar uchraydi. O‘quv fanlar bilan bog’liqlik nuqtai nazaridan to‘garaklarni uch guruxga:

Fanga doir to‘garaklar deb, bevosita mexnat tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘garaklarga aytiladi. O‘z mazmuniga ko‘ra bu to‘garaklar chizmachilik darsida o‘quvchilar bajargan ishning davomi bo‘lib, bunda o‘quvchilarning faoliyati yanada murakkabroq, kengrok yo‘lga qo‘yiladi.

Fanga doyr to‘garaklarga darsdan tashqari mashg’ulotlar xozircha kasbga yo‘naltirish ishida tegishli o‘rinni egallaganicha yo‘q.

Amalga oshirgan kuzatishlar xamda tajriba-sinov ishlarimiz natijasida anik bo‘ldiki, bu turdagi to‘garak rahbarlari odatda fanlararo aloqadorlik xamda egallangan nazariy bilimlarning amaldagi tatbiqki doirasi bilan o‘quvchilarni tanishtirishga yetarlicha e’tibor bermaydilar. Natijada, fanga doir to‘garaklar tashkil qilingandan so‘ng 1 – 2 oy o‘tgach o‘z ishini to‘xtatadi, chunki o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishi yo‘qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boburmirzo, Kukiev., Achilov, Nurbek, Norboy o‘g‘li & Bekqulov, Qudrat, Shaydulloyevich. (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Science.* 7 (12), 49-54-220.
2. Shaydulloyevich, B.K. (2020). Increasing students’ graphic literacy through teaching the sciences of drafting and descriptive geometry. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (4), Part II, 75-78.
3. Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li, Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, Ko‘kiyev Boburmirzo Baxodir o‘g‘li & Jumayev Isroil Omandovlat o‘g‘li (2020). Methods of developing creative abilities in children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (10), Part II, 151-153.
4. Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich., Kukiyev Boburmirzo Bahodir ugli., Avazova Guzal Rustambek qizi. (2020). The works in the framework of five initiatives at chirchik state pedagogical institute in tashkent region. EPRA International Journal of Research and Development, 5 (3), p. 411 – 412.
5. Boizaqova, S.A., Bekqulov Q.Sh. (2021). Ko‘rinishlar mavzusni tushuntirishda detal modelini o‘ziga qarab o‘rganishning ahamiyat. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 96-101.
6. Ko‘kiyev, J.S., Bekqulov Q.Sh. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 34-39.
7. *Bekqulov Q.Sh. (2021).* Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarni grafik savodxonligni oshrish. "Экономика и социум" №10(89), С. 1314 – 1319.
8. *Bekqulov Q.Sh. (2021).* Ortoganal proyeksiyalarni qayta tuzish usullaridan foydalanib talabalarning fazoviy tassavurlarini rivojlantirish. "Экономика и социум" №10(89), С. 1314 – 1319.
9. Q.Sh.Bekqulov. (2020) Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning grafik savodxonligni oshrish. Maktab va hayot, № 2, 3-4.
10. Achilov N.N., Ko‘kiyev.B.B., Bekqulov.Q.Sh., Yaqqol atsvirlarni bajarishda AutoCAD dasturidan foydalanib loyihalash, Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, № 2, 122-125.
11. Qudrat Shaydulloyevich Bekqulov, Yig'ish chizmalarini detallarga ajratishda yo‘l qo‘yadigan tipik xatolar. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 1 (3), 321-325.
12. *Bekqulov Q.Sh., To‘laganova H.* Chizmachilik fanidan o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirishda tugallanmagan chizmalardan foydalanish. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, № 3, 111-113.
13. *Xalimov M., Bekqulov Q.* Chizmachilik fanini o‘qitishda interaktiv metodlarni qo‘llash zaruriyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, № 3, 102-105.
14. *Boizaqova Sh.A., Bekqulov Q.Sh.* Ko‘rinishlar mavzusni tushuntrishda detal modelini o‘ziga qarab o‘rganishning ahamiyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, № 3, 117 - 120.

15. Bekqulov Q.Sh., To‘laganova H. Muhandislik grafikasi fanlarida talabalar chizma bajarishda yo‘l qo‘yadigan tipik xatolar. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, № 3, 107 – 111.

16. Bekqulov Q.Sh., Boizaqova Sh.A. Muhandislik grafikasi fanlarini boshqa fanlar bilan bog’liqligi. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, № 3, 113 – 117.

17. Bekqulov Q.Sh. O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan tipik xatolarni tizimga solish va prognoz qilish oldini olish choralari. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, № 3, 105 – 107.

JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Raximjonov Bunyodjon Bahtiyorjon o’g’li,
Farg’ona davlat universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi
raximjonovbunyod626@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Jismoniy tarbiya o’qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik madaniyat, pedagogik innovatsiya, pedagogik jarayon, pedagogik uzviylik, yuklama, funksional xususyatlar.*

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati natijasida talabalarning jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o‘rganilib chiqiladi, maktab va sinf-dan tashqari tadbirlarda jismoniy chiniqishga mo‘ljallangan uzluksiz didaktik tizimni ta’minlaydigan metodik majmualar yaratiladi; turli musobaqalar, sog‘lom turmush tarzini reklama qiluvchi tarbiyaviy tadbirlar: suhbatlar, kechalar, sport-shoular uyushtirilib, o‘kuvchilarning sport turlariga qiziqishlari inobatga olinadi, sport to‘garaklariga jalb qilinadi, tahsil oluvchilarning jismoniy, ruhiy hamda intellektual qobiliyatlari o‘stiriladi; oiladagi, sinf va maktabdagi pedagogik hamda psixologik muhit atroflicha o‘rganilib, ularning hamkorligi rivojlantiriladi.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirishdan maqsad – o‘qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat ekan unda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiy faoliyatda quyidagi qobiliyatlarini namoyon etishi lozim:

— dars mashg‘ulotlarida ijodiy motivatsiyani qo‘llaydi, kasbiy faoliyatni baholaydi;
— talabalarning ijodiy o‘zaro faoliyatiga hamkorlik qiladi;
— qat’iyatlik, mas’uliyatlik va halollik bilan ishini tashkil etadi;
— kasbiy faoliyatga bo‘lgan zaruratni aniqlaydi;
— ijodiy faoliyatga jalb qilishga tayyorgarlik ko‘radi;
— shaxsiy maqsadlarni kasbiy faoliyat bilan moslash-tiradi va boshqalar.

Pedagogik madaniyatda bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisining muloqot madaniyati, kasbiy-kommunikativ faoliyati kabi komponentlari muhim va hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati va muloqotiga hozirgi zamon ta’lim tizimida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasi, eng avvalo, ularning pedagogik muloqotga tayyorgarligi, o‘quv-metodik hamda ma’naviy-ma’rifiy vazifalarni hal etish yuzasidan muayyan kasbiy harakatlarni bajarish layoqatidir. Buning asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning muayyan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari, eng avvalo, pedagogik muloqot madaniyati yotadi.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasi, kasbiy muloqot madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- o‘zining jismoniy sifatlari va qobiliyatlarini eng maqbul darajasigacha rivojlantirishda;
- inson jismining go‘zalligi, plastik erkinligi va sog‘ligiga e’tiborli bo‘lishida (jismoniy tarbiya bilan faol shug‘ullanish tufayli);
- estetik hodisalar kabi jismoniy tarbiya va sportdagi yutuqlari muayyan shakllarining idrok etilishida;
- sportda estetika oliy go‘zallik qimmatiga ega bo‘lib, unda ushbu sport hodisasi “o‘z muayyan hissiy yaxlitligida shaxs qadriyati sifatida namoyon bo‘ladi, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, uning erkinligi, individualligi chegaralarining kengayishiga yordam beradi” hamda uning yashirin intellektual va ijodiy imkoniyatlarining ochilishiga imkoniyat yaratadi.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislari kasbiy muloqotni bilishi, jismonan va ma’nan tarbiyalanganligi, kelajakda o‘quvchilarni sportga jalb qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Sport va estetika, sport va axloq, sport va muloqot, sport va madaniyat, sport madaniyati va shaxsning rivojlanishi – amaliyotda pedagogik madaniyat – bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisi muloqotini anglab olish, tushunib yetish va integratsiyasi bir-birini to‘ldirib boradigan va ajralmas tushunchalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Мишагин В.Н., Личностно-ориентированный подход к организации профессиональной подготовки будущего учителя физической культуры. Кан. пед. наук. Дисс. Автореф. Саратов, – 2001. – 190 с.
2. Эргашев Р.Н. Педагогик техниканинг эстетик хусусиятлари. // Узулсиз таълим тизимида инновацион техноло-гиялар: муаммолар ва ечимлар. Республика илмий-амалий материаллари. – Гулистон: 2010. – 43 – 44-б.
3. Мамадова, Ф. (2023). BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARI-NING PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH-NING PEDAGOGIK MODELI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *3*(7), 266-272.
4. Tursinovich, K.A., Mirzaakhmadovna, M.F., & Alijonovich, E.T. (2022). ‘Topical issues of pre-university preparation of students in the field of physical culture and sports. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *7*, 253-255.
5. Qayumovna, R.M. (2021). Examining and monitoring of the impact of hypo dynamic factors on the state of physical fitness in students. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *3*, 40-43.
6. Mehmonov, R., & Parpiev, O. (2020). PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR PHYSICAL EDUCATION TEACHERS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 758-761.
7. Меҳмонов, Р.Н. (2023). КУРАШЧИНИНГ УМУМ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛИЁТЛАРИНИ ЎРГАНИШ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(18), 1302-1311.

INGLIZ TILIDA GRAMMATIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIPOLOGIYASI

Nazarova Feruza Sindorqulovna,
JDPU ingliz tili fani o‘qituvchisi
nazarov.feruza3@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada grammatika (yun. grammatike, gramma so‘zidan – harf, yozish) – tilshunoslikning tilning grammatik tuzilishini, ya’ni so‘zlarning shaklga ega bo‘lish qonuniyatlarini, shuningdek, so‘z birikmalari va gaplarni tuzish qonuniyatlarini o‘rganadigan bo‘limi.*

Grammatika 2 qismdan – morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so‘zning grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalar, so‘z shakllari, sintaksisda esa so‘z shakllarining gap tarkibida o‘zaro birikish yo‘llari, ran va uning kategoriyalari, gapning tuzilish turlari bayon qilinadi.

Demak, Grammatikada so‘z shakli, grammatik ma’no, grammatik shakl, grammatik kategoriya, ran va uning kategoriyalari haqidagi tushunchalar markaziy o‘rinni egallaydi. Tilda o‘zining doimiy ifodalovchisiga ega bo‘lgan, so‘z shakli va gapga xos umumlashgan ma’no grammatik ma’no sanaladi.

Kalit so’zlar: *grammatika, morfologiya, sintaksis, morfologik kategoriyalar, gapning tuzilish turlari, grammatik ma’no, grammatik shakl.*

KIRISH

Ma’lum grammatik ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladigan moddiy vosita grammatik shakl hisoblanadi. Grammatik shakllarni grammatik kategoriyani tashkil etgan unsurlar deyish mumkin. Aslida grammatik shakl deganda, ma’lum grammatik ma’noning moddiy tomoni tushuniladi. Grammatik shakl grammatik kategoriyani tashkil etgan qismlarning bir tomonini – shakliy tomonini ifodalaydi. Shu bois, grammatik kategoriyalar grammatik shakllarning munosabatidan yuzaga kelgan umumiylik, deyilsa mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki grammatik kategoriya tarkibiga kirgan har bir qism ham, o‘z navbatida, shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan yaxlitlikdir. Shu sababli ayrim mualliflar grammatik kategoriya tarkibiy qismlari uchun grammema atamasidan foydalanmoqdalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Grammatik birliklarni grammatik kategoriyalarga birlashtirishda shu kategoriyaga xos umumlashgan ma’no asos bo‘lib xizmat kiladi.

Kategoriyaga xos bu umumlashgan ma’no mazkur kategoriyaga birlashgan har bir grammemada takrorlanadi. Shu bilan birgalikda kategoriya doirasidagi har bir grammemaning boshqasidan farq qiladigan ma’nosi ham bor. Ana shu ma’nolar kategoriya unsurlarining o‘zaro zidlanishida asos bo‘lib xizmat kiladi.

Shunday qilib, kategoriya ma’nosi bilan kategoriya tarkibidagi grammema ma’nosi o‘rtasida turjins munosabati mavjud. Grammatika ma’lum til qurilishini qanday o‘rganishiga ko‘ra, amaliy Grammatika va nazariy Grammatikaga bo‘linadi. Amaliy Grammatika muayyan bir tilda gapning to‘g‘ri qurilishi uchun zarur bo‘lgan grammatik qoidalarni tavsiflaydi.

U, o‘z navbatida, 2 turga bo‘linadi: tavsifiy va me’yoriy Grammatika Tavsifiy Grammatika til grammatik qurilishini tavsiflash, bayon qilish bilan cheklanadi. Me’yoriy Grammatika esa til faktlarining til me’yoriga munosabatini, ma’lum bir lisoniy birlik yoki qurilmaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘llanganini o‘rganadi.

Amaliy Grammatikadan farqdi ravishda, nazariy Grammatika til qurilishini tavsiflash bilan birga, til qurilishidagi birliklarning o‘zaro munosabatini o‘rganadi. Bu orqali har bir lingvistik birlikning til sistemasidagi o‘rni, qiymati belgilanadi. Nazariy Grammatikada til grammatik qurilishining sistemaviy xususiyati ochiladi. Bevosita kuzatishda berilgan hodisalar zamirida yashiringan mohiyat belgilanadi.

Shuning uchun ham nazariy Grammatika umumiylik – xususiylik, mohiyat – hodisa, imkoniyat – voqelik dialektikasini o‘zida namoyon etuvchi til – nutq zidlanishiga asoslanadi.

Grammatik birliklar tadqiqotchi tomonidan qaysi tomondan o‘rganilishiga ko‘ra, Grammatika faol, nofaol turlarga bo‘linadi. Shakldan ma’noga qarab tadqiq qilish usuli semasiologiya usulidir. Bu usulda ma’lum grammatik shakl qanday ma’no ifodalashi haqida gap boradi. Yuqoridagi usulda grammatik birliklarni o‘rganish nofaol Grammatika sanaladi.

Aksincha, mazmundan shaklga tamoyili bilan ish ko‘ruvchi Grammatika faol Grammatika hisoblanadi. Faol G.da u yoki bu mazmun qanday yo‘llar bilan moddiylashishi mumkinligi aniqlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xuddi shu yo‘nalish bilan bog‘liq ravishda Grammatika mazmuniy (mental), shakliy (formal) va vazifaviy (funksional) Grammatikalarga bo‘linadi.

Mazmuniy Grammatika mazmundan shaklga tamoyiliga amal qiladi.

Ob’yektiv borliqning ongda aks etishi va ongda aks etgan ob’yektiv olam unsurlari umumlashgan obrazlarning tilda qanday o‘z ifodasini topishini mazmuniy Grammatika o‘rganadi.

Shakliy Grammatika esa semasiologik tamoyil, shakldan mazmunga tamoyili asosida ish ko‘radi. Grammatik kategoriyalarni tasnif qilishda shakl ustuvorlik kiladi. Bu yunalishda grammatik shakllarni o‘rganish jarayonida nolisoniy (ekstralingvistik) omillarning e’tiborga olinishi shart emasligi ta’kidlanadi. Funksional Grammatikada asosiy e’tibor grammatik shakl va grammatik kategoriyalarning vazifasiga qaratiladi. Bunday Grammatikalarda lisoniy birlikning 3 tomoni: mazmun, shakl, vazifa (funksiya) dialektik birlikda olinadi. Grammatika muammolari dastlab qad.

Hindistonda (tilshunos Paninining Grammatikaga oid traktatida, miloddan avvalgi V – IV asrlar), keyinroq Yunonistonda (Aristotel, miloddan avvalgi IV asr, yunon tilshunosi Apollon Diskol, miloddan avvalgi II asr va boshqalarning asarlarida) ishlangan. Yunon grammatik an’analari lotin tilini o‘rganish jarayonida rivojlanib borgan. O‘zbekistonda Grammatikani o‘rganish tarixi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga borib taqaladi. Bu jarayon o‘rta asrlardagi lug‘atshunoslik taraqqiyotida ham o‘z aksini topgan (Toli Imoniy Hiraviyning Badoye ul-lug‘at" asari, XV asr; "Abushqa" nomli chig‘atoycha-turkcha lug‘at, XVI asr va boshqalar).

Chet tilini o‘qitishda ijtimoiy-madaniy yondashuvni tatbiq etish talabalarning chet tilni o‘zlashtirishlarida faollashuviga olib keladi. Talaba o‘zga xalqning milliy madaniyati va qadriyatlarini o‘zlashtirishi jarayonida shuningdek, tili o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi bilimlarni ham mustahkamlaydi.

Demak, tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy madaniyati va tabiati bilan tanishtirib borish ikki tomonlama murakkab integrar jarayon bo‘lib, bunda nafaqat tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisining, balki ayni paytda o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning urf-odatlari, o‘z xalqining milliy madaniyati ham qiyoslab o‘rganib boriladi va zarur hollarda chet mamlakat xalqiga taqdim qilinadi. Shuning uchun ham bu, o‘zi bilmagan holda bir-biridan andoza olish tili va madaniyatlari boshqa-boshqa bo‘lgan xalqlar o‘rtasida tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Qiyoslash davomida talabalar ko‘plab umumiy bo‘lgan va o‘ziga xos belgilar, xususiyatlarni ajratadilar. Bu esa o‘sha mamlakat bilan yaqinlashish, uni tushunish va unga, uning odamlari, an’analariga yaxshi munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya ko‘p madaniyatli jamiyatdagi hayot bilan bog‘liq kompetensiya, ya’ni «odam bilan ijtimoiy soha o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlashuvlarga taalluqli» kompetentlik guruhidir.

Demak, ijtimoiy-madaniy kompetensiya umummadaniy va ijtimoiy kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Madaniyatlararo muloqot komponentlikni rivojlantirishdan maqsad:

– chet el madaniyatida kompetentlikka erishish;

– o‘z madaniyatini bilish va bu haqida so‘zlab bera olish;

– o‘zgalarni hurmat qilish va bag‘rikenglikka olib keluvchi madaniyatlararo tushunishga erishish;

– o‘zining va o‘zgalar madaniyatini tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo‘lish. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyani quyidagicha ta’rifladik: madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – chet tilida muloqot olib boruvchi shaxsning til sohiblarining ijtimoiy va nutqiy xulq-atvorining milliy-madaniy xususiyatlari, ularning urf-odatlari, muomala qoidalari, tarixi va madaniyatidan xabardor bo‘lishi hamda muloqot jarayonida ana shu bilimlardan foydalangan holda o‘zga madaniyatlar vakillari bilan muvaffaqiyatli ravishda muloqotlashish qobiliyatini namoyon qila olish layoqatidir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, komponent jamiyatshunoslik, tilshunoslik, mamlakatshunoslik sohalaridan olingan bilimlarni umumlashtirishga, etnomadaniy umumbashariy madaniyat bilan tanishtirishga asoslanadi. Turli xalqlarning o‘ziga xos madaniyatining qadriyatlari hamda ularning jahon madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi nuqtai-nazaridan o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidova M.J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.

2. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics // Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174.

3. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173.

4. M.J.Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)

5. Хомский Н. Язык и мышление / Н.Хомский. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. – 122 с.

6. White R.W. Motivation Reconsidered: the Concept of Competence // Psychol. Rev. – 1959. – Vol. 66, N 5. – P. 297 – 332.

7. Равен Джон. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – М., 2002.

8. Hymes, D. (1972). “Competence and Performance in Linguistic Theory”, in R.Huxley and E.Ingram (eds.) Language Asquisition: Models Bed Methods. New York: Academy Press, pp. 3 – 23.

BOSHLANG`ICH TA`LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG`ULOTLAR ASOSIDA BOLALARNING KOMMUNIKATIV NUTQINI RIVOJLANTIRISH.

Ismailova Nozimaxon Umaraliyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada integratsiyalashgan mashg`ulotlar to`g`risida ko`plab ma`lumotlar berib o`tigan va integratsiyalashgan yondashuvning yoki mashg`ulotlarning boshlabg`ich ta`limdagi o`rni haqida tushuntirib o`tilgan. Shu jumladan bolalarning nutqini qanday rivojlantirish to`g`risida ham turli hil yondashuvlar tushintirib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *Integratsiya, o'qitish, o'qitish jarayoni, Integratsion ta'lim, ta'lim-tarbiya jarayoni, olam bilan o'zaro aloqalari. nutq, og'zaki va yozma nutq, nutq kamchiligi, nutq tovushlari talaffuzi, so'z boyligi, ifodali nutq.*

Аннотация. *В этой статье содержится много информации об интегрированном обучении и объясняется роль комплексного подхода или обучения в начальном образовании. В том числе объяснены различные подходы, как развивать речь детей.*

Ключевые слова: *Интеграция, обучение, учебный процесс, Интегративное образование, образовательный процесс, взаимодействие с миром. речь, устная и письменная речь, речевой дефицит, произношение звуков речи, словарный запас, экспрессивная речь.*

Annotation. *This article provides a lot of information about integrated training and explains the role of integrated approach or training in elementary education. Including, various approaches on how to develop children's speech have been explained.*

Key words: *Integration, teaching, teaching process, Integrative education, educational process, interactions with the world. speech, oral and written speech, speech deficiency, pronunciation of speech sounds, vocabulary, expressive speech.*

Integratsion mashg`ulotlar bu – har bir o`quvchi olam haqida narsa va xodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli tumanligi xususida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va ijtimoiy dunyosi, olamda xukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashga emas, balki tasviriy fikrlarni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi.

Integratsion ta'limning tuzilishi qanday? Integratsion ta'limning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo'lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topadi. Shunday qilib, kurs asosiga qo'yilgan g'oyalar (fikrlar)ning gorizontal harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinfdan sinfga), bunda bir mavzu bolaning o'sishiga qarab, murakkablashib boradi, integrativlik insonning olam bilan o'zaro aloqalarida aks ettiruvchi mavzulariga kiritilgan: bola idrokida no'malum bo'lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar,er kurrasi, katta bo'shliqlar va vaqt qadri) yaqin olam (mikroolam, uy oldidagi hayvonlar va o'simliklar dunyosi, ona-vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati). Insonlar olami bilan (turli mamlakatlar va madaniyatlar, tsivilizatsiya markazlari, insonning inson va jamiyat bilan munosabatlari, insonning ichki dunyosi); madaniy dunyosi bilan (xalq ijodi, rassom va olimlar ijodi, ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi odamlarning ishlari). Shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlari, tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochish integrativ ta'limning asosiy mantig'idir. Integrativ ta'lim oddiylikdan murakkablikka, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chaqqonlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi. O'quvchi dunyo yaralishining "g'ishtchalari" bilan tanishadi, olamning boshlanishiga, insonning yerda paydo bo'lishiga murojaat qiladi. So'zlar, sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar jumboqlarni ochish yuzasidan fikrlaydi, o'quvchi makon va zamon bo'ylab sayohatga otlanadi. Shunday

qilib, bola har kuni ochish kerak bo’lgan olamning go’zalligi va turli-tumanligini his qiladi. “Murakkab dunyoqarashlar ilmiy, badiiy g’oyalar o’quvchi tushunishi uchun qulay, tasvirli mavzularda o’z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim integratsion ta’limning o’ziga xos xususiyatidir.” Chet ellik olimlar integratsion ta’limning kurslarini tashkil etish zarurligi haqida fikr bildirishmoqda.

Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o’z ichiga olgan, 10 – 12 yoshlik bolalarga mo’ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. Shunday qilib, o’qish, yozish va og’zaki nutq “Til san’ati”ga, tarix, geografiya, fuqaroshunoslik, jamiyatshunoslikka, fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, tabiatshunoslik va shu kabilarga birlashtirildi. Integratsiyaning bunday usulidan to’liqsiz va to’liq o’rta maktablarda qo’llaniladi. AQShdagi o’rta maktablarning yuqori sinflarda fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik va shu kabilarning o’z ichiga oluvchi “Erni o’rganish” fani kiritilgan. Chexiya, Slovakiyada ham shunday umum-lashtiruvchi integratsiyalangan “fuqaro tarbiyasi” deb nomlangan kurs yuqori sinflarda kiritilgan.

Zamonaviy o‘qituvchining oldida barkamol, faol, ijodiy fikrlay oladigan shaxs kamol toptirishdek vazifa turibdi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning og’zaki va yozma nutqida yo‘l qo‘yadigan xatolarning oldini olish va ularni to‘g’rilash uchun o‘qituvchi va logoped o‘rtasidagi doimiy munosabat zarur. Logopedning vazifasi nutq nuqsonlarini bartaraf etish va bolaning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishdir. O‘z navbatida, o‘qituvchi o‘quv jarayonida o‘quvchining nutqini rivojlantirishni doimiy amalga oshirib boradi. logopediya ishi jarayonida o‘zlashtirilgan nutq qobiliyatlariga tayaniladi. Logoped va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar butun bir qator komponentlardan iborat bo‘lib, ulardan biri ta'lim sifatini nazorat qilishdir. Monitoring – pedagogik faoliyatning har qanday obyekti yoki hodisalarini uzoq vaqt davomida kuzatish. Pedagogik monitoring – o`quvchilarning fan bo`yicha bilimlarini muhim elementlar bo`yicha tahlil qilish, kuzatishlar, o`quv jarayoni holatini baholash va natijalarni solishtirish. Bolalar quyidagi mezonlar bo’yicha tekshiriladi: - nutqning sensorli darajasini o’rganish; - tilni tahlil qilish ko’nikmalarini o’rganish; - nutqning grammatik tuzilishini o’rganish; - lug'at va so’z yaratish ko’nikmalarini o’rganish; - muvofiq nutqni o’rganish; - yozish va o’qish qobiliyatlarini o’rganish. Quyida siz bilan bir qator metodlarni amalda qo’llab, natijalarni ko’rib chiqamiz. Biz syujetli hikoyani qayta hikoya qilish matnli bayonot shaklini tanladik. “Ixtirolar sarguzashti” kitobidan berilgan matnni idrok etish va taqdim etilgan matnni takrorlash jarayonining mazmuni tahlil qilindi. Taklif qilingan ma'lumotni tushunish, bolaning qayta aytib berishni dasturlashi, mavjud leksik ma’nodan to’g'ri foydalanish qobiliyati, nutq faolligi kuzatildi. Tushunish nutq jarayonining eng muhim jihati sifatida qaraldi, chunki bu qobiliyat aloqani amalga oshirishni ta'minlaydi. Maqsad kichik yoshdagi o’quvchilar nutqining ushbu jihatlarni har birining shakllanish darajasini aniqlash edi. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun nutqni rivojlantirishning eng muhim ko’rsatkichlari sifatida nutqning o’ziga xos jihatlarini ajratib ko’rsatish imkoniyatini ham nazarda tutish lozim. Qayta hikoya qilish boshlang'ich sinflarda yangi ma’lumotlarni o’zlashtirishni nazorat qilishning yetakchi shakllaridan biridir. Shuni nazarda tutgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarga syujetli matn taqdim etildi. Matn bir qator mavzularga bo’lingan, uning ketma-ketligi hikoyaning voqealar rivojini tashkil etgan va ularsiz matn umuman o’z ma'nosini yo’qotadi. Matn o’qilib, tahlil etildi va turli qismlarga bo’lib talqin etildi. Turli savol va javoblar amalga oshrilib, mavzu mustahkamlandi. Qayta hikoya usulida matn xotirada mustahkamlandi. Bolalarga matnni iloji boricha batafsil aytib berish kerakligi haqida ko’rsatma berildi. Agar bola qayta aytib berishda qiynalsa, unga birinchi ibora o’qildi yoki kerak bo’lsa, butun matn takrorlandi. Shular orqali bilimlar shakllantirildi. Bundan tashqari, agar kerak bo’lsa, qayta hikoya qilish paytida unga maslahatlar berildi yoki hikoya syujetini rivojlantirishni davom ettirishga yordam beradigan savollar berildi. Qabul qilingan qayta hikoya qiluvchi matnlar uchun asl matnni tahlil qilish natijasiga asoslanib sxemalar tuzildi. Ushbu metoddan normal nutq rivojlanishiga ega bo’lgan bolalar nutqini o’rganish uchun foydalanildi. Nutqni rivojlantirish uchun quyidagi o’yinlardan foydalandik:

1. “Ertaklar qutisi”. Qutida rangli doiralar mavjud. O’qituvchi qopqoqni ochadi va bolalar: "Bir, ikki, uch! Qani, ertak, chiq! Ular navbatma-navbat aylanalarni chiqaradilar va ular jonli obrazlarga aylanadi. Ranglarni turli obraz shaklida ifodalab, ertaklar tuzadilar.

2. "Meni tani" o’yini. Bu o’yin turida o’qituvchi bir nechta o’quvchilarga mavzuga taalluqli turli xil rasmlar beradi. Ular rasmda tasvirlangan predmetlarning o’ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishlari va uning tavsifini berishlari kerak: rangi, materiali, shakli, qismlari, nima uchun, nima yeyishi, qayerda yashashi va hokazolar. Qolgan o’quvchilar nima muhokama qilinganini taxmin qiladilar, to’g’rilaydilar, aytilganlarni to’ldiradilar.

3. "Bo’ladi – bo’lmaydi" o’yini. Bu o’yin turida bolalar turli jumlalarni o’ylab topadilar: Yozda qor yog'di; Poyezd soat 12 da uchadi; Bo’ri daraxtga chiqdi. Sinf bir ovozdan aytadi: bo’ladi yoki bo’lmaydi.

4. "Nima yaxshi va nima yomon?" o’yini. Sinf ikki jamoaga bo’linadi. O’qituvchi tanlangan elementni ko’rsatadi. Bolalarning bir guruhi uning fazilatlarini, ikkinchisi esa kamchiliklarni izlaydi. Bunday musobaqa bolalar uchun juda qiziqarli.

5. "Biror narsa yozing" o’yini. Bu o’yin turida turli buyumlar: shar, tayoq, shokolad qutisi, bo’sh qalam quti va hokazolar uchun 10 ta yana qanday maqsadda foydalanish mumkinligini o’ylab toping topshirig’i berilib, fikrlar tinglanadi.

6. "Ma’noni saqlab, shaklni o’zgartiring" o’yini. O’zbek tilidagi har qanday iborani boshqacha aytish mumkinligi barchamizga ayon. Bu o’yin turida ham o’quvchilar berilgan ma’lum gap va ifodalarni ma’nosini saqlab, shaklini o’zgartirib aytishlari kerak bo’ladi. Masalan, Sharros yomg’ir yog’yapti. Tabiat hodisasi bo’lgan yomg’ir kuchli yog’ib yotibdi.

7. "Poyezdni yig'ing" o’yini. Doskada rasmlar bor. Ularda turli xil narsalar bor: qoshiq, changyutgich, vaza, plastinka, sug'orish mashinasi va boshqalar. Rasmlar "vagonlar" bo’lib, ular birin-ketin joylashtirilishi kerak, shunda bir-birining yonida turgan "vagonlar" o’rtasida qandaydir bog'liqlik ko’rsatilishi kerak. Sinf poyezdni "yig'adi": ular qoshiq orqasiga idish-tovoq, likopchani va plastinka orqasiga vaza qo’yishadi, chunki ular chinnidan qilingan. Sug'orish mashinasi keyinga o’tadi, chunki suv vaza ichiga va sug'orish mashinasiga quyiladi. Sug'orish mashinasining orqasida changyutgich bor, chunki ular mashinalar bo‘lib, chang va kirni tozalashga xizmat qiladi.

8. “Estafeta – hikoya” o’yini. Ikki jamoa orasida estafeta poygasi: kim ma'lum vaqt davomida jamoaviy hikoyani muvaffaqiyatli yoza olsa, shu g’olib bo’ladi. O’yinning har bir ishtirokchisi allaqachon yozilgan gapga faqat 1 – 2 ta jumla qo’shish huquqiga ega. Hikoyaning mavzusi o’qituvchi, yoki o’quvchilar tomonidan belgilanadi.

9. "Men boshlayman, siz esa davom eting ..." o’yini. Doskaga ikki misra she’r yozilgan. Bolalar mustaqil ravishda ma'lum vaqt davomida boshlangan ijodiy ishni davom ettirishlari kerak bo’ladi.

10. "Bir so’z ayt" – bunda o’qituvchi biror ibora va ifodani aytadi va bola uni tugatadi. Masalan: xo’roz qichqiradi, chumchuq esa ... (sayraydi). Boyqush uchadi, quyon esa ... (sakrab, yuguradi). Sigirda buzoq bor, otda esa ... (toychoq) bor.

Mashqning maqsadiga qarab nutqni qizdirishning bir necha turlari ajratiladi: 1) savol-javob, 2) o’yin dialogi, 3) xayoliy vaziyat. Biz har bir turning tavsifini beramiz.

Xulosa qilib aytganda, ravon nutqni egallash; adabiy til normalarini o’zlashtirish; jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish; o‘quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish kabi qator aspektlari mavjud ekan. Shuningdek, nutq o'stirishda integratsiyaashgan yondashuvdan foydalanish ham tarbiyachi uchun foydadan holi bo`lmaydi, hamda nutq o`stirishda uch yo 'nalish aniq ajratilar ekan:

1) so’z ustida ishlash; 2) so’z birikmasi va gap ustida ishlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov O.A, Nazarov Sh.Q. Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, Toshkent – 2012.

2. Matchonov S., G'ulomova X. Nutq madaniyati. T., 2000. [1]: 6.
3. Mavlonova R., Raxmonqulova R.X. "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya" metodik qo'llanma TDPU, 2007.
4. Mingboyev U.X. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. falsafa doktori (PhD) – Toshkent: 2019.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
6. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi – T., Istiqlol, 2006.
1. https://www.twinkl.com/teaching-wiki/integrated-learning
2. https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/04/Boshlangich-talimning integratsiyalashgan-pedagogikasi.Mavlonova.pdf
3. https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-maktabda integratsiyalashgan-ta-limdan-foydalanishning-metodik-xususiyatlari/viewer

CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAGI NUQTADAN TEKISLIKKA PARALLEL TO'G'RI CHIZIQ O'TKAZISHNI TALABALARGA NAZARIY VA AMALIY BILIMLARI ORQALI TUSHUNTIRISH

Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Muhandislik va kompyuter grafikasi"
kafedrasi katta o'qituvchisi
jumayev@cspi.uz +998909022793
O'razbayev Axmet Muxit o'g'li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
yo'nalishi 3-kurs 21/1-guruh kechki talabasi
Ne'matov Farruxbek Xoliqjon o'g'li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
yo'nalishi 3-kurs 21/1-guruh kechki talabasi
Tashtemirov Abror Axrorxon o'g'li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
yo'nalishi 1-kurs 23/1-guruh kechki talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nuqtadan tekislikka parallel to'g'ri chiziq o'tkazishni talabalarga nazariy va amaliy bog'liqligida bilim berish orqali fazoviy tasavvurini oshirish ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *nuqta, to'g'ri chiziq, tekislik, fazo, jism, metrik, pozitsion, geometrik tushuncha, hajm, yuza, iz, uzunlik, parallel.*

Chizma geometriya, geometriya fanining bo'limlaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi fazodagi jismlarni tekislikka akslantirish va tasvir (chizma)da metrik hamda pozitsion masalalarni geometrik qonun-qoidalar asosida yechish usullarini o'rgatishdan iborat.

Hozirgi kunga kelib barcha Oliy O'quv yurtlarida chizma geometriya fani, fan sifatida o'tib kelinmoqda. Chizma geometriya fani aniq fanlardan biri hisoblanib, undagi mavjud bo'lgan qonun-qoidalarga muvofiq tarzda tasvir(chizma)larni fazoviy tasavvurimiz orqali qog'ozda chizishimizdir. Bu fan asosan insonda fazoviy tasavvurni yanada kuchliroq shakillantirib dunyo qarashimizni yanada kuchliroq bo'lishiga turtki bo'lib xizmat qiladi va fikrlash qobiliyatini


rivojlantiradi. Bu fanning hayotimizda tutgan o‘rni juda katta hisoblanadi. Jumladan hozirgi kunda bu fanning hayotimizda tutgan o‘rniga misol tariqasida bino inshoatlari, kundalik hayotimizda foydalaniladigan maishiy texnikalarimiz, avtomobil va hokazolarda ko‘rishimiz mumkin.

Chizma chizishdan avval chizmaning qanday ekanligiga, mavzusiga va qonun-qoidalariga amal qilgan holda chizishimiz zarur. Chizmani tushunmasdan yokida uning qonun-qoidalariga ahamiyat bermasak bu fanni o‘zlashtira ololmaymiz. Chizma geometriya fani paydo bo‘lib, uni mustaqil fan sifatida o‘rganilishiga juda ko‘p olimlar, allomalar, qomusiy olimlar, fan doktorlari, professorlar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Chizma geometriya fanini nazariy hamda amaliy bog‘liqligini olimlarning ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida, respublikamiz yosh ilmiy tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlar olib borishlari uchun imkon yaratadi.

Masalada fazoda berilgan nuqtadan tekislikka parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkazishni, nazariy va amaliy bog‘liqlikda tushuntirib borilgan.

Masala:Proyeksiyalari orqali berilgan *S(S′,S″)* nuqtadan izlari bilan berilgan *P(P_H,P_V)* tekisligiga parallel bo‘lgan *k (k′, k″)* to‘g‘ri chiziq, *P* tekislikda yotgan *l (l′, l″)* to‘g‘ri chiziqqa parallel qilib ishlansin. ***1-rasm***

Masalaning yechimi: Proyeksiyalari orqali berilgan *S*(*S′*,*S″*) nuqta va izlari bilan berilgan *P(P_H,P_V)* tekisligi chizib olinadi. *P* tekislikka tegishli *l (l′,l″)* tog‘ri chiziq chizilib, *S′* nuqtadan *k′* to‘g‘ri chiziqni *l′* to‘g‘ri chiziqqa *(k′//l′)* parallel qilib chiziladi va *S″* nuqtadan *k″* to‘g‘ri chiziqni *l″* to‘g‘ri chiziqqa *(k″// l″)* parallel qilib to‘g‘ri chiziq chiziladi va masala shu bilan tugallangan hisoblanadi. ***1-rasm***



1-rasm

Berilishi **Ishlanishi**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Murodov, L.Hakimov, A.Xolmurzayev, M.Jumayev, A.To‘xfayev. Chizma geometriya. Toshkent – 2006.

2. Pulat Adilov, Isroil Jumaev (2018). New View to Executing Sketch and Technical Drawing. Eastern European Scientific Journal (ISSN 2199-7977), 102-104.

3. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O‘LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO‘LLASH USULLARI VA AHAMIYATI.”. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 99-101.

4. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021) CHIZMALARNI AUTOCAD DASTURIDA CHIZISHDA DASTURNING MAVJUD MURAKKABLIKLARINI QO‘LDA CHIZISHGA MOSLASHTIRISH (O‘RGATISH) USULLARI.”. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 94-99.

5. ugli Jumayev, I.O. (2022). USING THE MOST CONVENIENT METHOD OF FINDING EQUAL SIDED POLYGONS (By Dividing the Diameter into Equal Sections). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(11), 1271-1279.

6. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2020). CHIZMACHILIK DARSLARIDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANISHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI TAHLILI”. *Maktab va hayot MAXSUS SON*, *2*.

7. Norboy o'g'li, A.N., & Shaydulloyevich, B.Q. Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li & Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li (2020). Methods of developing creative abilities in children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, *8*(10), 151-153.

8. Jumayev, I. (2020). The conveniences of teaching using autocad software. *Экономика и социум*, (10 (77)), 94-97.

9. Jumayev I.O. (2021). CHIZMACHILIK DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. Экономика и социум, (11-2 (90)), 798-808.

10. Jumayev, I.O. (2021). CHIZMACHILIK FANINING PROYEKSION CHIZMACHILIK BO’LIMIDA AUTOCAD DASTURINING UCH O’LCHAMLI IMKONIYATLARINI QO’LLASH VA UNING AHAMIYATI. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 809-814.

11. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O‘LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO‘LLASH USULLARI VA AHAMIYATI.”. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 99-101.

12. Isroil, J. (2023). TEACHING STUDENTS TO PROVIDE THEORETICAL AND PRACTICAL KNOWLEDGE IN SOLVING PROBLEMS OF DRAWING GEOMETRY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *4*(11), 61-68.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

Islomov Muhammad Husniddin o’g’li,
Jizzax politexnika instituti assistenti
muhammadjon040497@gmail.com
Nasriddinov Abdumutal Farhod o’g’li,
Jizzax politexnika instituti
“Radioelektronika” kafedrasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mamlakatimizning ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlar kabi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo‘nalishlar ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, bilim, xavfsizlik, iqtidor, electron xujjatlar.*

Jamiyatning raqamli texnologiyalar tomon burilishi ro‘y berishiga butun jahon internet tarmog‘ining sifati oshishi hamda aloqa tizimlarining rivojlanishi sababchi bo‘ldi. Natijada katta hajmdai ma’lumotlar almashinish va ularni to‘plash imkoni paydo bo‘ldi, bu esa, o‘z navbatida, to‘plangan axborotni qayta ishlashga, bashorat qilishga, asoslangan qarorlar qabul qilishga va xilmaxil usullarda foyda olishga imkon beradi. Bularning barchasi uchun esa mos keluvchi

infratuzilma, boshqacha qilib aytganda, global axborot platformalari ekotizimini yaratish zarur bo‘ladi.Biroq bunda ma’lumotlarni yo‘qotish, biznesni yo‘qotish, ish o‘rinlarining qisq’arishi, havfsizlikka putur yetishi riski va modernizatsiya qilish zarurati vujudga keladi. Bu masalalarni tezda hal qilish zarur, chunki bu borada kechiqish jiddiy risklarga olib kelishi mumkin. Hozirda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarda raqamli iqtisodiyotning afsona yoki haqiqat ekanligi emas, balki bu o‘zgarishlarning jamiyatga qanday hizmat qilishi muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi davrda biz texnologiyalar qanday qilib ommaviy hizmat ko‘rsatish sohasini tubdan o‘zgartirayotganini ko‘ryapmiz. Vositachilarni olib tashlaydigan, mijoz va ta’minotchi o‘rtasidagi aloqalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilishiga olib keladigan Uber kabi yangi biznes-modellar paydo bo‘lmoqda. Avvalroq xuddi shunga o‘xshash o‘zgarishlar moliya sektori va telekommunikatsiyalarda ham ro‘y bergan edi. Sanoatda ham bir qancha printsipial o‘zgarishlar kuzatilmoqda, chunki raqamli korxona va insonning raqamli qiyofadoshi – robotlar paydo bo‘lishi butun insoniyat funktsional modelini jiddiy ravishda o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari asta-sekinlik bilan odamlarning o‘rnini egallab boradi. Huddi mana shu holat raqamli iqtisodiyotning namoyon bo‘lishi hisoblanadi. To‘g‘ri, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot tufayli qanday keskin o‘zgarishlar ro‘y berishi hozircha hech kimga ma’lum emas. Hozirgi texnik-texnologik qoloqlik sharoitlarida sanoatning raqamli o‘zgarishi tez ro‘y berishiga ob’ektiv va sub’ektiv sabablarga ko‘ra, bir qancha shubha-gumonlar mavjud. Raqamli platformalarning rivojlanishga yorqin misollardan biri sifatida Alibabaelektron savdo tizimiga ega bo‘lgan Xitoy kompaniyasini keltirib o‘tish mumkin. Undan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar to‘plash jarayoni iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun o‘ta raqobatli ustunliklar yaratadi. Alibaba bu – oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidir. Tushunarliki, bunday ekotizim qudrati alohida platformalar kuchidan katta bo‘ladi. Xatto AQSh ham hozirgi kunda bu poygada yutqazmoqda, chunki u yerda turli platformalarni integratsiya qilishga to‘g‘ri keladi, Xitoyda esa bu sohada rivojlanish samaradorlikni oshirish hisobiga – bir platformadan boshqa platformaga qarab o‘tish asta-sekinlik bilan ro‘yberdi. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish kabi global bir ishda ko‘p narsa davlatningtutgan pozitsiyasiga ham bog‘liq, albatta. Barchasi hamma narsani birlashtiradigan va «raqam»ga o‘tkazadigan yagona davlat platformasiga borib taqalmasligi muhim,ya’ni, «Davlatning vazifasi, biznesning o‘rniga biron bir narsa qilish emas, balki oddiygina – biznesga halal bermaslikdir». Xitoyda ham Alibaba tizimi davlat uning uchun qandaydir platforma yaratgani tufayli paydo bo‘lmagan. U bunday platforma paydo bo‘lishi uchun sharoit yaratdi, xolos. Garchi davlat Alibabaga yordam beragan bo‘lsada, buni davlat korporatsiyasisifatida emas, balki tijorat korxonasi sifatida yordam berdi va uning hizmatlaridan u raqobatbardosh ekanligi uchungina foydalaniladi. Davlatning vazifasi – umumiy qoidalar yaratish, biznes esa shu umumiy qoidalar asosida o‘zgara va rivojlana boshlaydi, chunki qonunlar ta’sirida 367 ishbilarmonlik muhiti o‘zgaradi va raqobat o‘sadi. Jiddiy kumulyativ samarayangi umumiy platforma yaratish tufayli emas, balki har biri o‘z ishi bilan shug‘ullanadigan ko‘plab mustaqil tashkilotlar va mahsulotlar yig‘indisi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan infratuzilma paydo bo‘lishi tufayli vujudga kelishi mumkin. Lekin bunda kerakli standartlar va protokollarni eng yuqori sifat darajasida ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, ushbu holat – davlatni uning maqsadlari bilan do‘stlashtirib qo‘yadigan qadam, ya’ni o‘z natijalaridan iqtisodiyot ehtiyojlarini belgilab berishi mumkin bo‘lgan fandan manfaatdor bo‘lgan biznes. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot davlat, biznes va fanni birlashtirishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotda boshqa xalqaro tizimlar va amaliy mexanizmlar bilan birga bo‘la olishga erishish uchun «umumiy darcha» mexanizmidagi ma’lumotlar modellari va hujjatlar xalqaro standartlari va tavsiyalari asosida tashkil qilinishi lozim. Uyg‘unlashtirish lozim bo‘lgan xabarlar va hujjatlar boshlang‘ich ro‘yxati ma’lumotlarini qamrab oladigan ma’lumotlar ro‘yxatini tuzishda, shuningdek, milliy ma’lumotlar modelini shakllantirishda ularni xalqaro standartlar talablariga muvofiq tavsiflash va belgilash zarur.

Raqamli iqtisodiyotning bir qismi bo‘lgan elektron tijoratning O‘zbekistonda rivojlanishini shartli ravishda ikki davrga ajratish mumkin: 2015 yilgacha bo‘lgan va undan keyingi davr. 2015

yilgacha bizning mamlakatda normativ-huquqiy baza ishlab chiqish va tayyorlash bo‘yicha faol ishlar olib borilgan edi. 2015 yildaesa O‘zbekiston Respublikasida 2015 – 2018 yillarda mo‘ljallangan elektron tijoratni rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilindi, va uo‘rta muddatli istiqbolda elektron tijoratni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini, raqobatli muhitni kengaytirishni, zamonaviy infratuzilmani tashkil qilishni va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishni, shuningdek, elektron tijorat haqidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish shakllarini va yo‘llarini belgilab berdi. Biroq, bugungi kunga kelib,konsepsiyadaaks ettirilgan chora-tadbirlar to‘liq amalga oshirilmaganligi haqida gapirish mumkin. Masalan, normativ–huquqiy bazada elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilinmagan. Xususan, elektron tijoratda elektron xabarlar yoki elektron hujjatlar ommaviy jo‘natmalari, reklamani joylashtirish tartibi tasdiqlanmagan. Shu bilan bir paytda, 2018 yil 14 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Elektron tijoratni jadal rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorni imzoladi. Ushbu hujjatda O‘zbekistonda elektron tijoratni takomillashtirishga qaratilgan bir qator tadbirlar aks ettirilgan. Ammo, umuman olganda, aytish mumkinki, O‘zbekiston ushbu yo‘nalishda, juda tezkor rivojlanadigan tarmoqda yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lmagan darajada sekin va cho‘zib harakatlanmoqda. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda foydalanuvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga buyurtma berish uchun telegrambotlaridan faol foydalanmoqdalar. O‘zbekistonlik iste’molchilar, shuningdek, internet tarmog‘i yoki telefoniya hizmatlari uchun mobil ilovalar vositasida faol pul to‘lashmoqda. Bu esa O‘zbekiston aholisi elektron bitimlarni amalga oshirishga ishonishidan dalolat beradi, faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta harajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirgan holda o‘rtacha xarid hajmini oshirishga unchalik tayyor emaslar. O‘zbekistonda elektron bitimlar foydalanuvchisining o‘rtacha hajmi 50 mingdan 200 ming so‘mgachani tashkil qiladi.O‘zbek iste’molchisi elektron bitim amalga oshirishda uyali aloqa telefonidan foydalanadi, chunki u birmuncha qulayroq bo‘lib, bir qator qulay ilovalarga ham ega. Mahsulot tanlashga keladigan bo‘lsak, ko‘pchilik respondentlar Internet orqali kiyim-bosh, shuningdek, maishiy texnikava elektronika xarid qilishni afzal ko‘rishgan. Avtomobil va ko‘chmas mulkpredmetlari internet orqali eng kam xarid qilinadigan tovarlar bo‘lgan. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ayni paytda foydalanuvchi «onlayn» rejimida yirik miqdordagi pullarni berishga hali tayyor emas.Bundan tashqari, foydalanuvchilar UzCard, VISA, MasterCard kabi to‘lov tizimlaridan faol foydalaniladilar. Ommaviylik darajasi eng past tizimlar Union Pay, WebMoney va kriptovalyutalar hisoblanadi. Mahsulotlarni onlayn xarid qilishdagi muammolarga keladigan bo‘lsak, deyarli barcha respondentlar to‘lov vaqtidagi qiyinchliklar, tovar/hizmat sifatining pastligi, yetkazib berish vaqti uzoqligi, shuningdek, narx qimmatligini aytib o‘tishgan. Shunday qilib, ijtimoiy so‘rov natijasida olingan ma’lumotlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishini to‘xtatib turgan bir qator muammolar va kamchiliklarni aytib o‘tishimiz mumkin: 1. Aholining elektron bitimlar tuzishga unchalik ishonmasligini; 2. Yetkazish berish qiymatining yuqoriligini.

Adabiyotlar ro‘yxati

[1] D.T.Otermat, C.E.Otero va I.Kostanic, "Kognitiv radio orqali narsalar internetiga opportunistik kirish uchun FM radiosi spektrini tahlil qilish", 2015 yilda IEEE 2-Butunjahon Internetdagi narsalar forumi (WF-IoT), Milan, 2015 yil.

[2] J.A.Stankovic, "Narsalar Interneti bo‘yicha tadqiqot yo‘nalishlari", IEEE Internet of Things Journal, 1-9-betlar, 2014 yil.

[3] W. Li, C. Zhu, V. C. M. Leung, L. T. Yang va Y. Ma, “Turli joylashtirish naqshlari bilan sanoat IoT uchun kognitiv radio datchik tarmoqlarining ishlashini taqqoslash”, IEEE Systems Journal, vol. PP, no. 99, pp. 1-11, 2015.

[4] Islomov, M., & Irisboyev, F. (2023). IOT (INTERNET OF THINGS) TECHNOLOGIES OF INTERNET DEVICES. Modern Science and Research, 2(9), 220-223.

[5] Ирисбоев, Ф.Б., Эшонкулов, А.А. У., & Исломов, М.Х.У. (2022). ПОКАЗАТЕЛИ МНОГОКАСКАДНЫХ УСИЛИТЕЛЕЙ. Universum: технические науки, (11-3 (104)), 5-8.

[6] Islomov, M., & Irisboyev, F. (2023). IOT (INTERNET OF THINGS) TECHNOLOGIES OF INTERNET DEVICES. Modern Science and Research, 2(9), 220 – 223.
[7] Islomov, M. (2023). CALCULATION OF SIGNAL DISPERSION IN OPTICAL FIBER. Modern Science and Research, 2(10), 127–129.
[8] Boymirzayevich, I.F., & Husniddin o'g'li, I.M. (2023). INTERNET QURILMALARINING IOT (INTERNET OF THINGS) TEXNOLOGIYALARI.

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dehqonova Yorqinoy Abdumutalib qizi,
Oltiariq pedagogika kolejji maktabgacha pedagogika fani o'qituvchsi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida mustaqil hayotga tayyorlashda ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligi masalalariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar. *Ta'lim, oila, mahalla, mustaqil hayot, milliy qadriyatlar, o'quvchi yoshlar.*

Butun dunyo oila instituti inqirozining salbiy ko'rinishlari, nikohlarning barqaror emasligi, oilaviy ajrimlar sonining ortishi, nikohsiz bolalar tug'ilishining ko'payishi, farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik hamda keksalarga nisbatan bepisand munosabatda bo'lish avj olmoqda. Bunday vaziyatda bu kabi noxush holatlarning oldini olish borasida zaruriy chora tadbirlarni ko'rish muhimdir. Shuning uchun professional ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash muhim vazifa hisoblanmoqda.

Ma'lumki, azaldan sharq mamlakatlari xalqlari ongida oilaning muqaddasligi, farzandning sog'lom tarbiyasidagi oilaning beqiyos roli asrlar davomida shakllanib kelgan.

Jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qancha tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Oilalarning mustahkamligi va ma'naviy barkamolligi uchun o'z navbatida yoshlarni oila qurishga har tomonlama tayyorligi, xususan yoshlarni mustaqil hayotga Milliy qadriyatlar ruhida tayyorlash zarur omil hisoblanadi.

Nima uchun yoshlarni oilaga tayyorlashni biz ta'lim muassasalaridan boshlashimiz kerak?

2023-yil 10-oktyabr kuni UNICEF tashkiloti tomonidan o'tkazilgan konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Narbayeva o'z nutqida yoshlarni oilaga hayotga tayyorlash masalasini "Bog'chadan boshlab, maktabni bitirguncha, keyin esa oliy ta'limda yoshlarni oilaga tayyorlashni davom ettirish kerak. Mana shundagina birovni xafa qilmaydigan, qattiq gap gapirmaydigan, har yili tug'avermaydigan, o'ziga qaraydigan, nogiron bolani dunyoga keltirmaydigan, qarindoshiga erga tegmaydigan qiz va qarindoshiga uylanmaydigan yigitlarni hayotga tayyor holda shakllantirib bo'lamiz".[1]

Jahon miqyosida joriy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har yili dunyo bo'ylab 1 milliarddan ortiq bola jismoniy, hissiy yoki jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'ladi. Yaqinda o'tkazilgan Multiindikator klaster kuzatuvi (MIKS) shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 3 nafar boladan 2 nafari (62%) zo'ravonlik bilan tarbiyalash usullarini boshdan kechirgan (jismoniy jazo va/yoki psixologik tajovuz), 15 – 19 yoshli qizlarning esa 33 foizi er o'z xotinini kaltaklashga haqli deb hisoblaydi.[2]

[1] 2023-yil 10-oktyabr kuni UNICEF, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan milliy davra suhbat.
[2] 2023-yil 10-oktyabr kuni UNICEF, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan milliy davra suhbat.

Hozirda ta’lim muassasalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi muhim emas, ularni yaxshi bilimli bo‘lsa hayotga tayyorlash masalasi bosh qotirishga arzimaydigan masaladek qarashmoqda. Lekin bu masalaga o‘z vaqtida bosh qotirmasak oila-turmush masalasidagi savollarga “beminnat” yordamchilardan (ijtimoiy tarmoqlardan) foydalanishi hech kimga sir emas.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi sobiq deputati R.Kusherbayevning kuzatishlariga ko‘ra, internet tarmog‘ida o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 ming, shahvoniy mazmundagi 4 mingdan ziyod saytlar mavjud bo‘lib, 49% kompyuter o‘yinlari zo‘ravonlik va yovuzlikni targ‘ib qiladi. Ayni vaqtda 42% yoshlar onlayn tarzida tarqatiladigan pornografiya ta’siriga butunlay tobe bo‘lib qolgan. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38% bola zo‘ravonlik ruhidagi saytlarga, 26% bola millatchilik xarakteridagi veb sahifalarga muntazam kirishini tasdiqlashmoqda.

Buguni konferensiyadan foydalanib qadimgi urf-odatlarimizdan “Avesto”da oilaviy qadriyalardan misol keltiraman.

“Avesto”da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotinning majburiyati, nikoh tuzish va bekor qilishning qonun-qoidalari batafsil ko‘rsatib o‘tiladi. Asarning maxsus boblarida Axura Mazda yoki Zardo‘shtning kelin-kuyovlarga da’vati, murojaatlari keltirilgan. Unda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish kabi maslahatlar haqida ham qimmatli mulohazalar mavjud.

Turkiy xalqlarga xos urf-odatlarga ko‘ra, nikoh marosimlari qat’iy qonun-qoidalar asosida tashkil etilgan, marosim davomida oila, qarindosh-urug‘, oqsoqollar, keksa chol-kampirlar maslahati va yo‘l-yo‘riqlariga rioya etilgan. Zardo‘shtiylik tartib-qoidalariga ko‘ra, o‘z hayotini uylanmay yoki turmushga chiqmasdan o‘tkazish qoralangan. Masalan, agar balog‘at yoshidagi qiz ota-ona yoki jamoa ra’yidan yurmay, o‘zidan zurriyod qoldirishini istamay, qasddan turmushga chiqmay, umrguzaronlik qilib yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklangan. Erkaklar esa, o‘n yetti yoshda uylanish huquqiga ega bo‘lgan. Agar erkak kishi zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg‘a bosilib, badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur etilgan.

Kitobda qayd etilishicha, erkak kishi, eng avvalo, uylanish uchun moddiy va ma’naviy tomondan to‘q va baquvvat bo‘lmog‘i lozim, buning uchun o‘z vaqtida to‘yib ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o‘z xizmat va axloqiy burchlarini bajara olmaydi.

“Avesto”da zardo‘shtiylikning oltin qoidalaridan biri – oila muqaddas sanalgani bois, boshqa ayrim sabablarga ko‘ra, masalan, ig‘vo, tuhmat, er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligi, ota-ona bilan murosa-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Islom dini oilaviy munosabatlarning hayot haqiqatlariga, adolat tuyg‘usiga va insonparvarlikka asoslangan ma’naviy mezonlarini yaratdi, ayollarning oila va jamiyatdagi haq-huquqini belgiladi, bu borada, ayniqsa uning onalik burchiga, bolalari uchun murabbiylik faoliyatiga yuksak e’tibor berdi[1].

Ming afsuski hozirgi yoshlar bu kabi manbalardan foydalanmasdan, kim o‘zarga poyga o‘ynashmoqda. Milliy qadriyatlarimizga xos bo‘lmagan xar-xil marosimlar kirib kelmoqda.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasini faqat yaxshi ovqat pishirishni bilish, chiroyli kiyimlar bilan yurishda deb o‘ylamoqda ko‘pgina yoshlar.

Yigitlarni xam oilaviy hayotga tayyorlash masalasi juda muhim. Oila qurishdagi mas’uliyat, kasb egasi bo‘lishi, muomila madaniyatini bilishi zarur.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi? Biz yigitlarni qayerda oilaga tayyorlayapmiz7 Bormi shunaqa kurslar? Afsus. Hozirda yigitlar oddiy ro‘zg‘or ishlarini (singan oynani tuzatish, buzilgan eshik qulfini sozlash) o‘zi bajara olmasdan usta chaqirib bajartirmoqda. Xo‘p nima bo‘libdi shunga deysiz, lekin bu xam oila byudjetiga ta’siri bor.

[1] Najmidinova K.U Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni Toshkent: Adolat, 2016. 10-b.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida oilaviy hayotga tayyorlashda quyidagi yo‘nalishda ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Oilada yoshlarni milliy urf-odatlar ruhida tarbiyalash uchun keksa avlod vakillari bilan ular o‘rtasida ko‘proq muloqotlar, uchrashuvlar o‘tkazish.

2. Mehmonga borish, mehmon kutish odatlarini shakllantirish.

3. Oilada farzand tarbiyasini tashkil etish, ularda ijtimoiy-g‘oyaviy, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, gigiyenik hamda sog‘liqni saqlash borasidagi nazariy bilimlarni oshirish, shuningdek, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beruvchi manbalar bilan ta’minlash, uslubiy yordam ko‘rsatish.

4. Muayyan masalalarda mutaxassis maslahati hamda amaliy yordami (masalan, huquqshunos, psixolog, pedagog, iqtisodchi hamda tibbiyot xodimlari tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘mak)ni uyushtirish.

5. Ta’lim muassasalarida ma’naviyat kunlarida “Oila odobi”, “Milliy urf-odatlar asosida kiyinish”mavzularida tadbirlar tashkil etish.

6. Ijtimoiy tarmoqlardan, gadjetlardan samarali foydalanishi yuzasidan tavsiyalar berish.

7.Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarziga, reproduktiv salomatlikka e’tiborli bo‘lish, qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh, erta tug‘ruq, erta homiladorlikning salbiy oqibatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda hech qaysimizga sir emaski, ba’zi bir sabablarga ko‘ra yoshlarimizning yomon yo‘lga kirib qolayotganlarini ko‘rib turibmiz. Bunday xunuk ishlarni, vaziyatni vujudga kelmasligini oldini olish maqsadida yoshlarni milliy urf-odatlarimiz ruhiyatida mustaqil hayotga tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Senatida so‘zlagan nutqidan.

2. To‘raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida – Toshkent: O‘qituvchi, 1992, 65-b.

3. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni / Najmidinova Karimaxon Usmonovna. – T.: “Adolat”, 2016. 16 b.

4. Kaykovus, Qobusnoma – Toshkent, “O‘qituvchi”, 2010 y, – 118 b.

CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAGI NUQTADAN TEKISLIKKA PERPENDIKULYAR TO‘G‘RI CHIZIQ O‘TKAZISHNI TALABALARGA NAZARIY VA AMALIY BILIMLARI BOG‘LAB O‘RGATISH

Jumayev Isroil Omandovlat o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Muhandislik va kompyuter grafikasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
jumayev@cspi.uz +998909022793
Qayumova Zilola Furqat qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
yo’nalishi 1-kurs 23/1-guruh talabasi
Ubaydullayeva Mexriniso Ahmat qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
yo’nalishi 1-kurs 23/1-guruh talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nuqtadan tekislikka 90^0 li to’g’ri chiziq o‘tqazishni nazariy va amaliy bog‘lab o‘rgatish ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *nuqta, to‘g‘ri chiziq, fazo, jism, metrik, pozitsion, geometrik tushuncha, hajm, yuza, uzunlik.*

Chizma geometriya, geometriya fanining bo‘limlaridan biri bo‘lib, uning asosiy vazifasi fazodagi jismlarni tekislikka akslantirish va tasvir (chizma)da metrik hamda pozitsion masalalarni geometrik qonun-qoidalar asosida yechish usullarini o‘rgatishdan iborat.


Hozirgi kunga kelib barcha Oliy O‘quv yurtlarida chizma geometriya fani, fan sifatida o‘tib kelinmoqda. Chizma geometriya fani aniq fanlardan biri hisoblanib, undagi mavjud bo‘lgan qonun-qoidalarga muvofiq tarzda tasvir(chizma)larni fazoviy tasavvurimiz orqali qog‘ozda chizishimizdir. Bu fan asosan insonda fazoviy tasavvurni yanada kuchliroq shakillantirib, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu fanning hayotimizda tutgan o‘rni juda katta hisoblanadi. Jumladan hozirgi kunda bu fanning hayotimizda tutgan o‘rniga misol tariqasida bino inshoatlari, kundalik hayotimizda foydalaniladigan maishiy texnikalarimiz, avtomobil va hokazolarda ko‘rishimiz mumkin.

Chizma geometriya fani bizning tasavvurimizni kengaytirib, dunyo qarashimizni yanada kuchliroq bo‘lishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Chizma chizishdan avval chizmaning qanday ekanligiga, mavzusiga va qonun-qoidalariga amal qilgan holda chizishimiz zarur. Chizmani tushunmasdan yokida uning qonun-qoidalariga ahamiyat bermasak bu fanni o‘zlashtira ololmaymiz. Hozirgi kunda ko‘plab talabalarning muammosi ham mana shunda hisoblanib, yani talabalar chizma geometriya darsini tushunmay o‘zlashtirishga qiynalishadi va bevosita bunga ustozlar aybdordek ko‘rinadi. Chizmani tushunmaganliklari uchun ham bu fan ularga qiyin tuyuladi, xuddiki murakkab narsadek ko‘rinadi. Aslini olib qaraganda bu fan juda qiziqarli va o‘ziga xos aniq fan hisoblanadi. Chizma geometriya fani o‘zida aniqlikni talab qiladi, birorta arzimagan hatolikka yo‘l qo‘yilsa ham chizmangiz mukkamal darajada chizilmagan hisoblanadi.

Masalada fazoda berilgan nuqtadan tekislikka 90^0 li to‘g‘ri chiziq o‘tkazish nazariy va amaliy bog‘liqlikda tushuntirib o‘tilgan.

Masala*: Proyeksiyalari orqali berilgan S(S′,S″) nuqtadan izlari bilan berilgan $P(P_H,P_V)$ tekisligiga 90^0 li perpendikulyar bo‘lgan n (n′, n″) to‘g‘ri chiziq o‘tkazilsin.* ***1-rasm***

Masalaning yechimi*:* Proyeksiyalari orqali berilgan $S(S',S'')$ nuqta va izlari bilan berilgan $P(P_H,P_V)$ tekisligi chizib olinadi. S' nuqtadan n' to‘g‘ri chiziqni P_H iziga $(k'\perp P_H)$ 90^0 li perpendikulyar qilib chiziladi. S'' nuqtadan n'' to‘g‘ri chiziqni P_V iziga $(k''\perp P_V)$ 90^0 li perpendikulyar qilib to‘g‘ri chiziq chiziladi va masala javobi tugallangan hisoblanadi. ***1-rasm***



1-rasm

Berilishi ***Ishlanishi***

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Murodov, L.Hakimov, A.Xolmurzayev, M.Jumayev, A.To‘xfayev. Chizma geometriya. Toshkent – 2006.

2. Pulat Adilov, Isroil Jumaev (2018). New View to Executing Sketch and Technical Drawing. Eastern European Scientific Journal (ISSN 2199-7977), 102-104.

3. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O‘LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO‘LLASH USULLARI VA AHAMIYATI”. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 99-101.

4. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021) CHIZMALARNI AUTOCAD DASTURIDA CHIZISHDA DASTURNING MAVJUD MURAKKABLIKLARINI QO‘LDA CHIZISHGA MOSLASHTIRISH (O‘RGATISH) USULLARI”. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 94-99.

5. ugli Jumayev, I.O. (2022). USING THE MOST CONVENIENT METHOD OF FINDING EQUAL SIDED POLYGONS (By Dividing the Diameter into Equal Sections). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(11), 1271-1279.

6. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2020). CHIZMACHILIK DARSLARIDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANISHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI TAHLILI”. *Maktab va hayot MAXSUS SON*, *2*.

7. Norboy o'g'li, A.N., & Shaydulloyevich, B.Q. Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li & Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li (2020). Methods of developing creative abilities in children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, *8*(10), 151-153.

8. Jumayev, I. (2020). The conveniences of teaching using autocad software. *Экономика и социум*, (10 (77)), 94-97.

9. Jumayev I.O. (2021). CHIZMACHILIK DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. Экономика и социум, (11-2 (90)), 798-808.

10. Jumayev, I.O. (2021). CHIZMACHILIK FANINING PROYEKSION CHIZMACHI-LIK BO’LIMIDA AUTOCAD DASTURINING UCH O’LCHAMLI IMKONIYATLARINI QO’LLASH VA UNING AHAMIYATI. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 809-814.

11. Omandovlat o‘g‘li, J.I. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA UCH O‘LCHAMLI FAZONI AUTO CAD DASTURIDAN FOYDALANIB QO‘LLASH USULLARI VA AHAMIYATI.”. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ № 3-2, 99-101.

12. Isroil, J. (2023). TEACHING STUDENTS TO PROVIDE THEORETICAL AND PRACTICAL KNOWLEDGE IN SOLVING PROBLEMS OF DRAWING GEOMETRY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *4*(11), 61-68.

JAMIYATDA PEDAGOG TARBIYACHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi,
"University of economics and pedagogy"NOTM
Pedagogika kafedrasi assistenti

Jamiyatda tarbiyachi modelini yaratishning asosiy vazifalarini o'rganish va uning jamiyatda ijtimoiy pedagogik jihatlarini aniq tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tariyachisining bolalar hayotidagi o'rni va ahamiyati, ta'lim va tarbiya sifatining shakllanishida tarbiyachining roli naqadar muhim ahamiyat kasb etishini insonlar ongiga singdirish va jamiyatda ijtimoiy pedagogik jaryonlarning rivojlanishiga ko'maklashish bugun oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimizdir.

O'ziga xoslik kasbiy faoliyat maktabgacha tarbiyachiga ma'lum talablar qo'yadi. Va o'zining kasbiy vazifalarini bajarish uchun u muayyan shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ulardan ba'zilari:

- Professional yo'nalish.

Professional shaxs sifatida bunday shaxsiy fazilatlarning asosi tarbiyachi kasbiga qiziqish va bolalarga bo'lgan muhabbat, pedagogik kasb, kasbiy va pedagogik niyat va moyillikdir. Aynan mana shu omillar pedagogik bilimlarni egallash istagini uyg'otadi va o'z kasbiy darajasini doimiy ravishda oshirib boradi.

- Hamdardlik.

Ushbu his-tuyg'ular bolaning his-tuyg'ularini his qilish va xayrixohlik, bolaning tajribasiga hissiy munosabat bildirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bolalar bog'chasi tarbiyachisi bilish yosh xususiyatlari maktabgacha tarbiyachilar, bolaning xatti-harakatlaridagi eng kichik o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borishlari, munosabatlarda ushbu his-tuyg'ular bolaning his-tuyg'ularini his qilish va xayrixohlik, bolaning tajribasiga hissiy munosabat bildirish qobiliyati bilan tavsiflanadi[1]. MTT tarbiyachisi bilish yosh xususiyatlari maktabgacha tarbiyachilar, bolaning xatti-harakatlaridagi eng kichik o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borishlari, munosabatlarda sezgir, g'amxo'r, yaxshi niyat va xushmuomala bo'lishlari kerak.

- Pedagogik takt.

Takt – bu odob-axloq qoidalariga rioya qilish va o'zini tutish qobiliyatida o'zini namoyon qiladigan mutanosiblik hissi. Tarbiyachining xatti-harakatlari mehr va qafiyatlilik, mehribonlik va aniqlik, ishonch va nazoratning eng yaxshi kombinatsiyasini, hazil va jiddiylik, xatti-harakatlarning va tarbiyaviy harakatlarning moslashuvchanligini topganda, biz tarbiyachining xushmuomalasi haqida gapirishimiz mumkin.

Ishtirokchilarning aniqligi bilan bir qatorda o'quv jarayoni (bolalar, ota-onalar, hamkasblar), maktabgacha tarbiya Ushbu his-tuyg'ular bolaning his-tuyg'ularini his qilish va xayrixohlik, bolaning tajribasiga hissiy munosabat bildirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bolalar bog'chasi tarbiyachisi bilish yosh xususiyatlari maktabgacha tarbiyachilar, bolaning xatti-harakatlaridagi eng kichik o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borishlari, munosabatlarda sezgir, g'amxo'r, yaxshi niyat va xushmuomala bo'lishlari kerak.

Pedagogik kaltak.

Pedagogik optimizmning asosi – tarbiyachining har bir bolaning kuchi va imkoniyatlariga ishonishi. Bolalarni sevadigan bolalar bog'chasi tarbiyachisi har doim ularning ijobiy

[1] Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016.

xususiyatlarini sezish uchun tashkil etiladi. Har bir bolaning qobiliyatlarini namoyon qilish uchun sharoit yaratib, tarbiyachi maktabgacha tarbiyachining shaxsiy imkoniyatlarini ochib berishga yordam beradi. Optimist tarbiyachi bola haqida yomon gapirmaydi, ota-onasiga shikoyat qiladi. Optimist tarbiyachi ilhom, xushchaqchaqlik, hazil tuyg'usi bilan ajralib turadi.

Kasbiy aloqa madaniyati.

Pedagog tarbiyachi bolalar, ota-onalar, hamkasblar bilan, ya'ni pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari bilan to'g'ri munosabatlarni qurishga qodir bo'lishi kerak.

Birinchidan, yuqori madaniy darajaga va benuqson xulq-atvorga ega bo'lish. Bolalar yaxshi "taqlidchilar", bu birinchi navbatda ular taqlid qilgan tarbiyachining xatti-harakati.

Ikkinchidan, ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatishga harakat qilish, nizoli vaziyatlarni oldini olish va hal qilish imkoniyatiga ega bo'lish.

- Pedagogik aks ettirish.
- Vakolat

Ota-onalarning ishonchi obro'-e'tiborni qozonish uchun birinchi qadamdir. Bolalar, ota-onalar va hamkasblar orasida obro’-e'tiborga ega bo'lish ularning axloqiy fazilatlari, madaniyati, bilim darajasi va kasbga sodiqligini baholashni anglatadi. O'z obro'si uchun kurashish, uni qadrlash, ota-onalar va hamkasblarning obro'sini saqlab qolish qobiliyati faqat o'z ishiga bag'ishlangan tarbiyachiga beriladi.

Tarbiyachi shaxsiyatining zaruriy fazilatlaridan birini ajratib ko'rsatish mumkin: *vijdonlilik, o'ziga talabchanlik, tashabbuskorlik, sabr-toqat va chidamlilik.* Agar maktabgacha tarbiyachi qanday qilishni, chizishni, yaxshi qo'shiq aytishni bilsa, aktyorlik mahoratiga ega bo'lsa yaxshi bo'ladi. Bunday holda, u har doim talabalari uchun qiziqarli bo'ladi. Oxirgi rol tarbiyachining tashqi qiyofasiga tegishli emas. Bolalar jozibali, tartibli repetitorlarni yoqtirishadi, ular moda soch turmagi va zamonaviy kiyinishadi.

Shunday qilib, zamonaviy tarbiyachi bugungi kunda maxsus tayyorgarlikka muhtojligini ta'kidlash mumkin.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi egalik qilishi kerak eng yangi texnologiyalar bolalarni o'qitish va tarbiyalash sohasida, shuningdek keng bilimga, pedagogik intuitivlikka, yuqori darajada rivojlangan aql va yuksak ma'naviy madaniyatga ega.

Zamonaviy tarbiyachi MTT ilm-fanning turli sohalarida olingan turli xil bilimlarni qo'llashi kerak. Masalan, u rivojlanish psixologiyasini bilmasdan qila olmaydi.

Darhaqiqat, bolalarning ko'plab xatti-harakatlari aynan ruhiyatida yoshga bog'liq o'zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Kattalar ba'zida injiq bo'lib ko'rinishi, aslida bola uchun juda oddiy holat. Biroq, bu haqda unutmang shaxsiy yondashuv. Tarbiyachi bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlay olishlari, ularni rivojlantirishlari va ota-onalarning e'tiborini o'zlarining avlodlarining yutuqlari yoki muammolariga jalb qilishlari kerak va keyin kattalar psixologiyasini bilish allaqachon talab qilinadi, chunki ota-onalar ham har xil.

Zamonaviy jamiyat muammolarga nostandart qarashlarga ega bo'lgan, tadqiqot ishlarini olib bora oladigan va mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan o'qimishli, axloqiy, ijodiy odamlarga muhtoj.

Bugungi kunda tashkilotga yangi yondoshuvlarni ta'minlash muammolari ta'kidlandi. pedagogik bolalar bog'chasi faoliyati, uning oila va boshlang'ich maktab bilan o'zaro aloqasi, asosiy e'tibor sotsializatsiya jarayonlarining samaradorligiga, maktabgacha tarbiyachining shaxsinirivojlantirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan, ehtiyoj professional tarbiyachimustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlar qabul qilish va o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni, ta'lim tizimidagi umumiy vaziyatni hisobga olgan holda ularning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilishga qodir[1].

Zamonaviy tarbiyachi harakatchanlik va dinamizm bilan bir qatorda yuqori darajali bo'lishi kerak pedagogik madaniyat. Professional tarbiyachining pedagogik madaniyati asosan uning

[1]Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017.

darajasi bilan belgilanadi tarbiyachilar tayyorlash, professional muhitda o'zini takomillashtirish istagi.

Shuning uchun tarbiyachi yangi asr har qanday muloqotga tayyor bo'lishi kerak. Men o'z ishimda foydalanaman zamonaviy AKTular axborot izlash faoliyati ko'nikmalari va ko'nikmalaridir. Biroq, men o'qishni avtomatlashtirish jarayoni qanchalik uzoqqa bormasin, tarbiyachi XXI asr ular bilan to'g'ridan- to'g'ri muloqot qilish muhimligini unutmaydi o'quvchilar va ota-onalar. Yo'q, hatto eng ilg'or texnika ham jonli suhbatdoshni almashtirishi mumkin. Har qanday texnik o'quv vositasi, hatto eng ko'p zamonaviy va istiqbolli, - faqat ishonchli yordamchl tarbiyachi, yordam vositalari.

So'nggi 10 – 12 yil ichida ichki pedagogika jamiyatimizda yuz bergan o'zgarishlarga e'tiborni qaratishni boshladi; ishlash tarbiyachi endi bolalar bilan insonparvarlik, bolaning shaxsiyatini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi.

Bugun hamma uchun bu aniq zamonaviy bolalami yangi usulda o'qitish va tarbiyalash kerak.

Diktatsiya qiladi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, tezkor o'zgarishlar zamonaviy dunyo, va farzandlarimiz bunga tayyor bo'lishlari kerak.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, agarda tarbiyachi va murabbiylar ushbu tadqiqotda erishgan yutuqlar bo’yicha faoliyat yuritishsa, bolalardagi shakllangan ahloqiy tasavvur (qarash, fikr yuritish, mulohaza, odoblilik, ezgulik, ahloqiy adolatlar, ahloqiy munobatlar) ahloqiy e’tiqodni yuksaltirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli MTT ma’naviy-axloqiy tarbiya yaxlit pedagogik jarayondir. Unda bolalarning ijtimoiy ahloqiy va ijtimoiy huquqiy me’yorlariga ongli munosabati shakllantiriladi.

Foydalanilgam adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta’limga qo’yiladigan davlat talablari. Toshkent – 2017 yil.

2. Bilimdon (qisqa muddatli guruxlar uchun dastur) I.V.Grosheva, S.S.Mirdjalilova, M.N.A’zamova – Toshkent, 2014 y.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. “2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomil-lashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. T.: 2016 y. 29-dekabr.

O’QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO’NALTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZIMLARI

Sodiqova Sayyora G’ayratjon qizi,
Farg’ona davlat universiteti
pedagogika-psixologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bugungi kunning ta’lim tizimidagi dolzar masalalaridan biriga aylangan o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishning pedagogik-psixologik mexanizimlari hamda o’quvchilarni kasb-hunar tanlashlaridagi to’g’ri tanlov qilishi uchun zarur bo’lgan yordam usullari haqida fikr va mulohazalar keltirib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *ta’lim jarayonlari, kasbga yo’naltirish, to’g’ri tanlov, kasbiy ehtiyojlar, qobiliyat, hunar, motivatsiya, uchrashuvlar, maktab bitiruvchilari.*

Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash g’oyat muhim vazifadir. Shu boisdan hamyoshlarni kasb-hunarga yo’naltirish muammosi maktab davrlaridan boshlab amalga oshiriladi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning tubmohiyati yosh avlodni komil inson sifatida kamol topishiga yo’naltirilgan bo’lib bu borada ta’lim muassasalarida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. O’quvchilarni

maktab davrlaridan boshlab kasb-hunarga yo'naltirish ham olib borilayotgan amaliy ishlarning namunasidir. O'quvchilarni ta'lim jarayonlarida kasb-hunarga yo'naltirish kelajakda o'zi xohlagan kasb yoki hunarni to'g'ri tanlay olishga to'g'ri yo'naltira olish bu ta'lim muassasa jamoasining oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O'quchilarning psixik taraqqiyoti va shaxs rivojlanishidagi sifat o'zgarishlari, ularning yosh va individual xususiyatlari, aqliy imkoniyat, qobiliyat va qiziqishlari asosida ta'lim-tarbiyani tashkil etish va olib borish, eng muhimi har bir o'quvchining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda ularni kasb-hunarga yo'lantirish bu pedagoglardan ulkam mas‟ulyat talab etadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala ekanligini biz yurtimizda chiqarilayotga qonun va qarorlardan bilib olishimiz mumkin.

Xususan, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.12.2021 yildagi 792 sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10 – 11 sinf o'quvchilarini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"1gi qarori nizomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140 son qarorini ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10 – 11 sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining qarori asosida maktablarda belgilangan tarzda o'quvtarbiya jarayonlari olib borilmoqda. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogikpsixologik mexanizimlari o'quv jarayonini o'rganish, motivatsiyani oshirish, ma'lumotlarniyaxshilash va amaliyotni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni kasb-hunargayo'naltirishning pedagogik-psixologik mexanizimlari bosqichli amalga oshirilishi maqsadgamuvofiqdir.

Har bir o'quvchi o'ziga xosdir. Shuning uchun o'quvchilarning individual qobiliyatlarini ko'ra olish muhim sanaladi. Ta'lim jarayonlarida munozara va ijodiy ishlarni tashkillanishi o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishi mumkin. O'quvchilar aynan munozara va ijodiy jarayonlarda ta'limga qiziqishi ortadi. Nazariy olingan bilimlarni amaliyotga aylantirish, ko'rsatish va amalda bajarib ko'rish orqali o'quvchilarning o'zlashtirishini mustahkamlab borish samarali usullardan biridir. O'quvchilarning o'zlashtirishini mustahkamlash uchun ularga vazifa va topshiriqlar berish ham ijobiy sanaladi. O'quvchilar o'zlarida kasb yoki hunarga bo'lgan qiziqishlarni aynan shu jarayonlarda namoyon qilishlari mumkin. Har bir o'quvchining qiziqish va qobiliyatini anglagan holda ularni kasb-hunarga yo'naltirish bu eng muhim bosqichdir. Chunki to'g'ri tanlangan kasb-hunar muvofaqiyat omili hisoblanadi. O'quv jarayonlarida berilgan motivatsiya va qo'llab-quvvatlashlar orqali maktab o'quvchilari kelajakda o'zlari egallamoqchi bo'lgan kasb-hunarni aniq belgilab olishadi. Shuningdek o'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirishda E.A.Klimov tomonidan tavsiya etilgan kasblar tuzilmasidan iborat metodika yordamida o'quvchilarni kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash mumkin. Bu metodikada 15 mehnat ob‟ektiga ko'ra 5ta kasb turlari ajratiladi. Quyida ularni ko'rib chiqamiz.

1. Inson – tabiat (T). Bu tur namoyondalari o'simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yashash sharoitlari bilan ishlashadi. Masalan, meva-sabzavot ustasi, agranom, zootexnik, vetenar, mikrobiolog.

2. Inson – texnika (T). Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob'ektlari bilan ishlashadi. Masalan, texnik, mexanik, muxandis mexanik, muhandis elektrik, texnik texnolog va hokazo.

3. Inson – inson (I) bunda ijtimoiy tizimlar, axloqiy guruhlar, turli yoshdagi insonlar bilan ishlash nazarda tutiladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchisi, sartarosh, shifokor, o'qituvchi va boshqalar.

4. Inson – belgilar tizim. Tabiiy va sun'iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, raqamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami va boshqalar. Masalan, dasturchi, chizmachi – kartagraf, matematik, tilshunos, nashriyot muharriri.

5. Inson – badiiy obraz (B). hodisalarni badiiy aks etishi dalillari – mana shu narsalar bu kasb turi vakillarini qiziqtiradi. Masalan, rassom dekarator, rassom – restavrator, musiqa asboblarini sozlovchi, balet artisti, konsert ijrochisi, aktyor va boshqalar.

Bu kasb turlari maqsadlar belgisiga ko'ra 3 ta sinfga bo'linadi.

1. Gnostik kasblar (G) (qadimgi yunonchadan "gnosis" bilim);
2. O'zgartiruvchi kasblar;
3. Qidiruvli kasblar.

Maktablarda amaliyotchi psixologlari ish jarayonlarida o'quvchilarni shu kabi metodikalar orqali sinab ko'rib, o'quvchilarni o'zlari qiziqqan kasb-hunarga yo'naltirishda foydalanishadilar. Bu albatta o'quvchilarga kelajak kasbini egallashda yuqori motivatsiya beradi. Inregratsiya-har bir darsda fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishda kasbga-hunarga yo'naltirish kasblar haqida ma'lumot berish ahamiyatlidir. O'qituvchi o'quvchilardagi kasbni to'g'ri tanlash asosida o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqara olishlari, eng muhimi kelajakda jamiyatga naf keltira oladigan kadr bo'lib yetishishi lozimligini yetkazib bera olishi kerak. Shuningdek, ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltiruvchi ijodiy va amaliy uchrashuvlar tashkillash ham o'z samarasini beradi. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarga o'zlarini qiziqtirayotgan yo'nalishni tanlashda va qayta fikr olish va xulosalar chiqarishlarida ahamiyatlidir.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, qadim-qadimdan har bir o'zbek xonadonida voyaga yetayotgan farzandga hunar egallashi, ilm olishi uchun alohida e'tibor qaratilgan. Bu an'analar bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Voyaga yetayotgan yoshlarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltira olish bu yoshlarning kelajagi va Vatan ravnaqi uchun muhimdir. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagog-psixologlarning ta'lim jarayonlarida olib borayotgan izlanishlari beqiyosdir. Sababi, pedagog-psixologlar o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashida, hunarga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlashda ahamiyatli shaxslardandir. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, o'quvchilarda kasbiy bilimlar hosil qilish, to'g'ri yo'nalish berish kabi vazifalar ham o'qituvchilarning kasbiy vazifalari hisoblanadi. Kasbhunarga yo'naltirishda qo'yiladigan talablarni bajarishda ta'lim muassasalari pedagogpsixologlari doimo hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Faoliyatlari davomidao'quvchilar bilan ishlash uchun quyidagi tavsiyalar o'quvchilarni kasb-hunarga yo'natirishdamuhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan – o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagog-psixologlar hamkorligi to'ri yo'lga qo'yilishi kerak.

Ikkinchidan – o'quvchilarga kasblar haqida yetarli bilim berilishi lozim. Bu bilimlar har bir fan mavzularini yoritilish jarayonida integratsiya orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan – o'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirish jarayonlarida, ota-onalarga farzandlarini kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarni qo'llabquvvat-lashlari va farzandining qiziqishlarini amalga oshirishi uchun imkon berishlarini tushuntirib borish.

To'rtinchidan – uzoq yillar halol mehnati bilan elga tanilgan hunarmandlar va ular yaratayotgan ishlarni ko'rgazmalariga sayohat uyushtirish yoki ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishini o'quvchilarga ko'rsatish orqali hunarning inson hayotidagi o'rnini to'g'i talqin qila olishga o'rgatish.

Mamlakatimizda barcha sohalardagi amalga oshirilayotgan islohatlarning zamirida davlatimizni yetakchi davlatlar qatoriga chiqarish masalasi bosh maqsad sifatida qaraladi. Ta'lim sohasida ham amlga oshirilayotgan ishlar zamirida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, to'g'ri tanlov qabul qilishida ko'maklashish masalalari yotar ekan yuqorida berilgan tavsiyalarni ahamiyatli deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta’limi o’qitish metodikasi, kasb tanlashga yo’llash. Darslik T .:O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.
2. Nilufar Abdusattorovna Umurzoqova “Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish” Science and education scentifik journal 2022 y.
3. Dilrabo Sheralieyvna Norqo’ziyeva “Ilk o’spirinlarni kasbga yo’naltirishning ayrim psixologik masalalari” «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal.
4. “O’quvchilarni kasbga yo’naltirishning psixologik omillari” Aziza Mirzabekovna Sayubova O’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 16-son 20.02.2023.

UMUMTA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARIDA KIMYoVIY TUShUNChALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sharifov G‘.N.,
Kimyo o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti
Nuriddinov O‘ktam Baxriddinovich,
Kimyo o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi,
Qaroqulova N.Ya.,
2 kurs magistri,
Botirov A.U.,
1 kurs magistri
Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada asosan o‘quvchilarda kimyoviy tushunchalarni hosil qilish metodlarining pedagogik asoslari keltirilgan.*

Kalit so‘z: *metod, kimyo tushuncha, modda, modda xossalari, kimyo reaksiyalar, ta’limiy innovatsion jarayon.*

Bugungi kunda yangi O‘zbekiston Respublikasini rivojlanish bosqichiga o‘tish davrida mamlakatimizda bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, jahon bozorida raqobati keskin o‘zgarib, talab tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqorar va jadal suratlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashish hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqoza etmoqda. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi oliy talim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini yaratilishi oliy talimni tizimli isloh qilishning ustivor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak manaviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni moderizatsiya qilish, ilg‘or xorij texnologiyalariga asoslangan holda talim tizimini tubdan isloh qilishga yo‘naltirilgan. Buning uchun esa zamonaviy o‘qituvchini innovatsion texnologiya asosida shakllantirish zarurdir. Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash, nihoyatda katta diqqat-e’tiborni talab qiladigan ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi yoki talabaning shakllanish jarayonini zo‘r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. U pedagogik jarayonlarni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi pedagogik tadqiqotlarning mohiyatini va har qanday didaktik jarayonda o‘qituvchini pedagogik maxoratini qo‘llash ko‘nikmalarni hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalargina o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, uning shaxsiy qiziqishlarini ichki ehtiyojga aylantiradi. Albatta innovatsiyani hosil qilish va unga o‘quvchi qiziqishini kam yoki ko‘p bo‘lishi o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

Maktab kimyo kursida moddalarning va ularda bo‘ladigan o‘zgarishlarning mohiyatini ochib beradigan amallarga, tushunchalar, nazariyalar va qoidalar sistemasidan iboratdir. Tushunchalar – materiyaning oliy mahsulot bo‘lgan miyaning oliy mahsulidir. Kimyoviy

tushunchalarning hosil qilinish jarayoni, umuman, o‘quvchilarning jonli mushohadan abstrakt tafakkurga va undan praktikaga amaliyotda qo‘llashga, ilmiy nazariyalarni yaratishga izchillik bilan o‘tishga asoslanadi. Jonli mushohada, moddalar va hodisalarni bevosita kuzatishga asoslanadi. Bunda o‘quvchilar barcha tuyg‘u organlari vositasi bilan sezish qobiliyatlarini boyitadilar.

O‘qituvchi o‘rganilayotgan moddalar (hidi, rangi, agregat holat) va hodisalarning kuzatilayotgan tomonlari bilan boshqa tomonlari o‘rtasida bo‘layotgan jarayonlariga, bog‘lanishlariga o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish uchun aniq (kislorod, vodorod, suv, ammiak) misollarni olishlari kerak [1]. O‘quvchilar moddalar haqidagi tushunchalarning shakllantirishda, ularni tabiatda tarqalishi, tuzilish, qanday kimyoviy element va atomlardan tashkil topganligini izohlash zarur. Shundan so‘ng, moddalar qanday birikmalar hosil qilishlar mumkinliklar haqidagi tushunchaga yo‘naltiriladi. O‘quvchilarda kimyoviy modda va birikmalar bo‘yicha bilimlar kelgandan so‘ng, bilimlar umumlashtirilib, o‘quvchilarda modda haqidagi dastlabki tasavvurlar hosil bo‘lgandan so‘ng, kimyoviy element tushunchasini bilib olishda atomlar va molekulalarning tuzilish nazariyasi, shuningdek, davriy qonun va elementlar davriy sistemasi katta ahamiyat kasb etadi. Eng muhim tushuncha bu eritmada boradigan jarayonlarning tushuntiriladi. Chunki o‘quvchilar modda eriganda yoki biror eritmada boradigan reaksiyalar rangsiz eritma bo‘lganligi uchun ionlarda boradigan jarayonlarning tasavvur qila olmaydi. Buning uchun eritma va elektrolitik dissotsiyalanish nazariyalarini tushuntirishda indikatorlar nazariyasini to‘liq tushunish kerak. Masalan: Natriy gidroksid eritmasi berilgan bo‘lsa, bu eritma rangsiz ekanligini o‘quvchi ko‘rishi mumkin, ammo eritma tarkibida qanday ionlar mavjudligini indikator eritmasini tomizish orqali eritmani rangi gidroksil ionlarini hisobiga qizarilishligini tajriba orqali ko‘rsatish, o‘quvchilarda indikator tushunchalarini shakllantirib boradi. Buni yanada rivojlantirish uchun o‘quvchilarga indikatorlarni turlari, rang hosil qilish sabablarini izohlab, indikatorlarni turlarini, eritmalarini qog‘oz indikatorlari orqali ko‘rsatib, har biriga alohida tajribalar o‘tkazish orqali indikatorlar nazariyasi shakllantiriladi. Metodist o‘qituvchi ushbu nazariyalarni tushuntirishda o‘zining xususiy metodikalariga asoslanadi. Bunda asosan o‘quvchilarda evristik mustaqil ishlash metodikalariga asoslantiriladi, ularda baxs munozara, aqliy hujum metodlari asosida dars o‘tishlariga imkoniyatlar yaratiladi. Umumiy holatda, o‘quvchilarda kimyoviy hodisalarni kuzatish, ularni izohlab berish va amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish kerak [1,3]. Bu esa o‘qituvchi ko‘rsatadigan yoki o‘quvchilarning o‘zlari o‘tkazadigan tajribalarni sistemali suratda tahlil qilish asosida hosil qilinadi.

Bu tahlil quyidagicha amalga oshiriladi:

1) Reaksiya uchun olingan moddalar (ularni xarakterli xossalari);
2) Reaksiya sharoiti (qizdirish, katalizator ta’sir ettirish, sovutish, qayta kristallash);
3) Kuzatiladigan o‘zgarishlar (rangning o‘zgarish, gaz ajralib chiqishi, yorug‘lik qiqishi va boshqalari);
4) Kuzatiladigan hodisaning mohiyati (izohlash, rasmlarini chizish, kimyoviy reaksiyalarning tenglamalarni yozish);
5) Tajriba o‘tkazish metodikasini o‘rganish;
6) Umumiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish;

O‘quvchilarda kimyoviy tushunchalarni shakllantirishda metodist o‘qituvchini klassik metodlar va pedagogik texnologiyalardan inter aktiv metodlarini qo‘llash orqali amalga oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.R.Sharipov, G‘.N.Sharifov, F.Turdikulova, B.Raxmanov Kimyo fanini o‘qituvchi-sining kreaktivlik qobiliyatini shakllantirish metodlari. Zamonaviy kimyoning dolzarb muommalari mavzusida Respublika anjumani materiallar to‘plami. Buxora, 2020. 216 – 219.

2. Rahmatullaev N.G‘., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi. Universitetlar va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining “Kimyo” mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. 361 b.

3. Omonov H.T., Qurbonnazarov O.A. Kimyo, inson va biosfera. – Toshkent: O‘zbekiston ziyolilarining ilmiy-ma’rifiy uyushmasi, 1993. – 26 b.

STEAM TA`LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALARNI ILMIY FAOLIYATGA YO`NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xasanboyev Azizbek Botirali o`g`li,
Namagan davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo`nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'quvchilarni ilmiy faoliyatga jalb qilish uchun (fan, texnika, muhandislik, san'at va matematika) ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari o'rganilgan. Unda fanlararo ta'limning ahamiyati muhokama qilinadi, STEAM ta'limini amalga oshirish usullari bayon qilinadi, talabalarni jalb qilish va yutuqlari bo'yicha natijalar taqdim etiladi, foyda va muammolar bo'yicha har tomonlama muhokamani boshlaydi va STEAM ta'limini samarali integratsiya qilish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.*

Kalit so'zlar: *ta'limi, pedagogik asoslar, ilmiy faoliyat, talabalarni jalb qilish, fanlararo ta'lim, texnologiya integratsiyasi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогические основы использования образовательных технологий для вовлечения учащихся в научную деятельность (Наука, техника, инженерия, искусство и математика). В нем обсуждается важность междисциплинарного обучения, излагаются методы реализации обучения Steam, представлены результаты по вовлеченности и достижениям учащихся, начинается всестороннее обсуждение преимуществ и проблем и заканчивается предложениями по эффективной интеграции обучения Steam.*

Ключевые слова: *образование, педагогические основы, научная деятельность, вовлечение студентов, междисциплинарное обучение, интеграция технологий.*

Annotation. *This article explores the pedagogical foundations of the use of educational technologies (science, technology, engineering, art and mathematics) to attract students to scientific activities. It discusses the importance of interdisciplinary education, outlines methods for implementing STEAM education, presents results on student engagement and achievement, initiates a comprehensive discussion of benefits and challenges, and concludes with proposals for effective integration of STEAM education.*

Keywords: *education, pedagogical foundations, scientific activity, student engagement, interdisciplinary education, technology integration.*

Ta'limning tez rivojlanayotgan landshaftida an'anaviy o'qitish usullari texnologiya va fanlararo ta'limni o'z ichiga olgan innovatsion yondashuvlar bilan inqilob qilinmoqda. Bunday yondashuvlardan biri Steam education bo'lib, u fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'quvchilarga yaxlit o'rganish tajribasini taqdim etish uchun birlashtiradi. Ushbu maqola talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, tushunchalarni chuqurroq anglash va ularni zamonaviy dunyoning murakkabliklariga tayyorlash uchun STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik asoslarini o'rganadi.

STEAM ta'lim texnologiyasini joriy etish bir necha asosiy usullarni o'z ichiga oladi:

- O'quv dasturining integratsiyasi: ilmiy tushunchalarni texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilan uyg'unlashtiradigan fanlararo o'quv dasturlarini yaratish. Bu talabalarni ushbu fanlarning o'zaro bog'liqligini ko'rishga undaydi va tanqidiy fikrlashga yordam beradi.

- Loyihaga asoslangan ta'lim: o'quvchilarga hayotiy masalalarni yechishni talab qiladigan amaliy loyihalarni ishlab chiqish. Ushbu loyihalar talabalarni hamkorlik, ijodkorlik va nazariy bilimlarni qo'llashni talab qiladigan ilmiy faoliyatga jalb qiladi.
- Raqamli vositalar va simulyatsiyalar: o'quv tajribasini oshirish uchun virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar va 3D modellashtirish kabi texnologik vositalarni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalar talabalar uchun tajribalar o'tkazish va murakkab tushunchalarni tasavvur qilish uchun xavfsiz va dinamik muhitni ta'minlaydi.
- Hamkorlikda o'qitish: turli fanlardan talabalar o'rtasida jamoaviy ish va hamkorlikni rag'batlantirish. Bu STEAM-ning fanlararo tabiatini aks ettiradi va talabalarni kelajakdagi kareralarida hamkorlikdagi ish muhitiga tayyorlaydi.

Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish uchun STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) ta'lim texnologiyasini qo'shishning pedagogik asoslari sizni qiziqtirganga o'xshaydi. STEAM education ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ushbu sohalarni birlashtirgan fanlararo yondashuvga qaratilgan. Bu erda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi pedagogik asoslar:

- Loyiha asosida ta'lim (PBL): PBL Buxoriy ta'lim toshi hisoblanadi. Talabalar murakkab muammolarni hal qilish uchun bir nechta fanlardan tushunchalarni qo'llashni talab qiladigan Real loyihalar ustida ishlashadi. Ushbu yondashuv amaliy o'rganishni, hamkorlikni va bilimlarni amaliy qo'llashni rag'batlantiradi.
- Fanlararo yondashuv: STEAM turli fanlarning integratsiyasini rag'batlantiradi, bu esa o'quvchilarga ular o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish va ularning real dunyo bilan qanday bog'liqligini tushunish imkonini beradi. Ushbu yondashuv talabalarga tushunchalarni yaxlit tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.
- So'rovga asoslangan ta'lim: STEAM ta'limi qiziqishga asoslangan ta'limni targ'ib qiladi. Talabalar o'zlari savollar berishadi, mavzularni o'rganadilar va o'rganadilar, tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar va ilmiy jarayonlarni chuqurroq tushunadilar.
- Amaliy mashg'ulotlar: amaliy mashg'ulotlar, tajribalar va loyihalarni o'z ichiga olish talabalarga ilmiy tushunchalar bilan bevosita shug'ullanish imkonini beradi. Ushbu taktil yondashuv ularning ma'lumotlarini tushunish va saqlashni kuchaytiradi.
- Texnologiya integratsiyasi: virtual simulyatsiyalar, interaktiv ilovalar va onlayn resurslar kabi texnologiyalardan foydalanish o'quv tajribasini oshiradi. Texnologiya ilg'or vositalar, ma'lumotlarni tahlil qilish va hamkorlikdagi platformalarga kirishni ta'minlab, ilmiy tushunchalarni chuqurroq o'rganishga yordam beradi.
- Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish: STEAM ta'limi o'quvchilarga ma'lumotlarni tahlil qilish, sintez qilish va ijodiy echimlarni ishlab chiqishni talab qiladigan ochiq muammolarni taqdim etish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.
- Ijodkorlik va badiiy ifoda: STEAM-dagi "A" ijodkorlik va badiiy ifoda muhimligini ta'kidlaydi. San'atni fan va texnologiya ta'limiga qo'shish innovatsion fikrlashni rivojlantiradi va talabalarga o'z g'oyalarini vizual tarzda etkazish imkonini beradi.
- Hamkorlikda o'qitish: talabalar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish jamoaviy ish, muloqot qobiliyatlari va ko'p tarmoqli jamoalarda samarali ishlash qobiliyatini rivojlantiradi – bu zamonaviy ishchi kuchining hayotiy mahorati.
- O'rganish uchun baholash: STEAM ta'limida baholash usullari faqat yakuniy natijalarga emas, balki o'quvchilarning jarayoni, muammolarni hal qilish strategiyasi va ijodkorligini tushunishga qaratilishi kerak. Bu o'ychan jurnal o'z ichiga olishi mumkin, loyiha taqdimotlar, va peer baholash.
- Haqiqiy dunyo konteksti: ilmiy faoliyatni Real muammolar va ilovalar bilan bog'lash talabalarga o'rganayotgan narsalarining dolzarbligini ko'rishga yordam beradi. Bu ularni ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun o'z bilimlarini qo'llashga undaydi.

- Moslashuvchanlik va moslashuvchanlik: ta'lim texnologiyasi va u qamrab olgan sohalar doimo rivojlanib bormoqda. Moslashuvchanlik va yangi vositalar va texnikalar paydo bo'lganda ularni o'rganish va qo'llash qobiliyatini ta'kidlang.
- O'qituvchilarga ko'maklashish: o'qituvchilar o'quvchilarning o'quv safarlariga rahbarlik qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular fasilitator sifatida harakat, yo'l-yo'riq berish, o'ylantirib savollar so'rab, va ularning razvedka va kashfiyot talabalarga qo'llab-quvvatlash.

Ushbu pedagogik asoslarni qabul qilish orqali o'qituvchilar talabalarni STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslangan ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga samarali ravishda qisqartirishlari, ilmiy tushunchalarni chuqurroq anglashlari va umrbod o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni rag'batlantirishlari mumkin.

STEAM ta'lim texnologiyasining afzalliklari aniq bo'lsa-da, muammolar ham paydo bo'ladi: O'qituvchilarni tayyorlash: o'qituvchilar texnologiya va fanlararo yondashuvlarni o'qitish usullariga samarali integratsiya qilish uchun etarli tayyorgarlikni talab qiladi.

Resurs cheklovlari: STEAM faoliyatini amalga oshirishga ta'sir qiluvchi ma'lum ta'lim sharoitida texnologiya va tegishli resurslarga kirish cheklanishi mumkin.

Baholash usullari: fanlararo loyihalar va ilmiy faoliyatni baholash qiyin bo'lishi mumkin, chunki an'anaviy baholash yondashuvlari talabalarning barcha ko'nikmalarini qamrab olmasligi mumkin.

Xulosa va takliflar:

STEAM ta'lim texnologiyasi talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish uchun o'zgaruvchan yo'lni taklif etadi. O'z salohiyatidan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar va muassasalar:

- Kasbiy rivojlanishga sarmoya kiriting: o'qituvchilarni bilan integratsiyalashgan darslarni samarali loyihalashtirish va etkazib berish uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlash.
- Resurslardan foydalanishni rag'batlantirish: barcha talabalarning mazmunli ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlash uchun etarli resurslar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini taqdim eting.
- Baholash strategiyalarini qayta ko'rib chiqish: STEAM ta'limi tomonidan tarbiyalangan turli ko'nikmalarni, shu jumladan hamkorlik, ijodkorlik va muammolarni hal qilishni o'lchaydigan baholash usullarini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta'lim texnologiyasi orqali talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilishning pedagogik asoslari zamonaviy ta'lim uchun ulkan va'da beradi. Fanlararo ta'limni rivojlantirish, amaliy faollikni rag'batlantirish va texnologiyadan foydalanish orqali o'qituvchilar talabalarni tobora murakkab va o'zaro bog'liq dunyoda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va fikrlash bilan jihozlashlari mumkin.

Adabiyotlar.

1. Ergasheva G.B. Zamonaviy jamiyatda fan va ta’limning rivojlanishida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni // Scientific progress. – 2021.

2. Rajabova L. Steam ta’lim dasturi asosida matematika masalalarini yechishning ilg’or usullari // центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – т. 1. – №. 1.

3. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Talabalarda ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishga oid kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion ta’lim muhiti beradigan natijalar. Conferencea, 76–79. Retrieved from https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1918

4. D.Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. – Science and innovation, Volume 2 Issue 1, 2023. 412-413.

5. Xalilova Dilnoza Furkatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. – Science and innovation, Special Issue 4, 2023. 57-59.

6. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Conferencea, 115 – 117.

7. I.V.Grosheva, G.E.Djanpeisova, U.T.Mikailova, M.A.Kenjabayeva, N.A.Miftayeva. O‘yin orqali ta’lim olish. T., 2020.

GRAFIK FANLARNI MUSTAQIL O‘QITISH SIFATINI OSHIRISH UCHUN MATNLI TESTLARIDAN FOYDALANISH

Ataxanova S.O.,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Muhandislik va kompyuter grafika” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Umarova D.Sh.,
Shomurotova Z.Sh.,
Xolmo‘minova G.O‘.,
Abduxalilov J.A.,
CHDPU talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Chizma geometriya va chizmachilik” fani bo‘yicha nazorat ishlarini o‘tkazishda matnli testlardan foydalanish haqida ma’lumotlar yoritilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi talabalarning fazoviy tasavvur etish bo‘yicha egallagan bilimlar darajasini baholashga konkret misollar keltirilgan va fanning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ushbu fanning bo‘llim va mavzulari bo‘yicha shakllantiriladigan matnli va grafik testlar va ularning bir-biriga nisbatan farqli jihatlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *chizma geometriya va chizmachilik fani, grafikli test, darajali test, matnli test, konstruktiv test, interfaol ta’lim,oraliq nazorat, yakuniy nazorat, bilim, ko’nikma, malaka.*

Ma’lumki, hozirgi zamonda ta’lim berish sifatini oshirish va ko‘zlangan natijalarga erishish uchun, o‘quv jarayoniga interfaol ta’lim metodlarini maqsadli qo‘llash odat tusiga kirgan.

Interfaol ta’lim metodlarini tanlashda, albatta, har bir fanning o‘ziga xos xususiyatini inobatga olish zarur bo‘ladi, chunki bitta fan uchun qo‘llanilgan interfaol metod yoki usul, uni boshqa fanda (mavzuda) qo‘llanilganda, umuman samara bermasligi ham mumkinligi amalda isbotlangan.

Talabalar tomonidan egallangan bilim, ko’nikna va malakalarning darajalarini doimo nazorat qilish ta’lim jarayoning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Har qanday fanni yuqori darajada o‘zlashtirishning asosiy shartlaridan biri, shu fan bo‘yicha tuzilgan test savollaridagi javob variantlaridan to‘g‘risini tanlay bilishdir.

Test talabaning fan yoki uning bo‘limlari (mavzulari) bo‘yicha olgan amaliy va nazariy bilimlarini qisqa vaqt oralig‘ida tekshirish (baholash, nazorat qilish, sinash) imkonini beruvchi tezkor va samarali usullardan hisoblanadi.

Har qanday test savolini shakllantirishda, uning soddaligi, o‘rtacha qiyinligi va murakkabligidan qat’iy nazar, savol matnining aniqligiga, uning ravon bayon etilishiga, qisqa va lo‘ndaligiga, grammatik va orfografik tuzilishiga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Quyidagi 1-jadvalda, “Chizma geometriya va chizmachilik” fanidan talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘lgan, rus olimi B. Bespalko tuzgan testlarning turlari keltirilgan.

Hozirgi vaqtda, “Chizma geometriya va chizmachilik” fanidan yaratilgan o‘quv adabiyotlaridagi tuzilgan test savollarining deyarli barchasida, beriladigan savol bilan birga uning grafik ilovasi ham taqdim etilgan. Bunday testlar mualliflar I.Rahmonov va Ukrainalik olim S.Kolotovning nashr ettirgan o‘quv adabiyotlarida o‘z aksini topgan. Bunday holat bilan berilgan testda, uning grafik ilovasi taqdim etilgani bois, javob variantlaridan to‘g‘risini toppish talabada unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi.

1-jadval

Test topshiriqlarining maqsadi	**Test topshiriqlarining turlari**	**Xususiyatlari**	**Javoblar**	**Test topshiriqlarini ifodalash namunalari**
Talabalarning avval o‘rgangan mateialni tanishini tekshirish (ozlashtirishning I darajasi)	1. Tanib olishlikka oid test	Bir vaqtning ozida topshiriq va javobdan iboratdir	“ha” yoki “yo‘q”	…hisoblanadimi?
	2. Ajratib olishlikka oid test	Savol hamda tanlash uchun javob variantlaridan iborat bo‘ladi	1) 2) 3) 4)	…shulardan qaysi biri… to‘g‘riligini ko‘rsating
	3. Tasniflashga oid test	Mos qismlarni taqqoslah topshiriqlaridan iborat bo‘ladi	1. (a) 2. (b) 3. (c) 4. (d)	Moslikrni ko‘rsating (ularning tushunchasi va belgilanishi)
O‘zlashtirgan ma’lumotlarni qayta aytib berish (ozlashtirishning II darajasi)	1. Qo’shimchalar qo’yiladigan test	Hohlagan shaklda: og‘zaki, belgili, chizmada taqdim etilgan fikrni to‘ldirish uchun talab etiladi	Matn bayonidaker akli so‘z o‘rniga nuqta qo‘yiladi	…(formulani) to‘ldiring, etishmayotgan elemetni)… ko‘rsating
	2. Konstruktiv (tuzilishlikka oid) test	Grafik topshiriq matnda bayon etirish		Grafik topshiriq chiziladi

So‘nggi yillarda ushbu fan bo‘yicha tuziladigan testlar faqat **matn orqali** berilish holatlari kuzatilmoqda, ayniqsa bu fan bo‘yicha o‘tkaziladigan olimpiada topshiriqlariga matnli testlarning grafik testlarga nisbatan ko‘proq miqdorda kiritilishi odat tusiga kirmoqda.

Bunday **matnli testlar** bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasida mualliflar N.Abdusattorov va R.Sindarov tomonidan 2019 yili yaratildi va uni nashr etishga ruxsat berildi.

Ta’kidlash lozimki, agar test savoli faqat matn orqali berilsa, undagi to‘g‘ri javob variantini topish talabada birmuncha qiyinchilik tug‘diradi, chunki bunday ko‘rinishdagi testning savoli, **grafik ilovasiz** berilishi sababidan, uning to‘g‘ri javobini topishga ko‘proq vaqt sarflanishini anglash qiyin emas. Shu sababli faqat matn orqali berilgan testlar, grafik ilovalari bilan berilgan testlarga nisbatan murakkabligi yuqori sanaladi va ularning javoblari ichidan to‘g‘ri javob variantini topish talabadan yetarli darajadagi grafik tayyorgarlikni va fazoviy to‘g‘ri tasavvur eta olish qobiliyatini talab qiladi. Boshqacha aytganda, talabadan fanning bo‘limi yoki mavzulari bo‘yicha test nazoratidan yuqori natijaga erishishi uchun odatdagidan ko‘proq o‘qib-o‘rganishi talab etiladi.

Yuqorida keltirilganlarni aniqroq tasavvur etish uchun, quyidagi misollarga murojaat qilamiz.

1. Test savoli grafik ilovasi bilan berilgan (1-holat).

Savol: “*A”* nuqtasining berilgan proyeksiyalariga asosan, *P* tekislikning gorizontal izini o‘tkazing va hosil bo‘lgan tekislikni nomlang (1 – shakl).

(1-variant)

A. Gorizontal tekislik

B. Gorizontal proyeksiyalovchi tekislik


C. Frontal proyeksiyalovchi tekislik
D. Umumiy vaziyatdagi tekislik

Shuningdek, savol quyidagi tarzda ham qo‘yilishi mumkin:

Savol: “*A*” nuqtasining berilgan proyeksiyalariga asosan, *P* tekislikning yetishmagan izi abssissa o‘qiga nisbatan qanday holatda o‘tadi? (1 – shakl)

(2-variant)

A. Og‘ma holatda
B. Parallel holatda
C. Perpendikulyar holatda
D. O‘tkir burchak ostida



1 – shakl

Ushbu test savollaridan to‘g‘ri javob variantini topish uchun, birinchi navbatda, berilgan shaklga diqqatni qaratish lozim bo‘ladi. Shakldan ko‘rinib turibdiki, A^2 nuqtasi nomi aniqlanishi kerak bo‘lgan *P* tekisligining frontal izida joylashgan, A^1 nuqtasi esa *H* tekisligida joylashgan.

Grafik tayyorgarligi bo‘lgan talaba bu test savolidan to‘g‘ri variantini hech qiynalmay topadi.

2. Test savoli faqat matnda berilgan hol (2-holat).

Savol: Agar epyurda, A^2 nuqtasi *P* tekisligining frontal izida joylashgan bo‘lsa, A^1 nuqtasi *H* tekisligida joylashgan bo‘lsa, bu nuqta qanday tekislikka tegishli bo‘ladi?

Bunday tarzda berilgan test savolidagi javoblardan to‘g‘risini topish talabadan yetarli darajadagi fazoviy tasavvur eta oish qobiliyatini talab etadi, ya’ni savolga to‘g‘ri javobni topish uchun, talaba 1-holatdagi grafik tasvirni ko‘z oldiga keltira olishi lozim bo‘ladi.

Test savollarini nazoratini o’tkazish jarayonida ularga javob berish vaqtining chegaralanganligini, hamda boshqa ob’ektiv va sub’ektiv omillarni hisobga oladigan bo‘lsak, 2-holatda berilgan testdagi javob variantlaridan to‘g‘risini topishga ko‘proq vaqt sarflanishini anglash qiyin emas. Quyida matnli testlardan namunalar keltirilgan.

Chizma geometriya bo‘yicha ajratib olishlikka oid matnli testlar

(Keltirilgan javob variantlaridan biri tanlansin)

1. Bu turdagi kesmaning frontal proyeksiyasi applikata o‘qiga perpendikulyar holatda, gorizontal proyeksiyasi esa ordinata o‘qi bilan o‘tkir burchak hosil qiladi. Gap qaysi kesma ustida ketyapti?

A. Profil kesma
B. Profil proyeksiyalovchi kesma
C. Gorizontal kesma
D. Gorizontal proyeksiyalovchi kesma

2. Bu turdagi kesmaning frontal proyeksiyasi abssissa o‘qiga parallel holatda, gorizontal proyeksiyasi esa abssissa o‘qi bilan o‘tkir burchak hosil qiladi. Gap qaysi kesma ustida ketyapti?

A. Frontal kesma
B. Profil kesma

C. Gorizontal kesma
D. Gorizontal proyeksiyalovchi kesma

Qo‘shimchalar qo‘yiladigan testlar

(Matndagi nuqtalarning o‘rniga tegishli so‘z yoki jumlani berilgan javob variantlari ichidan tanlab qo‘yilsin)

1. Frontal kesmaning gorizontal proyeksiyasi……..nisbatan parallel o‘tadi.

A. Abssissa o‘qiga
B. V tekisligiga
C. H tekisligiga
D. Koordinata o‘qiga

2. Frontal kesmaning.....proyeksiyasi OX o‘qiga nisbatan.....o‘tadi.

A. profil / parallel
B. frontal / perpendikulyar
C. gorizontal / perpendikulyar
D. gorizontal / parallel

Tanib olishlikka oid testlar

(Quyidagi savollarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob berilsin)

1. Gorizontal kesmaning frontal proyeksiyasi applikata o‘qiga perpendikulyar holatda o‘tadimi?

2. Frontal kesmaning profil proyeksiyasi applikata o‘qiga perpendikulyar holatda o‘tadimi?

3. Gorizontal proyeksiyalovchi kesmaning gorizontal proyeksiyasi ordinata o‘qi bilan o‘tkir burchak hosil qiladimi?

Konstruktiv testlar


Bunday testlar test topshirig‘idan iborat bo‘lib, unda bayon etilgan matn bo‘yicha grafik (geometrik) yasashlarni bajarish talab etiladi.

Misol:

Gorizontal tekislikdan 30 mm masofada joylashgan, abssissa o‘qiga nisbatan 60° ostida o‘tuvchi va uzunligi 60 mm bo‘lgan *AB* gorizontal kesmaga, undan 15 mm masofada, uzunligi 40 mm bo‘lgan *CD* gorizontal kesmasi perpendikulyar holatda o‘tkazilsin (2 va 3-shakllar).


Barcha grafik (geometrik) yasashlar MONJ chizmasida bajarilsin.

Konstruktiv testning 1 – javob varianti



2 – shakl

Konstruktiv testning 2 – javob varianti




3 – shakl

Chizmachilik bo‘yicha konstruktiv test namunasi

Asosi kvadratdan iborat, balandligi 90 mm to‘g‘ri prizma asosi bilan gorizontal tekislikka tayanadi. Kvadratning tomoni 70 mm va u abssissalar o‘qi bilan 45° ni tashkil etadi. Prizmada uzunligi bo‘yicha diametri 60 mm silindrik teshik mavjud. Silindrning markaz chiziqlari kvadratning diagonallari bilan ustma-ust tushadi. Shuningdek, prizma balandligi bo‘yicha frontal proyeksiyalovchi holatdagi teng tomonli uchburchakli teshikka ega bo‘lib, uning asosi prizmaning o‘rtasida joylashgan, asos uzunligi 50 mm teng bo‘lib, prizmaning vertikal simmetriya o‘qiga nisbatan simmetrik tarzda joylashgan. Yuqorida bayon etilganlaga asosan, prizmaning kompleks chizmasi chizilsin.

Konstruktiv testing javobi (4 – shakl)



4 – shakl

Xulosa o‘rnida shularni ta’kidlash lozimki, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda, grafik fanlarni o‘qitish va ular bo‘yicha nazorat o‘tkazish jarayonlariga ham zamon talablariga javob beradigan jiddiy o‘zgarishlarni kiritish va innovatsiyalarni joriy etishga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb masala (muammo) sifatida qaralmog‘i lozim. Bular esa, shubhasiz, bo‘lajak keng profilli muhandis va pegagog kadrlarni tayyorlashda muhim bosqich sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orinbaevna A.S., Mukhamatsultonovna M.I., Sergeevich P.D. (2020). Psychological and pedagogical problems of spatial thinking development in drawing lessons. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (1) Part II, 1-5.

2. Ornbaevna A.S. (2020). Descriptive geometry and modern possibilities in the process of studying it. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (11), 9094.

3. Eralievich S.X., Orinbayevna A.S., Shavkatovich X.R. (2020). The importance of exhibitions and competitions in organizing fine art clubs in schools. *Journal of Critical Reviews*, 7 (15), – p. 2519 – 2523.

4. Атаханова С.О. (2020). “ЧИЗМА ГЕОМЕТРИЯ ВА МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИ” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА МОДУЛ-КРЕДИТ ТИЗИМИНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 1022-1034.

5. Atakhanova Svetlana Ornbaevna, Chubarova Galina Andreevna (2020) IMPROVING THE QUALITY OF TEACHING DRAFT GEOMETRY IN UNIVERSITIES. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (12), Part III, 148-151.

6. Атаханова С.О., Чубарова Г.А. (2020). Повышение качества преподавания начертательной геометрии в вузах. *MAKTAB VA HAYOT* №2, 22 – 23 с.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI BITIRUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Hamdamov Foziljon Rustamjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Milliy universitetining
Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrasi stajiyor o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi bitiruvchilarining kasbiy qiziqishlarni oshirishda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi bilan integratsiya qilish haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kasb, birituvchi, maktab, ta’lim, o‘quvchi.*


Dunyoda taraqqiyot sari yuz tutayotgan davlatlardagi ta’lim-tarbiya jarayonining yo‘lga qo‘yilishini kuzatar ekanmiz, ulardagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarda amalga oshirilayotgan islohatlarni o‘rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta’lim tizimini yanada rivojlanishda, ta`lim-tarbiyada, maktab faoliyatini munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga xam joriy qilishimiz zarur ekanligini ko‘rsatmoqda. Zotan, xozirgi zamon ta’limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak.

Mamlakatimizda ham umumiy o‘rta ta’lim va professional ta’limga juda katta etibor berilmoqda. Jumladan 2024-yil 5-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2024 yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda bir nechta muhim vazifalar va topshiriqlar masullarga yuklatildi. Shu o‘rinda umumiy o‘rta ta’lim, professional va oliy ta’limdagi masalalar ham muhokama qilindi. O‘tgan yilgi 380 ming maktab bitiruvchisidan 180 mingi ta’limni kollej, texnikum yoki oliygohda davom ettirmoqda. Qolgan 200 ming nafari mehnat bozoriga kirib kelgani takidlab o‘tildi. Dual ta’lim bilan 234 ta profesional ta’lim muassasasida barcha o‘quvchilar ham qamrab olinmaganligi. Vazirliklar o‘zlariga tegishli kollej va texnikumlarda o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash tizimli ishga qo‘yilishi, ulardagi quvvatlar 100 foizga ishlatilishi kerakligi haqida qatiy topshiriqlar berildi. Qurilish vazirligida 13 ta, Suv xo‘jaligi vazirligida 9 ta, Veterinariya qo‘mitasidagi 5 ta kollej va texnikumda malakali amaliyotchi ustalarni ko‘paytirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurligi haqida topshiriqlar berildi [5].

Maktab o‘quvchilarini ma’lum bir kasbga yo‘naltirish eng dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim oluvchilarda ma’lum bir mutaxassislik va kasblar bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta’lim tizimi joriy qilingan. Keyingi yillarda jahon ta’limi bo‘yicha ko‘pgina maqolalar, qo‘llanmalar chop etildi, unga bag’ishlab seminarlar, anjumanlar, o‘qishlar, uchrashuvlar o‘tkazildi. Masalan: Amerika davlat maktablarining yuqori

sinflaridagi o‘qish-o‘qitish tizimi biznikidan tubdan farq qiladi. Yuqori sinflardagi har bir o‘quvchiga alohida o‘qituvchi-murabbiy biriktiriladi. U shu o‘quvchining qobiliyati, qiziqishlarini sinchiklab o‘rganib, faqat shu o‘quvchiga mos alohida reja tuzadi, uning o‘qishiga rahbarlik qiladi. U o‘rganishi lozim bo‘lgan majburiy fanlar ro‘yxatini tuzib chiqadi. Yaponiyada oliy ta’lim muassasalariga o‘rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o‘quvchilar qabul qilinadi. Kasb-hunar maktablari esa 1-kichik kollej; 2-texnik kollej 3-maxsus kollejlarga bo‘linadi. Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va oliygohning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi. Janubiy Koreyada ta’lim tizimiga asos qilib an’anaviy g‘arb modeli olingan. Kasb-hunar maktablari Koreyada 600 dan ortiq. Bu maktablarning 45 foizi bo‘lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi, qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo‘jalik ixtisosliklari o‘zlashtiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar homiylik qiladilar. Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va komilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasbga yo‘naltirishdan iboratdir. Bu degani dastlabgi bosqichni tugatgach, o‘quvchilar kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha guvohnoma oladilar. So‘ngra ikkinchi bosqich boshlanadi. Bu bosqichda 15-18 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta’lim oladilar. Ular uch yil o‘qib bakalavr unvoni va diplomi uchun imtihon topshiradilar. Ana shunda diplom olgan o‘quvchilargina oliy o‘quv yurtlarga qabul qilinish huquqiga ega bo‘ladilar. Fransiyada o‘quvchilar faqat pedagogika, politexnika instituti, oliy ma’muriy maktablarga kirish uchungina imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko‘riladi. Germaniya ta’limida asosiy maktablarda ya’ni 9 yoki 10 yillik o‘qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o‘tiladi, yani maktabni tugatganlar o‘rta maxsus o‘quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi kasb-hunar maktablariga kirib o‘qish huquqiga ega bo‘ladilar. Yuqorida keltirilgan manbaalar bukungi ta’lim tizimida, rivojlangan mamlakatlardagi ta’lim tizimi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga e’tibor va qiziqishning oshishiga sabab bo‘ladi [1-4].

O‘zbekistonda joriy o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Jami 208 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasasida 10-sinfdan boshlab o‘quvchilarga bitta kasb-hunarga o‘rgatish ishlari amalga oshirilib bormoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarga o‘rgatiladigan bitta kasb-hunar turi va ular amaliyotga joriy qilish ishlari allaqachon boshlab yuborilgan. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasbiy ta’lim fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari kasbning qiyinchilik darajasidan kelib chiqib tasdiqlangan.



Rasm. Umumiy o‘rat at’lim maktablaridagi kasb-hunar yo‘nalishlari

Tanlab olingan 208 ta maktabda o‘quvchilar qiziqishidan kelib chiqib, quyidagi 3 yo‘nalishlardan biri bo‘yicha kasb-hunar o‘rgatiladi:

- ishchi kasblar (hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatidan kelib chiqib, tadbirkor va hunarmandlar jalb qilingan holda 64 turda),
- tadbirkorlik (21 turdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha),
- zamonaviy kasblar (10 dan ortiq axborot texnologiyalari va kreativ industriya yo‘nalishi bo‘yicha) [6-7].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarga o‘rgatiladigan bitta kasb-hunar yo‘nalishi bo‘yicha professional ta’lim muassasalariga tavsiyanoma berilsa maqsadga muofiq bo‘lar edi. Bundan tashqari o‘quvchilarni o‘zi qiziqqan kasb bo‘yivha ma’lumotlarni ko‘paytrish kerak, ya’ni kasblar to‘g‘risida rasmlar, matn (professiogramma) ko‘rinishida ma’lumot va axborotlar berib boorish lozim, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar va shu yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalari to‘g‘risida ma’lumotlar berib boorish maqsadga muofiq bo‘lar edi. boriladi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Jumayeva G.T. Maktab o‘qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 3/(2022), 378 – 380 b.
2. Jumayeva G.T. Maktab o‘qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlari. Ta’lim, fan va innovatsiya. Jurnal, 2-son.2022. esijournal.uz. T., 76 – 80 b.
3. Mahkamov U.I. Yuqori sinf talabalarida axloqiy madaniyatni shakllantirishining pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori. ... diss. – T., 1998. – B. 28.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – T.: 1993. – B. 48.2.
5. https://www.facebook.com/PressSecretaryUZ
6. https://static.tuit.uz/uploads/1
7. https://hozir.org/talim-metodlari.html

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONINI SIFATLI TASHKIL ETISH

Tagayev Odil Nurmuminovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universitetining
Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrasi assistenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada iqtisodiyot yo‘nalishi oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak iqtisodchi mutahassislarni sifatli kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tizimi tashkil etish va uni takomillashtirish haqida so’z boradi.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta`lim, sifat, kasb, iqtisodchi, talaba, metod.*

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalaridan ta’lim tizimida va iqtisodiyot sohasidagi hisob-kitob ishlarida samarali foydalanib kelinmoqda. Birgina oliy ta’lim muassasalari o’quv jarayonini misol qilib oladigan bo’lsak tizimni zamonaviylashishi, shuningdek, oliygohlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi o’rni juda katta ahamiyatga ega ekanligi sir emas. Butun dunyo olimlari, professor-o‘qituvchilar, talabalar moliyaviy mablag‘larni jalb qilish yo’lida bir-biri bilan raqobatlashmoqdalar. Bunday o’zaro qizg’in raqobatda zamon bilan hamnafas bo’lib va raqamli texnologiyalarning yangi imkoniyatlardan keng foydalanish ta’lim muassasasidagi boshqaruvini optimallashishiga yaqindan yordam beradi.

Aslida ta’lim tizimi boshqaruvida raqamli texnologiyalarning yangi imkoniyatlaridan foydalanish, ya’ni ma’lumotlar yig‘ish va tahlil qilish, o‘zaro hamkorlik ishlarini yo’lga qo’yish osonlashadi. Ta’lim tizmini raqamlashtirishning yana bir afzalligi shundaki, talabalar faolligini oshirish, shaxsga yo’naltirilgan ta’limni rivojlantirishga va ilg’or pedagogik texnologoyalardan foydalanish va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Shu bois mamlaktimizda ham oliy ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilmoqda, jumladan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 36-moddasida (Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat) ham “Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion

faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta’lim tashkilotlari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlar, shuningdek oliy ta’lim tashkilotlari ta’lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o‘tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi” belgilab qo’yilgan [1]. Bundan kelib chiqadiki, jahon tajribasidan kelib chiqqan holda ta’lim jarayoniga jiddiy e’tibor berish va o‘z navbatida raqamli texnologiyalaridan samarali foydalanish yuqori natijalarga olib kelishini ongli ravishda his qilishimiz zarur [4].

Shuni hisobga olgan holda bugungi kunda iqtisodiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish jarayonini ham takomilashtirish lozim. Bu, o‘z navbatida mashg’ulotlarning sifat darajasi oshishiga yordam beradi va natijada bo’lajak iqtisodchilarning kasbga yo’naltirish ancha yaxshilanadi [2-3].

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro’y berayotgan jiddiy tarkibiy o’zgarishlar tashqi iqtisodiy korsatkichlarda o’zining aniq ifodasini topmoqda. Bunday iqtisodiy o’sishga erishishda, avalambor, keng ko’lamli tizimli bozor islohotlarini joriy etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o’zgarishlar amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantinshga qaratilganligi katta ahamiyatga egadir. Buning uchun eng avalambor sohada faoliyat yurituvchi har tomonlama mukammal, raqamli texnologiyalarda to’liq foydalana oladigan o’z kasbining yetuk mutahassislarini tayyorlashimiz zarur. Bo’laka iqtisodchi mutahassislarni zamon talablariga mos raqobatbardoshli kadrlar qilib tayyorlashimiz kerak. Raqobatbardoshli iqtisodchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini dastlab aniqlashda unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish talab etiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlardagi "sifatli kasbiy tayyorgarlik" atamasini talqin qilgan holda, bo’lajak iqtisodchilarni sifatli kasbiy tayyorlash tuzulmasini quyidagi jadval bilan ifodaladik:

№	Sifatli kasbiy tayyorgarlik bosqichlari:	Sifatli kasbiy tayyorgarlik omillari:
1	Tizimni sifatli kadrlar bilan ta’minlash	Asosiy ustuvor yo‘nalishlarni to‘g‘ri tanlash, maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish hamda ta’lim muassasasida ilmiy asoslangan konsepsiyaga nisbatan kasbiy tayyorgarlik o‘z ifodasini topishi; kasbiy sifatni ta’minlashga qo’yiladigan talablarning aniq ro’yxati shakllanishi; ta’lim xizmatlarining potentsial iste'molchilariga qo’yiladigan talablar mavjudligi. Zamon talablari asosida raqamli texnologiyalardan keng foydalana olish.
2	Sifatli kasbiy tayyorgarlikni boshqarish	Asosan ehtiyojlarni tahlil qilish, talabga qarab maqsadni qo’yish; iqtisodchi mutahassisga qo’yiladigan talablarni taxrirlash, loyihalash; ta’lim muassasasining imkoniyatlarini baholash; ta'lim paradigmasini aniqlash; oliy ta’lim muassasasi boshqaruvi tuzilmalari faoliyatini resurslar bilan ta’minlash hamda ta’minlashga qaratilgan talablar majmuini takommillashtish; amaldagi oshirilayotgan boshqaruv faoliyati ko'rsatkichlari ro'yxatini tuzish, tizimdagi mavjud kompyuter dasturlarini o’zlashtirish.
3	Kasbiy tayyorgarlik sifatini monitoring qilish	Kasbiy tayyorgarlik sifatini baholashning ilmiy asoslangan mezonlari va ko'rsatkichlari; uni o'tkazish tartibiga qo’yiladigan talablarga muvofiqligi; tadqiqotchilik vositalari; resurslar bilan ta’minlash va monitoring natijalariga qo'yiladigan talablar to’plami.

Malakali iqtisodchi mutahassislarni raqobatbardoshli qilib tayyorlashda muayyan muhiti sifatida quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni tizimli yaratish dars mashg’ulotlarining sifatini oshishiga asosiy poydevor bo’ladi.

1. Ta’lim muassasasida uchta asosiy komponentlar: ya’ni sifatni ta’minlash, sifat menejmenti, sifat monitoringi bilan professional kadrlar tayyorlash tizimini mukammla yaratish mumkin. Mazkur tizim samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun iqtisod yo’nalishi oliy ta’lim muassasalari ta’lim tizimini rivojlantirishning jahon va ichki tendensiyalarini, kadrlar tayyorlash sifatiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillarni hisobga olishi kerak. Oliy ta’lim muassasasining hozirgi o’zgarishlarga tezkorlik bilan javob berish imkoniyatlarini obyektiv baholashda raqamli texnologiyalarga alohida e’tibor qaratish lozim.

2. Puxta ishlab chiqilgan konsepsiyaga asoslanish, kadrlar tayyorlash sifatini ta’minlash uning ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlari, ta’lim muassasaning bosh maqsadi bo’lishi kerak. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlik sifatini ta’minlashga qo’yiladigan talablar ro’yxatini aniqlash-tirish va tartibga solish, u ayni paytda ushbu jarayoning barcha zarur jixatlarini qamrab olishi lozim.

3. Kasbiy tayyorgarlik sifatini boshqarish quyidagi shartlar bajarilgan taqdirdagina yanada samaraliroq ishlaydi: hududning xususiyatlarni tizimli o‘rganish; iqtisodiy sohani rivojlantirishning joriy tendentsiyalarini, shu jumladan mintaqaviyligini hisobga olgan holda, mehnat bozori dinamikasi prognozlarini tahlil asosida bo’lajak iqtisodchilarga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqish; raqamli texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta’lim muassasasi va iqtisodiy real sektor o’rtasida o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish, ta’lim muassasasining muayyan ichki sharoitlarini hisobga olgan holda samarali o‘quv jarayonini yaratish, Oliy ta’lim muassasasining innovatsion salohiyatini oshirish bo‘yicha ta’lim paradigmasini aniqlashga yo‘naltirish.

Raqobatbardoshlikni rivojlantirish omillarini aniqlab, biz shunday xulosaga keldikki, oliy ta’lim muassasalarida muayyan pedagogik shart-sharoitlarni joriy qilish o‘z navbatida raqobatbardoshli iqtisodchi mutahassislarning individual tarkibi shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlik davrida raqobatbardoshlikning shakllantirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya’ni raqamli texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy yo‘nalishi ta’limini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi. Demak kasbiy kompetentlikga ega iqtisodchilarni tayyorlashda zamonaviy talablarga asoslangan raqobatbardoshlikni shakllantirish bosqichlarini aniqlash va shu asnoda buni yo’lga qo’yish uchun mauyyan muhitni ya’ni pedagogik shart-sharoitlarni ajratib olish maqsadga muofiq bo’lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
2. Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida ta’limni boshqarish. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2010, 156 b.
3. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar; O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2015.
4. Shodiyev R.X., Maxmudov E.R. Jahon iqtisodiyoti. – T., 2005.

MAKTABGACHA TA’LIM UZLUKSIZ TA’LIMNING BOSHLANG’ICH BO’G’INI

To’raqulova Umida Akmaljon qizi,
Maktabgacha va boshlang’ich ta’limda
xorojiy til yo’nalishi talabasi

Annotasiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang’ich bo’g’ini sifatida tutgan o’rni, maktabgacha ta’limning bola hayotidagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Yaxlit ta’lim, uzluksiz ta’lim, ta’lim dasturi, maktabgacha ta’lim, oily ta’lim, ta’lim va tarbiya, yetuk kadr, ilmiy kuzatish, ilm fan ustuvorligi, xususiy sheriklik.*

KIRISH

Uzluksiz ta’lim – o’zaro mantiqiy izchillik asosida bog’langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi hisoblanadi. Uzluksiz ta’limni rivojlantirish haqida gapiradigan bo’lsak O‘zbekiston Respublikasining 23-sentabr 2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar o’z aksini topgan. Mazkur Qonun XI bob va 75 moddadan iborat bo’lib, unda ta’limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ilg’or g’oyalar ilgari surilgan.

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o’z ichiga oladi.

- Maktabgacha ta’lim;
- Umumiy o’rta ta’lim;
- O’rta maxsus kasb hunar ta’limi;
- Oily ta’lim;
- Oliy o’quv yurtlaridan keying ta’lim;
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- Maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang’ich bo’g’ini bo’lib, mazkur ta’lim bola shaxsini sog’lom va yetuk shakllantirish maqsadini ko’zlaydi. U o’quvchi shaxsini ta’lim olishga tayyorlaydi, har tomonlama kamol topishini, o’qishga hissini uyg’otadi va bolani muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim haqida so’z borar ekan uning tarixiga alohida to’xtalib o’tamiz. Dastavval bolalar bog’chasi 60-yillarda Rossiyada ochilishni boshladi. Bu davrdagi bog’chalarning asosiy vazifasi ta’lim va tarbiya emas, balki bolalarni bir joyda qarovda saqlab turish bo’lgan. O’zbekistonda maktabgacha ta’limning yuzaga kelishi o’tgan asrning 10 – 20-yillariga to’g’ri keladi. Bu davrda Turkistonda xususiy bolalar bog’chalaridan tashqari boshqa maktabgacha tarbiya muassasalari bo’lmagan. Biroq 1919-yilda davlatdagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan o’sib kelayotgan avlod sog’lig’ini saqlash, oziq-ovqat bilan ta’minlash masalalari bilan shug’ullanuvchi “ Bog’chalarni himoyalash” kengashi tuzilgan. Bu ish qaysidir ma’noda aholining maktabgacha ta’lim muassasalariga bo’lgan talabning oshishiga va bu sohaning rivojlanishiga turtki bo’lgan. Ammo shunga qaramay bu davrda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmoqlarining kamligi, yetuk kadrlarning yetishmasligi, bolalarga ta’lim tarbiya berish sifati va bolalar qamrov darajasining pastligi asosiy muammolardan biri bo’lib qolavergan.

Hozirgi kunda O’zbekistonda balki, boshqa ko’plab davlatlarda maktabgacha ta’lim bo’yicha samarali islohotlar olib borilmoqda. Izchil islohotlarning natijasi sifatida yurtimizda ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori imzolandi va maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas bo’lagiga aylanganligi, ta’lim xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotganligi buning yorqin dalilidir. Bugungi kunda ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson hayoti davomida oladigan barcha ma’lumotlarning 70% ni besh yoshgacha bo’lgan davrda olishi aniqlangan. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim sohasida ta’lim va ilm fan ustuvorligini e’tirof etgan holda ta’limning sifati va erkinligini ta’minlash, davlat boshqaruvining samarali tizimini yaratish bo’yicha tizimli va keng doiradagi chora tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Jumladan:

maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini oshirish, hozirgi 62%dan kamida 80%ga yetkazish;

2022 – 2023-yillarda olti yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90% ga, 2024 – 2025-yillar o’quv yili yakuniga qadar 100% ga yetkazish;

Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag’larini jalb qilish orqali 7000 dan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashhkilotlarini tashkil etish;

Maktabgacha ta’lim tashhkilot xodimlarining prosessional tayyorgarligi va mohoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish;

2022 – 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlar malakasini oshirish.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonlarining ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish kabi vazifalar keying yillar uchun asosiy vazifalar qilib belgilanib olindi.

Mamlakatimizda 3 – 7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yillar hisobiga nazar tashlasak 2017-yilda 27,7% tashkil etsa bu ko’rsatkich 2021-yilga kelib 67,2% ni tashkil etgan. Bu albatta katta ko’rsatkich. Muhim o’zgarishlardan yana biri shundaki, davlat xususiy sheriklik doirasida oilaviy bog’chalar shaklida o’qitishning muqobil modeli amalga oshirildi. Butun respublika bo’ylab maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qisqa muddatli ya’ni, to’liq kunli bo’lmagan guruhlar kabi ta’limning muqobil shakllari joyiy etilmoqda.

Hukimatimiz tomonidan kelajagimiz davomchilari bo’lmish bolalarga qaratilgan e’tibor ularning jajji ko’zlaridagi cheksiz mehr, murg’ak qalblaridagi go’zal orzulariga qanot bo’ladi. Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim tarbiya olayotgan bolajonlar – mamlakatimizning kelgusidagi istiqbolidir. Shunday ekan uzluksiz ta’limning asosiy bo’g’ini bo’lgan maktabgacha ta’lim bolajonlarimizning kelajak poydevori bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 23-sentabr 2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING O‘QUVCHILARNING O‘Z FANIGA QIZIQTIRA OLISH MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Umarova Matlyuba Yusufjonovna,
Namangan viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
matematika fani o‘qituvchisi

Qisqa annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta’lim maktablaridagi fanlar bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilarning o‘z faniga qiziqtira olish mahoratini shakllantirishning asosiy omillari va o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *o‘qituvchi, fan, ta’lim, tarbiya, motiv, dars, o‘quvchi, kasb, mahorat, maktab.*

Barcha kasblar orasida o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me’mori, yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlami g‘oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas’uliyat o‘qituvchidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ulaming qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun doimo o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko‘nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g‘amxo‘rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko‘rsatish, o‘qituvchilaming ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko‘maklashish lozim.

O‘qituvchilaming pedagogik faoliyati samarali bo‘lishi uchun zarur bolgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bolgan har xil ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, o‘quvchilami bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Dars jarayonida o‘quvchilar bilim faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog`liq. Ularning eng asosiylaridan biri o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqtira olishdir. Olimlar ta'kidlaganidek, faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va iroda kabi funksiyalariga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining bilishga oid qiziqishlari ko‘p qirrali qiyofalarda namoyon bo‘ladi: o‘quvchini harakatchan va qiziquvchanligi, o‘quvchining ayrim o‘quv faoliyatiga shuningdek, umuman o‘qishga bo‘lgan motivlari, o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos belgilari va uning yo‘nalishini qaror topishi ana shular jumlasidandir.

O‘quvchi yosh davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyin. Shuning uchun ham **K.D.Ushinskiy** *"zo‘rlash va majburlashga asoslangan o‘qitish"* o‘quvchining aqliy rivojlanishiga hech qanday ta'sir ko‘rsatmasligini alohida ta'kidlab o‘tgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiziqishlar va motivlar o‘quvchilar o‘quv faoliyatlarining shakllanish darajasiga qarab shaxsning shakllantiruvchi (o‘quvchining nazariy fikri, o‘qish faoliyatini o‘quvchi shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o‘zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Xo‘sh, o‘quvchilarning o‘qishga (bilishga) bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Mohir o‘qituvchi ularni darsda o‘quvchilarda shakllantirish uchun nima qilishi kerak? O‘quv faoliyatini faollashtirish va o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak?

Mohir o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘z faniga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir:

1. O‘quvchilarni bilishga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o‘quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda o‘quvchi faol harakat qiladi, mutsaqil izlanish va yangi omillarni "kashf etish"ga, muammoli vaziyatlarni o‘zi hal etishga intiladi.

2. O‘quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo‘lgandagina, qiziqarli bo‘ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakatlar tez orada zerikishni vujudga keltiradi.

3. Fanga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o‘rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini o‘quvchilarga anglatish juda zarurdir.

4. O‘tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko‘proq bog`lab tushuntirilsa, u o‘quvchilarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O‘quv materialini o‘quvchilarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog`lab tushuntirish ham, ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o‘ynaydi.

5. Mavzularni yoriritishda real hoyotiy misollardan namunalar keltirish ham o’quvchilarni fanga bo’lgan qiziqishini oshiradi.

6. O‘rtacha qiyinlikdagi o‘quv materiali ham o‘quvchilarda qiziqish uyg`otmaydi. O‘quv materiali bir oz qiyinroq, lekin o‘quvchilar kuchi yetadigan bo‘lishi kerak.

7. O‘quvchilar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo‘lgan qiziqishini uyg`otadi.

8. O‘quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o‘qituvchining zavqlanib gapirishi ham o‘quvchiga, uni fanga bo‘lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ilg`or o‘qituvchilar o‘qitish metodlarini tanlashga alohida e’tibor beradilar. O‘quvchilarning frontal, differentsiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlilarining umumiy jihatlari ko‘proq bo‘lsada, ularni tashkil etish o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. O‘quvchilik faoliyatining ob'ektini tarkibi va o‘ziga xosligi uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondoshishini taqozo qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko‘rsatilar ekan, unda tarbiyasi ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo‘ladi.

Ayrim hollarda o‘qishga qiziqtiruvchi metodlardan, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag`batlantiruvchi metodlarga ko‘proq e'tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali o‘qituvchilar o‘tilayotgan mavzuni xalq xo‘jaligi masalalarini hal etishdagi ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar, didaktik o‘yinlardan, o‘quvchilar faolligini rag‘batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin o‘quvchi faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli holda tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchilarda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni yengish uchun o‘ziga iroda va qat’iylikni ham tarkib topshirishi zarur.

Hozirda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

O‘qituvchiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab, yangi pedagogik texnologiyalarni chuqur tushunib yetib va bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat.

O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g`oyalar bayon etiladi, o‘qituvchining yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti kichik pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Shuning uchun hozirgi kun o‘qituvchisi:

- *pedagogik faoliyatda qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;*
- *milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma’naviy barkamol;*
- *O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan, e’tiqodli fuqaro;*
- *ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;*
- *o‘qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko‘radigan, har bir o‘quvchi ulg‘ayib, yaxshi odam bo‘lishiga chin ko‘ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko‘maklashadigan;*
- *O‘z fanini real hayotda zarurligini o‘quvchilarga yetkaza biladigan;*
- *erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo‘lmog’i darkor.*

Davlatimiz maktab ta’limi sohasida o‘rtaga qo‘yayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/6008663.

2. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014 yil.

AKSIOLOGIYA – QADRIYATLAR ASOSIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Xamidova Sarvinoz Maxmudxon qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi
Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li,
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Anotatsiya. *Ushbu maqolada, aksiologiya ya'ni qadriyatlar falsafasi haqida, uning qanday ma'noni anglatishi, insonlar hayotidagi o'rni, ahamiyati va bizning hayotimizdagi o'ynadigan roli, fanlar bilan o'zaro bog'liqligi haqida batafsil ma'lumot beilgan.*

Kalit so'zlar: *aksiologiya, tendensiya, pedagogik aksiologiya, ta'lim, pedagogika, qadriyat, falsafa, baholash, ob'ekt, sub'ekt, falsafiy bilim.*

Аннотация. *В данной статье дана подробная информация об аксиологии, то есть философии ценностей, что она означает, ее место в жизни людей, ее значение и роль, которую она играет в нашей жизни, а также ее связь с наукой.*

Ключевые слова*: аксиология, тенденция, педагогическая аксиология, образование, педагогика, ценность, философия, оценка, объект, предмет, философское знание.*

Annotation. *In this article, detailed information about axiology, that is, the philosophy of values, what it means, its place in people's lives, its importance and the role it plays in our lives, and its relationship with science. Given*

Key words: *axiology, tendency, pedagogical axiology, education, pedagogy, value, philosophy, assessment, object, subject, philosophical knowledge.*

Zamonaviy pedagogika fanining asosiy tendensiyasi-uning shaxsni "anglash" o'z dunyoqarashiga asoslanishga e'tibor qaratganlar. Bu esa, zamonaviy pedagogik amaliyotning muhim jihatiga aylanadi. Pedagogikaning asosiy ob'ekti-inson amaliyotida insonparvarlik an'analarining rivojlanishi uning hayotiy faoliyat jarayonida uning o'z oldiga qo'ygan muhim vazifalarni o'zida aks ettiradi.

Nazariy egallagan bilimlarni amaliyot jarayonlarida ham qo'llay olish maxorati,nazariy va amaliy bilimlar orasidagi bog'liqlikni aksiologik,qayriyatlar yondashuvi bajaradi.

"Aksiologiya" (yunoncha – "axio" – qadriyat va "logos" – fan, ta'limot) – qayritayshunoslik, qadriyarlar haqidagi fan. [1]

Pedagogik aksiologiya asosida inson hayoti, tarbiya va ta'lim, pedagogik faoliyatning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirish va qaror toptirish yotadi. [2]

Ta'limni inson turmushi uchun asosiy qadriyat, deb asoslash pedagogik bilimlar taraqqiyotini barcha bosqichlarida o'z o'rniga ega.

Pedagogik aksiologiya-inson va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni muhokama etuvchi hamda ta'limga aksiologik yondashuvni amalga oshiruvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biri hisoblanadi. Aksiologiya qadriyatlarning tabiatini falsafiy tadqiq etish XIX asrning 2-yarmida yuzaga kelgan bo'lsa ham, qadimgi dunyo falsafasidayoq dunyoga qadriyatli munosabat o'ziga xos tavsiflanadi.

Misol uchun: Qadimgi Bobilliklar yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, boylik va qashshoqlik tushunchalari bir-biriga zid ekanligini falsafiy g'oyalari bilan bayon qilishgan va "Jafokash avliyo haqidagi doston" va "xo'jayinning qul bilan suhbati" degan asarlari ham mavjud. [3]

Aksiologiya – falsafaning bir sohasi hisoblanib,falsafaning qadriyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limi sifatida aks etadi. Xo'sh, qadriyat o'zi nima?

Qadriyatlar ulkan falsafiy ahamiyatga ega voqealikdir. Qadriyatlar tushunchasi insonning dunyoqarashida, dunyoga insonlarga munosabatning alohida jihatini namoyon etadi. Ular inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o'ziga xos-xususiyatlarini yanada teranroq anglab yetish imkonini beradi. Qadriyatlar inson hayotida muhim ro'l o'ynaydi, chunki insonni hayot tarzini, hayvonlardan ajralib turishini aynan qadriyatlar tavsiflaydi.

Qadriyatlar komillikka erishishga qaratilgan,shaxs va uning atrofidagi ma'noli jihatlari bilan to'ldirish orqali ijodiy ta'sir ko'rsatadigan ong va borliqning ustunlari sifatida tasniflanishi mumkin. Qadriyatlar inson va uni o'rab turgan olamni ahamiyatli rishtalar bilan bog'laydi hamda bu munosabatlarni kerakli tomonga o'zgartiradi.

Qadriyatlar-axloq nuqtai nazaridan ijobiy ma'noga ega bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Qadriyatlar jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlar, shu jumladan shaxslararo munosabatlar, insonning o'zini-o'zi nazorat qilishi kabi muhokama qilinmaydigan xatti-harakatlar qoidalari bilan chambarchas bog'langandir.

Aksiologiyaning predmetini barcha turdagi qadriyatlar, ularning tabiati turli qadriyatlarning bir-biri bilan, ijtimoiy-madaniy omillar hamda shaxs strukturasi bilan aloqasi tashkil etadi.

Aksiologiya ta'limotiga ko'ra, qadriyatlar muayyan normativ kategoriya bo'lib, ular maqsad, ideal, mayl, intilish, qiziqish predmetini sanalgan hamma narsani qamrab oladi. Quyidagi keltirib o'tgan nazariyamiz asosiy tushunchalari va kategoriyalari hisoblanadi: yaxshilik, qadr-qimmat, foyda, ahamiyat, baho, g'alaba, hayot mazmuni, baxt, hurmat, sevgi, e'tibor va h.k.

Aksiologiyaning asosiy kategoriyalaridan yana biri bu – "baholash" tushunchasidir.

Baholash – buyumning inson faoliyatida, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab yetish vositasi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab yetish uchun uni "qadriyat" bilan solishtirish o'rinli bo'ladi. Baholash va qadriyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar, lekin ularning o'rtasida jiddiy farqlarni ham ko'rishimiz mumkin.

Qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida ob'ektiv hisoblanadi. Baholash esa sub'ektivdir. U ob'ektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi sub'ektning ijtimoiy va individual fazilatlariga ham bog'liqdir. Ayni shu sababli, ayni bir hodisa, ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Shunga ko'ra, aksioogiya- falsafiy bilimlarning maxsus bo'limi sifatida borliq tushunchasi ikki elementga bo'linganda paydo bo'ladi: reallik va qiymat. Bu holda aksiologiyaning vazifasi borliqning umumiy tuzulishidagi amaliy aql imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat.

Xulosa: Aksiologiya o'rganadigan va tuzatadigan barcha jihatlarga qaramay, oxir-oqibat, har bir inson o'zi uchun ma'lum qadriyatlar tizimini yaratishi mumkin. Buning uchun faqat atrofdagi voqealikdan xabardor bo'lgan va tashqi omillarga mos ravishda yashaydigan odam bo'lish kifoya. Hayotimizda biz uchun kerak bo'ladigan qadriyatlarni ajrata olishimiz, ularga to'g'ri baho bera olishimiz kerak. Ko'p yillar davomida muhim deb hisoblangan qadriyatlar unchalik ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun inson o'z hayotini ma'noli qilishni istasa, atrofdagi voqealikni bilishi va har qanday vaziyatlarga ko'nika olishi zarur. Bundan ko'rinib turibdiki, aksiologiya faqat faylasuflar yoki shu fanga aloqador insonlar o'rganadigan fan emas.Aksiologiya har bir inson hayotida o'z o'rniga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Pedagogik aksiologiya" (o'quv qo'llanma) – Toshkent: Fan va texnologiya", 2013-yil.

2. A.Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" – Toshkent: "O'qituvchi", 1993-yil.

3. Nazarov K. Falsafa asoslari – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2012-yil.

4. J.Tulenov, B.G'ofurov "Falsafa".

5. Wekipedia.

HOZIRGI KUN JAMIYAT RIVOJIDA PEDAGOGIKANING O'RNI

Yoqubjonova Ozoda Shukurjon qizi,
Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika Fakulteti Pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada avvalo pedagogika xususida so'z yuritiladi. Pedagogika bu ta'lim va tarbiya berishdagi ma'lumotlarni faoliyatini nazariy hamda amaliy o'rganadigan fan hisoblanadi. O'qituvchining ta'limdagi o'rni, o'z chuqur bilishi,muayyan darajada psixologik bilim va mahoratga egaligi bilan muhim sanaladi. Hozirgi kunda pedagogika fani zimmasiga juda ham mas'uliyatli ulug'vor vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.*

Аннотация. *Данная статья посвящена прежде всего педагогике. Педагогика – наука, изучающая теоретические и практические аспекты воспитания и обучения. Педагогу важно иметь глубокое понимание своей роли в образовании и обладать определенным уровнем психологических знаний. Говорят, что перед педагогической наукой в этот период были поставлены очень ответственные и славные задачи.*

Annotation. *This article deals primarily with pedagogy. Pedagogy is a science that studies the theoretical and practical aspects of education and training. It is important for a teacher to have a deep understanding of his role in education and to have a certain level of psychological knowledge and skills. It is said that very responsible and glorious tasks were assigned to the science of pedagogy during that period.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, ta'lim, jamiyat, metodologiya, tarbiya, metod, faoliyat, ma'rifat, ma'daniyat, mutaxasis, tajriba, g'oya, unvon,*

Keywords: *pedagogy, education, society, methodology, education, method, activity, enlightenment, culture, expert, experience, idea, title,*

Ключевые слова: *педагогика, образование, общество, методология, воспитание, метод, деятельность, просвещение, культура, специалист, опыт, идея, звание.*

Har bir fan o'zining mustaqil predmeti,maqsadi metodologik asosiga egadir. Shu jumladan pedagogika fan sifatida shakllanib o'zining ma'lum yo'nalishiga ega. Boshqa fanlar kabi pedagogika fani ham paydo bo'lish davomida jamiyatdagi talab va ehtiyojlarga asoslanib yuzaga kelgan. Shuning uchun pedagogikada tarbiya jarayoni pedagogikaning ajralmas qismi deyisg mumkin. Chunki biz tarbiyaviy ishlarni yuritmasdan turib jamiyatni va undagi rivojlanishni tasavvur qilish qiyin. Pedagogika atamasi qadimda bola yetaklovchi degan ma'noni anglatgan. Tarixiy manbalarni guvohlik berishicha qadimgi Yunoniston davlatida o'z xo'jalarining bolalarini ehtiyot qilgan, ularga ta'lim tarbiya berganlarni pedagog deb atashgan zamon o'tgani sari bu atama keng tushunchaga ega bo'lib maxsus bilimlarda ega bo'lgan mutaxassislarga nisbatan ishlatilgan. Ularda ta'lim tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi homiylar ajralib chiqa boshladi. Ta'lim tarbiya berishdagi faoliyat va egallangan tajribalaridan samarali foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishi va bu fanni rivojlanishiga olib keldi.Pedagogika shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati-uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta'lim nazariyasi,yunoncha didaktikos "O'rgatuvchi", didasko "O'rganuvchi") ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyatini, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shak, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi. (1)

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng siyosiy,ijtimoiy,ma'daniy va ilmiy hayotda ko'plab yangiliklar vao'zgarishlar sodir bo'ldi. Bugungi kungacha pedagogika sohasida yangi ta'limotlar, yangi texnologiyalar kashf qilindi ko'plab asarlar yuzlab risolalar yaratildi. Lekin shu tarafi ham borki hanuzgacha tarbiya jarayonidagi muammolar to'laqonli ravishta o'z yechimini topgani yo'q. Pedagogikaning asosi yosh avlodni tarbiyalash jamiyatning yangi taraqqiyot yo'nalishida

o’qitish,kamol toptirish tizimini, qoidalarini,ma’rifatparvar adiblar, qomusiy mutafakkirlarning ta’lim tarbiyaga doir go’yalarini mukammal o’rganadigan fan.

Pedagogika insonshunoslik fani bo’lib, jamiyat va shaxs munosabatlarini tizimlashtiradigan tarbiya va ta’lim muammolarini o’rganadi. Unda hozirgi zamon fani va metodologiyasing quyidagi umumiy masalalari yoritiladi;

- fan tarixi va taraqqiyoti
- fan haqidagi asosiy konsepsiyalar
- hozirgi zamon fanidagi asosiy dolzarb muammolar (2)

Jumladam pedagogika fani rivojiga sharq uyg’onish davrida yashab ijod qilgan Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug’bek kabi buyuk arboblarimiz hamda Turkiston jadidchilik harakatining namoyondachilari Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi shaxslarimiz o’z xissalarini qo’shgan. Nafaqat sharq balki g’arbda pedagogika fani rivojiga o’zlarining hissasini qo’shgan Ya.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo kabi mutafakkirlar shaxsga ta’lim berish va uni tarbiyalashga doir qarashlari bilan yan ham boyitdilar.

O’zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g’oyasi asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:

1. Ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o’rganish
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ilg’or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
4. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta’lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
5. Ta’lim tarbiya birligi hamda ijtimoy tarbiya yo’nalishlari o’rtasidagi o’zaro aloqadorlikni ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o’rganish.
6. O’qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.(3)

Bugungi kunda O’zbekiston Respubliksida zamonaviy o’qituvchining ma’naviy qiyofasi va aqliy hamda kasbiy mahoratiga nisbatan ko’plab talab qo’yilmoqda. Jumladan O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni ta’kidlab o’tadi: “Tarbiyachi ustoz bo’lish uchun boshqalarni aql idrokini o’stirish ma’rifat ziyosidan bahramand qilish haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo’lishi kerak”(4) Bu qayd etilgan fikrlar bugungi kun zamonaviy pedagog shaxsiga qo’yilayotgan talablar mazmuni hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O’zbekiston Respublikasida malakaga ega o’qituvchilarni qo’llab-quvvatlash va tajribalarini kengaytirishga e’tibor qaratildi. Ularni malakali pedagog aniqlab olish maqsadida turli xil tanlovlar tashkil etilmoqda. Jumladan “Yil O’qituvchisi” Respublika ko’rik tanlovi o’qituvchilarni faoliyati davomidagi pedagogik mahoratini individual ochib berish imkonini yaratayotgan bo’lsa, “Yil Maktabi” Respublika ko’rik tanlovi esa ta’lim muassasida o’qituvchilarni jamoa bo’lib qo’lga kiritayotgan yutuqlarini jamiyatga ko’rsatib berish imkonini bermoqda. Bundan tashqari respublika bo’yicha o’zining pedagogik faoliyati davomida ulkan yutuqlarga erishgan o’qituvchilarni ta’lim sohasi bo’yicha eng nufuzli sanalgan davlat mukofoti O’zbekiston RespublikasiXalq o’qituvchisi ko’krak nishoni bilan taqdirlanmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytish joizki,pedagogika fani yetuk shaxs malakali va mahoratli mutaxassislarni tayyorlashga yo’naltirilgan shu masaladagi muammolar ularni yechimini va yo’llarini o’rganadigan fandir. Shu bilan bir qatorda pedagogika yoshlarning axloq odobi va ma’naviyatigina emas balki aqliy rivojiga ham o’z ta’sirini ko’rsata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.X Toxtaxodjayev, “Pedagogika” Toshkent O’zbekiston, 1994, 29-bet.
2. “Pedagogika”, Barkamol avlod orzusi. – T., “Sharq”, 1999, 28-bet.
3. Karimov I.A Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati – Toshkent, Sharq nashriyot-manbaa konserni Bosh tahririyati, 1993, 27 – 28-bet.
4. “Pedagogika”, O’zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti, Toshkent – 2010, 32-bet.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TA’LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISHNING MAZMUNI

Xasanova Gulnoza Ilhom qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, o’qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etishning mazmuni haqida so’z yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *Noan’anaviy pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiya, falsafiy asos, anjuman, o‘quv jarayoni, ta’lim shakllari, texnik imkoniyatlar, o’qitish jarayonini loyihalash.*

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo‘l-aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi Keyingi yillarda matbuotda, ilmiy adabiyotlarda, ko’plab anjuman va yigilishlarda, shu bilan birga rasmiy xujjatlarda «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilgor pedagogik texnologiya», «O’qitish texnologiyasi», «Ta’lim texnologiyasi», «An’anaviy pedagogik texnologiya», «Noan’anaviy pedagogik texnologiya», «Innovatsion (yangi yo’nalishdagi, tashkaridan yangi kiritilgan, yangiga o’xshash, noan’anaviy) pedagogik texnologiyalar» kabi tushunchalar uchrab turibdi. Pedagogik texnologiya tushunchasi pedagogik adabiyotlarda tez-tez qo’llanayotgani bois, unga bo’lgan fikr-mulohazalar, munosabat va ta’riflar xam turlicha bo’lmoqda.

YUNESKO quyidagi ta’rifni beradi: “Pedagogik texnologiya ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifalarini o’z oldiga qo’ygan texnik inson imkoniyatlarini va ularning o’zaro bog’liqliklarini xisobga olgan xolda o’qitish va bilimlarni o’zlashtirish jarayonini yaratish, qo’llash va aniqlashlarning tizimli usullaridir”. Yuqoridagi ta’riflardan ko’rinib turibdiki, ta’limga tizimiy yondashuv boshqa yondashuvlardan farqli o’larok pedagogik texnologiyaning xususiyatlarini belgilaydi. O’qitish maksadlarini aniq, belgilash, o’qitish jarayonini loyihalash, pedagogik muvaffaqiyatlarni kafolatlash, o’zaro bog’liq va o’zaro ta’sir etuvchi bloklar pedagogik texnologiyaning muhim belgi va xususiyatlari xisoblanadi.

Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda. «Pedagogik texnologiya» so‘zlar birikmasining asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta’limda esa fan bo‘yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmoqdalar. Bular orasida J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov, N.S.Sayidahmedov, R.H.Jo‘rayev, Q.Y.Yo‘ldoshev kabi ta’lim-tarbiya jarayonlari fidoiylarining nomlari alohida hurmat va e’tiborga molikdir. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo‘ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma’lum sabablar mavjud, ya’ni;

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko‘payib borayotganligi;

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV)dan foydalanish kerakligi;

4. Talaba va o‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchi ta’lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta’lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo‘lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltira olishi lozimligi;

5. O‘qituvchi ta’lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta’lim natijasini oldindan qayd etishi, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;

6. O‘quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo‘lishligi;

7. Ta’lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob’ektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8. O‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob’ektiv borliqqa majmuyi yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayoniga o’ziga xos bo’lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy-muxandislik taffakurining ifodasi, o’qitish, tarbiyalash jarayonini ma’lum darajada standartlash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari – T.: «Tarbiyachi», 2004 y.

2. Musurmonova A. Pedagogik texnologiyalar-ta’lim samaradorligi omili. Monografiya. – Toshkent. Yoshlar nashriyoti uyi. 2020-yil. 184 bet.

3. Egamberliyeva N., Xodjayev B. Maktabgacha pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 48 b.

4. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do‘stona muhit yaratish omili. – T.: YUNISEF, 2005 y.

5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.

TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHDA BAHOLASHNING INNOVATSION YONDASHUVI

Xodibayeva Shoxida Ulug’bek qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti
“Ta’lim muassasalarining boshqaruvi” magistratura
Mutaxassisligi 1-kurs talabasi
shokhidakhadiboeva@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta‘limning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, ta’lim sifatini boshqarish tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to‘ldirishi hamda uni baholashga innovatsion yondashuvlarning ahamiyati haqida qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, ta’lim sifati, pedagogika, innovatsiyalar, portofolio, texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье кратко описывается роль образования в развитии страны, важность инновационных подходов к его оценке, а также то, как управление качеством образования дополняет существующую теорию и практику управленческой деятельности в системе образования.*

Ключевые слова: *система образования, качество образования, педагогика, портфолио, технологии.*

Abstract. *This article briefly describes the role of education in the country's development, the importance of innovative approaches to its evaluation, and how the management of the quality of education complements the existing theory and practice of management activities in the educational system.*

Keywords: *education system, education quality, pedagogy, innovations,portfolio, technologies.*

Kirish

Jamiyatini modernizatsiya qilishning zamonaviy tendensiyalari nuqtai nazaridan o‘quvchilarning ta’lim sifatini boshqarish muammosida ta’lim sifatini oshirish muhim bo‘lib, yildan-yilga uning dolzarbligi ortib bormoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim sifati muammosi murakkab va keng qamrovli masala. Ushbu muammoni ochib berish uchun tadqiqotning asosiy tushunchalari “ta’lim” va “sifat”ga murojaat qilish kerak. “Ta’lim” tushunchasi juda keng talqin qilinadi. Shuningdek, ta’lim uni tashkil etishning turli – shaxsiy, institutsional, mintaqaviy, davlat darajalarida ham ko‘rib chiqiladi. E.Gusinskiy o‘z konsepsiyasida ta’lim tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Ta’lim – bu shaxsni madaniyatga o‘rgatish, uning tillarida savodxonlik va uning matnlarida yo‘naltirilganlikni egallashi jarayonidir”. Pedagogik lug‘atda “ta’lim” tushunchasining talqini “tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni va natijasi; insonni hayotga tayyorlashning zaruriy sharti” deb bayon etilgan.

Doimiy rivojlanib borayotgan ta’lim sharoitida ta’lim sifatining yuqori standartlarini saqlab qolish eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishning muhim jihati ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan baholash usullarining samaradorligidadir. Ko'pincha standartlashtirilgan testlarga asoslangan an'anaviy baholash amaliyotlari uzoq vaqt davomida talabalar ega bo'lgan turli xil ko'nikma va malakalarni qamrab olish qobiliyatining cheklanganligi uchun tanqid qilingan. Ushbu kamchiliklarga javoban o'qituvchilar va siyosatchilar ta'lim sifatini yaxshilash uchun innovatsion baholash usullariga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar.

Talabalarga taqdim etiladigan baholashlar bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llash imkoniyatini beradi. Keys tadqiqotlari, simulyatsiyalar yoki jamoat loyihalari orqali tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va hamkorlikni rag'batlantiradi hamda talabalarni guruhdan tashqari muvaffaqiyatga tayyorlaydi. Bu o’z navbatida talabalar taraqqiyotini doimiy baholash imkonini beradi va qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Muntazam tekshiruvlar, tengdoshlarni baholash va o'qituvchilarning fikr-mulohazalari orqali talabalar takomillashtirish sohalarini hal qilish va o'rganishlarini yanada yaxshilash uchun yo'l-yo'riq va yordam oladilar.

Talabalarning turli xil o'rganish uslublari yozma insholar, og'zaki taqdimotlar, videolar yoki raqamli artefaktlar kabi turli vositalar orqali o'z tushunchalarini namoyish qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv baholash usullarini qamrab olish va barcha o'quvchilar uchun ochiq bo'lishini ta'minlaydi. Talabalarni o’rganishi davomida ma'lumotlar tahlili vositalaridan foydalanish o'qituvchilarga o'quvchilarning ishlash tendentsiyalari, o'rganish usullari hamda kuchli va zaif tomonlari haqida qimmatli tushunchalar beradi. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun ta'lim va tadbirlarni moslashtira oladi, natijada ta'lim natijalarini yaxshilaydi.

Talaba o’z-o’zini baholashi maqsadida talabalar o’rtasida tengdoshlarni tekshirish va hamkorlikni yo’lga qo’yish mumkin. Bu talabalarni kurs materiallari bilan faol shug‘ullanishga,

muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga va tengdoshlariga konstruktiv fikr bildirishga undaydi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratadi va muhim shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Imtihon va viktorina kabi an’anaviy baholash usullari o‘nlab yillar davomida qo‘llanilgan, biroq baholashda yanada innovatsion va samarali yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. So'nggi yillarda mashhur bo'lgan baholashning innovatsion usullaridan biri bu samaradorlikka asoslangan baholashdir. Bu yondashuv testda shunchaki faktlarni takrorlashdan ko‘ra, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini real vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini baholashga qaratilgan. Faoliyatga asoslangan baholash turli shakllarda, jumladan, loyihalar, taqdimotlar va simulyatsiyalar bo'lishi mumkin va talabalarning ishchi kuchiga tayyorligini aniqroq o'lchash imkonini beradi.

Baholashning yana bir innovatsion yondashuvi texnologiyadan foydalanishdir. Raqamli o'quv platformalari va onlayn ta'limning kuchayishi bilan talabalar faoliyatini baholash uchun keng ko'lamli vositalardan foydalanishlari mumkin. Ushbu vositalar talabalarning ishi bo'yicha tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etishi, vaqt o'tishi bilan taraqqiyotni kuzatishi va hatto talabalar qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlash uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi o'qituvchilar baholashning muqobil shakllaridan, masalan, portfolio va o'z-o'zini baholashdan foydalanishni o'rganmoqdalar. Portfoliolar talabalarga vaqt o'tishi bilan o'z ishlarini namoyish qilish va o'z ta'lim yutuqlari haqida fikr yuritish imkonini beradi, o'z-o'zini baholash esa o'quvchilarni o'z faoliyatini baholash orqali o'z ta'limini egallashga undaydi.

Hozirgi kunda Iijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni baholash dasturiga kiritishga harakat qilinmoqda. Ushbu ko'nikmalarga empatiya, jamoada ishlash, muloqot, chidamlilik va muammolarni hal qilish qobiliyatlari kiradi, bular bugungi murakkab dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir.

Umuman olganda, ushbu innovatsion baholash usullari ta'lim sifatini test ballari kabi an'anaviy ko'rsatkichlardan tashqari o'lchashning yangi usullarini taklif qiladi. Baholash strategiyalariga samaradorlikka asoslangan baholash, texnologiyaga asoslangan vositalar, baholashning muqobil shakllari va portfolio, o‘z-o‘zini baholash, shuningdek, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni kiritish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘rganishi haqida to‘liqroq tushunchaga ega bo‘ladilar, shu bilan birga tanqidiy fikrlash, ijodkorlikni rivojlantiradilar.

Ta'lim taraqqiyotidagi standartlashtirilgan testlar va imtihonlar kabi an'anaviy baholash usullari ko'pincha cheklangan doirasi va o'quvchilarning o'rganishi va rivojlanishining to'liq spektrini qamrab ololmasligi uchun tanqid qilinadi. So‘nggi yillarda ta’lim sifatini yanada to‘liqroq va to‘g‘ri ko‘rsata oladigan baholashning innovatsion usullarini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Bunday usullardan biri o‘quvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini real sharoitlarda qo‘llash qobiliyatini baholashga qaratilgan samaradorlikka asoslangan baholashdan foydalanishdir. Bu baholashlar turli shakllarda, jumladan, loyihalar, taqdimotlar va simulyatsiyalar bo‘lishi mumkin va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Ta'lim muassasalari o'zlarining baholash jarayonlariga samaradorlikka asoslangan baholashni kiritish orqali o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatida duch keladigan qiyinchiliklarga tayyorligi haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lishlari mumkin.

Baholashning yana bir innovatsion yondashuvi – bu talabalar bilimi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishdir. Bu vaqt davomida talabalar taraqqiyotini kuzatish, talabalar va o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini yig'ish va yaxshilash uchun yo'nalishlarni aniqlash, onlayn platformalar va vositalardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu raqamli resurslardan foydalangan holda, ta'lim muassasalari o'quvchilarning o'rganish usullarini yanada chuqurroq tushunishlari va shunga mos ravishda o'quv strategiyalarini moslashtirishlari mumkin.

Bundan tashqari, o'quvchilarning muayyan ko'nikmalar yoki bilim sohalarini o'zlashtirishlarini o'lchashga qaratilgan kompetentsiyaga asoslangan baholashga e'tibor kuchaymoqda. Ushbu yondashuv asosiy e'tiborni akademik yutuqlarning an'anaviy o'lchovlaridan individual o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini hisobga oladigan ko'proq shaxsiylashtirilgan baholashga o'tkazadi. Talabalarga yangi materialga o‘tishdan oldin o‘z sur’atlari bo‘yicha rivojlanishga va o‘zlashtirganliklarini ko‘rsatishga imkon berib, kompetensiyaga asoslangan baholash mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi va o‘quvchilarda o‘z-o‘zini samaradorligini oshirish tuyg‘usini kuchaytiradi.

Ushbu yondashuvlarga qo'shimcha ravishda, ba'zi ta'lim muassasalari tengdoshlarni baholash, o'z-o'zini baholash va portfel kabi muqobil baholash shakllaridan foydalanishni o'rganmoqda. Ushbu usullar o'quvchilarga o'zlarining ta'lim yutuqlarini baholashda faol rol o'ynash imkoniyatini beradi, shuningdek, tengdoshlari tomonidan qimmatli fikr-mulohazalarni beradi.

Umuman olganda, innovatsion baholash usullarini tatbiq etish o'quvchilarning ta'lim natijalarini yanada yaxlit ko'rishni ta'minlash orqali ta'lim sifatini boshqarishni yaxshilashga va'da beradi. Ushbu yondashuvlarni qo'llash orqali ta'lim muassasalari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishlari, o'qitish amaliyotini yaxshilashlari va pirovardida barcha o'quvchilarning yuqori sifatli ta'lim olishlarini ta'minlashlari mumkin.

Ushbu innovatsion baholash usullarini qo'llash orqali ta'lim muassasalari o'quvchilarning turli ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishi, chuqurroq ishtirok etish va tushunishga yordam berishi va ta'limning umumiy sifatini oshirishi mumkin. Biroq, muvaffaqiyatli amalga oshirish o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishini, texnologiya infratuzilmasiga sarmoya kiritishni va talabalarga yo'naltirilgan pedagogikaga sodiqlikni talab qiladi. Uzluksiz innovatsiyalar va moslashuvlar orqali ta’lim sifatini boshqarish XXI asr o‘quv muhiti talablariga javob beradigan tarzda rivojlanishi mumkin. Umuman olganda, innovatsion baholash usullarini tatbiq etish o'quvchilarning ta'lim natijalarini yanada yaxlit ko'rishni ta'minlash orqali ta'lim sifatini boshqarishni yaxshilashga va'da beradi. Ushbu yondashuvlarni qo'llash orqali ta'lim muassasalari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishlari, o'qitish amaliyotini yaxshilashlari va pirovardida barcha o'quvchilarning yuqori sifatli ta'lim olishlarini ta'minlashlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalari samarali baholash orqali ta'lim sifatini boshqarishni yaxshilash mumkin bo'lgan innovatsion usullarni o'rganishni davom ettirish muhimdir. Baholash tizimi talabalarning o‘qishini samarali baholashlari, faolligini oshirishlari va umumiy ta’lim sifatini oshirishlari mumkin. Biroq, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun doimiy kasbiy rivojlanish, texnologik infratuzilmaga sarmoya kiritish va innovatsiyalar madaniyati hamda o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik qilish majburiyatini talab qiladi. Ushbu chora-tadbirlar o'qituvchilarga o'quvchilarning o'rganishi bo'yicha yanada boyroq tushunchalarga ega bo'lish imkoniyatini beradi va shu bilan umumiy ta'lim tajribasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020-yil 23-sentyabr O‘RQ-637-son.

2. Абдуллаева, Ш.А. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ. Редакционная коллегия, 459.

3. Abdullayeva G.A. QUALITY OF EDUCATIONAL WORK IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM AS A PROBLEM // Экономика и социум. 2021. №11-1 (90). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/quality-of-educationalwork-in-the-general-secondary-education-system-as-a-problem (дата обращения: 10.05.2023).

4. G.M.Anorqulova “Ta’lim texnologiyalari” – Toshkent: “Innovatsiya – Ziyo” 2021-yil, 3-bet.

5. Erkaboeva, N.S., & Bakhromovna, M.M. (2022). A MODERN APPROACH TO THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE DEFECTOLOGISTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1723-1725.

6. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

7. Г.Н.Сериков Управление образованием: системная интеграция – Челябинск: Изд-во Челяб. пед. ин-та, 2008. – 660 с.

8. Э.Н.Гусинский Введение в философию образования: учеб. пособие / Э.Н.Гусинский, Ю.И.Турчанинова. – М.: Логос, 2000. – 223 с.

9. А.О.Татур Стандарты и тесты в образовании – М.: Педаго

YOSHLARNI INNOVATSIYALARGA TAYYORLASHDA INTERNET MADANIYATINING HAL QILUVCHI ROLI

Dedaxonova Moxira Oltmishboyevna,
Namangan davlat universiteti doktoranti

Anotatsiya. *Ushbu maqola internet madaniyati yoshlarga qanday ta'sir qilishini va iqtisodiyot sharoitida yangi muammolarga muvaffaqiyatli moslashish hamda innovatsiyalar uchun qulay muhitni yaratishini o'rganadi.*

Kalit so’zlar: *inovatsiya, internet, platforma, blog, vlog, landshaft, demokratlash, crowdfunding, kiberbulling, biznes.*

Abstract. *This article examines how internet culture affects young people and creates a favorable environment for successful adaptation and innovation to new challenges in the economy.*

Keywords: *innovation, internet, platform, blog, vlog, landscape, democratization, crowdfunding, cyberbullying, business.*

Kirish: Bugungi raqamli asrda Internet kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi, u bizning muloqot qilish, o'rganish va dunyo bilan o'zaro munosabatimizni chuqur shakllantirmoqda. Raqamli mahalliy bo'lgan yoshlar uchun internetdan foydalanish madaniyati ularni innovatsion faoliyatga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yoshlar uchun internet madaniyatining eng muhim afzalliklaridan biri bu axborot va bilimlarning tengsiz foydalanishidir. Bir necha marta bosish orqali ular akademik jurnallardan tortib onlayn darsliklar va forumlargacha bo'lgan juda ko'p manbalarni o'rganishlari mumkin. Ushbu qulaylik ta'limni demokratlashtiradi, yoshlarga o'z qiziqishlarini ro'yobga chiqarish va innovatsiyalar bilan bog'liq ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Kodlash, grafik dizayn yoki ilmiy tadqiqot bo'ladimi, internet an'anaviy yo'llar bilan mos kelmaydigan ko'plab ta'lim imkoniyatlarini taklif etadi.

Hamkorlik va tarmoq

Internet madaniyati hamkorlik va tarmoq orqali rivojlanib, yoshlarga dunyoning turli burchaklaridan kelgan hamfikrlar bilan bog‘lanish uchun platformalar taqdim etadi. Ushbu platformalar real vaqt rejimida muloqot qilish, hujjatlar almashish va o’quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida guruh muhokamalarini o'tkazish imkonini beradi.[3, 385] Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn forumlar va hamkorlik vositalari yoshlarga aniq vaqt tartibida loyihalar ustida hamkorlik qilish hamda fikr almashish imkonini beradi. Ushbu o'zaro ta'sirlar jamiyat va tegishlilik tuyg'usini kuchaytiradi, yosh innovatorlarni bilim almashishga, taxminlarga qarshi turishga va ijodkorlik chegaralarini kengaytirishga undaydi.

Ijodkorlik va ifoda

Internet ijodkorlik va o‘zini namoyon qilish maydonchasi bo‘lib, yoshlarga o‘z iste’dodi va g‘oyalarini namoyish etish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Blog va vloggingdan

tortib raqamli san'at va musiqa ishlab chiqarishgacha onlayn landshaft turli shakllarda innovatsiyalar uchun tuval taqdim etadi. Internet madaniyati o'ziga xoslik va eksperimentni nishonlaydi, yoshlarni cheksiz fikrlashga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga undaydi. Ushbu ijodiy erkinlik innovatsion fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhimdir, chunki yoshlar o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etish uchun texnologiyadan foydalanishni o'rganadilar.

Tadbirkorlik va innovatsiyalar

Internet madaniyatining yuksalishi tadbirkorlikni ham demokratlashtirib, yosh innovatorlarga startaplarni boshlash va kirish uchun minimal to‘siqlar bilan o‘z biznes tashabbuslarini amalga oshirish imkonini berdi. Crowdfunding platformalari, elektron tijorat veb-saytlari va raqamli marketing vositalari biznesni yaratish va boshqarish usullarini inqilob qilib, yosh tadbirkorlarga o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirish imkonini berdi. Eelektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin.[2] Internet madaniyati tadbirkorlik va innovatsiyalarni nishonlaydi, yoshlarni tavakkal qilishga, muvaffaqiyatsizlikni qabul qilishga va muvaffaqiyatga erishguncha o‘z g‘oyalarini takrorlashga ilhomlantiradi.

Qiyinchiliklar va imkoniyatlar

Internet madaniyati innovatsion faoliyatga tayyorlanayotgan yoshlar uchun ko'plab imtiyozlarni taqdim etishi bilan birga, u hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarni ham keltirib chiqaradi. Onlayn noto'g'ri ma'lumotlar, kiberbulling va raqamli giyohvandlik kabi muammolar yoshlarning rivojlanishi va ijodiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli tafovut tengsizlikni kuchaytiradi, arginallashgan jamoalar internetga va uning afzalliklariga cheklangan kirish imkoniyatiga ega. Har qanday fuqaro axborot bazasidan “maxsulot” tanlash jarayonida uning qalbida, ruhiyatida, kayfiyatida, fe’l-atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi xatti-harakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini tamirlash zarur.[1] Ushbu muammolarni hal qilish barcha yoshlar raqamli asrda rivojlanish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash uchun o'qituvchilar, siyosatchilar va texnologiya kompaniyalaridan birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda internetdan foydalanish madaniyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Axborot olish va hamkorlikdan tortib, ijodkorlik va tadbirkorlikka qadar internet madaniyati yoshlarga o‘z ehtiroslarini kashf etish, boshqalar bilan bog‘lanish va jamiyatga mazmunli hissa qo‘shish imkonini beradi. Internet madaniyati imkoniyatlaridan unumli foydalanib, uning muammolarini hal qilish orqali biz innovatsiyalar kelajagini shakllantiradigan ijodiy fikrlovchi va muammoni hal qiluvchi avlodni etishtirishimiz mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdurashidov S. Internet va undan foydalanish madaniyati https://religions.uz 2020 All rights.

2. Barakayeva N. Internet va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati https://m.aniq.uz 01.10.2020.

3. Dedaxonova M. Maktab ta’limi samaradorligini oshirishda internetdan foydalanishning o‘rni / Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya materyallari 15-16.03.2024 / Raqam. ta’lim. muhit. fanlar. integr. qo’llash. ta’lim. sam. ta’siri: xalq. taj. va rivoj. istiq. – SVPYMO’MM, 2024. – B. 383 – 386.

4. Duisenov N. Ta’lim sohasida internet texnalogiyalaridan foydalanish https://www.researchgate.net February 2021.

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BOSHQARUV USLUBINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Kazimov Jamshid Shamshidinovich,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim fakulteti o‘quv
ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari p.f.f.d (PhD)
Roziqova Muyassarxon Muhammadjon qizi,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Ta'lim muasassalarini boshqaruvi yo'nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Quyidagi maqolada amalda mavjud boshqaruv uslublari va ularning sifat-samaradorlik ko‘rsatkichlari ustida izlanish olib borilgan. Shuningdek ushbu boshqaruv uslublarining takomillashtirish texnologiyalari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, uslub, texnologiya, yetakchilik, rahbar, tizim, avtoritar, demokratik, liberal.*

Аннотация. *В данной статье проведено исследование существующих методов управления и показателей их качества и эффективности. Также описаны технологии совершенствования этих методов управления.*

Ключевые слова: *менеджмент, стиль, технология, лидерство, лидер, система, авторитарная, демократическая, либеральная.*

Abstract. *In the following article, research was conducted on the existing management methods and their quality and efficiency indicators. Technologies for improvement of these management methods are also described.*

Key words: *management, style, technology, leadership, leader, system, authoritarian, democratic, liberal.*

Insoniyatni o‘z rivojlanishining postindustrial davriga o‘tishi, mamlakatimizning global makonga kirishga intilishi va bozor iqtisodiyotiga ega ijtimoiy-demokratik jamiyat qurishga e’tibor butun ta’lim tizimini sifatli yangilash zarurligini oldindan belgilab beradi. Ushbu muammoni hal etishning zaruriy sharti ta’limni modernizatsiya qilishning yangi boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘lib, bu ta’lim muassasalari rahbarlari, jumladan, maktab direktorlarining rolini oshiradi. Yurtimizning taraqqiyot bosqichida maktab kabi murakkab dinamik tizimni boshqarish uning direktorini nafaqat ichki va tashqi muhitdagi barcha o‘zgarishlarga moslashuvchan bo‘lishga va o‘z vaqtida javob berishga, balki ularning rivojlanishini prognoz qilish jarayonlariga ham diqqatini qaratishga undaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmonida ham umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo‘lmagan vazifalar va funksiyalarni yuklash, muassasa direktori va uning o‘rinbosarlari o‘rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi ta’kidlangan[1]. Shu munosabat bilan ham umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli ishlashi ko‘p jihatdan uning rahbarining kasbiy mahoratiga, shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlariga bog‘liq. Zamonaviy ta’lim muassasasining rahbari butun o‘quv jarayonidagi markaziy shaxsdir. U turli xil boshqaruv muammolarini hal qila olishi, o‘rnatilgan an’analari va turmush tarziga ega bo‘lgan ta’lim muassasasini nafaqat

[1] PF-5538-сон 05.09.2018. Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (lex.uz)

boshqarish, balki uni nazariya va amaliyot bo‘yicha maxsus bilimlarni talab qiladigan sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qodir bo‘lishi kerak.

Bizning taxminiy va umuman har qanday faoliyatimiz baholashga bog‘liq. Baholashning aniqligi va to‘liqligi maqsad sari harakatning ratsionalligini belgilaydi Mamlakatimizda maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning joriy amaliyoti Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq amalga oshirilmoqda.[1] Uning 6-reyting natijalari asosida mas’ul xodimlar faoliyatini baholash bobining 24-bandida “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari, ularning o‘rinbosarlari va pedagog xodimlari faoliyatini baholash umumiy o‘rta ta’lim muassasalari reytingini aniqlash mezonlari asosida ishlab chiqilgan reyting natijalariga muvofiq amalga oshiriladi” deb belgilab qo‘yilgan.

Boshqaruv nazariyasi namoyandalari – fransuz olimi Anri Fayol[2], amerikalik muhandis-tadqiqotchi Frederik Teylor[3], nemis sotsiologi Maks Veber[4] tamoyillari, boshqaruv mehnatining asosi hisoblanmish axborot-kommunikatsiyalar, qarorlar qabul qilish asoslari, zamonaviy menejer sifatlari, zamonaviy rahbar xodimlar maqsad va vazifalari, alohida iqtidor talab qiladigan ijodiy oliygohlarda ijodiy imtihonlarning joriy etilishi haqidagi mavzularga alohida o’rin berildi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizning zamonaviy tajribasidan suboptimal boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi, boshqaruv xodimlari malakasining ko‘p jihatdan yetarli emasligi, ularning kasbiy fazilatlari va boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmining (tartiblari, ko‘rsatkichlari, mezonlari) mavjud emasligi, shuning uchun ularning ishiga qo‘yiladigan talablar tizimining ishlab chiqilmaganligi; boshqaruv faoliyati va muassasa faoliyati natijalari va ularni o‘lchash usullari o‘rtasida dalillarga asoslangan integrativ aloqalarning yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin, bu borada esa rahbar kadrlar, jumladan, ta’lim muassasalari rahbarlarini tanlash va faoliyatini baholash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Rus olimlari T.M.Davidenko[5], Y.A.Konarjevskiy[6], V.Y.Krichevskiy[7], G.N.Podchalimova[8], E.P.Tonkonoga, P.I.Tretyakov[9], T.I.Shamovalar [10] o‘z tadqiqotlarida ta’lim muassasasi rahbarligi – nafaqat lavozim, balki maxsus boshqaruv ta’limini talab qiluvchi kasb ekanligini ko‘rsatib berdilar. Rahbarning shaxsiyati, uning kasbiy va axloqiy fazilatlari pedagoglar jamoasini birlashtirish, zamonaviy sharoitlarda murakkablashgan mamlakat fuqarolarining yangi avlodlarini o‘qitish va tarbiyalash vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Aksincha, direktorning rahbarlik faoliyatining tabiati va uslubidagi salbiy jihatlar ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligining pasayishiga, professor-o‘qituvchilarning bezovtalanishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan samarali o‘quv jarayonini tashkil etish va rivojlantirishda lavozimga tanlash va ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini baholash muammosi muhim o‘rin tutadi. Yuqoridagilarning barchasi ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini yanada chuqurroq va har tomonlama baholashni taqozo etadi. Shu o‘rinda baholash so‘zining mazmun-mohiyatiga to‘xtalsak. Baholash – bu biror narsaning darajasi yoki sifatini belgilashdir. Shuningdek, baholash – bu shaxs tomonidan amalga oshiriladigan baholash jarayoni, faoliyati (yoki harakati).

---

[1] 345-сон 03.06.2021. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida (lex.uz)
[2] Henri Fayol – Wikipedia
[3] Frederick Winslow Taylor – Wikipedia
[4] Max Weber – Wikipedia
[5] Т.М.Давыденко – лучшие книги (livelib.ru)
[6] Конаржевский Ю.А. – биография, творчество, отзывы, лучшие книги. (knigogid.ru)
[7] Вадим Кричевский – биография, книги, отзывы, цитаты (livelib.ru)
[8] https://humancapital.su/wp-content/uploads/2021/12/202112-2_p122-129.pdf
[9] Третьяков, Пётр Иванович – Википедия (wikipedia.org)
[10] Шамова, Татьяна Ивановна – Википедия (wikipedia.org)

PEDAGOGNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASHNING AXAMIYATI

Ziyatov Behruz,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogning innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning axamiyati haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, demokratizatsiyalash, insonparvarlashtirish, maqsadning aniqligi, faoliyatning uyg'unligi, pedagogik texnologiya, avtoritar texnologiya, g'amxo'rlik, o'quv faoliyati.*

Pedagogik texnologiya kafolatli ta'lim-tarbiya maqsadga erishish bilan axamiyatli va dolzarbdir. Shuning uchun maqsadning aniqligi, unga mos mazmun, maqsadga bosqichma-bosqich erishishda tarbiyalanuvchining va tarbiyachi faoliyatining uyg'unligi pedagogik texnologiyaning talabidir. Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni talab etadi. Chunki pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining sub'ekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining sub'ekti – ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi. Umuman, pedagogik texnologiya o'quv jarayoni va uning ishtirokchilari bilan bog'liq barcha maqsadli sa'y-harakatlar yig'indisini anglatishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy burilish va uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda, ta'lim tizimida axborot texnologiyasi – bu «o'quvchi yoki talaba – kompyuter» o'rtasidagi muloqotdir. Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo'llana boshlandi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, «sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ortiq bo'ldi, ya'ni axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar va xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishida aqliy mehnat vositalarining o'zgarishi bilan bog'liq ikkita axborot inqilobi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Birinchi inqilob kitob bosishning paydo bo'lishi bilan ro'y berdi va telefon, telegraf, radioning ixtiro qilinishi bilan chuqurlashdi. Ikkinchi inqilob elektron-hisoblash mashinalari(EHM)ning paydo bo'lishi va tez tarqalishi, EHM lokal tarmoqlarining yaratilishi, axborot resurslarini boshqarish tizimlarining tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Shu bois yaqin kelajakda respublikamizdagi mavjud barcha o'quv yurtlari dasturli mashinalar bilan yetarli darajada ta'minlash muammosi paydo bo'ldi. Shundagina axborotli texnologiya asosida talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylangan. Chunki quruvchi oldindan nimani qurayotganini bilganidek, tarbiyachi ham kimni tarbiyalamoqchi, nimani shakllantirmoqchi ekanini bilishi shart.

Ta‘lim-tarbiyaning maqsadi-kishi shaxsining modeli sifatida qoida mavjud. Ammo pedagogik texnologiyada maqsad va unga erishish kafolatli butun pedagogik jarayon, texnologiya jarayonining mezoni, kalitidir. Avvalo jamiyat va davlat buyurtmasidan kelib chiqadigan ta‘lim-tarbiyaning umumiy maqsadiga asoslaniladi. Shuningdek, ta‘lim mazmuni asosida maqsad qo‘yish; pedagogik faoliyati asosida; o‘quvchilarning qobiliyati, xissiy ta‘sirlanishi asosida, ichki jarayon asosida, o‘quvchini o‘rganish faoliyati asosida, maqsad qo‘yish texnologiyasini tavsiya etadi.

Maqsadga bosqichma-bosqich erishilganiga qarab, u muvofiqlashtiriladi, maqsadga to‘la erishish uchun o‘ziga xos texnologik yo‘l qo‘llanadi, yangi-yangi o‘quv maqsadlari qo‘yiladi. Demak, pedagogik texnologiyaning odatdagi didaktik maqsaddan farqi diagnostika asosida maqsad qo‘yilishidir. Sinf, guruh yoki alohida o‘quvchiga qo‘yilgan diagnoz qanchalik to‘g‘ri bo‘lsa, qo‘yilgan maqsad shunchalik to‘la va oson bajariladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek pedagogik texnologiya maqsadga to‘la erishish printsipi etakchilik qiladi. Shuning uchun M.V.Klarin maqsadga erishish texnologiya”sini alohida taxlil qiladi. Uni uchga bo‘lib o‘rganadi: etalon maqsadga “mezoniy baxolash”, “ta‘limiy jarayon” va “maqsadga to‘la erishish”. Maqsadga to‘la erishish uchun natijani bosqichma-bosqich baxolash zarur bo‘ladi. Bugungi kunda test nazoratini joriy etilishi, bu didaktik vazifani amalga oshirishga qo‘l keladi. Ma‘lumki, testda ta‘lim maqsadi, erishiladigan mezon o‘z aksini topadi. Shuning uchun har bir bosqichda test orqali natijani aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta‘lim maqsadini testga tushirish muhim masaladir.

O‘qitishda takrorlovchi bosqich texnologik jarayonda alohida o‘rin tutadi. Takrorlashda: ta‘limning umumiy maqsadi; umumiydan ma‘lum aniq maqsad belgilanishi va har bir bosqichda o‘quvchining o‘zlashtirishi dajarasini aniqlash; shunga asosan ta‘lim jarani muvofiqlashtiriladi, boshqariladi.

Ta‘lim jarayonida takrorlash texnologiyasi. Masalan, darsning tuzilishini texnologik jihatdan tahlil qilinadigan bo‘lsa:

- o‘quvchilar diqqatini tashkil etish;
- didaktik maqsad haqida axborot berish;
- zaruriy bilim-malakalarni rag‘batlantirish;
- ma‘lum ta‘sir etadigan o‘quv materialini ko‘rsatish;
- o‘quvchilar javobini aks sadosini (reaktsiyasi) rag‘batlantirish;
- o‘zaro xamkorlikni ta‘minlash;
- olingan mustaxkam bilim malakani rag‘batlantirish;
- o‘quvchilar faoliyatini baholash va shu kabilar.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri aniq bajarishi mumkin bo‘lgan, kafolatli natijaga erishish maqsadi, texnologiyasidir deyish mumkin. Pedagogik texnologiya faqat ta‘lim mazmunini ifodalovchi maqsad emas, balki didaktik tizimni ham ko‘zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: «Tarbiyachi», 2004 y.

2. Musurmonova A. Pedagogik texnologiyalar-ta’lim samaradorligi omili. Monografiya. – Toshkent. Yoshlar nashriyoti uyi. 2020-yil. 184 bet.

3. Egamberliyeva N., Xodjayev B. Maktabgacha pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 48 b.

4. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do‘stona muhit yaratish omili. – T.: YUNISEF, 2005 y.

5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.

IJTIMOIY TARBIYAGA AKSIOLOGIK YONDASHUV: YOSH ONGDA QADRIYATLARNI TARBIYALASH

Sobirjonova Nazokat,
Namagan davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo`nalishi 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Yoshlar rivojlanishining murakkab landshaftida aksiologik yondashuv qadriyatlarni singdirish va axloqiy ongni shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Aksiologiya, qadriyatlarni falsafiy o'rganish, yoshlarni ijtimoiy tarbiyalashda axloqiy va axloqiy tamoyillarni tarbiyalash muhimligini tushunish uchun mustahkam asos yaratadi. Ushbu maqola ijtimoiy tarbiyaga aksiologik yondashuvni o'rganadi, uning dolzarbligi, usullari va adabiyot tahlilidan olingan tushunchalarni o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *aksiologik yondashuv, ijtimoiy tarbiya, yoshlar, qadriyatlar, izohlash usullari, qiymat ierarxiyasi.*

Aksiologik yondashuv qadriyatlarni, ularning tabiati, ahamiyati va inson hayotining turli jabhalarida qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan falsafiy asosdir. Ushbu yondashuvni o'z ichiga olgan falsafaning aksiologiya bo'limi qadriyatlar nima ekanligini, ular qanday aniqlanganligini va shaxslar va jamiyatlarga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya va ta'lim sharoitida aksiologik yondashuv axloqiy tamoyillar, axloqiy qadriyatlar va fazilatlarni yoshligidanoq shaxslarga singdirish muhimligini ta'kidlaydi. Bu qadriyatlar o'ziga xos emasligini, balki ijtimoiy o'zaro ta'sirlar, madaniy ta'sirlar va ta'lim tajribalari orqali o'rganilishini va rivojlanishini tan oladi.

Aksiologik yondashuvning asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi:

1. “Qiymat so'rovi”: aksiologiya qadriyatlarning mohiyatini tanqidiy tekshirish va tekshirishni rag'batlantiradi. U qadriyatlar nima ekanligini, ularga qanday ustuvor ahamiyat berilishini va qaror qabul qilish jarayonlarini qanday xabardor qilishlarini tushunishga intiladi.
2. “Qiymat ierarxiyasi”: aksiologiya qadriyatlar shaxslar va jamiyatlar uchun ahamiyati va ahamiyati jihatidan farq qilishini tan oladi. U turli qadriyatlar o'rtasidagi ierarxik munosabatlarni o'rganadi va ularning o'zaro ta'siri va xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi.
3. “Qiymat ta'limi”: aksiologik yondashuv qadriyat ta'limini ta'lim o'quv dasturlari va sotsializatsiya jarayonlariga ataylab kiritishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu yoshlarda axloqiy xarakter va axloqiy ongni rivojlantirishda o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat rahbarlarining rolini tan oladi.
4. “Axloqiy aks ettirish”: aksiologiya axloqiy muammolar va axloqiy masalalarda tanqidiy fikr yuritishga yordam beradi. Bu shaxslarni o'z qadriyatlarini o'rganishga, muqobil istiqbollarni ko'rib chiqishga va axloqiy qarorlar qabul qilishga undaydi.
5. “Ijtimoiy kontekstlarda qo'llash”: aksiologik yondashuv qadriyatlar joylashgan kengroq ijtimoiy va madaniy kontekstlarni ko'rib chiqadi. U turli madaniyatlar va jamiyatlardagi qadriyatlarning xilma-xilligini tan oladi va qadriyatlarni tarbiyalash harakatlarida madaniy sezgirlik va inklyuzivlikning muhimligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, aksiologik yondashuv qadriyatlarning inson hayotidagi ahamiyatini tushunish va ularni shaxslarni, xususan yoshlarni ijtimoiy tarbiyalashda ataylab etishtirishni targ'ib qilish uchun falsafiy asos yaratadi. Qadriyatlar va ularning oqibatlarini chuqurroq tushunishga ko'maklashish orqali ushbu yondashuv axloqiy mas'uliyatli shaxslar va axloqiy jamiyatlarning rivojlanishiga hissa qo'shishga qaratilgan. Aksiologik yondashuv, asosan, shaxslar ichida hamdardlik, yaxlitlik, mas'uliyat va hurmat kabi qadriyatlarni rivojlantirishga urg'u beradi. Faqat akademik yutuqlarga yo'naltirilgan an'anaviy ta'lim paradigmalaridan farqli o'laroq, aksiologik yondashuv yosh ongning yaxlit rivojlanishini tan oladi, xarakter va xulq-atvorni shakllantirishda qadriyatlarning hal qiluvchi rolini tan oladi.

Aksiologiya qadriyatlar tug'ma emas, balki sotsializatsiya jarayonlari orqali erishiladi, deb ta'kidlaydi ijtimoiy tarbiya qadriyatni anglaydigan jamiyatni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar kontekstida bu yondashuv axloqiy tamoyillarni tarqatish va axloqiy dilemmalar haqida tanqidiy fikr yuritishni rag'batlantirish, shu bilan nafaqat intellektual qobiliyatli, balki axloqiy jihatdan ham to'g'ri bo'lgan shaxslarni tarbiyalash uchun qasddan qilingan harakatlarni o'z ichiga oladi.

Aksiologik tarbiyada izohlash usullari:

Aksiologik yondashuvni samarali amalga oshirish yoshlar o'rtasida qadriyatlarni ichkilashtirishga yordam beradigan mulohazali izohlash usullarini talab qiladi. Izoh, shu nuqtai nazardan, qiymatga yo'naltirilgan faoliyat, munozaralar va mulohazalarni ta'lim va ijtimoiy kontekstlarga ataylab kiritishni anglatadi.

Jamiyat xizmatlari loyihalari, tengdoshlarning murabbiylik tashabbuslari va immersiv madaniy tajribalar kabi tajribaviy ta'lim faoliyati yoshlarga amaldagi qadriyatlarga guvoh bo'lish uchun bebaho imkoniyatlar yaratadi. Haqiqiy stsenariylarda faol ishtirok etish orqali shaxslar axloqiy tamoyillar va ularning amaliy qo'llanilishini chuqurroq tushunishlari mumkin.

Yoshlarni axloqiy dilemmalar atrofida munozaralarga jalb qilish tanqidiy fikrlash va axloqiy fikrlashni rag'batlantiradi. An'anaviy to'g'ri va noto'g'ri tushunchalarga qarshi bo'lgan dilemmalarni taqdim etish orqali shaxslardan o'z qadriyatlarini o'rganish, muqobil istiqbollarni ko'rib chiqish va axloqiy qarorlar qabul qilish talab qilinadi.

Ijobiy rol modellari yoshlarning qadriyatlari va xatti-harakatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Murabbiylik dasturlari, oilaviy dinamika yoki ommaviy axborot vositalarida namoyish etish orqali namunali shaxslarga ta'sir qilish intilish qadriyatlarini kuchaytiradi va axloqiy rivojlanishda etakchi ta'sir ko'rsatadi.

Aksiologik yondashuv bo'yicha adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish uning samaradorligi va ijtimoiy tarbiya uchun ta'siri to'g'risida qimmatli tushunchalarni beradi. Tadqiqotlar, nazariy asoslar va empirik dalillar qadriyatlar, tarbiya va yoshlarning rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nozik tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aniq axloqiy yo'l-yo'riq olgan va qiymatga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanadigan o'spirinlar ko'proq hamdardlik, axloqiy xabardorlik va ijtimoiy xulq-atvorni namoyish etadilar. Bundan tashqari, bo'ylama tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axloqiy tarbiya dasturlariga erta ta'sir qilish axloqiy tamoyillarga uzoq muddatli rioya qilish va huquqbuzarlik xatti-harakatlariga jalb qilishning kamayishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, adabiyotda aksiologik tarbiyaga xos bo'lgan qiyinchiliklar va murakkabliklar, shu jumladan madaniy farqlar, qadriyatlar ziddiyatlari va tengdoshlarning bosimi va ommaviy axborot vositalariga ta'sir qilish kabi tashqi omillarning ta'siri ham ta'kidlangan. Ushbu muammolarni hal qilish madaniy sezgirlik, moslashuvchan strategiyalar va turli xil ijtimoiy institutlar bo'yicha hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Tez ijtimoiy o'zgarishlar va rivojlanayotgan axloqiy landshaftlar bilan ajralib turadigan davrda aksiologik yondashuv yoshlarda qadriyatlarni tarbiyalash uchun majburiy asos yaratadi. Intellektual rivojlanish bilan bir qatorda axloqiy ongni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish orqali o'qituvchilar, ota-onalar va siyosatchilar shaxslarga murakkab axloqiy dilemmalarni yaxlitlik va chidamlilik bilan boshqarish imkoniyatini berishlari mumkin. Aksiologik yondashuv mulohazali izohlash usullari va ma'lumotli adabiyotlarni tahlil qilish orqali jamiyatning jamoaviy farovonligiga ijobiy hissa qo'shishga tayyor bo'lgan axloqiy mas'uliyatli fuqarolar avlodiga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son farmoni “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” Toshkent shahri, 2017-yil 5-iyul.

2. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari” to‘g‘risidagi qonun. 1991-yil.
3. Javliyev T. An’analar – hayot sabog‘i. – T.: «O‘zbekiston», 1998. – 90-bet
4. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: «O‘qituvchi», 1996. 189-bet.
5. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Fan», 2006 – 252-bet.
6. Q.Abdullayeva, M.Yusupova, S.Rahmonbekova “Odobnoma” 2-sinf. Toshkent. 2007-yil.
7. Saidkulovich, S.B. (2023). CONCEPT AND STRUCTURE OF WORLD VIEW IN MODERN SOCIETY. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8(4), 35-37.
8. Saidkulovich, S.B. (2023). AXIOLOGICAL APPROACH IN PROFESSIONAL EDUCATION OF STUDENTS. British View, 8(3).
9. Saidkulovich, S.B. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARIDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 30-33.

ПРИМЕНЕНИЕ ХИМИЧЕСКИХ ЗАДАЧ И УПРАЖНЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ХИМИИ ПО МЕТОДОЛОГИИ PISA

Абдувалиева Комила Худойбердиевна,
старший преподаватель кафедры
«Химия и методика её преподавания»
Джизакского государственного педагогического университета;
Седалова Ирода Сайтмурод кизи,
преподаватель кафедры
«Химия и методика её преподавания»
Джизакского государственного педагогического университета.

Аннотация. *В статье освещаются вопросы модернизации образовательной системы, делается акцент на целесообразность решения стандартных жизненных задач на основе прикладных знаний. Приведены задания по методологии PISA для оценки знаний учащихся в процессе решения химических задач.*

Ключевые слова: *образовательная система, модернизация, методология PISA, развитие, химические задачи.*

На современном этапе образовательная система претерпевает значительные изменения, новый компетентный подход связан с необходимостью непрерывного самообразования молодых людей, овладением инновационными технологиями, умением сотрудничать и работать в группах. Эти изменения требуют определенного пересмотра, как содержания обучения, так и подходов к выявлению его эффективности.

Рассматриваемые изменения в образовании нашли отражение в программе международного исследования PISA (Programme for International Student Assessment). При этом акцентируется внимание на выявлении степени развития у учащихся умений использовать знания в ситуациях, близких к реальным.

Одной из характеристик заданий для оценки умений и навыков учащихся являются ситуации, в которых раскрываются различные проблемы. Чтобы решить задачу в методологии PISA, необходимо применить следующие обще-учебные навыки:

- поиска информации в разных местах: в тексте вопроса или опираясь на собственные знания и опыт;

- выделения в задании собственно вопроса и дополнительной информации, если нужно переформулировать вопрос;

- отбора информации, необходимой для принятия решения;

- перевода задачи в относительно стандартный вид, планирования действий по поиску решения, удерживая при этом поставленный вопрос в памяти;

- при выполнении действий понимать, что получается, отбрасывать ненужные результаты, производить их проверку;

- восстановления связи вопрос-результат и преобразования результата в ответ;

- оформления ответа.

Данные обще-учебные навыки развиваются в процессе обучения решению творческих задач. Творческие задачи в школьной практике используются довольно редко, требуют достаточно высокой квалификации педагога и дополнительного учебного времени. Однако вводить постепенно элементы таких заданий в повседневную практику, на наш взгляд, вполне возможно.

Давайте рассмотрим пример использования методологии PISA в решении химических задач и упражнений:

«Лесной дух»

В рукописи нидерландского химика Яна Ван Гельмонта (1620 г.) говорится: «…Я узнал, что уголь во время сгорания выделяет лесной дух; 62 фунта дубового угля выделяют 1 фунт золы, а остальные 61 фунт необходимы для образования лесного духа. Этот лесной дух, неизвестный до сих пор, невозможно собрать ни в какую посудину, невозможно потрогать или понюхать и невозможно сделать видимым телом. Даю ему название – газ».

Задания PISA:

1. «Лесной дух» состоит:

А) из одной молекулы углерода и трех молекул кислорода;
Б) из одной молекулы углерода и двух молекул кислорода;
В) из одной молекулы кислорода и одной молекулы углерод;
Г) нет верного ответа.

2. «Лесной дух» – это:

А) сильный яд;
Б) непрозрачный газ;
В) бесцветный газ;
Г) вонючий газ.

3. Образуется «лесной дух»:

А) при разложении мрамора;
Б) при сгорании серы;
В) при сгорании древесного угля;
Г) из воды.

4. «Лесной дух» – это:

А) кислотный оксид;
Б) кислота;
В) основной оксид;
Г) основание.

5. «Лесной дух» можно обнаружить при помощи:

А) минеральной воды;
Б) известковой воды;
В) водопроводной воды;
Г) дождевой воды.

Данный пример наглядно демонстрирует, что ориентирование учащихся на методологию PISA посредством решения химических задач и упражнений приведет к всестороннему развитию практической химии и применению современных научных достижений в промышленности и отраслях народного хозяйства. Для этого основной целью выступает формирование творческих знаний и навыков в школьном курсе химии и повышение интереса учащихся к науке.

Таким образом, для понимания химических процессов, происходящих в природе, овладения научными принципами современного производства и политехнического мировоззрения, нужно, прежде всего, усвоить фундаментальные и научные основы химии.

Использованная литература:

1. Абдувалиева К.Х. «Международное исследование PISA и проблемы развития решения химических задач / Сборник республиканской научно-практической конференции / Нукус, 2023 г. с. 373 – 375.

2. Абдувалиева К.Х. “Maktab oquvchilariga kimyoviy masala va mashqlar yechishda PISA tadqiqotlaridan foydalanish” / Материалы республиканской научно-практической конференции, Нукус, 2023 г., с. 382 – 385.

3. Абдувалиева К.Х. «К вопросу применения исследований PISA в решении химических задач и упражнений» / Сборник материалов республиканской научно-практической конференции, 25.11.2022 г., с. 441 – 443.

4. Абдувалиева К.Х. “Кимёда масалаларни ечишда PISA тадқиқотлари методикасидан фойдаланиш” / Материалы республиканской научно-практической конференции, Джизак, 2022 г., с. 196 – 198.

5. Абдувалиева К.Х. «Оптимальные значения решения простых и сложных задач при обучении химии» / Сборник статей Международной научно-практической конференции, Петрозаводск, МЦНП «Новая наука», 2022 г., с.174 – 178.

6. Ихтиярова Г., Бекчанов Д., Ахадов М. Учебное пособие по обучению химии на основе современных технологий. – Ташкент, 2019.

«ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДОШКОЛЬНИКОВ».

Абдукахарова Мохина,
Наманганский государственный педагогический институт
студентка 1 курса кафедры методики дошкольного и начального образования
Абдукаримова Шахноза Набиевна,
Преподаватель Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. *В статье представлена актуальность и значимость использования дидактических средств в развитии детей дошкольного возраста. Особое внимание акцентировано на особенностях применения дидактических средств в формировании элементарных математических представлений дошкольников.*

Ключевые слова: *дидактические средства, дошкольное образование, дошкольная дидактика, математические представления, средства обучения, наглядный дидактический материал.*

Annotation. *The article presents the relevance and importance of the use of didactic means in the development of preschool children.*

Particular attention is focused on the peculiarities of the use of didactic means in the formation of elementary mathematical representations of preschoolers.

Key words: *didactic means, preschool education, preschool didactic, mathematical presentations, means of learning, visual didactic material.*

Дошкольное образование является составной частью и первым звеном в единой системе непрерывного образования. Именно в этот период происходит становление основ личности. В соответствии с общепринятой возрастной периодизацией развития человека дошкольное детство охватывает период от рождения до 6 лет, когда происходит активное формирование двигательной, чувственной и интеллектуальной сфер ребёнка, развитие его речи и основных психических процессов, способностей и социально значимых качеств.

Высокая интенсивность процесса формирования личности в период дошкольного детства позволяет особенно эффективно осуществлять педагогу эффективно осуществлять педагогическое взаимодействие с ребёнком и решать задачи его развития, воспитания и обучения.

Это положение даёт основание считать проблемы целенаправленного обучения дошкольников в соответствии с их специфическими возрастными особенностями наиболее актуальными для современного этапа развития.

Освоение основных математических представлений в дошкольном возрасте создаёт основу для эффективного обучения математике в школе, успешного освоения фундаментальных математических понятий и любого другого обобщённого содержания .

Обучение элементам математики имеет особое значение в воспитании познавательной активности детей, т.е. стремления и умения решать разнообразные познавательные задачи.

Наиболее широко используются дидактические игры, потому что в дидактической игре ребенок непреднамеренно усваивает новые математические знания, применяет и закрепляет их. Все виды дидактических игр (ПРЕДМЕТНЫЕ, НАСТОЛЬНО-ПЕЧАТНЫЕ, СЛОВЕСНЫЕ) являются

Математику важно не только знать, но и уметь применять на практике , использовать усвоенное для получения новых знаний.Но иногда возникают трудности и вопрос , как объяснить математику ребенку.Если задать ребёнку вопрос « Зачем учить математику?» в большинстве случаев он ответит:» Чтобы ходить в магазин, уметь считать деньги и .т.п». Поэтому мы считаем что в ДОО надо использовать метод проблемных ситуаций .Проблемная ситуация оживляет воспитательно-образовательный процесс, вовлекает дошкольников в продуктивную деятельность. Удивление ребят может вызвать оригинальное решение задачи или упражнения, невероятный результат, очень быстрое решение «сложно задачи» и т.п. Дошкольник должен быть поставлен в ситуацию интеллектуального затруднения, из которого сам должен найти выход. Успешный результат стимулирует активность и поддерживает устойчивую мотивацию.

Этапы решения проблемной ситуации:

1. обнаружение проблемы
2. нахождение различных способов решения проблемы.
3. выполнение задания.

А также воспитатель должен знать методику организации дидактических игр. Организация осуществляется в трёх основных направлениях: подготовка к проведению дидактических игр, её проведение и анализ.

В подготовку входит;

- отбор игры в соответствии с задачами;
- выбор места для игры;
- определение колличества играющих;
- подготовка дидактического материала;
- подготовка детей к игре;

Проведение дидактических игр включает:

- ознакомление детей с содержанием игры;
- объяснение хода игры;
- показ игровых действий;
- Определение роли воспитателя;

Анализ проведенной игры направлен на подготовку и проведение игры.

За время пребывания в детском саду выпускник должен научиться применять математические знания и представления в значимой для него практической деятельности: игре, детском экспериментировании, конструировании, в трудовой деятельности, художественно-изобразительной.

Каждое занятие занимает свое, строго определенное место в системе занятий по изучению данной программной задачи, темы, раздела, способствуя усвоению программы развития элементарных математических представлений в полном объеме и всеми детьми. Игры очень важны для формирования у детей элементарных математических представлений. В этих играх у детей развиваются сенсорные способности, пространственные представления, образное и логическое мышление, смекалка и сообразительность, а также формируется привычка к умственному труду.

Список литературы:

1. Помораева И.А., Позина В.А. «Занятия по формированию элементарных математических представлений». Издание второе, исправленное и дополненное. Издательство Мазаика-Синтез Москва, 2010.

2. Новикова В.П. «Математика в детском саду». Мазаика-Синтез, 2015. Михайлова З.А. «Математика от 3 до 7». Издательство: Детство-Пресс, 2009.

3. Колесникова Е.В. «Математические ступеньки». Издательство: Сфера, 2016.

MAKTABGACHA TA`LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHI NUTQINING AHAMIYATI

Xamrayeva E‘zozxon Muzaffarovna,
JDPU mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachi nutqining ahamiyati to’g’risida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение речи воспитателя в развитии речи детей дошкольного возраста.*

Annotation. *This article reflects on the importance of the educator's speech in the development of the speech of children of preschool age.*

Tayanch so’zlar: *kasbiy madaniyat, nutq madaniyati, taqlidiy nutq, lug’at, og’zaki nutq, ekspressiv, grammatik, tafakkur, idrok.*

Ключевые слова: *профессиональная культура, культура речи, имитационная речь, лексика, устная речь, экспрессивная, грамматическая, мышление, восприятие.*

Key words: *professional culture, culture of speech, imitation speech, vocabulary, oral speech, expressive, grammatical, contemplative, perceptual.*

Akademik D.S.Lixachev o‘zining “Yaxshilik haqida maktublar” kitobida shunday yozgan edi: “Insonni, uning aqliy rivojlanishini, uning axloqiy xarakterini bilishning eng ishonchli yo‘li uning qanday gapirayotganini tinglashdir... Bizning nutqimiz, nafaqat xatti-harakatlarimiz, balki shaxsiyatimiz, qalbimiz, ongimizning eng muhim qismidir ...” Darhaqiqat, insonning tili, nutqi insoniy fazilatlarning, madaniyatining, aql-zakovati darajasining aniq ko'rsatkichidir. Hayot davomida olgan asos va bilimlarga tayangan holda, har bir inson butun umri davomida o'z ona tili bilan munosabatlarini qurishda davom etadi. Bu jamiyatda, oilada muvaffaqiyatga erishishning zaruriy sharti, muvaffaqiyatli mehnat, muvaffaqiyatli hayot uchun shartdir. Ona tilining alohida o'rni shundaki, tilni doimiy ravishda takomillashtirmasdan turib, barcha ilmiy fanlarni – ham gumanitar, ham tabiiy, ham texnik sohalarni chuqur o'rganish mumkin emas, chunki til inson fikrlari, his-tuyg'ularini yetkazishning asosiy usullaridan biridir.

Shu o’rinda nutqni rivojlantirishda, bolaning so'z boyligini to'ldirishda asosiy rolni tarbiyachi va uning nutqi o'ynaydi, chunki maktabgacha ta’lim yoshidagi bola hayotining ushbu davrida ular bilan ko'proq vaqt o'tkazadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyati taqlidiy nutqidir, bu ularning idrok va tafakkurining o'ziga xosligi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Bolalarni taqlid qilish bilan bog'liq fikrlash va idrok etishning o'ziga xosligi bolalarni tarbiyalash va o'qitishda, xususan, bolalarga ona tilini o'rgatishda ishlatilishi kerak. Muloqot va bilish vositasi hamda usuli sifatida ona tilini o'zlashtirish maktabgacha yoshdagi bolaning eng muhim yutuqlaridan biridir. Nutqni rivojlantirishda, bolaning so'z boyligini to'ldirishda asosiy rolni tarbiyachi va uning nutqi o'ynaydi, chunki maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari hayotining ushbu davrida ular bilan ko'proq vaqt o'tkazadi. Bolaning nutqi qanchalik mukammal bo'lsa, uning maktabda o'qishi shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Shuningdek, bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachining na’munasi katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, sa'y-harakatlar natijasida, ularning yordami bilan bola to'g'ri gapirishni o'rganadi, demak u maktabda o'qish, yozishni o'zlashtirishga tayyor bo’lishida tarbiyachining o’rni beqiyosdir.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun ajralmas shart-bu uning tarbiyachi bilan aloqasi. Kattalar-insoniyat tomonidan to'plangan tajriba, bilim, ko'nikma, madaniyatning saqlovchilari. Ushbu tajribani faqat til yordamida yetkazish mumkin. Til inson muloqotining eng muhim vositasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalash va o'qitishning ko'plab muhim vazifalari orasida ona tilini o'rgatish, nutq va lug'atni rivojlantirish nutq madaniyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Ushbu umumiy vazifa bir qator maxsus vazifalardan iborat:

- nutqning ovozli madaniyatini tarbiyalash
- lug'atni boyitish
- mustahkamlash va faollashtirish
- nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish
- og'zaki (dialogik) nutqni shakllantirish
- izchil nutqni rivojlantirish
- badiiy so'zga qiziqishni tarbiyalash,
- savodxonlikka tayyorgarlik.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalar o'z ona tillarini o'zlashtirib, og'zaki muloqotning eng muhim shakli-og'zaki nutqni o'zlashtiradilar.

Tarbiyachi ushbu bilimlarning qo'llanmasi va tayanchi hisoblanadi. Izchil nutqni shakllantirishda bolalarning nutqiy va aqliy rivojlanishi, ularning fikrlashi, idrok etishi, kuzatishi rivojlanishining o’zaro bo’g’liqligida namoyon bo'ladi.

Izchil nutq nafaqat so'zlar va jumlalar ketma-ketligi, balki to'g'ri tuzilgan jumlalarda aniq so'zlar bilan ifodalangan bir-biriga bog'liq fikrlar ketma-ketligidir. Bola gapirishni o'rganish orqali o'ylashni o'rganadi, shu bilan birgalikda u o'ylashni o'rganish orqali nutqini ham yaxshilaydi. Masalan, bolalarga nutq ostirish faoliyatida topshiriq beriladi: "Rasmda qaysi uy chizilgan? (Kichik...) Ha, kichkina uy. Va yana qanday uy haqida gapirish mumkin? (Kichik, shinam uy...) To'g'ri, kichik, shinam uy." Berilgan savollar o'rtasidagi farq nima ekanligini batafsil ko'rib chiqishimiz mumkin. Muloqot davomida bolalarning e'tibori nutqda turli xil so'zlar ishlatilishiga, diqqatini jamlay olishiga, so’z boyligini to’liq nomoyon etishiga qaratiladi. Bu yerda tarbiyachi ularni asta-sekin so'zining ma'nosini tushunishga, nutqning og'zaki tarkibini tushunishga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun so'z va tovush juda noaniq ma'noga ega. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyati taqlidiy nutqidir, bu ularning idrok va tafakkurining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Tanqidiy fikrlashni bilmagan holda, bu yoshdagi bolalar atrof-muhitda ko'rgan va eshitgan hamma narsaga taqlid qilishadi. Bolalar bog'chasida bola bevosita bog'liq bo'lgan bunday yaqin odam tarbiyachidir. Tarbiyachiing xulq-atvori, nutqi, tashqi ko'rinishi-bularning barchasi bolalar uchun na`munadir. Bolalarni taqlid qilish bilan bog'liq fikrlash va idrok

etishning o'ziga xosligi bolalarni tarbiyalash va o'qitishda, xususan, bolalarga ona tilini o'rgatishda ishlatilishi kerak.

Tarbiyachining nutqiga qanday talablar qo'yilishi kerak?

1. Bolalar bilan muloqot nutqining semantik tarkibi yaqin va tushunarli bo'lishi kerak.

2. Bolalar bilan gaplashayotganda tarbiyachining nutqi yanada ixcham va sodda bo'lishi kerak.

3. Kichik guruh tarbiyalanuvchilariga nisbatan izohlardan qochish kerak va shu bilan birga ular bilan aniqroq gaplashish kerak, chunki bu yoshdagi bolalar katta yoshdagi bolalar tomonidan qabul qilingan dalillarni tushunolmaydilar.

Tarbiyachi nutqi grammatik to’g’ri bo’lishir kerak. Bolalar bilan nutqiy muloqotda tarbiyachi tilning ekspressivligi vositalaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. Tarbiyachining ifodasiz nutqi bolalarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilmaydi biroq ularning nutq madaniyatini ta’sir etadi. Guruhda tarbiyachining nutq na`munasi alohida ahamiyatga ega, chunki bu yerda barcha bolalar bir vaqtning o'zida tarbiyachining aytganlariga e'tibor berishadi. Kundalik muloqotda ham, guruhda ham tarbiyachining nutq na`munasi barcha vazifalarni bajarishda qo'llanilishi kerak: lug'atni kengaytirish, nutqning grammatik va tovushli to'g'riligini tarbiyalash lozim. Shu bilan birga, tarbiyachi bolalarga murojaat qilishni bilishi kerak. Ayniqsa, keng tarqalgan xato-bu so'zlashuvda tushunarsiz so'zlardan foydalanishdir.

Katta guruhning tarbiyalanuvchilari tarbiyachiga murojaat qiladi: "erta bayram bo'ladi". "Ertaga bayram bo'ladi", deb tuzatadi tarbiyachi. Ushbu misolda, tarbiyachining nutq na`munasida bolalar o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatiga ega bo'ladilar, to'g'ri talaffuzni eshitadilar. So'zlarni aniq ishlatish ko'nikmalari va muvofiqlashtirishning to'g'riligi tarbiyalanuvchilar bilan suhbatlarda, tarbiyachining nutqi na`munasida shakllanadi. Bolalarni savodxonlikka o'rgatish na`munani qo'llash orqali biz bolalarda tinglash madaniyatini tarbiyalaymiz, ularning so'zga qiziqishini oshiramiz. Ammo bunda faqat tarbiyachi bolalarga ma’lumotlarni ifodali, majoziy ma'noda yetkazganda, ularning his-tuyg'ulariga tayanganda amalga oshirish mumkin. Ertak va hikoyalar o’qib berish tinglash madaniyatini oshiradi, bolalarni o'zlari biron bir narsani aytishga undaydi. Didaktik o'yinlar, topishmoqlar yordamida tarbiyachi bolalarni so'zlarni to'g'ri ishlatishga va ulardan jumlalar tuzishga o'rgatadi. Masalan, "Hayvonot bog’ida" o'yinida bolalar so'zlarni holatlarga qarab o'zgartirishni mashq qilishadi. Ushbu o'yinlarni o'tkazishda tarbiyachi bolalar taqlid qiladigan og'zaki na`munani beradi. Tarbiyachining na`munasiga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, tarbiyachining bolalar nutqiga bo'lgan talablariga e’tibor bwrishimiz mumkin.

1. Tarbiyachi nafaqat bolalarga nutq na`munasini berishi, balki bolalar uni qanday egallaganligini tekshirishi kerak (buning uchun mashqlar, takrorlashlar qo'llaniladi).

2. Bolalarda to'g'ri gapirish qobiliyatiga qiziqishni rivojlantirish kerak (rag'batlantirish, yaxshi gapiradigan bolalarning na`munasi).

3. Bolalarning nutqini muntazam ravishda kuzatib borish, bolalar aytganidek tinglash, xatolarni o'z vaqtida tuzatish kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, oilalarda bolalarning nutqiga jiddiy e'tibor berilishi kerak. Tarbiyachi nutq o’stirish, badiiy adabiyot, savodxonlikka tayyorlash faoliyatlarida tarbiyachining savollariga ma'lum talablar qo'yib, bolalarning javoblariga ham talablar qo'yilishi kerak, shunda bolalar to'g'ri gapirishni o'rganadilar, fikrlarini ifoda etish uchun aniq so'zlardan foydalanadilar, jumlalarni to'g'ri tuzishga erishadilar va mazmunli javoblarni tuzadilar.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash kerakki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda ijtimoiy ahamiyatga ega talab bo'lib qolmoqda, chunki o’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, maktab ta’limiga sifatli tayyorlash muhim vazifamiz sanaladi. Tarbiyachilar, maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqa pedagoglari va ota-onalar bilan to‘laqonli muloqotni amalga oshirish uchun jamiyatga yuqori professional saviyaga ega, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda qulay muhit yaratishga qodir, nutq madaniyati yuqori bo‘lgan tarbiyachi kerak. Bunday sharoitda bo'lajak maktabgacha ta'lim

tarbiyachilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosi va uning tarkibiy qismi sifatida nutq madaniyatiga yuqori saviyada ega bo'lish alohida dolzarblik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 2019 yil 17 dekabrda qabul qilingan 595-sonli O'RQ.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi 802-son Qarori.
4. "Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish" Mahkamova M.R. Toshkent, 2002.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. T., 2017.
6. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma TDPU 2018 yil.
7. "Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish" Berdaliyeva G.A. Toshkent, 2019.
8. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Darslik TDPU 2020 yil.

www.tdpu.uz
www.pedagog. uz
www.Ziyonet.uz
www.edu.uz

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna,
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodiklarga o`rgatish milliy markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim meodikalari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni shakllantirish masalalari va pedagogik ijodkorlikni shakllantirishda akmeologik yondashuvning muhim ahamiyat kasb etishi haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, pedagogik ijodkorlik, akmeologik yondashuv, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены вопросы формирования педагогического творчества у будущих учителей и значение кмеологического подхода в формировании педагогического творчества.*

Ключевые слова: *креативность, педагогическое творчество, акмеологический подход, инновация.*

Abstract. *This article describes the issues of formation of pedagogical creativity in future teachers and the importance of the acmeological approach in the formation of pedagogical creativity.*

Key words: *creativity, pedagogical creativity, acmeological approach, innovation.*

O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi – mamlakatimizda ilmiy salohiyatni oshirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish

imkoniyatlarini yaratish shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini chuqur va tanqidiy o‘rgangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqishdan iborat. Bu borada hukumatimiz tomonidan ko‘plab, farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabr “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-630-sonli Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlaridir. Ushbu qabul qilingan Qaror va Farmonlarning barchani mohiyatida yurtimizning kelajagini yanada yuksaltirish hamda mamlakatimizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo`shish uchun asosiy kuch ilm-fanda ekanligini yana bir isbotidir. Bu qaror va farmonlarda Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirish, iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlarini ishlab chiqish to‘g‘risida belgilab qo‘yilgan [1.11]. Oliy ta’lim muassasalari hududiy miqyosdagi mavjud muammolarga innovatsion yechim topishi, hududda ilm-fan rivojlanishida lokomotiv vazifasini bajarishi muham ahamiyat kasb etadi. Ilm-fanni rivojlantirish, tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, iqtidorli talabalar ilmiy izlanishlar olib borishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar kerak.

Mamlakatimizning pedagog olimlaridan B.X.Rahimov talaba-yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirishning ijtimoiy pedagogik asoslarini yoritib berdi. Olib borilgan tadqiqot natijasida talaba – yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlariga oid faoliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi nazariy-amaliy jihatdan asoslandi, talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, mazmuni, shakli, usul va metodlari belgilab berildi, talaba-yoshlarning ilmiy faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. [3, 9]

Yurtdoshimiz, yosh olima M.R.Qodirova o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonlari samaradorligini baholash mezonlarini shakllantirishda: intellektual qobiliyatli, intellektual tashabbus, intellektual ijod va intellektual o'z-o'zini boshqarishni hisobga olgan.U o`z tadqiqoti doirasida talabalarning ijodiy rivojlanishining keng tarqalgan ko'rinishlari tavsiflangan. [4.15]

Olima G.N.Ibragimova interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z tadqiqotlarida yoritib berganlar. [5.14]

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda ta’limda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, bo‘lajak pedagoglarning axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga doir kompetentligini rivojlantirish, pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta’minotini yaratish, maxsus ta’lim sharoitida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi hech kimga sir emas.

Ijodkorlik deganda mavjud tajribani yangicha tashkil qilish va bilimlar, malakalar, mahsulotlarning yangi kombinatsiyalarini yaratish asosida mohiyatan yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratish bilan bog‘liq faoliyat jarayoni yoki yangilik yaratish qobiliyati tushuniladi. Ijodkorlikning turli darajalari mavjud: bir darajasida mavjud bilimlardan foydalaniladi va ularning qo‘llanish sohalari kengaytiriladi; boshqa, yuqoriroq darajasida esa biron bir ob’ekt yoki bilim sohasiga nisbatan odatlanib qolingan nuqtayi nazarni o‘zgartirib yuboradigan mutlaqo yangicha yondashuv yaratiladi. Ijodkorlik ilmiy-pedagogik adabiyotlarda insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangilik yaratishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayon tarzida talqin etilgan.

Pedagogik ijodkorlik o‘qituvchi tomonidan muttasil o‘zgarib turadigan ta’lim-tarbiya jarayonida, talabalar bilan muloqotda optimal va nostandart pedagogik qarorlarni ishlab chiqish va joriy etish demakdir. Pedagogik ijodkorlikning asosiy vazifasi esa talabalarga axborot berishning yangi maqbul tizimlarini ishlab chiqish va qo‘llash, ularni pedagogik mahorat cho‘qqilariga erishishda pedagogika ilmi va amaliyoti to‘plagan bilimlarga daxldor qilish, ularda yangi bilimlarni mustaqil izlab topish malakasini rivojlantirishdan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish shaxsning ijodiy faoliyatida o‘z aksini topgan ijodiy salohiyati, ijodiy tafakkuri, ijodiy faolligi, ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Ijodiy qobiliyat yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g‘oya, farazni ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlardan foydalanish, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilish yo‘llarini izlash hamda yechimini topish va pirovard natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san’at asari va boshqalar) sifatlari majmuini ifoda etsa, ijodiy faoliyat – bu sub’ekt faoliyatining o‘z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammo yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va masalani ijodiy hal etish (avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi holatga mustaqil ko‘chirish, muammoli, ma’lum ob’ektning yangi funktsiyasini ko‘ra bilish) jarayonidir. Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik ijodkorligi ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida rivojlanadi.

Ob’ektiv omillarga pedagoglar va talabalar jamoasidagi va umuman, mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlar, fan va texnika taraqqiyoti, talabalarni tayyorlash shart- sharoitlari va vositalarining takomillashuvi, o‘qituvchilar pedagogik mahoratining ortishi mansub bo‘lsa, sub’ektiv omillarga jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarga o‘qituvchining munosabati, uning axloqiy sifatlari, ma’naviy qadriyatlari, kasbiga bo‘lgan mayli, pedagogik faoliyatda o‘zini o‘zi namoyon qilishga bo‘lgan intilishi, uning shaxsiy fe’l-atvori kiradi. Akmeologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning ilmiy asosi sifatida pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarining o‘zlarini ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol sub’ektlari tarzida namoyon qilishlarini ko‘zda tutadi hamda ularning sub’ekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi takomillashtirishi uchun sharoit yaratadi.

Pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi turli-tuman qobiliyatlarning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Shaxsning o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi namoyon qilishini taqozo etadigan akmeologik qobiliyatlar o‘qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ularning aynan jadal rivojlanishi psixologik kompetentlikning rivojlanishi natijasida sodir bo‘ladi. Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish tizimining markaziy bo‘g‘ini sifatida samarali ijodiy faoliyatga qobiliyatlilikni aks ettiruvchi kreativ tarkibiy qism aks etadi. Aynan kreativlikni rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning bosh maqsadlaridan biridir. Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish tizimining markaziy bo‘g‘ini sifatida samarali ijodiy faoliyatga qobiliyatlilikni aks ettiruvchi kreativ tarkibiy qism aks etadi. Aynan kreativlikni rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning bosh maqsadlaridan biridir. Pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog‘liqdir.

Akmeologik qobiliyatlar insonning hayoti-faoliyati jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ularning aynan jadal rivojlanishi avtopsixologik kompetentlikning rivojlanishi natijasida sodir bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalari va ulardagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizattsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabr. PF-5847-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6097-sonli Farmoni.

3. B.X.Rahimov. Talaba-yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari: p.f.d. diss. avtoref. ... – Toshkent, 2009.

4. M.R.Qodirova. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalari talabalariga chet tilini o'rgatishda ijodiy faollikni modernizatsiyalash: p.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. ... – Toshkent, 2018.

5. G.N.Ibragimova. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: p.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. ... – Toshkent, 2017.

MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O‘QITISHDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODKORLIGINI OSHIRISH

Seytimbetov Samat Maratovich,
CHDPU “San’atshunoslik” fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada AQShning* Autodesk *firmasi tomonidan ishlab chiqilgan* AutoCAD *grafikaviy dasturi imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.* Autodesk *firmasining juda ko‘plab dastur mahsulotlari mavjud bo‘lib (AutoCAD, ArchiCAD, AutoCAD Electrical, 3DMax, Design Review...), butun dunyoda keng ommalashib ketganligi, eng so‘ngi texnologiyalarni o‘zida mujassamlashtirishi, firmaning dastur mahsulotlari ichida AutoCAD dasturi muhim o‘rin tutishi, u asosiysi bo‘lib, qolgan dasturlar uning asosida yaratilganligi, grafik imkoniyatlari juda yuqori va ayni paytda ham sodda, ham murakkab topshiriqlarni bajara olishi tushuntirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *AutoCAD grafik dasturi, muhandislik kompyuter grafikasi, karkasli modellash, sirtli modellash, qattiq jismli modellash, 3D modellash, axborot kommunikatsiya texnologiyalari.*

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности графической программы AutoCAD, разработанной американской компанией Autodesk. Среди программных продуктов компании AutoCAD It имеется множество программных продуктов компании Autodesk (AutoCAD, ArchiCAD, AutoCAD Electrical, 3DMax, Design Review...), которые широко популярны во всем мире, воплощают в себе новейшие технологии. поясняется, что у программы важное место, она основная, и на ней основаны остальные программы, графические возможности очень высоки и одновременно она может выполнять как простые, так и сложные задачи.*

Ключевые слова: *графическая программа AutoCAD, инженерная компьютерная графика, каркасное моделирование, моделирование поверхностей, твердотельное моделирование, 3D-моделирование, информационно-коммуникационные технологии.*

Annotation. *The article examines the capabilities of the AutoCAD graphics program developed by the US company Autodesk. There are many software products of the Autodesk company (AutoCAD, ArchiCAD, AutoCAD Electrical, 3DMax, Design Review...), which are widely popular all over the world, embody the latest technologies, among the software products of the company, AutoCAD It is explained that the program has an important place, it is the main one, and the rest of the programs are based on it, the graphic capabilities are very high and at the same time it can perform both simple and complex tasks.*

Key words: *AutoCAD graphics program, engineering computer graphics, frame modeling, surface modeling, solid body modeling, 3D modeling, information communication technologies.*

“Muhandislik kompyuter grafikasi” fani birinchi navbatda informatika fani bilan bog‘liqdir. Kompyuterda oddiy operatsiyalar majmuasini bilmasdan turib kompyuter grafikasini o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Demak ta’lim tizimida avval informatika fani talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim ekan. Keyingi talab o‘rganiladigan grafik dasturni talabidan kelib chiqadi. *AutoCAD* grafik dasturi chizma yaratish bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ham chizmachilik, geometriya, chizmachilik fanining nazariyasi hisoblanmish chizma geometriya kabi aniq fanlarni bilishni talab etadi. Oddiy geometrik yasashlar (aylanani teng bo‘lakarga bo‘lish, aylana yoyi, urinma, vatar, burchak bissektrisalarni o‘tkazish, perpendikulyarlik va parallellik xossalari...)ni bilish talab etiladi. Aks holda o‘zimiz buyruqlar majmuasini noto‘g‘ri berib dasturdan biron bir amalni bajarishini talab etishimiz o‘rinsiz. Qisqa qilib aytganda *AutoCAD* grafik dasturini o‘rganishda dastlab informatika so‘ng chimachilik va chizma geometriya fanlari o‘zlashtirilgan bo‘lishi lozim.

AutoCAD tarixi-chizmani komputerda tahrirlash dasturi AQShning *Autodesk* firmasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, dastlabki versialari o‘tgan asrning 80 yillarida chiqarilgan va keng ommalashib ketgan.

Axborot texnologiyasi tez rivojlanayotgan va keng tarqalayotgan bir paytda dars jarayoniga yangicha yondashgan holda qaramog‘imiz lozim. Ya’niki o‘tilayotgan darslarimizga yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash:

- yangi pedagogik metod va usullarni rivojlantirishga;
- o‘qituvchilar o‘zlarini oldida turgan masalalarni hal etish stilini o‘zgartirishga;
- pedagogik tizim tuzilishini o‘zgartirishga olib keladi.

Bu esa o‘z navbatida pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha o‘ziga xos masalalarni keltirib chiqaradi.

Ta’lim jarayoniga yangi axborot va telekommunikatsion texnologiyalar asosida yangi pedagogik texnologiya faoliyatini kiritilishi hozirda qo‘llanilayotgan an’anaviy ta’lim tizimini tubdan o‘zgartiradi. Bularni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

a) texnologik asoslari tezlikda rivojlanayotganligi tufayli kurslar(darslik, qo‘llanmalar)ni ishlab chiqish faoliyati qiyinlashadi. Bu o‘qituvchi, metodist va olimardan pedagogik ishlash usullari bo‘yicha yangi maxsus malakalarni talab etadi. Bundan tashqari zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quv materiallarni ishlab chiqish sifati uchun qo‘shimcha talablar qo‘yadi.

b) An’anaviy o‘qitish tizimining markaziy shakli o‘qituvchidir. Yangi axborot texnologiyasini qo‘llash sekin-astalik bilan asosiy og‘irlikni o‘quv jarayonida faol qatnashuvga tushura boshlaydi. O‘qituvchining asosiy pedagogik faoliyati – talaba faoliyatini muvaffaqiyatli ushlab turishga qaratiladi, ya’ni o‘qituvchi talabaning o‘quv axborotlarini oson o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi bo‘ladi.

c) Yangicha o‘qitish auditoriyadagi talabalarga yakka tartibda faol va jadal ta’sir etishni ta’milaydi. An’anaviy o‘qitishda esa o‘qituvchi va talaba orasidagi teskari aloqa umumlashgan holda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, ta’limga axborot texnologiyalari orqali yangi pedagogik texnologiyalarni kiritilishi, o‘quvchi va talaba faoliyati, ularning darsdagi o‘rni va vazifalarini keskin o‘zgarishiga olib keladi. Shu bilan birga darsning samaradorligi ortadi, o‘quvchilar bilimlarini o‘zlarining kuchi, qobiliyati va tempiga asosan qabul qilishi va ularni mustaqil ravishda o‘zlashtirishiga olib keladi.

Muhandislik kompyuter grafikasi darslarida kompyuterdan foydalanish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- talabalar kompyuterda ishlash malakalarini egallagan bo‘lishlari zarur;
- kompyuterda chizma bajarishdan avval ular kamida proyeksion savodxonlik asoslarini egallagan bo‘lishlari talab qilinadi;
- chizmachilik darslari kompyuter grafikasi darslariga (bu alohida fanlarni bir-biri bilan ch alkashtirmaslik zarur) aylantirmasligi shart.

Talabalarning grafik dasturlar bazasida chizma bajarishlariga tegishli metodik masalalarni ko‘rib chiqamiz.


Hozirgi kunda chizma va uch o‘lchamli modellar tasvirlarini bajarish bo‘yicha juda ko‘plab AutoCad, TopCAD, JCAD, 3D-GRAF, 3D-MAX, KD- Master, kabi grafik tizimlar kishilarning ilmiy va muhandislik faoliyatining turli sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Ulardan ta’lim tizimida ommalashgani Auto CAD hisoblanadi. AutoCAD shuningdek mamlakatimizda va chet ellardagi ko‘pchilik korxona va tashkilotlarda loyiha-chizma ishlarini avtomatlash-tirishning standartlashtirilgan tizimi sifatida shakllangan.

Metodik nuqtai nazardan chizmalarni kompyuterda bajarish mumkin bo‘lgan chizmachilik va grafik tizimlarni birgalikda o‘rganish masalasi hal qilinmagan muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgacha pedagogika fanida chizmachilikni qaysi mavzularini o‘zlashtirgandan keyin elektron chizmalarni bajarishni boshlash mumkinligi, o‘quvchilarni kompyuter ular uchun chizma bajarishi mumkin bo‘lgan hollarda mustaqil chizma bajarishlarini qanday qilib ta’minlash mumkinligi kabi ko‘plab savollarning javoblari asoslanmagan. Shu yerda umumt’lim maktablarining chizmachilik kursida o‘rganiladigan kompyuter grafikasi bo‘limiga to‘xtalib o‘tsak. Amaldagi dastur va darsliklarda bu bo‘limga 2 (ikki) soat vaqt ajratilgan bo‘lib, bu vaqt ichida o‘quvchilar grafik redaktor yordamida oddiy geometrik shakllarning proyeksiyalarini tuzish hamda bajarilgan jismning fazoviy holatini va uning shaklini o‘zgartirishni o‘rganishlari kerak. Yana yuqorida bildirilgan mulohazalarni e’tiborga oladigan bo‘lsak ajratilgan ikki soat ichida o‘quvchilar kompyuter grafikasining alifbosini ham o‘rganishga ulgurolmaydilar. Shuning uchun chizmachilik darslari jarayonida kompyuterlar va grafik dasturlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish metodikasining taklif qilinishi to‘g‘riroq bo‘lar edi.

Kompyuter chizmachilikning quyidagiga o‘xshash bo‘limlari:

- Detal shaklini tahlil qilish;
- Detal chizmalariga o‘lcham qo‘yish;
- O‘quvchilarga detalning hajmli shaklini namoyish qilish kabilarda foydali bo‘lishi mumkin.

1. Detal shaklini tahlil qilishda kompyuter foydali bo‘libgina qolmay, zarur ham hisoblanadi. Bunda monitor ekranida o‘quvchilar detalni alohida geometrik jismlarga ajratish mumkin bo‘ladi, agar bunda qiyinchiliklar paydo bo‘ladigon bo‘lsa, o‘qituvchi yoki dasturning o‘zi detalni geometrik shakllarga ajratilgan holatdagi grafik tasvirini namoyish qiladi. Yuqorida aytilayotgan fikrlardan kelib chiqqan holda detal shaklini tahlil qilish kasb-hunar maktablarida proyeksion chizmachilik, mashinasozlik chizmachiligi fanlarida aynan shu imkoniyatlari mavjudligi biz pedagoglar uchun qulay. Proyeksion chizmachilik fanida “Detallarni tahlil qilish”, “Aksonometrik proyeksiyalarni qurish”, “Tekis kesim”, “Sirtlarning kesishishi”, Mashinasozlik chizmachiligi fanida “Yig‘ish chizmalarini o‘qish”, “Yig‘ish chizmalarini detallarga ajratish”, “Ajratilgan detallarni qayta yig‘ish”, “Yig‘ma birlikning aksonometriyasini qurish” mavzularida dasturning 3D interfeysida foydalanish, darslarni samarali tashkil etish hamda maqsadga erishishimiz uchun zamin yaratadi. (1-rasm).




1-rasm.

1. O‘lchamlarni to‘g‘ri qo‘yish uchun shaklni tahlil qilish – bajariladigan ishlarning asosiylaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu holda ham kompyuterdan oldingiga o‘xshash tarzda foydalaniladi.

2. Shuningdek, chizma bo‘yicha detalning shaklini tasavvur qilishga qiynaladigan o‘quvchilarga ushbu mavzuni o‘rganishlarida kompyuterdan foydalanish katta yordam beradi.

Masalan, “berilgan ikkita ko‘rinish bo‘yicha uchinchisini bajarish” mavzusidan grafik ish bajarishda o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘ilgan hollarda kompyuterda detalning yaqqol tasvirini namoyish qilish orqali ularga topshiriqni mustaqil bajarishlariga yordam berib yuborish mumkin. Odatda o‘qituvchilar bunday o‘quvchilarga detal modelini plastilin yoki boshqa materialdan bajarib ko‘rishni tavsiya qilib kelishar edi. Maktab chizmachilik kursi bo‘yicha tayyorlangan SD-disk bo‘ladigan bo‘lsa, bunga zaruriyat qolmaydi. O‘quvchilar kompakt-diskdagi detalning hajmli tasvirini har xil tomondan aylantirib qarab o‘rganishlari mumkin. Bunda faqat o‘quvchilar uchinchi ko‘rinishni kompyuter yordamisiz, mustaqil ravishda chizishlari zarur bo‘ladi. (2-rasm).



2-rasm.

AutoCAD-tizimlarida uch o‘lchamli obyektlarni yaratish uchun modellashning asosan uch: karkasli, sirtli va qattiq jismli modellash usullaridan foydalaniladi; ularning har biri real obyektlarni reallikning har xil darajasida yaratish imkonini beradi:

- *Karkasli modellash.* Ushbu modelda obyektning faqat qoburg‘alari taqdim etiladi, uning qirralari aniqlanmaydi, shuning uchun model shaffof bo‘ladi. Karkasli modelda hajm tushunchasi bo‘lmaydi.
- *Sirtli modellash.* Bu modelda obyektning qoburg‘a va qirralari aniqlanadi, u karkasli modelga nisbatan aniqroq bayonni ta'minlaydi.
- Model shaffof emas, oldindagi qirralar ortdagi qirralarni berkitib turadi. Sirtli model hajmga ega, lekin massani hisobga olmaydi, chunki model devorlari qalinligi hisobga olinmaydi.
- *Qattiq jismli modellash.* Bu model obyektni haqiqatga yaqin bayon qilish imkonini beradi. U obyektning tashqi qirralari va qoburg‘alari haqida batafsil informatsiyani beradi hamda uning ichki strukturasini bayon qiladi. Qattiq jismli model hajm va massaga ega va material xarakteristikasini hisobga oladi.

Uch o‘lchamli modellash quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- modelni fazoning istalgan nuqtasidan ko‘rib chiqish;
- model kesimini bajarish;
- modelning ikki o‘lchamli chizmalarini avtomatik tarzda bajarish;
- modelning real aksini olish;
- material xarakteristikalari va tashqi yoritishni qo‘shish.

AutoCADda uch o‘lchamli fazoda ishlash uchun komandalar mavjud, ular yordamida uch o‘lchamli obyektlarni modellash, materialni bayon qilish va yoritishni o‘rnatish mumkin. AutoCAD 2021 da uch o‘lchamli modellash uchun qulay maxsus interfeysi mavjud.

Muhandislik kompyuter grafikasiga oid bilimlarni muvaffaqiyat bilan egallashning asosiy shartlaridan biri o‘qituvchilarning darslarini sifatli bo‘lishi, zamon talabida dars o‘tishi, yangi-yangi ta‘lim texnologiya va vositalarini tadbiq etishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi zamondan ortda qolmasligi va yangidan kashf etilayotgan yutuqlar texnologiyalarni bilishi lozim va ularni o‘z darslarida qo‘llay olishi kerak.

Muhandislik kompyuter grafikasi darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, geometrik o‘lchash va yasashning amaliy usullarini o‘rganish imkoniyatlarini beradi. Asosiysi, axborot texnologiyalari – chizma, diagramma, jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlarni o‘qish qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqil o‘qish va o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

Maqolamning asosiy maqsadi yuqorida aytganimdek kompyuter texnologiyalaridan, xususan AutoCAD dasturidan dars jarayonida unumli, o‘rinli foydalanib dars samaradorligini sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo‘lishdan iborat edi va bunga qisman bo‘lsada erisha oldim deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rixsiboyev T. Kompyuter grafikasi. Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. Toshkent – 2006 y.
2. Xolliyev Q.J. AutoCAD. “Muharrir nashriyoti”. Toshkent 2009 y.
3. Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturi yordamida chizmalarni bjarish (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). Toshkent-2009.
4. Сейтимбетов, С. (2023). Факторы и средства, влияющие на развитие творческих способностей студентов (на примере инженерной компьютерной графики). *Проблемы инженерной графики и профессионального образования*, *69*(2), 33 – 39.
5. Maratovich, S.S. (2022). Talabalarda konstruktorlik qobiliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o ‘rni. Conferencea, 50 – 53.

BO'LAJAK LOGOPED O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMALARI

Roziqova Malika,
Namangan davlat pedagogika instituti stajor o’qituvchisi
Abdullayeva Moxida,
Maxsus pedagogika yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Anotatsiya. *Ushbu maqolada bo’lajak o’qituvchi logopedlarning kosby kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik mexanizmlari, hamda logoped o`qituvchi ega bo’lishi lozim bo’lgan kasbiy fazilatlar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan.*
Kalit so’zlar: *logoped, o’qituvchi, nutq, kasbiy kompetensiya.*

Logoped – bu bolalardagi nutq buzilishlarini bartaraf etish va tuzatish bilan shug'ullanadigan mutaxassis. Uning yordami bilan siz tovushlarni to'g'ri "joylashtirishingiz", duduqlanishni va nutq janridagi boshqa kamchiliklarni bartaraf etishingiz mumkin. Bundan tashqari, nutq terapevtiga borish bolaning rivojlanishi nuqtai nazaridan juda ko'p qo'shimcha imkoniyatlarni ochadi: nutq apparatini jismoniy shakllantirish, vizual va eshitish e'tiborini jamlash, chaqaloqning yoshi va uning intellektual rivojlanishiga muvofiqligini tekshirish. Diagnostika va mashg'ulotlar o'yinlar shaklida amalga oshiriladi, bu, shubhasiz, bolaga yoqadi.

Logoped nutq buzilishining nevrologik asoslarini bilishi, bolalar psixopatologiyasi masalalarini tushunishi kerak. Unda oligofreniya va ruhiy rivojlanishning tormozlanishi, harakat va his-hayajonli buzilishlarda namoyon bo’ladigan, bolalardagi ruhiy buzilishlarning eng ko‘p uchraydigan shakllari haqida ham tasavvur bo’lishi lozim. Bu bilimlar unga nutq buzilishining sabablarini to‘g‘ri aniqlashda, tuzatishning samarali metodlarini tanlashda, bolani o'qitish va tarbiyalash hamda uning nuqsonli rivojlanishini oidini olishda yordam beradi. [1. 9 b.]

Logoped bilan mashg'ulotlar bolaga o'z fikrlarini to'g'ri va tez shakllantirishga yordam beradi. Bu atrofdagi voqelikni tushunish va tengdoshlar bilan muloqot qilish uchun ko'proq imkoniyatlar beradi. Agar bolada quyidagi belgilar mavjud bo'lsa, nutq terapevtiga ya’ni logopedga murojaat qilish tavsiya etiladi:

- fonemik – tovush yoki tovushlar guruhining talaffuzidagi buzilishlar;
- nutqning umumiy rivojlanmaganligi – tovush talaffuzining buzilishi, so'z boyligining etishmasligi;

• fonetik-fonemik – tovush talaffuzining buzilishi va ba'zi tovushlarni boshqalar bilan almashtirish;

• duduqlanish – bo'g'in va harflarning beixtiyor takrorlanishi, nutq paytida majburiy to'xtash.

Tadqiqotchi R.Byorns o‘qituvchi-logopedning shaxsiy fazilatlarini ta’kidlaydi:

• maksimal moslashuvchanlik istagi;

• ta'lim jarayoniga shaxsiy tus berish qobiliyati;

• bolalar bilan norasmiy muloqot uslubini o'zlashtirish, o'quvchilar bilan iliq, hissiy munosabatlar, ularga hamdardlik ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini hisobga olish qobiliyati. Bolalar bog'chasida befarq, istehzoli odamlar kontrendikedir. Ular kognitiv faoliyatga putur etkazadi, bolalarning ijodiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini cheklaydi va o'quvchilarning o'zini o'zi qadrlashiga salbiy ta'sir qiladi.

Biz professionallikning psixologik mezonlarini ham ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

• ob'ektiv mezonlar. O'qituvchi-logoped kasbiy talablarga javob berishi kerak *(yuqori mehnat unumdorligi, kasbda ma'lum maqomga erishish, o'qitish va ta'limning turli muammolarini hal qilish qobiliyati)*;

• sub'ektiv mezonlar. Kasb insonning talablariga, uning moyilligiga qanchalik mos keladi *(o'ziga professional sifatida ijobiy munosabat, kasbiy fazilatlarning mavjudligi)*;

• samarali mezonlar o'qituvchi-logoped o'z ishida jamiyat tomonidan istalgan natijalarga qanchalik erishganligini aniqlaydi *(tuzatish ishlarining ijobiy natijalari)*;

• protsessual mezon bolalarda nutq rivojlanishining buzilishining oldini olish, diagnostika qilish va tuzatishni tashkil etishda o'qituvchining innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini qanchalik samarali joriy etishini baholaydi;

• me’yoriy – kasb-hunarga oid me’yorlar, qoidalar va me’yorlarni o‘zlashtirishni belgilaydi, ular uslubiy vositalarni, ta’lim va tarbiya shakllarini, muloqot normalarini o‘zlashtirishda ifodalanadi;

• individual – o‘zgaruvchan mezonlar o‘z individualligining ta’lim jarayoniga qanchalik kiritilganligini baholaydi;

• prognostik mezonlar o'qituvchi-logopedning o'sish istiqbollarini belgilaydi;

• boshqa o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribasini qabul qilish, uni bolalar bilan ishlashning o'ziga xos tizimi – defektologlar bilan birlashtirishdan iborat bo'lgan kasbiy ta'lim mezonlari;

• jamiyatdagi kasbning ijtimoiy faolligi va raqobatbardoshligi mezonlari o'z tajribasiga qiziqishni jalb qilish, o'z mehnati natijalarining ahamiyatiga ishonch hosil qilish va kasbning o'zida ichki zaxiralarni topish qobiliyati bilan belgilanadi;

• kasbiy sadoqat mezonlari – kasbda sha'ni va qadr-qimmatini saqlash;

• sifat va miqdoriy mezonlar – professional testlarda ishtirok etish.

Shunday qilib, kasbiy rivojlanishning asosi kasbiy kompetentsiyani professionalning integral mulki sifatida shakllantirishning dinamik jarayoni: bilimlar, hissiy, qiymat va shaxsiy fazilatlar to'plami bo'lib, ular ishda samarali bo'lishga, samarali natijalarga erishishga va o'zini o'zi boshqarishga imkon beradi. kasb vositalari orqali rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik / M.Y.Ayupova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 560 b.

2. Валявко С.М. Особенности мотивации старших дошкольников с общим недоразвитием речи. М., 2006, С.189.

3. Иванова Н.В. Особенности самооценки младших школьников с общим недоразвитием речи и ее формирование на логопедических занятиях / Логопед, №3, 2007, 97 с.

4. https://zabdoctor.ru/

SKAFOLDING MODELI ASOSIDA MAKTAB O`QUVCHILARINING YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Kenjayev Azizbek Rustamjon o`g`li,
NamDU doktoranti
e-mail: a.kenjaev543@inbox.ru tel:+998911848684

Annotation. *The integration of scaffolding technology into writing competence is examined in this article, along with its benefits, drawbacks, and potential future possibilities for its developing.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Skafolding modeli texnologiyasining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishdagi integratsiyasi, uning afzalliklari, qiyinchiliklari va yozuv mahoratini oshirishning kelajakdagi yo'nalishlarini muhokama qilinadi.*

Аннотация. *В этой статье обсуждается интеграция технологии модели Scaffolding в развитие письменной компетенции, ее преимущества, проблемы и будущие направления улучшения навыков письма.*

Yozuv mahorati maktab o`quvchilari uchun juda muhimdir, chunki ular o'quvchilarga o'z g'oyalari va fikrlarini aniq yetkazish imkonini beradi. Yozuv jarayonida yo'naltirilgan yordam va yo'nalishni taklif qilish orqali Skafolding modeli ushbu qobiliyatni rivojlantirish uchun bebaho asos yaratadi. Skafolding texnologiyasi so'nggi yillarda yozuvni o'qitishni takomillashtirish uchun juda foydali vositaga aylandi. Ushbu maqola Skafolding yondashuvi doirasida talabalarning yozuv ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash uchun texnologiyadan qanday foydalanishni o'rgatadi. O'quvchilar raqamli vositalar va taktikalarni qo'llash orqali ularning yozuv qobiliyatini samarali ravishda rivojlantirishi va bu bilan ularning samaradorligini oshirishda qo`l keladi.

Bir nechta olimlar yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalanishni o'rganib chiqdilar, uning samaradorligi va potentsial ta'siriga oydinlik kiritdilar. Jonson (2021) raqamli yozuv vositalarining Skafolding bilan integratsiyalashuvini o'rganib chiqdi va ularning talabalarning faolligi va yozuv qobiliyatlariga ijobiy ta'sirini ta'kidladi. Smit va boshqalar (2022) tengdoshlarning o'zaro ta'siri va fikr-mulohazalarini osonlashtirish uchun hamkorlikda yozuv platformalaridan foydalanishni o'rganib chiqdi va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda ijtimoiy yordamning muhimligini ta'kidladi. Bundan tashqari, Chjan va Chen (2023) o'z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etish va yozuv jarayonida o'z-o'zini tartibga solishni rag'batlantirishda avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining rolini o'rganib chiqdi. Ushbu tadqiqotlar birgalikda Skafolding texnologiyasini yozuv ko'nikmalariga integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlovchi o'sib borayotgan tadqiqot majmuasini namoyish etadi.

Birinchidan, ushbu texnologiya ta'lim sohasida inqilob qildi va uning yozuvga integratsiyalashuvi, yozuv malakalarini oshirish uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Birinchidan, texnologiya talabalarga tayanch sifatida tayyor ma'lumotlar bazalari va tadqiqot vositalari kabi keng ko'lamli ma`lum qolipga solingan resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi va bu ularga tegishli va ishonchli ma'lumotlarni samarali to'plash imkonini beradi. Saralangan va foydalanish uchun tayyor manbalar ularning yozuv mahorati samarasini va sifatini oshiradi.

Ikkinchidan, ushbu texnologiya o`quvchilarning yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda turli xil jalb qiluvchi interaktiv platformalar va ilovalarni taklif etadi. Ayniqsa, hozirgi rivojlangan davrda internet manbalar va xilma xil ilovalar bilan hamkorlikda yozuv mahoratini oshirish, shulardan kelib chiqib o`z fikr-mulohazalarini bildirish va qayta ko'rib chiqish imkoniyatlarini beradi, faol o'rganishni osonlashtiradi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, ushbu vositalar ko'pincha o'quvchilarning ijodkorligi va ayniqsa, yozuv qobiliyatini oshirishi mumkin bo'lgan tasvirlar, videolar va audio kabi multimedia elementlarini o'z ichiga oladi.

Yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Skafolding modelidan foydalanish bir qator afzalliklarni beradi. Birinchidan, ushbu texnologiya o'quvchilarga vaqtni tejagan holatda ishlash va individual fikr-mulohazalarni olish imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etadi. Moslashuvchan ta'lim platformalari o'quvchilarning yozuv uslublarini tahlil qilishi va ularni takomillashtirishning aniq sohalariga qaratilgan maqsadli yordam ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, ushbu model talabalarning o'sishi va rivojlanishi uchun juda muhim bo'lgan tartibli tizimda ishlash va asosiy mavzudan chetga chiqmaslik imkonini beradi. Skafolding texnologiyasi yordamida o`quvchilarning yozuv mahorati yuzasidan egallanayotgan bilimlaridagi chalkashliklar muayyan bir tizimga tushuriladi, hamda grammatika, imlo va jumla tuzilishi bo'yicha tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish reaksiyasini oshiribgina qolmayularga usha vaqtni o`zidayoq tuzatishlar kiritish va xatolaridan o'rganish imkonini beradi.

Bundan tashqari, texnologiya talabalarning faolligini va motivatsiyasini kuchaytiradi. Interfaol va o'yinli Yozuv platformalari Yozuv jarayonini yanada qiziqarli va immersiv qilish, talabalarni faol ishtirok etishga va o'z bilimlarini egallashga undaydi.

Yozuv malakalarini shakllantirishni samarali qo'llab-quvvatlaydigan raqamli Yozuv vositalarining keng assortimenti mavjud. Ushbu vositalar Yozuv jarayonining turli bosqichlarini, ya'ni oldindan Yozuvdan tortib, qayta ko'rib chiqish va tahrir qilishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi misollar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Aqlni xaritalash dasturi: MindMeister va XMind kabi vositalar o‘quvchilarga g‘oyalar haqida fikr almashish, o‘z fikrlarini tartibga solish va yozuv tuzilishining vizual tasvirlarini yaratish imkonini beradi.

Birgalikda Yozuv platformalari: Google Docs va Microsoft Word Online kabi platformalar talabalarga real vaqt rejimida hamkorlik qilish imkonini beradi, bu esa tengdoshlarining fikr-mulohazalari va qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi.

Yozuv bo'yicha ko'rsatmalar va generatorlar: Storybird va Writing Prompts kabi veb-saytlar o'quvchilarni Yozuvga ilhomlantirish va yozuvchi blokirovkasini engishga yordam berish uchun ijodiy Yozuv takliflari va hikoya generatorlarini taklif qiladi.

Raqamli Yozuv vositalari butun Yozuv jarayonida qo'llab-quvvatlash, ko'rsatmalar va iskalalarni taqdim etish orqali iskala modeliga mos keladi. Ular o'quvchilarga o'z yozuvlarini tuzishda va qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradigan andozalar, ko'rsatmalar va bosqichma-bosqich ko'rsatmalar kabi xususiyatlarni taklif qiladi. Ushbu vositalar, shuningdek, talabalarga fikr-mulohazalarni qabul qilish, munozaralarda qatnashish va o'z ishlarini birgalikda tahrir qilish imkonini berish orqali iskala modelining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan hamkorlik va tengdoshlarning o'zaro ta'sirini osonlashtiradi. Bundan tashqari, ko'plab raqamli Yozuv vositalari o'z ichiga qayta ko'rib chiqish va tahrirlash uchun xususiyatlarni o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilarga Yozuv qobiliyatlarini yaxshilash va ish sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ushbu vositalardan strategik foydalanish orqali o'qituvchilar Yozuv malakalarini samarali ravishda rivojlantirishlari va o'quvchilarning Yozuv qobiliyatini oshirishlari mumkin.

Yozuv bo'yicha ko'rsatmalar uchun texnologiya tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan iskala modellarini amalga oshirish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bular adekvat texnologik infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyoj, o‘qituvchilar uchun raqamli vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish va barcha talabalar uchun texnologiya resurslaridan adolatli foydalanishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, texnologiyadan foydalanishni an'anaviy Yozuv amaliyotlari bilan muvozanatlash va raqamli qurilmalar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan chalg'ituvchi omillarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Texnologik takomillashtirilgan Yozuv ko'rsatmalarining kelajagi istiqbolli tendentsiyalarga ega. Bunday tendentsiyalardan biri sun'iy intellekt (AI) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarini yanada murakkab avtomatlashtirilgan Yozuv bo'yicha fikr-mulohazalarni ta'minlash uchun integratsiyalashuvidir. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) ilovalari, shuningdek, o'quvchilarga yozma ishlarini yangi usullarda tasavvur qilish va o'zaro aloqada bo'lish imkonini beruvchi chuqur Yozuv tajribasini taklif qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Skafolding modeli bilan yozuv mahoratining integratsiyalashuvi ushbu qobiliyatni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli manbalarga kirish, shaxsiy fikr-mulohazalar va qiziqarli Yozuv vositalari orqali o`quvchilar o'zlarining mahoratlari va ijodkorliklarini oshirishlari mumkin. Biroq, shu bilan bir qatorda yuqorida keltirilgan modelni doimiy ravishda yangi ma`lumotlar bilan boyitish asosida o`quvchilarning mavjud bilimlarini yanada kengaytirish va ularni tizimli ravishda qo`llashga o`rgatish zarur.

Adabiyotlar:

1. **Smith, K., Lee, Y., & Park, J. (2022).** *Hamkorlikdagi Yozuv platformalari: tengdosh-larning o'zaro ta'sirini va Skafolding yozuv qobiliyatlari uchun fikr-mulohazalarni rivojlantirish.* Educational Technology Research and Development, 70(2), 527-545.
2. **Johnson, N., & Johnson, S. (2021).** *Raqamli yozuv vositalarini talabalarning faolligi va yozuv qobiliyatiga ta'siri.* Journal of Educational Technology, 40(2), 223-242.
3. **Zhang, Y., & Chen, W. (2023).** *Yozuv uchun avtomatlashtirilgan ball tizimlari: o'z vaqtida qayta aloqa va o'z-o'zini tartibga solishni targ'ib qilish.* International Journal of Computer-Supported Collaborative Learning, 18(2), 1-22.

BOSHLANGICH SINFDA PAST O’ZLASHTIRUVCHI O’QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Adasheva Xilola,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
Boshlangich ta’lim mutaxassisligi 2-bosqich magstranti

Annatatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan metodik ishlash hamda ta’lim-tarbiya berish jarayoni, darsliklarda berilgan bilimlarni berish jarayonida o‘zlashtirishi past o’zlashtiruvchi o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning o‘z tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta’minlash, bilim, ko‘nikma, malaka va kompitensiyalarini shakllantirish, bilimlarni egallashida yuzaga keladigan muammolarni va ularni yechish qo‘llaniladigan metodikalar, shuningdek bu orqali erishilgan yaxshi natijalar kabi masalalar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, ta’lim, tarbiya, o‘quvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, kompitensiya, interfaol yondashuv, faollikni oshirish.*

Abstract. *In this article, methodical work with elementary school students and the process of teaching and training, increasing the activity of students with low assimilation in the process of imparting the knowledge given in textbooks, and their ability to catch up with their peers. issues such as provision, formation of knowledge, skills, qualifications and competences, problems arising in the acquisition of knowledge and the methods used to solve them, as well as the good results achieved through this are disclosed.*

Key words: *elementary school, education, education, student, knowledge, skill, skill, competence, interactive approach, increasing activity*

Аннотация. *В данной статье рассматривается методическая работа с учащимися начальных классов и процесс обучения и воспитания, повышение активности учащихся с низкой ассимиляцией в процессе привития знаний, данных в учебниках, и их способности догонять своих сверстников. По мере обеспечения, формирования знаний, умений, квалификации и компетенций раскрываются проблемы, возникающие при приобретении знаний и методы их решения, а также достигнутые за счет этого хорошие результаты.*

Ключевые слова: *начальная школа, образование, воспитание, ученик, знания, умение, умение, компетентность, интерактивный подход, повышающая активность.*

Zamonaviy ta’limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta’lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo’llaniladigan an’anaviy kategoriyalar bo’lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma’lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo’yicha o’quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik yo’naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o’qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo’lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mustaqil o’ylay oladigan tafakkur yuritib to’g’ri ma’qqul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak deb ta’kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o’z nutqlaridi.[1]

O’qituvchi har bir bolaga teng huquqli tarbiya bilim berishi lozim shuning uchun boshlangich sinfdan bolalarga bilim begishda bosh o’zlashtiruvchi bolalar bilanshugullanib yakka tartibdi ularni tengdoshlari qatoriga yetib olishi lozim.

Bosh o’zlashtiruvchi bollarni aniqlab. Ular ustida ishlash uchun maqsad qilib olish lozim. Bosh o’zlashtiruvchi bollar kimlar.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi – fanlarni Davlat ta'lim standartlarida belgilab qo'yilgan darajada o'zlashtira olmayotgan, bilim olishga ishtiyoqi pasayib ketgan, o'ziga ishonchi yo'qolgan o'quvchidir.

Q'quvchining bo'sh o'zlashtirishiga quyidagi holatlardan bir yoki bir nechtasi sabab bo'lishl mumkin:

- O'quv materialining betartib ya haddan tashqari ko'p berilishi;
- Q'qituvchining darslarni qiziqarli tashkii etmasligi;
- O'quvchi davomatining pastligi;
- Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchini bo'sh vaqtida aniqlamaslik yani e'tibor qatmaslik;
- Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan muntazam, izchil reja asosida ish olib bormaslik;
- Q'quvchining oilaviy, ijtimoiy muhitidagi salbiy omillar:
- Q'quvchining sog'lig'i bilan bog'liq holatlar;
- Dars qilish, o'zlashtirish, mustaqil ishlash uchun shartsharoitlarning yo'qligi;
- Ota-ona va pedagog o'rtasida aloqaning yo'lga qo'yilmaganligi;
- Bolaning o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat qilmaslik ya boshqalar

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida ta’limga uyg‘un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg‘otish lozim.

Mustaqil ish turlari, avvalo, o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan, ta’lim maqsadiga yo‘naltirilgan va davomiy bo‘lishi kerak. Bunda har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to‘la “eslab qolib” bajarishdir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e’tibor beriladi. O‘quvchilarning topshiriqlarni tez, to‘g‘ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo‘naltiruvchi savollar berib, tayanch so‘zlar tavsiya etish foydalidir.[2]

O’qivchining rivojlanganlik darajasini aniqlab olish.

Tasavvur darajasi:

“Hikoya o’ylab top” usulli

Bu usulda bolaga 1daqiqa davomida biror kishi, narsa yoki hikoya, ertak aytib berishga tayyorlanish va 2 daqiqa aytish topshiriladi.

[1] Mirziyayev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T.: O’zbekiston, 2017.

[2] Bosh o’zlashtiruvchilar bilan shugullanish jurnali.

Natijani baxolash

Bolalarni tasavvuri quidagicha baxolanadi.

1. Hikoya tuzish tezligi.
2. Hikoyani qiziqarliligi/
3. Obrazlarni har hilligi
4. Hissiyot mimika pantomimikaning ishlatilishi.
5. Qism, bo'lak, so'zlarning ishlatilishi.

Yuqorida berilgan beshta shart 0 dan 2 balgacha baxolanadi.hikoya tuzishga ketgan vaqt (0 dan 1 daqiqagacha) 0 – 2 ball bilan baxolanadi.

Rivojlanish darajasi

10 – juda yuqori

8 – 9 – yuqori

4 – 7 – o'rta

2 – 3 – past

0 – 1 – juda past

Bosh o'zlashtiruvchilar bilan diqqatni jamlovchi va ularni qiziqtiruvchi savollar ustida ishlash kerak har bir bajargan mustaqil ishini ragbatlantirish lozim.

Dastlabki bajargan mustaqil ishdan bola mamnun bo‘lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarini hamisha tekrishish lozim. Tekshirish og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin. Bola yozishidan oldin o‘ylaydi, fikrini og'zaki jamlaydi, so‘ng uni yozishga kirishadi. O‘z fikrini bayon qilish, yo‘l qo‘yilgan biror savol yoki masala yuzasidan mushohada yuritishga urinadi. Bu jarayon (og‘zaki) nutq asosida paydo bo‘ladi va mustahkamlanadi. Masalan, o‘quvchi o‘z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o‘ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o‘zicha gapiradi (pedagogikada bu aktiv faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o‘qib, og‘zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o‘ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalaydi.

Xulosa qilib aytsak, boshlang‘ich sinflarda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta'lim-tarbiyada texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan har bir o'qituvchi har bir dars uchun yangicha innavatsiyalar goyalar yaratishi lozim bolani qiziqtiruvchi didaktik materyallar bilan darsni olib boorish lozim har bir bola uchun bosh o'tirmastlik uchun didaktik materiallarni berib band qilish lozim shunda bolada darsga qiziqish hamda uni bilim darajasi ortib boradi. Shunda passiv o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompitensiyalarini o‘z o‘rnida shakllantirishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyayev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017.
2. Bosh o'zlashtiruvchilar bilan shugullanish jurnali.
3. Mavlonova. A.R. "Umumiy Pedagogika".

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISH

Akramova Zuxra Botir qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, sirtqi bo‘lim
“Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida
masofaviy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tafakkur, tafakkur jarayonlari, analiz, sintez, mantiqiy masala, sonli bog‘lanish, matematik boshqotirma, mantiqiy boshqotirma.*

Аннотация. *В этой статье описаны способы развития навыков логического мышления у учащихся начальной школы на уроках математики.*

Ключевые слова: *мышление, мыслительные процессы, анализ, синтез, логическая задача, числовая связь, математическая головоломка, логическая головоломка.*

Abstract. *This article describes ways to develop logical thinking skills in elementary school students in math classes.*

Keywords: *thinking, thinking processes, analysis, synthesis, logical problem, numerical connection, mathematical puzzle, logical puzzle.*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish maqsadida qiziqarli matematik o‘yinlar, boshqotirmalar, geometrik masala va mashqlar, muammoli arifmetik masalalar, hazil masalalar, matematik mazmundagi topishmoqlardan vosita sifatida foydalanish o‘rinlidir. Matematik o‘yinlar o‘quvchilar bilimini boyitishga ularda aqliy faoliyatni o‘stirishga yordam beradi. Matematik o‘yinlar, boshqa termalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardagi o‘quvchilarni o‘ylashga majbur etadigan sharoit, ularning qiziqarliligi o‘quvchilarda aqliy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Qiziqarli matematik o‘yinlar o‘quvchilarning tafakkurining rivojlanishiga har tomonlama ta‘sir etuvchi vosita hisoblanib, uning yordamida aqliy va irodaviy rivojlanish amalga oshiriladi.

Fazoviy hayol, matematik tafakkur maqsadga qaratilganligi va maqsadga intilganlik, amaliy vazifalarni yechish uchun amallarning yo‘llarini mustaqil qidirish va topish, bularning hammasi birgalikda matematikani muvaffaqiyatli egallashlari uchun talab qilinadi. Bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, o‘zining o‘yinga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotmaydi, u avvalgidek o‘yinga o‘ch bo‘ladi. Hatto qiziqarli masalalar ham bolalarda faollikni uyg‘otib, tafakkurni rivojlantiradi.

Biz boshlang‘ich sinf matematik darslarida bunday hollarga duch keldik. Bu darslarda o‘quvchilarga raqamlar haqidagi masalalar, matematik sofizmlar, boshqotirmalar, masala, she‘r, hazil masalalarni yechish tavsiya etiladi. Bulardan ba’zilarini keltiramiz:

a) Raqamlar haqidagi masalalar.

Uchta ketma – ket har xil raqamlar oling va undan mumkin bo‘lgan ikki xonali sonlar to‘plamini tuzing. Hosil bo‘lgan sonlar yig‘indisini berilgan raqamlar yig‘indisiga bo‘ling. Sizlarda javobi 22 bo‘ladi. Masalan: 3, 4, 5 sonlarini olamiz. Mumkin bo‘lgan ikki xonali sonlar to‘plamini tuzamiz: 34, 35, 43, 45, 53, 54.

$$\frac{34+35+43+45+53+54}{3+4+5}=22$$

b) Sevimli raqam.

O‘quvchilardan biriga sevimli raqamini aytish taklif qilinadi.

U xohlagan, ya‘ni 4 raqamini aytgan bo‘lsin.

- Xo‘sh, uning qanday xususiyati bor? – deb qiziqib qoladi, o‘quvchi. Ajoyibligini bilay desangiz, yaxshi ko‘rgan raqamingizni 9 ga ko‘paytiring va chiqqan son (36) ni quyidagi 123456789 sonlarining tagiga ko‘paytiruvchi qilib yozing.

×123456789
36

4444444444

v) Boshqotirma.

Bir qizdan (soat) yoshi nechadaligini so‘rashdi. Uning javobi o‘ylantiradigan edi. “Uch yildan keyingi yoshimning uch baravaridan uch yil avvalgi yoshimizning uch baravarini ayiring, u holda sizda mening yoshim hosil bo‘ladi”, deb javob berdi.

Yechish: Izlangan sonni x bilan belgilaymiz, u holda 3 yildan keyingi yoshi x+3 ga va 3 yil avvalgi yoshi x-3 bo‘ladi. Natijada quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

3(x+3)-3(x-3)=x

3x+9-3x+9=x


X=18


Demak, u 18 yoshda ekan.

Har qanday matematik o‘yinlar qandaydir matematik nazariyaga asoslanadi. Ular o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarini o‘rganishdagi mashg‘ulotda bolalarning tafakkurini rivojlantirib, faolligini oshiradi. Chunki ularda og‘zaki hisoblashning tezligi konkurs hissining o‘tkirligi, maqsadga eng to‘g‘ri yo‘l bilan yetish istagi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Matematikada o‘yin fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, bu esa doimo jiddiy shug‘ullanishga ehtiyoj tug‘diradi. Paskal so‘zi bilan aytganda, matematika shunday jiddiy fanki, uni sal qiziqarli qilish imkoniyatini qo‘ldan bermaslik lozim.

Quyida yana mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi matematik boshqotirmalardan keltiramiz:







Boshqotirma 3 guruhga bir vaqtda beriladi. Qaysi guruh tez va to‘g‘ri bajarsa g‘olib bo‘ladi.

Ushbu berilgan misollar va boshqotirmalar orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri shakllantiriladi.

Boshlang‘ich sinf matematika kursida umumlashtiruvchi darslarning umumiy maqsadi – matematika kursining asosiy tushunchalarini takrorlash, mumlashtirish bilan birga ularni chuqurlashtirish va shu fandan o‘quvchilar bilimini tizimlashtirish hamda misol va masalalar orqali o‘quvchilarning matematik mantiqiy tafakkurini shakllantirishdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida nomlari keltirilgan materiallar o‘zining qiziqarliligi, tuzilishi bilan bolalarga yaqindir. Boshqotirmalar, geometrik matematik masalalar o‘quvchilarni shunday sharoitga soladiki o‘quvchilar o‘ylashga, fikr yuritishga majbur bo‘ladilar. Dars jarayonida o‘quvchilarda hosil bo‘lgan ijobiy his – tuyg‘ular ularga aqliy qobiliyatlarni shakllantirishda asosiy shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan sistemali ravishda olib borilgan ishning ijobiy natija berishi mantiqiy tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda oliy ta’limning bitiruvchi kurs talabalariga ushbu maqoladan foydalanishni tavsiya beramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akramova Z. WAYS TO FORM STUDENTS'LOGICAL THINKING IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS // INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2022. – T. 1. – №. 9. – C. 6 – 9.
2. Akramova Z., Gulmamatova S. KICHIK MAKTAB YOSHI O ‘QUVCHISINING TAFAKKURI O ‘SISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 38 – 40.
3. Akramova Z. Use of Interesting Problem-Solving Methods in Developing the Logical Thinking of Primary Class Students // Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 02 Issue: 03, 2023. ISSN: 2751-756X.
4. Akramova Z. PSYCHOLOGICAL APPROACH IN FORMING THE LOGICAL THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS // Экономика и социум. – 2023. – №. 3-1. – С. 106.
5. Zuxra Akramova, & Sarvinoz Gulmamatova. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHI O‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISH METODI-KASI. *CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH*, *1*(1), 61 – 70.
6. Akramova Z. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAK-KURLARINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV // Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 14 – 18.
7. Akramova Z. BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAK-KURLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI // Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 417 – 422.
8. Rahmatova F.A., Akramova Z. B. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYAT-LARI // INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 133 – 137.

USEFUL ICT TECHNOLOGIES FOR FUTURE ENGLISH TEACHERS IN THEIR TEACHING PROCESS

Ropiyeva Gulzoda,
Teacher of English language teaching methodology department
Jizzakh State Pedagogical University
Phone: +99888 646 94 46
e-mail: gulzoda8787@mail.ru

Abstract. *This article investigates the use of Information and Communication Technology (ICT) in language instruction for future English teachers. It focuses on five important ICT technologies: interactive whiteboards, educational apps, online collaborative platforms, digital storytelling tools, and virtual and augmented reality (VR/AR). Each technique is reviewed in terms of its advantages, potential uses, and empirical proof for its efficacy. The paper underlines ICT's revolutionary potential in promoting language acquisition, cultural competency, and 21st-century skills, allowing educators to build dynamic, engaging, and individualized learning environments for pupils.*

Key words: *ICT, interactive whiteboards, educational apps, online collaborative platforms, digital storytelling tools, virtual and augmented reality (VR/AR).*

In today's fast changing educational scene, technology is a revolutionary force, disrupting traditional teaching approaches and improving learning results across multiple disciplines. Within the field of language education, information and communication technology (ICT) provides numerous chances for future English instructors to innovate and improve their teaching approaches. Using digital tools and resources, educators may build dynamic, interactive, and personalized learning experiences that respond to students' different requirements.

English language instruction, in particular, offers distinct challenges and opportunities. As globalization blurs geographic boundaries, English proficiency becomes more important for school performance, professional growth, and cross-cultural communication. Future English instructors must be equipped with the required abilities and tactics to help pupils navigate the complexity of the English language successfully.

This article examines a variety of ICT tools designed expressly for future English instructors, emphasizing their practicality, benefits, and potential uses in the language learning process. From interactive whiteboards and instructional apps to online collaborative platforms and immersive technology, each tool provides distinct benefits that can improve classroom interactions, engage students, and aid in language acquisition. As educators work to develop 21st-century abilities such as critical thinking, communication, teamwork, and creativity, the incorporation of ICT technology emerges as a key component of effective teaching. By embracing innovation and the digital era, future English instructors may lay the groundwork for transformative learning experiences that prepare students for success in an increasingly interconnected world. This article seeks to provide future English instructors with the knowledge and resources they need to properly navigate the ever-changing environment of language education by exploring these ICT technologies and their consequences for English language instruction. Using technology as a change agent, educators may inspire, motivate, and empower students on their path to English language competency and global citizenship.

1. Interactive whiteboards (IWB)

Interactive whiteboards provide dynamic visual aids that allow teachers to convey knowledge in a multimedia format while catering to a variety of learning styles. IWBs, which include touchscreen capability and interactive software, make engaging activities like vocabulary games, grammar lessons, and collaborative writing projects possible. Cutrim Schmid and Whyte (2012) found that IWBs have a favorable influence on student motivation and language proficiency, making them an invaluable tool for future English educators.

Furthermore, interactive whiteboards promote interactive and student-centered learning settings in which students actively participate in the class via hands-on activities and interactive exercises. Teachers can build immersive learning experiences by adding multimedia components like films, audio samples, and animations. Furthermore, IWBs provide real-time feedback and assessment, allowing teachers to assess student comprehension and alter instruction accordingly, supporting a more responsive and individualized approach to teaching English language skills.

2. Educational apps and software.

The growth of educational applications and software has provided English teachers with an abundance of resources to supplement traditional classroom training. Apps such as Duolingo, Quizlet, and Kahoot provide interactive workouts, quizzes, and language games that help with vocabulary recall and grammar comprehension. By combining these apps into lesson plans, teachers may create dynamic and individualized learning experiences that are tailored to the needs of each individual student. Furthermore, educational apps and software enable differentiated instruction, allowing teachers to target a variety of competency levels and learning styles in the classroom. With features like adaptive learning algorithms and customisable content, teachers may provide targeted help and scaffold learning experiences to match their students' different requirements.

Additionally, many educational applications have progress tracking and analytics tools, which allow teachers to analyze student performance, identify areas for development, and track progress over time.

3. Online Collaboration Platforms Online collaborative tools like Google Classroom, Microsoft Teams, and Edmodo allow students and teachers to communicate and collaborate outside of the actual classroom. These systems allow teachers to distribute assignments, provide comments, and engage students in asynchronous discussions. Furthermore, they foster digital literacy and peer-to-peer learning, which improves students' language and communication skills (Wang, 2014).

English teachers can use online collaboration platforms to build virtual learning communities in which students can collaborate on projects, participate in peer review activities, and exchange language with classmates from other cultural backgrounds. These platforms also allow for actual contact and interaction in English, as students work on tasks and projects in real time, establishing a sense of belonging and community among students. Furthermore, online collaboration platforms promote blended learning approaches, which combine traditional face-to-face instruction with online activities and resources to provide flexibility and accessibility to students with diverse schedules and learning needs.

4. Digital Storytelling Tools.

Digital storytelling technologies enable pupils to express themselves creatively while improving their language skills. Students can use platforms like Adobe Spark, Storybird, and Book Creator to create multimedia narratives with text, images, and audio. By writing their own stories, students improve their language fluency, creativity, and critical thinking skills, as well as their confidence in expressing themselves in English. Students discover multiple perspectives and narratives through digital storytelling, which not only improves language skills but also increases cultural awareness and empathy.

Students gain intercultural competency by developing and sharing tales with their peers. Furthermore, digital storytelling enables students to creatively and authentically demonstrate their mastery of English language principles and themes, developing a stronger relationship to the language and its cultural context.

5. VR and AR VR and AR technology offer immersive learning experiences that bring students to virtual worlds, boosting language learning through authentic situations. English teachers can use VR field trips, immersive language simulations, and AR-enhanced textbooks to engage pupils and make abstract topics concrete. Chen and Chang (2020) found that combining VR and AR into language training can boost students' motivation, understanding, and language production skills.

VR and AR technologies provide experiential learning and cultural immersion by immersing students in virtual environments depicting English-speaking countries, cultural sites, and historical events. Students can visit prominent places, interact with local speakers, and participate in realistic real-world events to improve their language abilities and cultural competence. Furthermore, VR and AR technologies accommodate a wide range of learning styles and preferences, offering multimodal learning experiences that are appealing to visual, aural, and kinesthetic learners equally.

In conclusion, including Information and Communication Technology (ICT) into the educational process provides future English educators with several chances to transform language learning. English teachers can use interactive whiteboards, instructional apps, online collaborative platforms, digital storytelling tools, and immersive technology to create dynamic, engaging, and individualized learning environments that meet the different requirements of their students.

English teachers may stimulate language acquisition, develop cultural competence, and empower students to be confident, effective communicators in an increasingly interconnected world by strategically integrating and thoughtfully implementing ICT technology. By embracing innovation and leveraging technology, educators can inspire, encourage, and equip students with the skills and information they need to thrive in the twenty-first century.

Furthermore, the revolutionary power of ICT technology goes beyond the classroom, influencing the future of language teaching and preparing students for success in a globalized

world. As English remains the lingua franca in academia, industry, and society, the integration of ICT technology provides students with the tools and resources they need to confidently and proficiently navigate multiple language and cultural landscapes.

In essence, successful integration of ICT technology into the educational process improves not just language learning outcomes, but also encourages critical thinking, cooperation, creativity, and digital literacy skills, all of which are required for success in the digital age. By embracing innovation and the digital era, future English educators can pave the path for the transformation of language teaching and allow students to reach their full potential as global citizens.

References:

1. Cutrim Schmid, E., & Whyte, S. (2012). Interactive whiteboards in school settings: Teacher responses to socio-constructivist Hegemonies. Language Learning and Technology, 16(2), 65–86.

2. Hubbard, P. (2013). Computer-assisted language learning: Critical concepts in linguistics. Routledge.

3. Wang, S. (2014). The use of Google Docs in collaborative learning for English language teachers' continuing professional development. English Language Teaching, 7(2), 156 – 164.

4. Robin, B. (2006). The educational uses of digital storytelling. Association for Educational Communications and Technology.

5. Chen, C.H., & Chang, C.K. (2020). The effects of immersive virtual reality integrated with augmented reality in English learning on language acquisition. Computers & Education, 146, 103775.

РОЛЬ РИТМИЧЕСКОЙ ГИМНАСТИКИ В ОБРАЗОВАНИИ: ФИЗИЧЕСКОЕ, ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ

Хаитбаева Барнохон Баходировна,
Преподаватель кафедры
Виды спортивной деятельности
Ферганского государственного университета

Аннотация. *Данная научная статья рассматривает роль ритмической гимнастики в образовании и развитии учащихся. Авторы обсуждают физические, эмоциональные и социальные аспекты участия в ритмической гимнастике и ее влияние на общее развитие личности. Основываясь на исследованиях и практическом опыте, статья подчеркивает важность интеграции ритмической гимнастики в образовательный процесс как средства для достижения целостного и гармоничного развития учащихся.*

Ключивые слова: *ритмическая гимнастика, образование, развитие учащихся, физическое развитие, эмоциональное развитие, социальное развитие, участие в спорте.*

Введение. Ритмическая гимнастика представляет собой уникальное направление в физической культуре, в котором сочетаются элементы грациозных движений, пластики и музыки. В данной статье рассматривается роль ритмической гимнастики в образовании, особенно в контексте физического, эмоционального и социального развития учащихся.

Физическое развитие. Ритмическая гимнастика способствует развитию гибкости, координации движений, силы и выносливости учащихся. Систематические тренировки помогают укрепить мышцы, повысить подвижность суставов и улучшить общую физическую форму. Это не только способствует здоровью учащихся, но и развивает в них ответственность за свое тело и уход за ним.

Эмоциональное развитие. Выступления на соревнованиях и показательные выступления по ритмической гимнастике способствуют развитию самооценки, самодисциплины и самовыражения учащихся. Участие в групповых выступлениях также способствует развитию коммуникативных навыков и умению работать в коллективе. Ритмическая гимнастика может быть способом выражения эмоций и чувств через движения и музыку, что помогает учащимся развивать свою эмоциональную интеллигенцию.

Социальное развитие. Ритмическая гимнастика создает возможность для формирования дружеских связей и укрепления взаимопонимания между учащимися. Спортивные коллективы и тренировочные группы становятся местом совместной деятельности и взаимопомощи. Участие в соревнованиях и мероприятиях по ритмической гимнастике способствует развитию чувства соперничества и спортивного духа.

Дополнительно, ритмическая гимнастика предоставляет учащимся возможность развивать творческие способности и выражать свою индивидуальность через хореографию и музыку. Участие в создании собственных номеров и выступлений позволяет им раскрыть свой творческий потенциал и почувствовать себя участниками искусства.

Кроме того, ритмическая гимнастика способствует формированию у учащихся ценностей ответственности, упорства и самодисциплины. Регулярные тренировки и стремление к достижению новых высот в этом виде спорта учит детей и подростков целеустремленности и постоянному совершенствованию.

Не менее важным аспектом является то, что ритмическая гимнастика стимулирует развитие воображения и креативного мышления. Учащиеся учатся видеть красоту в движениях и создавать гармоничные композиции, что способствует их эстетическому воспитанию и развитию творческого мышления.

В заключение, ритмическая гимнастика представляет собой не только спортивную дисциплину, но и мощный инструмент для общего развития личности учащихся. Ее значимость в образовании заключается в создании благоприятной среды для разностороннего развития детей и подростков, поддерживая их физическое, эмоциональное, социальное и когнитивное благополучие.

Заключение

Ритмическая гимнастика играет важную роль в образовании, способствуя всестороннему развитию учащихся. Ее влияние охватывает физическое, эмоциональное и социальное измерения образования, делая ритмическую гимнастику неотъемлемой частью образовательного процесса.

Список исползованной литературы

1. Xaitbayeva, B. (2024). THE ROLE AND METHODS OF TEACHING RHYTHMIC GYMNASTICS IN SCHOOL PHYSICAL EDUCATION. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2*(1), 23-26.

2. Xaitbayeva, B. (2024). RHYTHMIC GYMNASTICS: INTEGRATION INTO THE PHYSICAL EDUCATION CURRICULUM. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, *2*(1), 15-18.

3. Bahodirovna, K.B. (2023). Improving the System of Professional Training of Future Teachers Using Musical Rhythmic Gymnastics (Using the Example of Physical Education Teachers). *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *1*(8), 13-18.

4. Smith J., et al. The role of rhythmic gymnastics in education. Journal of Physical Education, 2020.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION TA’LIM

Oripova S.O.,
KIUT Namangan filiali magistranti
oripovasoxiba04@gmail.com

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogika Bugungi kunda maktab va oliy ta’lim tizimidagi an’anaviy va ommaviy ko‘rinishdagi ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘rniga ta’lim muassasalari rivojlanishida o‘ziga xos yangilik bo‘lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda.

“Innovatsion ta’lim” deganda odatda o‘quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta’lim tizimida innovatsiya o‘zgartirish bilan bevosita bog‘liq. Bunday o‘zgartirishlar ta’lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o‘ziga xoslik va o‘quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta’lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o‘quv-metodik ta’minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o‘quv reja va o‘quv dasturlariga;
- o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq[1].

Yangilik tarixiy aspektda nisbiylik ahamiyat kasb etadi. Yangilik aniq tarixiy xarakterga ega, ya’ni o‘z vaqtidan oldin paydo bo‘lishi mumkin, o‘z vaqtida me’yor bo‘lishi yoki eskirishi ham mumkin. Maktab yoki oliy tizimning rivojlanish jarayonida, ehtimol ta’lim tizimi butunicha:

- absolyut yangiligi (o‘xshashi, prototipning yo‘qligi);
- nisbatan yangiligi;
- o‘ziga xos, ixtirochiligi ko‘rinishidagilar hisobga olinadi. Yangilik xillari (tiplar) maktab va oliy tizimda turlicha asoslarga ko‘ra guruhlanadi:

Birinchi klassifikatsiya (guruh) – yangiliklarni kiritish, maktab va oliy tizimda sodir bo‘ladigan pedagogik jarayonga aloqadorligi bilan asoslanadi. Ushbu jarayonni tushunishga tayanib, quyidagi ko‘rinishdagi yangilik xillarini ajratish mumkin:

- ta’lim maqsadi va mazmuniga;
- pedagogik jarayon metodikasi, vazifalari, usullari, texnologiyalarga;
- ta’lim va tarbiyani tashkil etish shakllari va vositalari;
- rahbariyat, pedagog va o‘quvchilar faoliyatiga.

Ta’lim tizimiga ikkinchi klassifikatsiya (guruh) – yangilikni kiritish masshtabi (hajmi) belgisiga asoslanadi. Bu erda quyidagi o‘zgarishlarni ajratish mumkin:

- bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lmagan lokal va alohida (bir tomonlamalilik);
- kompleks, o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq;
- butun maktab va oliy tizimni qamrab oluvchi, tizimli.

Uchinchi klassifikatsiya (guruh) – innovatsion imkoniyatlarga qarab amalga oshiriladi. Bu holatda e’tiborga olinadi:

- ta’lim dasturlari, o‘quv rejalar, tuzilmalarni takomillashtirish, ixtirochilik,
- ko‘rinishlarni o‘zgartirish bilan bog‘liq ma’lum va qabul qilinganlarni modifikatsiyalash;
- kombinatorlikka (o‘zgartirishlar) xos yangilik kiritish; radikal o‘zgartirishlar.

Ta’lim tizimida yangiliklar kiritish mazmuni va yo‘nalishlari masalasini o‘rganishga kirishishdan oldin “Pedagogik tizim” va “Pedagogik tizimda yangiliklar kiritish” tushunchasini aniqlab olaylik[1].

Pedagogik jarayon bilamizki, pedagogik tizim asosida yo‘lga qo‘yiladi. Pedagogik tizim – bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo‘lib, ular o‘zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o‘zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo‘lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o‘rniga yangi boshqa hususiyatli tizim yuzaga keladi.

Pedagogik tizim – elementlarning juda mustahkam birlashuvidir. Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq holda quyidagi ko‘rinishga ega:

- o‘quvchi; tarbiyaning maqsadi;
- tarbiya mazmuni;
- tarbiya jarayoni; o‘qituvchilar (yoki TTV – ta’limning texnik vositalari);
- tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllaridan iborat bo‘ladi.

Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday darajada elementlarga bo‘lib, yoyib ko‘rsatilishi mumkin [2].

Ko‘rilgan tizimni mukammal tarkibiy tuzilish emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko‘rsatib o‘tilganlarga qo‘shila olmaydiganlar pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari, shuningdek, “natijalar”, “o‘quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish”, “texnologiya”lardan iborat, deb ham hisoblashlari mumkin [3].

Ular berilgan chizmadagi pedagogik tizim modelida ko‘zga tashlanadi. Maqsadlar natijalar bilan mos kelib, uzluksiz jarayon tashkil etadi. Maqsadlarning natija bilan to‘la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o‘lchov ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik tizim boshqaruv, birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o‘z maqsad va tuzilishlariga egadir.

Pedagogik tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida alohida omillar birligi deb ta’kidlagan holda ularni ko‘pincha, o‘quv-tarbiya jarayonining texnologiyasi deb ko‘rsatadilar. Bunday yondashishda pedagogik tizim ko‘zlangan maqsadga erishishni ta’minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo‘yicha pedagogik tizimning tarkibiy qismlar ixtiyoriy maqsadning mos kelishi natijaga pedagog boshqaruv ta’lim berish texnologiya mazmun uslub, shakl vosita “to‘plami”dan ajratib olish osondir. Texnologiya – bu qat’iy tashkiliy mantiqqa bo‘ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir [4].

Shu bilan birga topshiriqni baholash darajasining o‘zidayoq, texnolog ma’lum jarayonlar hamda hodisalarga tayanadi. Ma’lum jarayonlar muvaffaqiyat ifodasining dalili sifatida foydalaniladi, ajoyib xodisalar natijalari esa yangi sabab va formula manbalari sifatida amalga oshiriladi. O‘quv texnologiyalarni loyihalashtirish metodik “tajribalarni umumlashtirishdan” farqli “mumkin emas” xulosasini bermaydi. Texnolog uchun bu faqatgina vaqt va harajatlar masalasidir. Texnolog faqatgina yaxshi ma’lum, tekshirib ko‘rilgan, asoslangan, shubha qilinmaydigan fikrlarga asoslanadi. Texnolog tajribalar o‘tkazmay, aniq ko‘zlangan natijalar bilan ish olib boradi. Texnologiya variantlikka yo‘l qo‘ymaydi uning asosiy vazifasi -aniq kafolatlangan natija olishdir, u har doim ham asosiy echimida oddiydir. Asosiy echimni tushunish qolgan hammasini, o‘zaro zarur elementlar tizimi, tartibining mazmunini ochib beradi. Texnologiyadan hech bir qismini olib tashlab bo‘lmaydi, u erda ortiqchasi bo‘lmaydi, bo‘lishi mumkin ham emas. Bu juda murakkab holat, har ikkinchi o‘qituvchi izlash – tadqiqotchilik tartibida ish olib boradi va shu bilan bolaning maktabdagi hayoti natijasining noaniqligini kuchaytiradi.

Har doim, ayniqsa “aniq” fanlar deb nomlanuvchi yo‘nalish vakillari orasida pedagoglarni harakterlari uchun koyib turuvchilar topiladi va ular har galgidek pedagogika tizimi modellarini reviziya qilish va moderizatsiyalashdan boshlaydilar. Endi quyida pedagogika tizimida sodir bo‘ladigan jarayonlarniig ba’zi prinsipial harakteristikalarida to‘xtalib o‘tamiz. Pedagogik tizimining har bir aniq modifikatsiyasi ko‘zlangan natijaga erishishi aniq hususiyat va imkoniyatlarga ega degan qoidadan kelib chiqamiz. Bu imkoniyatlar tizimining aniq hususiyatlari bilan qat’iy belgilab qo‘yilgan. Bu tarzda biz ta’lim va tarbiyaviy jihatdan ko‘zlangan daraja va sifatga erishmoqchi bo‘lsak, unda shunga mos pedagogik tizim haqida o‘ylashimiz kerak va uning ishlashi pedagogik jarayonning kerakli yo‘nalishi va intensivligini ta’minlashi zarur. Buning natijasi, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning yanada yuqoriroq samaradorligi, har doim pedagogik tizimni takomillashtirish oqibatidir. Bu juda murakkab muammo, ularni ishlab chiqishga dunyoda endi kirishilmoqda. Hozirgi, umumiy ko‘rinishga juda ko‘p ko‘rinishli

ko‘rsatgich, “harajat” va “natija”larni to‘plash mumkin bo‘lmoqda va ushbu muammoning foydaliligini aniqlash esa uni iqtisodiy nuqtai nazardan hal qilish imkonini beradi. Intuitiv va sub’ektiv baholarni juda oson noto‘g‘ri deyish mumkin va bu erda vaziyatdan chiqish faqatgina fikrlarni to‘plashdan iborat bo‘ladi.

Har qanday pedagogikaning maksimal umumiy samarasi 100% ko‘zlangan maqsadga to‘la erishilgan xisoblanib, agar tarbiyachilar uchun ilgari erishilgandan pastroq darajada bo‘lmasa mumkin bo‘ladi.

Yana biron-bir pedagogik tizim tuzilishiga nazar tashlaylik, u “yomon” va “yaxshi” pedagogik tizim uchun ham birdir. Uning uchun o‘qituvchi ham birdir. Uni o‘qituvchi, o‘quvchilar munosabatigacha soddalashtiramiz. Bu munosabatlar ilgari o‘rganilgan edi va umumiy xulosa ma’lum: deyarli 50% o‘qituvchidan, 50% esa o‘quvchiga bog‘liq. Bundan kelib chiqadiki, masalan: eng yomon pedagogik tizimning samaradorligi, aytaylik o‘qituvchi, umuman hech qanday harakatlarni amalga oshirmagan holda, ammo tizim ishlasa 50% dan kam bo‘lmaydi. An’anaviy pedagogik tizimning foydali harakat koeffitsenti 60% dan oshmaydi deb hisoblanadi. Bu esa maktab tarbiyalanuvchilarining faqatgina yarmidan ozgina ko‘prog‘i dasturni to‘la o‘zlashtira oladi deganini bildiradi.

Yana bir muhim fikr, tizimning umumiy nazariyasidan ma’lumki tizimni baravariga bir necha parametrlar bo‘yicha yaxshilash mumkin emas. To‘g‘ri yo‘l yangilikni asta-sekin, uning foydaliligiga ishonch hosil qilib, har tomonlama tekshirib ko‘rib, keyingi ishlarni o‘ylab kiritishdan iborat. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgarigisidan ham yomon ishlaydi. Chunki bu jarayonni o‘rganish, moslashish, sustkashlikni engish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ergashev R.N., Ergasheva G.M., Eshonqulova M.X. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi – Respublika oliy o‘quv yurtlarining “Boshlang‘ich ta`lim va sporttarbiyaviy ish” bakalavr ta’lim yo`nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent. 2023. – B. 48 – 55.

2. Gafurova N.R. Boshlan’ich sinf ‘quvchilarida tolerantlik k’nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi – Monografiya. Farg’ona: Turon-Iqbol. 2013. – B. 6 – 16.

3. Boltaeva Sh.T. Boshlang’ich ta’limda o’quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi // Zamonaviy ta’lim. 2017. № 6. – B. 49.

4. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiysasi. – Toshkent: Turon-Iqbol. 2006. – B. 3.

5. Usmonova Sh, Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Sharqshunoslik. 2017. – B. 6.

SHAXS KAMOLOTIDA ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHIGA CHET TILLARINI O'RGANISHNING TA‘SIRI

Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi,
NamDPI 1-bosqich magistranti
E-mail: dilnozabdullayeva1700@gmail.com
Tel: +998-94-171-33-24

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tillarini o‘rganish bolaning dunyoqarashini kengaytirish, madaniy ongini rivojlantirish, muloqot qobiliyatlarini oshirish, kognitiv rivojlanishni kuchaytirish, obro‘ ortira olish qobiliyatlarini rivojlantiriish va shaxsiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutishi va bu bolaning ta’limga yordam berishi haqida yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *madaniy ong, kognitiv rivojlanish, shaxsiy o‘sish, global xabardorlik, diplomatiya va xalqaro munosabatlar, kasbiy rivojlanish, kreativlik, innovatsiya.*

Аннотация. *В этой статье изучение иностранных языков играет важную роль в расширении мировоззрения ребенка, развитии культурного сознания, совершенствовании коммуникативных навыков, усилении когнитивного развития, развитии навыков самооценки и стимулировании личностного роста, а также помогает охваченному образованию ребенка.*

Ключевые слова: *культурная осведомленность, когнитивное развитие, личностный рост, глобальная осведомленность, дипломатия и международные отношения, профессиональное развитие, творчество, инновации.*

Abstract. *In this article, learning foreign languages plays an important role in expanding a child's worldview, developing cultural awareness, improving communication skills, enhancing cognitive development, developing self-esteem skills, and stimulating personal growth, and that it helps the child's education covered about.*

Key words and concepts: *cultural awareness, cognitive development, personal growth, global awareness, diplomacy and international relations, professional development, creativity, innovation.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga binoan ishlab chiqilgan 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning to‘rtinchi va beshinchi boblari alohida ta’lim tarbiya masalalari, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ma’naviy taraqqiyot va inson manfaatlarini rivojlantirishga qaratilganligi mamlakatimizda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi va ta’limga e’tibor nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi. Jumladan, ushbu taraqqiyot strategiyaning 44-maqsadida: Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo‘yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilashni qonun doirasiga kiritilishini ta’kidlashlari mamlakatimizda chet tillarini o‘rganish qanchalik muhim ekanligini ko’rsatadi. [1-32 b]. Bundan tashqari muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev xorijiy tillarni o‘rganish boshqa davlatlar bilan muloqot va hamkorlikni rivojlantirishning muhim yo‘li ekanini ta’kidlaydi. Prezident O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarini mustahkamlash borasidagi sa’y-harakatlari doirasida ingliz, rus, xitoy va boshqa tillarni o‘qitishni ilgari surdi. Bundan tashqari, Prezident Mirziyoyev O‘zbekistonlik yoshlarni ish imkoniyatlarini yaxshilash va dunyoqarashini kengaytirish uchun til o‘rganishga undadi. Mirziyoyev rahbarligidagi mamlakat ta’lim siyosatida xorijiy tillarni o‘rganish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. [2-67 b]. Xorijiy tillarni o‘rganishning bolaning dunyoqarashining o‘sishiga ta’siri bugungi kunda o‘zaro bog‘liq va butun dunyoda ko‘plab madaniyatlarni bir biriga bog’lanishida juda ham muhim o’rin tutadi. Chunki bugungi globallashuv davrida madaniyatlar va chegaralar o‘rtasida muloqot qila olish juda muhim.

Chet tillarini o‘rganish bolalarni turli millatga mansub odamlar bilan muloqot qilish odatiy hol bo‘lgan globallashgan dunyoda harakat qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Bu esa ularning ularning nafaqat dunyoviy bilimlarni o’rganishga bo’lgan qiyinchiliklarini yengishgan yordam beradi balki ularning ilmiy dunyoqarashini ham kengayishiga tasir ko‘rsatadi. Qolaversa, chet tillarini o‘rganish,madaniy farqlarni tushunish va qadrlash turli jamiyatlarda uyg‘unlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Chet tillarini o‘rganish orqali bolalar turli madaniyatlar, an’analar va qarashlar haqida tushunchaga ega bo‘lib, madaniy sezgirlik va inklyuzivlikni rivojlantirishi mumkin. Keyingi o‘rinda chet tillarni bilish diplomatiya, xalqaro biznes va global siyosatga qiziqqan shaxslar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa mamlakatlardan kelgan odamlar bilan samarali muloqot qila olish muzokaralarni osonlashtirishi, diplomatik munosabatlarni yaxshilashi va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishi mumkin. Bu esa nafaqat shaxsning o‘zi uchun balki millat jamiyat va davlat uchun ham juda foydali jarayon hisoblanadi. [3-18 b]. Chet tilini bilish bolalarga mahalliy hamjamiyatlar bilan yanada chuqurroq bog‘lanish, notanish muhitlarni o‘rganish va mazmunli

madaniyatlararo almashinuvlarni amalga oshirish imkonini berib, sayohat tajribasini oshirishi mumkin. Bu ularning dunyoqarashini kengaytira oladigan chuqur madaniy tajribalar uchun imkoniyatlar ochadi. Qolaversa, bugungi raqobatbardosh mehnat bozorida chet tillarini bilish bolalarga o‘z kareralarida raqobatbardosh ustunlikni berishi mumkin bo‘lgan qimmatli boylikdir. Ko'pgina ish beruvchilar til ko‘nikmalarini qadrlashadi va bir nechta tillarda, ayniqsa transmilliy kompaniyalarda va global sanoatda samarali muloqot qila oladigan nomzodlarni izlaydilar. Buning misoli sifatida mamlakatimizda ham chet tillarini talab darajasida bilgan o‘qituvchilarga qoshimcha haq to‘lanishi ham chet tillarini o‘rganish nechog‘lik muhim ekanligini ko’rsatadi. [4-54 b]. Chet tillarni o‘rganish bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, empatiyasini va moslashish qobiliyatini oshirishi mumkin, chunki ular turli til va madaniy kelib chiqishi bo‘lgan shaxslar bilan muloqot qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularga ishonch hissini beradi. Ko‘plab olimlarning fikricha chet tillarini o‘rganish yangi tilni bilish orqali miyyaning muammoni hal qilish, xotira va ko‘p vazifalarni bajarish qobiliyatlari kabi kognitiv funktsiyalarni yaxshilaydi bu esa bolalarning ilmiy dunyoqarashini o‘stiradi. Chet tilini o‘rganish boshqa fanlar bo‘yicha akademik ko‘rsatkichlarni oshirishi mumkin, chunki bu tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Umuman olganda, chet tilini o‘rganish ko‘plab shaxsiy, kasbiy, kognitiv va madaniy imtiyozlarni taqdim etadigan foydali va boyitish tajribasidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikki tillilik kognitiv foyda keltirishi va qarilik jarayon boshlanishini kechiktirishi mumkin. [5-486 b]. Qolaversa, chet tillarni o‘rganish bolaning dunyoqarashining o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Chet tilini o‘rganish ham shaxsiy o‘sish va o‘z-o‘zini kashf etishga hissa qo‘shishi mumkin. Bu bolalarni o‘zlarining konfort zonalaridan chiqishiga, o‘sish tafakkurini rivojlantirishga va yangi va notanish vaziyatlarga tez moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Umuman olganda, olimlar chet tillarini o’rganishni shaxs rivojlanishiga ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qimmatli tajriba sifatida qarashadi.

Ko‘plab olim va tadqiqotchilar chet tillarini o‘rganishning shaxs rivojlanishida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga ta’sirini o‘rganishgan.

1. Ikki tillilik bo‘yicha yetakchi mutaxassis, doktor Ellen Bialystokning tadqiqotlari ikki tillilikning kognitiv afzalliklari va til ko‘nikmalarining diqqat, muammolarni hal qilish va kognitiv moslashuvchanlik kabi kognitiv jarayonlarga qanday ta’sir qilishiga qaratilgan. Uning ishi ko‘p tillarni o‘rganish va undan foydalanish ilmiy fikrlash va fikr yuritish uchun zarur bo‘lgan kognitiv qobiliyatlarni qanday oshirishi mumkinligiga oydinlik kiritdi. [6-384 b]. Uning fikricha, ikki tilni bilgan odam muammoning ikki tarafini ko‘ra oladi va boshqaralarga qaraganda tezroq muammoni hal qila oladi.

2. Italiyalik faylasuf va pedagog Luidji Giberti kishilarning intellektual rivojlanishi va axloqiy xarakterini shakllantirishda til o‘rganish muhimligini ta’kidlagan. [7-12 b]. Uning fikricha, chet tillarini o‘rganish insonning dunyoqarashini kengaytirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, shaxsga ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan turli madaniyatlar va dunyoqarashlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. U o‘quvchilar iloji boricha ko‘proq til o‘rganishi tarafdori bo‘lgan.

3. Birinchi intellekt testini ishlab chiqish bilan mashhur bo‘lgan fransuz psixologi Alfred Binet kognitiv rivojlanish va intellektual qobiliyatlarda tilni bilishning rolini tan oldi. U ilmiy izlanish va innovatsiyalar uchun zarur bo‘lgan xotirani yaxshilash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va aqliy moslashuvchanlik kabi ko‘p tillarni o‘rganishning kognitiv afzalliklarini ta’kidladi. [8-92 b]. Uning fikricha chet tillarini bilgan o‘quvchi boshqa o‘quvchilarga qaraganda aqlliroq va matemmatik misol-masalalarni bajarishda tezkoorroq bo‘lishadi. Chunki xorijiy tillarni o‘rganayotgan bolalar maktab dasturida matematikaga ko‘proq soat ajratilgan, ammo chet tillarni umuman o‘qimaydigan o‘quvchilarga nisbatan, matematika bo‘yicha yaxshiroq natijalarni ko‘rsatgani aniqladi.

4. Sapir-Uorf gipotezasi bilan tanilgan amerikalik tilshunos Benjamin Li Uorf til odamlarning dunyoni idrok etishini shakllantiradi va ularning fikrlash shakllariga ta’sir qiladi,

deb taklif qildi. Uning ta’kidlashicha, chet tillarini o‘rganish insonning kognitiv va madaniy ufqlarini kengaytirib, ularga ilmiy fikrlash va dunyoqarashni shakllantirish uchun muhim bo’lgan yangi istiqbollar va kontseptual asoslarni qabul qilish imkonini beradi. [9-74 b]. Ushbu qobiliyat turli chalg‘ituvchi omillarni bloklab, bitta vazifaga diqqatni qaratishga yordam beradi.

5. Kognitiv psixolog va tilshunos Stiven Pinker til, bilish va inson tabiati haqida ko‘p yozgan. Pinker o‘z ishida tilning fikrlash, muloqot va ijtimoiy o‘zaro ta’sirga, odamlarning kognitiv jarayonlari va intellektual rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. U ko‘p tillilikning kognitiv afzalliklari va til xilma-xilligining ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va madaniy tushunishni rivojlantirishdagi rolini ta’kidlab o’tadi, bular ilmiy izlanish va shaxsni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu olimlar va tadqiqotchilar chet tillarini o‘rganish shaxs rivojlanishida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishini takidlaganlar. Ulari til o‘rganishning kognitiv, madaniy va intellektual afzalliklarini ta’kidlab, ko‘p tillilikning ilmiy izlanish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va shaxslarning shaxsiy va kasbiy o‘sishida madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishdagi muhim rolini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytadiganda, shaxs kamolotiga ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda chet tillarini o‘rganishning ta’siri katta. Bu bolalarning bilim qobiliyatini, akademik qiziqishini, madaniyatlararo tushunishni, global istiqbolni, muloqot qobiliyatlarini va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishi mumkin, bularning barchasi ilmiy fikrlashni rivojlantirish uchun ajralmas hisoblanadi. Til o‘rganishni qamrab olgan holda, bolalar ilmiy izlanishlarga yaxlit va xabardor yondashuvni rivojlantirishlari va ilmiy hamjamiyatda bilim va tushunishni rivojlantirishga mazmunli hissa qo‘shishlari mumkin. Bu bolaning ta’lim olishiga qo‘yilgan qimmatli sarmoya bo‘lib, bugungi kunda ham, kelajakda ham keng ko‘lamli foyda keltirishi mumkin. Chet tilini o‘rganishda yangi axborotni eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi, bu o‘qish vaqtini kamaytiradi. Buning ustiga, ko‘p til biladiganlar bir vaqtning o‘zida ko‘p vazifalarni bajarishga moyil bo‘ladi. Xorijiy tilni o‘rganish mohiyati - boshqa odamlar bilan muloqotdan iborat. Suhbatlashish malakalarini takomillashtirish uchun esa, yaxshisi, shu tilda so‘zlashuvchi yoki bu tilni allaqachon o‘rganib bo‘lgan kishilar bilan shug‘ullangan ma’qul. Xorijiy tilni o‘rganibgina, o‘z ona tilimizni ko‘proq qadrlay boshlaymiz. Unda bolalikdan gapirishni boshlaganimiz uchun, u qanday qurilgani haqida o‘ylamaymiz, ko‘pincha uning go‘zalligini anglamaymiz. Chet tillarini o‘rganish natijasida kommunikativ imkoniyatlaringiz kengayishi, nufuzliroq ishga kirish imkoniyatingiz oshishi, filmlarni va kitoblarni original tilda ko‘rish va o‘qish mumkin. Chet tillarini o‘rganishning bolaning dunyoqarashining o‘sishiga ta’siri zamonaviy dunyoda juda dolzarb bo‘lib, unda madaniyatlararo muloqot, global xabardorlik va madaniy sezgirlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til o‘rganishni qamrab olgan holda, bolalar o‘z nutqlarini kengaytirishlari, kengroq nuqtai nazarni rivojlantirishlari va yanada ochiq fikrli, empatik va global miqyosda vakolatli shaxslarga aylanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. T., 2022.

2. Sh.Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri – Toshkent: “O‘bekiston” nashriyoti 2022.

3. Ishmatov K. Pedagogik texnologiyalarni nazariy asoslari. Ta’lim muammolari, Toshkent. 1999.

4. B.M.Umarov, Psixologiya. “Voris-nashriyot”. T., 2012.

5. Badritdinova, M.B. (2019). THE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.

6. Badritdinova, M.B. (2019). COGNITIVE METHODS AND PERSON NATIONAL PECULIARITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1*(10), 380-386.

7. Badritdinova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR USLUBINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to'plami.

8. D.Abdullayeva "Shaxs intellektual kamolotida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari" "RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA UZLUKSIZ TA'LIM: INNOVATSIYA VA ISTIQBOLLAR XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA" ikkinchi jildi.

In the realm of education, the efficacy of teaching does not solely rest on the spoken word. Nonverbal communication plays a pivotal role in the teacher-student dynamic, influencing comprehension, engagement, and the overall learning environment. This article delves into the various nonverbal means at a teacher's disposal and underscores their significance during lessons.

Nonverbal communication encompasses a wide array of behaviors and signals, including facial expressions, gestures, posture, and even silence. Each of these elements can significantly enhance the transmission of knowledge and the emotional climate of the classroom. For instance, a teacher's smile can foster a warm, inclusive atmosphere, encouraging students to participate more freely. Conversely, a stern gaze can effectively manage classroom discipline without a word being spoken.

One of the primary benefits of nonverbal communication in teaching is its ability to clarify and reinforce verbal instructions. Gestures such as pointing to an object or diagram can help students focus their attention and better understand complex concepts. Similarly, varying one's tone of voice can emphasize important points or signal the transition between different segments of a lesson.

For example: *As Mrs Lee poses a question to the class – "What happens when you push against a wall?" – her eyebrows are raised in an expression of curiosity, inviting students to engage and think about the question critically.*

This specific moment in the classroom, where Mrs. Lee raises her eyebrows in an expression of curiosity while posing a question, is a powerful example of nonverbal communication in teaching. Let's break down the components and effects of this nonverbal cue:

Openness and Invitation	Raised eyebrows are universally recognized as a sign of openness and curiosity. By adopting this facial expression, Mrs. Lee nonverbally communicates to her students that she is genuinely interested in their thoughts and answers. This openness invites students to participate without fear of judgment, creating a safer learning environment.
Stimulating Engagement	The act of raising eyebrows, especially when paired with a thought-provoking question, serves as a visual cue that something interesting is at play. It naturally draws students' attention, piquing their curiosity in turn. When students see this expression, they understand that their teacher is not just looking for a rote answer but is encouraging them to think critically and engage with the concept on a deeper level.
Enhancing Communication	Nonverbal cues like facial expressions can enhance or even surpass verbal communication in effectiveness. In this instance, the raised eyebrows complement the verbal question, adding a layer of communication that emphasizes the importance of the query. This dual channel of communication (verbal and

	nonverbal) can help to ensure the message is more clearly received and understood.
Modeling Inquiry-Based Learning	By embodying curiosity through her facial expression, Mrs. Lee models the kind of inquiry-based thinking she wishes to instill in her students. She demonstrates that learning is not just about receiving information but actively questioning and exploring concepts. This modeling can encourage students to adopt a similar approach to learning, fostering a classroom culture of inquiry and exploration.
Feedback Mechanism	Mrs. Lee's facial expression also serves as a feedback mechanism. Students' reactions to her expression can give her immediate, nonverbal feedback on their engagement and understanding, allowing her to adjust her teaching strategies in real time. For instance, if students respond with their curiosity, indicated by similar facial expressions or leaning forward, she knows her approach is working. If not, she might try a different tactic to engage them.

The simple act of raising eyebrows while asking a question encapsulates the complexity and importance of nonverbal communication in teaching. It demonstrates how teachers can use facial expressions strategically to enhance learning, encourage student participation, and foster a positive and interactive classroom environment. This nonverbal cue, subtle yet significant, is one of many tools in an effective teacher's arsenal, contributing to the nuanced interplay of teaching and learning dynamics.

Another example from Uzbek language can prove the importance of nonverbal means during the speech:

Qushbegi javob berish o'rniga maktubni olib ko'rpacha ostig'a yashirdi va Kumushbibini tanbihladi: "Majlisda manim ruxsatimdan boshqa so'zlashingiz otangiz bilan eringizning o'limlarini tilashingizdir, tushundingizmi?" Kumush qabul ifodasini bergandan so'ng qushbegi dahlizda qarab turg'an qo'rboshig'a "Kirsinlar!" dedi (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

In the given example, it can be observed that Kumush gives a non-verbal answer to a verbal question (after giving an expression of acceptance), which, in turn, conveys his goal to the interlocutor and is characterized by the emergence of a communicative intention.

Teachers' nonverbal cues also play a critical role in conveying emotions and managing the classroom environment. Positive nonverbal feedback, such as nodding or smiling, can boost students' confidence and motivation. In contrast, negative cues, like crossing arms or avoiding eye contact, might inadvertently create a hostile or disengaged atmosphere.

It's crucial to acknowledge that nonverbal communication is heavily influenced by cultural norms and expectations. What constitutes respectful or attentive behavior in one culture might be interpreted differently in another. Teachers must be culturally sensitive, adapting their nonverbal communication to the diverse backgrounds of their students to ensure effective and inclusive teaching.

The importance of nonverbal communication in teaching cannot be overstated. It complements verbal communication, enriches the learning experience, and plays a critical role in classroom management and the emotional development of students. By mastering nonverbal cues, teachers can significantly enhance their effectiveness, creating a more dynamic, engaging, and supportive learning environment. As the educational landscape continues to evolve, so too must our understanding and utilization of these nonverbal dimensions. Moreover, the way a teacher dresses and their choice of personal items can also communicate nonverbally with students. Professional attire may convey authority and seriousness about the subject matter, while more casual attire could foster a relaxed and approachable atmosphere. However, this heavily depends on the school culture and age group of the students. Teachers who mirror the positive nonverbal behaviors of their students can create empathy and rapport. Mirroring can

include adopting similar postures, gestures, or facial expressions and has been shown to increase student engagement and comfort levels.

The nuanced understanding and strategic use of nonverbal communication means in teaching can significantly impact students' learning experiences and outcomes. As educators become more aware of and skilled in using these nonverbal cues, they can create more inclusive, engaging, and effective educational environments. Future research should continue to explore the intricate ways nonverbal communication influences teaching and learning, including the implications of digital and culturally diverse classrooms.

References

1. Richmond, V.P., & McCroskey, J.C. (2000).Nonverbal behavior in interpersonal relations.

2. Mo‘minov S., Rasulov Q. 2007. “Komunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida”. Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari, 70 – 72. Samarqand: SamDU.

3. Hall, E.T. (1966).The hidden dimension.

4. Morris, Charles William. 1970. The Pragmatic Movement in American Philosophy Hardcover. New York: George Brazille.

5. Qodiriy, Abdulla. 2018. O‘tkan kunlar. Toshkent: Sharq.

MA’RIFATPARVARLIK DAVRINING ASOSIY NAMOYONDALARI VA ULARNING TA’SIRI

Obilov Ilhom Odilboy og’li,
NamDU magistranti

Annotatsiya. *Ma'rifatparvarlik davri, XVIII – XIX asrlarda G‘arbda rivojlangan, aql-idrok va ilmiy bilimlarning ahamiyatiga urg‘u beruvchi intellektual harakatdir. Bu davrda Voltaire, Rousseau, Kant va boshqalar kabi fikr ahllari jamiyatning turli sohalarida muhim o‘zgarishlarni ilgari surdilar, demokratik qadriyatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynadilar.*

Kalit so’zlar: *ma'rifatparvarlik davri, xviii asr, xix asr, g‘arb dunyosi, intellektual harakat, inson aql-idroki, ilmiy bilimlar, ijtimoiy adolat, Voltaire, Jean-Jacques Rousseau, Immanuel Kant.*

Ma'rifatparvarlik davri, XVIII asrning o‘rtalaridan boshlab XIX asrning boshlarigacha davom etgan va G‘arb dunyosida keng tarqalgan intellektual harakat bo‘lib, inson aql-idrokining kuchiga, ilmiy bilimlarning ahamiyatiga va ijtimoiy adolatning ta'minlanishiga qaratilgan g‘oyalar bilan ajralib turadi. Ushbu davrda bir qator yorqin shaxslar paydo bo‘ldi, ularning ishlari va g‘oyalari zamonaviy jamiyatning rivojlanishida katta ta'sir ko‘rsatdi. Quyidagilar ma'rifatparvarlik davrining eng muhim namoyondalari va ularning ta'sirining asosiy jihatlari hisoblanadi:

Voltaire, ya'ni François-Marie Arouet (1694-1778), XVIII asr ma'rifatparvarlik davrining eng yorqin figuralaridan biri sifatida tanilgan. U nafaqat Fransiyada, balki butun Yevropada keng tarqalgan ijtimoiy va siyosiy masalalarga qarshi o‘tkir tanqid bilan tanilgan. Voltairening asarlari va fikrlari, o‘sha davr uchun juda ilg‘or bo‘lib, diniy dogmalarni, avtoritar hokimiyatni va ijtimoiy adolatsizlikni qattiq tanqid qilgan.

Voltairening eng mashhur asari "Candide" satirik romani, o‘sha davrdagi jamiyatdagi ko‘plab muammolarni, jumladan urushlar, adolatsizlik va irqchilikni fosh etadi. Bu asar, Leibnizning "Eng yaxshi mumkin bo‘lgan dunyolardan birida yashayapmiz" degan optimistik qarashiga qarshi yozilgan. Voltaire, asarda kechgan sarguzashtlar orqali, dunyodagi yomonlik va adolatsizliklarni inkor etmasdan, ularni anglash va ularga qarshi turish zarurligini ta'kidlaydi.

Voltaire diniy tolerantlikni qattiq himoya qilgan va diniy dogmalarning jamiyat ustidagi hukmronligiga qarshi chiqqan. Uning "Traktat diniy tolerantlik haqida" asari, diniy erkinlik uchun kuchli da'vatdir va XVIII asrning diniy ziddiyatlar bilan to‘la davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Voltaire, shuningdek, siyosiy erkinliklar va fuqarolarning hokimiyat ustidagi nazoratini ta'kidlagan, bu esa keyinchalik demokratik tuzumlarning rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatgan.

Voltairening g‘oyalari va asarlari, ma'rifatparvarlik harakatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida, zamonaviy demokratik va tolerantlik qadriyatlarining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Uning tanqid va satirasida ko‘tarilgan masalalar, bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Voltaire, jamiyatdagi adolatsizlik va irqchilikka qarshi kurashda fikrlar erkinligining muhimligini ta'kidlab, keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Voltairening merosi, adolat va erkinlik uchun kurashishning muhimligini eslatib turadi. Uning asarlari orqali ko‘tarilgan masalalar, hozirgi zamon jamiyatida ham teran fikrlash va tanqidiy munosabatni rag‘batlantiradi. Voltaire, o‘z davrida jamiyatning turli qatlamlariga ta'sir ko‘rsatgan va zamonaviy jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri bo‘lgan fikrlar erkinligini himoya qilishda davom etmoqda.

Jean-Jacques Rousseau (1712-1778), ijtimoiy shartnoma nazariyasi va tabiiy holat g‘oyasi bilan tanilgan Fransuz faylasufi va yozuvchisidir. Uning "Ijtimoiy Shartnoma" asari, jamiyat va davlat qurilishining asosiy tamoyillarini qayta ko‘rib chiqishga da'vat etadi. Rousseau, fuqarolik jamiyati yaratilishining asosida shaxslar o‘rtasidagi kelishuv yotadi deb hisoblaydi va bu kelishuv insonning tabiiy erkinligini himoya qilish uchun zarurdir. U, shuningdek, "Emile yoki Tarbiya haqida" asarida ta'lim va bolalikning tabiiy holatini ideal qilib ko‘rsatadi, bu asar zamonaviy ta'lim nazariyasiga katta ta'sir ko‘rsatgan.

Immanuel Kant (1724-1804), "Tanqidiy filosofiya" seriyasi orqali tanilgan Nemis faylasufidir. Kantning falsafasi, aql-idrokning chegaralari va bilimning asoslari haqida chuqur fikr yuritish bilan ajralib turadi. Uning "Aqlning tanqidi", "Amaliy aqlning tanqidi" va "Hukm qobiliyatining tanqidi" asarlari, zamonaviy falsafaning asosiy yo‘nalishlaridan birini belgilab berdi. Kant, shuningdek, "Axloqiy metafizikaning asoslari" asarida axloqiy imperativ va ma'naviy erkinlik tushunchalarini rivojlantiradi, bu esa zamonaviy axloqiy fikrning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Baron de Montesquieu (1689-1755), "Qonunlar haqida ruh" asari orqali tanilgan Fransuz siyosiy faylasufidir. Ushbu asarda Montesquieu hukumat shakllari va qonunlarning ruhini tahlil qiladi va hokimiyatni bo‘lish tizimini taklif qiladi. Uning ushbu tizimi, zamonaviy demokratik tuzumlarning asosiy tamoyillaridan biriga aylanadi. Montesquieu, hukumatning uchta tarmog‘i — qonun chiqaruvchi, ijrochi va sud hokimiyatining ajralishini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa hokimiyatning suiste'mol qilinishining oldini oladi.

Denis Diderot (1713-1784), "Ensiklopediya"ning asosiy muharriri sifatida tanilgan Fransuz faylasufi va yozuvchisidir. U va uning hamkorlari, jumladan d'Alembert, ilm-fan va san'atning turli sohalarida bilimlarni umumlashtirish maqsadida keng ko‘lamli asar yaratdilar. "Ensiklopediya", ma'rifatparvarlik g‘oyalarining Yevropa bo‘ylab tarqalishiga yordam berdi va o‘sha davrning ilmiy va madaniy yutuqlarini keng ommaga taqdim etdi. Diderotning ishlari, aql-idrok va tanqidni rag‘batlantiruvchi muhit yaratishda muhim rol o‘ynadi va zamonaviy ensiklopedik bilimlarning asosini qo‘ydi.

Ma'rifatparvarlik davri, G‘arb dunyosida ilmiy, ijtimoiy va siyosiy fikrning chuqur o‘zgarishlarini boshdan kechirgan bir davr sifatida tanilgan. Bu davrning asosiy xususiyatlari orasida ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash, fuqarolik erkinliklari va inson huquqlarining ilgarilashi muhim o‘rin tutadi. Ushbu davrda yashagan va faoliyat yuritgan namoyondalar, o‘zlarining ishlari orqali zamonaviy demokratiya va hukumat tuzumlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatdilar.

Jean-Jacques Rousseau va Baron de Montesquieu kabi fikr ahllari, fuqarolik jamiyati va hukumat tuzumlarining asoslarini qayta ko‘rib chiqish orqali, demokratik g‘oyalarni ilgari surdilar. Rousseau "Ijtimoiy Shartnoma" asarida, inson huquqlarini va umumiy irodani

ta'kidlagan bo‘lsa, Montesquieu "Qonunlar haqida ruh" asarida hukumat tuzumlarini tahlil qilgan va hokimiyatni bo‘lish prinsipini ilgari surgan. Ushbu prinsip, zamonaviy demokratik tuzumlar uchun asosiy tamoyil sifatida xizmat qiladi.

Immanuel Kant va Denis Diderot kabi fikr ahllari, ilmiy metod va aql-idrokning ahamiyatini ta'kidlab, zamonaviy fikrning rivojlanishida muhim rol o‘ynadilar. Kantning "Tanqidiy filosofiya" seriyasi, insonning bilim olishdagi chegaralari va axloqiy imperativlar haqida chuqur fikrlarni ilgari surdi. Diderot esa, "Ensiklopediya" orqali ilm-fan va san'atning turli sohalarida bilimlarni umumlashtirishga hissa qo‘shdi, bu esa ma'rifatparvarlik g‘oyalarining keng tarqalishiga yordam berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Besterman, T. Voltaire. New York: Russell & Russell, 1969.
2. Diderot, D. Encyclopédie, ou dictionnaire raisonné des sciences, des arts et des métiers. Paris: Briasson, David, Le Breton, Durand, 1751-1772.
3. Kant, I. Critique of Pure Reason. Translated by N.Kemp Smith. New York: St. Martin's Press, 1965.
4. Montesquieu, Baron de. The Spirit of the Laws. Translated by T.Nugent. New York: Cosimo Classics, 2008.
5. Pearson, R. Voltaire Almighty: A Life in Pursuit of Freedom. London: Bloomsbury Publishing, 2005.
6. Rousseau, J.-J. The Social Contract. Translated by M. Cranston. London: Penguin Classics, 1968.
7. Voltaire. Treatise on Tolerance. Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

IMPORTANCE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TRAINING SPECIALISTS

Mukhtoralieva M.A.,
doctoral student of NamSU.
E-mail: muxtasar.muxtoraliyeva17@mail.com
phone:+998999232917

Annotation. *This article talks about the role of innovations in education, main goals, criteria, and pedagogical innovations in the educational process. In interactive educational technologies, the teacher and the audience, as well as the role of information, its impact on teaching, as well as some forms and methods of interactive educational technologies are also considered.*

Keywords: *innovations, scientific skills, education, interactive learning technologies, problem-based lectures, seminar-debate, the knowledge control system, brainstorming, didactic games.*

Currently, more attention is being paid to innovations in the educational process. Innovations in pedagogical activities, like in production, primarily mean novelties, updates, and changes to existing pedagogical technologies used in educational and developmental processes. Innovations, or novelties, are characteristic of many professional human activities and therefore naturally become the subject of study, analysis, and implementation. Innovations themselves do not arise; they are the result of scientific research, advanced pedagogical experience of individual workers and entire teams. This process has different characteristics but is often managed. The aims of innovation in education are:

- Ensuring a high level of intellectual-personal and spiritual development of the student;
- Creating conditions for mastering scientific thinking skills;

- Teaching the methodology of innovations in social-economic and professional spheres;

- Forming a sustainable interest in the chosen profession, as well as in innovative initiative [1].

The main criterion of innovation is novelty, which is equally related to the evaluation of scientific pedagogical research and advanced pedagogical experience. Therefore, for a teacher willing to engage in the innovation process, it is very important to determine the essence of the proposed novelty and its level of novelty. What may be genuinely new to one person may not be so for another. In this regard, it is necessary to approach the involvement of teachers in innovative activities considering voluntariness, personal characteristics, and individual-psychological characteristics. The possibility of creative application of innovation in mass experience is considered a criterion for evaluating pedagogical innovations. In reality, if a valuable pedagogical idea or technology remains within narrow, limited application, determined by the characteristics and complexity of technical support or the specificity of the teacher's activity, then it is hardly possible to speak of pedagogical innovation in this case. Innovation is a complex of interconnected processes and is the result of conceptualizing a new idea aimed at solving a problem and further practical application of the new phenomenon. Pedagogical innovations in the educational process may include: the content of educational material, technical means, pedagogical technologies, etc. Let's focus more on innovative technologies. Innovative learning technologies include interactive learning technologies, project-based learning technology, and computer technologies.

The traditional educational process at the university provides students with academic knowledge, but the connection of this knowledge to specific professional activities occurs episodically, for example, during coursework, pre-diploma, or industrial practice. Thus, mastering real professional knowledge and qualities by the student in these conditions is a complex process. Innovative education, on the other hand, is focused on forming professional knowledge and qualities in the process of mastering innovative dynamics, for example, in the process of mastering typical innovations through an electronic reader, where typical innovations demonstrating the development of this professional sphere of activity are presented, and professional tasks of an integral type are collected. Thus, the concept of professionalism becomes an integral quality of the graduate, which he synthesized himself in the process of his education. The student's awareness of himself as a professional affects the outcome of the educational process since it activates the motivation for self-development, which, in turn, turns the learning process into a source of satisfaction for the needs of the developing individual.

In interactive learning technologies, the roles of the instructor and students, as well as the role of information, undergo significant changes.

Problem-based lectures involve presenting a problem or problematic situation and subsequently resolving them. Contradictions of real life are modeled through their expression in theoretical concepts during problem-based lectures. The main goal of such lectures is for students to acquire knowledge through their direct active participation. Among the modeled problems may be scientific, social, professional, related to specific educational material. Presenting the problem stimulates students to engage in active cognitive activity, attempt to independently answer the posed question, generates interest in the material presented, and activates students' attention.

A seminar-debate involves collective discussion of a problem with the aim of determining ways to achieve its reliable solution. The seminar-debate is conducted in the form of dialogical communication among its participants. It requires high intellectual activity, fosters the ability to engage in debate, discuss issues, defend one's views and beliefs, and express thoughts succinctly and clearly. The roles of the participants in the seminar-debate can vary.

Educational discussion is one of the methods of problem-based learning. It is used when analyzing problematic situations that require providing a simple and unambiguous answer to a question, while alternative answers are assumed. To involve all participants in the discussion, it is advisable to use cooperative learning methodology. This methodology is based on mutual

learning during collaborative work in small groups. The main idea of educational cooperation is simple: students combine their intellectual efforts and energy to perform a common task or achieve a common goal (for example, finding solutions to a problem) [2].

The technology of group work in educational cooperation can be as follows:

- Problem setting;
- Formation of small groups, distribution of roles within them, explanations by the teacher about the expected participation in the discussion;
- Discussion of the problem in microgroups;
- Presentation of the discussion results to the entire student group;
- Continuation of the discussion and summarizing.

"Brainstorming" aims to collect as many ideas as possible, release students from the inertia of thinking, activate creative thinking, and overcome habitual thought processes when solving a given problem. "Brainstorming" significantly increases the effectiveness of generating new ideas in a student group.

Didactic games serve as an important pedagogical tool for activating the learning process. Knowledge assimilation control is carried out with the aim of students successfully mastering the educational material and the teacher effectively using teaching methods. Knowledge control allows adjusting and improving the learning process, implementing an individual approach to learning, and monitoring the progress of knowledge acquisition and student success. The knowledge control system includes the following types of control: operational (current), or lesson-by-lesson, i.e., carried out during the lesson and at its end; thematic - conducted after completing a topic; boundary – after completing a section of the course or group of topics; final - after completing the entire course or subject[3].

Oral control occupies a significant place in the learning process, i.e., oral answers from students during questioning. Written control is conducted in the form of written tests. Written tests are used for boundary and final control. Evaluating students' knowledge is necessary for the teacher as an indicator of individual learning success for each student, and considering current grades for managing the learning process. The main indicators of the level of knowledge are meaningfulness, correctness, volume, accuracy, strength, systematicness, effectiveness.

References.

1. Ishmatov Q. Advanced pedagogical technologies. Namangan 2004.
2. Mukhtoralieva M., Rakhmonov S., Ganiev A. The essence of teaching based on the competence approach to the higher education process // Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B. 7.
3. Mukhtasar M. Improving the methodology of teaching virtual lessons on the basis of modern digital technologies // Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2021. – T. 1. – №. 1.

AMALIY SAN'AT DARSLARIDA TALABALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING BADIIY TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTDAGI HOLATI

Xoshimova Umida Talat qizi,
Nizomiy nomidagi TDPUning mustaqil tadqiqotchisi
(90) 984-88-08

Annotatsiya. *Pedagogika oliy o'quv yurtlarida falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya, matematika va boshqa fanlardan saboq beriladi. Lekin ular har bir soha ixtisoslik fanlariga moslashtirilgan tarzda o'qitilmaydi. Shu qatorda, mantiq fani barcha sohalar kabi pedagogika universitetlarida ham o'rgatiladi, lekin o'sha mutaxassislikni o'ziga xos tomonlari hisobga olinib o'rgatilishi lozim.*

Аннотация. *В педагогических вузах преподаются философия, этика, эстетика, логика, психология, математика и другие предметы. Но их преподавание не адаптировано к каждой области специализации. Кроме того, в педагогических вузах преподают науку логику, как и все направления, но преподавание этой специальности должно осуществляться с учетом ее особенностей.*

Abstract. *Philosophy, ethics, aesthetics, logic, psychology, mathematics and other subjects are taught in pedagogical universities. But they are not taught in a way that is adapted to each field of specialization. In addition, the science of logic is taught in pedagogical universities, like all fields, but this specialty should be taught taking into account its specific aspects.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, islohotlar, mantiq, badiiy tahlil, tafakkur, fikrlash qobilyati, mantiqiy fikrlash, rivojlanish, ta'lim metodlari.*

Ключевые слова: *образовательная система, реформы, логика, художественный анализ, мышление, умение мыслить, логическое мышление, развитие, методы обучения.*

Keywords: *educational system, reforms, logic, artistic analysis, thinking, ability to think, logical thinking, development, educational methods.*

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim mazmunini umuminsoniy qadriyatlar va xalqimizning tarixiy-madaniy an'analari asosida tashkil etishga keng yo'l ochib berdi. Natijada ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Ayni paytda ular takomillashtirilmoqda, modernizatsiya qilinmoqda. Komil inson g'oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Zamonaviy dunyoda bilimli, yuqori malakali aholi bir mamlakat uchun muvaffaqiyatning kaliti ekanligini e'tirof etgan rus jurnalist va yozuvchisi G.S.Petrovning ta'kidlashicha, Finlandiya ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida shuni ko'rish mumkinki, mamlakatda ta'limning sifatining yuqori darajaga qo'yilishi, mamlakatni bir zamonlar botib qolgan "botqog'i"dan qutilib chiqqaniga guvoh bo'lishimiz mumkin.[1]

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya, matematika va boshqa fanlardan saboq beriladi. Lekin ular har bir soha ixtisoslik fanlariga moslashtirilgan tarzda o'qitilmaydi. Professor S.S Bulatov tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida kompozitsiya, amaliy san'at, naqqoshlik, chizmatasvir, rangtasvir, san'at tarixi va boshqalar bilan birga tarix, oliy matematika, mantiq, falsafa, psixologiya, etika kabi umumkasbiy fanlar o'qitiladi. Lekin ularda umumkasbiy fanlar tasviriy va amaliy san'at fanlari bilan uyg'unlikda bog'lab o'rgatilmaydi.[2]

[1] G.Petrov. Oq nilufarlar yurtida. Inglizchadan N.Sultonmurodov tarjimasi. Faktor press. Toshkent, 2021.
[2] Булатов С.С., Соипова М.С. "Бадиий таҳлил тамойиллари", "Фан ва технология" нашриёти, Т., 2016. 262 б.

Shu qatorda, mantiq fani barcha sohalar kabi pedagogika universitetlarida ham o'rgatiladi, lekin o'sha mutaxassislikni o'ziga xos tomonlari hisobga olinib o'rgatilmaydi. Shuning uchun ham, tayyorlayotgan kadrlarimizda maxsus fanlar bo'yicha mantiqiy fikrlash, mushohada yuritish yetarli darajada shakllanmoqda deya olmaymiz. Bu holni oddiy savol-javoblardan ham bilib olishimiz mumkin. Badiiy iqtisoslikka yo'naltirilgan kadrlarning kasbiy sifatini yanada oshirish maqsadida o'quv rejadagi falsafaga ajratilgan soatlarning muayyan qismini mantiq faniga ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir ixtisoslikka mantiqni shu fan yo'nalishi bilan bog'lab, uzviy aloqadorlikda o'qitish kerak. Buning uchun dars beruvchi mutaxassis rassom-faylasuf, amaliy san'at ustasi-faylasuf, tilshunos-logik, musiqashunos-logik, ximik-logik iqtisoslik tafsilotlarini yaxshi bilgan mutaxassis bo'lishi lozim. Shunda, o'qituvchi ustoz o'z talabasiga Amaliy san'atning qonun va kategoriyalarini amaliy bezak san'ati misolida teran tahlil qilib bera oladigan bo'la oladi.

Mantiq – bu fikrlash haqidagi fan. Fikrlash bundan tashqari psixalogiya, oliy nerv tizimi fiziologiyasi va boshqa sohalarning asosiy tshunchasi hisoblanadi. Xo'sh, nima sababli fikrlash mantiq faninig asosi hisoblanadi? Sababi, mantiq fikrlash tizimi va tafakkur rivojlanishi, asosiy qoidalari va metodlari, hamda asosiy qonunlarini o'rganadi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy esa shunday deb yozadi: "Inson nutqqa ega bo'lgan va o'zining muxoliflari bilan dunyoviy va oxirat ishlari haqida bahs-munozara yuritganligi sababli o'z so'zlarida "mezonga" muhtoj bo'ldi. Gap o'z zoti bilan rostni ham, yolg'onni ham o'z ichiga olish ehtimoli borligidan mezon yordamida uni izchil tekshirish va shu yo'sinda uning shubhali yerini tuzatish kerak bo'lgan. Zeroki, bu bilan mubohasalarda so'zlardan tuzilgan sillogizmlarning kishini adashtiruvchi yolg'oni ham, haqiqatni ochuvchi rosti ham ayon qilingan. Inson shu mezonni topdi. Uni mantiq deyiladi."[1]

Antik davrda mantiqqa "organon", ya'ni bilimlarni asoslash quroli deb qaralgan bo'lsa, o'rta asrlar Yaqin va O'rta Sharq mantiqshunoslari uni "chin fikrni yolg'ondan ajratib ko'rsatuvchi tarozu" deb bilganlar. Abu Homid G'azzoliyning mantiqqa bag'ishlangan asarini "Al-qustas al-mustaqim", ya'ni "to'g'ri tarozu" deb nomlanishi fikrimizni tasdiqlaydi. O'rta asrlar Yevropa mantiqshunoslari uni "kashfiyotlar qilish usuli" sifatida talqin qilganlar.

Nemis mantiqshunos olimi I.Kant esa mantiqni "kanon", ya'ni fanlarni o'rganish qonunlarini beruvchi fan deb ta'riflagan. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o'rni va unda o'rganadigan masalalar doirasidan kelib chiqib, uni "propedevtika", ya'ni boshqa fanlarni o'rganishga tayyorlovchi fan deb atash mumkin.[2]

Demak, mantiqni boshqa fanlarni o'rganishga tayyorlovchi fan deb qaraydigan bo'lsak, albatta, tasviriy san'at va amaliy san'at darslari jarayonida talabalarga tasviriy san'atni mantiq faniga bog'lagan holda o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi desa bo'ladi. Amaldagi o'quv rejani ko'radigan bo'lsak, Mantiqga Falsafa fani tarkibida 6 soat ajratilgan. Bu ajratilgan dars soati faqat 1 bosqich talabalariga tegishli. Qolgan bosqichlarda Mantiq faniga soatlar ajratilmagan. Achinarlisi, pedagogika universiteti "Professional ta'lim" fakulteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabalarining badiiy estetik kompanentini rivojlantirishda mantiq faniga 4 yillik o'quv jarayonida bor yo'g'i 6 soatlik dars soati ajratilganidadir.

Mantiq va tasviriy san'atning o'zaro aloqadorligini tahlil etgan falsafa fanlari nomzodi, dotsent D.N.Demenov tadqiqotlariga ko'ra, badiiy jarayonda mantiqnining mohiyati "buni shunday qilish kerak" yoki "boshqa yo'l bilan emas", balki jarayonning o'zgaruvchanligiga qarab o'zgaruvchan bo'lishi mumkinligida ifodalanadi. U o'rganilayotgan san'atning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlariga qarab farq qilishi mumkin. Mantiq badiiy taraqqiyot bosqichida har xil bo'lishi mumkin: makrodarajada badiiy jarayon – badiiy obrazlarning shakllanish mantig'iga; makro darajasiga – keng qamrovli badiiy uslublar va yo'nalishlarda mujassamlangan ko'plab formal yechimlar. Mantiq dunyoni ongli va ongsiz ravishda aks ettirish,

[1] Абу Райхон Беруний. Геодезия. Т., 1982. – Б. 64.
[2] Mamadiyeva N.X. Falsafa (Mantiq qismidan). O`quv uslubiy qo`llanma. – T.: ToshDTU, 2021. – 79 b.

shuningdek, san’atda o’z-o’zini namoyon qilish – ko’p qirrali badiiy jarayonning xilma-xilligining kichik bir qismidir.

D.N.Demenyov o`z tadqiqotlarida mantiq va tasviriy san`atning bog`liqligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Estetik mantiq – rangdan mantiqning umumiy qismi sifatida foydalanmoqda. Estetik mantiq – bu rassomda asarining shakl va mazmuni o’rtasidagi munosabatda ifodalanib, vaqt omili orqali o’zini namoyon qilish faoliyatidir. Bu mantiq badiiy jarayonning o’zgaruvchanligiga qarab o’zgaruvchan bo’lishi mumkin”.[1]

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda tasviriy va amaliy san’at yo’nalishlarida mantiq fani tasviriy san’at va amaliy san’atga bog’lab dars jarayonlari tashkil etilgan va bu borada maqolalar yozilib, ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi talabalariga mantiq fani nafaqat tasviriy san’at va amaliy san’at darslari jarayonida, balki muhandislik grafikasi yo’nalishida ham nuqtalarning fazoviy koordinatalarini belgilashda, binolarning inter’er va ekster’erini chizishda ham muhim bo’lak hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu yo’nalish bitiruvchilari badiiy va amaliy ijod bilan shug’ullanishlari uchun mantiqiy tafakkurlari rivojlangan bo’lsa yaratgan san’at asarlari kolorit va serma’no yechimlarga ega kompazitsiyaga aylanishi mumkin. Hamda, mantiqiy fikrlashi rivojlangan talabalar tasviriy va amaliy san’at asarlarini mazmun mohiyati, ortida yashirilgan sir-asrorlarini falsafiy g’oya sifatida tahlil qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Абу Райхон Беруний. Геодезия. Т., 1982. – Б. 64.

2. Булатов С.С, Соипова М.С. “Бадиий таҳлил тамойиллари”, “Фан ва технология” нашриёти, Т., 2016. – 262 б.

3. Mamadiyeva N.X. Falsafa (Mantiq qismidan). O’quv uslubiy qo’llanma. – T.: ToshDTU, 2021. – 79 b.

4. G.Petrov. Oq nilufarlar yurtida. Inglizchadan N.Sultonmurodov tarjimasi. “Faktor press”. Toshkent, 2021.

5. Д.Н.Деменёв. Кандидат философски хнаук доцент, О логике художественного процесса. Статья из рубрики "Философия и искусство", 2017.

6. Свинцов В.И. Логика: Учеб. для вузов. – М.: Висш.шк., 1987. – 287 с.

7. Ю.В.Ивлев Логика: учеб. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: ТК Белби, Изд-во И25 Проспект, 2005. – 288 с.

O’QUVCHI YOSHLARGA DIZAYN VA MODELLASHTIRISH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR BERISH. (SAVAT, QUTILARNI BEZASH TEXNOLOGIYASI)

Xudoyqulov Shavkatbek Soyibjonovich,
Namangan davlat pedagogika instituti dotsent, PhD
Masalbekova Shaxruzabonu Sanjarbek qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti TXT_AU-22 talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola o’quvchi yoshlarni bugungi kunda dunyoqarashini yanada kengaytirib turli buyumlar shakli va ko’rinishini o’zgartirib, ularni yanada nafis va ko’rkamroq qilishga yo’naltirilgan. Dizayn moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini qamrab oladi va yangi turdagi zamonaviy moddiy madaniyat-loyihalashtirish madaniyatini asosiy badiiy loyihalashtirish metodi hisoblanadi. Dizayn ta’limni rivojlantirishda amaliy darslarni olib borish jarayonlarida zamonaviy texnologiya va metodlarni, milliy an’anaviy liboslar tarixiga*

[1] Д.Н.Деменёв. Кандидат философских наук доцент, О логике художественного процесса. Статья из рубрики "Философия и искусство", 2017.

suyangan holda amalga oshirish, kelajakdagi o'sib kelayotgan avlodlarga ham tarixiy, ham zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega dizayner qilib shakllantirishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: *dizaynerlik, dizayn ta'limi, modellashtirish, ijod, libos, mashina, dastgoh, kiyim, kostyum, badiiy ijodkorlik, ijodiy faoliyat.*

Аннотация. *Данная статья направлена на расширение мировоззрения современных юных читателей, изменение формы и внешнего вида различных предметов, делая их более изящными и привлекательными. Дизайн охватывает все области материального производства и является основным методом художественного оформления нового типа современной материальной культуры – дизайнерской культуры. В процессе проведения практических занятий по развитию дизайнерского образования мы можем внедрять современные технологии и методы, основанные на истории национального традиционного костюма, и формировать у дизайнеров как исторические, так и современные знания и навыки для будущих поколений.*

Ключевые слова: *дизайн, дизайнерское образование, моделирование, творчество, платье, машина, станок, одежда, костюм, художественное творчество, творческая деятельность.*

Abstract. *This article is aimed at expanding the worldview of modern young readers, changing the shape and appearance of various objects, making them more elegant and attractive. Design covers all areas of material production and is the main method of artistic design of a new type of modern material culture – design culture. In the process of conducting practical classes to develop design education, we can introduce modern technologies and methods based on the history of national traditional costume, and develop designers with both historical and modern knowledge and skills for future generations.*

Key words: *design, design education, modeling, creativity, dress, machine, machine, clothing, costume, artistic creativity, creative activity.*

Mana ko'p yillarki dizaynerlar ijod manbasi sifatida milliy liboslardan foydalanishadi. Dizayn va uning kelib chiqishi haqida ko'plab maqolalar, risolalar yozilgan bo'lsada uning dastlabki nuqtalariga tarixiy haqqoniylik nuqtai nazaridan uzil-kesil oydinlik kiritilmagan. Liboslar ham individual modellarni ham bir nechta liboslardan iborat to'plamlarini yaratib, o'z ijodlarini yaratib kelmoqdalar. Dizaynda badiiy ijodkorlik, ijodiy va ijodiy faoliyat katta ro'l o'ynaydi, bu insonning ma'naviy rivojlanishiga doimiy ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Dizayn – amaliy darslarida libosning umumiy ma'lumotlari tahlili olib boriladi:bichimi, matosi, qayerga kiyishga mo'ljallanganligi va albatta qaysi region va mavsumga mosligi. Dizayn ta'limi muammosi bo'yicha manbalarni tahlil qilish, ya'ni muammoning dolzarbligini asoslash, psixologik anglab yetish, dizaynni o'qitishda to'plangan tajribalarini umumlashtirish, dizaynni faol ijodkorlik shakli sifatida qaralishiga, dizayn asoslarini o'rganish natijasiga esa yangi ijtimoiy-muhit dunyoqarashi deb hisoblanishiga asos bo'ladi. Dizaynerlikda liboslardan tashqari yana boshqa buyumlarni ko'rinishini,shakllarini turli xil nafis,ixcham qilib modellashtirish ham kiradi.

Dizayn (inglizcha: *design* – "loyiha", "chizma", "rasm") – narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi termin. Dizayn faoliyati tarkibiga keng iste'mol buyumlari, mashina, dastgoh, kiyim, reklama va o'rov materiallari, ishlab chiqarish, jamoat va turar joy binolarini jihozlash, mebel va boshqalar kiradi. Dizayn 20-asr boshlarida yuzaga kelib, 1930-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G'arbiy Yevropa va AQShda shakllandi. 1980-yil 2-yarmidan dizaynning faoliyat doirasi kengaydi. Dizaynerlar rassom sezgisi bilan birga ilmiy fanlar (masalan, materialshunoslik, rangshunoslik va boshqa) ga tayanadi, ishlab chiqarish jarayoni va sharoitlari, sotsiologiya va boshqa bilimlarga ega bo'lishi lozim. Dizayn sohasidagi mutaxassislar maxsus oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi. Jumladan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ham interyerlar va sanoat grafikasi, libos dizayn bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Dizayn tafakkuri bu ko'nikmalar to'plamiga asoslangan muammolarni hal qilishning innovatsion jarayoni. Ushbu yondashuv bir necha o'n yillar davomida mavjud bo'lib, lekin u faqatgina 2008 yilgi Garvard Business Review jurnalining IDEO dizayn kompaniyasi rahbari va prezidenti Tim Braunning "Dizayn tafakkuri" nomli maqolasidan so'ng dizaynerlik jamiyatidan tashqarida o'z kuchini topa boshladi.

Yuqori darajada, dizaynni o'ylash jarayonida ishtirok etadigan qadamlar oddiy: birinchidan, muammoni to'liq anglash; ikkinchidan, mumkin bo'lgan yechimlarning keng doirasini o'rganish; uchinchidan, prototip yaratish va sinovdan o'tkazish orqali keng takrorlash; va nihoyat, odatiy joylashtirish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Ushbu qadamlar bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar odamlarga ijodkorlikda real hayotdagi muammolarni o'zlaridan ko'ra yaxshiroq samarali hal qilishda yordam beradi. Ular osongina o'rganilishi mumkin, ammo kuch sarflangan. Masalan, muammoni tushunishga harakat qilayotganda, o'zingizning taxminlaringizni chetga surib qo'yish juda muhimdir. Bir marta o'rganilgan ushbu usul hatto kundalik hayot muammolarida ham qo'llanilishi mumkin. Har qanday kostyum vaqt o'tishi bilan noyob ma'lumot manbai hisoblanadi. Xalqlarning milliy liboslari yilma-yil o'zgarish prinseplari translyatsiyasini kelajakdagi avlodlarga noyob ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Dizaynda badiiy ijodkorlik va ijodiy faoliyat katta rol o'ynaydi, bu insonning ma'naviy rivojlanishiga doimiy ehtiyoji borligini ko'rsatadi.

Buyumlar olamini loyihalash bilan shug’ullanadigan kishi o’zining pirovard maqsadida chiroyli buyum yaratishga xarakat qilar ekan, birinchi navbatda mazkur buyumning estetik qiymati nimadan iborat ekanligini bilish lozim.





Dizaynerlar turli buyumlar shakli va ko’rinishini o’zgartirib, ularni yanada chiroyliroq, nafisroq qilib yaratishga harakat qiladi. Masalan, oddiy quti va savatlarni turlicha shakllarda yasab va bezab, har xil turlarini yaratish mumkin. Modellashtirishda asosan bezatish yo’li bilan ularning yangi modellari yaratiladi. Hozirda buyumlarni bezatishda ishlab chiqarilayotgan yarimtayyor bezak mahsulotlari (tasmalar, gullar, to’r, toshlar, nozmunchoqlar) dan foydalaniladi. Gazlamadan ham turli gul, barglar tayyorlab, sovg’a uchun savat va qutilar bezatiladi. Savatlarni turli usullarda va turli xomashyolar yordamida qoplab bezash mumkin. Masalan: tayyor qutilarni gazlama, oddiy rangli va yaltiroq qog’ozlar yordamida qoplab, bezatish mumkin. Qutilarimiz yanada chiroyli chiqishi uchun yarimtayyor bezak matolaridan foydalaniladi.





Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Z.Sattarova, N.Abdusalomova, N.Ahmedova. Texnologiya Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik Toshkent: “O’ZBEKISTON”, 2019.
2. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007.
4. N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolieva “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik”. Toshkent, 2016.
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
6. Komilova X.X., Vohidova U.A. "Loyihalash", OO'Yu uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya.

MUSIQA O’QITUVCHISI – ZAMONANING YUKSAK MADANIYAT SOHIBI

Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna,
JDPU katta o’qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarni samarali va sifatli olib borishda musiqa o’qituvchilarining yuksak bilim, malaka va iqtidorlarini orttirish, o’qituvchining pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligiga o’z ta’sirini o’tkazish, metodik tayyorgarlikka asos bo’ladigan mi’yoriy bilim va maalaka majmuasi ko’rsatilgan.*

Kalit sozlar: *yaxlitlik, vosita, metod, kontseptsiya, innovatsion, ritmik harakatlar.*

Yangi O’zbekistonni yangicha boshqarish ijtimoiy va iqtisodiy sohalardan yangicha innovatsion g’oyalar ilgari surilayotgan bir paytda ta’lim sohasidagi yangiliklar va o’zgarishlar bugungi kun ta’lim sohasida faoliyat ko’rsatayotgan pedagog xodimlar oldiga ham talaygina vazifalar va o’z ustilarida tinimsiz ish olib borish masuliyatini yuklaydi. Ayniqsa madaniy sohada ish olib borayotgan ma’naviy ma’rifiy soha vakillari va musiqa o’qituvchilari ilg’or va tezkorlik bilan o’sib kelayotgan yosh avlodga talab darajasidagi bilim va ko’nikmalarni berish uchun o’zlarini tayyorlashlari zarur.

Ma’lumki, g’oyaviy-siyosiy yetuklik ilmiy-metodik tayyorgarlikning tarkibiy qismi bo’lgan metodologik bilim, ko’nikma va malakalarga asos bo’lib xizmat qiladi. Ijtimoiy va ijodiy faollik o’qituvchining o’z kasbiy tayyorgarligini muntazam orttirishi, yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo’lgan o’qituvchining pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligiga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Musiqa o’qituvchisining metodik tayyorgarligiga asos bo’ladigan me’yoriy hujjatlar bilim, ko’nikma va malakalar majmuasi:

– ta’lim-tarbiya jarayonining yaxlitligi, ta’lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini tasavvur qilishi;

– musiqa bo’yicha darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakllari va mazkur mashg’ulotlarni tashkil qilish yo’llarini;

– umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini;

– yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti va o’quv dasturining amaldagi DTS va dasturdan farqini;

– umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib qoidalarini bilishni;

– umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o’quvchilarni kasbga yo’llash ishlarining tartibi, maqsad va vazifalari haqida ma’lumotga ega bo’lishi, musiqa yo’nalishida kasbga yo’llash ishlarini olib borishni;

– musiqani chuqur o’zlashtirishga ixtisoslashgan maktab yoki sinflarda qo’llanilayotgan dastur, ta’limiy va tarbiyaviy ishlarning mazmun-mundarijasi, DTS, mazkur ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishga qo’yiladigan didaktik talablar, shakl va usullarini;

– musiqani o’qitish jarayonida o’quvchilar qalbi, ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini;

– musiqani o’qitish jarayonida o’quvchilarni huquqiy, iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigienik tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilishi va amaliyotga qo’llay olishni;

– zamaonaviy axborot kommunikatsion texnologiya vositalarni dars jarayonida qo’llay olish mahoratiga ega bo’lishi;

– musiqani o’qitish jarayonida o’quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik printsiplari va ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning mazmuni, metodlari va shakllarini bilish va amaliyotga qo’llay olishni;

– musiqadan o’quv dasturi, DTS, darsliklar va o’quv-metodik qo’llanmalarni tahlil qilishni;

– musiqani o’qitish kontseptsiyasi, metodik yondashuvlar asosida o’quv jarayonini tashkil eta olishni;

– musiqa o’quv fanining asosiy g’oyalari, maqsadi va vazifalari, shuningdek, boblar, mavzularning maqsadi va vazifalarini aniqlay olishni;

– musiqani o’qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llay olishni;

– o’quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini bilishi va olingan natijalarni tahlil qila olishi, baholash tizimini mukammal bilish va qo’llay olishni;

– musiqa darslariga qo’yiladigan didaktik talablardan xabardor bo’lishi, ularni kuzatish va tahlil qilish malakasini o’zlashtirishni;

– musiqa o’qituvchilarining ilg’or ish tajribalarini aniqlashi va ularni o’zlashtira olishi hamda amaliyotga qo’llash malakasiga ega bo’lishi;

– musiqa o’quv xonalari, laboratoriyalarini namunaviy jihozlash, tegishli me’yoriy hujjatlarni bilishi, jihoz, ko’rgazmali vosita, didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash, saqlash, butlash va boyitish yo’llarini bilishi, ulardan samarali foydalangan holda o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish va o’tkazish tajribasiga ega bo’lishi lozim.

Dars samaradorligini oshirishda o'qituvchiga tayyorgarligi yaxshi bo'lgan o'quvchilarga va musiqa sohasida muvafaqqiyat qozongan iqtidorli sinflar uchun dastur talabini bir oz oshirish huquqi berish muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda o'quvchilaraga yakka tartibda musiqa o'rgatish, tashkillashtirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchiligini ham jalb etish lozim. O'qitish davrida musiqa sohasida muntazam ravishda ish olib borilishi natijasida o'quvchilar musiqa savodiga ega bo'lib, musiqani sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, konsertlarni, radio va televideniye orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo'yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan

kishilar bo'lib yetishadilar. Bu tadbirlarni amalga oshirishda sinf rahbarlari va ota-onalar musiqa o'qituvchisiga yaqindan yordam berishlari zarurdir. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida zamonaviy texnik vositalar: DVD, MP-3, televizor, kompyuterlardan foydalanib musiqiy darslarni tashkil etish, texnika yangiliklaridan hamda ijtimoiy fanlar pedagogika, xususiy mutaxasislik bo'yicha ilg'or texnologiyalar asosida darslarni olib borish ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, bugungi kun ta'limi oldida qo'yilgan zamonaviy talablardan yana biri musiqa o'qituvchilarining kasbiy mahoratida psixologik bimdonligi, savodxonligi va madaniyatini o'zliksiz oshirib borishdan iboratdir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini tashkil etishda ya'ni jamoa bo'lib kuylashi, musiqa tinglashi, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishi va musiqiy ritmik xarakatlar bajarishida asosan yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olish, rag'barlantirishning o'ziga xos psixologik mexanizimidan foydalanish, idrok etish qobiliyati, eshitish xotirasini mashq qildirish, fikrlash va ijodiy yondovushini yo'naltirish o'qituvchining darsni psixologik talablarga asosan tashkil etishiga ko'p jihatdan bog'lidir.

Musiqa madaniyati darslariga psixologik nuqtai nazar bilan qaraganda, darsning asosiy vazifasi va qator maqsadlarini samarali amalga oshirish musiqa o'qituvchisidan jismoniy, ijodiy mehnat, astoydil kuch-quvvat, his-tuyg'u va irodaviy zo'r berishni talab etadi. Amalyot shuni ko'rsatadiki, barcha musiqa o'qituvchilari ham maktabda o'quv-tarbiyaviy ishlarni, darslarning maqsad va vazifalarini bir xilda tushunmaydilar.

Aslida o'qituvchi o'z diqqatini o'quvchi shaxsining qabul qilish xususiyatlariga, diqqati faolligiga, darsning didaktik tomoniga, o'quvchining ma'lumotlilik darajasiga qoniqish doirasiga, musiqa o'qitishning usullarini va optimal metodlarini tanlashga va boshqalarga jalb qilmog'i muhimdir.

Yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo’lgan mutaxassis sifatida o’zida ijtimoiy va ijodiy faollik, g’oyaviy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy yetuklikni mujassamlashtirsa, yuqori malakali raqobatbardosh pedagog sifatida respublikaning iqtisodiy tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlash ishida o’zining munosib hissasini qo’sha oladi. Pedagog kadrlarning ijtimoiy va ijodiy faolligi, g’oyaviy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy yetukligi o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ularning tarkibiy qismlariga bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr bo’lgan musiqa o’qituvchisi, o’z navbatida, yuksak ma’naviyat va madaniyat sohibi, milliy istiqlol mafkurasi va g’oyalarini singdirgan shaxs sifatida, ta’lim-tarbiya jarayonidagi istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etish orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo’shadi, hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g’ri ola biladi. Musiqa o’qituvchisini tayyorlashda kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlari, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr va shaxs sifatidagi xususiyatlarini yaxlit holda tasavvur qilib, ularning o’rtasidagi uzviylikni amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: «O’qituvchi», 1992.

2. Актуальные проблемы возрастой и педагогической психологии. Под.общ.ред. И.Ивашенко и др. – Минск: «Высшая школа», 1980.

3. Barotov Sh.R. O’quvchi shaxsini o’rganish usullari. - T.: «O’qituvchi», 1995. – 86-b.

4. Jo’raev R. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi umumiy o’rta ta’lim vazifalari. // «Pedagogik mahorat», 2001, 2-son-2-10-b.

5. Imomnazarov M.S., Eshmuhamedov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. (Oliy o’quv yurtlar uchun ma’ruza matnlari) – T.: ToshIU, 2001.

6. Ismoilov N. Milliy mentalitetning tub ildizi. // «Muloqot», 2001, 4-son. – 29-b.

7. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (O’zbekiston faylasuflar jamiyati). – T.: «O’zbekiston», 2001.

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

Mirsaidov Ibroximbek Tolib o`g`li,
Professional ta’limni rivojlantirish instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqola ta’lim muhitida sun’iy intellektdan foydalanishga yo‘naltirilgan holda, eng yangi yutuqlar o`rganilib, ularning o‘qituvchilar va o‘quvchilarga sezilarli ta’sirini ko'rsatilgan. Shuningdek, ta‘lim kelajagini shakllantirishda sun’iy intellektning imkoniyatlarini tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli axborot texnologiyalari; sun’iy intellekt; ta’lim; ma’lumot.*

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida foydalaniladigan ko‘plab sun’iy intellekt (AI) dasturlari mavjud bo‘lib, ular tufayli o‘quvchilar va o‘qituvchilar katta qulayliklarga ega. AI dasturiy ta’minotini ishlab chiqish tizimi olimlarga o‘zlarining zaif tomonlari ustida ishlashga yordam beradi. Bazi bir sun’iy intelekt modellari tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarda hattoki o‘quvchi qayerda qiynalayotganini aniqlashni va mustaqil o‘qib o‘rganish uchun kerakli materiallarni yuboradi. Moslashuvchan ta’lim asosiy sun’iy intellekt algoritmidan foydalanadi. Bundan tashqari, har qanday qulay vaqtda ta’lim olish, shubhasiz, o‘quvchi uchun katta afzallikdir. AIga asoslangan bunday dasturlarni quyida ko‘rib chiqamiz.

Avtomatik baholash. Ta’lim muhitida yozilgan insholarni baholaydigan o‘qituvchining xatti-harakatiga taqlid qiluvchi sun’iy intellektga asoslangan maxsus kompyuter dasturi. U o‘quvchilar bilimini baholashi, ularning javoblarini tahlil qilishi, fikr-mulohazalarini bildirishi va individual o‘quv rejalarini tuzishi mumkin.

O‘rta mashg‘ulotlar oralig‘i. Ushbu dastur siz allaqachon unutgan bilimlaringizni qayta tekshiradi. Buning mohiyati shundaki, AI siz nimani va qachon o‘rganganingizni kuzatib boradi. Buning yordamida u siz unutgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni bilib oladi va uni takrorlashni tavsiya qiladi.

O‘qituvchilar uchun fikr-mulohazalar. Ko‘p yillar davomida o‘qituvchilar bir-birlarini baholadilar, ammo endi bu qog‘oz yordamida amalga oshirilmaydi, hozirda bularning o‘rnini sun’iy intellektga asoslangan chatbotlar egallamoqda. Ular xuddi haqiqiy suhbatdosh kabi suhbat interfeysi orqali fikrlarni to‘plash imkoniyatiga ega.

Virtual yordamchilar. Ayni paytda virtual yordamchilar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilar so‘rovlariga aniq va tez javob bera oladilar.

Chat kampusi. Ushbu loyiha kampusga endigina kelgan o‘quvchilarga qulaylik yaratishga yordam beradi. Chat Campuslari biror bir yerga qanday borishni navigatsiyalar orqali ko‘rsatib beradi va kerakli hujjatlarni qayerda va qanday topshirishni aytib beradi.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim. Shaxsiylashtirilgan ta’lim turli xil ta’lim dasturlarini anglatadi, ularda o‘rganish tezligi va o‘qitish yondashuvi har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos ravishda optimallashtiriladi. Tajriba turli o‘quvchilarning o‘rganish afzalliklari va o‘ziga xos qiziqishlarini hisobga oladi. Sun’iy intellekt o‘quvchi dasturni yaxshiroq tushunishi uchun unga mos sur’atni osongina tanlaydi.

Moslashuvchan ta’lim. Bu sun’iy intellekt har bir o‘quvchining taraqqiyotini kuzatishi va kursni to‘g‘rilashi yoki o‘qituvchini ma’lum bir o‘quvchi tushunishi qiyin bo‘lgan material haqida xabardor qilishi mumkin deb taxmin qiladi.

Proktoring. Masofaviy ta’lim odatda masofaviy imtihonlarni o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, o‘quvchining o‘ziga berilgan imtihonni mustaqil ravishda yozishini ta’minlash kerak. Buning uchun sun’iy intellektga asoslangan himoya tizimlari yordamga keladi. Proctoring yoki Proctored Test – bu imtihon topshiruvchining haqiqiyligini ta’minlash va uning test paytida hozir bo‘lgan proktor orqali aldashini oldini olish mexanizmi.

Ma’lumotlarni to‘plash va shaxsiylashtirish. Hozirda AI insonning geolokatsiyasiga qarab qiziqishlari asosida yaqin atrofdagi kerakli joylarni taklif qila oladi. Xuddi shu texnologiya faqat bizni qiziqtirgan sohadagi misollar asosida o‘rganganimizda qo‘llanilishi mumkin .

Xulosa

AI va mashinani o‘rganish sohasidagi yutuqlar ta’sirli, ammo imkoniyatlar hali yetarlicha. AI amalga oshirishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p yaxshi g‘oyalar mavjud. Umuman olganda, sun’iy intellekt o‘qituvchi ishining ko‘p qismlarini soddalashtirish va boshqa qismlarini avtomatlashtirish qobiliyati orqali ta’lim tizimini sezilarli darajada yaxshilash potentsialiga ega, natijada ularga o‘z o‘quvchilariga ko‘proq vaqt sarflashga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Zaripova R.S. Zamonaviy muhandislik ta’limining rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalari / R.S.Zaripova, O.A.Pyrnova // Zamonaviy Ijtimoiy muammolarni o‘rganish . Krasnoyarsk: Ilmiy-innovatsion markaz, 2018. 9-jild. № 8 – 2. 43 – 46-betlar.

2. Zaripova R.S. Zamonaviy ta’limning global tendentsiyalari // novaum.Ru. 2018. No 13. 232 – 234-betlar.

3. Zaripova R.S. Ta’limni axborotlashtirishning zamonaviy tendentsiyalari / R.S.Zaripova, S.P.Mironov // novaum.Ru. 2018 yil. 12-son. 18 – 19-betlar.

4. Slavyanov A.S., Feshina S.S. Artificial intelligence technologies in education as a factor in improving the quality of human capital // Economics and business: theory and practice [Ekonomika i biznes: teoriya i praktika]. 2019. No. 7. P. 156–159. (In rus)

5. Digital Economy: Global Trends and Practice of Russian Business: Analytical Report / Oganesyan T.K., Styrin E.M., Abdrakhmanova G.I., Rosemirovich S.D., Merkulova D.Yu., Bikbulatova Yu.S.; ex. ed. Medovnikov D.S.M.: HSE, 2017. 121 p. (In rus)

BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT MUTAXASSISLARINING O’RNI

Eshnazarov Jo’raqul,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi
kafedrasi professori: +998937221829
Nizomov Behzod Raximjonovich,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi
kafedrasi assistenti: +998901032424

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar sportini rivojlantirish va yuksak mahoratli kadrlar tayyorlashda jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarining alohida o‘rni, murabbiy sport mashg’uloti va musobaqasi jarayonida bolalar oldiga sport bilan bog’liq bo’lgan muammoli masalalarni qo’yish va bu muammolarni yechishda har bir bolaning o’zini mustaqil izlanishiga odatlantirish, natijada sportchi sport sohasida yuqori ko’rsatgichlarga erishish kabilar haqida fikr mulohazalar, tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy madaniyat, bolalar sporti, BO‘SM, umumta’lim maktab, sport o‘yinlari, jismoniy rivojlainish, mutaxassis, talyyorlash, ta‘lim, ommaviy sport.*

Bolalar sportini rivojlantirish va yuksak mahoratli kadrlar tayyorlashda jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarining alohida o‘rni bor. Chunki yosh bolalarning sportga bo‘lgan qiziqishlarini anglagan holda ularni sport turlariga yo‘naltirish vazifasi mutaxassis kadrlar tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sport sohalarida mutaxassislar tayyorlash masalasiga katta e‘tibor berilayotganligi bejis emas, albatta yurtimizda ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida ta’limga katta e’tibor qaratilinib kelinmoqda bu borada “Ta’lim tog’risida”gi qonunning (yangi tahriri 2020 yil 23-setyabr) qabul qilinganligi, buning yaqqol misolidir. O‘zbekiston Respublikasi jismoniy madaniyat va sport

mutaxassislarini tayyorlash borasida O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya oliygohi jismoniy madaniyat fakulteti, Olimpiya zahiralari kasb-hunar sport kollejlarining salmog’i katta bo‘lib, ularda har yili 1000 dan ortiq jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorlanmoqda. Bu bilim dargohlarida, umumta’lim maktablarida jismoniy madaniyat o‘qituvchilari, sport murabbiylari va darsdan tashqari vaqtlarda ommaviy sport tadbirlarini o’tkazadigan mutaxassislar tayyorlanadi. Jismoniy madaniyat o’qituvchilarining faoliayti ko’p qirrali bo’lib, ular bir kechada 24-soat bo’lsa, shundan 15 – 16 soatini o‘quvchilar bilan o‘tkazadilar. Shuning uchun ham, o‘quvchilar jismoniy madaniyat o‘qituvchisi bilan kommunikativ aloqalar orqali musobaqalashib bormoqda. Masalaning boshqa tomoni shundaki, jismoniy madaniyat darslarida olgan bilimlarini sinfdan va darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklariga qatnashib, mukammallashib turishlari o‘quvchilarning sport mahoratlarini oshirishga ko‘maklashib boradi. Bunda ham jismoniy madaniyat o‘qituvchisining katta ahamiyati bor.

Jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorlayotgan bilim maskanlarida katta mas‘uliyat yuklatiladi. Chunki keyingi yillarda viloyat, shahar va tuman qishloqlarida istiqomat qilayotgan bolalarni har tomonlama bilimli qilib tarbiyalash masalasi dolzarb kasb etdi. Buning uchun jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida, qishloqlarda yashayotgan bolalar xususiyatlarini hisobga olish, imkoniyati bo‘lgan maktablar jismoniy madaniyat darslarini o‘tishga bog’iq bo‘lgan bilimlarni mutaxassislarga o‘rgatib berishlari kerak. Aks holda, mashqlarni hamma umumiy tarzda olib borgan bilan maqsadga erisha olmaydi. Bugungi kunda bolalar sportini rivojlantirishga e‘tibor berilayotgan bo‘lsada, bunday holat hozirgi zamon talabiga javob bermaydi. Kadrlar o‘z ishiga sodiqlik bilan xizmat qilmasalar, bu soha muammoligicha qolaveradi. Fidoyi deganda o‘z kasbini va ishini sevgan holda tinimsiz ish olib borishni ko‘ramiz va eng avvalo, turli tumanlarda g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarning milliy xususiyatlariga qarab mashqlarni me‘yorlab borish maqsadga muvofiq.

Organizm o‘zining tez o‘sishi bilan farq qiladi. Shuning uchun tez sur‘atda rivojlangan organizm mashqlarni oson o‘zlashtira oladi. Shunday ekan, organizm mashqlarni oson va qiyin bajarishiga qarab ham o‘quvchilar turli guruhlarga bo‘linishi muqarrardir. Bunday holatda o‘quvchilarning psixologik imkoniyatlari ya’ni ularning irodasi, kuchi, qiziqishi kabi jismoniy sifatlari, fazilatlari va imkoniyatlarini hisobga olish sportga yo’naltirishda maqsadga muvofiq bo’ladi. Buning uchun pedagogik mutaxassis kadrlar o’z ishlariga o‘ta mas‘uliyatli bo‘lishi, hozirgi zamonaviy bilimlarni o‘zlarida mujassam etishlari kerak. Bunda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish xususiyatlarini doimiy ravishda o‘rganib, ularni jismoniy tarbiyalash va sport turlariga shug’ullantirish bo‘yicha rejalariga o‘zgarishlar kiritib borishlari kerak.

Bugungi kunda jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorlaydigan o‘quv dargohlari tomonidan har yili 1000 ga yaqin tayyorlanadigan kadrlar umumta’lim maktablarida yetishmaydi. Agar, umumta’lim maktablarida, faraz qilaylik, haftasiga har bir sinfda 4 – 5 soat jismoniy madaniyat darsi o‘tkazalidigan bo‘lsa, unda jismoniy madaniyat mutaxassisi, kadrlar yetishmasligi muqarrar. Buning uchun har yili Oliy bilim dargohlarida qariyb 4 – 5 mingga yaqin jismoniy madaniyat o‘qituvchilari tayyorlanganda umumta’lim maktablarini jismoniy madaniyat o‘qituvchilari bilan ta‘minlash mumkin bo‘ladi. Ayni vaqtda 10 – 15% umumta’lim maktablarida sport razryadlari, maxsus ma‘lumoti bo‘lmagan sportchi mutaxassislar jismoniy madaniyat darslarini o‘tib kelmoqda. Biz xohlaymizki kadrlar asosiy shaxs sifatida bolalar sportini rivojlantirishimizda muhim vosita bo‘lib xizmat qilsin. Bu masalaning bir tomoni. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, bu holat sinfdan va maktabdan tashqari sport ishlarini rivojlantirishda bolalar va o‘smirlar sport maktablari murabbiylari yordamida sport to‘garaklari, sport musobaqalarini amalga oshirib borishning o‘ziga xos muammolarini keltirib chiqaradi.

Bu qiyinchiliklar obyektiv va subyektiv sabablarga ega va o‘ylaymizki, ular asta-sekin bartaraf etiladi. Subyektiv qiyinchiliklarni yengishda faqat yaxshi ko‘nikma, malaka va mumkin qadar har tomonlama bilim bo‘lishi kerak. Yuqorida keltirilgan subyektiv muammolarni bartaraf etish jarayoni biroz qiyinchilik bilan kechadi. Unda maxsus tarbiyaviy maqsad bo‘lib, yuqori sport mahoratini talab etadi. Obyektiv qiyinchiliklarni bartaraf etish esa ustoz – murabbiylar hamda joylarda ommaviy sport ishlarini yaxshi tashkil qilish, barcha imkoniyatlardan

foydalanish bilan amalga oshiriladi. Maxsus pedagogik jismoniy madaniyat ma‘lumoti bo‘lganlarni shartli ravishda 1-guruhga, xuddi shunday ma‘lumoti, ya‘ni maxsus ma‘lumoti bo‘lmaganlarni 2-guruhga bo‘lamiz. Bizdagi ma‘lumotlarga ko‘ra, ommaviy sport ishlarini tashkil qiluvchilarda 45% ini 1-guruh murabbiylari tashkil qilsalar, 55% ni, jismoniy madaniyat o‘qituvchilaridan, 24 – 31% ni 2-guruhdagilar tashkil etishadi. Bunda ustoz-murabbiylarning tayyorgarliklari darajasini amaliyotda aniqlashda jismoniy mashqlarning qiyinchiligi, xarakteri hisobga olinadi. Birinchi guruhdagi ustoz-murabbiylar ikkinchi guruh, murabbiylarga qaraganda ancha zehnli bo‘ladilar, chunki ikkinchi guruh ustoz-murabbiylari to‘g‘ri kelgan ishlarni bajarishga qaror qiladilar. Ana shuning uchun ham jismoniy madaniyat o‘qituvchilari tayyorlaganda ularning har tomonlama tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun sport pedagogik fanlarini yaxshi o‘zlashtirishlari shu bilan bir qatorda anatomiya, fiziologiya, jismoniy madaniyat nazariyasi fanlarini, aylanma tizimda sport mashqi jarayonini yaxshi bilishlari kerak bo‘ladi va hokazo.

Bolalar sportini rivojlantirishda sport moddiy-texnika bazasining ahamiyati katta. Bolalar o‘rtasida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishda moddiy-texnika bazasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir sohada o‘zining moddiy-texnika bazasi bo‘lishi muhimdir. Ayniqsa, bolalar sportining 1-sinfdan 9-sinfgacha va kasb-hunar kollejlarining guruhlarida, bilim maskanlarida rivojlanishi doirasiga jismoniy madaniyat davlat dasturidan o‘rin olgan gimnastika, yengilatletika, sport o‘yinlari (basketbol, futbol, voleybol, qo‘l to‘pi), kurash, suzish, harakatli o’yinlar kiradi. Bu sport turlarini rivojlantirishda har har qaysi bilim maskanlari rejasi faqat qog’ozda qolib ketishi natijasida bolalar sport to‘garaklari 10 yil ichida pasayib qoldi. Buning birinchi sababi shundaki, savdo do‘konlarida sotiladigan sport jihozlari haddan tashqari qimmatlashib, sotib olish muammosi paydo bo‘ldi. Ayrim sport jihozlarini pul ko‘chirish yo‘li bilan sotib olish mumkin. Ammo ayrimlarini pul ko‘chirish yo‘li bilan ham sotib olish mumkin emas. Chunki do‘konlarning ko‘pchilik qismi shaxsiy tijorat do‘konlariga aylantirilgan. Shuning uchun faqat naqd pulga sotib olish mumkin. Savdo va tijorat do‘konlari shaxsiy do‘konlarga aylanishi natijasida sport anjomlarini olish tizimi buzilib ketganini ko‘ramiz. Bizning bu yo‘nalishdagi tahlilimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasida bolalar sportini rivojlantirish muhitini yaratish har bir rahbarning muhim vazifasiga aylanishi kerak. Shuning uchun xalqimiz orasida shunday hikmatli so‘z bor: “Niholning o‘sishi bog‘bonga bog‘liq”. Sportninig rivojlanishi moddiy-texnika bazasiga bog‘liq deb yana bir karra eslatmoqchimiz. Oxirgi yillarda bolalar sportini rivojlantirishda, ayniqsa, bolalar bog‘chasida bu borada amaliy ishlarga qaratilgan keng ko‘lamli rejalar tuzilgan. Bugungi kunda respublikamizdagi bolalar bog‘chalarida 27 ta, jismoniy tarbiya va sport saroylarida 3453 ta turli o‘lchovlardagi ochiq sport maydoni, 144 ta turli hajmdagi yopiq inshootlar mavjud. Shunday sharoitlar umumta’lim maktablarida qanday, degan savol tug‘iladi. Albatta umumta‘lim maktablari turli hududlarda joylashganligi bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Sport inshootlari deganda nimani tushunish kerak? Gap shundaki, Baxmal, Zomin, Nurota, Urgut, Qo‘shrabot, Chirchiq kabi tog‘ hududlarida joylashgan sport zallari zamonaviy bo‘lmaganligi sababli yosh sportchilarni sportga jalb qilish qiyinchilik tug‘diradi. Shunday bo‘lsada, imkoniyat topib sportga qiziqishi bo‘lgan yoshlarni hech bo‘lmaganda 50 – 60% jalb qilish maqsadga muvofiq.

Har qaysi umumta’lim maktabi sport maydoni uchun alohida joy ajratadi. Manashu maktablardagi jismoniy madaniyat va sport mashg’ulotlari o‘tkazish uchun alohida sport turlari bo‘yicha maydonlar tashkil etiladi. Sport maydonlarining o‘lchamlari maktabning sharoitiga qarab belgilanadi. Unda o‘quvchilar soni hisobga olinishi shart. Qishloq joylarda joylashgan sport maktablaridagi sport maydonlari qurilishi uchun yer maydoni yetarli.

Mamlakatimizga bolalar sportiga alohida e‘tibor berilmoqda. Bu o‘rinda jismoniy tarbiya va sport muhim rol o‘ynaydi. BO‘SMning sport inshootlari va ularga zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, jihozlar sportchilarga ust kiyim-boshlar bilan ta‘minlashda olg‘a siljishlar yuz berdi.

Futbol, yengil atletika, kurash, tennis, baketbol, sharqona yakka kurashlar va boshqa sport turlari bo‘yicha iqtidorli murabbiylarni ko‘rik-sinovlardan o‘tkazish, ularning malakalarini davr talablari asosida takomillashtirishga kirishilmoqda. Samarqand tumanlaridagi shahar Xalq

ta‘limi, “Yoshlik”, “Talaba”, “Sport uyushmalari” o‘z faoliyatlarini kuchaytirmoqda. Yana e‘tiborli tomonlaridan biri shundaki juda ko‘p BO‘SMda bolalarni sportga jalb qilishda joylarda o‘tkaziladigan turli xil musobaqalarni kuzatish, tanlab olingan bolalarni maxsus sinov-tajribalardan o‘tkazish, ularning sportga bo‘lgan havas-qiziqishlarini suhbatlar orqali bilish nazariy bilimlar hamda tushunchalarga ega bo‘lgan darajalarni aniqlash kabi eng zarur ijtimoiy-pedagogik jarayonlarga kirishilmoqda. Bu o‘z navbatida an‘anaviy jismoniy tarbiya va sport bayramlarni (chaqqonlik, nafosat, go‘zallik, “Balli yigitlar”, “Balli qizlr” “Quvnoq startlar”, “Olti kuz”) va sport turlariga (voleybol, basketbol, futbol va hokazo) bag‘ishlangan an‘analar o‘tkazish o‘quvchi-yoshlarning sog‘lom rivojlantirishiga va jismoniy baquvvat bo‘lishiga yordamlashmoqda.

Bolalarning maktabda jismoniy mashg‘ulot va sportning odam organizmiga ta’sirini chuqur anglab yetmasligi, o’zi sevgan birorta sport turi bilan mustaqil mashq qilishni o‘rganmaganligi natijasida talabalik davrida ham jismoniy madaniyat normalarini topshirish jarayonida yaxshi yutuqlarga erisha olmaydi.

Xulosa. Murabbiy sport mashg’uloti va musobaqasi jarayonida bolalar oldiga sport bilan bog’liq bo’lgan muammoli masalalarni qo’yish va bu muammolarni yechishda har bir bolaning o’zini mustaqil izlanishiga odatlantirish lozim. Natijada sportchi sport sohasida yuqori ko’rsatgichlarga erishishda, katta ehtiroslilik bilan yangi taktik musobaqalashish uslublarini izlaydi va qiyinchiliklardan qo’rqmaydigan bo’ladi.

Foydalnilgan adabiyotlar:

1. Eshnazarov.J.E. “O‘zbekistonda jismoniy madaniyat tarixi va uni boshqarish” 2008 yil.
2. Yefimov A.S. Tarbiyachi shaxsini shakillantirish Samarqand SamDu nashiriyoti. 1978 yil.
3. Raximov S.R “Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik qarashlari” Toshkent, 1964 yil.
4. Raximov S.R “Педагогическая антология” Ўзбекистон Москва, 1986 йил.
5. Lex.uz “O‘zbekiston qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

STEM YONDASHUVI ASOSIDA TA’LIM JARAYONINI LOYIHALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Tashibekova M.X.,
NamDU, PhD.

So’nggi yillarda STEM yondasguvi aynan barcha fanlarni o’qitish jarayoniga keng ko’lamda joriy etish masalasiga keng miqyosda urg’u qaratilmoqda. Ayniqsa, Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablarda “STEM – ta’lim”, “Cambridge o’quv dasturi”, “Mahalliy o’quv dasturi” kabi bir qator xorijiy dasturlar asosida chuqur ixtisoslashtirilgan ta’lim berilmoqda. Shu o’rinda bir savol tug’iladi, nima uchun aynan, o’qitish jarayoniga bunday ta’lim texnologiyalarni joriy etish ehtiyoji tobora ortib bormoqda?

STEM yondashuvi o’qituvchining kasbiy faoliyatda ma’lum qadriyatlar, maqsadlar, tamoyillar va usullarni tanlagan holda o’quvchilarni fanlararo bog’lanish asosidagi amaliy izlanishli faoliyatga yo’naltiruvchi o’qitish uslubiyotidir. Mazkur yondashuv uchta asosiy komponentni o’z ichiga oladi:

1. Tushunchalar. Yondashuvning asosiy tushunchalari uning xususiyati, aqliy faoliyati uchun vosita bo’lib xizmat qiladi. STEM yondashuviga ko’ra uning tarkibidagi asosiy tushunchalarning qisqartmasi mazkur yondashuvning mohiyatini ochib beradi.

2. Tamoyillar. Pedagogika sohasida tamoyillar asosiy g’oyalar sifatida ta’riflanadi. STEM – ta’lim texnologiyasi o’qitishning bir qator tamoyillariga asoslanadi. Mazkur tamoyillar pedagogik faoliyatning mazmun, usul, shakl va vositalarini belgilashga imkon yaratadi.

3. Texnologik komponent. STEM yondashuvning bu komponenti ma’lum bir yo’nalishga muvofiq tanlangan va amaliy pedagogik faoliyatda qo’llaniladigan usullardan iborat.

STEM yondashuvi asosida ta’lim beruvchi mamlakatlar tajribasini tahlili shuni ko’rsatadiki, ushbu texnologiya bugungi kunda o’quvchilarga zarur bo’lgan 4K (muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, kreativlik(ijodkorlik) ko’nikmalarini rivojlantirish samarali hisoblanadi. Bugunki kun yoshlarini jahon talablaridagi darajasidagi 4K kompetensiyalari asosida bilim olishlalrini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilayotganligi mazkur yondashuvni ta’limning barcha bo’g’inlariga tadbiq etish ehtiyojini tug’dirmoqda. Shu bilan birga STEM yondashuvi o’quvchilarda tabbiy-ilmiy, texnologik, konstruktiv va metematik kompetensiyalarni aynan 4K ko’nikmalarilari bilan uyg’un holda rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, muhandislik (konstruktiv) ko’nikmalarini shaklllantirishda STEM loyihalari o’quvchilarda ijodkorlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash, kutilmagan tasadifiy vaziyatlarga tezda yechim topa olishga yordam beradi.

STEM loyihalari muayyan pedagogik reja asosida ishlab chiqiladi. STEM loyihalari fanning turli sohalariga oid bilimlarni amalda qo’llash asosida zamonaviy ilmiy-texnika sanoati mahsulotini yoki uning prototipini yaratishga qaratilgandir. Mazkur loyihalar ma’lum texnik bosqichlarga muvofiq qurilgan va muayyan harakatlar algoritmini o’z ichiga oladi. Ushbu loyihani ishlab chiqish, asosan, turli fanlarga oid o’quv loyihalar uchun zarur bo’lgan yangiliklarni qidirib topish, o’zlashtirish va yangilik kiritishdan boshlanadi. O’quvchilar zamonaviy sanoatning haqiqiy mahsulotlari prototiplarini ishlab chiqishga harakat qiladilar.

Loyiga asoslangan o’quv mashg’ulotlarida o’qituvchi rejalashtirilgan natijaga erishishni avvaldan kafolatlaydi, real ishlab chiqilgan yoki simulyatsiya qilingan mahsulotni yaratish va uni sinovdan o’tkazish orqali o’quvchilar muhandislik ko’nikmalarini barvaqt egallashga erishadilar.

STEM loyihalarini ishlab chiqish standart loyihalarni ishlab chiqish ketma-ketligiga o’xshash bir necha bosqichda amalga oshiriladi, ammo shunga qaramay, o’ziga xos quyidagi xususiyatlarga ham egadir:

1. O’qituvchi tomonidan STEM loyihasi uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilash.

2. STEM loyihasini barcha bosqichlarini to’liq holda ishlab chiqish.

3. Mazkur loyiha asosida o’quvchilar zamonaviy sanoat mahsuloti va uning prototipini loyihalash yoki modellashtirishga erishish.

4. Yaratilgan yoki yangilangan mahsulotni sinovdan o’tkazish.

5. Tugallangan STEM loyihasini barcha ishtirokchilar bilan birga muhokama qilish.

STEM loyihalarining asosiy maqsadi – o’quvchilarda barcha fanlarga oid yuqori darajada o’zlashtirishni ta’minlash hamda Xalqaro baholash dasturlalri bo’yicha yuqori natijalarga erishishlarini kafolatlashdan iboratdir. Ushbu innovatsion yondashuv asosida zamonaviy maktab ta’limining rivojlanishini ta’minlash uchun ishlab chiqilganligini tasdiqlovchi STEM – ta’limi quyidagi afzalliklarga ega:

- fizika, matematika va tabiiy fanlarni integratsiyalash, o’quvchilarga ushbu fanlarning o’zaro bog’liqligini ham nazariy, ham amaliyotda ko’rsatish imkonini beradi;

- ilmiy-texnik bilimlarni amaliyotda qo’llash imkoniyatining mavjudligi, ya’ni, o’quvchilar sinfda loyiha maqsadida aks etgan mavzuga oid predmetlarning haqiqiy prototiplarini loyihalash hamda ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo’ladilar;

- o’quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga inkon berishi. STEM loyihalari asosida o’quvchilar hayotiy vaziyatlarga tayyorlanish bilan bir qatorda mavjud muammolarni mustaqil hal etish, kelib chiqish sabablarini aniqlash, bir necha yechimlarni taklif qilish, shaxsiy farazlarini dalillar orqali isbotlay olish ko’nikmalarini shakllantiradi;

- o’zaro hamkorlikdagi faoliyatni vujudga keltiradi, loyihani amalga oshitish uchun guruhiy va jamoaviy ish topshiriqlarini bajarish orqali topsh yuzaga keladigan qiyinchiliklarni barvaqt bartaraf etishga yordam beradi;

- o’quvchilarning o’z qobiliyati va bilimlariga ishonchini orttirish. O’quvchilar tomonidan predmetlarning prototiplarini modellashtirish va qurishga taklif qilinadigan mashg’ulotlarni tashkil etish orqali ularda qat’iyatlilik, o’z kuchiga ishonish hissini

shakllantiradi, shuningdek, sinfda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llab ko'rishga bo'lgan ehtiyojga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

P.L.Sitnikov STEM – ta'lim texnologiyasining muhim xususiyatlarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Konseptual tushuncha: o'quvchilarning tushunchalar, munosabatlar va hodisalar to'g'risida xabardor qiladi.

2. Faoliyatdagi erkinlik: o'quvchilarning turli vazifalarni tez va moslashuvchan bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

3. Tashxislash: o'quvchilarga vujudga kelayotgan muammolarni aniqlash, tashxis etish, hal qilishga imkon beruvchi yechimlarni shakllantiradi.

4. Adaptiv fikrlash: o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, mulohaza yuritish, mavjud vaziyatni tushuntira olish, munozalar jarayonida bahslashish qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Mahsuldor ong: mavzuni foydali, qimmatli va samarali deb hisoblashga qaratilgan tanqidiy, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi[1].

STEM loyihalarida o'quvchilar ko'pincha juftlik yoki guruhlarda ishlashlari talab etiladi, bu esa ularda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish bilan ilmiy, texnologik, konstruktiv va matematik kompetentsiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda STEM loyihalaridan foydalanib, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda muayyan pedagogik vazifalar amalga oshiriladi:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir nechta kompetensiyalarini shakllantiruvchi STEM loyihalari uchun didaktik ta'minot va qulay shart-sharoit yaratish;

b) STEM loyihalari orqali bir nechta fanlarga oid bilimlarni egallash va olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga nisbatan qiziqishni uyg'otish;

c) mazkur loyihalar asosida o'quvchilarni fanlarga oid materialni to'g'ri idrok qilish, mantiqiy esda qoldirish, ijodiy va kreativ fikrlash orqali ilmiy bilimlarni egallashga bo'lgan ijobiy munosabatini tarkib toptirish;

d) o'quvchilar o'zlashtirish samaradorligiga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iboratdir.

STEM loyihalari asosida tashkil etilgan didaktik jarayon va an'anaviy o'qitishga asoslangan ta'lim jarayoni quyidagi xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. (1-jadvalga qarang):

1-jadval

An'anaviy ta'lim va STEM yondashuvi asosida qiyosiy tahlili

	An'naviy o'qitish	STEM ta'limi asosida o'qitish
Maqsad	Dasturga mos bilimlarni o'zlashtirish	Amaliyot nazariya kabi muhim ekanini isbotlash
Motivatsiya	Bilim olishga rag'bat	Bilimlarni amaliyotda qo'llash istagi
Boshqaruv	O'qituvchi boshqaradi	O'z-o'zini va hamkorlikda boshqarish
O'quvchining faolligi	Tinglaydi, eslab qoladi, qayta esga tushiradi	Biladi, tushunadi, tahlil qiladi, qo'llaydi, umumlashtiradi, taqdim etadi, baholaydi
Shakl	Sinf dars tizimi	Jamoaviy, guruhli, individual va hamkorlikka asoslangan amaliy ishlar
Metodlar	An'anaviy	Ijodiy izlanuvchan
Yondashuv	Dasturlashtirilgan	Integratsiyalashgan, shaxsga yo'naltirilgan.
Vositalar	Ko'rgazmalar (verbal va noverbal), texnik vositalar	Kontekstlar, haqiqiy tabiiy ashyolar, o'lchov anjomlari

[1] Ситников П.Л. Современное образование в России и за рубежом: сборник статей междунар.науч.-практ. конф., Чебоксары, 25 марта 2014 г. / гл. ред. О.Н.Широков. Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 202

Tashhis	Og’zaki so’rov, testlar	Refleksiya, qayta aloqa
Baholash	Eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlash	Ilmiy va amaliy kompetentsiyalar shakllanganligini baholash

STEAM loyihalari o’quvchilarni mustaqil faoliyatning turli shakllariga yo’naltirish bilan birga ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik hamda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantiruvchi faoliyatga aylanadi. O’quvchilar loyihali faoliyatga kirishish orqali izlanishli-ijodiy faoliyat tajribasini egallaydilar. Kichik maktab yoshi o’quvchilarni ijodiy izlanishli faoliyatga kirishning dastlabki bosqichidir, ta’limning keyingi bosqichlarida bunday izlanishli faoliyatning yanada rivojlanishi ijodiy qobiliyatlarning taraqqiyotini jadallashtiradi.

Darsdan tashqari tashkil etilgan to’garaklardagi ijodiy-izlanishli faoliyat sinfda o’zlash-tirilgan predmet va hodisalar mohiyatini izlab topishga bo’lgan qiziqishni oshirish, o’z qobiliyatiga ishonch hissining yuqori darajaga ko’tarilishiga xizmat qiladi. Atrof-muhitni tadqiq etish, ularning tarkibini aniqlash va asoslashga qaratilgan izlanishli tadqiqotlar o’quvchilarda ixtirochilik, yangiliklarni izlash, tabiiy fanlar o’rtasidagi bog’lanishli munosabatlarni erta tashxis qilish imkonini beradi. Tabiiy fanlarga yo’naltirilgan to’garaklar uchun "Tabiatning kichik himoyachilari", “Boshlang’ich ekolog va biologlar markazi”, “Yosh ekoturistlar”, “Ovqat hazm qilish organlari”, “Tabiatda suvning aylanishi”, “Mening dunyom”, “Yovvoyi tabiat dunyosi”, “Foydali qazilmalar”, “Urug’ qayerda yaxshiroq yashaydi”, “Ranglar dunyosi”, “Vulqon maketini tayyorlash”, “Yog’in turlari”, “Issiqlik ta’sirini o’rganish”, “Magnit”, “Chiqindilar dunyosi” kabi mavzulardagi STEM loyihalari o’quvchilarni aynan bir maqsad yo’lida birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” gi Farmoni. 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo’yicha Milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi Farmonlari. 2022 yil 11 maydagi PF-134-son.

3. Sangirova Z. STEAM – o’quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda vosita sifatida. // Uzluksiz ta’lim. 2020 yil. 6-son.

4. Ситников П.Л. Современное образование в России и за рубежом: сборник статей междунар.науч.-практ. конф., Чебоксары, 25 марта 2014 г. / гл. ред. О.Н.Широков. Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 202

5. Yakman G. STEAM – An Educational Framework to Relate Things To Each Other And Reality. K12Digest February 02.2020. https://steamedu.com /k12digest/

NURTURING AND EQUIPPING FUTURE TEACHERS FOR INNOVATIONS OF CUTTING-EDGE CLASSROOM PRACTICES

Alibekova Mokhira Abduvaliyevna,
An EFL teacher of the Faculty of Foreign Languages
at Jizzakh Pedagogical University
+998975233102 mokhira727@gmail.com

Abstract. *This study explores the importance of preparing future teachers for innovative classroom activities. In today's rapidly evolving educational landscape, it is crucial to equip teachers with the skills and knowledge necessary to create engaging and effective learning experiences. The abstract highlights the significance of innovative classroom activities in promoting student engagement, critical thinking, and problem-solving skills. It examines the role of teacher preparation programs in fostering creativity, adaptability, and technological competence among prospective educators. The abstract also emphasizes the need for pedagogical training that integrates innovative teaching strategies, instructional technologies, and collaborative learning approaches. Ultimately, this research underscores the value of empowering future teachers with the tools and competencies to effectively facilitate innovative classroom activities that enhance student learning outcomes and prepare them for the challenges of the 21st century.*

Keywords: *preparation programs, effective, essential skills, technological, digital, education, survey, teacher programs.*

Introduction

In today's rapidly changing world, higher education institutions play a pivotal role in shaping the future by adapting to the evolving demands of society. Universities and colleges possess a unique ability to equip students with essential skills, respond to the dynamic needs of the global landscape, and uphold the enduring significance of higher education. To ensure the employability and accomplishments of their students, these institutions must wholeheartedly embrace educational innovation as a responsibility rather than an option. Several studies, including those by Trimmer et al. (2020) and Herodotou et al. (2019), have emphasized the importance of key factors for success in higher education. These factors include developing adaptability, enhancing digital literacy, and fostering cross-cultural collaboration. By implementing innovative approaches in education, higher education institutions can overcome geographical and financial barriers, leading to increased accessibility for a diverse range of students, particularly those from marginalized communities. Furthermore, embracing educational innovation provides a competitive advantage for institutions. It enables them to attract talented students and faculty, secure necessary financial resources, and maintain a strong reputation in a highly competitive higher education landscape. Additionally, the introduction of customization and personalization in education allows institutions to cater to the unique learning needs of individual students, effectively addressing their diverse requirements. In light of these considerations, it becomes clear that educational innovation is not merely a choice for higher education institutions but a responsibility they must shoulder. By embracing innovative approaches, universities and colleges can fulfill their mission of preparing students for the future, enhancing their employability, and contributing to the broader societal and educational development.


Methodology:

The objective of this study is to explore the importance of preparing future teachers for innovative classroom activities and examine the role of teacher preparation programs in fostering creativity, adaptability, and technological competence. The study aims to investigate the perspectives and experiences of pre-service teachers regarding innovative teaching strategies, instructional technologies, and collaborative learning approaches. The participants of the study will include pre-service teachers enrolled in teacher preparation programs. The sample was

selected using a purposive sampling technique to ensure representation from diverse backgrounds and institutions. A survey questionnaire was designed to collect quantitative data on pre-service teachers' perspectives and experiences related to preparing for innovative classroom activities. The questionnaire included items addressing their beliefs, confidence, and perceptions regarding innovative teaching, the effectiveness of teacher preparation programs, and the integration of innovative strategies, instructional technologies, and collaborative learning approaches. Likert scale and multiple-choice questions were used. The survey was distributed electronically to the participants. Focus group discussions were conducted to gather qualitative insights into pre-service teachers' perceptions and experiences related to innovative teaching and teacher preparation programs. The focus groups explored topics such as the importance of innovative teaching, challenges and opportunities in incorporating innovative practices, effectiveness of pedagogical training, and the benefits and limitations of using innovative strategies.

Results

Majority of pre-service teachers believed that their teacher preparation program adequately prepared them to integrate instructional technologies in their teaching practices. Also, many of participants agreed that their program effectively fostered their adaptability and prepared them to handle diverse learning needs in the classroom and a great number of respondents felt that their program provided them with the necessary training to facilitate collaborative learning approaches. 72% of pre-service teachers reported having experienced pedagogical training that integrated innovative teaching strategies, instructional technologies, and collaborative learning approaches of participants believed that integrating innovative strategies in teacher preparation programs positively impacted their teaching effectiveness. Focus group discussions highlighted that innovative teaching fosters student curiosity, critical thinking, and problem-solving skills. Participants recognized the importance of preparing students for the rapidly changing world and believed that innovative teaching equips them with relevant skills for the 21st century. Pre-service teachers expressed that innovative teaching promotes student engagement and creates a positive learning environment. Some participants mentioned limited access to resources and training for implementing innovative strategies in their future classrooms. However, participants also highlighted the potential of technology and online platforms to overcome barriers and enhance accessibility to innovative teaching methods. Collaborative learning approaches were seen as an opportunity to foster communication and teamwork skills among students. Many pre-service teachers praised their teacher preparation programs, such as British and American Councils for providing hands-on experiences and opportunities to practice innovative teaching. Some participants suggested the incorporation of more practical training and mentorship opportunities to enhance their confidence in using innovative strategies.



A sample of the pre-service teachers survey questionnaire results

Discussion

The findings demonstrated that a significant portion of pre-service teachers believed that their teacher preparation programs adequately prepared them to integrate instructional technologies in their teaching practices. This indicates that these programs are effective in equipping future teachers with the necessary technological skills and knowledge to leverage digital tools for enhanced learning experiences. Moreover, a majority of participants agreed that their teacher preparation programs effectively fostered their adaptability and prepared them to handle diverse learning needs in the classroom. This suggests that the programs are successful in promoting flexibility and responsiveness among pre-service teachers, enabling them to address the unique requirements of their students effectively. The data revealed that a considerable number of pre-service teachers reported having experienced pedagogical training that integrated innovative teaching strategies, instructional technologies, and collaborative learning approaches. This indicates that teacher preparation programs are incorporating innovative practices into their curricula and providing opportunities for pre-service teachers to develop their skills in these areas. Furthermore, a significant majority of respondents believed that integrating innovative strategies in teacher preparation programs positively impacted their teaching effectiveness. This finding suggests that the integration of innovative approaches during pre-service training contributes to the development of effective teaching practices and enhances the overall quality of instruction. The qualitative findings highlighted some challenges faced by pre-service teachers in implementing innovative strategies. Limited access to resources and training for integrating innovative practices was mentioned as a barrier. However, participants also discussed the potential of technology and online platforms to overcome these barriers and enhance accessibility to innovative teaching methods. The discussions also revealed that collaborative learning approaches provide an opportunity to foster communication and teamwork skills among students, preparing them for future collaborative work environments. The benefits of innovative teaching, as discussed by participants, included customization and personalization of instruction to address individual students' unique learning needs. By tailoring instruction to students' interests and abilities, innovative approaches can facilitate deeper engagement and improved learning outcomes. However, time constraints and standardized testing were identified as potential limitations to fully implementing innovative teaching approaches. Balancing curriculum requirements and the need for innovative practices emerged as an ongoing challenge for pre-service teachers. Participants emphasized the importance of collaborative learning approaches as an innovative strategy. This involves organizing students into groups or teams to work together on projects, discussions, or problem-solving activities. Collaborative learning fosters communication, teamwork, and interpersonal skills while promoting a sense of shared responsibility and cooperation among students. Pre-service teachers mentioned the integration of various instructional technologies as innovative teaching strategies. This includes using digital tools, such as interactive whiteboards, educational apps, online simulations, or virtual reality, to enhance teaching and learning experiences. Integrating technology in the classroom supports active learning, digital literacy, and prepares students for the digital age. The concept of differentiated instruction was discussed as an innovative teaching strategy. It involves tailoring instruction and learning experiences to meet the diverse needs, interests, and learning styles of individual students. Through differentiated instruction, teachers can provide personalized learning pathways, adapt materials, and offer various instructional strategies to cater to students' unique abilities and preferences. These examples demonstrate the range of innovative teaching strategies mentioned by pre-service teachers. Each strategy aims to create engaging, student-centered learning environments that foster critical thinking, collaboration, creativity, and adaptability. It is important to note that the specific strategies implemented may vary based on the subject area, grade level, and individual teaching contexts.

Conclusion

To promote student success in a rapidly evolving educational landscape, the findings demonstrates that teacher preparation programs are effective in equipping pre-service teachers

with the necessary technological skills, fostering adaptability, and integrating innovative teaching strategies. This effectiveness is reflected in the positive perceptions of pre-service teachers regarding their preparedness, teaching effectiveness, and the impact of innovative strategies on student engagement and learning outcomes. However, the qualitative findings also shed light on the challenges faced by pre-service teachers, such as limited access to resources and time constraints. These challenges highlight the need for ongoing support, additional practical training, and mentorship opportunities to further enhance pre-service teachers' confidence and competence in implementing innovative approaches effectively. Overall, the findings emphasize the importance of innovative teaching practices in preparing students for the future, fostering critical thinking, problem-solving skills, and creating positive learning environments. The integration of innovative strategies in teacher preparation programs holds promise for addressing the diverse learning needs of students and enhancing the overall quality of instruction. By continuously refining and expanding the incorporation of innovative practices, teacher preparation programs can better equip future teachers to navigate the dynamic educational landscape and meet the evolving demands of the cutting-edge century classrooms.

Reference

1. Abulibdeh, A., Zaidan, E., & Abulibdeh, R. (2024). Navigating the confluence of artificial intelligence and education for sustainable development in the era of industry 4.0: Challenges, opportunities, and ethical dimensions. Journal of Cleaner Production, 140527.
2. Khan, M., & Johnson, M. Indigenous Australian STEM in K-12 Classrooms: A Narrative Literature.
3. Nasirova, D. (2024). PEDAGOGICAL SKILLS FOR FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS: DIGITAL TECHNOLOGIES AS A MEANS OF INCREASING EFFICIENCY. *Евразийский журнал академических исследований*, *4*(2), 51-57.
4. O'Bannon, B.W., Skolits, G.J., & Lubke, J.K. (2017). The influence of digital interactive textbook instruction on student learning preferences, outcomes, and motivation. *Journal of Research on Technology in Education*, *49*(3-4), 103-116.
5. Petrenko, M. (2024). INNOVATIVE PEDAGOGY: KEY TO FUTURE TEACHER TRAINING EXCELLENCE. Frontline Social Sciences and History Journal, 4(02), 01-08.
6. Singha, R., & Singha, S. (2024). Educational Innovation Transforming Higher Education for Workforce Readiness. In *Advancing Student Employability Through Higher Education* (pp. 37-55). IGI Global.
7. Vissa, S. (2016). *Exploring the Effectiveness of Interventions Aimed at Promoting Collaboration Through Interactive Whiteboards and Google Apps for Education* (Doctoral dissertation, Concordia University).

PEDAGOGNING O'ZINI TUTISHI VA TASHQI KO'RINISHI

Tolibjonova Ozoda,
Namangan davlat pedagogika insituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Pedagog ta’lim yo’lining shamchirog’i kabidir. Uning har bir qadami o’quvchilar uchun o’rnak bo’lmog’i lozim. Bugungi maqolamizda aynan pedagog shaxs o’zida aks ettirishi lozim bo’lgan qirralarini tariflaymiz.*

Kalit so’zlar: *pedagog, jamiyat, imidj, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy, mimic ifoda.*

Pedagogika atamasi qadimiy bo‘lib, “bola yetaklovchi” degan ma’noni bildiruvchi grekcha “paydogogos” so‘zidan kelib chiqgan. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o‘z xo‘jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan, harbiy mahoratni

o‘rgatgan tarbiyachini, ya’ni qullarni “pedagog” (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o‘qitilgan va pedagoglikni o‘ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan.

Pedagogika (yun. paidagogike) – tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o‘quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o‘rganiladigan o‘quv predmeti ham pedagog deb yuritiladi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug‘ullangan. Zamonaviy pedagog bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o‘quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi bilan shugullanishni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasida Pedagoglarga barkamol shaxs ma’naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi deb yondashiladi.

Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beradi.

Pedagogning asosiy vazifasi o’qitish, ta’lim bilan bir qatorda tarbiya berish hamdir. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishining tarixiy jihatlariga nazar solar ekanmiz, pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog‘liqligini anglaymiz. Terib-termalab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o‘zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o‘simliklarning ildizini kavlab olish, suv manbalarini izlab toppish, olovdan foydalanish kabi harakatlarni amalga oshirishni o‘rgatganlar. Bunday harakatlar qabila va urug‘ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo‘lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar orqali ma’lumotlar berib, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o‘zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo‘lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo‘lishi, shuningdek, urug‘ jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg‘or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon bergan.

Pedagog so’ziga tariflar juda ko’p, har bir o’rgatuvchi shaxsni ustoz bilib o’z davrining mohir olimu – fozillari quidagicha fikrlar bildirishgan. O‘z davrining mashhur pedagog-gumanisti, chexlik yozuvchi Yan Amos Komenskiy o‘qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o‘qituvchilik “yer yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini yozib qoldirgan. Muallifning fikricha, pedagog o‘z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o‘z qadr-qimmatini to‘la baholay bilishi zarur. Yan Komenskiy o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga otalardek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortidan ergashtiruvchi va diniy e’tiqod fazilatlarining namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiq ekanligiga urg‘u beradi. Taniqli rus pedagogi va adabiyotshunosi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy o‘qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligi to‘g‘risida o‘z g‘oyalarini fikrlarida ilgari suradi. Mazkur g‘oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi jarayon – o‘qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

O‘qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi lozim. U eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni yo’qotishning uddasidan chiqa olishi kerak. O‘quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to‘la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o‘quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yana-da boyishiga ishonch bildirishi u bilan ijobiy munosabat o‘rnatishga imkon beradi. Muloqot jarayonida o‘qituvchining so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do‘stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi kasb etikasi nuqtayi nazaridan talab va qoidalarga

kiradi. O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi. O‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishni o‘zining kasbiy burchi, deb bilishi kerak.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo‘lish, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida rivojlanib boradi. Yosh, shuningdek, ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari o‘zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo‘lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta’minlanadi. Jumladan, mustaqil o‘qib-o‘rganish, ya’ni pedagogika olamida ro‘y berayotgan yangiliklar haqida ma’lumotlarni beruvchi ilmiy adabiyotlar, Internet materiallari, bosma ommaviy axborot vositalarida chop etilayotgan xabarlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni o‘qib tahlil qilish va umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash bo‘yicha o‘z ustida doimiy izlanish olib borishi kerak. Respublikamiz misolida oladigan bo‘lsak, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi Bosh ilmiy-metodik markaz qoshida tashkil etilgan Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq hamda mintaqaviy markazlarida kasbiy malakalarini oshirish, xalq ta’limi tizimi bo‘yicha esa Xalq ta’limi vazirligi tasarrufida bo‘lgan Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish instituti hamda Respublika ta’lim markazlarida o‘z malaka va ko‘nikmalarini oshirib borish, doimiy ravishda ilmiy anjumanlar – nazariy va amaliy konferensiya va seminarlar, pedagogik o‘qish hamda treninglarda faol ishtirok etish, O‘zbekiston va rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o‘rganish yoki stajirovka o‘tash orqali amalga oshiriladi.

Pedagoglar har tomonlama ta‘lim-tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil etishi bilan birga o’zlarining tashqi qiyofasiga ham e‘tibor berishi lozim. Tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holatda, o’zini namoyon qila olish, o’ziga og’dira olish va e‘tiborni qarata olish dars jarayonini samaradorligini oshiradi. Pedagoglarda faqatgina iste‘dodining o‘zi yetarli emas, balki o‘quvchilarga yoqa olishni ham bilishi shart.

Lug’aviy jihatdan imidj tushunchasi siymo, timsol, qiyofa va obraz ma‘nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko’ra esa quidagicha tushuncha yordamida joziba, maftunkorlik ma‘nolarini ifodalaydi.

Imidj – aniq bir insonga bo’lgan munosabatda insonlar ta fakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyekt qiyofasidir.

Pedagogik imidj – pedagogning ma‘naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko’rinishi o’rtasidagi o’zaro uyg’unlik va mutanosiblikdir.

O’qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati quidagilardan iborat:

1. Gavdani tutish to’g’ri tutish (yurishda, o’tirib turishda), qo’llarning o’qituvchi stolida erkin holatda bo’lishi, batartibligi, ixchamligi.

2. Kiyim ozodaligi, shinam va bashangligi, kamtarligi, ranglning mos holda tanlanishi, kiyimning yoshiga va kasbiga mosligi, kiyimni modaga muvofiqligi, bijuteriya, taqinchoqlarning ko’p va kamligi, ishiga mosligi.

3. Pardozning me‘yordaligi, yoshi, kasbi va ishiga mosigi.

4. Soch turmagi (sochning ma‘lum bir tartibliligi)

5. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi. O’qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik va pantomimik ifodalari ham muhim o’rin va ahamiyat kasb etadi.

Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o’qituvchining imo-ishorasida, ma‘noli qarashlarida, rag’batlantiruvchi yoki kinoyali tabassumida namoyon bo’ladi va ular o’qituvchi tarbiyachining pedagogik ta‘sirni ko’rsatishida, o’quvchi-o’quvchilarga mashg’ulotlarni ta‘sirchan, qiziqarli, samarali va mazmunli o’tish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.

Mimika – his-hayajonning ifoda etishi, yuz mushaklarining, ma‘noli harakatlarning so’zlayotgan nuqtaga gapga mosligi. Mimika – bu o’z fikrlarini, kayfiyati, holati, hissiyotini tinglovchi bajarayotgan ishdan roziligi yoki norizoligini bildirish uchun yuz, qosh, ko‘z muskullarini harakatga keltira olish san‘atidir. Ba‘zan yuzning va nigohning ifodasi o’quvchilarga katta tarbiyaviy ta‘sir ko’rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma‘lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o’zlashtirish uchun imkon yaratadi. O’quvchi pedagogga qarab uning kayfiyatini, munosabatini «o’qib» oladilar. Shuning uchun uydagi ba‘zi noxushliklar o’quv mashg’ulotlariga ta‘sir ko’rsatadi. Mimik ifodalar o’quvchining o’quv kayfiyatiga o’zining salbiy ta‘sirini ko’rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimic belgilarida faqat dars mashg’ulotlariga xos ta‘sirini ko’rsata bilishi talab etiladi. Bu o’quv-tarbiya topshiriqlarini yechish o’quvchilar ta‘limi va tarbiyasiga ijobiy yo’nalish bera oladigan ko’rinishlarni ifodalashi lozim. Yuz ifodasi, esa o’z navbatida nutq va munosabat xarakteriga mos bo’lishi kerak. U ishonch, ma‘qullash, ta‘qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarda ifodalanishi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qayd qilinganidek qosh, ko’z, yuz ko’rinishiva muskullari ishtirok etadi. Ko‘z, qosh, yuz o‘quvchi-o‘quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo’lish, faxrlanish yoki e‘tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo’lish va boshqa belgilarni ifodalasa, ta‘lim oluvchilar diqqatini bo’lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta‘lim-tarbiya ishlarini olib borish muvaffaqiyatli kechadi. Shuni ham alohida e‘tirof etish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o’qituvchining nigohi o’quvchi-o’quvchilarga, yoki ayrim holatini boshqara olishi ta‘lim-tarbiya jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O’qituvchi ta‘sir ko’rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg‘ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o’z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo’lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo’la olishi ham pedagogik texnika tizimining muhim elementidir. Buyuk rus pedagogi A.S.Makarenko aytganidek: «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, yoki jahldor bo’lishin bilishi lozim. U o’zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va o’qitsin». Bunday malakaga ega bo’lgan pedagog o’z-o’zini nazorat qila oladi, pedagogik faoliyati davomida sog’lom asab tizimini o’zida tarbiyalay oladi, asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo’riqishlardan o’zini asraydi. O’z xatti-harakati, hissiy holatini nazorat qilishda pedagog, avvalo, o’zida quyidagilarni shakllantirishi lozim:

- hayrixohlik va optimism ruhida bo‘lish;
- o’z hulqini nazorat qilish, (muskul zo’riqishini, harakatini, nutq tempini, nafas olishini tartibga solish);
- faoliyatni dam oldirish, ya‘ni lirik, musiqaviy, yumoristik, jismoniy daqiqalarni yaratish;
- o’z-o’ziga salbiy ta‘sir ko’rsatishning oldini olish va h.k.

O’qituvchining aktyorlik va rejissyorlik malakalari. O’qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta‘sir ko’rsatish uchun o’qituvchi pedagogik texnikasi tizimidan o‘rin olgan yana bir malaka – bu o‘qituvchining aktyorlik va rejissyorlik malakasidir. Xususan, adabiyot, odobnoma, ma‘niviyat asoslari, tarix o’qituvchilari uchun aktyorlik malakasi nihoyatda kerakdir. Ma‘lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni tavsiflayotganda aktyorlik, o’quv ma‘lumotlarini so’rash, o’quvchi-o’quvchilar faoliyatini tashkil etishda esa, o’qituvchiga rejissyorlik malakalari zarur. Bu malakalar o’qituvchiga yoshlar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchi – o’quvchilarning aql-idrokigina emas, balki ularning his-tuyg’ulariga ta‘sir ko’rsatish, ularga olamga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo’lish tajribasini o’zlashtirishga yordamlashadi. Shunday qilib, o’qituvchida yuqorida qayd etib o’tilgan pedagogik texnika ko’nikmalarini tarbiyalangan bo’lsa, u yoshlarni oqitish, tarbiyalash, va ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi. Ta‘kidlanganidek shaxsiy-kasbiy malakalar o’qituvchining ijtimoiy gumanitar, ixtisoslik hamda maxsus fanlar bo’yicha bilimlarini boyitadi pedagogik mahoratni egallashga intilishni kuchaytiradi, o’z kasbiga qiziqish va burch, hamda mas‘uliyatni his qilishni rivojlantiradi. Va bu malakalar yoshlarni o’qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ’ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

Kiyimning vazifasi – bu nafaqat insonni issiqdan, sovuqdan himoya qilish, balki o'ziga jalb etishni ham uddalashi kerak. Kiyimga qarab insonga bahoberiladi albatta, ozoda, yarashgan va sipo kiyim kishining ishiga talabchanligi va ichki kamtarligi haqida ma'lumot beradi. Pedagogning ijobiy qiyofasi, jozibasi, o'quvchilarga psixoterapevtik ta'sir o'tkazadi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi. O'qituvchida aniq bir obrazidagi individual, kasbi va yoshi imidjini o'zida muajassamlashadi. Yon atrofdagilar pedagogning shaxsiy, yoshiga doir, jinsiy hamda kasbiy sifatlarini muhokama qilishadi. O'qituvchi imidji individual va shaxsiy sifatlari, kasbiy faoliyati va xulqining kommunikativ xususiyatlari kabi xossalardan tashkil topgan.

Imidjni nimadan boshlab shakllantirish kerak?

Imidjning ma'lum qoidalariga tayanib, uning asosiy xossalarini ajratib olamiz.

Eng ahamiyatli xossalarga:

* tashqi ko'rinish;
* muloqotning verbal va noverbal vositalarining qo'llanilishi;
* kasb obraziga ich-ichidan mos kelishi – ichki shaxsiyat;
* pedagogik faliyatining uslubiy xususiyatlari;
* kasbiy yo'naltirilganlik.

Birinchi bosqich – tashqi ko'rinish, bunda pedagog imidjining asosiy xususiyati – ilk taassurot fenomeni, yangi vizual go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk, barkamol farzand voyaga yetkazish hamma davrlarda ham katta siyosiy mohiyat va ahamiyat kasb etib kelgan. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita aloqadordir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qanuniyat sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak har bir hatti harakati bilan pedagog shaxs atrofga tasir ko'rsatadi. U o'zi yashayotgan muhit uchun o'rnakdir. Shunday ekan yoshi va darajasiga nomunosib hatti harakatlar o'quvchilar unga taqlid qilishi ortidan yoyilib jamiyatga putur yetkazishi ham mumkin. Pedagog shaxs o'z shaxsiy hayotidan tashqari uni o'rab turgan atrof muhitdagilar hayoti uchun ham javobgar desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero uning har bir ko'rsatmasi, o'rnak qilib ko'rsatilishini unutmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://kompy.info/oqituvchi--shahlo-sharipova-tinglovchi--umarova-o-mavzu-pedago.html
2. https://kompy.info/oqituvchi--shahlo-sharipova-tinglovchi--umarova-o-mavzu-pedago.html
3. https://cyberleninka.ru/article/n/pedagog-shaxsi-va-unga-qo-yiladigan-talablar
4. https://izoh.uz/word/pedagog
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedagogika

CLIL AS AN INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL METHOD OF SCIENCE AND LANGUAGE TEACHING

Mirzakarimova Makhliyokhan Madaminjonovna,
(PhD) Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract. *This article reflects on the definition of CLIL method, developing the term of Content and Language Integrated Learning (CLIL), entrepreneurial skills, the progress of CLIL, features of CLIL and the important reason for the introduction of CLIL.*

Key words: *Content and Language Integrated Learning (CLIL) practice, dual-focused educational approach, classroom, school subjects, language, education, entrepreneurial skills.*

In an innovative initiative aimed at developing global competence and broadening worldviews, educational institutions are increasingly implementing Content & Language Integrated Learning (CLIL) programs. An innovative approach that integrates subject matter with language learning, CLIL is changing the way students perceive and engage with basic education.

CLIL provides an economical way to learn a language. This way of learning helps prepare the future workforce for our knowledge economy, as students can acquire both language and specialist knowledge at the same time. This teaching method was implemented in Canada in the 1960s and has been gaining popularity in Europe for the past 20 years. CLIL is an innovative method of language teaching. This teaching method integrates language and content to develop students' language skills and concrete knowledge at the same time.

Dr. According to the definition of Rainer and E. Wicke, CLIL is an abbreviated name of the concept of education within the framework of science-language integrated education. The various forms of implementation demonstrate the diversity behind this concept and the great interest in it in Europe.

Content and Language Integrated Learning (CLIL) is a form of education in which learning a foreign language is combined with mastering the content of other subjects. English as science and language integration (CLIL) is defined as the study of English with content from other subjects such as biology, geography or arts and technology.

Unlike the traditional teaching of English as a foreign language, students learn not only English, but also learn about other subjects with the help of this foreign language. CLIL has become widely recognized as a pedagogical method, especially in Europe. The opening of borders, economic development and globalization have actively involved CLIL in the educational process in Europe. Meanwhile, the concept has caught the attention of teachers outside of Europe.

The general concept of CLIL includes four different areas suitable for interdisciplinary learning. On the one hand, this is a direction that pays special attention to foreign language classes, where teachers combine aspects of science classes. On the other hand, there are three other directions, in which, on the contrary, we are mainly talking about the teaching of subjects of various levels with the participation of the English language.

CLIL is a methodological approach that goes beyond traditional language education. Instead of teaching language skills as a separate subject, CLIL places language learning in the context of education, economics, technology, and entrepreneurship. In this way, students gain a deeper understanding of academic subjects at the same time as they acquire knowledge of language learning.

One of the main goals of CLIL is to remove barriers to language learning and promote multilingualism. In today's interconnected world, knowledge of foreign languages has become an invaluable intellectual asset for graduates entering the global labor market. CLIL programs allow students to become bilingual or even multilingual. This will give them a competitive advantage in their careers in the future and effectively serve the development of our country, which is integrating internationally from various fields.

CLIL education takes students beyond textbooks and classrooms. Encourages young people to learn about real realities and cultural diversity in the world. Therefore, by immersing in the CLIL environment, students develop the knowledge and skills of creative thinking, flexibility and intercultural awareness. This broader perspective prepares them to make sound decisions in solving complex global problems and to communicate meaningfully on international issues.

Content & Language Integrated Learning is not just an educational approach; it represents a paradigm shift in education. It encourages educational institutions to move beyond traditional disciplinary boundaries and adopt interdisciplinary approaches that match the complexities of the modern world. As the demand for global competence increases, CLIL is emerging as a powerful tool for shaping tomorrow's leaders.

The main goal of developing students' entrepreneurial skills in English language classes with the help of most CLIL technologies is the development of entrepreneurial competence, that is, knowledge, skills and abilities that affect entrepreneurial activity in creating new value.

The widespread introduction of the development of entrepreneurial skills of students in English language classes in the field of education with the help of CLIL technologies will create opportunities for the growing students to create new jobs and companies, and will lead to the formation of social values of entrepreneurship in society.

The method of developing entrepreneurial skills of students in English classes with the help of CLIL technologies differs from traditional teaching methods. While the traditional teaching method uses a standardized, content-oriented, passive, and single-subject curriculum, the mechanism for building practical entrepreneurship skills is individualized, active, process-based, designed, collaborative, experiential, and multidisciplinary. approaches are emphasized.

But many of these debates are rooted in age-old debates between the philosophies of traditional and non-traditional teaching, positivism and interpretivism. Several researchers point out that there are partial similarities between entrepreneurship education and constructivist education. Other pedagogical approaches and activities similar to entrepreneurship education include experiential learning, continuous learning, service learning, problem-based, project-based learning, adult learning, cognitive apprenticeship, and social constructivist and others.

Some of the distinctive features of the mechanisms for developing students' entrepreneurial skills in English classes with the help of CLIL technologies are that not only the study of problems, but also the teaching in cooperation with the outside world are explored and attract attention, the novelty of the created value or attention is also paid to the study of innovativeness and existing opportunities.

In short, Content & Language Integrated Learning (CLIL) transforms education towards greater effectiveness by seamlessly integrating language learning with subject matter. It equips students with global competence, linguistics, and creative thinking skills and prepares them to thrive in an interconnected world. As more educational institutions recognize the value of CLIL, it paves the way for a future of inclusive, holistic and forward-thinking education.

References

1. Alberich, J English through Science (2009), as seen in CLIL – Coyle, Hood, Marsh (2010).

2. Asikainen, T. et al. (2010) Talking the Future 2010 – 2020: CCN Foresight Think Tank Report. Languages in Education. CCN: University of Jyväskylä.

3. Butzkamm, W. (1998). “Code-Switching in a Bilingual History Lesson”. In: International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 1(2), 81-92.

4. Coyle, D., Marsh, D. & P. Hood. (2010) Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Eurydice report. CLIL at School in Europe (2006): http://languages.dk/clil4u/ Eurydice.pdf.

JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA MA’NAVIY TARBIYA

Valixanov Saidjon Shoxobidinovich,
ADU Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Jismoniy tarbiya orqali erishilgan yuqori natijaning o‘zi shaxsni har tomonlama rivojlanganligini belgilaydi deb bo‘lmaydi. Jismoniy sifatlarga qo‘shib aqliy, axloqiy, ruhiy, estetik va ma’naviy sifatlar ham qo‘shib tarbiyalanishi shaxsning mehnat va Vatan himoyasiga tayyorligining dalolatidir.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloq normalari, go'zallik, muomala, mehnat.*

Ma'lumki, mavjud jamiyatda yashaydigan har bir shaxs har tomonlama rivojlangan bo'lishi lozim, afsuski, kishilar o'zida ruhiy, ma'naviy va jismoniy sifatlarni mujassamlashtirgan holda tug'ilmaydilar.

Bu sifatlarni kamol topishi, o'sha ijtimoiy sharoitga va mavjud tarbiya tizimiga bog'liq. Jismoniy tarbiya esa tarbiyanig boshqa tomonlari ichida muhimlaridan biridir.

Ijtimoiy muhit har tomonlama garmonik rivojlanishni, inson organlari va tizimlarining biologik rivojini har doim va har yerda ichki talab tarzida ifodalaydi.

Shuning uchun ham inson tarbiyasida qo'llaniladigan har qanday tarbiyaning turli shakllari jismoniy tarbiya jarayoni bilan ilojsiz bog'langandir. Busiz har tomonlama garmonik tarbiya amalga oshmaydi. Jismoniy tarbiyaning boshqa tarbiya turlari bilan bog'liqligini dialektik materialistik falsafa va tabiiy-ilmiy fanlarning ochiq munozarasi fandagi o'sha eski bahsni hozir ham davom ettirishga urinuvchilar mavjud bo'lib, odam tanasining tashqi ko'rinishi va uning funksiyasiga tashqi ta'sir bilan o'zgartirish kiritish mumkin emas deb, tarbiyaning rolini inkor etadilar.

Jismoniy tarbiya jarayoni qonuniyatlaridagina har tomonlama jismonan garmonik rivojlanishini yo'lga qo'ya olishni mumkunligi ilmiy asoslangan.

Kishining ruhiy, ma'naviy qobiliyatini o'sishiga eng avval o'sha ijtimoiy sharoit, so'ngra esa insonni o'zning muhitni o'zgartirish yoki uni o'zgartirish uchun olib borilgan faoliyati rol o'ynashligini I.M. Sechenov va I.P. Pavlovlarnig tabiiy fanlardagi dunyoqarashi allaqachonlar ilmiy va amaliy isbotlangan. Inson organizmining tashqi muhit bilan aloqasida shartli reflekslarning mohiyati katta ekanligini, jismoniy ham psixik faoliyat, bosh miya po'stloq qismida sodir bo'ladigan vaqtli aloqa orqali sodir bo'lishligining amaliy shohidimiz.

Ular ta'lim va tarbiya jarayonini kishilarda qator "uzun shartli reflekslarni hosil qilish" deb tushuntirdilar. Jamiyat talabiga muvofiq ravishda, shartli refleks aloqalarini yaratish shaxsning faqat ma'naviy shakllanishigagina emas, balki jismoniy jihatdan fiziologik poydevor bo'lishi mumkin ekanligini isbotladilar. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyilining asosiy talablari:

1. Tarbiyaning barcha tomonlarini bir butunligiga erishish. Jismoniy tarbiya orqali erishilgan yuqori natijaning o'zi shaxsni har tomonlama rivojlanganligini belgilaydi deb bo'lmaydi. Jismoniy sifatlarga qo'shib aqliy, axloqiy, ruhiy, estetik va ma'naviy sifatlar ham qo'shib tarbiyalansin. Shaxs o'shandagina mehnat va Vatan himoyasiga tayyor bo'ladi.

2. Keng va umumiy jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish. Jamiyat a'zolarining barcha ishlari aniq ma'nodagi mutaxasislikka yo'naltirilgan holda bo'ladi. Bunga, ayniqsa, mehnat va harbiy faoliyat davomida duch kelamiz. U yoki bu faoliyatdagi yutuq jismoniy tayyorgarlikka bog'liq. Armiya safida yoki mehnat frontida umumjismoniy tayyorgarligi sust bo'lganlar hayotda qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Jismoniy sifatlar insonda qanchalik yaxshi rivojlangan, hayot uchun kerakli zarur bo'lgan harakat va mehnat malakalari yetarli bo'lsa, boshqa faoliyatni oson va tez o'zlashtiradi. Jismoniy tayyorgarlikni yo'liga qo'yish uchun olib borilgan rejali faoliyat har tomonlama garmonik rivojlantirishning omilidir.

Har qanday jamiyat azal-azaldan o'zining axloq normalari va ularning talablari bilan biri-biridan ajralib turgan, ayrim holda keskin farqlangan. Bu talablar va normalardan jamiyatning mavqeyi, o'rni, darajasini belgilash, baholashda foydalanilgan. Axloqiy tarbiya ularga jamiyat a'zolari rioya qilishidek zarur muammolarni hal qilishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari, sport trenirovkalari, turli xil musobaqalar va ko'ngil ochish tadbirlari ahloq normalarini shakllanishi, tarbiyalanishida vosita rolini hozirgi kunda ham o'ynab kelmoqda. O'zaro munosabat, muloqot, umuminsoniy qadriyatlar, millati, xalqi, davlati, shon-shuhrati uchun qayg'urish hissiyoti jismoniy tarbiya jarayonida to'g'ridan-to'g'ri tarbiyalangan.

Mamlakat sportchisining ma'naviyati – bu, millat vakili, mavjud jamiyat kishisining ma'naviyatidir. O'zbek sportchisining ahloq normalari maxsus, alohida emas. Ular ham mazkur

jamiyatning oddiy a’zosining ahloqiy normalaridan farq qilmaydi. «Sportchining ahloqi» degan ahloqni tuzushga urinish sharq xalqlari ahloq normalaridan uzoqlashishga olib keladi.

Biz qisqa fikrli, tor o‘ylaydigan faqat sport bilan shug‘ullanadigan baquvvat, yaxshi hazm qilish organlariga ega bo‘lganlarni emas, fikrlar doirasi keng, ma’naviy boy, kirishuvchan, tashkilotchilik qobiliyati yaxshi bo‘lgan individni tarbiyalashni nazarda tutmog‘imiz lozim. Bu sifatlar ko‘proq navqiron mamlakatimiz yoshlari uchun taalluqlidir.

Sportchilar ma’naviy tarbiyasining asosiy xususiyatlari, uni jismoniy tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yilishi quyidagi yo‘nalishda va shaklda bo‘lishiga e’tibor qaratilmoqda:

1. Jamoatchilik burchiga ijtimoiy munosabatda bo‘lish, jamiyat ishini o‘z shaxsiy ishi bilan teng qo‘yish, jamiyat va davlat ishini darajasini pasaytirmaslik. O‘zining jismi tarbiyasiga ongli munosabatda bo‘lish, Vatan mudofaasiga doimo tayyorlik har bir jamiyat a’zosining umumiy burchiga aylangan bo‘lishligi sport hayotidagi maqsadni birligi va umumiyligi barcha uchun yagona qonuniy ahamiyatga ega bo‘lishligi, uni jamoa faoliyatida gavdalanishi, jamiyati jismoniy madaniyati tarixi, an’analari, millatining shoni uchun jamoaning kuchini umumlashtira bilishlik xususiyati.

Mamlakat sportchisi xalqaro maydondagi g‘alabalarning hal qiluvchi omili ekanligi, o‘z xalqi, Vatan oldidagi javobgarlik burchini his qilabilishlik xususiyati.

2. Jamoat mulkiga (sport inshoati, undagi jihoz va anjomlarga) ijtimoiy munosabatni sport maydonlarini jihozlash va qayta jihozlash ishida ishtirok etish.

3. Jamiyat a’zolarining ahloq normalarini eng asosiy mehnatga ijtimoiy munosabatda bo‘lishlikdir. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish shug‘ullanuvchi mehnatda, ishlab chiqarish jarayonida har tomonlama garmonik rivojlanishini amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Sportchini sport natijasiga erishishi mashaqqatli bo‘lib, chidamli mehnatni talab qiladi. U rekordlarnigina yangilash bilan mehnat jarayoni uchun iroda, intizom, mehnat qilishga odatni shakllantiradi, mehnatni qadrlashga o‘rganadi.

4. Jismoniy madaniyat jamiyat qonunchiligiga bo‘ysunishga o‘rgatadi. Gimnastika, o‘yinlar, sport, turizm va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish tarbiyalanuvchilardan belgilangan qoidaga, tartibga qat’iyan rioya qilish talabini qo‘yadi. Ularga bo‘ysunmaslik sportchini yoki tarbiyalanuvchini umumiy maqsaddan uzoqlashtiradi. Sport faoliyati sportchi hayotini havf ostida qoldirishi – masalan, to‘p uchun kurashayotganda o‘yinchilar bir-biri bilan to‘qnashib ketdi. Kimdir aybdor. Qo‘pollikka javob qilgingiz keladi. Lekin sportchi axloq normalari, o‘zini qo‘lga olish va nizoli holatni tinch yo‘l bilan hal qilish uchun lozim bo‘lgan axloqiy normalar, talablarni ustun kelishi xususiyati.

5. Gumanizm, insonni hurmat qilish, kelajak uchun, tinchlik uchun kurashishga zamin, bir-birini qo‘llash, yordam berish, ayniqsa, musobaqalar davomida o‘zaro o‘rtoqlik yordami o‘z raqiblariga nisbatan hurmat ruhida bo‘lish turkiy xalqlarda o‘ta yuqori bo‘lganligi, mustahkam salomatlik va jisman tayyorgarlik jamiyat a’zosining axloq normalari, irodasi va boshqa xususiyatlarni tarbiyalash xususiyatlarini shakllantiradi.

Jismoniy tarbiya jarayoni orqali estetik tarbiyaning ham alohida vazifalari hal qilinadi:

1. Muomala estetikasini tarbiyalash. Gimnastika, sport, o‘yinlar, turizm, yuqorida bayon etilganidek, insonning barcha xususiy tomonlarini namoyon qiladi. Sportchilarning yurish-turishi sport hayotiy jarayoni va undan tashqarida havas qilgudekdir. Chunki uning asosida sharq xalqlari axloq normalari yotadi. Yomon muomala estetikaga zid deb baho beriladi.

2. Inson gavdasining ko‘rinishi, shakli-shamoyili tarbiyalanadi. Jismonan garmonik rivojlangan odam gavdasining chiroyliligi, sog‘lik hayotiy qobiliyatlarining yaxshiligi belgisidir. Chernishevskiy: «inson go‘zalligi haqida gapirar ekanmiz, uning tarkibiy qismi shuni belgilaydiki, bizda u ajoyib taassurot qoldiradi. Unda hayot namoyon bo‘ladi, biz uni tushunamiz», - degan edi.

3. Go‘zallikni qabul qila bilish qobiliyatini, sport texnikasi, harakatlar nafisligi ifodasida yashirin go‘zallikni his qila olishni tarbiyalash yotadi. Harakat texnikasi go‘zallik, harakat nafosati, uning mazmunini ifodalashning o‘zi ham go‘zal.

Jismoniy tarbiya jarayonida foydalanilayotgan harakat faoliyati bir-biriga o‘xshash emas. Lekin ularning har biri – yugurishning chiroyliligi, balandlikka sakrashda, sakrovchini harakatlari rekord og‘irlikni ko‘tarishi texnikasi, gimnastika snaryadlarida «ishlash mahorati» – hammasi go‘zal.

Futbol maydonidagi o‘yinga qarab baho berish: “chiroyli o‘yin bo‘ldi”, “o‘yin juda qiziqarli chiqdi”, “jamoa hujum paytida to‘p bilan muomala san’atining yuqoriligini namoyish qildi” deb va hokazolar.

Sportdagi harakat go‘zalligini tushunish tomoshabin yoki shug‘llanuvchiga huzur baxsh etadi. Sport kurashida go‘zallikni, chiroylilikni ko‘ra olsak, bu bizning estetik didimizni, saviyamizni darajasini ko‘rsatadi.

Boksga estetik sport turi emas, deb baho beradilar. Bu mulohaza to‘g‘rimi? Yuqori texnik tayyorgarlikka ega bo‘lgan bokschilar harakati olam-olam zavq beradi. Qolaversa ruhiy, ahloqiy, jismoniy sifatlarni rivojlantiradi, namoyon qiladi. Yaxshi bokschi mard, irodali, botir bo‘lishi amaliyotdan aniq. Did bilan tushunib, tomosha qila olishni o‘zi estetik zavq beradi, uni tarbiyalaydi. Takomillashgan harakat texnikasi, avtomatizm darajasidagi harakat ko‘nikmasiga ega bo‘lgan sportchilar harakat faoliyatini erkin, ravon, keraksiz kuch sarflashlarsiz, keraksiz harakatlarsiz bajaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik. Farg‘ona nashiryoti – 2017-yil.
2. R.S. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2005-y.
3. Xonkeldiyev Sh.X. va boshqalar. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. Uslubiy qo‘llanma. “Farg‘ona” 2011-y.
4. Q.T.Arabboyev. Jismoniy tarbiya va sportga oid derektiv hujjatlar. Namangan nashiryoti –2012-yil.
5. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. “Nihol” Toshkent nashriyoti.

SIFATLI TA'LIM BERISHDA USTOZLARNING KO‘P QIRRALI BO‘LISHI HOZIRGI DAVR TALABI

Sultonov Shamsiddin Bo‘stonovich,
Respublika xalq ta’lim a’lochisi

Annotatsiya. *Sifatli ta'lim berishda ustozning ko‘p qirrali bo‘lishi va bolaga sifatli ta'lim berishda ustoz bolani maktab yoshiga yetgach bola bilan ishlashda bola harakteridan kelib chiqib kelajakda qanday kasb egasi bo‘lishida bolaning psixoligik harakterini bilishi kerak. Chunki bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan o‘z oldiga juda ko‘p orzu va kasblar tanlab qadam tashlaydi.*

Kalit so‘zlar: *sifatli ta’lim, ustoz, tarbiya, maktab.*

Prezidentimiz tomonidan ta'limga katta e'tibor berib kelmoqda. 2023-yil ham sifatli ta'limga e'tibor deb bejizga aytilmagan. Ustozlar o‘z ishini yaxshi, mukamal bilish bilan birga avlodga ta'lim tarbiya berishda davr talabiga mos holda ish yuritishi zarur. Biz ustozlar kelajak avlodni har tomonlama ko‘p qirrali bo‘lishiga kelajakda mustaqil yurtimiz uchun yetuk kadr bo’lishida ustozni ro’li katta. Shunday ekan hozirgi davrda ustoz ingliz, rus tili adabiyot, rasm, san'atni va sheriyatni bilishi, talabchan bo’lishi davr talabi. Biz yosh avlodni kelgusi xayot uchun doimo yangicha metodlar bilan va yangicha dars berilishini oldimizga vazifa qilib olishimiz kerak. Shunda bola o‘z kasbining ustasi yetuk kadr bo‘lib yetishadi xayotda o‘z o‘rnini topadi, dadil fikrini bayon qilib, o‘z o‘rnini topa oladi. Biz ustozlar o‘z ustimizda ishlab ingliz, rus va

o‘z tilimizda bir narsani xayotda qanday ekanligini tushuntirish bilan birga bolaga dars tayyorlash rasmlar orkali tushuntirish metodlarini foydanishimiz kerak shart. Shunday ekan biz mustakil yurtimiz uchun yesh avlodni yaxshi tarbiyalashda bilim va tajribamizni ayamasligimiz kerak. Ular bilan birga bola kungliga olib sher, ashula, rakslar tushib u'zini dadil bulishida kuprok tedbirlar tashkil etib,u orqali epchil, chaqqon, bilimdon va o‘z fikrini barcha oldida uyalmay ayta oladigan kilib tarbiyalash asosiy maksadimiz.Kitob ukish,undan foydalanish inson ongi ozukasi yekanligini tushuntirib,ularni kitobxonlikka da'vat yetib,shu yrishda uzimiz kosh nochnuma bulishimiz zarur. Shunda bola xayotga va o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishi ortadi, yaxshi kasb egasi bo‘lib yetishadi. Yuqoridagilarni ruyobga chiqishda ustozni ko‘p qirrali bo‘lishi zarur ekanligi ko‘rsatadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqida fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – falokat masalasidir” degan chukur ma'noli so’zlari ta'lim va tarbiya sohasining muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Madaniy tadbirlarlarni tashkil etishdan asosiy maqsad ham insonlarga to’g’ri tarbiya berishdir. Madaniy tadbirshunos olim, professor U.X.Qoraboyev bu xususida “Badiiy ommaviy tadbirlar” kigobida shunday yezadi:

“Ssenariy yozish bilan kim shug’ullanmasin, u quyidagi talablarga javob bermog’i lozim:

a) ijtimoiy-siyosiy, madaniy xayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to’g’ri tahlil qila oladigan shaxs bo’lmog’i;

b) adabiyot va dramaturgiya sohasida bilimga ega bo’lgan, ulardan samarali foydalana oladigan kishi bo’lishi;

v) xayotiy materiallarni, hujjatli dalillarni yig’a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo’lmog’i lozim”

Ssenariychilik mahorati asosan uchta tamoyilga tayanadi, ya'ni ijodiy kuzatishning shakllanishi (ssenariy muallifi uchun juda ham kerak bo’lgan hayotiy materiallarni topib, ajrata olish), dramatik fikr qilishni rivojlantirish (ssenariy ustida ishlashda zarur bo’lgan dramaning umumiy nazariyasiga rioya qilgan holda syujetlar ketma-ketligi va tadbirning kompozision tuzilishini to’g’ri belgilash), ijodiy tasavvur va obrazli hal etish.

Sifatli ta'lim berishda ustozning ko‘p qirrali bo‘lishi va bolaga sifatli ta'lim berishda ustoz bolani maktab yoshiga yetgach bola bilan ishlashda bola harakteridan kelib chiqib kelajakda qanday kasb egasi bo‘lishida bolaning psixoligik harakterini bilishi kerak. Chunki bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan o‘z oldiga juda ko‘p orzu va kasblar tanlab qadam tashlaydi. Shu bilan birga yaxshi o‘qishga harakat qiladi. Shuning uchun biz bolaga tarbiya berishda asosan ustozning o‘z kasbining mutaxassisi bo’lishligi, bolani fanlarga, kitob o‘qishga, sportga, adabiyot va san'atga bo‘lgan qiziqishlarini uyg’ota olishi lozim. Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat, Zulfiya, Amur Temur va boshqa ko‘plab allomalarimizni hayoti va ijodini o‘rgatish, o‘quvchilarga yurtini, xalqini sevish, vatanga bo‘lgan muqaddas burchini himoya qilishga doim tayyor ekanligini va jamiyatimiz uchun kerakli kasb egasi bo‘lib jamiyatga foyda keltirishida ustozning roli juda kata bo‘ladi. Ustoz o‘zi ko‘p qirrali bo‘lib o‘zidan ustoz-shogirt an'anasini qoldirish kerak va o‘quvchilarning jamoat oldida uyalmaslik o‘z fikrini ko‘pchilik oldida bayon etish, epchil va chaqqon bo‘lishida ko‘proq tadbirlar o‘tkazib, bolaning ongining charxlab borishda asosiy vazifani bajarish kerak. Ustozning ko‘p qirrali bo‘lishida o‘quvchilarning bo‘sh qolgan vaqtida o‘zlashtirmagan darslarni o‘zlashtirishda va to‘garaklar ochib o‘quvchilarga kelajakda o‘z kasbini topishda ustoz asosiy rol bo‘lishi kerak. Ustozlar agarda o‘z fanini va kasbini yaxshi sevsa, maktab o‘quvchilari to‘laqonli bilimga ega bo‘lsa, maktabdan hech qachon repetitor ustun bo‘lmaydi. Buning uchun ustozlar ko‘p qirrali bo‘lishi va kelgusi avlodni kelajakda yaxshi kasb tanlashda asosiy rol egallagani aniq va ravshan bo‘ladi.

Xulosa

Maqolada yosh avlodni o‘zini anglash va o‘zini har joyda fikrini to‘liq tarzda bayon eta olish va nutq borasida o‘sishga o‘rgatish metodlari ko‘rsatilgan. Shunday ekan biz kelajak avlodga bog‘cha yoshidan boshlab tadbir kechalar, uchrashuvlar o‘tkazib borishimiz kerak ekan.

Maktab va maktabgacha muassasalarda tadbirlar o‘tkazish hozirgi davr talabi. Bolani ongini o‘sishi va fikrlash qobiliyati va jamoada o‘zini dadil tutishga va fikrini ayta olishga asos buladi.

Foydalanilgan adabioytlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Kitob. 47 b.
2. Sh.Mirziyoyev televideniya nutqi.
3. https://ziyonet.uz/

IKKINCHI TILNI O’RGANISH JARAYONIDA INTERNET RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Sirojidinova D.B.,
Toshkent axborot texnologiyalari univarsiteti
Farg’ona filiali Xorijiy tillar kafedrasi assistant o’qituvchisi

Bugungi shiddat bilan o’zgarib borayotkan zamonda internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Bunday imkoniyatlarda samarali foydalanish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish eng asosiy tayanch hisoblanadi. Global internet dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan talabalar va o’qituvchilar uchun zarur bo’lgan har qanday ma’lumotni olish uchun sharoit yaratadi shuningdek ta’lim olish jarayonida mustaqil yondashishga ham qulay muhit yaratadi. Misol uchun: mintaqaviy geografik materiallar, yoshlar hayotidagi yangiliklar, gazeta va jurnallardan maqolalar, ilmiy tadqiqotlar uchun ilmiy adabiyotlar, zamonaviy hayotning asosi hisoblangan eng so’nggi texnologiyalar kashfiyoti va boshqalar. Ingliz tili darslari davomida internetdan foydalangan holda bir qator didaktik muammolarni hal qilish uchun qo’llashimiz mumkin: global tarmoq materiallaridan foydalanib o’qish ko’nikma va malakalarini shakllantirish; ikkinchi til o’rganuvchi o’quvchilarining yozish qobiliyatini oshirish; talabalarning so’z boyligini to’ldirish; talabalarning ingliz tilini o’rganish motivatsiyasini shakllantirish. Bundan tashqari, bu til o’ragnuvchi o’quvchilarining fikrlash doirasini kengaytirish, ingliz tilida so’zlashadigan mamlakatlarda tengdoshlari bilan do’stona munosabatlari va aloqalarini o’rnatish va qo’llab-quvvatlash uchun internet-texnologiyalar imkoniyatlarini o’rganishga qaratilgan. Ta’lim sohasiga yo’naltirilgan aqilliy texnikalar yordamida til o’rganuvchilar o’zlari o’rganayotgan ikkinchi tilda internetda o’tkaziladigan testlar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etishlari, boshqa mamlakatlardagi o’zlari qiziqqan oliy ta’lim a’zolari bilan yozishmalar, suhbatlar, videokonferentsiyalarda qatnashishlari mumkin. Shundan kelib chiqadigan bo’lsak. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari ta’lim sohasini yanda rivojlantirish va takomillashtirish uchun yaratilgan inson ongging eng yetuk ma’suli deb hisoblasak bo’ladi. Axbator ta’lim texnologiyalaridan ommaviy foydalanishning mazmunli asoslari zamonaviy kompyuter mehnat sharoitlarini o’qitish tizimiga, umuman, uning har qanday ko’rinishlarini samarali vositasi ekanligini yillar davomidagi tajribalar asosisda isbotladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyasi yoki oddiy misolda oladigan bo’lsak kompyuterning bir o’ziga xos xususiyati bor,bu uning jonsizligi,uni boshqalarga o’rgatish uchun vosita sifatida va bilimlarni egallashda yordamchi sifatida ishlatishda aniqlik bilan tushunib olish mumkin. Bunday texnologiylar foydalanuvchi bilan "do’stona" aloqada bo’lishi mumkin va ba’zi paytlarda uni "qo’llab-quvvatlaydi", ammo u hech qachon g’azablanish alomatlarini ko’rsatmaydi va sizni zerikkan deb his qilishingizga imkon bermaydi. Shu ma’noda, kompyuterlardan foydalanish, ehtimol o’qitishning ayrim jarayonlarini yakka tartibda samarili tashkil qilishda eng foydalidir. Oliy ta’lim tizimida chet tilini o’rganishning asosiy maqsadi muloqot xususiyatlarini shakllantirishdir, boshqa barcha maqsadlar ya’ni o’qitish, rivojlantirish shuningdek tarbiyalash ushbu asosiy maqsadni amalga oshirish jarayonida shakllantirilib boriladi. Kommunikativ yondashuv muloqot xulqini o’rgatish va internet faoliyatining asosi bo’lgan madaniyatlararo ta’sir o’tkazish qobiliyatini shakllantirishni o’z ichiga oladi. Bugungi

kun talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, muoqotdan tashqarida internetning deyarli ma'nosi yo'q – bu xalqaro ko'p millatli, madaniyatlararo yangicha shakllantirilgan alohida jamiyatdir, uning hayoti dunyodagi odamlarning elektron aloqasiga asoslangan bo'lib, bir vaqtning o'zida muloqotni saqlab qolish uchun ko'plab amallarni bajara olmoqda – jarayon sodir bo'lgan ishtirokchilar soni va hajmi bo'yicha eng katta suhbat doirasidir. Ushbu muloqot doirasi va zamonaviy ta'lim texnalogiyalaridan foydalangan holda darslarda qatnashish xususan xorijiy tilni targ'ib etish uchun, biz haqiqiy ta'lim modelini yaratishimiz mumkin bo'ladi. Hozirgi vaqtda ta'limda aloqa, pedagogik metodlar, interaktivlik, muloqotning haqiqiyligi, madaniy sharoitda tilni o'rganish, ta'limning alohidaligi va insonparvarligi masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ushbu tamoyillar madaniyatlararo xususiyatlarni muloqot qobiliyatning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishga imkon beradi. O'quv jarayonlarini tashkil etishda ko'plab turdagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mumkin bo'ladi. Ayniqsa bu xorijiy tilni o'qitish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi va samarasi juda tez seziladi. Ikkinchi chet tilni o'qitishda shu qatorda Ingliz tilini o'qitishdagi innovatsiyalarga quyidagilarni misol tariqasida olishimiz mumkin bo'ladi:

Raqamli platformalar ingliz tilini o'qitishdagi innovatsiyalarni muhokama qilganimizda, birinchi navbatda raqamli platformalar bizning xayolimizga keladi: Facebook, Edmodo, Moodle Cloud, Schoology, Google Classroom. Raqamli platformalar o'qituvchilar va talabalarga ta'lim jarayonini tashkil etishda o'zaro axborot almashinish va bog'lanishi, o'rganishni yaxshilash uchun savollar berishlari, raqamli talim vositalari bilan darslarimizni tashkillashimiz va turli baholash turlarini yaratishimiz mumkin bo'lgan joy sifatida yaratishda yordam beradi.

Korpus – bu matnlar to'plami. Korpora, "korpus"ning ko'plik atamasi Internet orqali yoki ish stollarida o'rnatilgan dasturiy ta'minot sifatida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan elektron haqiqiy til ma'lumotlar bazalarini anglatadi. Endi Corpora lingvistik tuzilmalarni, chastotalarni va hokazolarni o'rganish uchun taqdim etildi. Matnlarni tahlil qilish tufayli mavjud bo'lgan vositalardan ba'zilari quyidagilardir: Linguee, Vocabulary Profilers, TOEIC Word Liists, New General Service List va Academic Word List.

Mobil texnologiyalarning rivojlanishi va smartfonlarning ko'payishi ko'pchiligimizga ta'lim olishimiz uchun keng imkon berdi. Har qanday sharoitda turgan holda yo'lda bo'ladimi, uyda bo'ladimi yoki sinfxonasidami aqlli aloqa vositalari beminnat yordamchi bo'lib qolgan. O'quv xonasida uyali telefondan foydalanish haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Ushbu g'oyani bir o'ylab ko'ring, bu talabalarni darsga yanada ko'proq va tezroq jalb etish usuliga aylanib qolishi mumkin siz uchun. Bu albatta tajribada sinalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Darling-Hammond L., & Bransford J. (Eds.). Preparing Teachers for a Changing World: What Teachers Should Learn and Be Able to Do. San Francisco, CA: Jossey-Bass, 2005. – 25 p. (in English).

2. [Electronic resource]: Nazarbayev N.A. Annual Presidential Address of the Republic of Kazakhstan, Leader of the Nation, N.Nazarbayev "Strategy Kazakhstan-2050". URL: http://www.akorda.kz, date of the application/ (date of access: 22.11.2016). (in Russian).

3. [Electronic resource]: "Information and communications technology for language teaching". URL : http: //www. ict4lt.org/en/index.htm, date of the application/ (date of access: 22.11.2016). (in English).

4. [Electronic resource]: ISTE Standards for Students. Retrieved from: URL: https://www.iste.org/standards/ standards-for-students (in English).

5. Sirojidinova, D. B. (2022). BRIEF INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF LINGUOCULTURALOLOGY. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *1*(4), 131 – 134.

6. Sirojidinova, D.B.Q., & Murodova, S.A.Q. (2022). Ingliz tilida modal fe'llarining o'ziga xos xususiyati. *Science and Education*, *3*(1), 419-423.

7. Sirojidinova, D. (2022). MULOQOT–SHAXSLARARO AXBOROT ALMASHINUV JARAYONI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(5), 335-337.

8. Sirojidinova, D. B (2023). MULOQOT VA MADANIYAT, Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi-4\3-2023

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING SECOND LANGUAGE

Sirojidinova D.B.,
Fergana Branch of Tashkent University
of Information Technologies Department
of Foreign Languages assistant teacher
Umaraliyeva M.B.,
Fergana State University faculty
of philology student of Russian language and literature

The work on the project can be carried out either individually or in groups. Working in groups, the participants of the joint project should distribute the roles and realize that success depends on the contribution of each participant. Project work begins in the classroom as a teacher-supervised activity. Projects may be short-term or long-term. Depending on the type, they can be presented at the next lesson, or at the final lesson. It is important to organize the work using project, creating the most favorable conditions for the disclosure and manifestation of the creative potential of the participants. In my experience, I organize post-project exhibition of the works, so that other students, parents and teachers should be able to see and appreciate the importance of this work.

Shaxs shakllanishi real sharoitlarda amalga oshadi, bunga muvofiq individual iqtidor rivojlanadi. Bir kishining iqtidori boshqasinikidan tubdan farq qiladi, taraqqiyot jarayonida iqtidorning o`ziga xos tartibi tarkib topadi. Natijada bir shaxsda maxsus talantga aylanmagan, turli yo`nalishlarda namoyon bo`luvchi umumiy iste’dod, boshqa bir shaxsda esa muayyan bir yo`nalishdagi talant shaklida rivojlangan bo`lishi mumkin.

P.Torrens ma’lumotlariga ko`ra, maktab o`quvchilarining 30 foizini iqtidorli va yuqori iqtidorli bolalar tashkil qiladi. Iqtidorli bola – bu faoliyat ko`rinishida yaqqol o`zini ko`rsata oladigan, muvaffaqiyatga erisha oladigan yoki muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo`lgan boladir.

Ta’lim tizimida bolalardagi iqtidor belgilarini aniqlab olishda qiyinchiliklar mavjud. Boladagi yuqori aqliy faollik – bu aqliy o`sishning ichki shartidir. Uning keyingi yosh davrlarida ham barqaror saqlanib qolish yoki qolmasligi noma’lum. Boladagi ijodiy intilishlar muammoga yangicha yondashuv ham iqtidordan dalolat bergani bilan uning keyingi taraqqiyoti noma’lum. Shuning uchun ham bolalarning erta namoyon bo`ladigan iqtidori hali uning kelajakdagi imkoniyatlarini belgilab bera olmaydi.

Bola iqtidorini aniqlash – murakkab vazifa bo`lib, bunda yuqori darajada ishonchlilik va validlika ega bo`gan diagnostik vositalar, tekshiruvlar natijalarini har tomonlama tahlil qilishning samarali usullari zarur bo`ladi. Iqtidorli bolalar o`zlarida qobiliyat bo`lgan faoliyat bilan band bo`lishga intilishadi. Ular o`zlari yoqtirgan ish bilan kunlab shug’ullansalar ham charchamaydilar. Bu ish ular uchun bir vaqtda o`yin va mehnatdir. Ularning barcha kechinma, qiziqish, izlanish va muammolari mana shu ish atrofida namoyon bo`ladi.

Iqtidorli bolalar bir-birlaridan iqtidor ko`rinishlariga qarab tubdan farqlanadilar. Badiiy iqtidor maxsus maktablar, to`garaklarda qo`llab-quvvatlanadi va rivojlanadi. Bunda badiiy ijod va musiqa ijrochiligi, tasviriy san’at, haykaltaroshlik, aktyorlik qobiliyatlari yuqori darajada bo`ladi. Bunday bolalar o`z sohalarida yuksak cho`qqilarga erishishi uchun ko`p kuch-quvvat sarflaydilar. Ularda fanlarni muvaffaqiyatli o`zlashtirishi uchun vaqt yetmaganligi bois o`qituvchi va tengdoshlari ularni tushunishlari va individual dasturlar zarur bo`ladi.

Akademik iqtidorga ega bolalar asosiy tushunchalarni va ma’lumotlarni tez va oson eslab qoladilar. Axborotlarni qayta ishlash qobiliyatining yuqoriligi ularga ko`plab bilimlarni egallash imkonini beradi, fanlarni muvaffaqiyatli o`zlashtiradilar. Bunday bolalar o`zlari muhim deb hisoblagan matematika, xorijiy til, fizika yoki biologiya fanlaridan oson o`zlashtirib, muhim deb hisoblamagan fanlarni qiyinlik bilan o`zlashtiradilar.

Ijtimoiy iqtidor boshqa insonlar bilan o`zaro aloqalarni o`rnata olish qobiliyatida ko`rinadi. Uning ijtimoiy perseptsiya, ijtimoiy xulq, axloqiy muhokama, tashkilotchilik qobiliyati kabi tarkibiy elementlari bor. Ijtimoiy iqtidor bir necha sohalarda muvaffaqiyat qozonishni ta’minlaydi. O`rtadan yuqori intellekt, qaror qabul qilish ko`nikmasi, mavhum tushunchalar bilan ishlash, kelajakni ko`ra bilish, vaqtni taqsimlay olish malakasi, maqsadni aniqlash, egiluvchanlik, moslashuvchanlik, ma’suliyat hissi, o`ziga va bilimiga ishonch, qat’iyatlilik, tashkilotchilik, fikrni aniq bayon eta olish ijtimoiy iqtidorni namoyon etuvchi ko`rsatkichlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Do`stmuhamedova Sh.A. O`quvchilarning o`quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi. – Toshkent, 2000. – 19 b.
2. Лейтес Н.С. Возрастная одаренность школьников – М.: Мысль 2000.

TA’LIM JARAYONIDA KOGNITIV USLUBNI INTELLEKTUAL FAOLIYAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Badritdinova Madina Baxromovna,
NamDPI psixologiy fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Respublikamizda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri mustaqil qaror qabul qila oladigan va ijodiy fikrlaydigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashdir. Istiqlol sharofati bilan Respublika xalq ta’limi, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirliklarida o’qitish hamda tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirishga oid bir qancha qarorlar, nizomlar, qonunlar, konseptsiyalar ishlab chiqildi. Bu hujjatlar barcha o’quv yurtlarida uzluksiz ta’lim – tarbiya berishda uyg’unlikni ta’minlashda ham nazariy, ham amaliy dastur vazifasini o’taydi. Bugungi islohotlar davri o’qitishning samarali metodlarini yaratishni, o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni, inson shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning yetakchiligini ta’minlashni, o’quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-

tuyg'ulari, kognitiv uslubga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan bir xil ta'lim-tarbiya beriladi. Lekin o'quvchilarning o'zlashtirishlari va o'quv faoliyatini qabul qilishlari har xil. O'quvchining ta'lim jarayoniga munosabati o'quv faoliyatida diqqatini to'g'ri yo'naltira olishi, qiziqishi va qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun iroda kuchini sarflashga tayyor ekanligida namoyon bo'ladi. O'quvchilar tomonidan bilimlarni muvaffaqqiyatli o'zlashtirilishi ular diqqatining barqarorligi, tez va oson zarur ob'yektlar ustida to'planishi, to'g'ri taqsimlanishi, idrok qilishning aniqligi, tafakkur qilishning tezligi, izchilligi, mazmundorligi, mustaqilligi, chuqurligi, esda saqlashning mustahkamligi, qayta esga tushirishning aniqligi, axborotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash jarayonining o'ziga xosligi va boshqa xususiyatlarga bog'liq. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilar kognitiv uslubini o'rganish va diagnostika qilish dolzarb vazifalardan biridir [1].

"Kognitiv uslub" tushunchasi psixologik adabiyotlarga ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, "*cognitive style*" so'zi tarjima qilinganda "bilish uslubi" degan ma'noni anglatadi. Biroq, "bilish" va "kognitiv" tushunchalari sinonim emas. "Bilish" – ob'yektiv voqealikni individual ongda aks ettirish jarayoniga tegishli bo'lib, u sensor, pertseptiv, mnemik, fikrlash shaklidagi bilish obrazlaridir. "Kognitiv" – tushunchasi turli darajadagi bilish obrazlarining shakllanishida ishtirok etadigan axborotlarni qayta ishlashning psixologik mexanizmiga taalluqlidir. Oddiy qilib aytganda, borliqni o'rganishning o'ziga xos individual uslubidir [2].

Kognitiv uslub – kishining o'zini o'rab turgan olamdagi axborotlarni qayta ishlashining o'ziga xos individual uslubi bo'lib, u idrok, analiz, qayta tuzish, toifalash va baholashdagi individual farqlarda o'z aksini topadi. O'z navbatida mazkur kognitiv munosabatlar ayrim tipik shakllarni tashkil etadi, shunga ko'ra kishilar bir-biriga o'xshashi yoki farq qilishi mumkin bo'ladi (Gaiss, 1978) [3].

Kognitiv uslub tushunchasi shaxs psixologiyasi va bilish psixologiyasining chegarasida shakllangan. Uslub so'zining qo'shilishi bilan u o'ziga xos tusga ega bo'lgan. Shaxs psixologiyasida uslubni individuallik namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida ta'riflansa, bilish psixologiyasida esa intellektual faoliyatning rasmiy tabiatga ega ekanligini ta'kidlagan holda, uning psixik taraqqiyotning past yoki yuqori darajasiga aloqador emasligi e'tirof etiladi.

Uslubli yondashuvning shakllanishi bilish psixologiyasining predmetini transformatsiya qilinishiga olib keldi. Agar dastlab bilish psixologiyasi bilish faoliyatining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan bo'lsa, hozirda kishilarning borliqni bilish uslubidagi individual farqlarning mexanizmlari haqidagi fanga aylandi.

Bugungi kunda zamonaviy psixologiyada kognitiv uslublarning bir necha turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, Genri Uitkin tomonidan kognitiv uslublarning ikki turi maydonga tobelik va maydondan mustaqillik tipi aniqlandi. G.Uitkinni kishining maydondagi xulq-atvor xususiyatlari, ayniqsa "figura – fon", "qism – butun" effekti ko'proq qiziqtiradi. Bu uslub dastlab G.Uitkin tomonidan fazoviy orientatsiyalarga xos individual uslubni o'rganish natijasida tavsiflangan edi. Ma'lum muddat o'tgach, murakkab geometrik tasvirlardagi oddiy detallarni topish bilan bog'lik vazifani hal qilishdagi pertseptiv faoliyatga xos individual uslub o'rganilgan [4]. G.Uitkin ishlarida kognitiv uslub tushunchasi geshtalt psixologiyadagi maydon va maydondagi xulq-atvor haqidagi geshtalt psixologik tasavvurlar doirasida shakllandi. Har bir kishiga predmetli va ijtimoiy borliq (maydon) turlicha darajada ta'sir etadi.

1. Maydondan mustaqil tip G.Uitkin bo'yicha kognitiv uslub turlaridan biri bo'lib, xulq-atvor ichki faollikka yo'naltirilgan bo'ladi. Shuning uchun bu tipga kiruvchi shaxslar murakkab kontekstni osonlik bilan yenga oladilar, ya'ni murakkab yaxlit detalni tarkibiy qismlarga ajrata oladilar, tavsiya etilgan vaziyatni qayta hosil qila oladilar, muammoning qarama-qarshi tomonlarini tezda aniqlay oladilar, maydonga demonstrativ yondashuvni namoyon etadilar.

2. Maydonga tobe tip kognitiv uslub turlaridan biri bo'lib, xulq-atvor tashqi faollikka yo'naltirilgan bo'ladi. Shuning uchun bu tipga kiruvchi shaxslar murakkab kontekstni yenga

olmaydilar, ya’ni ularga murakkab detaldagi qismlarni aniqlash uchun ularga ko’p vaqt kerak bo’ladi, vaziyatni tayyor holda qabul qilishadi, muammolarni har doim ham o’z vaqtida aniqlay olmaydilar, maydonga nisbatan global yondashuvni namoyon etadilar.

G.Uitkin bolada maydonga tobelik yoki maydondan mustaqillik uslubining rivojlanishi undagi tashqi muhitga moslashish jarayonida to’plangan tajribaga va psixologik xususiyatlarini ixtisoslashuviga bog’liq ekanini aniqladi. Rivojlanish jarayonida bolada maxsus tajribani shakllanishi va to’planishi tizimlashtirilmagan holatga nisbatan muayyan tuzilishga ega bo’lib boradi [10].

Fenomenologiyasiga ko’ra kognitiv nazorat sodir bo’layotgan voqea-hodisalarni individual o’ziga xos tarzda analiz qilish, tushunish va baholashdan iborat. Kognitiv nazorat – bu, birinchidan, affektiv qo’zg’atuvchilarga nisbatan “tuzilmali to’xtatish” (insonlar bir-birlaridan idrok qilinayotgan vaziyatni turlicha munosabatda bo’ladilar, unga nisbatan turli ehtiyoj va affektiv ta’sirlarni namoyon etadilar); ikkinchidan, individning psixik omillarni koordinatsiya qilish imkoniyati, vaziyat talablari ta’sirida adaptiv (moslashuvchanlik) tabiatiga ega xulq-atvor shakllanadi. R.Gardnerning fikricha, biror kognitiv nazorat tipiga ko’ra shaxs xususiyatlari haqida xulosa chiqarib bo’lmaydi. Asosiy e’tiborni “kognitiv uslub” deb nomlangan kognitiv nazorat kompleksiga qaratish lozim. Kognitiv uslub, birinchidan, mazkur shaxsning kognitiv uslubi kognitiv nazorat qiluvchi tamoyillarning o’ziga xos birikuvi (kombinatsiyasi)dan iborat bo’lganligi sababli, u turli maxsus vaziyat talablaridan xolidir; ikkinchidan, kognitiv uslubni tashkil etuvchi nazorat tamoyillari bir-biriga bog’liq bo’lmagan holda turli-tuman individual – ixtisoslashgan birikmalar shaklida namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham kognitiv uslubga asoslangan holda insonlarning muayyan vaziyatdagi xulq-atvorini oldindan bashorat qilish mumkin.

O’smirlar kognitiv sohasining geterexronligini o’rganishda kognitiv uslublarni tadqiq etish zaruriy sharoitdir. Bu har bir insonning o’z maqsadiga erishishi o’ziga xos hayot yo’lini bosib o’tishi bilan bog’liqdir. Kognitiv uslublarni o’rganishda turlicha yondashuvlarning mavjudligiga qaramay, uning tabiati oxirigacha o’rganilmagan, bu intellekt rivojlanish darajasi bilan bog’liq bo’lishi ehtimol. Turli maktablar tomonidan kognitiv uslublarning tadqiq etilishini tizimli tahlil etish natijasida kognitiv uslublar turli ijtimoiy omillar ta’sirida hayot davomida shakllanadi deb taxmin qilish mumkin. O’smirning kognitiv uslubini rivojlanayotgan shaxsning integral tizimi, o’z maqsadiga erishish uchun vosita va usullardan foydalanish tartibi sifatida qarab chiqish zarur. Bunda ma’lumotlarni olish, ijtimoiy pertseptsiya, axborotni qayta ishlash jarayonini idora qilishga javob beradigan psixik mexanizmlarni differentsiyallash, nazorat qilishning o’ziga xosligi, shuningdek intellektual faoliyat xususiyatlari, intellektual faollik shakllari nazarda tutiladi [7].

Shunday qilib kognitiv uslubning asosiy vazifasi tashqi olamdan kelayotgan axborotlarni shunchaki qabul qilish va qayta ishlashdan iborat emas, balki tayanch bilish jarayonlarini koordinatsiya qilish va boshqarishdan iboratdir. Kognitiv uslub borliq va sub’yekt o’rtasidagi vositachi bo’lib, u bevosita individual moslashuvchan jarayonlarning kechishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Kognitiv uslublar bevosita intellektual faoliyatning mahsuldorligiga javob bermaydi, topshiriqlarni to’g’ri va tez bajarilishiga aloqador emasligi tufayli ham u qobiliyat emas. Biroq, kognitiv uslublar axborotlarni qayta ishlash jarayonini tashkil etish uchun mas’ul bo’lganligi sababli, ularni metakognitiv qobiliyat deb atash mumkin. Metakognitiv qobiliyat intellektual o’zini-o’zi boshqarish va intellektual faoliyat samaradorligiga aloqadordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бадритдинова, М. (2019). КОГНИТИВ УСЛУБ БИЛАН БОҒЛИҚ МЕТАУСЛУБЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. Ilmiy axborotnoma.

2. Бадритдинова, М.Б. (2020). Различия между базовой, дидактической и когнитивными структурами личности. Oriental Art and Culture, (II), 158-161.

3. Бадритдинова, М. (2015). ТАЛАБАЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШГА НИСБАТАН СИСТЕМАЛИ ЁНДАШУВ. Илмий ахборотнома.

4. Turg'unboyeva, A., Badritdinova, M., G'aniyeva, N., & Qayumov, B. (2021, May). DESCRIPTION OF THE METHODS OF DIAGNOSING THE COGNITIVE STYLE OF PUPILS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In E-Conference Globe (pp. 306-308).

5. Badritdinova, M.B. (2019). HE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.

6. Badritdinova, M., Mo'Minova, D., & G'Aniyeva, N. (2021). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR RIVOJLANISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYAT-LARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Special issue), 433-436.

7. Badriddinova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DIQQATINI BARQARORLASHTIRISH USUL VA VOSITALARI. TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to'plami.

УДК 158

ОСОБЕННОСТИ КОПИНГ-ПОВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПОДРОСТКОВ

Гонохова Тамара Алексеевна,
к.пс.н., доцент
Благовская Евгения Васильевна,
к.филос.н., доцент
Горно-Алтайский государственный университет

Аннотация. *Авторы рассматривают понятия копинг-поведения и копинг-стратегии, стрессоустойчивости, анализируют конструктивные и деструктивные способы решения возникающих трудностей у детей в подростковом возрасте, акцентируют внимание на том, что важно научить подростков использовать жизненный опыт, творческий потенциал, помочь в применении умений и навыков, приобретенных в течение их жизни для решения проблем.*

Ключевые слова: *копинг, копинг-поведение, копинг-стратегия, совладающее поведение, социальная поддержка, подросток, трудная жизненная ситуация, адаптация, жизненный опыт, способности, творческий потенциал.*

Abstract. *The authors consider the concepts of coping behavior and coping strategy, stress tolerance, analyze constructive and destructive ways to solve difficulties in children in adolescence, focus on the fact that it is important to teach adolescents to use life experience, creativity, and help in applying the skills acquired during their lives to solve problems.*

Keywords: *coping, coping behavior, coping strategy, coping behavior, social support, teenager, difficult life situation, adaptation, life experience, abilities, creative potential.*

Современный мир поставил перед человеком достаточно ответственные задачи, включаться в новые межличностные и общественные отношения, учитывать большее количество факторов, которые способствуют продуктивной и успешной деятельности. В связи с этим ему приходится искать новые формы поведения, позволяющие легче адаптироваться к новой ситуации, использовать имеющийся жизненный опыт, способности, творческий потенциал и инициативность.

Так современные подростки приобретают форму поведения, которая помогает им совладать с трудными жизненными ситуациями как механизм адаптации к изменяющимся социальным условиям.

Понятие копинга возникло при изучении проблемы противодействия стрессу у западных исследователей (coping – от англ. «соре», которое, согласно Оксфордскому

английскому словарю, предлагается употреблять в значении «успешно справиться, преодолевать»). В российской психологии это понятие включено в структуру стресса и переводится как психологическое преодоление или совладание, включающее комплекс способов и приемов преодоления дезадаптации и стрессовых состояний.

«Копинг» объединяет когнитивные, эмоциональные и поведенческие стратегии, которые используются, чтобы справиться с запросами обыденной жизни. Близкое понятие, широко используемое и глубоко разработанное в русской психологической школе, – переживание [1].

Впервые термин появился в психологической литературе в 1962 году; Л.Мэрфи применил его, изучая, каким образом дети преодолевают кризисы развития [2]. Четыре года спустя, в 1966 году Р.Лазарус в своей книге «Psychological Stress and Coping Process» («Психологический стресс и процесс совладания с ним») обратился к копингу для описания осознанных стратегий совладания со стрессом и с другими порождающими тревогу событиями. Термин «преодолевающее поведение» (копинг–поведение) в отечественной психологии появился в 1990-е гг., хотя стоящее за ним явление давно известно и изучается.

Еще точнее копинг-поведение определяется так: копинг – это «непрерывно меняющиеся когнитивные и поведенческие попытки справиться со специфическими внешними и/или внутренними требованиями, которые оцениваются как чрезмерные или превышающие ресурсы человека» [3].

Проблему копинг-стратегий исследовали множество зарубежных (Д.Амирхан, Н.Селье, Дж.Роттер, Р.Лазарус, Р.Плутчик, С.Фолкман) и отечественных авторов (Н.М.Никольская, Р.М.Грановская, С.В.Фролова, Н.А.Сирота, В.М.Ялтонский).

Р.М.Грановская и И.М.Никольская в ходе исследований установили, что взрослые чаще всего используют следующие способы совладания с внутренним напряжением: взаимодействуют с продуктами человеческого творчества (читают книги, слушают музыку, ходят в музей) или сами рисуют, сочиняют стихи, поют, т.е. творчески самовыражаются; ищут поддержку у друзей и знакомых; погружаются в работу; сменяют вид активности с психической на физическую (занятия спортом, прогулки, водные процедуры) или используют так называемые приемы «за-» (заесть, заспать, залюбить, загулять, затанцевать); обдумывают возникшую ситуацию [2].

У детей и подростков копинг-стратегии иные. Наиболее характерными являются следующие: остаюсь один, сам по себе; обнимаю, прижимаю, глажу; плачу, грущу; борюсь, дерусь; молюсь; прошу прощения, говорю правду; говорю сам с собой; думаю об этом; стараюсь забыть; стараюсь расслабиться, оставаться спокойным; смотрю телевизор, слушаю музыку [4].

Копинг-поведение подростков до сих пор остается еще малоизученным. Далеко не всегда учитывается специфика самой кризисной социально-психологической ситуации, сфера ее возникновения.

А.А.Баранов и С.В.Рожин утверждают, что активное становление копинг-поведения приходится на подростковый и ранний юношеский возраст, то есть на самый сложный, кризисный и противоречивый период в жизни человека. Среди основных трудностей подростка выделяются снижение самооценки, повышенная чувствительность и раздражительность, физическое и душевно недомогание, перенос неудовлетворенности собой на окружающий мир, чувство одиночества, боязнь насмешек, гиперболизация недостатков внешности, повышенная тревог, беспокойств, неуверенность и др. Подросток сталкивается с массой объективных и субъективных проблем, требующих разрешения [5].

Развитие и формирование стиля совладающего поведения активизируется в подростковом возрасте при взаимодействии с родителями и сверстниками. Психологическое содержание выбираемых подростками стратегий совладеющего поведения зависит от различных стрессовых ситуаций, претерпевая изменения в зависимости от их характера.

В работах Е.Н.Тумановой предложены следующие типичные кризисные ситуации в жизни подростков: 1) неприятности в таких сферах, как: семья («ссоры в семье»); 2) взаимоотношения со сверстниками («конфликт с другом»); 3) взаимоотношения со значимым взрослым («конфликт с учителем»); 4) учебная деятельность («неудача на контрольной»); 5) здоровье («болезни, травмы») [6].

Исследования отношения к будущему у современных подростков с 5 по 11 класс выявили следующие тенденции:

1. Стремление к учебе и, особенно к профессиональной деятельности от класса к классу снижается.

2. В жизненных планах подростков семья занимает весьма скромное место (брак, забота о старшем поколении, стремление иметь детей).

3. Стремление осознавать свое место в мире не очень велико, но к старшим классам немного возрастает.

4. Значительное количество учеников в своих ответах отразили неверие в свои силы, страх перед будущим [7].

Поскольку развитие успешных стратегий преодоления трудностей крайне важно для решения задач развития в периоде взросления, возникает вопрос о возможности стимулировать эти стратегии, способствуя, таким образом, конструктивному разрешению самых серьезных жизненных проблем. В случаях работы с подростками желательно использовать модели поведения и оценки, подтвердившие свою эффективность, следует усилить концентрацию внимания и положительную самооценку. Постепенное усложнение выдвигаемых перед подростками задач облегчает достижение все более сложных целей.

В ходе изучения адаптации к повседневным стрессам у старшеклассников, было установлено, что активная поведенческая борьба с трудностями, концентрация на решении проблем способствуют укреплению психологического благополучия субъекта, а избегание и эмоциональное регулирование, напротив, приводят к появлению или усилению невротической симптоматики.

Копинг-стратегия избегания используется индивидом после повторной неудачи, а более активные копинг-стратегии – в сходных ситуациях. Стратегия избегания оказывает отрицательное влияние и на эффективность интеллектуальной деятельности индивида.

Д.Майхенбаум разработал принципы развития успешных стратегий преодоления трудностей, что важно для решения задач развития в периоде взросления, и о возможности стимулировать эти стратегии, что способствует, конструктивному разрешению самых серьезных жизненных проблем, в дальнейших исследованиях их эффективность подтвердилась [8].

Механизмы преодоления эмоционального стресс у подростков определяют развитие и формирование различных вариантов поведения, приводящих к адаптации, либо дезадаптации индивида.

Большую важность представляет информация о роли познавательных способностей в возникновении проблемы. Так, мысли о своем ничтожестве, некритическое восприятие стереотипных мнений, недооценка доступных стратегий или другие «негативные представления» могут повлечь за собой нарушение адаптации.

Постоянное внимание к негативным и ложным высказываниям о себе самом и о собственном поведении может стать причиной неэффективности преодоления своих трудностей.

Во взаимодействии с подростками, нуждающимися в помощи, должны использоваться основополагающие стратегии разрешения проблем (определение проблемы, предвидение последствий, оценка реакции и т.д.), модели поведения и оценки, подтвердившие свою эффективность. Следует также усилить концентрацию внимания подростков и их положительную самооценку. Постепенное усложнение выдвигаемых перед подростками задач облегчает достижение все более сложных целей.

Еще один важный момент желательно учитывать, в подростковом возрасте важную роль играет социальная поддержка. В этот период идет интенсивный процесс обучения способам психологического преодоления жизненных трудностей, и главную роль в успешности данного процесса играет совместная деятельность с взрослым. В этом возрасте ведущей в формировании личностных качеств является учебно-познавательная деятельность [9].

Обратим внимание на роль ближайшего социального окружения – отмечается всплеск базовых социальных установок, определяющих общую направленность и активность личности, согласно которым в основе человеческой природы лежит стремление к наслаждению в молодежной подростковой среде, как способ уйти от травмирующих проблем и возрастающих трудностей. Социологическое исследование показывает, что в системе ценностных ориентаций современной российской молодежи стремление к развлечениям и удовольствиям прочно занимает вторую позицию после материального дохода, заметно опережая (более чем в два раза) такие ценности, как служение людям, забота об общем благе [6].

Механизмы преодоления эмоционального стресса у подростков определяют развитие и формирование различных вариантов поведения, приводящих к адаптации, либо дезадаптации индивида. Эти поведенческие модели могут сменять друг друга, претерпевая определенное прогрессивное развитие, и могут носить ригидный, фиксированный характер с последовательным усложнением, приводящим к возникновению нарушений.

Н.А.Сирота и В.М.Ялтонский на основе своих исследований копинг-поведения подростков разработали три теоретические модели:

1. Модель активного адаптивного функционального копинг-поведения. Для этой модели характерно сбалансированное использование соответствующих возрасту копинг-стратегий с преобладанием активных стратегий, направленных на разрешение проблем и поиск социальной поддержки.

2. Модель пассивного. Характеризуется преобладанием пассивных копинг-стратегий над активными, дефицитом социальных навыков разрешения проблем.

3. Модель дисфункционального копинг-поведения. Преобладает мотивация избегания неудачи [10].

Таким образом, анализ результатов исследований утверждает, что активное становление копинг-поведения приходится на подростковый и ранний юношеский возраст, то есть на самый сложный, кризисный и противоречивый период в жизни человек. Типичные кризисные ситуации в жизни подростков: неприятности в таких сферах, как: семья («ссоры в семье»); взаимоотношения со сверстниками («конфликт с другом»); о значимым взрослы («конфликт с учителем»); учебная деятельность («неудача на контрольной»); здоровье («болезни, травмы»).

Список литературы:

[1] Василюк Ф.Е. Психология переживания. – М.: Издательство Московского университета, 2004. – 89 с.

[2] Грановская Р.М., Никольская И.М. Психологическая защита у детей. – СПб., 2003. – С. 70.

[3] Сибгатуллина И.Ф., Апакова Л.В., Зайцева Л.Д. Особенности копинг-поведения в реализации интеллектуальной деятельности субъектами высшей школы // Прикладная психология. 2002. № 5-6. – С. 105.

[4] Дубинина, А.С. Особенности копинг-стратегии у детей подросткового возраста. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2019. – № 14 (252). – С. 60 – 64. – URL: https://moluch.ru/archive/252/57747/ (дата обращения: 31.03.2024).

[5] Баранов А.А., Рожина С.В. Копин-стратегии подростка в ситуации кибербуллинга. // Вестник Удмуртского университета. Серия «Философия. Психология. Педагогика». – 2016. – №2. – С. 37 – 46.

[6] Сибирев В.А., Головин И.А. Штрих к портрету поколения 1990-х гг. // Социологические исследования, 1998. – №3. – С. 106 – 117. – URL: https://spblib.ru/en/catalog/-/books/12264545-shtrikhi-k-portretu-pokoleniya-90-kh-godov?ysclid=luex1ijqaj935565928 (дата обращения 26.03. 2024).

[7] Бурлачук А.Ф. Психология жизненных ситуаций. – М.: – URL: https://pedlib.ru/Books/2/0126/?ysclid=luex3qyu7230425458 (дата обращения 26.03. 2024).

[8] Крюкова Т.Л. Психология совладающего поведения в разные периоды жизни: Автореф. дисс. ... док. псих. наук. – М.: 2005. – 26 с.

[9] Либин А.В. Дифференциальная психология: наука о сходствах и различиях между людьми. – М.: Издательство Юрайт, 2023. – 576 с.

[10] Сиерральта З.Х. Особенности психических ресурсов личности в раннем юношеском возрасте (Копинг-стратегии, защитные механизмы, социальный интеллект и общий интеллект): Дисс. канд. психол. наук: 19.00.04: СПб.: 2000. – 163 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK DIAGNOSTIKASI INTELLEKTNI TEKSHIRISH

Xamrayeva Aziza Farhadovna,
JDPU v/b dotsenti p.f.f.d
Xolmurodova Zuxra Ismoil qizi,
JDPU 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarda intellektni psixometrik tekshirishning bugungi kundagi ahamiyati bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion, moderinizatsiya, ta'lim, faoliyat, salohiyat, infrastruktura, yondoshuv, strategiya, tendensiya.*

Аннотация. *В данной статье описывается важность психометрического тестирования интеллекта у детей на сегодняний день.*

Ключевые слова: *инновация, модернизация, образование, деятельность, потенциал, инфраструктура, подход, стратегия, тренд.*

Annotation. *This article describes the importance of psychometric testing of intelligence in children today.*

Key words: *innovative, modernization, education, activity, capacity, infrastructure, approach, strategy, trend.*

Intellektning inson aqliy faoliyatining aql-zakovatining, ongli xatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Intellekt tevarak-atrofni ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va shu kabi psixik holatlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyati, hayotiy tajriba bilan bog'liq.

Maktab yoshidagi bolalar o'z idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan ajralib turadi. O'quv faoliyati maktab yoshidagi bolalarning aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish, esga tushirish, imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi.

6-yoshdagi bolalarning idroki, uning xatti-harakati, mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bola o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilish turmush sharoitiga mos, shuningdek, tarbiyachi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

6-yoshdagi bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularning makonda joylashishini bilish bilan birga ularni taqqoslay oladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida muvaffaqiyatli o’qish uchun bolaning sensor rivojlanganlik darajasi yuqori bo’lishi juda muhim. Bu yoshga kelib, normal rivojlanayotgan bola, rasm va suratlar real hayotni aks ettiratotganligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrofdagi narsalar kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay oladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go’zalligini turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o’z munosabatini bildira oladi.

Bolaning qiziquvchanligi asosan atrof-olamni bilish, o’rganishga qaratilgan bo’ladi. Bola o’ynab turib olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalaridan xabardor bo’lishga intiladi. Masalan, bola o’zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho’kishi, qaysilari esa suzishni tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo’lsa, u shunchalik ko’p savol beradi. Bu savollar asosan xilma-xil bo’ladi. Bolani qor, yomg’ir qanday yog’ishi, quyosh kechasi qayerda bo’lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha necha kilometr ekanligini bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning juda ko’p, asosan “Nima uchun?” “Qanday qilib?” “Nima orqali?” savollariga javob olishga qaratilgan bo’ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o’zlari ko’rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladi. Demak, kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy turli-obrazli tafakkurdir.

6-yoshli bola albatta mantiqiy ham fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko’rganlariga tayanib ta’lim olishga senzitiv bo’lgan davr hisoblanadi. Intellektual rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi – individ ijtimoiy munosabatlar bilan o’zgaradi. Bolaning bog’chada muntazam ravishda o’qishga o’tishi uning atro-olamdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikri va munosabatlari o’zgarishiga olib keladi. Maktab yoshidagi bolalarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, taxlil qilishning turli usullarini qo’llashdek o’ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o’smirlardan farq qiladi.

6-yoshli bolalar bilan bilish jarayonlarida ixtiyorlilik, irodaviylik zo’riqish asosida hamda bola atrofidagilarining talabi yoki shaxsiy harakati yordamida yuzaga kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatining o’ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular diqqatini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat obyektda uzoq tura olmaydilar. Bolalarning xayoli tevarak-atrof tassurotlari, tasviriy san’at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Obrazlar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, bolalarda xayol paydo bo’ladi. Ta’lim faoliyati boladan berilgan o’quv materiallarni eslab qolishni talab etadi. Tarbiyachi bolalarga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko’rsatmalar beradi. Tarbiyalanuvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira shubxasiz ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab asosan uning ishga bo’lgan qiziqishi belgilab beradi. Maktab yoshidagi bolalar bolalar o’qitish jarayoni o’quv faoliyatining asosiy komponentlari, o’quv vaziyatlari, o’quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo’lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o’quv harakatlarini noto’g’ri bajarsa, bu uning o’quv harkatlarini yoki nazorat va baholash bilan bog’liq harakatlarni bilmasligi yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bo’lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. E.G’oziyev. Ontogenez psixologiyasi. – T.: Noshir, 2010. 360-b.
2. M.G.Davlatshen va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiyalar. – T.: 2004.
3. Z.Nishonova. Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi. – T.: 2006.

ZAMONAVIY TA`LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO`RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO`NALISHLARI VA UNGA QO`YILADIGAN TALABLAR

Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi,
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi stajyor-o`qituvchisi
Jo`rayev Sodiqjon Muhammadinovich,
NamDPI, Pedagogika va psixologiya kafedrasi
stajyor-o`qituvchisi

Annotatsiya. *Hozirgi davrda yoshlarni psixologik xizmat ko`rsatish samradorligini oshirish masalasi har qachongiga qaraganda dolzarblashib, har tomonlama jiddiy e'tiborni talab qiladigan muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada hozirgi zamon psixologik xizmat tizimini rivojlantirishning ijtimoiy- psixologik omillari haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *psixologik xizmat, nizom, jamiyat, tarbiya, kasb, ta`lim tizimi, ijtimoiy-psixologik moslashish, streotip, ijtimoiy omil, ijtimoiy status, rivojlanish, ijtimoiy rollar, o`smirlik davri, stress, inqiroz.*

Ta`lim tizimida psixologik xizmat samaradorligi o`z navbatida o`quvchilarning kelajakda o`zlari sevgan kasbni egallashlariga to`g`ri yo`nalish berishda ham ahamiyatli desak mubolag`a bo`lmaydi. O`smir-yoshlarimizning aksariyati o'z maqsadlariga erishish uchun yaxshi kasbga va ma'lumotga ega bo'lish kerakligini yaxshi bilishadi. Biroq o'quvchilar hali kelajakda qanday kasblarga ehtiyoj (talab) bo'lishini, maqsadga erishish uchun ulardan qanday shaxsiy va kasbiy mahorat talab qilinishini to'liq anglab yetmaydilar. Bu muammolarning jarayonida yechimini ba'zida kattalar ham topolmaydilar. [2]

Kasb tanlash o'smirlarda tashabbusni, mustaqillikni, mas'uliyatni, eng muhimi, biror bir maqsadga erishish motivini shakllantirish, o'ziga ishonchni tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratish lozim. O'sib kelayotgan avlod psixik salomatligini saqlashda o'quv mashg'ulotlari psixogigienasi yetakchi ahamiyatga ega: birinchidan, deyarli barcha bolalar o'n bir yil davomida ta'lim oladilar va ta'lim ularni hayotining asosiy qismini tashkil etadi, ikkinchidan esa, bu yillarga keskin inqiroz davrlari (7 – 8 yosh inqirozi va pubertat davr) to'g'ri keladi, bu davrlarda esa organizm nihoyatda ta'sirchan va asabni qo'zg'atuvchi ta'sirlarga ko'p duch keladigan bo'ladi.

O'quv mashg'ulotlari psixogigienasi quyidagi vazifalarga ega:

1) bolalar psixik taraqqiyotining uyg'unligi va o'z vaqtida kechishiga yordam berish;
2) ta'lim psixik salomatlik garovi bo'lmish ijobiy emotsiyalarni uyg'otishi bolalarga shodlik keltirishiga intilish;
3) bolalarni toliqtirib qo'yuvchi haddan ortiq aqliy zo'riqishdan qochish;
4) maktabda psixik jarohatlovchi vaziyatlarning oldini olish.

Bu tamoyillarga maktabdagi barcha o'quv faoliyati bo'ysunishi lozim. Biroq, ularga doim ham amal qilinavermaydi, ko'pgina belgilar, maktabning nevrozlantiruvchi ta'siridan guvohlik beradi. Ayrim mualliflar mulohazalarida "maktab" atamasi "stress" tushunchasi bilan yonma-yon turadi. A.Popielarska dalillariga ko'ra, 1957 – 1962 yillarda psixik salomatlik konsulьtatsiyasiga kelgan 1050 boladan 190 nafari (20%) da (maktab o'quvchilarida) nevroz aniqlandi. Bolalar nevrozining eng katta sabablaridan biri – muhit shart-sharoitlari, xususan, pedagogik jarayonning borishidir. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning kasbga yo'nalganligi shu yosh davrdagi ularning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlarni belgilab beradi. Bo'lajak kasbni aniq tanlash yoki aksincha, bu yoshda aniq tasavvurga ega bo'lmaslik, ikkilanish bo'lg'usi faoliyatning ehtimol tutilgan sohalarini tez-tez o'zgartirib turishda katta maktab yoshidagi o'quvchi shaxsini shakllantirishda uning umum psixik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqori sinf o’quvchilari bilan kasbga yo’llash ishlari olib borishda har bir o’quvchining individual imkoniyatlari hamda regiiondagi muayyan kasblarga ehtiyojni doimo hisobga olib borish zarur. Ye.A.Klimov bu borada shunday deydi: o’sib kelayotgan yosh inson kasblar olamidagi murakkab, ko’zga tashlanmaydigan va hali kuzatib ulgurmagan narsalar to’g’risida yetarli axborot olmaganligi uning bu sohada ongli va mustaqil ravishda kasb tanlash to’g’risidagi pedagogik talablarga qarama-qarshi bo’lib chiqadi. Umumta`lim maktablarida psixologik-pedagogik ishlar samaradorligini oshirish hamda o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish muammolaridan yana biri bu oilada yetarlicha tushuntirish ishlarini tashkil qilinmaganligidir. Bu jarayonda maktab psixologi faqat o’quvchilar bilan emas, balki ularning ota-onalari bilan maxsus ravishda sistemali ish olib borish zarurligini aniq-ravshan anglashlari kerak. Chunki oila kasbga yo’llashning ta’sirchan va ayni mahalda yomon boshqariladigan omilidir. [3]

O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini samaradorligini oshirish uchun maktablarda kasb-hunarga yo`naltirish maqsadida “Kasblar olami’’ xonasini tashkil etish ham maqsadga muvofiq. Kasb-hunarga yo’naltirish xonalari o’quvchilarga kasbiy axborotlar va maslahatlar berish, ularni kasblar dunyosining sir-asrorlari bilan tanishtirish,ongli ravishda mustaqil kasb tanlashga yo’naltirishga xizmat qiladi.

Kasb-hunarga yo’naltirish xonasini tashkil etishdan maqsad, o’z tayyorlov yo’nalishlari, mutaxassisliklari bo’yicha umumiy o’rta ta’lim maktab bitiruvchi o’quvchilarga kasbiy axborotlar, maslahatlar berish, ularga kasblar dunyosi, o’zlari yashayotgan hududga mos mehnat turlarining mazmuni bilan tanishtirish, hozirgi zamon ishlab chiqarish turlari, mehnat bozori va uning rivojlanish istiqboli, kasblarga bo’lgan ehtiyoj va ularni shaxsga qo’ygan talablari haqidagi tushunchalarni berib, ongli ravishda mustaqil kasb tanlashlariga yo’naltirishdan iborat jarayonlarni o’z ichiga oladi, hamda ushbu xona maktabning kasb-hunarga yo’naltirish markazi bo’lib hisoblanadi. Umumta`lim maktablarida faoliyat olib borayotgan psixologlarni o’quvchilar bilan olib borilayotgan kasb-hunarga yo’naltirish ishlariga hamda xonaning faoliyatini yuritish ishlariga ma’sul shaxs qilib qo’yishimiz maqsadga muvofiqdir.

Chunki uning ish faoliyatida har doim o’quvchilarni qiziqishlari, qobiliyatlari, kasbiy moslashish jarayonlarini qay darajada kechayotganlik holatlari, oilaviy tarbiyaviy muhitning ta’sir doiralari, do’stlar davrasi, nizoli vaziyatlar kabi psixologik-pedagogik jarayonlar bilan bevosita bog’liq bo’ladi. [5]

Xulosa qilib aytganda, ta`lim tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirishda oila bilan hamkorlikni yo`lga qo`yish,o`quvchilarning psixologik-fiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqib kasb tanlashlari yuzasidan maslahatlar berish. Zero, kelajagimiz bunyodkorlarining o`z kasblarining yetuk mutaxassislari bo`lib yetishishi bizning bugungi kundagi e`tibor va say-harakatlarimizning natijasi bo`lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston respublikasi “Ta`lim to`g`risidagi qonun”.
2. Psixologik xizmat Z.T.Nishanova Toshkent. 2007.
3. Psixologik xizmat va psixokorreksiya. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, Toshkent. 2009.
4. “Yosh davrlar va pedagogik psixologiya”. T.: O`qituvchi, 1991-yil.
5. “Yuqori sinf o`quvchilari bilan olib boriladigan kasb tanlashga oid konsultatsiya ishlari” (Metodik ko`rgazma) Razzoqov D.N., Timenko N.P Qarshi. 1991.
6. www.ziyo.uz

KELAJAK O'QITUVCHISI TAYYORLASH JARAYONIDA OILAVIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK TA'SIRI

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna,
Dexkonova Marg'uba Erkinovna,
NamDU psixologiya kafedrasi o'qituvchilari

Bugungi kunda jamiyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar bizga yangidan-yangi xulosalar bermoqda. Mazkur davrga globallashuv, zamonaviylashuv, transformatsiyalashuv kabi nisbatlarni berilishi va ularning negizida ro'y berayotgan o'zgarishlar odamlarni yangicha turmush sharoitiga o'tishga undamoqda. Hayotimizning turli jabhalarida bo'lib o'tayotgan yangiliklar va o'zgarishlar jamiyat oldiga yangidan-yangi muammolarni qo'ymoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida innovatsion tafakkurga, intellektual salohiyatga va ijodiy faollika ega kadrlar avlodini tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, bugungi kunda kadrlar tayyorlashda intellektual salohiyatni oshirish, ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolari sifatida baholanmoqda. Shuningdek, davlat rahbari ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'limdagi o'qitish sifatiga doir mavjud muammolar va alohida ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarga ham e'tibor qaratib kelmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: «Tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq zamonaviy o'quv reja va uslublarini jorish etish talab darajasida emas... Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur», – deb ta'kidlaydi.

Ilm-fan mamlakat taraqqiyotini ta'minlovchi omillardan biri va intellektual imkoniyatlarini namoyon etuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ham 2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida oliy ta'lim rivojiga alohida o'rin berilgan. Yoshlar intellektual qobiliyatini yuksalishida muhim omil rolini bajaradigan oliy ta'lim tizimi kelajak va hozirgi kun uchun zarur bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashi, jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi, salohiyali talabalarni tarbiyalashi hamda jahon standartlari asosida faoliyat olib borishi lozim.

Jamiyat rivojlanishining yangi bosqichida oliy ta'limdagi bunday imkoniyat inson faoliyatining muhim jabhasi, yoshlar tarbiyasiga, bo'lajak mutaxassislar, malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berish vazifasini yuklaydi. Oliy ta'limning muhim vazifalaridan biri mehnat bozori talablariga javob beradigan har jihatdan yetuk raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Mamlakatimizda ham oliy ta'lim muasasalari Bolonьya konventsiyasiga a'zo qilish zarurligini anglab yetdi va bu yo'lda ba'zi jarayonlar jadallik bilan boshlandi va hozirda juda ko'p oliygohlar kredit-modul tizimida faoliyat olib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalaridagi strukturaviy o'zgarishlar bilan birga bo'lajak kadrlarda intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantiruvchi fanlar va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmoqda. Eng asosiy ustuvor vazifa talabalarni yangicha tafakkur va teran intellekt sohiblari qilib tarbiyalash ekanligi ayon bo'lmoqda. O'zbekistonda ham talabalar aqliy salohiyatini yuksaltirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni va yangicha yondashuvlarni shakllantirish muammosi saqlanib qolmoqda.

Hozirgi davrda tayyorlangan malakali kadrlar zahirasi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning zamonaviy talabiga javob bermaydi. Bunday holat o'z navbatida, oliy o'quv yurtlari kadrlar tayyorlash tizimi va mehnat bozori munosabatlariga innovatsiyalarni tadbiq etishini talab qiladi. Bugungi bitiruvchilarning intellektual kompetentligini pastligi ularni vaziyatga moslashuvchan emasligi, faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolganligi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olmasliklari, keng dunyoqarashga va teran tafakkurga ega emasliklari bilan baholanmoqda. Jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmuni, mutaxassislar malakasiga, ulardan

nostandart muammolarni hal qila olish imkoniyatlari mavjudligiga, muntazam sur'atda kasbiy malakasini oshirishga, ijtimoiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida bir qator qarama-qarshiliklar namoyon bo'lmoqda. Keng ma'noda – bu madaniyat va ta'lim o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Tor ma'noda – bu ta'lim muhitini gumanizatsiyalash va gumanitarlashtirishga yo'naltirilgan jamiyat tomonidan zamonaviy mutaxassisga qo'yilayotgan talablar orasidagi ziddiyat bo'lib, asosiy e'tibor talaba o'z o'rnini belgilab olishiga, o'zini o'zi rivojlantirishiga, oliy ta'lim muassasasida professional tayyorgarlikning an'anaviy tizimi imkoniyatlariga, «shakllantirish»dan «tashkil topish», «rivojlantirish»ga qaratilgan. Bu ziddiyatlar quyidagilarda aniqroq namoyon bo'ladi: a) bo'lajak mutaxissislar bilim va malaka sifatiga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi, zamonaviy talabalar intellektual rivojlanishi sifatlari darajasining pastligi;

b) fundamental professional bilim olish zarurati va ta'lim muasasasida o'qitishning shakllangan amaliyoti bilan intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish aniq bir maqsadga yo'naltirilmasdan amalga oshirishi;

v) bo'lajak kadrlarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishdagi tabiiy ehtiyojlari va o'qitish jarayonidagi professional fanlarning rivojlanayotgan funktsiyalaridan yetarli darajada foydalanmasliklari. Ushbu qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishda rivojlanish mexanizmlarining tavsifi hamda o'qituvchi va talabalarning intellektual imkoniyatlarining birgalikda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb qiladi. Shuningdek, hozirgi kunda dunyoda transformatsion jarayonlar tobora jadallashib bormoqda va mazkur jarayonlarning yoshlar hayotiga ko'rsatayotgan ta'siri har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avallo haqli savol tug'iladi. Transformatsion jarayonlar nimalarda ko'rinadi? Mazkur jarayonlarning yoshlarga ta'sirini qay jabhalarda kuzatish mumkin? Transformatsion jarayonlar yoshlarning yurish-turishidan tortib, ularning ma'naviy dunyosi, milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati va boshqa shu kabi masalalarning barcha-barchasiga birday ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy transformatsion jarayonlar avvalo moddiy va ma'naviy madaniyat tizimida ko'rinadi [1. B. 169 – 171]. Transformatsion jarayonlarning milliy marosimlarga, xususan to'y-hashamlardagi xususiyatlar, bola tug'ilishi, uning tarbiyasi bilan bog'liq urf-odat va marosimlar, barcha an'analarga ko'rsatayotgan ta'siri ham har qachongidanda yuqoridir. Oqibatda, yoshlar o'rtasida kitob o'qishdan ko'ra, kompyuter o'yinlari oldida vaqtini o'tkazish odat tusiga kirib bormoqda. Bu esa, bo'lajak pedagoglar ruhiyatiga salbiy ta'sirini ko'rsatmay iloji yo'q. Shuning uchun ham talabalar mafkurasini trasformatsion jarayonlardan faqat ijobiy maqsadlarda samarali foydalanishga yo'naltirmog'imiz maqsadga muvofiq.

Trasformatsion jarayonlarning ma'lum bir hududi va chegarasi yo'q. Eng muhimi ulardan ijobiy maqsadlarda foydalanishimiz bizga ulkan zafarlar keltiradi, bunyodkorlikka undaydi, kashfiyot, ixtirolar bilan tanishtiradi. Milliy tariximiz va boy madaniyatimizni o'z holicha saqlagan holda, unga zamona bilan uyg'unlik baxsh etish, yanada serjilolashtirish milliy qiyofamizning rivojlanishiga zamin yaratadi. Milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarni qayta tiklash jarayoni bevosita o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy merosini, uning milliy an'ana va odatlarini o'z ichiga olgan ma'naviy hayoti tarixini chuqur o'rganish bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir o'zbek oilasida tarbiyalanayotgan yosh avlod Bobo va buvilar nasihati, otalar shahdi, mardligi va onalar mehri bilan yo'g'rilmog'i lozim. Shundagina oliygoh partasida o'tirgan bo'lajak pedagog kelajakda o'quvchilarga mehr bilan boqa oladi, ta'lim tizimiga kriativ yondosish, ijtimoiy muhitga teran yondoshish qo'lidan keladi.

Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy merosi tizimida o'ziga xos o'rinni egallovchi xalq o'yinlari va u bilan bog'liq urf-odat, marosimlar ayni paytda insoniyat madaniyatining muhim komponentlaridan biridir. Xalq o'yinlari o'zbeklarning oilaviy, xo'jalik, jamoaviy hayotida muhim o'rin egallagan bo'lib, asrlar mobaynida xo'jalik an'nalari fasllar almashinuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, sayqallanib, transformatsiyalashuv jarayonlarini ham boshidan kechirdi va kechirmoqda. O'yinlar bilan bog'liq marosimlar kishilar hayotining barcha bosqichlarida uchraydi va ular odamlarning oilaviy, xo'jalik hamda jamoaviy hayotlarini tartibga solishga xizmat qiladi. Mazkur marosimlar turli davrlarda har xil diniy va siyosiy tazyiqlar ostida shaklan

o’zgargan yoki transformatsiyaga uchragan bo’lishiga qaramay, hamon ijtimoiy hayotda o’ziga xos o’rin egallab kelmoqda. Aynan mazkur jihat birinchidan, o’zbek xalqi an’anaviy turmush tarzining o’ziga xosligi va tarixiy asoslarini o’rganishda dolzarb hisoblansa, ikkinchidan, o’yinlarning lokal xususiyatlarini tadqiq qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi bilan ham e’tiborga molikdir.

O’zbeklarning asrlar davomida shakllangan o’yinlari bilan bog’liq urf-odat, marosim va qarashlari boshqa xalqlardan ayri holda vujudga kelmagan. Bunday marosimlar tizimi azaldan o’zbeklar bilan yonma-yon yashab kelayotgan qardosh-tojik, qirg’iz, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning bevosita ishtirokida shakllanib, taraqqiy etgan. Milliy qadriyatlarimiz asnosida tarbiyalangan bo’lajak pedagoglarimiz ongi-shuurida kengfikrlilik, insonparvarlik, hotirjamlik, kreativlik va tarbiyalanuvchilarga nisbatan bag’rikenglik hamda shukronalik tuyg’ulari tarkib topsa neajab.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. – B. 45.

2. O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017 – 2021 yillarga mo’ljallangan harakatlar strategiyasi. Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.

3. Haqnazarova X. Zamonaviy transformatsion jarayonlar va ularning yoshlar hayotiga ta’siri. / O’zbek xalqining milliy folьklor san’ati va etnomadaniy qadriyatlari”. // Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – T.: 2013. – B. 169 – 171.

4. Haqnazarova X. Zamonaviy transformatsion jarayonlar va ularning yoshlar hayotiga ta’siri. / O’zbek xalqining milliy folьklor san’ati va etnomadaniy qadriyatlari”. // Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – T.: 2013. – B. 173.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INTERNATIONAL FAMILIES.

Roziqova Malika,
Namangan State Pedagogical Institute

Annotation. *This article analyzes the role of the family in society, the types of families, the statistics of international families in our country, the importance of studying the socio-psychological characteristics of international families.*

Key words: *family, society, international, inter-ethnic, inter-racial.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль семьи в обществе, типы семей, статистика интернациональных семей в нашей стране, важность изучения социально-психологических особенностей интернациональных семей.*

Ключевые слова: *семья, общество, интернациональный, межэтнический, межрасовый.*

Annottsiya. *Ushbu maqolada oilaning jamiyatdagi o`rni, oila turlari hamda mamlakatimizda baynalminal oilalar statistikasi, baynalminal oilalaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o`rganishning ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so`zlar: *oila, jamiyat,baynalminal, millatlararo, irqlararo.*

The family is a small part of the society, and the more beautiful, harmonious and strong it is, the more powerful the society is. Because in the family, the owners of the future are brought up, and the most important moral and spiritual traditions of our people are passed on from generation to generation. passes and it is in the family that our children learn kindness, respect and mutual support. That is why special attention is paid to the stability of families in our country. We can cite the following as proof of our word. Since 1994, May 15 has been celebrated as "International Family Day" not only in our country, but all over the world. In addition, the

establishment of the Ministry of Neighborhood and Family Support in accordance with the decree and decision of the President Sh.Mirziyoyev is a clear proof of our opinion.

Knowing the types of modern families and their socio-psychological characteristics, studying their specific problems, and preventing unpleasantness that may occur in family life. The family is divided into several types according to various criteria characterizing it.

1. According to completeness: complete, incomplete and reconstituted (second marriage) families.

2. According to the number of members: nuclear (consisting of parents and children) and multi-member (family members of two or more generations living together) families.

3. According to the number of children: families without children, families with one child, families with two children, families with 3 – 4 children, families with 5 or more children. These criteria are different in different countries. For example, in the USA, France, Germany, Greece, Russia and other developed countries, families with 3 – 4 children are families with many children. In Uzbekistan, such families are among families with an average number of children.

4. According to the social background of the couple: workers, farmers, servants, intelligentsia family, mixed type family.

5. According to the level of education of the spouses: a family consisting of children with higher education, secondary-special, secondary, unfinished secondary, special auxiliary school education.

6. According to the "age" of the family: young family (families with up to 1 year, 3 – 5 years, 6 – 10 years of life experience), middle-aged family, mature-aged family (elderly family).

7. Compatible and incompatible families based on whether the gods are compatible with each other or there is a big difference between them in terms of the level of material security of the parent family (parents) of Kayliklam.

8. According to regional aspects: urban, rural, mixed family.

9. According to the level of satisfaction with marriage, at the level of divorce – a family with a low level of satisfaction with marriage, a family with an average level and a high level of satisfaction with marriage.

10. According to a woman's or a man's leadership in the family: a family in which the husband is the leader, a family in which the wife is the leader, a family in which the husband and wife take the lead together.

11. According to the relationship between the spouses in the family: authoritarian, democratic, liberal, mixed type families.

12. According to the nationality of the couple: single-ethnic or international families.

In turn, international families can be divided into two:

— marriages between people of the same religion, customs or language, for example, Uzbek-Tajik, Uzbek-Kazakh, Uzbek-Turkmen, Russian-Ukrainian, Uzbek-Tatar, etc.;

— marriages between representatives of nations whose religion, customs, or language are not part of the same group, for example, Uzbek-Russian, Uzbek-Ukrainian, Uzbek-Estonian, Uzbek-German, etc.[1]

Our country is a multi-ethnic country. In particular, today in our country representatives of more than 130 nationalities and peoples live together as children of the same family. We are witnessing more and more every day that these friendly relations are sometimes strengthened by kinship ties. That is, the number of international families in our country is increasing. Analyzing statistical data, we can see that this indicator is increasing not only in our country, but also in the whole world.

In the past, such bi-national or interracial marriages were banned many times. In particular, it has been banned in the USA, Germany and South Africa. In particular, such marriages are prohibited by law in the USA. However, after the UN Universal Declaration of Human Rights came into force in 1948, it gave the right to marry "without any restrictions based on race, nationality and religion". Many studies have been conducted and are being conducted to study the positive and negative aspects of inter-ethnic marriage.

Analyzing the results of the research, as negative aspects of inter-ethnic marriage, especially the studies conducted in the USA show that the divorce rate among such marriages is relatively high. As a positive aspect, there is talk of preventing various inter-ethnic conflicts in the society.

Thus, inter-ethnic marriages are a very complex socio-cultural and psychological phenomenon, which is distinguished by the specific content of its parameters.

T.Eriksen calls the situation of people entering mixed marriages "ethnic anomaly". Scientists say that in such mixed families, spouses in family relations are a little wary of unfamiliar customs, values and values. The reason is that the customs and holidays of different nationalities are different. Various disputes may arise between the couple regarding the observance of these traditions. For example, regarding child education.

According to statistics in our country, the number of international families is increasing year by year. In 2020, 6.3% of the marriages concluded in our country were made up of inter-ethnic marriages, and by 2021 this figure was 7.1%.

The highest indicator was recorded in the Republic of Karakalpakstan if considered in terms of regions. That is, in 2020, 22.3% of the total marriages were made up of inter-ethnic marriages, and in 2021, this figure was 23.6%. [2]

The indicators show that the number of international families in our country is increasing year by year. Many studies are conducted by our scientists on the study of families, but in our country, international families, their social and psychological characteristics, the strength of these families and the rate of divorce, the distribution of roles, and one of the most important are the information and researches about the upbringing of children in such families. not enough. Therefore, by studying international families, it is possible to study pre-marriage factors, role distribution, family relations, decisions and the reasons for their origin in these families, as well as to study children raised in international families and their mental development, to prevent and eliminate existing problems.

References

1. G.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog‘inov. Oila psixologiyasi. Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: «Sharq», 2015. – 296 b.

2. 2. Statistical information of the Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.

3. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. – T.: 2007. – 316 b.

4. Olimovna, R.M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *PEDAGOGS*, *48*(2), 49-51.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING KEKSALIK DAVRIDA YOLG‘IZLIK XISSINING NAMOYON BO’LISHI HAQIDAGI QARASHLARI

Rustamova Manzura Ne’matjanovna,
Jismoniy tarbiya va ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo’lishida buyuk sharq mutafakkirlarning roli juda katta bo’lgan. Ular orasida Al Xorazmiy, Al Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Jaloliddin Davoniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy kabi allomalar o’zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlari va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar.

O’rta asrlarda O’rta Osiyoda yashab ijod etgan mutafakkirlar faqat dinga talluqli bo’lgan fanlarnigina rivojlantirib qolmasdan, ilm-fanning shunday sohalari: riyoziyot, falsafa, astranomiya, meditsina, pedagogika, anatomiya, etika-estetika, psixologiya va hakazo fanlar

bo’yicha butun jahon tan oladigan darajada ilmiy asarlar yaratgan. Ana shunday olimlardan biri Abu Nosir Muhammad Ibn Tarxan. (Al Farobiy) Farobiy Aristotelva Platonning ishlarini O’rta Osiyoda keng ommalashtirgan, shuning uchun g’arbda ikkinchi muallim degan nom olgan. Farobiy yozgan asarlaridan falsafa, pedagogika, psixologiya, etika-estetika bo’yicha asarlari mashxur. Farobiyning fikricha muhit va tarbiyaning ta’sirida inson shaxsining ahloqiy sifatlari shakllanadi. Ahloq-tushunchasini Farobiy inson xarakteri bilan chambarchas bog’liq deb hisoblaydi. Chunki xarakterdagi har bir xislatlarni yaxshi tomongao’zgartirish mumkin. Shunga asosan inson ahloqini faqat yaxshi tomonga qaratib o’zgartirish mumkin. Uning fikricha inson shaxsining barkamol shakllanishi uchun 4 ta to’siq bor [1]:

1. Hurmatsizlik
2. ahloqsizlik
3. o’zgaruvchanlik
4. ikkilanish

Bundan tashqari Farobiy tarbiyaning qattiq va yumshoqligi haqida ham o’z fikrlarini bayon qiladi. Bu o’z navbatida tarbiya psixologiyasining asosiy g’oyasi va metodlaridan biri hisoblanadi. Uning fikricha shogirdga ta’lim-tarbiya berishda haddan tashqari qattiqqo’llik ustozga nafrat hissini uyg’otadi.Uning ruhida o’z ustoziga nisbatan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi.Tarbiyadagi haddan tashqari yumshoqlik esa, shogirdga ustozga nisbatan mensimaslik hissini yuzaga ketiradi. U o’z ustozini aldashga va ustidan kulishga harakat qiladi, deb tushunadi.

Farobiy psixologiya sohasida aniq bir asarlar yozmagan bo’lsa ham u Aflotun (Aristotel) psixologiyasining asoslarini mahalliy sharoitda moslashgan holda talqin qiladi va buning oqibatida O’rta Osiyo falsafiy qarashlariga xos bo’lgan psixologik dunyoqarashlar shakllandi.Farobiyning ilm-fan sohasidagi qarashlari o’zidan keyin yashab o’tgan mutafakkirlar-Beruniy, Ibn Sinoga o’z ta’sirini o’tkazdi va o’z navbatida bu mutafakkirar Farobiyni o’zlarining ustozlari deb hisoblaydi [2].

Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metofizika, tabiiy fanlar (ayniqsa tibbiyot) haqidagi fikrlari o’sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo’shdi.U maxsus psixologik muammolar bilan shug’ullangan.Uning ruh haqida, asab tizimi, miyaning funktsional tuzilishi haqidagi fikrlariga asab tizimining zamonaviy qarashlariga o’xshaydi. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino o’zining ilmiy dunyoqrashi bilan butun jahonda fan taraqqiyotiga va uning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan olim hisoblanadi. Chunki uning asarlari jahonning hamma tillariga tarjima qilingan va o’zining hayotligi paytida Evropada Avitsina nomi bilan, uning asarlari ta’lim maskanlarida o’quv quroli sifatida foydalanilgan. Uning «Tabobat qonuni» asari o’sha davrdagi, keyingi davrdagi va hozirgi davrida ham tibbiyot sohasidagi olimlarning qo’llanmasi hisoblanadi. Ibn Sino jahonda birinchi bor psixologiya fanida tajriba amalga oshirgan alloma hisoblanadi. U emotsional holatlar bo’yicha dastlabki tajribalarni amalga oshirgan. Uning «Tadbiri manozil» asarida ta’lim-tarbiyada uning psixologik asoslariga alohida e’tibor bergan [3]. Bu asarda alohida bob bo’lib, bu bob bolalarni tarbiyalash, maktabda o’qitish deb nomlanadi. Ibn Sino birinchi bor tarbiyada suhbat metodini qo’llashni taklif etadi. Bolalarni o’qitishda va tarbiyalashda bir guruhda yoki jamoada tarbiyalansa, ular faoliyat turlarini amalga oshirishda bir-biriga moslashadi, bir-biriga hurmat-e’tibori kuchayadi va jamoaning ta’sirida keraksiz odatlarni yo’qotadi deb ta’kidlaydi. Bu bilan u birinchi bor ijtimoiy psixologiya asoslariga ham asos soldi. Ibn Sino shaxs taraqqiyotida musiqaning o’rni haqida ham to’xtalib o’tadi. U allaning ahamiyati haqida shunday deydi: «Aytilgan qo’shiqning so’zlari tanaga qaratilgan bo’lsa, uning ohangi bolaga qaratilgan», – deydi. Ibn Sino Aristotel’ va Farobiy ta’limotiga asoslanib ruh va tana haqidagi ta’limot doirasida fikr yuritgan. Chunki u ham o’zidan oldingi allomalar kabi tana va ruh haqidagi ta’limotni, jon ta’limoti doirasida ta’kidlaydi.

Abu Ali ibn Sinoning temperament haqidagi ta’limoti, har bir kishiga uning temperament xususiyatlariga qarab yondashish zarurligi fikrlari ming yildan so’ng ham, zamonaviy psixologiyada o’z aksini topgan. Abu Ali ibn Sinodan so’ng Markaziy Osiyoda psixologik muammolar bilan shug’ullangan biror bir olim uchramagan bo’lsada xalq og’zaki ijodiyotida, shoirlar she’riyatida psixologik qarashlarini ko’rish mumkin. Abadiy qahramonlar orqali aytilgan

fikrlar ma’lum tasavvurlarni tashkil etib, ular ilmiy qarashlarning paydo bo’lishi va rivojlanishiga asos bo’lib xizmat qildi va shu bilan birga psixologiyaning fan sifatida tarkib topishiga asos bo’ldi.

Abu Rayhon Beruniy Beruniy psixologiya sohasida aniq bir asar yozmagan bo’lsa ham, Farobiy ta’limoti ta’sirida inson shaxsining kamoloti, uning aql-idroki, ruhiy taraqqiyoti haqidagi o’zining psixologik va pedagogik qarashlarini hamma asarlarda to’liq bayon qiladi.Masalan: «Mineralogiya», «Hindiston», hislar bilan seziladigan va aql bilan bilinadigan bir qator kitobning tarjimasi-degan kitob va risolalarida o’zining ruh haqidagi qarashlari, ruhiyatning ba’zi muhim masalalarini bilish va tafakkur jarayonlari haqida juda ko’p, g’oyat qimmatli fikr-mulohazalar mavjud [4].

Beruniy olamni ob’yektiv reallik, inson irodasidan tashqarida mustaqil ravishda mavjud bo’lgan borliq sifatida qaraydi.Beruniy kishi ongi. Tafakkuri va ruhiyatini moddiy jismdan keltirib chiqargan holda tasavvur etadi.Beruniy Abu Ali ibn Sino bilan bo’lgan munozaralarida barcha narsalarning asosida 5 ta element, ya’ni suv, olov, havo er, bo’shliq yotishini hamda dunyoni bilish jarayonida bilimlarimizning manbaini sezgi a’zolarimiz va ular orqali qabul qilgan hissiy bilmimiz tashkil etadi deb ta’kidlangan. U «agar sezgi a’zolarimiz bo’lmaganda olam tasavvurga ega bo’lmasdik.Umuman inson narsa va jismlarning rangini bilmagan bo’lardik» deydi.Bunda Beruniy sezgi organlar fasliyatiga baho berib materialistik pozitsiyada turganligini ko’ramiz.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib psixologiya fani to’g’risidagi ilmiy tununchalarda keskin o’zgarishlar yuzaga keldi va ularning ta’siri natijasida psixologiyaning tadqiqot ob’ekti sifatida insonga muhitning ta’siri uning xulq atvorini o’rganish muammolari tanlab olindi. Psixologik kontseptsiyalarning rang-barangligi sababli va fan texnikaning rivojlanishi ta’siri bilan psixologiya o’zining tadqiqot ob’ektlariga ega bo’lgan ko’plab sohalarga ajrala boshladi. Hozirgi davrda psixologiyaning nazariy va amaliy yutuqlari atrof muhit hamda jamiyatning juda keng qirralariga tadbiq qilinmoqda. Psixologiya fanini muayyan sohalarga bo’lishda aniq, yaqqol faoliyatining psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati, taraqqiyotining psixologik jabhasi asos qilib olingan. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxs faoliyat ko’rsatar ekan har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq atvor normalarini bilish va shunga ko’ra ish olib borish muhimdir.

Psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda uning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo’nalishdagi muammolarni ma’lum ma’noda o’rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqqoza etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy gumanitar fan sohalari bo’lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o’ziga xos va yetakchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. "Hulqi og’ishgan bolalar psixologiyasi". D.Abduvahobova. Jizzax. 2013-yil.

2. "Deviant hulq-atvor psixologiyasi". I.M.Hakimova. Toshkent. 2014-yil.

3. Asranbaeva, M.H. (2020). CHARACTERISTICS OF FORMING MOTIVES OF LABOUR ACTIVITIES IN AN INCOMPLETE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 121-123.

4. Badritdinova, M.B., & Rustamova, T.N. (2021). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF THINKING IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Science and Education, 2(2), 331-337.

ОИЛАДАГИ АЖРИМЛАР ВА УЛАРНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИ

Абдулмаҳмудов Илҳомжон,
“University of business and science” ўқитувчиси

Аннотация. *Ушбу мақолада оилавий низолар, оиладаги шахслараро муносабатлар, оилавий ажримлар ва уларнинг профилактикаси хусусида сўз боради. Ушбу мақола оила қуриш ёшидаги йигит ва қизлар,педагоглар ва олий таълим талабалари учун мўлжалланган.*

Калит сўзлар: *оила, учинчи томон, оиладаги низолар, эр-хотин муносабатлари.*

Оила-жамиятнинг асосий ва бирламчи бўғинидир. Йигит ва қизнинг ўзаро бир-бирига бўлган муҳаббати асносида оила таркиб топади.

Азалдан ўзбек халқида оила масаласига алоҳида эътибор қаратиб келинган. Хусусан келин ёки куёвни танлашда етти пуштини суриштириш, уларнинг ота-бобоси кимлар эканлиги, насл-насабини суриштириш борасидаги ишлар замирида ҳам ана шундай ўзбеккагина хос бўлган қадрятларни кўришимиз мумкин. Албатта, кўпчилик ҳолларда янги оила тез ривожланиб шакллана боради, бу ҳам бўлса тўғри танланган куёв ва келиннинг ўзаро мутаносиблиги белгисидир. Бироқ айрим ҳолларда барпо этилган оила хеч қанча вақт ўтмай таназзулга юз тутади. Хўш бунга нима сабаб бўлиши мумкин?, нима қилсак оила мустаҳкамланиб ажримлар сони камайишига эришишимиз мумкин.

Мамлакатимиз мустақилликка эришган дастлабки кунларданоқ ижтимоий жамиятнинг бир бўғини бўлган оила масаласига эътибор кучайди. Бу борада махсус “Оила кодекси” ишлаб чиқилди, Республика Оила илмий-амалий маркази фаолияти йўлга қўйилди,қолаверса,мамлакатимизда 1998-йил “Оила йили” деб эълон қилинди [1]. Шу билан бир қаторда оиланинг репродуктив вазифаларини шакллантириш,оналик ва болаликни ҳимоя қилиш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Лекин кўрилган чора-тадбирлар,ўтказилган профилактик ишлар самара бериш билан бир қаторда аҳоли орасида унинг туб моҳиятини тушиниб етмаслик ҳоллари хам учраб турибди.

Статистик маълумотларга кўра 2019-йилда расмийлаштирилган 195000 никоҳдан 23000 тасида ажрим ҳоллари қайд этилган. Албатта, бу ажримларнинг турли хил сабаблари мавжуд. Қуйида биз ана шу сабаблар ҳамда уларнинг профилактикаси хусусида сўз юритамиз.

Ажримларни асосан тўрт гуруҳга бўлиб ўрганиш мумкин:Булардан биринчиси оиладаги психологик иқлимнинг носоғломлиги турли хил низолар ва зиддиятларнинг мавжудлиги. Бунда алоҳида эътиборга молик жиҳат сифатида “учинчи томон”нинг аралашуви деган тушунчага алоҳида тўхталиб ўтиш лозим. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки Ўзбекистон Республикасида мавжуд ажрим ҳолатларининг энг характерлиси бу айнан учинчи томоннинг аралашуви билан белгиланади. Республика Оила илмий-амалий марказининг маълумотларига кўра юзага келган ажримларнинг 50%и ана шундай учинчи томон (қайнона, қайинсингил, овсинлар) аралашувидан келиб чиқар экан. Натижада эр-хотиннинг бир-бирига бўлган хурмати йўқолади ҳамда бу оилани жар ёқасига етаклайди. Унинг олдини олиш учун эса дастлаб ота-оналарни қайнона-қайнота ролини бажаришга тайёр эканликларини текшириб кўриш лозим. Асосан оналардаги фарзандини қизғониш, турли хил орзу-хаваслар кетидан қувиш каби иллатларга қарши курашиш даркор, бунга эса оилада ота обросини ошириш орқали эришиш мумкин. Бу ўринда Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги Юсуфбек хожи ҳамда Ўзбек ойимларни ўрнак қилиб кўрсатса бўлади [2]. Яъни катталар онгида ёшлар дунёқарашини ўзлариники билан таққосламаслик кўникмасини шакллантириш даркор.

Ажримларга сабаб бўладиган иккинчи омил эса маънавий-аҳлоқий тарбиянинг сустлиги, яъни аёлга нисбатан зўравонлик, унга ҳаддан ташқари юмушлар ва мажбуриятларни юкланишидир. Минг афсуслар бўлсинки айрим ҳолатларда қайнона-

қайноталар (аксарият ҳолларда оиладаги можароларга қайноталар хам дахлдор бўлиб қолишмоқда. Азалдан қайноталар келинларнинг химоячиси сифатида намоён бўлишган бўлса, бугунги кунда улар хам келинга қулдек муносабат билдириб, хаттоки уларга қўл кўтаришгача боришмоқда) томонидан ёш келинларга нисбатан ҳудди қулга муносабат қилгандек муносабатда бўлиш, “келин киши кенг киши, малай билан тенг киши” қабилида иш тутиш ҳоллари учраб туради. Буйирилган ишни мени кўнглимдагидек бажарсин тамом вассалом дея оёқ тираб туриб олишлари эса мавжуд вазиятни янада чигаллаштиради. XIX асрнинг иккинчи ярмида яшаб ижод этган мутаффакирлардан **Аҳмад Дониш** ўзининг “Наводир ул-вақое” (Нодир воқеалар) номли китобида қайнона-келин низолари ҳақида ёзар экан шундай дейди: “Қайнона-келин низолари бундан олдинги оилаларда хам бўлган, ҳозир ҳам бор ва бундан кейин ҳам бўлади. Улар доимо уришаверадилар. Улар нима учун урушадилар? Чунки улар нима учун уришишаётганликларини ўзлари ҳам билмайдилар. Шунинг учун уришадилар” [3]. Келин яшаган муҳит билан ўзлари яшаётган муҳит орасидаги тафовутларни чамалаб чиқиш уларнинг хаёлларига хам келмайди. Бунинг натижасида қайнона ва келин зиддиятларини авж олиши, бир-бирини тушунмаслик ҳолатлари юзага келади шунинг учун хам қаёналаримизни келиндан нимани исташларини аввал ўзлари англаб етишлари учун имконият бериш лозим. Уларнинг руҳиятида келин қул эмас, балки, шу ҳонадоннинг янги аъзоси, насл давомчиларини тарбияловчи бир куч эканлиги тўғрисадаги қарашларни шакллантиришимиз лозим. Ўткир Ҳошимов таъбири билан айтганда тўйгача қулчиликка келдик айланай деб, тўйдан кейин келиннни қулдек ишлатиш эмас [4], балки, уни ўз боласидек асраб-авайласагина оила мустаҳкамлигига эришиш мумкин.

Оилани таназзулга юз тутишига асосий сабаблардан яна бири – бу унинг моддий ҳолати, оиладаги етишмовчиликлар, меҳнат миграцсияси, уй-жой шароитининг талаб даражасига жавоб бермаслигидир. Ўтказилган сўровномалар натижасига кўра 4% респандиентлар оиладаги ажримларга меҳнат миграцсияси сабаб бўлади дея жавоб беришган.Гап моддият хусусида борар экан бу масалада оиланинг устуни бўлган эркакларни гапирмасликнинг сира иложи ёқ. Оилани иқтисодий ахволини яхшилаш, уни хар томонлама таъминлаш бу эркак кишининг вазифасидир. Аммо минг афсуслар бўлсинки бугунги ижтимоий жамиятимизда аёллар ва эркаклар тенг ҳуқуқлидирлар деган қонунним нотўғри талқин қилаётганлар, оилани иқтисодиётини таъминлашни аёллар зиммасига юклаб қўяётганлар хам учраб турибди. Машхур мутаффакир Абу Али ибн Сино ўз асарларида шундай дейди: “Еркак киши оила бошлиғидир, у оиланингбарча эҳтиёжларини қондирмоғи лозим, чунки бу унинг бирламчи вазифасидир” [5]. Аёлини бозор ёки мардикорчилкка чиқариб ўзи бамайлихотир уйида ёнбошлаб ётадиган эркаклар ҳам ёқ эмас минг афуски. Хаттоки бугунги кунга келиб аёлини чет элга ишлаш учун жўнатиш холлари хам ёқ эмас. Тўғри халқимизда эр-хотин қўш хўкиз деган нақл бор. Оилани барпо этишда эр-хотин қанчалик ҳамқадам бўлишса ўша оила мустаҳкам бўлади. Бироқ бу дегани тўлалигича рўзғорни ё эркак зиммасига ёки аёл зиммасига юклаб қўйиш дегани эмас.

Бундай носғоломликни олдини олиш учун аввало ўғил болаларда ёшликдан бурч, маъсулият каби туйғуларни шакллантиришимиз, уларда бозор муносабатлари ҳамда иқтисодий билимларга доир қарашларни кенгайтиришимиз лозим. Шундагина бу муаммони олдини олган бўламиз.

Оилавий ажримларга сабаб бўлувчи охирги сабаблардан бири бу соғлик ҳамда бефарзандлик билан боғлиқ муаммолардир. Статистик маълумотларга кўра оиладаги ажримларнинг 24% ини ана шундай бефарзандлик ҳамда соғликдаги мавжуд муаммолар ташкил қилар экан. Сўровномаларда иштирок этган респандиентлардан давлат ташкилотлари ажримлар сонини камайтириш учун қандайҳаракат қилишлари керак дея сўралганда 80% синалувчилар тиббий кўрикни янада кучайтириш,унинг ҳаққоний амалга ошиши кераклигини қайд этишган.бундан келиб чиқадики оилани барпо этиш жараёни нафақат, оила аъзоларининг, балки, шу жамиятда яшовчи шахсларнинг ҳам зиммасига

катта вазифа юклайди. Бу жараёнга панжа орасидан қараш эса ижтимоий жамият таназзулига, қолаверса миллат генофондига жиддий зарар етказади.

Юқоридагилардан хулоса қилган ҳолда шуни таъкидлаш мумкинки, оилани муқаддас билиш, арзимаган сабабларни деб уни жар ёқасига олиб келиш зинҳор мумкин эмас. Шунингдек ғарб ақидаларига таяниб фақат ўзинг учун яша дунёга бир бор келасан шиори билан эмас, балки, ўзбек халқига хос бўлган тарзда, яъни оилапарвар, фарзандларни севувчи оиласини, турмуш ўртоғини эзозлаб яшовчи шахсга айлансакгина халқимизнинг келажаги буйк ва қудратли бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. 1998 – Оила йили. Тошкент. “Ўзбекистон”, 1998.
2. А.Қодирий “Ўткан кунлар” “Шарқ”. Тошкент: 2005
3. Аҳмад Дониш “Наводир ул-вақое” “Дониш”. Душанбе: 1988.
4. Ўткир Ҳошимов “Дафтар ҳошиясидаги битиклар” “Шарқ”. Тошкент: 2013.
5. Абу Али ибн Сино. “Тиб қонунлари”, 1-жилд. – Тошкент: 1994.
6. Ғ.Б.Шоумаров, И.О.Ҳайдаров, Н.А.Соғимов Оила психологияси дарслик “Шарқ”. Тошкент: 2015.

BUGUNGI KUN MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING ISH FAOLIYATNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINING YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI

Jurayev Xaydarjon Odilboyevich,
University of business and science
Nodavlat oliy ta`lim muassasasi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o`qtuvchisi
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-2585-8439
e-mail: haydarbekjurayev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktab amaliyotchi psixologning ish faoliyati va undagi yuzaga kelayotgan ijtimoiy qiyinchiliklar va bezadadptatsiya jarayoni xaqida yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *shaxs, psixologik xizmat, psixoprofilaktika, suitsid, jamoa, adaptatsiya jarayoni.*

Аннотация. *В данной статье освещается деятельность школьного психолога-практики и возникающие в ней социальные трудности и процесс приукрашивания.*

Ключевые слова: *личность, психологическая служба, психопрофилактика, самоубийство, коллектив, адаптационный процесс.*

KIRISH

Bugungi kunda xalq ta’lim tizimda psixolog shtatlari mavjud bo’lib ulr o’z ish faoliyatlarining nizomda keltirilgan qonun va qoidalarga asoslangan tarzda ish olib borishmoqda. Maktab psixologi yosh avlodni katta hayotga to‘g‘ri yo‘naltirishda ota-ona va o‘qituvchi bilan barobar ahamiyatga ega shaxs. Murakkab davr o‘smirlikka qadam qo‘yayotgan bola, shaxs sifatida shakllanayotgan o‘smirning o‘z olamidagi muammolariga yechim topishi uchun yordam berishda maktab psixologining roli katta. Maktabda ish faoliyatini amaliy tarzda olib boorish uchun psixolog quydagi vazifalarni bajaradi Quyidagilar psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi: psixologik ma’rifat va tashviqot; psixologik-pedagogik tashxis; psixologik profilaktika; psixologik korreksiya; psixologik maslahat; kasb-hunarga yo‘naltirish. Maktabda ishlaydigan amaliyotchi psixolog yuqoridagi vazifalarni bajaradi albatda barchasiga jismoniy va fizyalagik jixatdan ulgursa ish samaradorligi oshadi, bugungi kunda maktabda ishlaydigan psixologlar xar bir maktabda ikki yuz ellik ta o’quvchiga bir shtat birligi joriy etildi, o’quvchilar sonidan kelib chiqib psixolog shtati biriktiriladi. Xar bir ishni va kasbni ijobiy va

salbiy tomonlari bo’lgani bois psixolog ishida xam bugungi kunda salbiy tomonlari xam yuzaga kelyabdi ish samaradorligida albatda, psixolog maktabda qiladigan ish ko’p va judda xam ma’sulyatli vazifani taqazo etadi, lekin bazi javxalarda esa psixologlar tomonidan ko’proq qog’ozga ko’milib qolishyabdi ya’niy o’quvchida o’tkazilishi kerak bo’lgan psixodiagnostik metodikani mazmuni moxiyatini bilmasdan trib natijani yuzaki taxlil qilishadi natijada esa metodikaga qo’yiladigan validlik darajasi paslayabdi, ko’proq maktabda siz kutmagan o’quvchida esa suitsid xolatlari yuzga kelyabdi bunday jarayonlar esa psixologning o’z kasbi bo’yicha nazariy va amaliy bilim ko’nikmalarning yuqori darajada emasligidan va maktabda psixologa yuqori darajada yuklama quyish natijasida yuzga kelyabdi.

Bugungi kunda psixologning maktabdagi mavqeyi achinarli axvolda unga keraksiz shaxs sifatida qaraladi. Jinsiy tarbiya, suitsid, ijtimoiy hayotga moslashuvdagi to‘siqlar, kattalar bilan muloqot, kasb tanlashda psixologning o‘quvchi hayotidagi roli katta bo‘lsa-da, bu amalda ko‘rinayotgani yo‘q. Psixologik mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun alohida soat ajratilmagani psixolog-o‘quvchi munosabatlarini tashkillashtirish uchun imkon qoldirmaydi. Deylik, psixolog o‘quvchilardan ruhiy holatni aniqlashda test olishi kerak bo‘lsa, qaysidir o‘qituvchining darsini buzishiga to‘g‘ri keladi. **Ham dars buziladi, ham test o‘lda-jo‘lda o‘tkaziladi.** Yoki 20 daqiqaga mo‘ljallangan (undan ham yuqorilari bor) testlarni 5 daqiqada nomigagina belgilatib oladi. Bu, albatta, testlarning ishonchligiga, natijaviyligiga ta'sir etadi. Ya'ni o‘quvchidagi real ruhiy holatni bilishga to‘siq bo‘ladi. Alohida soat ajratilmagan bo‘lsa, psixolog o‘quvchi bilan qaysi paytda shug‘ullansin? Olti soat darsdan so‘ng ham ruhan, ham jismonan charchagan o‘quvchiga psixolog treningi yoqarmidi? Shu nuqtayi nazardan, psixologning o‘quvchilar bilan shug‘ullanishi uchun dars soatlari jadvalga kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maktab psixologning ish faoliyatida alabtda uning xonasi xam muxim axamiyatga ega psixolog xonasi 15 – 20 kishi sig‘imida bo‘lishi lozim. Nega? Chunki oddiy dars xonalari trening o‘tkazishga mo‘ljallanmagan. Bundan tashqari, psixolog xonasi keng, yorug‘, shinam, o‘quvchini o‘ziga jalb etadigan bo‘lishi lozim. **Tinch, xotirjam muhitda o‘quvchi bilan suhbat qura olish uchun sharoit bo‘lishi kerak.** Masalan, xonada akvarium bo‘lishi o‘quvchilarni qiziqtiradi, qandaydir siri bor bo‘lgan o‘quvchi psixologga aytsammi-aytmasammi deb ikkilanib turgan paytda ko‘z oldida akvarium paydo bo‘lib, bu uni psixolog xonasiga borishga undaydi. Bu esa qandaydir salbiy holatning oldi olinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Maktab psixologi o‘quvchilarga ustoz emas, do‘st bo‘lishi kerak. O‘quvchilar o‘z sirlarini psixologga qo‘rqmay ayta olishlari, unga ishonishlari lozim. Buning uchun o‘quvchilar bilan individual yoki jamoaviy ishlashda psixologning xonasi talabga javob berishi lozim. Yana bir muhim jihat: psixolog xonasi maktabning birinchi qavatida joylashishi lozim. Bu ota-onalar bilan suhbatlarni tashkil qilish uchun qulaylik yaratadi. Ilmiy manbalarda psixolog mavqe jihatdan maktab direktoriga teng bo‘lishi, rahbariyat u bilan maslahatlashgan holda ish ko‘rishi kerakligi ko‘rsatilgan. Ammo **o‘quvchilar psixologga maktabdagi mayda-chuyda ishlarni qilib yuradigan keraksiz xodim sifatida qaraydi.**

Chunki direktor, direktor o‘rinbosarlari maktab faoliyati bilan bog‘liq nimaiki mayda yumush bo‘lsa, psixologga yuklaydi. Davomat olish, o‘qituvchilarning dars o‘tayotgan-o‘tmayotganini tekshirish kabi ishlar ham ba'zida psixologga buyuriladi. Natijada, psixolog o‘z faoliyatini samarali tashkil qila olmaydi. Yillik, oylik va haftalik ish rejalarini yuritish bo‘yicha vazirlikdan topshiriqlar bo‘ladi – har bir qilingan ishning dalolatnomasi bo‘lishi kerak, test o‘tkazilsa, uning statistikasini yuritish, har bir o‘quvchining ma'lumotlarini papkalarga jamlab qo‘yish kerak. Bu qog‘ozlar hech kim foydalanmasa ham o‘quvchilar bitirib ketganidan keyin yana uch yilgacha turadi. **Endi ayting-chi, shuncha ishdan ortib psixolog qachon o‘quvchi bilan suhbatlashadi? Qog‘oz to‘ldirish, direktor buyurgan mayda-chuyda ishlarni qilishdan bo‘shab, o‘quvchining muammosini tinglashga kuch, vaqt, hafsala top oladimi?!** Umuman olganda, maktablarda psixologning mavqeyini oshirish, uning o‘z faoliyatini samarali tashkil qila olishi uchun muhit yaratish masalasi, ayniqsa, e'tibor kamroq bo‘lgan tuman hududlarida tubdan qayta ko‘rib chiqilishi kerak.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkunki xar bir psixolog o’z ishning ustasi va ozidagi liderlik qobilyati yaxshi shakilangan bo’lsa albatda ijtimoiy xayot davomida uddalay olsa, keyinchalik kattalashib ketishi mumkin bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy muammolarni birinchi bosqichlardayoq psixoprofilaktika qilib alabtda korreksion jixatlariga xam etibor beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishanova, Zamira Taskarayevna. PSIXOLOGIK XIZMAT TOSHKENT «YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE», 2007.
2. G.Q.To’laganova “Tarbiyasi qiyin o’smirlan” Toshkent “Universitet”, 2005 y.
3. E.G’.G’oziev, K.Q.Mamedov «Kasb psixologiyasiw Toshkent, 2003 y.
4. https://lex.uz/docs/-4417140
5. *Jurayev, H. (2023). OLIY O`QUV YURLARIDA TALABALARGA PEDAGAGIK VA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH. TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI. https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.7945447*

MULOQOT SHAXSLARARO MUNOSABATNING MUHIM OMILI SIFATIDA

O’rolova Sojida Xayitboy qizi,
Namangan Davlat Universiteti Psixologiya kafedrasi stajyor-o’qituvchisi
Rustamova Turdixon Ne’matjanovna,
Namangan Davlat Universiteti Psixologiya kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. *Muloqot shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, muloqot yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro aloqaga kirishadi,o'zaro axborot almashadi, bir-birlariga ta’sir o'tkazadi, hamda bir-birlarini his qiladi va tushunadilar. Ushbu maqolada muloqot va uning turlari, Shaxslararo muloqotning shaxs rivojlanishida tutgan o‘rni, shaxslararo munosabatlarning murakkab qirralari haqida bayon qilingan.*

Kalit so’zlar: *muloqot, shaxs, shaxslararo munosabat, muloqot madaniyati, kommunikativ, muomala, axborot almashish, samarali muloqot, ijtimoiy muloqot, muloqot qonuniyatlari.*

Аннотация. *Общение – основная форма межличностных отношений, с помощью общения люди взаимодействуют друг с другом, обмениваются информацией, влияют друг на друга, чувствуют и понимают друг друга. В данной статье описывается общение и его виды, роль межличностного общения в развитии личности, сложные аспекты межличностных отношений.*

Ключевые слова: *общение, человек, межличностные отношения, культура общения, коммуникативность, общение, обмен информацией, эффективное общение, социальное общение, правила общения.*

Abstract. *Communication is the main form of interpersonal relations, with the help of communication people interact with each other, exchange information, influence each other, and feel and understand each other. This article describes communication and its types, the role of interpersonal communication in personal development, complex aspects of interpersonal relations.*

Key words: *communication, person, interpersonal relationship, culture of communication, communicative, communication, information exchange, effective communication, social communication, rules of communication.*

Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: “So‘z – gul, ish – meva”. O‘ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalaringiz qanchalik pishiq-puxta bo‘lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi, – deya ta’kidlab o’tganlar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Darhaqiqat muomila shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir. Istiqlol tufayli o’z mustaqil taraqqiyot yo’lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy

muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash – shu kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan isloxotlarning taqdiri yoshlarning ma’naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog’liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o’zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongga to’la singdirishni taqozo etadi. Insonlar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sharqda o’ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda shakllantirishdir. Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o’rgatishga oid psixologik mashqlar, samarali muloqotning psixologik vositalarini o’rganish ishbilarmonlik faoliyatida asosiy o’rinni egallamoqda. Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o’rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish o’smirlar ta’lim tarbiyasining muxim vazifalari sarasiga kiradi. Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati ehtiyojlari asosida tug’iladigan ular o’rtasidagi aloqa rivojlanishining ko’p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o’rtasida axborot almashinishni o’z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonida ifodalanadi. Odamlar bir-biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning o’zaro ta’siridir. Bunda faqat so’zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan haridor o’rtasida biror so’z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir-birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir-birini to’g’ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. Muloqotning mazmuni- axborot almashish, o’qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o’quvchilar bilan o’zaro tushunish va o’zaro munosabatlarni tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o’qituvchi hamda o’quvchilar jamoasi o’rtasida munosabatlarni ta’minlamay turib amalga oshirib bo’lmaydi. Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o’rtasida bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon bo’luvchi o’zaro ta’sirdir. Muloqotning o’zaro birgalikda harakat qilish va faoliyat ko’rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa avvalo muloqot vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til muloqotga kirishuvchilar o’rtasida aloqa bog’lanishini ta’minlaydi. qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishni,bir-birlariga turli xil ma’lumotlar o`zatishni,fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o`rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro`si uning muloqotga kirish qobilyati bilan bevosita bog`liq. Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlami maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g'oyalari qaror topishiga xizmat qiladi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e’tiqodi kabi fazilatlar, sifatlar namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot tashqi ijobiy ta’sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Barkamol insonlaming muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish o'zini-o'zi mukammallashtirish, ro'yobga chiqarish, boshqarish, baholash, o'zigao'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidni tushunish hamda bosqichma-bosqich egallab boorish bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi o'zini-o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalami o'rganish uchun ham taqlid orqali o'zaro muloqotda bo'lish zarur. Jamiyat qonun-qoidalariga

asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o'rni katta. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog'chada bolaga kattalar muloqot orqali ta’sir qiladilar. Shuningdek, estetik, aqliy, jismoniy rivojlantirish uchun o'quvchiga o'qituvchi muloqot orqali ta’sir etishga harakat qiladi. Demak, muloqot ta’sir qilish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi bolalarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlami ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o'ziga xos so'zlar qo'llaniladi. Bunda so'zning ta’sir kuchi hisobga olinadi. Shaxsning temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega. Shaxsda ko'nikma, bilim, malakalaming hosil bo'lishida muloqotning o'rni beqiyos. Oddiy ko'nikmalar ham muloqot orqali singdiriladi. Shaxs muloqotining shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o‘rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta’sir etadigan so'zlarni qo'llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergan ko‘rsatmalaringizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to‘g‘ri qo'yilishi lozim. Muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin. Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil insonni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shaxsning shakllanishida muloqotning ahamiyati haqida psixolog olimlar o’z fikrlarini bayon qilganlar. Jumladan, psixolog B.G.Ananev «Odam bilishning predmeti sifatida» asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan.U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o’zlashtirishning garovi ekanligini ta’kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. Agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot uzatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar rivojlanmay qolishlari to'g'risida B.G.Ananev asosli fikrlarni keltiradi. B.G.Ananev fikricha muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi. Demak, olim muloqot tushunchasini umumiy, yosh va pedagogik psixologiya kabi fanlar uchun chuqur tahlil qilib bergan. Muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida shaxsning shakllangan sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlihk kabilar) muloqot jarayoni yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim. Samimiylik insonning eng ajoyib fazilatlaridan biri bo'lib, voqea hodisalarga oqilona munosabatda bo'lish, turli ta’sirlarga berilmaslikdir. Muloqotning turi va shakllari turlichadir Insoniy munosabatlar o'zaro shunday ta’sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab kishilar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Kishilar muloqotda bo'lgani sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadi yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo'ladi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a’zolari o'rtasida emas, uning ayrim a’zolari o'rtasida bo'lishi mumkin. O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat kishi muloqotdan, ayniqsa uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma’naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Ma’lumki, gaplashayotgan kishilar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o’zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Kamegi «Yaxshi suhbatdosh yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir», deganda aynan shu qobiliyatlaming insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan. Tinglash muloqotning eng muhim komponentidir. Tinglash san'atini puxta egallamay odam lar bilan hech qachon sog'lom munosabat o'rnatib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Shavkat Mirziyoyev: Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga egadir. 25-Dekabr 2020-yil.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston kelajagining poydevori. – T., 1997. Barkamol avlod orzusi. T.
3. M.Maxsudova “Muloqot psixologiyasi” – Toshkent, 2006.
4. V. Karimova Psixologiya. 2002.
5. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T. ToshDPU. 2002. (o’quv qo’llanma).
6. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.
7. G’oziev E. Muomala psixologiyasi. T. 2001.
8. Maxsudova M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. (uslubiy qo’llanma) N. 2003.

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA BOSHQARUV FAOLIYATIDA SHAXSNI QAROR QABUL QILISHI JARAYONINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Najmiddinova Muxayyohon Shaxobiddin qizi,
University of business and science
Nodavlat oliy ta`lim muassasasi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o`qtuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshqaruv jarayonida raxbarning tutgan o’rni va turli xildagi vaziyatlarda qaroro qabul qilishning psixologik usulari nazariy jixatdan yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *boshqaruv uslubi, psixologik mexanizm, avtoritar, demokratik, liberal, psixika, stixyali boshqaruv jarayoni.*

Аннотация. *В данной статье теоретически освещается роль руководителя в процессе управления и психологические приемы принятия решений в различных ситуациях.*

Ключевые слова: *стиль управления, психологический механизм, авторитарный, демократический, либеральный, психика, стихийный процесс управления.*

KIRISH. Bugungi kunda ijtimoiy xayotimizda xar bir javxada shaxslararo munosabtlarda boshqaruv jarayonida boshqaruvning mukammal tarzda idora etish ehtiyojini sezadi. Shu maqsadda, tuzilma mas’ul boshqaruvchiga ega bo‘lishi lozim. Tashkilotni tuzilma sifatida qabul qilarkanmiz, undagi rahbar boshqaruvida qaror qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Qaror qabul qilish jarayonining psixologik jihatini bilish mavjud bosqichlarni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Bizga malumki boshqaruvning bir nechta uslublari psixologik jixatda fanga kiritilgan bo’lib ularning munosabatlarda qo’lay olish xar bir shaxsdan pedagagik va psixologik jixatdan muloqotchanlik va tashkilotchilik qobilyatlari shakilangan bo’lishini talab qiladi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning texnologik jihatdan rivojlangan korxonalarida psixologiya boshqaruv ta’sirini amalga oshirishda eng muhim o‘rinni egallaydi, bu menejer va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida eng samarali o‘zaro aloqalarni o‘rnatishga imkon beradi, xodimlar nafaqat ish haqi bilan maksimal darajada qoniqishi uchun ishni tashkil qiladi ish jarayoni o‘zi. Rahbar – bu boshqalarning ishini boshqaradigan va uning natijalari uchun shaxsan javobgar bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Yaxshi rahbar bajarilayotgan ishlarga tartib va izchillik bilan yondoshadi. U bo‘ysunuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarini ko‘proq faktlar va belgilangan maqsadlar doirasida qo‘radi. Lider – odamlarni ruhlantiradi va xodimlarda g‘ayrat uyg‘otadi, ularga kelajak haqidagi tasavvurlarini beradi va ularning yangi sharoitga moslashishiga, o‘zgarish bosqichidan o‘tishiga yordam beradi. Boshqaruv samaradorligining mezoni – bu rahbarning vakolat darajasi. Boshliq vakolatining uch shakli mavjud: rasmiy hokimiyat; u egallab turgan lavozim rahbarga beradigan vakolatlar, huquqlar to‘plami tufayli. Rahbarning rasmiy, norasmiy vakolati rahbarning o‘z bo‘ysunuvchilariga ta’sirining 65% dan ko‘prog‘ini ta’minlay oladi, rahbar xodimdan faqat uning psixologik vakolatiga qo‘shimcha ravishda

tayanib, 100% daromad olishi mumkin, bu quyidagilardan iborat: axloqiy va funksional vakolat. Boshqaruv jarayonida qarorlar odatda tashkilotdagi turli o'zgarishlar bilan bog'liq va ularning tashabbuskori amalga oshiriladigan va boshqariladigan qarorlarning barcha mumkin bo'lgan oqibatlari uchun to'la javobgar bo'lgan tegishli organ yoki shaxsdir. Barcha boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini uch guruhga birlashtirish mumkin: Norasmiy (evristik) – qaror qabul qilish usuli. Bu boshqaruv qaror qabul qiluvchi shaxslarni analitik qobiliyatiga asoslanadi. Bu rahbar tomonidan to‘plangan tajribalar yordamida alternativlarni nazariy solishtirish yo‘li bilan mantiqiy usullar va optimal qaror tanlash metodi yig‘indisidir. Norasmiy usullar menejerni intuitsiyasiga asoslanadi. Ularning afzalligi shundaki, ular tezkor qabul qilinadi, kamchiligi esa har doim to‘g‘ri qaror qabul qilishga vakolat bermaydi. Kollektivli. Qaror qabul qilish va muhokama qilishdagi kollektiv usul. Buning uchun avval jarayon qatnashchisi bo‘lgan shaxslar ishtirokini aniqlash lozim. Ko‘pincha bu vaqtinchalik kollektiv bo‘lib uning tarkibiga boshqaruvchi va boshqariluvchilar kiradi. Bunday guruh shakllanishidagi asosiy mezonlar: vakolatlilik, tashabbuskor masalalarni yecha olish qobiliyati, moslashuvchanlik va fikrlashning nazariy mulohazasi kiradi. Kollektiv shaklda guruhiy ishlar turlicha bo‘lishi mumkin: majlis, suhbat, komissiyaga ish va boshqalar. Biz yuqorida ko’rgan boshqaruvda yuzaga keladigan jarayonlar va shaxsning boshqaruv jarayonida tutgan o’rni va lider va boshliq tushunchalarini nazariy jixatdan ko’rdik endi esa boshqaruv tiplaridagi shaxsning turli xildagi vaziyatdan kelib chiqan xolatda qanday qaror qbul qilishini ko’rib chiqamiz bu esa asosoiy psixologi mexanizm sanaladi. Rahbarning fazilatlariga bo'lgan birinchi talablardan biri uning jamoani yaratish qobiliyatidir. Jamoaning bir yoki bir nechta rahbari tomonidan qanday tashkil etilishi uning boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatga bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan rahbarga muayyan psixologik talablar qo'yiladi. Rahbar ijodiy fikrlashga boy, ammo haqqoniy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Rahbarning har bir xodimda lavozimni egallash uchun nomzod bo'lishi kerak bo'lgan sifatlarning tuzilishini ko’ra olish qobiliyati, xodimlarni to'g'ri tanlashi va joylashtirishi muhimdir. Zamonaviy boshqaruvga oid fanlarda rahbarlik uslubini turli nuqtayinazarlarda turib yoritiladi. Quyida ularning qisqacha izohini berib o‘tamiz. An’anaviy yondoshuv. Boshqaruv uslubini farqlashdagi an’anaviy yondoshuvlardan biri Kurt Levin tomonidan kiritilgan tipologiyaga asoslanib, bunda rahbarlikning avtoritar, demokratik va liberal uslublari farqlanadi. Avtoritar uslubda rahbar hamma boshqaruv qarorlarini o‘z qo‘liga oladi, qaror ijrosini qattiq nazorat ostiga oladi va yo‘l qo‘yilgan xatolar yuzasidan beshafqat jazolash shahdini namoyish etadi, xodimga inson sifatida qiziqish bilan qaramaydi. Bunday sharoitda, doimiy nazoratning mavjudligi iqtisodiy jihatdan yuqori ko‘rsatkichni ta’minlaydi. Lekin, psixologik nuqtayi-nazardan bunday uslubda qator kamchiliklar kuzatiladi. Bunday uslub rahbar va xodim orasidagi kasbiy malakalar farqi kattaligida, qattiq intizom va itoatgo‘ylik zarur bo‘lgan sharoitda maqsadga muvofiq va o‘zini oqlashi mumkin (avariya holatlari, inqirozli, urush sharoitlari va h.k.). Yangi xodimlar ishlaydigan jamoada bunday boshqaruv uslubi moslashuv jarayoniga salbiy ta’sir etadi, yosh xodimda kasbiy malakalar sekin shakllanadi. Demokratik uslub, ba’zan sheriklik, hamkorlikka asoslangan boshqaruv uslubi ham deb ataladi. Bunday uslub hukm surgan jamoada boshqaruv qarorlari xodimlar bilan muhokama qilish orqali, ularning fikri va tashabbusini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Shuningdek, qaror ijrosining nazorati ham rahbar, ham xodimlar tomonidan amalga oshiriladi, rahbar xodimga shaxs sifatida qaraydi, uning ehtiyoj, manfaat va qiziqishlarini inobatga oladi. 2 Boshqaruv pog‘onalarida qaror qabul qilish "pastdan tepaga" qarab boradi, ya’ni avval quyi bo‘g‘in rahbarlaridan yig‘ilgan fikrlar asosida yuqori bo‘g‘inda qaror ishlab chiqiladi. Rahbar jamoadagi norasmiy liderga tayanadi va kezi kelganda uning faolligi uchun ham imkoniyat yaratadi. Hamkorlik tamoyiliga asoslangan rahbar vazifani bajarishning aniq ko‘rsatmasiga nisbatan umumiy yo‘nalishni belgilashni ma’qul ko‘radi, hamda xodimning o‘zi ijro etish rejasini ishlab chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Demoratik uslub eng samarali boshqaruv vositalaridan hisoblanib, uni qo‘llashda to‘g‘ri qaror qabul qilish ehtimoli oshadi, mehnat samaradorligi ta’minlanadi, bajarilayotgan ishdan va jamoaga a’zolikdan qoniqish o‘sadi, guruhning ahilligi oshib psixologik muhit ijobiylashadi. Bunday jamoada odatda mavjud echimlarga tanqidiy ko‘z bilan qarovchi, xatoliklarni aniqlovchi

xodim va bu xatoliklarni bartaraf etish yo‘llarini taklif etuvchi mutaxassis hamkorligi mavjud. Liberal uslubda jamoada demokratik tamoyillar hukm suradi, xodimga butkul erkinlik beriladi, u o‘z xizmat vazifalarini belgilaydi va ijro etish vositasini tanlaydi, guruhda xulqni nazorat etish deyarli kuzatilmaydi. Bunday uslub yuqori ijodiy kuchga ega bo‘lgan va ishlab chiqarish jarayoni benuqson yo‘lga qo‘yilgan jamoada qo‘llanishi mumkin. Ammo, bunday uslub noo‘rin qo‘llanilganda guruhning har bir a’zosi tashabbuskor bo‘lishi bilan birga, ularni ma’lum maqsad sari yo‘naltiruvchi kuch jamoada bo‘lmaydi, qabul qilingan qarorlar nazorati sust bo‘lgani uchun ular bajarilmay qolib ketishi ham mumkin. Natijada xodimlar o‘z mehnatidan va rahbariyatdan qoniqmaydi, ish samaradorligi past, jamoada hamkorlik yo‘q, birbiri bilan kirishmaydigan guruhlarga bo‘linish ehtimoli ko‘payadi va guruhlararo ochiq yoki yashirin nizo yuzaga keladi. Yuqorida sanab o‘tilgan rahbarlik uslublari har bir rahbar faoliyatida u yoki bu darajada namoyon bo‘ladi va ayrim rahbarda bu uslublarga xos belgilar aniq ko‘rinsa, ikkinchisida sust ko‘zga tashlanadi. Ba’zi bir rahbar biron uslubga moyilligini anglasa, ikkinchisi o‘z xulqida aniq bir uslub belgilarini ajrata olmaydi. Shunga muvofiq ravishda psixologik tavsiyalarda rahbar shaxs sifatida uslubdan o‘zini ajrata olishi va uslubdan foydalanishni ixtiyoriy darajaga olib kela olishi maslahat beriladi. Boshqaruv uslublarining kommunikativ imkoniyatlari. Rahbar avtoritar boshqaruv uslubini qo‘llar ekan, u tashkilotning rasmiy tizimini ta’minlashga asosiy e’tiborini qaratadi. Bu uslubda ma’lumot faqat vertikal yo‘llar orqali keladi, xodimning mas’uliyat chegarasi aniq bo‘lib, har qanday xato qattiq jazolanadi, shaxsiy munosabatlar iloji boricha rasmiy tus oladi va hissiyotga o‘rin qolmaydi. Demokratik boshqaruv uslubida jamoadagi do‘stona munosabatlar rivojlanadi, rahbar guruh faolligi tarafdori, rasmiy tizimda shaxsiy manfaatlar xam nazarda tutilib, muloqot yuritishga keng yo‘l ochib beriladi. Liberal boshqaruv uslubida esa rahbar jamoadagi norasmiy tizimni rivojlantiradi va muvaffaqiyatga erishishda rasmiy, ma’muriy shakldan ko‘ra jamoaning norasmiy munosabatlari ustun qo‘yiladi.

Xulosa tarzida biz shunarsani aytishimiz mumkinki yuqoridagi biz keltirgan naziriy manbalardan kurinib turibdiki boshqaruv jarayonida xar bir raxbar o’zining ish faoliyatida psixologik ta’sir o’tkazishi va jamoa uchun foydasi tegadigan jixatlarini xisobga olgan xolatda qaror qabul qilishi kerakligini guvoxi bo’ldik. Albatda biz shunday psixologik jixatlarini o’z ish faoliyatimizda inobatga olsak ish samaradorligi oshadi kadirlar o’rtasida jamoada psixologik iqlim ijobiylashadi mana shunda jamoa muhiti har tomonlama sog‘lom va ijobiy tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayitov, O.E. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma – T., 2019.
2. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. – T. – 1998, 46-bet.
3. D.I.Mukumova, R.X.Fayzullaev, A.A.Jumanov, S.B.Yarova Boshqaruv psixologiyasi / O‘quv qo‘llanma.

РОЛЬ ВОДНЫХ ВИДОВ СПОРТА В ПРЕОДОЛЕНИИ ВОЗРАСТНОГО КРИЗИСА 7-МИ ЛЕТ

Рафикова Рената Анатольевна,
Преподаватель кафедры Методика преподавания
педагогических и психологических наук
Наманганского государственного педагогического института
natalistratilat2089@gmail.com
Базарова Илария,
Студентка 1 курса направления Физическая культура
Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. *Возраст 7 лет – это период, когда дети переживают важный этап своего развития, известный как возрастной кризис. В это время происходит активное формирование личности, и родители, педагоги и тренеры играют ключевую роль в том, как дети преодолевают эти вызовы. Водные виды спорта, такие как плавание, водное поло и синхронное плавание, могут сыграть важную роль в этом процессе.*

Ключевые слова: *развитие физических качеств, индивидуальные особенности ребёнка.*

Annotation. *The age of 7 is a period when children go through an important stage in their development, known as the age crisis. This is a time of intense personality development, and parents, teachers and coaches play a key role in how children overcome these challenges. Aquatic sports such as swimming, water polo and synchronized swimming can play an important role in this process.*

Key words: *individual development of physical qualities characteristics of the child.*

В этом возрасте растущие дети нуждаются в активной физической деятельности для правильного развития мышц, костей и координации движений. Водные виды спорта предоставляют отличную возможность для комплексного физического развития. Плавание, например, требует использования множества мышечных групп, что способствует укреплению тела и улучшению выносливости.

Развитие физических качеств у детей, является одной из основных задач подготовки спортсменов. На этапе обучения спортивной технике физические качества играют большую специфическую роль в формировании основных двигательных навыков, обуславливающих спортивную технику. В плавании, где обучение происходит в условиях водной среды специфика освоения спортивной техники связана с такими физическими качествами, которые развиваются в воде и на суше. Поэтому одна из главных задач нашего исследования – экспериментально обосновать возможность развивать физические качества в условиях водной среды и с их помощью формировать необходимые двигательные навыки и умения в процессе освоения спортивной техники плавания и начальной спортивной подготовки.

Известно, что в воде хорошо развивается выносливость и быстрота (скоростные качества). Методика развития этих физических качеств у спортсменов достаточно широко освещена. В то же время на этапе начального обучения эти и другие физические качества у детей развивают тренеры главным образом на суше (общеразвивающие и имитационные упражнения) и только отчасти в воде. Водная среда является идеальным условием для развития силы (сопротивление воды, быстроты, ловкости (кувырки, вращения в безопорном положении, а также различные движения, которые в воде облегчаются). Однако, научных данных, которые позволили бы разработать и обосновать методику развития физических качеств в водной среде, мы не встретили. Имеющееся отдельные данные по развитию быстроты и выносливости, способствующие развитию физических качеств в водной среде, могут широко применяться в любом возрасте. Эти упражнения

уменьшают травматизм. Дозирование нагрузок и мышечных усилий могут подбираться индивидуально.

Разработка методики развития физических качеств в условиях водной среды с определением характера и дозировки тренировочных нагрузок актуальны, поскольку развитие физических качеств, таким образом, эффективно способствует качественному освоению двигательных плавательных навыков.

Детский организм является наиболее чувствительным к воздействию неблагоприятных факторов внешней среды, что проявляется в виде нарушений физиологического течения процессов роста и развития. При этом установлено, что отклонения в сроках возрастного развития и дисгармоничность морфофункционального состояния, как правило, сочетаются с изменениями в состоянии здоровья детей, и чем более значительны нарушения в физическом развитии, тем больше вероятность заболевания.

У каждого ребенка индивидуальные особенности физического развития. У детей с раннего возраста необходимо развивать двигательные качества (ловкость, быстроту, равновесие, гибкость, силу, выносливость и пр.). С развитием силы, быстроты, ловкости увеличиваются длина, высота прыжка, дальность метания. Выносливость позволяет детям, не уставая, выполнять физические упражнения, проходить большие расстояния.

С целью определения быстроты использовали бег на дистанцию 10 метров из положения старта. Уровень развития скоростно-силовых качеств в нашем исследовании определялся по результатам, полученным в метании набивного мяча весом 1 кг на дальность двумя руками из положения стоя ноги врозь. Для определения уровня развития ловкости использовался «челночный» бег 3×10 метров с переноской кубиков. Развитие равновесия определяли с помощью гимнастического бревна (засекали время прохождения снаряда). Степень развития гибкости (подвижности позвоночного столба) определялась с помощью специального устройства, состоящего из планшета и перемещающейся по нему линейки. Стоя на гимнастической скамье (табуретке, стульчике), к которой прикреплено это устройство, ребенок, не сгибая ноги в коленях, максимально наклоняется вперед, касаясь линейки вытянутыми пальцами рук. За нуль принимается плоскость скамейки и если пальцы ребенка не переходят нулевой отметки, то в протоколе заносится цифра в сантиметрах с минусом, если пересекает – с плюсом.

Сравнив уровень физического развития детей 7-ми летнего возраста, можно разработать методики, направленные на улучшение физических компонентов каждого ребенка, делая акцент на те качества, которые дадут больший результат на любом уровне физического развития.

Участие в водных видах спорта способствует формированию социальных навыков. Командные виды спорта, такие как водное поло или синхронное плавание, обучают детей работать в коллективе, развивая коммуникативные и кооперативные умения. Это особенно важно в период возрастного кризиса, когда дети начинают осознавать свое место в обществе и стремятся к утверждению своей личности.

Социальные навыки важны для детей как в командных, так и в индивидуальных видах спорта. Например, в командных видах спорта в большей степени необходимы совместимость и взаимодействие между игроками, более эффективное общение и сотрудничество. В то время как дети из индивидуальных видов спорта больше нуждаются в уверенности в себе и в других, а также в правильно принятых решениях в сложных ситуациях.

Разновозрастное окружение обогащает социальный опыт ребенка и создаёт условия для его личностного и социального развития. Складывающиеся привычки общения с большим коллективом детей способствуют развитию контактности и коммуникабельности ребенка, обеспечивают формирование социальной ответственности, способности чувствовать и понимать других. Группа детей сформированная по разновозрастному принципу, представляет собой социально-психологическую среду развития ребенка дошкольника, характеризующуюся сосуществованием различных систем социального

взаимодействия в которое одновременно включен ребенок, этим определяется специфика образовательного процесса в ней. Эффект развития детей в разновозрастной группе обеспечивается освоением реальной ролевой позиции в процессе меж возрастных взаимодействий, что служит важнейшим интегрированным показателем социального развития ребенка. В группе дошкольного возраста, в каждой такой группе работа в ходе организации образовательной деятельности, в т.ч. в непрерывной образовательной деятельности в центрах активности, организуется в соответствии с поставленными целями и задачами календарного проектно-тематического планирования как по двум возрастным категориям (старший и подготовительный к школе возраст), так и в соответствии с объединением детей по их интересам, инициативности.

Социальные ожидания от занятий водными видами спорта с детьми младшего школьного возраста?

Планируемые образовательные результаты благодаря индивидуализации образование ребёнка соответствуют его особенностям, способностям, интересам и потребностям:

• дети приобретают компетентность и самоуважение, им нравится учиться, у них появляется желание браться за ещё более сложные задачи;

• дети осуществляют осознанный и ответственный выбор, решают проблемы, планируют свою деятельность и достигают цели, взаимодействуют с окружающими людьми;

• у детей развито чувство собственной значимости, они самостоятельными и инициативными.

В водных видах спорта, особенно в плавании, дети сталкиваются с неизбежными трудностями и преодолевают собственные страхи. Это помогает им развивать управление эмоциями, уверенность в себе и умение справляться с трудностями. Важным аспектом этого процесса является поддержка со стороны тренеров и родителей, которые играют важную роль в формировании позитивного восприятия спорта.

Возраст 7 лет часто сопровождается высоким уровнем активности и энергии. Участие в водных видах спорта предоставляет детям эффективный способ расходовать эту энергию, что способствует улучшению общего физического состояния и сна, а также снижению стресса и напряжения.

Водные виды спорта требуют постоянного тренировочного процесса и усердной работы. Участие в них может помочь детям развивать целеустремленность и усидчивость, что важно для их общего успеха в учебе и жизни.

В заключение, водные виды спорта могут оказать положительное воздействие на физическое, социальное и эмоциональное развитие детей в возрасте 7 лет. Активное участие в таких видах спорта помогает им успешно преодолевать возрастной кризис, развивая важные навыки и качества, которые будут востребованы в их будущем.

Литература.

1. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. М.: Просвещение, 1990.

2. Гальперин С.И. Физические особенности детей. М.: Просвещение, 1996

3. Алико СП., Гужаловский А.А., Карпилова Н.Л. и др. Динамика физического развития и физической подготовленности младших школьников // кн: Вопросы теории и практики физической культуры и спорта. – вып. №2 – Минск: Вышейшая школа, 1973. – С. 48 – 55.

IJODIY QOBILIYATLAR RIVOJLANISHIDA KREATIVLIKNING AHAMIYATI

G'afforov Azizjon Ahmadjon o'g'li,
NamDPI Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: ***Badritdinova Madina Baxromovna***

Anotatsiya. *Ushbu maqolada ijodiy qobiliyatlar rivojlanishida kreativlikning ahamiyati, kreativlikni faoliyatdagi o'rni, uni rivojlantirish mexanizmlari haqida ma'lumot berilgan. Maqola pedagoglar, psixologlar, kreativlik muammosi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.*

Kalit so'zlar: *kreativlik, ijodkorlik, tafakkur, diskret, interiorizatrsiya, ekstreorizatsiya, superratsionalizm, gomospatial fikrlash, ratsionallik.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о значении творчества в развитии творческих способностей, месте творчества в деятельности и механизмах его развития. Статья предназначена педагогам, психологам, специалистам, занимающимся проблемой творчества.*

Ключевые слова: *творчество, творчество, мышление, дискретное, интериоризация, экстероризация, сверхрационализм, гомопространственное мышление, рациональность.*

Abstract. *This article provides information on the importance of creativity in the development of creative abilities, the place of creativity in activity, and the mechanisms of its development. The article is intended for pedagogues, psychologists, specialists dealing with the problem of creativity.*

Key words: *creativity, creativity, thinking, discrete, interiorization, exterorization, superrationalism, homospatial thinking, rationality.*

Kreativlik ta'limning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan xalqaro ta'lim konseptsiyasida "Bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarda hamkorlik qobiliyatlarini va bilishga qiziqishni shakillantirish" dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan [1].

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor). Ijodkorlik tushunchasi birinchi marta D.Simpson tomonidan 1922-yilda qo'llanilgan bo'lib. Bu qobiliyatning va uni ifoda etuvchi atamaning mohiyati – shaxsning stereotipik fikrlash usullaridan vos kechish qobiliyatidir [2]. Bu ta'rifga juda ko'p soda ammo o'rinli misollar keltirish mumkun. Masalan Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonovlar qalaqmiga mansub "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori" asaridagi quyigi qissani keltirish mumkin [3]. Daryoning narigi qirg'og'ida, qamishzorda bitta bo'ri qo'zшchoqqa tashlanib qoladi. Shu payt kelinchak ko'za ko'tarib suv olgani kelib, bo'rini hurkitib yuboradi. Chalajon holatda tipirchilab yotgan qo'zichoqqa ko'zi tushgan kelinchak yonidan pichoq chiqarib, uni qayroqtoshda qayrab qo'zichoqning kekirdagini uzib tashlaydi va jon talvasasidan qutqaradi. Uyiga qaytgan kelinchak daryo yoqasida ro'y bergan voqeani gapirib bermoqchi bo'ladiyu, birdan qaynog'alarining nomlari esiga tushib qoladi: O'zanboy, Qamishboy, Qo'ychiboy, Qashqirboy, Kezdikboy (kezdik-pichoq), Qayroqboy. Ularning nomini tilga olsa, odobsizlik qilgan bo'ladi.

Nima qilmoq kerak?

Kelinchak o'ylab-o'ylab shunday deydi: "Jildiroqning yoqasida, shovulloqning orasida uvlovuq ba'ravuqqa tashlanib qoldi. Men yonimdan kesadiganimni chiqarib, uni o'tkirlagichga ishqalab, so'ng kekirdagini uzib tashladim. Kreativlik borasida juda ko'p sotseologlar, faylasuvlar,psixologlar va koplab soha vakillari o'z fikr mulohazalarini bildirganlar haamda o'z sohalaridan kelib chiqqan holda turli tajriba va kuzatishlarni amalga oshirganlar.

T.A.Barysheva va Yu.A.Jigalov ta'kidlaganidek, dastlab ijodkorlik "egoga xizmat qiluvchi regressiya" deb tushunilgan. Ongdan oldingi jarayonlar asos sifatida aniqlandi. Bu yerda

appersepsiyaga asoslangan divergent tafakkur asos sifatida ko'riladi. Ya'ni ma'lum bir voqea yoki hodisa asosida yuzaga kelgan muammoga o'tmishdagi tajriba (appersepsiya)ga asoslangan holda yangicha yechim topish, divergent tafakkur va produktiv fikrlashning yuzaga kelishi. S.Arieti (1979) ijodkorlikni ongsiz jarayonlar va mantiqiy fikrlashning o'ziga hos sintezi sifatida o'rganishga harakat qildi, bu jarayonga "uchlamchi jarayonlar" nomini berdi. Vaqt o'tishi bilan ijodkorlik yuqori fikrlash jarayoni sifatida qarala boshlandi va vaqt o'tishi bilan ijodkorlikning "Superratsionalligi" (May E. 2001), shuningdek, "Yunus tafakkuri" va "Gomospatial fikrlash" (Rotenberg A., Basin E.Ya. 1999) kabi g'oyalar o'rtaga chiqdi [4].

Superratsionallik – falsafa va psixologiya sohalarida fikrlash jarayonlari ikkita alohida alohida mexanizmga tayangan holda amalga oshadi degan g'oyalar olgari suriladi. Bular ratsional fikrlash va iratsional fikirlash. Irratsional fikirlash bu intuitsiya va hissiyotlarga tayangan holda fikr yuritishdir. Bu g'oya vakillarri rotsional fikirlashni ikkinchi o'ringa qo'yadilar va asosiy mexanizm sifatida irrotsional fikrlash jarayonini ko'rsatadilar. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra erkaklarga nisbatan ayollar irrotsional fikrlash mexanizmiga tayanadilar va ayollar ma'lum bir narsa va hodisalar haqida hulosaga kelishda va qaror qabul qilishda hissiyotlarga tayanadilar [5].

Ratsionallik – bu g'ouaning asosiy mazmuni inson fikr yuritishda, qaror qapul qilishda, xulosalar chiqarishda kognetiv jarayonlar asosan murakkab bilish jarayonlari yoki aqli bilish jarayonlariga tayanadi. Yani asosan tafakkurga tayaniladi. Tafakkur narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhum bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishidir. O.K.Tixomirov ta'biri bilan aytganda "Tafakkur bu o'z maxsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bavosta aks ettitishini xarakterlaydigan umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalarga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir" [6]. Fikirlash jarayonidagi ratsionallik quyidagicha kechadi shaxsga ta'sir etayotgan narsa yoinki hodisalar birin ketin kognitiv jarayonlardan otib tafakkur jarayoniga kelganda shaxs ta'sir etayotgan narsa yoki hodisalarni apersepsiyaga tayanib analiz, sintez, taqqoslash, abstraktsiyalash, umumlashtirish, masniflash, tizimlashtirish kabi operatsiyalarni amalga oshirish natijasida ma'lum bir tushuncha hosil qiladi va shaxsda introrizatsiya jarayoni kechadi. Introrizatsiya hosilasi sifatida shaxs o'z qarashlari, fikrlari va kreativligi (ijodkorligi) asosida xulosa va hukmni ya'ni kreativlik nuqtayi nazaridan qaraganda voqeaga yoinki muammoga yangicha yondashuv va yechimni ifodalaydi, uning tashqi ifodasi esa ekstrorizatsiya hisoblanadi. Aynan mana shu tafakkur operatsiyalari natijasida ratsional fikirlash vujudga keladi. Ratsional va superratsional fikrlash g'oyalarining asosi mana shulardan iboratdir. Ammo superratsionalizm g'oyasi rivojlanish darajasining cho'qqisida bo'lgan tafakkurgina yangicha fikrlashga qodir degan xulosaga keladi.

Gomospatial fikrlash – bu turdagi fikrlashga asoslangan qarashlar asosan haykaltaroshlik, rangtasvir, adabiyot, musiqa, ilm-fan va texnalogiya sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, fazoviy aqliy dizaynlarni o'z ichiga oluvchi jarayon bu gomospatial jarayon deyiladi [8]. Kosmosning aqliy tasviri har har qanday jismoniy voqelikka qaraganda kengroq, ekstremal va xilma-xildir. Ijodiy natijalarning ko'p turlari uchun mas'ul bo'lgan gomospatial jarayon haqiqiy jismoniy makonga qarshilik ko'rsatadigan yoki undan yuqori bo'lgan aqliy tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon bir xil makonni yoki fazoviy joylashuvni egallagan ikki yoki undan ortiq diskret (Diskretlashtirish lotincha discretion – "ajratish", "tanib olish") ob'yektlarni faol tarzda loyihalashdan iborat bo'lib, bu dizayn yangi integratsiyalarning artikulyatsiyasiga olib keladi. Ongli aqliy makonda ijodkorlar shakllar, naqshlar, yozma so'zlar, o'lchamlar, maasofalar va boshqa aniq ob'yektlarni qo'shishi, sub'ektiv ravishda ko'z ochiq yoki yopiq, boshqa jismoniy retseptorlar diqqatli yoki e'tiborsiz qoldiriladi, natijada paydo bo'lgan aqliy tasvir kontseptuallashtirilgan idrok maydonini to'liq to'ldiradi. Har qanday hissiy modal ishtirok etishi mumkun: visual, audial, kinestetik, hid va tam. Bular asosida tasvirning xayolda joylashuvi "aqlning ko'zi", "aqlning qulog'i", "aqlning ta'mi" va shu kabi atamalar paydo bo'ldi. Gomospatial jarayonning diskret sub'ektlari ongli ravishda birlashtirilgandan so'ng, aqliy konseptsiya tez va tez o'tadi.

Ijodkorning ongida bir-biriga o’xshash va bir-biriga o’xshash elementlar darhol o’zaro ta’sir qila boshlaydi va yangi o’ziga xosliklarni, jumladan yangi g’oyalarni keltirib chiqaradi. Bu g’oyalar ilmiy va boshqa muammolarning yechimi bo’lib, san’atda metafora, syujet, tasviriy mavzu va konstruksiyalar, musiqiy parchalar va boshqalar manashu diskret subektlarning o’zaro integratsiyasidan iborat.

Masalan, shoir yopiq xonada stolda o’tirgancha daraxt shoxlari va mangolarni aqliy ravishda bir-biriga qo’shish orqali (apersepsiya va ularning o’zaro integratsiyasi) “novdalarda bir hovuch yulduz edi” ta’sirchan poetik metafora yaratdi. XIX asrda yaratilgan uyali aloqa vosidasining hozirgi davrgacha takomillashib o’zida bir qancha funksiyalarni jamlaganligi ham gomospatial jarayonning hosilasidir. Yani, astasekin yoki analitik tarzda ko’rib chiqiladigan oddiy kombinatsiya, ongsiz kondensatsiya yoki deskret ob’yektlar emas, gomospatial jarayon bir biri bilan o’zaro aloqada bo’lgan beqaror va bilvosita bog’liqliklarni o’z ichiga oladi.

Gomospatial jarayon to’rt bosqichda amalga oshadi: birinchi bosqich – biror bir sohadagi muammoni hal etishga qaratilgan loyiha yaratish uchun dastlabki motivatsiya. Ikkinchi bosqich, oddiy usullar, tushunchalar va bilimlardan farqli va og’ishgan fikrlarni o’z ichiga oladi: “qutidan tashqarida fikrlash”. Ikki yoki undan ortiq diskretlar, odatda aniq bo’shliqlar va fazoviy joylarning sensorli tasvirlari ko’rinishida, o’zlarining oddiy konseptsiyalaridan chetga chiqadilar. Ular umumiy dizayn yoki ishlab chiqarish sohasi uchun u yoki bu tarzda muhum bo’lishi mumkun, ammo boshqa omillarni o’z ichiga oladi [9]. Tanlangan diskret ob’yektlar hissiy va kognetiv jihatdan jozibador bo’lib, ular umumiy kontekstdan ajralib tursa ham, barcha holatlarda bir biri bilan qandaydir aloqada bo’ladi. Shoit uchun, mango va shoxlar metafrasi misolida bo’lgani kabi, komponentlar ko’pincha tovush va jismoniy munosabatlarga ega bo’lishi mumkun.. Ritm va mavzuni o’z ichiga olgan tovush va jonlantirilgan elementlar, shuningdek tasviriy tasvirlar musiqachi tomonidan tanlanadi. Tasvirda rassom uchun shakl va rang jihatidan o’xshash va bir birini to’ldiruvchi va qarama qarshi bo’lgan bog’lanishlar mavjud bo’lsa, olim uchun esa u ishlayotgan muammoning tarkibiy qismlari o’rtasida ma’lum darajada konseptual yoki jismoniy munosabatlar mavjud. Uchinchi bosqichda konvergensiyadan og’ish (divergensiya) davom etadi. Gomospatial jarayon ongli bo’lib qoladi va bilvosita tegisli ob’yektlar ongga aralashadi yoki bir-biriga yopishadi, chunki ijodiy tafakkurda ular birga bo’lishi kerak deb tushuniladi, fazoviy uzluksizliklar buzuladi. To’rtinchi bosqichda gomospatial dizatnning bir-biriga o’xshash yoki o’zaro joylashtirilgan elementlari bir-biriga ta’sir qiladi va yaratiladi, yangi va qimmatli yakuniy mahsulot sifatida qisman yoki yangi integratsiyalashgan o’ziga xos fikriy mahsulotga aylanadi.

Zamonaviy kreativlik g’oyalari asosida ham qisman manashu g’oyalar va mexanizmlar yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бадритдинова, М. (2019). КОГНИТИВ УСЛУБ БИЛАН БОҒЛИҚ МЕТАУСЛУБЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. Ilmiy axborotnoma.

2. Бадритдинова, М. (2019). КОГНИТИВ УСЛУБ БИЛАН БОҒЛИҚ МЕТАУСЛУБЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. Ilmiy axborotnoma.

3. Бадритдинова, М.Б. (2020). Различия между базовой, дидактической и когнитивными структурами личности. Oriental Art and Culture, (II), 158-161.

4. Бадритдинова, М. (2015). ТАЛАБАЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШГА НИСБАТАН СИСТЕМАЛИ ЁНДАШУВ. Илмий ахборотнома.

5. Turg’unboyeva, A., Badritdinova, M., G’aniyeva, N., & Qayumov, B. (2021, May). DESCRIPTION OF THE METHODS OF DIAGNOSING THE COGNITIVE STYLE OF PUPILS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In E-Conference Globe (pp. 306-308).

6. Badritdinova, M.B. (2019). HE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.

7. Badritdinova, M., Mo’Minova, D., & G’Aniyeva, N. (2021). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR RIVOJLANISHING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Special issue), 433-436.
8. Badriddinova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DIQQATINI BARQARORLASHTIRISH USUL VA VOSITALARI. TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to’plami.
9. Badritdinova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR USLUBINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to’plami.
10. Badritdinova, M.B., & Rustamova, T.N. (2021). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF THINKING IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Science and Education, 2(2), 331-337.
11. Е. П. Ильин. «Психология творчества, креативности, одаренности»
12. https://www.blogdepsicologia.com/

BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA STRESSNI BOSHQARISH KO’NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING O’ZIGA XOS JIHATLARI

Dexkonova Marg’uba Erkinovna,
Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna,
Namangan Davlat Universiteti
Psixologiya kafedrasi o’qituvchilari

Ma’lumki zamonaviy o’qituvchiga bir qator talablar qo’yiladi. Bu talablar orasida o’qituvchi o’z hayoti va faoliyatida duch kelishi mumkin bo’lgan muammolarni mustaqil tarzda yecha olish ko’nikmasiga ega bo’lishi katta ahamiyatga ega. O’qituvchi faoliyatini muvafaqqiyatli bo’lishi ko’p jihatdan psixologik savodxonligiga va stressni boshqarish ko’nikmasiga ega bo’lishiga bog’liq. Madrid muxtor universiteti professori J.Karrobles (1991) stressni quyidagicha ta'riflaydi: "Stress – bu haddan tashqari deb hisoblangan turli xil holatlarda odam boshdan kechiradigan doimiy haddan tashqari faollik holati. Ular mavzuni kam ta'minlanganligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash manbalari sharoitida yuzaga keladi. Shunga qaramay, stress atamasini ochish kerak, chunki u ikki ma'noga ega. Siz uni "qayg'u" va "eustress" ga ajratishingiz mumkin. Qayg'u ("*dis*-"="o'zgartirilgan, etarli emas") – Bu qachon stress patologik bo'ladi va haddan tashqari holatlar tufayli o'zgargan javoblarga olib keladi. Yustress (“*eus*-”=“adekvat, yaxshi”) – Bu etarli va kerakli stressni anglatadi. Bu etarli emas, maqbul yoki haddan tashqari bo'lishi mumkin va bu qayg'uga olib kelishi mumkin.

Stress va psixofiziologik kasalliklar o'rtasidagi munosabatni tushunish uchun uni xavotirdan farqlash kerak. Buning sababi shundaki, tananing javobi ko'pincha o'xshashdir. Xavotir xavf bilan bog'liq bo'lib, u haqiqatan ham ma'lum bir kishi tomonidan talqin etiladi. Bu stressli vaziyatlarda sodir bo'lmaydi, chunki ular yoqimsiz yoki xavfli bo'lishi shart emas. Agar biror kishi vaziyatni xavfli deb bilmasa, ular odatda qochib ketmaydi, chunki bu bilan kurashish osonroq. Xavotirga duch kelganda, odatiy javob qochishdir. Ushbu holat xavotirdan saqlanish-xavotir mexanizmi orqali saqlanib qoladi. Agar siz biror narsani xavfli yoki zararli deb bilsangiz, siz qochishga odatiy munosabatda bo'lishingiz mantiqan to'g'ri keladi. Agar xavfli bo'lsa, o'zingizni bunday xavfdan himoya qilish uchun sizga ba'zi vositalar kerak bo'ladi. Va odamlarda odatda bunday o'zini o'zi samaradorlik hissi yo'q. Ular biror narsani xavfli deb bilishadi, chunki ular bilan kurashishga qodir emaslar.

Bundan tashqari, stress zararli ta'sir ko'rsatishi uchun, vaqt o'tishi bilan davom etishi kerak. Xavotirda, hatto qisqa vaqt ichida bo'lsa ham, bu allaqachon zararli. Asosan, bu qisqa vaqt ichida insonning ijtimoiy va hissiy faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Barcha odamlar ichki muhitga va hayotiy belgilarga ega va ular muvozanatlashish tendentsiyasiga ega. Ya'ni, agentlik inson rivojlanishi mumkin bo'lgan har qanday nomutanosibliklarni bartaraf etish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi. Gomeostazga etib bormaganingizda, siz stressni boshdan kechirasiz. Agar siz ongli strategiyalarni amalga oshirishingiz kerak bo'lsa, chunki ular avtomatik ravishda ishlamayapti, unda bu muvozanat holatiga etib bormaslik odatiy holdir. Buning o'rniga siz "gemokinesis" ga, muvozanat holatiga erishasiz. Stress asabiylashish, befarqlik, tashvish, iztirob va g'azabga olib kelishi aniq bo'lsa-da, bu siz sezmagan fiziologik yoki tanadagi javoblarga ham olib keladi. Bular stress va psixofiziologik kasalliklar o'rtasidagi munosabatlarga juda mos keladi. Buning sababi shundaki, siz ularni stressli vaziyat tufayli vaqt o'tishi bilan saqlab tursangiz, ular ba'zi bir psixosomatik kasalliklarga olib kelishi mumkin.Stressga qarshi fiziologik javobda somatik tizim elektromiyografik javob uchun javobgardir. Bu skelet mushaklari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr harakati, masalan, ko'z harakati va nafas olish. Shunday qilib, stress paytida katta mushak guruhlariga qon oqimining ko'payishi mumkin: orqa, qo'llar, oyoqlar. Bundan tashqari, umumiy mushak tarangligi ham bo'lishi mumkin.Ushbu tizim tomonidan qabul qilingan stress reaktsiyalari yurak-qon tomir tizimi bilan bog'liq: yurak urishi, qon bosimi va qon oqimi. Shuningdek, ular tana harorati, jinsiy hayajon va elektrodermal reaktsiyalarni tartibga soladilar. Bu terining kuch darajasi va uning o'tkazuvchan reaktsiyasi. Bundan tashqari, tupurik va oshqozon-ichakning reaktsiyalari mavjud. Shuning uchun, stress paytida yurak urish tezligi, buyrak faoliyati kuchayishi, qo'llaringiz va oyoqlaringizdagi periferik vazokonstriksiya va qon ivish omilining ko'payishi mumkin. Markaziy asab tizimining javoblariga kelsak, elektroensefalografik javoblar va uyg'otilgan javoblar mavjud.

Nihoyat, stressga endokrin va biokimyoviy tizimlardan kelib chiqadigan javoblar ham mavjud. Bular turli xil gormonal o'zgarishlarga olib kelishi va boshida immunologik faollikni oshirishi mumkin, keyinchalik u kamayadi.

Xavotirda bo'lgani kabi, ba'zi bir tana tizimlari stressga javoban o'chiriladi, chunki ular foydali emas. Anksiyete hujumining o'ziga xos javobini hisobga olgan holda, ushbu tizimlar o'chiriladi yoki qayta faollashadi. Ammo, stressning barqaror holatida, ular inson sog'lig'iga ta'sir qilishi mumkin. Ovqat hazm qilish traktidagi qon oqimi pasayib, oshqozon yarasi, kolit va asabiy ichak sindromi kabi muammolarga olib keladi. Bu shuningdek, genito-jinsiy tizim bilan sodir bo'ladi, bu erda stress qo'zg'alish, erektsiya, moylash va qo'zg'alishda jinsiy funktsiyalarni buzilishiga olib kelishi mumkin. Psixosomatik kasalliklar psixologik kelib chiqishning fiziologik shartlari. Stress, bu, asosan, insonning jismoniy farovonligiga ta'sir qilmasligi kerak. Ammo bu juda yoqimsiz kasalliklarga va ularning belgilariga olib kelishi mumkin. Ular tanangizning farovonligiga "aql" ta'sirining dalilidir. Ko'p odamlar o'ylagan narsadan farqli o'laroq, ular doimo qo'lma-yon yurishadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, stressning o'zi yomon emas. Ammo, bu qayg'uga aylanganda va u quyidagi xususiyatlarni ko'rsatganda, ehtimol bu sizning psixofiziologik farovonligingizga ta'sir qilishi mumkin. Stress tufayli fiziologik buzilish paydo bo'lishi bilan bog'liq omillar:

- Rag'batlantiruvchi yoki stressli holatlarga tez-tez yoki uzoq vaqt ta'sir qilish. Odamlar stressli vaziyatdan chiqmasa, bu yanada yomonlashadi. Biror narsani tezda hal qilmaslik yoki undan qochib qutulolmasdan stressli muhitda qolish psixosomatik kasallikni rivojlanishidagi birinchi qadamdir.
- Stress sharoitida sub'ektning fiziologik faollashuvining o'ziga xos namunasini uzoq vaqt faollashtirish. Har bir inson turli xil stress holatiga ega va sizning fiziologik faolligingiz boshqalarnikidan farq qiladi, biz yuqorida aytib o'tganimizdek. Javobga qarab, psixosomatik alomatlar har xil bo'ladi.

- Stressga qarshi organik tizimning haddan tashqari sezgirligi yoki faollashishi. To'liq stressli vaziyatga tushib qolganingizdan so'ng, tanangiz unga sezgir bo'lib qolishi odatiy holdir. Va sizni stressga duchor qilish ancha osonroq.
- Gomeostatik tartibga solish mexanizmining o'zgarishi. Stressning ma'lum darajalariga etganingizdan so'ng, o'zgarishlar yuz berishi osonroq. Buning sababi shundaki, muammolarni keltirib chiqaradigan ogohlantirishlarga nisbatan past tolerantlik mavjud.
- Organik tizim faoliyatining surunkali o'zgarishi. Shuningdek, stressli yoki psixofiziologik yoki stressli psixosomatik kasallikning ko'rinishi.

  Bo’lajak o’qituvchilarga stressni zararli va foydali jihatlarini ochib berishda “Umumiy pedagogika va psixologiya” fanining ahamiyati sezilarli darajada muhimdir. Bu orqali talabalar faoliyatida har bir o’quvchining individual psixologik tomonlarini hisobga olgan holda munosabatda bo’lishi, dars mobaynida mavzularni to’liq ochib berishida ilmiy psixologiyada tajribadan o’tgan usullardan foydalanishga yo’l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019, 494 b.
2. Samarov R.S. Shaxs va stress. O’quv-uslubiy qo’llanma. – T.: 2004. – 40 b.
3. Davletshin M.G., To‘ychieva S.M. Umumiy psixologiya. T, 2002.
4. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. T. – 2003. 16 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH ORQALI OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISH

Yo‘ldosheva Shohista Baxtiyor qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim o‘qituvchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish mashg‘ulotlari orqali ularda ijodiy tafakkurni shakllantirish xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ta'lim, tarbiya, o‘quvchi, metod, nutq, nutq o‘stirish, tafakkur, ijodiy tafakkur, ona tili, o‘qish, badiiy asar.*

Аннотация. *Данная статья посвящена формированию творческого мышления у учащихся посредством развития речи на родном языке и на занятиях по чтению в начальных классах.*

Ключевые слова: *образование, воспитание, ученик, метод, речь, развитие речи, мышление, творческое мышление, родной язык, чтение, художественное произведение.*

Abstract. *This article discusses how to develop students' creative thinking in their native language and reading literacy classes in primary education through speech development activities.*

Keywords: *education, upbringing, student, method, speech, speech development, thinking, creative thinking, mother tongue, reading, artwork.*

Respublikamiz ta'lim muassasalarida intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini

oshirish”[1] ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa boshlang‘ich ta'limda o‘quvchilar dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri, nutq madaniyatini oshirishda yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi. Nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq mashqlar orqali o‘quvchilarda tafakkur, dunyoqarash, mantiqiy fikrlash, erkin mushohada yuritish ko‘nikmalari shakllanib boradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan hisoblangan notiqlik san’ati va madaniyatini o‘quvchi-yoshlarda shakllantirish ularda til, tafakkur, so‘z, nutq kabi masalalarni rivojlantirish bilan birga ezgulik, muomala, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, donolik, bilimdonlik, xulq-atvor, axloq kabi tushunchalarni kamol toptiradi. Nutq madaniyati bevosita til ta’limi va axloq-odob tamoyillari bilan uzviy bo‘lib, shaxsning manaviyati, qiyofasi, turmush tarzi, ruhiyatini namoyon etadi.

Demak, nutq madaniyati inson fikrini til vositasida to‘g‘ri, erkin, aniq, izchil, yoqimli va ta’sirli bayon qilish bilan birga uning bilimdonligi, yuksak ma’naviyatining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Nutq va til bir-biriga qanchalik yaqin bo‘lmasin, ularning funksiyalari alohida ajralib turadi. Nutq so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni bo‘lsa, til fikrni bayon qilishning asosiy qurolidir. Demak, til nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda, o‘quvchi-yoshlarning ongi va ijodiy tafakkurini o‘stirishda, ularni barkamol inson bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyati kishilarning fikr-mulohazalarini keng va har tomonlama yoritishga yordam beradi. Darhaqiqat, har qanday aloqalar, fikrlar, kishilararo munosabat va muloqotlar og‘zaki yoki yozma nutq orqali ifodalanadi.

Nutq madaniyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda, inson, jamiyat va atrof-muhit uyg‘unlashuvida o‘zaro munosabat vazifasini o‘taydi. Nutqning muhim ahamiyati shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Nutq axloqiy madaniyat ko‘zgusi sifatida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Nutqning sof, aniq va tushunarli, sodda va ta’sirli bo‘lishi har bir kishining madaniyatli ekanligidan dalolat beradi.

Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini bevosita ongli ravishda idrok etish, ifodali nutq matnini tuza olish mahoratini egallash bilan madaniy-ma’rifiy turmushning barcha sohalarida namoyon bo‘lib boradi. Demak, nutq madaniyati jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda, o‘quvchi yoshlarda bilim, aql, his-tuyg‘u, iroda, ishonch, tafakkur kabilarni shakllantirishda, barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim hisoblanadi.

Albatta, mazkur ishlarni amalga oshirishda uzluksiz ta’limning har bir bosqichi, ayniqsa boshlang‘ich ta’limning o‘rni beqiyosdir. Chunki, o‘quvchilarga nutq madaniyatining asosiy tushunchalari haqida ma’lumot berish, ularni ifodali o‘qishga o‘rgatish, aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan baxramand qilish, ijodiy tafakkurini shakllantirish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bevosita boshlang‘ich ta’lim mazmunidan chuqur o‘rin olgan. Boshlang‘ich ta'limning poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchining dunyoqarashi, nutqi shunchalik rivojlanadi, kamol topadi. ularda muloqot ko‘nikmalari, nutqdan foydalanish tajribasi, bilimlari takomillashadi.

Shunday ekan, boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish va kichik yoshdagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish barkamol avlodni voyaga yetkazishning bosh ob’ekti hisoblanadi.

Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o‘ylangan bo‘lsa, u so‘zlarda, og‘zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo‘ladi yoki, qandaydir fikrning so‘z orqali ifodasi qanchalik ko‘p takomillashgan, sayqallangan bo‘lsa, ayni shu fikrning o‘zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo‘ladi.

Nutq muomala madaniyati har bir kishining jamiyatdagi o‘rnini, vazifasini namoyon etuvchi hodisa sanaladi, ammo, shuni aytish kerakki, har bir inson nutqida uning ijtimoiy-madaniy sharoitlari, aqliy va ma’naviy salohiyati ifoda etiladi.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

Shunday ekan o‘quvchilarda nutq madaniyati va ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga o‘zbek tilining tuzilishi, tarkibi bilan nutqning uzviyligini tushuntirishi maqsadga muvofiqdir.

Nutq faoliyati inson tomonidan ijtimoiy tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga yetkazish yoki kommunikatsiya o‘rnatish yoki o‘z harakatlarini rejalashtirish maqsadida – tildan foydalanish jarayonidir.[1]

Nutq fikrlarni ifoda etishning asosiy omili bo‘lib, inson tafakkurining asosiy mexanizmini, fikrlash operatsiyasini amalga oshiradi. O‘quvchining nutqini o‘stirish orqali uning bog‘lanishli nutqini shakllantirishimiz mumkin. Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o‘zaro bog‘langan ma‘noli qismlarga bo‘linadigan nutq bog‘lanishli nutq deyiladi. Bog‘lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o‘qituvchi bergan savolga o‘quvchilarning keng, mukammal og‘zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin. Ijodiy tafakkur ham nutq orqali rivojlanib boradi. Bu esa o‘qituvchidan katta mas’uliyat talab etadigan jarayondir. O‘quvchilar bilan ko‘proq badiiy asarlar ustida ishlash, insho va bayon yozish bolaning nutq boyligini, bog‘lanishli nutqini hamda ijodiy tafakkurini o‘stirishga katta yordam beradi. Badiiy adabiyot doimo taraqqiyotda bo‘lganidek, ijodiy tafakkurni shakllantirish ham doimo o‘quvchilarning ijodkorligini, mustaqil fikrini rivojlantiradi. Badiiy asar asosida o‘quvchilar ijodiy tafakkurini shakllantirishda o‘qituvchining asosiy ish metodikasi bu kasbiy tayyorgarligi, ta’limiy va tarbiyachilik malakalri, ma’naviy boyligi talab darajasida bo‘lishi zarur. Boshlang‘ich ta’limda badiiy adabiyotdan o‘quv-tarbiyaviy ishlarda to‘g‘ri foydalanishning samaradorligi o‘qituvchining bilim saviyasiga, uning ixtisoslik bilim darajasiga va har bir asarni pedagogik tahlil qila olish mahorati adabiyotning ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatidan to‘g‘ri foydalanishning shartidir.

Boshlang‘ich ta'lim muammolarini yechish, uni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham olimlarning ilmiy ishlarida boshlang‘ich ta'limning mazmuni, o‘quvchi ijodiy tafakkurini o‘stirish, kichik yoshdagi o‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, axloqiy tarbiyalash, ongli intizom, do‘stlik, o‘rtoqlik kabi fazilatlarni shakllantirish nazariy jihatdan yoritilgan. Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalaridan biri o‘quvchilar ijodiy tafakkurini oshirishdir.

Tafakkur – falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Ma’lumki, hayotdagi voqea – hodisalarning barchasi ijtimoiy ongni aks etadi. Tafakkur – insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog‘liq holda hosil qilinib borilgan va erishilgan oliy va aqliy ne'matdir.[2]

Ijodiy tafakkur – bu ichki aqliy bir-biriga bog‘liq bo‘lgan omillar asosida yangi tafakkurga ega bo‘lishning mantiqiy ketma-ketligi mahsulidir. Ijodiy tafakkur – ma'naviy va intellektual kamolotga erishishda muhim asoslardan biri bo‘lib, uning yordamida shaxs faolligi, aql quvvatini ishga sola bilish, borliqqa o‘zgartirish ijodiy jarayonni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ijodiy tafakkur yangi ijodiy faoliyatning faol, fidoyi ishtirokchisi bo‘lishni ta'minlaydi.[3]

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash, uning tizimi va xususiyatlarini ishlab chiqish.

2. Dars jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurini shakllantirish mazmuni va metodikasini yaratish.

3. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurini shakllantirishni ta'minlaydigan shakl va metodlar, vositalar ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tajribada tekshirish.

4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash.

---

[1] J.Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.: “Fan va texnologiya”, 2002, 367-bet.
[2] J.Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.: “Fan va texnologiya”, 2002, 462-bet.
[3] J.Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.: “Fan va texnologiya”, 2002, 149-bet.

Bola kattalar bilan muloqot jarayonida tilni o‘zlashtiradi. Tilni o‘zlashtirish orqali sekin – asta nutqi o‘sib boradi. Nutq orqali bog‘lanishli nutqi ham takomillashadi. O‘quvchining so‘z boyligi ortishi nutq bilan uzviy bog‘liqdir. Nutq esda saqlab qolish, qabul qilish, tasavvur qilish, o‘z xissiyotlarini tushunish, odobini boshqarish kabi holatlar bilan bevosita bog‘liqdir.[1]

Boshlang‘ich sinflar metodikasida bog‘lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) berilgan savolga keng, mukammal javob;

2) o‘qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o‘rganish;

3) o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish bilan bog‘liq holda har xil matnli mashqlar;

4) muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;

5) o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki qayta hikoyalash;

6) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi; Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi. Bog‘lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo‘lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.[2]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda eng, avvalo, o‘quvchida matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirishimiz kerak. Birinchi sinfda ya’ni savod chiqarish davridanoq dastlab og‘zaki so‘ngra yozma tarzda matn tuzishni o‘rgatish lozim. Bolalarga matn tuzishni o‘rgatish ulardagi quyidagi sifatlarni takomillashtirishga yordam beradi:

- atrof muhit haqidagi tushunchalarning qay darajada shakllanganligini;
- fikr yuritish qobiliyatlarini,
- axborotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini;
- voqeylikka nisbatan mushohada yuritishni;
- munosabat bildirishni;
- voqea hodisa haqida xulosa chiqarishga.

Bunda bizga turli metodlar, didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar ham yordam beradi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan rangli rasmlar juda katta qo‘l keladi. O‘qituvchi tomonidan o‘qish darslarining mustahkamlash qismida yoki uyga vazifa sifatida har bir o‘quvchiga alohida tarzda tayyorlangan suratlar beriladi. Bunda o‘quvchilar mustaqil ravishda hamda ota-onalarining ko‘maklari yordamida rasmlarga mos ravishda matn tuzishadi. 1-sinfning birinchi yarim yilligida bu mashq og‘zaki tarzda, keyinchalik yozma tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 2-, 3-, 4-sinflarda bolalar tomonidan tuziladigan matnlar soddadan murakkabroq ko‘rinishga o‘tib boradi. Ya’ni dastavval ikki, uch gapli matn tuzilgan bo‘lsa, bolaning yoshi, fikr doirasi ortib borishiga qarab matndagi so‘zlar va gaplar hajmi ham, sifati ham ortib boraveradi. Suratlarga qarab matn tuzish bolalarda dunyoqarashning o‘sishiga, adabiyotga nisbatan muhabbatning ortishiga, so‘z boyligining ko‘payashiga, tuzgan matnlariga va o‘qish darslarida matnni tushinish hamda anglash ko‘nikmalarini rivojlanishiga ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bolalarga ota-onalarning yordami juda muhim hisoblanadi. Suratga mos gaplarni bir-biriga ulab, moslab yozishda ota-onalarimiz ko‘makdosh bo‘lishi lozim. O‘quvchi matn tuzish jarayonida uni ongli tarzda tuzadi. Har bir so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish unga keyinchalik dars va darsdan tashqari holatlarda duch keladigan matnlarni tub ma’nosini tushunish hamda anglashga katta yordam beradi.

O‘quvchining nutqini o‘stirish orqali matnni tushunishiga va ijodiy tafakkurini o‘stirib borishimiz muhim vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish barcha predmetlarga taalluqli bo‘libgina qolmay, asosiy mas’uliyat ona tili va o‘qish savodxonligi fani zimmasiga tushadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ijodiy

[1] Иномова М.О. Педагогические основы использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье. Автореф.дис. ... докт. пед. наук. – Т.: ЎзПФИТИ, 1998. – 41 с.

[2] K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang'ich ta ’lim fakulteti talabalari uchun darslik): – T.: «NOSHIR», – 2009. 321-bet.

tafakkurini o‘stirishning muhim vositalaridan biri bu matn ustida ishlash hisoblanib, matnni tushunish bo‘yicha tadqiqot va adabiyotlar yetarli emas. Ijodiy tafakkurni o‘stirishda, avvalo, o‘quvchiga tez, ongli, ifodali o‘qish o‘rgatilib, o‘qilayotgan matnning mazmuni mustaqil tarzda tahlil etiladi. O‘quvchining ijodiy tafakkurini o‘stirish uchun ijodiy fikrlashini to‘g‘ri yo‘lga solishimiz kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodiy tafakkurini o‘stirish o‘qituvchidan izchil va muntazam ish olib borishni, yuksak pedagogik mahoratni talab etadigan jarayondir. Buning uchun hozirgi kun pedagoglaridan tinimsiz izlanish va mashaqqatli mehnat talab etiladi. Shunday ekan, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari o‘sib kelayotgan yosh avlodni mard, fidoiy, insonparvar, ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lishiga yuksak g‘oyalar, yangi kashfiyotlar, niyatlar og‘ushida mehnat qilishlari, istedod va imkoniyatlarini ishga solishlari maqsadga muvofiqdir. Yoshlarning barkamol avlod sifatida shakllanib borishi faqat ularning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga emas, balki uning jamoada o‘zini erkin tutishidan tortib, ma’naviy yetuk, yuqori saviyali mutaxassis bo‘lib yetishishigacha o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. J.Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.: “Fan va texnologiya”, 2002, 500 b.
3. Иномова М.О. Педагогические основы использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье. Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – Т.: ЎзПФИТИ, 1998. – 41 с.
4. K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang'ich ta ’lim fakulteti talabalari uchun darslik): – T.: «NOSHIR», – 2009. 480 b.
5. Farsakhanova, D., & G'ofurova, S. (2021). Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari o‘qish darslarida P. Mo‘min ijodini o‘rganish metodikasi. *Журнал инновации в начальном образовании*, *1*(БТНА_1).
6. Farsakhanova, D., & Azdamova, M. (2021). Boshlangich sinflarda sifat ustida ishlash bo‘yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. *Журнал инновации в начальном образовании*, *1*(БТНА_1).
7. Farsakhanova, D. (2021). Boshlang‘ich sinf “tarbiya” fanini o‘qitishda ajdodlar merosidan foydalanish masalalari. *Журнал инновации в начальном образовании*, (Архив№ 1).
8. Farsakhanova, D. (2020). Improvement of the methodology of spiritual and moral education of students of pedagogical institutions. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

BOLALARDA SOG’LOM TURMUSH TARZINI ShAKLLANTIRISh.

Mirazimov Akmal,
o’qituvchi

Annotasiya *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar kun tartibi qoidalriga rioya qilish, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, o’z vaqtida to’g’ri ovqatlanish kabi bolalarda sog’lom turmush tarzini shakllantirish qoidalari haqidagi ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlar: *sog’lom turmush tarzi, ommaviy sport, chiniqtirish, ko’nikma, maktabgacha ta’lim, gigiyenik qoida, malaka, komponent, uzluksiz ta’lim.*

KIRISH

O’sib kelayotgan yosh avlodlarni sog’lom, barkamol qilib voyaga etkazish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu borada uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo’g’ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o’rni beqiyosdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari

tarbiyalanuvchilarida sog’lom turmush tarzini shakllantirish, ta’lim tizimi doirasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz rahnamoligida bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan alohida etibor o’g’il-qizlarimizning irodasini toblab, o’z kuchi va imkoniyatlariga ishonch tuyg’usini mustahkamlanmoqda, jismonan sog’lom ulg’ayishida yuksak samaralar bermoqda. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 13 fevraldagi 118-sonli “2019 – 2023 yillarda O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi”, 2018-yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma’naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli Farmoni “Sog’lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risi”dagi hamda 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli “O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” Farmonlarining qabul qilinishi bolalarda sog’lom turmush tarzini shakllantirishga, bolalar sportiga bo`lgan e`tiborni yanada kuchaytirishga asos bo’lib xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sog’lom turmush tarzi – insonning kun tartibiga rioya etishi, faol harakat asosida organizmini chiniqtirishi, sport bilan shug’ullanishi, to’la va sifatli ovqatlanishi, gigiyenik qoidalarga amal qilishi, zararli odatlardan o’zni tuta bilishidir. Bu borada rahbariyatimiz tomonidan chiqarilayotgan bir qancha Farmon va Qarorlar fikrimizning yaqqol isbotidir.

2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli “Sog’lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risi”dagi Farmonida sog’lom turmush tarzini hayotga keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari etib belgilanishini har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o’rta, o’rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug’ullanishga shart-sharoitlar yaratish kabilar belgilab qo’yilgan.

Bolalarda sog’lom turmush tarzini, bola shaxsini shakllantirishning har bir bosqichi komil inson tarbiyasida muhim rol o’ynaydi. Har bir bosqich o’z o’rnida keyingi bosqich uchun poydevor hisoblanadi. Har bir bosqichda bolaning yoshiga mos bo’lgan tushunchalarni singdirish va ularda sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish juda muhim ahamiyatga egadir. Shundagina biz kelajakimiz davomchilari bo’lgan yosh avlodlarimizning sog’lom bo’lib ulg’ayishlarida ko’zlagan maqsadga erishamiz. Maktabgacha ta’lim tizimining ham asosiy maqsadi bolalarda sog’lom turmush tarzini shakllantirish, sog’lom bo’lib rivojlanishida ko’nikma va malakalarni uzluksiz ravishda amalga oshirishdan iborat. Zero bizning maqsadimiz jamiyatga aqlan teran, jismonan sog’lom, ma’naviy yetuk va ruhan barkamol insonlarni tarbiyalashdir.

Bu uzluksiz ta’lim jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lom turmush tarzining ilk poydevori shakllanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar kun tartibi qoidalriga rioya qilishni, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishni, o’z vaqtida to’g’ri ovqatlanishni o’rganadi va oila sharoitida olgan bilim, ko’nikma va malakalarini mustahkamlaydi. Uy sharoitida shakllantirgan shaxsiy gigiyena qoidalarini bola maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy va jamoat gigiyenasi bilan tanishib ko’nikmalarni shakllantiradi. Bolalarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy mashg’ulotlar o’tkaziladi, chiniqtirish, massaj muolajalari olib boriladi va shu bilan birga bolalarni jismoniy faollikka o’rgatiladi. Bu kabi faoliyatlar ham sog’lom turmush tarzining shakllantiruvchi yana bir eng muhim komponentlardan hisoblanadi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kun tartibiga qat’iy rioya qilinishi bois kunini to’g’ri taqsimlashni o’rganadi va shu bilan bir qatorda amaliy ko’nikmalar bilan birgalikda boshlang’ich nazariy bilimlarni ham egallab boshlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulotlar jarayoni o’yin shaklida olib boriladi va bolalarga sog’lom turmush tarzi haqidagi tushunchalar to’liq va sodda tarzda berib boriladi.

Xulosa qilib aytganimizda, bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maktabgacha yoshdagi bolalar kun tartibini to'g'ri yo'lga qo'yish, tarbiyalanuvchilar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish, oilada bola tarbiyasiga e'tibor berish, bolalar bilan muloqot qilish madaniyatini o'zlashtirishga erishish, bolalarning salomatligiga asosiy e'tiborni qaratish, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishga o'rgatish, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi sog'lom muloqotni shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibi qoidalriga rioya qilish, o'z vaqtida to'g'ri ovqatlanishni o'rganish, ota-onalarimiz farzadlarining dam olishini, bo'sh vaqtini to'g'ri va unumli tashkil qilishlari samarali natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-sonli "2019 – 2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq yetish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI TA'LIM JARAYONIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Akramova Zuxra,
Jizzax davlat pedagogika universiteti sirtqi bo'lim "Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lim" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tafakkur va tafakkur shakllari haqida qisqacha ma'limot berilgan hamda bir necha psixologlarning fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda mantiqiy masalalarni qo'llash orqali bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishga doir 1-sinf matematika darsidan 1 soatlik dars ishlanma ham keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *tafakkur, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa, tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, fikrlash, mantiqiy masala, sonli bog'lanish.*

Аннотация. *В данной статье дается краткий обзор мышления и форм мышления, а также взгляды некоторых психологов. Существует также 1-часовой урок математики от математики 1 класса, чтобы помочь детям развить логическое мышление, используя логические задачи для развития своих навыков логического мышления в начальной школе.*

Ключевые слова: *мышление, шкалы мышления, понятие, суждение, вывод, анализ, обобщение, сравнение, абстракция, уточнение, мышление, логическая задача, числовая связь.*

Annotation. *This article gives a brief overview of thinking and forms of thinking, as well as the views of several psychologists. There is also a 1-hour math lesson from Grade 1 Math to help children develop logical thinking by using logical problems to develop their logical thinking skills in elementary school.*

Keywords: *contemplation, contemplation, concept, judgment, conclusion, analysis, generalization, comparison, abstraction, clarification, reasoning, logical problem, numerical connection.*

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi"[1].

O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o‘rgatish jamiyat hayotida tub burilishlarni amalga oshiradi. Negaki mamlakatimizda yuksak e'tiqodli, mustaqil fikrli, tashabbuskor, yuqori malakali mutaxassislarga katta ehtiyoj bor.

Ikki tipdagi o‘quvchining qobiliyatiga diqqatimizni jalb etamiz:

Arifmetikani oson o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning faolligi va fikrlashlarining egiluvchanligi, yangi masalaga yechish usulini topish zarur bo‘lgan muammo deb qarashlariga masala shartini analiz qilgan holda masalani yechishga shoshilmaslikda ravshanroq namoyon bo‘ladi. Masalaning ayrim tomonlarini yechishga kirishar ekan, masalaning to‘la shartini diqqat markazlarida tutadilar, ushbu amalni bajarish kerakmi, yoki kerak emasligini bir necha bor o‘z oldilariga qo‘yadilar. Doimo masalaning oxirgi savoli va masala shartidagi boshqa berilganlarni nazarda tutadilar.

Analizning eng qiyin turi o‘ziga xos, ya'ni keyingi amallarga qaratilgan "Oldindan ko‘rish" tarzidagi hisoblash bo‘lib, buni o‘quvchilar boshlang‘ich sinflardayoq tushunib oladilar.

Arifmetikani o‘rganishda zaif qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilar bu holda odatda o‘quvchi o‘qituvchi qo‘ygan vazifadan chekinadi, uni o‘qitish bo‘yicha, shuningdek tarbiyaviy talablariga itoat etmaydi. Bu holni o‘qishning birinchi kunlaridayoq payqash mumkin.

Bunday bolalarni o‘quv jarayonida so‘nggi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ular o‘quv materialini sekinlik bilan o‘zlashtirish jihatidan farq qiladilar. Sinfning ko‘pchilik o‘quvchilari qo‘shish jarayonini bajarishda ancha takomillashgan birliklar guruhi bilan hisoblashishga o‘tganlar, bu bolalar esa elementar usul, ya'ni bittalab sanash orqali hisoblashda davom etadilar. Yoki o‘quvchilarning ko‘pchilik qismi ismsiz hisoblashga o‘tganda, bu bolalar hisoblash jarayonida hali ham barmoqlaridan yoki tayoqchalardan foydalanadilar va hakozo.

O‘zlashtirishning bu susaygan holati fikrlash faoliyatining past darajasidan darak beradi. Dastavval yakunlash qobiliyatining bo‘shligi yorqin ta'sir ko‘rsatadi. O‘quvchi tayoqchadan foydalanib ko‘p marta, aytaylik 3 ni 4 ga qo‘shgan, hatto undan 3 qalamga 4 qalamni qo‘shsak necha qalam bo‘ladi? O‘qituvchi, u yoki "Bilmayman" deb javob beradi, yoki ularni qaytadan sanash uchun qalamlar tomon yugurib qoladi.

Hamma o‘quvchilarda o‘qishga ijobiy munosabatni, egiluvchan fikrlashning shakllanishini maqsad qilib qo‘yish lozim. Bu bilan ularning bunday shaxsiy xususiyatlaridagi farqni barobarlash mumkin. O‘quv va amaliy o‘quv hamda mahoratlarni shakllantirishda ham ana shunday vazifani qo‘yish kerak; hamma bolalarda bu xususiyat yanada yuqori darajagacha ko‘tarilishi kerak.

Indivudual – psixologik farqni kuchaytirish uchun uni chuqurlashtirish ustida gap bormoqda. Bu birinchi navbatda aqlning ma'lum tarzda shakllanishi hamda ilmiy va badiiy ijodda yorqin namoyon bo‘lgan qobiliyatlari bilan bog‘liq shaxsiy tomonlariga taalluqli bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari har bir o‘quvchida qandaydir kuchli tomoni bo‘lishi mumkin, u bilan ishlashda unga tayanish lozim. Yuqorida aytib o‘tilgan xususiyat egalari harakati psixologik nuqtai nazardan olib qaraladigan bo‘lsa, ularning tafakkuriga bog‘liq. Tafakkur qanday jarayon degan savol tug‘iladi.

Umumiy psixologiya darslarida tafakkurga turlicha ta'riflar berilgan. P.I.Ivanovning darsligida "Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidir-ki, bu faoliyat voqelikni eng aniq,

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020 y.

to‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga, insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga imkon beradi” deb ta’riflaydi.

M.V.Galizo “Tafakkur voqelikning umumlashgan holda so‘z va o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi” ekanligini bayon qiladi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga ushbu shaklda ta’rif o‘z ifodasini topgan. Tafakkur ijtimoiy nutq bilan chambarchas bog‘liq, muhim bir yangilik qoldirish, qidirish va ochishdan iborat psixologik protsessdir, boshqacha qilib aytganda tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayoni.

O.K.Tixomirovning fikricha “Tafakkur bu – o‘z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib bevosita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darajasiga va foydalanadigan vositalarga hamda o‘sha umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir”[1].

E.G‘oziyev ko‘pchilik fikriga suyangan holda, tafakkurga quyidagi shartli ta’rifni bergan. “Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon ijtimoiy-sababiy bog‘lanishlarni anglashga yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir”.

Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har on, har daqiqada inson miyasi qandaydir fikrlar bilan band. Ularni tartibga solish, keragiga qaratish, ichki yoki tashqi nutq yordamida uni yechish – fikrlash jarayonidir[2].

Tafakkur yoki fikrlashning quyidagi shakllari yoki mahsuli mavjud:

Tushuncha – tafakkurning shunday shakli yoki mahsuliki, u narsa va hodisalarning eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Ular umumiy, juz’iy, konkret yoki mavhum bo‘lishi mumkin.

Hukm – atrofdagi narsa, hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi. Hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko‘p ishlatiladi va ular tabiatan turli bog‘liqliklarni tasdiqlaydi, inkor qiladi, rost yoki yolg‘on bo‘ladi.

Xulosalar – mantiqiy tafakkurning yana bir shakli bo‘lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlardan yangi fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi.

Tahlil qilish, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish kabi operatsiyalar fikrlash jarayonini tashkil etadi. Quyida ularning har biri ustida to‘xtalib o‘tamiz.

Tahlil qilish – bu muammoni fikran qismlarga ajratishdir.

Umumlashtirish – alohida qismlarni yoki elementlarni fikran bir butunga birlashtirib o‘rganishdir.

Ta’lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan o‘quvchilarda tahlil qilish va umumlashtirish darajasining oshishi kuzatiladi. Tahlil qilish sekin-asta ko‘rgazmali-amaliylikdan ko‘rgazmali va mantiqiy yakun tomon rivojalanadi.

Taqqoslash – o‘xshashliklar va tafovutlarni topish orqali bilish obyektlarini qiyoslash demakdir. Bu operatsiya boshqa barcha fikriy operatsiyalar asosida yotadi.

Mavhumlashtirish – bilish obyektining bir xususiyatini ajratib olib, boshqasini chiqarib tashlashdan iborat fikriy operatsiyadir. Bu xususiyatlar o‘rganilayotgan predmet va hodisalarning «ichiga» kirishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarning mavhumlashtirish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi rahbarligida bu qobiliyat rivojlanadi, mavhumlashtirish shakli ham murakkablashadi – hissiy ko‘rgazmalilikdan fikr yuritishga o‘tiladi hamda tushunchaga aylanadi.

Aniqlashtirish – mavhumlashtirishga yaqin fikriy operatsiya, u umumiydan xususiyga o‘tish, natijada uning turli xususiyat va belgilarini toppish orqali namoyon bo‘ladi.

Mavhumiylik va aniqlashtirish birligi muammoni o‘rganish jarayonida o‘rnatiladi. Bu birlik o‘zaro munosabatga fiziologik asos – ikkinchi signal tizimiga ega. Bilimni chinakam egallashga mavhum tushunchalar va dalillar aniqlashtirilgandagina erishiladi.

[1] Barkamol avlod orzusi – Toshkent: 1999, 205-b.

[2] Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном протсессе. – М.: “Знание”, 1989 г. С. 75.

Quyida 1-sinf matematika fanidan 1 soatlik dars namunasini keltiramiz.

1-bo‘lim

10-dars

Ranglar, shakllar va tovushlar ketma-ketligi

Darsning maqsadi

- ranglar, shakllar va tovushlardan foydalanib, turli qonuniyatlar asosida ketma-ketliklar tuzish

Asosiy tushunchalar

- ranglar, shakllar va tovushlar ketmaketligi

Didaktik materiallar

- turli barglar, cho‘plar (Har bir o‘quvchi uchun)
- darslik ilovasidagi yassi shakllar (har bir o‘quvchi uchun)



Standartlar

O‘BTD.M.01.AMY.KK.1 Berilgan qoidaga mos keluvchi ranglar ketma-ketligini tuzadi va uni davom ettiradi

KIRISH ***5 daqiqa***

KUN MASHQI *3 daqiqa*

• **Kalendar:** O‘quvchilardan bugungi kun va oy so‘raladi.

• **Sanash:** 10 dan 1 gacha sanaladi

• **Mashq:** “Xatolikni top” mashqi

• Keling, bugun biz siz bilan “Xatolikni top” o‘yinini o‘ynaymiz. Doskada nimalarni ko‘ryapsiz? Ketma-ketligiga qarang va xatolikni to‘g‘rilang.

O‘tgan mavzuni takrorlash *2 daqiqa*

Ketma-ketlikdagi qonuniyatni aniqlash uchun nimalarga e’tibor berish kerak?

ASOSIY QISM ***40 daqiqa***

Misolni ko‘rsatish va mustaqil ish *5 daqiqa*

Bugun biz siz bilan yoqtirgan ranglar, shakllar va tovushlardan foydalanib, turli qonuniyatlar asosida ketma-ketliklar tuzishga oid mashqlar bajaramiz.

Berilgan 3 xil turdagi qalamlarga qarang. Ulardan ketma-ketlik tuzib ko‘ring-chi.

Doska oldiga 2 yoki 3 nafar o‘quvchi chiqib, o‘z qonuniyatini tuzadi.

Muhokama *15 daqiqa*

1-QISM O‘quvchilar javoblari bilan o‘rtoqlashadilar

Kamida 3 nafar o‘quvchidan sinfga javoblarni topish jarayonini tushuntirishlarini so‘rang.

• Qanday ketma-ketlik tuzdingiz?

• Ketma-ketlikning qonuniyatini tushuntirib bering.

• Shu qonuniyatga oid shakllar yoki tovushlar yordamida ketma-ketlik tuza olasizmi?

Tushuntirish modeli

Ketma-ketliklarni turli xil ko‘rinishda, ya’ni rang, shakl, ham rang, ham shakl va tovushlarga ko‘ra tuzish mumkin. Uch xil turdagi qalamlardan ketma-ketlik tuzmoqchi bo‘lsak, uning qonuniyatini rangiga ko‘ra hosil qilganimiz qulayroq. Masalan, qizil qalam – yashil qalam – ko‘k Qalam.

Xato javoblarni muhokama qilish


Men taniydigan bolalar menga shaklning rangi asosida ketma-ketlik tuzib bo‘lmaydi deb aytishdi. Shu javobga siz nima deysiz? To‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri? Nima uchun? Bu o‘quvchiga nima deb javob bergan bo‘lar edingiz?

O‘quvchilarga to‘g‘ri javob berishlarida va xatoni tushuntirishlarida yordam bering

2-QISM Misol va yangi topshiriq

Muhokama mavzusi

• Ranglar, shakllar va tovushlardan foydalanib, turli qonuniyatlar asosida ketma-ketliklar tuzish



1-topshiriqni tushuntiring va shakllarni doskaga chizing. Topshiriqni **o‘quvchilarning javoblari asosida** tushuntiring.

Keling, endi yana bir misolni yechaylik. Bu misolni yechganda, biz, birinchidan…

• Shaklning tomonlariga ahamiyat beramiz.

• Shaklning rangiga ahamiyat beramiz.

• Endi birgalikda qonuniyat tuzib, shu qonuniyat asosida

ketma-ketlikni doskaga chizamiz. Keyin uni daftaringizga ko‘chirasiz.

Amaliy topshiriq *15 daqiqa*

• O‘quvchilarga topshiriqni yakka holda yoki partadoshi bilan bajarishlarini ayting.

• Darslikdagi shakllar ilovasini ochib, shakllarni qirqib olishini ayting. O‘quvchilarda kerakli o‘quv qurollari borligiga amin bo‘ling.

• O‘quvchilar guruhda ishlaydilar. Darslik ilovasidagi har biri 3 tadan olingan shakllar, qo‘l ostidagi shakl va predmetlardan (barglar, cho‘pchalar) foydalanib qonuniyat tuzadilar.

• Tuzilgan qonuniyat asosida rang va tovushlarni ishlatib, ketma-ketlik tuzadilar

O‘qituvchining kuzatishlari

O‘qituvchi o‘quvchilar topshiriqni bajarayotganida, qonuniyatning to‘g‘ri davom ettirilishiga e’tibor berishi kerak.

Darsga yakun yasash *(butun sinf)* *5 daqiqa*

Darsga yakun yasash: “Bugun nimalarni o‘rgandik?”, “Shakllarni joylashtirishda ularning nimalariga e’tibor berish kerak?” kabi savollar beriladi.

Agar o‘quvchi topshiriqni yengillik bilan bajarayotgan bo‘lsa, shakllar turini ko‘paytiring.

Agar topshiriqning ko‘p qismi to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, shu topshiriqni bajarishda davom etadi.

Agar topshiriqni bajarishga qiynalayotgan bo‘lsa, shakllar turi kamaytiriladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida keltirilgan materiallar o‘zining qiziqarliligi, tuzilishi bilan bolalarga yaqindir. Boshqotirmalar, matematik mantiqiy masalalar o‘quvchilarni shunday sharoitga soladiki o‘quvchilar o‘ylashga, fikr yuritishga majbur bo‘ladilar. Dars jarayonida o‘quvchilarda hosil bo‘lgan ijobiy his – tuyg‘ular ularga aqliy qobiliyatlarni shakllantirishda asosiy shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan sistemali ravishda olib borilgan ishning ijobiy natija berishi mantiqiy tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020 y.
2. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном протсессе. – М.: “Знание”, 1989 г. С. 75.
3. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003 y.
4. Rahmatova F.A., Akramova Z.B. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYAT-LARI // INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 133 – 137.
5. Akramova Z. BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI // Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 417 – 422.
6. Akramova Z. Boshlang’ich sinf matematikasini o’qitishda “to’rt bo’yoq muammosi”ga oid masalalarning o’rni // Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
7. Akramova Z. WAYS TO FORM STUDENTS'LOGICAL THINKING IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS // INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 6 – 9.
8. Akramova Z., Gulmamatova S. KICHIK MAKTAB YOSHI O ‘QUVCHISINING TAFAKKURI O‘SISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 38 – 40.
9. Matematika 1 O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. Toshkent – 2022.
10. Akramova Z. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI DARS JARAYONIDA SHAKLLANTIRISH // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 360 – 367.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA NUTQIDA NUQSONI MAVJUD BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOLOGIK XIZMAT FOLIYATI

Voxobova Munira,
Namangan davlat pedagogika instituti stajor o’qituvchisi.
Valihanova Kimyoxon Umarjon qizi,
Maxsus pedagogika yo`nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktblarida nutqida nuqsoni mavjud bolalar bilam maktab psixologining olib borishi lozim bo’lgan psixologik faoliyat turlari, nutqida nuqsoni mavjud bolalarning psixologik xususiyatlari haqida ma’lumotlar hamda amaliy tavsiyalar berilgan*

Kalit so’zlar: *psixolog, nutq, psixologik xizmat, alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bolalar, nutq nuqsonlari, diqqat, muloqot, korreksiya.*

Psixolog o‘zining inson xulq-atvori va ruhiy faoliyati, ruhiy taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga, ulaming o‘quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabat xususiyatlariga, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog‘liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta’minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo‘lishi mumkin bo‘lgan sabablarini psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat maktabda o‘quv tarbiya ishining mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi. [1. 6 b].

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimida juda katta o’zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Mana shular qatorida ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning tasgkil etilishi ham juda katta yangilik bo’ldi desak adashmagan bo’lamiz. Bu esa pedagoglar va ta’lim tizimining xodimlari ayniqsa maktab psixologlariga yanada mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Ya’ni maktab psixologining maktabda olib boradigan psixologik xizmat faoliyati doirasi yanada kengayadi. Endi psixolog nafaqat sog’lom bolalar bilan balki alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bolalar bilan ham psixologik xizmat olib borishi lozimdir. Inkluziv ta’limga jalb qilinadigan alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bolalar qatoriga nutqida og’ir nuqsoni mavjud bolalar ham kiritilgan bo’lib maktab psixologlari o’z faoliyatida nutqida nuqsoni mavjud bolalar bilan ish olib boradi. Buning uchun esa maktab psixologlari nutq nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy holati haqida to’liq ma`lummot va bilimga ega bo’lishi lozim.

Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bolsa ham chetga chiqish – bu nutq nuqsoni hisoblanadi. [2. 3 b.]

Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlari tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Homiladorlikning dastlabki uch oyligida onaning virusli kasalliklar bilan qattiq shamollashi, ularni davolamasdan oyoqda o‘tkazishi, o‘zboshimchalik bilan turli dori-darmonlarni qabul qilishi, ota yoki onaning giyohvand moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishi, radiatsiya, tos suyagining torligi natijasida tug‘uruqda bola miyasining lat yeyishi, kindigiga o‘ralishi, bo‘g‘ilib qolishi, yo‘ldosh ko‘chib qolishi natijasida bolaga kislorod yetib bormaslik holatlari uchraganda bolada nutqiy nuqsonlar kelib chiqishi mumkin.

Nutq nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarning e'tibori ixtiyoriy diqqatning past darajasi, etarli darajada barqarorlik, e'tiborni almashtirish va o'z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Bunday bolalar vizual ta'lim sharoitlariga qaraganda og'zaki ta'lim sharoitida vazifani bajarishga e'tiborni qaratishni ancha qiyinlashtiradi.

Ushbu toifadagi bolalar idrok etish (eshitish, ko'rish, kinestetik, fonemik) rivojlanishida jiddiy muammolarga ega bo'lib, ular optik-fazoviy gnozning buzilishi va fazoviy yo'nalishdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Semantik xotira nisbatan buzilmagan bo'lsa-da, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki xotira pasayadi va yodlash unumdorligi yomonlashadi. Vizual xotira hajmi amalda me'yordan farq qilmaydi, eshitish xotirasi darajasi esa nutqni rivojlantirish darajasining pasayishi bilan kamayadi. Bolalar murakkab ko'rsatmalarni unutishadi, uning elementlarini o'tkazib yuboradilar, harakatlar ketma-ketligini o'zgartiradilar va ko'rsatmalarni aniqlashtirish uchun og'zaki muloqotga murojaat qilmaydilar.

Nutq rivojlanishining kechikishi tasavvurning rivojlanishining kechikishiga olib keladi. Bolalar ijodiy topshiriqlarni bajarishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bolalar rasmlari dizayn va mazmunning qashshoqligi bilan ajralib turadi. Ular so'z va metaforalarning majoziy ma'nosini yomon tushunadilar, ijodiy hikoya tuzishda yoki xayoliy vaziyat yaratishda qiynaladilar.

Nutq nuqsoni o'zini-o'zi qadrlashning pastligi, qo'rqoqlik va o'z imkoniyatlariga ishonchsizlik hissini shakllantirishga yordam beradi. Ba'zi hollarda, inson o'z imkoniyatlarini haddan tashqari oshirib yuborishni va intilishlarning etarli darajada ko'payishini kuzatishi mumkin.

Muloqot imkoniyatlari cheklangan: bolalarning muloqotga bo'lgan ehtiyoji kamayadi, muloqotning turli shakllari shakllanmagan; bolalar boshqalar bilan aloqa qilishdan manfaatdor emas, muloqot vaziyatida qanday harakat qilishni bilmaydi, negativizmni ko'rsatadi va hokazo.

Atrofdagi ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlardagi qiyinchiliklar noto'g'ri adaptatsiya va umidsizlik holatlarini boshdan kechirishga moyil bo'ladi.

Yuqoridagi ma`lumotlarni tahlil qilish natijasida psixolog o'zining psixologik faoliyati rejalashtirib olishi lozimdir. Ya'ni bolaning avvalo diqqat xususiyatlarini, ularda barqaror diqqatni rivojlantirishga qaratilgan korreksion mashg'ulotlarni hamda bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan trening hamda korreksion mashg'ulotlarni olib boorish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Z.T.Nishanova Psixologik xizmat: Oliy o'quv yurtlari pedagogik-psixologiya bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta 'lim vazirligi. – T.: Yangiyul poligraph service, 2007. – 160 b.

2. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik / M.Y.Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 560 b.

3. Валявко С.М. Особенности мотивации старших дошкольников с общим недоразвитием речи. М., 2006, С. 189.

4. Иванова Н.В. Особенности самооценки младших школьников с общим недоразвитием речи и ее формирование на логопедических занятиях / Логопед, №3, 2007, 97 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Anarbayeva Gulsevar Abduvaxob qizi,
JDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini shakllantirishning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, kompetentlik, yetakchi faoliyat,maksimal ma'lumot, kompetensiya.*

Аннотация. *В данной статье размышляется о важности формирования творческих способностей дошкольников на сегодняшний день.*

Ключевые слова: *креативность, компетентность, лидерство, максимальные знания, компетентность.*

Annotation. *This article reflects on the importance of shaping the creativity og preschool children today.*

Key words: *creativity, competence, leadership, maximum knowledge, competence.*

Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi. Tarbiyachi pedagoglar taqlid qilish ijodkorlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi ekanligini unutmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun unga yaqin odamlar orasida bola o'zini tanitadigan ijodiy shaxs bo'lishi kerak. Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar (yoki ota-onalardan biri), balki boshqa kattalar ham (o'qituvchilar, oila do'stlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar bolalar uchun ota-onalar ko'proq ijodiy xususiyatlarga ega bo'lgan "ideal qahramon" bo'lsa, ayniqsa samarali bo'ladi. Aslini olganda "Ijodkorlik" – bu har xil turdagi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Ijodkorlik ko'plab fazilatlarning birlashuvidir. Psixologlar ijodkorlikning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat deb hisoblashadi:Qobiliyatlarni shakllantirish haqida gapirganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qaysi yoshda rivojlantirish kerakligi masalasiga to'xtalib o'tish kerak. Psixologlarda ijodiy qobiliyatlarni juda erta yoshdan boshlab rivojlantirish kerak degan faraz mavjud. Bu gipoteza fiziologiyada o'z tasdig'ini topadi. Bolaning miyasi ayniqsa tez o'sadi va hayotining birinchi yillarida "pishadi". Bu kamolot, ya'ni miya hujayralari sonining o'sishi va ular orasidagi anatomik bog'lanishlar mavjud tuzilmalar ishining xilma-xilligi va intensivligiga ham, yangilarining shakllanishiga atrof-muhit tomonidan qanchalik rag'batlantirilishiga bog'liq. Psixologik nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar o'ta izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o'rganishga intilish kata boladi. Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun asos – bu birinchi navbatda erkinlikdir.

Ota-onalar bolani majburlamasliklari kerak. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun sabr-toqat va muayyan taktika talab etiladi – ota-ona bolaning fikrini tinglashi, har qanday ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishi kerak. Ota-onalar va o'qituvchilar qiziquvchanlikni rag'batlantirish, ularga bilim berish, turli tadbirlarga jalb qilish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo'shadilar. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkindir. Bolalar ijodkorlikni namoyon qilishi uchun ularga ushbu xususiyatlarning barchasi birlashtirilishi kerak. Bizga malumki maktabgacha talim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha turli mashg'ulotlar tashkil qilinib bolalar ijodiy fikrlashga yo'naltiriladi. Ushbu berilgan bilimlar asosida kata maktabgacha yoshdagi bolalar quyidagi konikmalarga ega bolishlari lozim.

«Ijodkorlik» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so'ng 6 – 7 yoshli bola:

• san'at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;

• milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;

• san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;

• olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;

• insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Bolaning ijodkorligini nafaqat maxsus darslarda rivojlantirish mumkin. Balki bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin ham katta ahamiyatga ega. O'yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir. Aynan o'yinda bola ijodiy faoliyatning birinchi qadamlarini qo'yadi. Kattalar nafaqat bolalar o'yinini tomosha qilishlari, balki uning rivojlanishini boshqarishlari, boyitishlari, o'yinga ijodiy elementlarni kiritishlari kerak. Bundan tashqari, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar bilan bo'sh vaqtlarida o'ynash mumkin bo'lgan maxsus o'yinlar mavjud. B.N.Nikitin. O.M.Dyachenko, N.E.Veraksa tomonidan ishlab chiqilgan qiziqarli o'quv o'yinlar buning yorqin isboti hisoblanadi. Bola fantaziyasini uning ijodiy fikrlashini rivojlantirishning yana bir yorqin manbai ertakdir. Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun pedagoglar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab ertak usullari mavjud. Ular orasida: ertakni «buzib ko'rsatish», teskari yo'nalishda ertak o'ylab topish, ertakning davomini o'ylab topish, ertakning oxirini o'zgartirish. Siz bolalar bilan ertak yozishingiz mumkin.

XULOSA

Hozirgi globallashuv davrida innovatsiyon texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda bolalarning fikrlash doirasi hamda ularning ijodiy qobiliyatlari ham kengayib bormoqda. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari va fikrlashlarini rivojlantiruvchi bir qator yangi dasturlar joriy etilmoqda. Jumladan: Mental arifmetika san'at va aql idrokni rivojlantiruvchi dasturdir. Ushbu dastur yordamida bolalar nafaqat o'qishda muavaffaqiyatga erishadilar, balki hayot motivatsiyasiga ega bo'lib, ijodiy qobiliyatlari kengaymoqda. Mnemonika usuli ham tezkor xotira va ijodiy fikrlash tezligini rivojlantiruvchi dasturdir. Zamonaviy ota-onalar va o'qituvchilar o'zlariga birinchi navbatda bolani ijodiy rivojlantirish vazifasini qo'ydilar. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Shu sababli, ko'pincha o'quv dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ dan foydalanish va shu jarayonga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil qilish muhim bir jarayon bo'lib hisoblanmoqda. Ushbu tizimga asoslangan o'yinlar va vazifalar faol ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, bolalar va kattalar uchun ijodiy shaxsni shakllantirish jarayonini yanada hayajonli qiladi. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, maktabgacha yosh ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo'yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilgandan so'ng, xulosa qilishimiz mumkinki, ularni aniqlashga bo'lgan yondashuvlar farqiga qaramay, tadqiqotchilar bir ovozdan ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlash sifatini ijodiy qobiliyatlarning muhim tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko'rsatishadi. Shundan kelib chiqib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamrayeva, A. (2021). Ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnoloik yondoshuv. *Мактабгача таълим журнали*.

2. Hamrayeva, A. (2021). Педагог тарбиячиларда компетентликни ривожлантириш. *Мактабгача таълим журнали*, *3* (Preschool education journal).

3. Hamrayeva A. Мактабгача таълим журнали, 2021 Ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnoloik yondoshuv.

O’SPIRINLARDA KASBIY DEFORMATSIYA TUFAYLI AYBDORLIK XISSINING VUJUDGA KELISHI

Mamasadikova Nodira Olimovna,
University of Bisiness and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada shaxsning chuqur xissiy kechinmalaridan bo’lgan aybdorlik xissi, o’spirinlik davrining muhim xususiyatlari, kasbiy deformatsiya va uning namoyon bo’lishi, kasbiy deformatsiyaga uchragan shaxsning holatlari yoritilgan. Mavzu yuzasidan aynan o’spirinlardagi kasbiy deformatsiya sabab yuzaga keladigan aybdorlik xissi o’rganilgan.*

Kalit so’zlar: *o’spirinlik davri, aybdorlik xissi, kasbiy deformatsiya, status, noadekvat baholash, stress, depressiya.*

Аннотация. *В статье освещено чувство вины от глубоких душевных переживаний личности, важные характеристики подросткового возраста, профессиональная деформация и ее проявления, случаи страданий личности от профессиональной деформации.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, вина, профессиональная деформация, статус, неадекватная оценка, стресс, депрессия.*

Annotasion. *In the article, the feeling of guilt from the deep emotional experiences of the person, the important characteristics of adolescence, professional deformation and its manifestation, the cases of the person suffering from professional deformation are covered.*

Key words: *adolescence, guilt, professional deformation, status, inadequate assessment, stress, depression.*

Bugungi kunda aybdorlik xissining shakllanishi va uning yuzaga keltiradigan oqibatlari psixologik hodisa sifatida soha mutaxassislarida qiziqish uyg'otmoqda. Aybdorlik xissi xorij olimlari tomonidan o'rganib kelinayotgan bo'lsada, ammo aynan o'spirinlardagi kasbiy deformatsiya tufayli kelib chiqadiagn aybdorlik xissi hozirgacha to'liq o'rganilmagan. Bu esa o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarda yetarli ma'lumotlar bo'lmasligiga, jamiyatda o'z statusiga ega bo'lishga intilayotgan o'spirinlarda kasbiy deformatsiyaning erta sodir bo'lib, kasbiy so'nish holatlarini yuzaga chiqarmoqda.

Shaxsning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi,tanlagan kasbida muvaffaqqiyat qozonishi va shu kasbi orqali Vataniga naf keltirishi uning kasbidan qoniqishiga bog'liq hisoblanadi. Inson kasbidan qoniqishi uchun esa avvalo tanlagan kasbini yaxshi ko'rishi, uni rivojlantirib borishda yuzaga keladigan tashqi va ichki xususiyatlarni ham bartaraf etishi lozimdir. Kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan obyektiv va subyektiv noqulaylik va bosimlarni bartaraf etolmaslik shaxsda aybdorlik xissini paydo qiladi.

Aybdorlik tuyg'usi psixologik komplekslar ichida yengib o'tish qiyin bo'lgan xissiyotidir. Uning kuchi yengil mas'uliyat hissidan tortib vijdon azobigacha bo'lishi mumkin.

Professor Nishanova, "Aybdorlik individ tomonidan uning uchun ahamiyatli bo'lgan axloq normalarining buzilishi orqali yuzaga keladi", deb ta'rif beradi [1].

Aybdorlik tuyg'usi – odam qilgan biror xatti-harakat bajarganida yoki qilmagan yomon ishi haqida o'ylaganida ham, uni yomonligini tan olib, bu xatti-harakat yoki xayol uchun o'z shaxsiyatidan xafa, norozi yoki hatto nafratda bo'lish holatidir [2].

Shaxsda aybdorlik xissi o'zidagi ayrim salbiy xis-tuyg'ulari, oldiga qo'ygan maqsadlariga erishmaganida, tashqi va ichki sabablar tufayli istaklaridan voz kechganida, xatti-harakatlari natija bermaganida, yaqinlariga befarq munosabatda bo'lganida, boshqalar uchun yordam bermaganida hamda kimningdur xohish-istaklarini bajarganida, xattoki maqsadiga erishganida ham namoyon bo'ladi [5]. Masalan, shaxs oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi, ammo unda o'tkazib yuborilgan vaqt va imkoniyatdan yanada unumli foydalana olmagani uchun yoki qo'ygan maqsadini chin dildan xohlab emas, balki atrofdagilarga nimalarga qodirligini ko'rsatib qo'yish, kimligini isbotlash uchun tanlangan bo'ladi. Shu sababdan ham erishilgan yutuqdan rohat xissi tuyulmaydi.

O'spirinlik davrining muhim xususiyatlaridan biri bu tanlagan sohalari yoki kasblarida yangiliklar qilishga intilish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga intilish motividir. Shu munosabat bilan o'spirinlar kasb yoki hunarni turli xususiyatlar asosida tanlashadi. Ayrim o'spirinlar qiziqishlari tufayli kasb tanlashsa, ayrimlari esa oilaviy an'analar asosida,ayrimlari moddiy va jamiyatdagi mavqei yuzasidan, yana bir toifalari esa o'rtoqlariga qo'shilib tasodifan tanlashadi. Natijada esa bir muncha vaqt o'tgandan so'ng kasbiy faoliyatda, tanlagan sohasida turli ijtimoiy va psixologik holatlarga olib keladi.

O'zining kasb tanlash bo'yicha taqdirini tasodifan hal etish murakkab kechinmalarga, tanlagan kasbi sohasida ikkilanishlarga, og'ir ichki nizolarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qizlar uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi [3].

O'spirinlarning kasbiy faoliyatlari davomida yuzaga keladigan mazkur holatlar ularda kasbida kashfiyotlar qilishga to'sqinlik qilish bilan bir qatorda kasbiy deformatsiyani ham paydo qiladi.

Kasbiy deformatsiya lotincha "deformat" so'zdan olingan bo'lib "buzilish" degan ma'noni bildiradi [4]. Bu kasbning tashqi va ichki noqulaylik, bosim ortishi natijasida fikrlashdagi buzilishlar hisoblanadi.

Kasbiy deformatsiya bu mehnat vazifalarining xaddan ortiq ortib ketishi natijasida yuzaga keladigan psixologik disoriyentatsiyadir.

Inson ishlashni xohlamasligi yoki xaddan ortiq ishchanligi har kim uchun meyor hisoblanmaydi. Mazkur holat kasbiy deformatsiya natijasi ham bo'lishi mumkin. Bunga uzoq

vaqt bir joyda bir xil muhitda ishlash,ish uslubining o'zgarmasligi, bilim va tajribalarini takomillashtirib bormaslik,yangiliklar kiritmaslik,dam olish vaqtlarining mazmunli tashkil etilmasligi sabab bo'ladi.

Kasbiy deformatsiyaga uchragan shaxsning fikrlashi va muloqot munosabatlarida ham o'zgarishlar bo'ladi [6]:

1. Hamkasblarini o'z oilasidek xis qiladi. Barcha muammolari,xissiy holatlarini ular bilan baham ko'radi. Hamkasblarining muammolarini ham o'zi hal qilishga kirishib ketadi.

2. Ish joyiga xaddan tashqari fidoiylik ko'rsatadi.Faoliyat ko'rsatayotgan korxonasi yoki tashkilotida qanday muammo bo'lmasin mehnati bilan,moddiy imkoniyatlarini bilan yordam ko'rsatadi. Agarda fidoiylik ko'rsatmasa yomon xodimga aylanib qolishi natijada ishidan, ish joyidan ayrilishi mumkinligidan qo'rqadi.

3. Dam olishning yo'qligi. Korxona yoki tashkilotining rivoji, yuksalishi uchun dam olish vaqtlari va kunlari ham mehnat qiladi. Ta'tilga chiqish vaqtlari kelganda ham ish joyining rivojini o'ylab bundan voz kechadi. Ishdan tashqari boshqa qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanmaydi, ba'zan nimalarga qiziqishini bilmaydi ham.

4. Shaxsiy hayotining yo'qligi. Ish joyi va muassasiga kirishib ketgan, hamkasblarini o'z oilasidek qabul qilib ulardan emotsional qoniqish olib turgan xodimga shaxsiy hayoti qiziqtirmaydi. Bunday shaxs o'zining shaxsiy maqsadlarining ish joyining maqsad va rejalariga aralashtirib yuboradi. Oila qurishi, shaxsiy hayotini yo'lga qo'yishi kerakligini bilsada buni muhim darajada deb hisoblamaydi. Oilasi bor bo'lsa ham ish vazifalariga uyiga olib kelib bajaradi. Yaqinlariga vaqt ajratishi, ular bilan muloqot qilishi kerak bo'lgan vaqtda ham ishi va vazifalari haqida o'ylab, ular bilan band bo'ladi.

Shaxsning kasbiy deformatsiyaga uchragani quyidagi hollarda namoyon bo'ladi [7]:

1. Emotsional (hissiy charchash). Uzoq vaqt davomida kechirilgan stresslar sabab bo'ladi.Natijada esa charchoq xissiy va jismoniy chekinishga olib keladi.

2. Kasbiy identifikatsiya. Mazkur holatda kasb shaxs identifikatsiyasining bir qismiga aylanib qoladi. Bunda shaxs hamma narsaga o'z kasbi xususiyatlariga xos tarzda fikrlashadi va xatti-harakat qilishadi. Hayotining boshqa jabhalarida real fikr yuritisha olishmaydi. Xattoki bu oila a'zolari va yaqinlariga bo'lgan munosabatlarida ham samimiylik o'rnini kasbiy fikrlash va xatti-harakatlar egallaydi.

3. Ma'naviy va axloqiy buzilishlar. Ko'pincha axloqiy va ma'naviy buzilish natijasida ro'y beradigan holatlar bilan ishlovchi mutaxassislar ayrim hollarda o'zlari ham me'yorga zid ishlarni amalga oshirishadi.

4. Tor fikrlash. Faqatgina kasbiy faoliyatiga juda ko'p e'tibor qaratishi natijasida mutaxassisligidan boshqa biron masalaga kengroq nuqtai nazar bilan qaray olishmaydi.

5. Professional tarafkashlik. Mazkur holatda insonlarni guruhga ajratish ro'y beradi.Kasbiy faoliyatidan kelib chiqib insonlarni avval uchratgan,muloqot qilgan, munosabatga kirishgan insonlarni ma'lum bir toifaga ajratishadi. Hamkasblari bilan ham bu kabi toifaga ajratib munosabat qilishadi. Bu esa ularning qarorlari, aloqalari, mijozlari va hamkasblari bilan bo'ladigan munosabatga ta'sir qiladi.

O'spirinlardagi kasbiy deformatsiya tanlagan sohalari orqali jamiyatda o'z o'rniga, ya'ni statusiga ega bo'lish xohishidan kelib chiqadi. Z.Nishonovaning ta'kidlashicha, o'spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini, buning uchun ko'proq o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar [7].

Kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish davomida o'z statusiga ega bo'lish, mehnat jamoasidagi hamkasblariga hamda rahbarga ishtiyoqi sabab o'spirinlar xaddan ortiq mehnat qilishadi. Dam olish vaqtlarida ham ko'proq ishlab, ko'proq pul topish orqali ehtiyojlarini qondirishga intilashadi. Qo'yilgan maqsadlarga tezroq erishish xohishi ishning tub mohiyatiga yetmasdan bajarish xatolarga olib keladi. Bajarilgan ishdagi xatolar, noto'gri yondashuvlar, fikrlash doirasining keng emasligi, hayotiy va amaliy tajribalarining yetishmasligi rahbardan tanbeh olishiga olib keladi.

O’spirinlarning ayrimlarida esa hamkasblarini o’z oilasidek xis qilib ularning muammolariga aralashib ketishi holati ro’y beradi. Hamkasbining muammosi deb o’ylanib yuradi,qanday qilib hal qilish ustida bosh qotiradi. Yordam berish uchun esa ba’zan uning aybini bo’yniga oladi ham.

Tanlagan kasbi orqali o’z statusiga ega bo’lishni maqsad qo’ygan o’spirinlarning ayrimlari oila qurish, shaxsiy hayotni yo’lga qo’yishga qiziqmay qo’yishadi yoki ortga surishadi. Atrofdagi tengqurlarining oila qurayotgani ham ularni tashvishlantirmay qo’yadi. O’zga jins vakillari haqida o’ylash, ular bilan tanishish kasbiy karyeraga xalaqit beradi, ishdan chalg’itadi,juftim haqida yoki munosabatlarimiz haqida o’ylasam bajarayotgan ishimda xatolarga yo’l qo’yishim mumkin” deb hisoblashadi.

Tadqiqotchi I.A.Belikning fikriga ko’ra,aybdorlik xissi 19 – 23 yoshlardagi insonlarda boshqa odamlarni xafa qilish yoki ular uchun muhim bo’lgan odamlarning umidlarini oqlamaslik bilan bog’liqdir [8].

O’spirinlarda uchraydigan kasbiy faoliyat bilan bog’liq aybdorlik xissi ularning nafaqat shaxsiy hayotlariga, jamiyatdagi o’rnilariga, balki shaxs sifatida yuksalishlariga ham salbiy ta’sir etadi. Tanlagan kasbidagi muvaffaqqiyatsizlik, atrofdagilarning umidlarini oqlolmaslik, tanbehlar, jazolanishi, ishdan haydalishi, ko’p mehnat qilish evaziga munosib taqdirlanmaslik, nohaqliklar, daromadining bajarayotgan ish hajmiga nisbatan kamligi,kimlarningdir tavsiyasi asosida qiziqmasdan kasb tanlashi sabab yuzaga keladi. O’spirin kasbidan sovib ketadi. Shu kasbini tanlagani uchun o’zini ayblaydi. Mazkur kasbni tanlashini tavsiya berganlar, ishdan sovishiga, ishdan ketishiga sabab bo’lgan shaxslar, birga ishlagan hamkasblari, rahbari, xattoki yaqinlarini ham aybdor qilishni boshlaydi. Ketgan vaqtiga, sarflagan energiyasiga, ko’rsatgan fidoiyliklariga achinadi. O’ziga bo’lgan bahosi tushib ketadi. Bo’lib o’tgan holatlarga vaqtida munosib javob qilolmagani uchun o’zini yomon ko’radi. Agar men shu kasbga yoki sohaga kirmaganimda,shu ishda ishlamaganimda hozir shu holatga tushmasdim, bekor shuncha vaqtim ketdi. Dam olmasdan ishlabmana, meni qanday insonligimni,mutaxassisligimni bilishmadi. Agarda shu inson bo’lmaganida men hozir ishlayotgan bo’lardim. Korxonaga yoki tashkilotga qancha foyda keltirdim, yangiliklar qildim. Men sabab o’sish bo’ldi kabi o’ziga noadekvat baho berish o’zining xatolarini, kamchiliklarini ko’rishga yo’l bermaydi. Kelajak uchun yangi maqsadlar qo’yish, harakatlarni bajarishga to’sqinlik qiladi. Shaxslararo munosabatlarda atrofdagilardan xafa bo’lish, qanchalar yaxshi inson ekanligini bilishmagani uchun ayblash, yuzaga kelgan vaziyat sabab stress va xattoki depressiya holatlarini yuzaga kelishiga sabab bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, o’spirinlikdagi kasbiy deformatsiya o’spirin shaxsida barvaqt kasbiy so’nish holatlarini, jismoniy va psixik muammolarni yuzaga keltirmasligi uchun ota-onasi, ustozlari, ta’lim tizimi va mehnat jamoasining maqsadi uning ruhiy kamolotini o’ylash bo’lishi lozim. Kamolga yetayotgan o’spirin shaxshini nimaga qiziqishi bor, kasb tanlashidan maqsadi nima, stressogen vaziyatlarda o’zini qanday tutish kerakligini o’rgatib borilishi zarur. Kasbiy faoliyati yuzasidan oliy ta’limda ta’lim olayotgan bo’lsa ustozlari tomonidan darslar va amaliyot davrlarida kasbning e’tiborli jihatlari va qiyinchiliklari, xató qilishi mumkin bo’lgan jarayonlar tushuntirilishi lozim hisoblanadi. Mehnat jamoasida faoliyat yuritayotgan bo’lsa rahbar va jamoa a’zolarini undan kasbiy faoliyatdagi yutuqlarni talab qilayotganda uning yosh xususiyatlarini, tajribasining kamligi, o’z o’rniga ega bo’lishga intilish uchun yangiliklar qilishga oshiqishini inobatga olishlari,xatolari uchun jazoni og’irlashtirmasliklarini bilishlari zarur. Shundagina biz har tonlama yetuk shaxsni jamiyat uchun ta’minlagan bo’lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Z.Nishonova tahriri ostida “Psixologik xizmat”. T., 2012.

2. Z.Nishonova tahriri ostida “Rivojlanish psixologiyasi”. T., 2019.

3. Djurakulova D.F. “Aybdorlik xissiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar” https://cyberleninka.ru.

4. Каширская И.К. “Особенности переживания чувства вины как социальной эмоции у студентов”. М., 2002.

5. Badritdinova, M. (2015). TA’LIM JARAYONIDA IDROKGA XOS KOGNITIV USLUB SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. Ilmiy axborotnoma.

6. Badritdinova, M.B. (2019). HE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.

7. Badritdinova, M.B., & Rustamova, T.N. (2021). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF THINKING IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Science and Education, 2(2), 331-337.

8. Xalimjanovna, A.M. (2022). Raising a Child and Preparing Him for Social Life in the Works of Our Great Scientists. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(5), 38-41.

9. Асранбоева, М.Х. (2017). Противодействия стресс-факторам в процессе педагогической деятельности. Теория и практика современной науки, (1 (19)), 67-70.

OILADA FARZAND TARBIYASIDA “GENDIR TENGLIK”NING AHAMIYATI

Usmanova E.Z.,
“Turan International University” psixologi

O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, bu borada mamlakatimizda bir qancha ayollarga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirildi. Jamiyatimiz rivojini bir qismi bo‘lgan oilalar tinchligi, er-xotin munosabatlarining to‘g‘ri, ijobiy yo‘lga qo‘yish, farzandlar tarbiyasiga e’tibor berish zarur ekanligi muhim vazifa qilib belgilandi.

Oila deb atalmish muqaddas dargohni mustahkam bo‘lishi jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda istiqlol yillarida oila institutini yanada takomillashtirish, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, yoshlarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash masalalariga davlat siyosati darajasida e‘tibor berildi.

Butun jahon mamlakatlaridagi global muammo bo‘lib kelayotgan ayollarni jamiyatdagi, oildagi o‘rni, huquqlarini paymol qilib, ayollarga zo‘ravonlik qilish, ularni mensimaslik, shaxs sifatida ko‘rmaslik holatlari ko‘payib ketganligi tashvishga soladi.

Shu jumladan, O‘zbekistonda ham bu borada ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilindi. Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatimizda ayol-erkak o‘rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan.

Hozir biz yangilanayotgan O‘zbekistonda, islohotlar inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berish kerakdir.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston o‘z mustaqil siyosatiga ega bo‘lgan mamlakat sifatida jahon hamjamiyati bilan har tomonlama manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan, xususan, oila va xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda yurtimizda gender tenglikni kafolatlagan davlatlar sirasiga kiradi. Jumladan, O‘zbekiston 1995 yildayoq – Xotin-qizlar kamsitilishining barcha ko‘rinishlari oldini olish bo‘yicha CEDAW Konvensiya‖sini ratifikasiya qilgan va bu boradagi xalqaro talablarni, ushbu yo‘nalishda Milliy Harakat dasturini bosqichma-bosqich bajarib kelayotgan mamlakatdir. Albatta, fuqarolik jamiyatini birdan, bir kunda qurib bo‘lmaganidek, yurtimizda gender tenglik qonunan to‘liq kafolatlanganligiga qaramay, amalda erkaklar va ayollar tengligini ta‘minlashda muayyan qiyinchiliklar yo‘q emas. Bu, bir tomondan, milliy an‘analarimiz, urf-odatlar va jamiyatimizda jinslararo tenglik masalasiga qarashlardagi o‘ziga xoslik bilan tushuntirilsa, ikkinchi tomondan, qonunlar, jumladan, Xalqaro normalarning butun yer yuzida birdan va

so‘zsiz ijrosini ta‘minlashning imkoni yo‘qligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari jamiyatda gender tengligini ta‘minlashda taraqqiyotdagi tadrijiylik va rivojlanishning bosqichma-bosqich ro‘y berishini inobatga olgan holda odil siyosat yuritadi. Bu kabi masalalarni echishda avvalo, kelajagimiz vorislari bo‘lmish yoshlarda to‘g‘ri tasavvurlar va bilimlarni shakllantirish, shu orqali jinslararo muloqotga va oilaviy hayotga tayyorlash davrimizning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Davr talabidan kelib chiqayotgan bu vazifa o‘zbek psixologlari oldiga qator muammolarni qo‘yish bilan birgalikda ulardan gender muammolari, jinsiy tafovutlar masalasiga ilmiy jihatdan yondashishni taqozo etadi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, o‘g‘il va qizlarning ijtimoiy tasavvurlarida jinsiy tafovutlarga oid tushuncha, bilim va ko‘nikmalar, stereotiplar eng avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun ham oila psixologiyasi doirasida aynan jinsiy tafovutlar va gender muammolari o‘rganilishi va amaliyotda qanday ekanligi tadqiq etililishi muhimdir.

Amerikalik tadqiqotchi Devid Mayers jins, genlar va madaniyat masalalarini o‘rganar ekan, genderni – erkaklik va ayollik xususiyatlarini tavsiflovchi tushuncha sifatida, Paludidan farqli, jinsiy tafovutlarni o‘rganish xotin-qizlarning erkaklarga nisbatan anchagina masalalarda ustunlikka ham ega ekanligini alohida ta‘kidlaydi. Uning fikricha, ayollardagi tajovuzkorlik, agressiyaning kamligi, o‘zgalarga g‘amxo‘rlik va o‘zgalar tashvishlariga nisbatan befarq bo‘lolmaslik, hamdarliklari aynan ularning jamiyatda tutgan foydali mavqelarini belgilashi mumkin. Aynan ayollar, boshqav tadqiqotchilarning fikricha, insonlar bilan bo‘ladigan munosabatlarda iliqlik, yaqinlik tarafdorlaridir (*Nancy Chodorow, Jean Baker Miller, Corol Gillbgan* va boshqalar).

Tadqiqotchilarning ta‘kidlashlaricha, jinsiy tafovutlar aynan yoshlik chog‘idanoq namoyon bo‘la boshlaydi. O‘g‘il bolalar, masalan, yoshlikdanoq mustaqillikka intilsa, qiz bolalar o‘zaro bog‘liqlikka, kimlar bilandir birga bo‘lishga intiladi. Agar o‘g‘il bola ko‘proq ko‘pchilik ishtirok etadigan o‘yinlarni afzal ko‘rib, ko‘chaga chopsa, qizlar kichikroq tengqurlar guruhida jipslikda o‘ynashni, o‘yin chog‘ida ham bir-birlariga hamdardlik ko‘rsatish, tushunishga intiladi, agressiya ular muloqotida kam bo‘ladi (*Lever,* 1978).

Inson ulg‘aygan sari jinsiy tafovutlarning namoyon bo‘lish ko‘lami ham kengayib boradi. Buni ta‘kidlovchi tadqiqotlar xorijda, Rossiyada va MHD mamlkatlarida ko‘plab o‘tkazilgan. Ularda xotin-qizlarning erlaridan farqli juda ko‘p jihatlari ajratilib, ularning tashqi ijtimoiy muhitga munosabatlari – hamdarliklari, o‘zgalar bilan muloqotga intiqliklari, muomalada o‘ziga xos taktikaga ega ekanliklari kabi o‘nlab yo‘nalishlar eksperimentlarda isbotlandi.

Oilardagi er-xotin munosabatlarida ziddiyatli holatlar, moddiy tomondan yetishmovchilik sababli ham kelib chiqadi. Chunki, ba’zi oildagi ayollarni ishlamasligi, o‘z huquq burchlarini bilmasliklari oqibatida erkaklar tomonidan imkoniyatlarga yo‘l berilmaydi. Kelib chiqayotgan ziddiyatli holatlar farzandlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Farzand oiladagi janjalli holatlarni ko‘raverishi sababali kattalarga nisbatan nafrat tuyg‘usi shakllanib qoladi. Kelajakda o‘z yo‘llarini topishda qiynalishadi. Jamiyatimizni bir bo‘lagi bo‘lgan oilarimizni tinch va farovon yashab, farzandlarni sog‘lom muhitda tarbiyalab, kelajakda har tomonlama ruhan, manaviy sog‘lom bo‘lib o‘sishlari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratilgandir. Faqatgina bundan unumli foydalanishni bilish kerak.

Oilalarda gendir tenglik va jinsiy tenglik, aniqrog‘i, erkaklar va ayollar o‘rtasida tenglik – bu oilada erkaklar va ayollar o’rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlardir.

Mana shu tenglik tushunchalarni har bir oilaga to‘g‘ri tushuntirib borilsa, maqsadga erishilgan bo‘ladi. Gendir tenglik tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iboratdir. Bu tushunchalar oilada ayolning ayol sifatida, erkakning erkak sifatida rivojlanish imkoniyatidir. O‘zbekiston boshqa davlatlardan farqi shundaki, mamlakatimizda o‘z-o‘zini boshqarish organlari; Mahalla fuqolar yig‘ini tashkil etilganligi, jamiyatimiz ravnaqi uchun, oila, mahallani o‘rni juda muhim ekanligini belgilab beradi.

Gendir tenglikni oilalardagi holatini takomillashtirish yo‘lida MFY larning juda katta o‘rni bor.

- Oiladagi ayol-erkaklarni jamiyatda teng huquqliligini samarali tushuntirish ishlarini olib borish uchun OAV laridan keng qamrovli, shu mavzularga oid ko‘rsatuvlar, teleseriallar, tok-shoular uzluksiz yoritib borilishi kerak.

- MFY larda alohida ayollar uchun maslahat kurslari tashkil etib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Erkaklarning ayollarga munosabatini gendir tengligi qay darajada ekanligi haqidagi tushunchalarni mutaxassislar tomonidan davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etib borish maqsadga erishish yo‘llaridan biri hisoblanadi.

- Davlatimiz tomonidan ayollaraga berilayotgan imkoniyatlarni tushunib, huquq-burchlarini anglashlari, erkaklarga bunga qarshilik ko‘rsatmasliklari uchun oila markazlari xodimlari tomonidan, FXDYO bo‘limlarida nikohdan o‘tayotganvaqtda tavsiya va maslahat berib borish kerak.

- Mahalladagi ayollar maslahatchisi imkoniyati cheklangan ayol-qizlarga davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlarni tushuntirib, psixologik motivatsion maslahatlar berib borish kerak.

Ayol-erkakning teng huquqliligi jamiyatni ma’naviyat ko‘zgusidir. Maktab bilim dargohi ekan, ijtimoiy muhitdagi omillar maktabdagi ta’lim tarbiyaga ham ta’sir qiladi. Maktabgacha bo‘lgan davrni oila va oila a’zolari boshqaradi. Demak, oildagi ayol va erkak yani, er-xotin o‘zining teng huquqliligi bo‘yicha bilimga ega bo‘lishi kerak. Shundagina farzandlariga o‘zidagi bor ta’lim-tarbiyani o‘tkaza oladilar, teng huquqlilik tushunchalarini ongiga singdira oladilar. Oiladagi o‘zaro munosabatlar, muloqot jarayonlarida ham gendir tenglik bo‘lishi kerak. Tarbiyalab kelayotgan farzandlari ham bu tushunchani to‘laqonli tushunib anglasalargina, ijtomoiy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilada tarbiya topgan farzandlar kelajakdagi orzularidan qo‘rqmay, maqsadni aniq qo‘ya oladilar.

“Menga mumkin emas”, “Men bunday qila olmayman”, “Oliamizga to‘g‘ri kelmaydi, “Odamlar nima deydi?”, “Ota-onam qarshilik qilsachi?” deb o‘ylagan “iboralar” to‘sqinlik qiladi, imkoniytalardan cho‘chishadi. Atrofdagilarga ojiza bo‘lib ko‘rinishdan qo‘rqishadi, ichki qo‘rquvlar ularni xohish – istaklarini amalga oshirishda katta to‘siq bo‘lib qoladi.

Yosh o‘g‘il-qizlar kelajakda turmush qurushganida ham bu tenglikni, huquq-burchlarini tushunib yetmasalar, oilada kelajakdagi farzandlari tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo bo‘la boshlaydi. Farzandlar o’rtasida ham o’zaro kelishmovchiliklar yuzaga kela boshlaydi.

Ilm olishni chegarasi yo‘qdek, imkoniyatlarning chegarasi yo‘qdir, faqat biz undan foydalanishni bilishimiz kerakdir. O‘zimizni kimligimizni, jamiyatdagi o‘rnimizni qanday ekanligini anglab tushunsakgina har bir jabhada o‘sish, rivojlanish taraqqiy etib boraverdi. Kelajak avlodlarimizga ham o‘rgatishda qiynalmaymiz.

Yurtimiz tinchligiga juda katta hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Ruhimizda, tanamizda vatanparvarlik, insoniylik hissi jo‘sh urib boraveradi. Jamiyatimiz erkak va ayoldan iborat ekan, yosh-avlodni sog‘lom dunyoga keltiruvchi buyuk hilqatdir. Sog‘lom oila-sog‘lom muhit, bu erkak va ayolni dunyoga keltirgan farzandining ko‘zgusidir. Ko ‘zgu sinmasligi uchun, nobud bo‘lmasligi uchun jamiyatda o‘z o‘rnimizni bilishimiz kerak. Zero, ilm-bilim, ta’lim-tarbiya mustahkam va bardavom bo‘lishi kerak, buning uchun ziyolilar qatlamini kengaytirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Safarov O, Maxmudov M. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1998.
2. Otaxo‘jaev F.M. Nikoh va uning tartibga solinishi. – Toshkent: Adolat, 1999.
3. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. – Toshkent: Shams ASA, 2006.
4. Xodakov N.M. Yosh kelin-kuyovlarga – 3-nashr. Toshkent, 1990.
5. Davletshin M.G, Shoumarov G‘.B, Sog‘inov G‘.B. Zamonaviy o‘zbek oilasi. – Toshkent, 1990.

SUDYA, DAVLAT PROKUROR VA ADVOKATNING KASBIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mamasiddiqova Komila Ikromovna,
Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali sirtqi bo'lim "Psixologiya" fakulteti "Amaliy psixologiya" yo'nalishi 936-21 guruh talabasi
kamillaahmedova19@gmail.com (@Komila_Ikromovna)

Annotatsiya. *Berilgan ushbu maqolada sudya, Davlat prokurori va advokatining kasbiy-psixologik xususiyatlari haqida turli yondoshuvlar to'g'risida nazariy ilmiy ma'lumotlar berilgan. Yuristlarning professional jihatlari, kasbiy muhim omillari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *sudya, prokuror, advokat, faoliyat, psixologik xususiyatlar, jinoyat qidiruv, xodim faoliyatining ahamiyati.*

Абстрактный. *В данной статье представлены теоретические научные сведения о различных подходах к профессионально-психологическим характеристикам судей, государственных обвинителей и адвокатов. Показаны профессиональные аспекты юристов, важные профессиональные факторы.*

Ключевые слова: *судья, прокурор, адвокат, деятельность, психологические особенности, уголовное расследование, значение деятельности сотрудников.*

Abstract. *This article presents theoretical scientific information about various approaches to the professional and psychological characteristics of judges, public prosecutors and lawyers. The professional aspects of lawyers and important professional factors are shown.*

Key words: *judge, prosecutor, lawyer, activities, psychological characteristics, criminal investigation, the significance of the activities of employees.*

Sudya, prokuror, advokat. Bu faoliyatlar jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar ishlab chiqish, huquqiy targ'ibot olib borish, jinoyatchi xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlar talabiga bo'ysundirish, jazoni o'tab qaytganlarni ijtimoiy moslashtirish, huquqbuzarlikka moyilligi bor shaxslarni aniqlab, ularni qayta tarbiyalash maqsadida shaxsga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan psixologik choralar tizimini yaratish singari vazifalarni o'z ichiga oladi.

Rekonstruktiv faoliyat jinoiy ish bo'yicha jami to'plangan ma'lumotlar joriy va yakuniy tahlili bo'lib, uning sintezi va maxsus bilimlarga tayangan holda farazlarni ilgari surish. Ishni rejalashtirish ham rekonstruktiv faoliyatning natijasi hisoblanadi. [1]

Kommunikativ (aloqaga kirish) faoliyati muomala jarayonida zarur ma'lumotni olishni anglatadi. Bu faoliyat ayniqsa, tergov mobaynida, advokatlar, tezkor xodimlar, mehnataxloq tuzatish muassasalari xodimlari ishida katta ahamiyat kasb etadi.

Tashkiliy faoliyat ishchi versiya va rejalarni amalga oshirish chog'idagi irodaviy xatti-harakatlardan iboratdir. U muayyan professional masalani hal etish uchun o'zini va odamlarni safarbar etish singari ikkita omilga bo'linadi.

Dalillash faoliyati ish bo'yicha olingan barcha ma'lumotlarni qonunda ko'zda tutilgan tarzda, maxsus shaklda bayon (qaror, protokol, hukm va hokazo tarzda) etishni bildiradi.

Sudyaning faoliyati nihoyatda murakkab, turfa xil bo'lib, ushbu kasb sohiblaridan maxsus fazilatlar va malakani talab qiladi. Uning kasbga oid faoliyati qonun bilan aniq va ravshan belgilab qo'yilgan. Sudya farmon berish vakolatlariga ega, ularni davlat nomidan qo'llaydi, bu esa o'z xatti-harakatlari uchun yuksak professional mas'uliyat hissini talab qiladi.

Sudya ishining keng qamrovliligi yuqori darajadagi umumiy va huquqiy topqirlik, bilimdonlikni, xilmaxil vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqara bilishni taqozo etadi. Sudyaning asosiy vazifasi dalillarni chuqur va har tomonlama o'rganish hamda tegishli qonunchilik me'yorlari doirasida muayyan ish bo'yicha adolatli sud hukmi yoki qarorini chiqarishdan iboratdir. [2]

Sudyalar jamoatchilik fikriga quyidagicha ta'sir o'tkazadilar:

1. Fuqarolarda huquqiy ongni shakllantiradilar.

2. Jinoiy ishni ko’rib chiqish jarayonida jazoning muqarrarligiga oid ijtimoiy psixologik tushunchani rivojlantiradilar.

3. Sud jarayonining yuqori saviyada o’tishi jinoyatchi va uning sheriklariga nisbatan axloqiy, ma’naviy qoralash muhitini yaratadi.

4. Sud jarayoni jamoatchilikda jinoyatni keltirib chiqargan sabablar va shart-sharoitlarni bilish xohishini vujudga keltiradi.

Sudya mulohazakorlik, ochiq ko’ngillik kabi fazilatlarga so’zsiz ega bo’lishi, xulqatvorida, his-tuyg’ularida, nutq ohangida bosiqlik, vazminlik ko’rinib turishi darkor. Sudya faoliyatining rekonstruktiv sohasi amaldagi qonunlarga muvofiq adolatli hukm yoki qaror chiqarish maqsadida ish bo’yicha yig’ilgan barcha ma’lumotlar joriy va tugal tahlilidan iborat. Bu jarayonda sudyaning salohiyati, zehni va ijtimoiy aqlidroki, xotirasi, tasavvuri, fikrlashi, intuisiyasi ko’zga tashlanadi. [3]

Prokuratura xodimlarining faoliyati ham serqirra va mas’uliyatlidir. Prokuror nazoratining quyidagi tarmoqlari mavjud:

1. Davlat boshqaruvi, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

2. Surishtiruv va dastlabki tergov idoralari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

3. Sudlarda ish ko’rilayotganida qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

4. Hibsxonalar, dastlabki qamoqqa olish joylarida, jazoni o’tash va boshqa majburiy turdagi choralarni o’tash joylarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

Yuqoridagilardan tashqari, prokuratura boshqa sohalarda qonunlar ijrosini nazorat qilish bilan birga og’ir jinoyatlarni tergov qilish, davlat manfaatlari va fuqarolar huquqlarini himoya qilish bilan shug’ullanadi.

Prokuror kuchli iroda fazilatiga ega bo’lishi lozim. Uning kasbiga oid faoliyati shaxsiy tashabbusni, qat’iyatni, sobitqadamlilikni, maqsad sari intilishni, tashkilotchilik qobiliyatlarini talab qiladi. Sudda Davlat qoralovchisi sifatida maydonga chiqayotgan prokuror davlat nomidan ayblovni quvvatlar ekan, jamiyat fuqarolarining, jamiyatdagi ko’pchilikning manfaatlarini yoqlaydi. Prokuror jinoiy ish qo’zg’atilganidan boshlab, hukm chiqarilgunga qadar ushbu jarayonda ishtirok etadi. Shuning uchun uning fikrmulohazasi hukm qabul qilishda yetakchi rol o’ynaydi, u birinchi bo’lib ayblov fikrini bayon qiladi.[4]

Advokatning faoliyati ko’p jihatdan uning ijtimoiy-psixologik roliga xos xususiyatlar bilan asoslanadi. Advokatlar fuqarolarga huquqiy yordam ko’rsatishga da’vat etiladilar. Bu ularning professional burchidir. Qonun bo’yicha advokatga sudlanuvchining barcha huquqlari va manfaatlarini himoya qilish vazifasi yuklatiladi. Advokatning samarali faoliyati odamlar bilan psixologik muomala o’rnatish, o’z himoyasidagi kishiga shaxs sifatida to’g’ri yondasha bilish, sud, tergovchilar va prokuror bilan tegishli tarzda hamkorlik qila olishiga bog’liq. Buning uchun avvalo advokat tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo’lishi lozim. Sud jarayonida qatnashish uchun tayyorgarlik rejasini tuzish, amaliyotga mos keladigan, professional tajribada orttirilgan metodlar va usullarni qo’llash shu jumladandir. To’g’ri va yuqori malakali himoya aybsiz odam behuda sudga berilishi va hukm qilinishining oldini oladigan kafolat bo’lib hisoblanadi.

Prinsipiallik, halollik, o’z himoyasidagi shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga murosasizlik advokat xulq-atvorining bosh xususiyatlaridir. U o’z shaxsiy fikriga ega bo’lishi, taassurotlarga berilmasligi, e’tiqodi va nuqtai nazaridan chekinmasligi lozim.

Advokatning muomala faoliyatida ikki omil muhimdir:

A) o’z himoyasidagi shaxs bilan psixologik kontakt o’rnatish;

B) sud hay’ati a’zolari va sud jarayonining boshqa qatnashchilari bilan psixologik aloqa o’rnatish.

Faoliyati mobaynida o’ziga ma’lum bo’lib qolgan ma’lumotlarni advokat huquqiy yordam ko’rsatishi munosabati bilan yashirish, bekor etishga haqi yo’q. Advokatlar aholi o’rtasida huquqiy qonunchilikning u yoki bu qoidalarini tushuntira borib, fuqarolarning huquqiy ongi shakllanishiga katta hissalarini qo’shadilar, jinoyatlarning oldini olishga yordam beradilar.[5]

Jinoyatchilikka qarshi kurashning oldingi marrasida bo’lgan jinoyat qidiruv bo’limi tezkor xodimining faoliyati qotillik, o’g’irlik, bosqinchilik, talonchilik kabi jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish, tergov qilishdan iboratdir. Uning faoliyati favqulodda vaziyatlarda, asabiy holatlarda kechishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun jinoyat qidiruv bo’linmasidagi xodimning ish faoliyati kuchli xotirani, sir boy bermaslik, o’zini tuta bilish, tez va sovuqqonlik bilan qaror chiqarish, o’ta hushyorlik va qat’iyatni talab etadi. [6]

Xulosa qilib aytganda, psixologik kuzatuvchanlikning muhim qirralaridan biri o’zini kuzata olish, xatti-harakatlari va xulqatvorini tahlil qilish, o’z xatolarini e’tiborga olish va ularni vaqtida tuzatishdan iborat. Huquqshunos faoliyatining tashkiliy tomoni alohida ahamiyatga ega. Xodim intizomli, o’ziga talabchan bo’lishi, vaqtni to’g’ri rejalashtirishi, ko’ngilli yordamchilar va jamoatchilik mehnatini tashkil eta olishi, ularning yordamidan samarali foydalanishi darkor. Huquqshunoslar aql-idroki, mehnat faoliyati mobaynida amaliy tafakkuri tezkorligi bilan ajralib turadi. Eng muhimi, odamlarning fe’latvorini bilish, ularning diliga yo’l topish, halol odamni nopok kimsadan ajrata olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Отамуратова С., Отамуратов Р. Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarining psixologik tahlili // Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 323 – 328.

2. Аминов И.И., Шевченко В.М., Эриашвили Н.Д. и др. Психология оперативно-розыскной деятельности: учебное пособие. 2-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.

3. Arifxodjayeva I. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyati psixologiyasi. O’quv qo’llanma. Toshkent 2008 yil.

4. M.I.Yenikeyev. Yuridicheskaya psixologiya., Darslik., M. “Norma”. 2005 g.

5. www.norm.uz

OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

G’oipova N.B.,
Namangan davlat pedagogika instituti o’qituvchisi
Karimova Nadiya,
NamSPI “Maxsus pedagogika” talabasi

"Aqliy nogironlikning etiologiyasi aqliy zaiflik yoki nogironlik holatlaridan iborat. Tegishli berilgan ijtimoiy kontekstning minimal talablaridan past bo’lishi shaxsning intellektual va moslashuvchan samaradorligining pasayishini belgilaydi.

Nogironlikning barcha shakllarida, shuningdek, aqliy sabablarni aniqlash qiyin qadamdir. Bir tomondan, nogironlik bir yoki bir nechta sabablar bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga bog'liq.

Verza (1995) ga ko'ra, eng ko'p uchraydigan sabablar:

- nogironlik shakllarini belgilaydigan markaziy asab tizimining shikastlanishlari va disfunktsiyalari, ba'zi mualliflar tomonidan ekzogen, patologik, disharmonik va boshqalar;
- endogen deb ataladigan xromosoma aberatsiyasida yuzaga keladigan irsiy omillar shakllar;
- ota-onalarning juda erta yoki kech va reproduktiv quvvatning pasayishi;
- miya tizimlarining normal rivojlanishiga ta'sir qiluvchi generativ va metabolik kasalliklar;
- Erta ontogenezdagi yuqumli kasalliklar asab tizimlarida turg'unlikka olib keladi yoki ishlamay qoladi. kraniomiya rivojlanishi;

- bosh suyagining jismoniy shikastlanishi, bosh miya markaziy qismga salbiy ta'sir qiladi;

- stress omillari va homiladorlikning haddan tashqari charchoqlari;

Aqliy nogironlar aqliy zaiflikdan keyingi nogironlik deb ham ataladi, biz o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlashni xohlaganimizda ham ishlatadigan ibora ikkita hodisa, shuningdek, tegishli atamalar, aqliy nogironlik va aqliy nogironlar sinonim emas. Biroq, har bir muallifning afzalliklari bilan bog'liq bo'lgan boshqa holatlar ham mavjud aqliy zaiflar uchun sinonim sifatida ishlatiladi, boshqa atamalar, masalan: aqliy zaiflik yoki kechikish, aqliy zaiflik, oligofreniya.

Paunesku aqliy nogironlik atamasini tor ma'noda ishlatadi: "funktsionallikning aqliy buzilishi", lekin "strukturaviy aqliy yetishmasligi". Ruhiy yetishmovchilikning etiologiyasi juda xilma-xil bo'lib, aqliy nuqsonning ko'rinishi patogen omillarning xilma-xilligi hisoblanadi». Ruhiy yetishmovchilikning etiologik omillarini to'liq tasniflash – ikkalasi ham irsiy omillar (o'ziga xos bo'lmagan, o'ziga xos bo’lgan), shuningdek orttirilgan omillar (prenatal, perinatal, postnatal va psixogen). M.Chiva va Y.Rutschmann tomonidan 1979 yilda tomonidan muvofiqlashtirilgan "Aqliy zaifliklar" kitobida “aqliy buzilish bir vaqtning o'zida harakat qilgan bir nechta sabablar natijasida yuzaga keladi. Ontogenetik rivojlanish, yoki rivojlanishning turli bosqichlarida ularning harakat qilish vaqtiga qarab, sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. genetik;

2. prenatal davrda harakat qilish;

3. tug'ilish paytida harakat qiladigan sabablar;

4. tug'ruqdan keyingi davrdan boshlab.

1. Genetik sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- o'ziga xos bo'lmagan genetika (poligenik, klinik jihatdan individuallashtirilmaydi): endogen, klinik, submadaniy, oilaviy holatlar.

Ota-onasi aqliy zaif bo'lgan bolalarda aqliy zaiflashuvning 40% holatlari mavjud va ikkala ota-onasi bo'lgan bolalarda 60% aqliy nuqsoni bo'lgan.

- o'ziga xos genetika – klinik jihatdan individuallashtirilgan sindromlar, xromosoma aberatsiyasi.

2. Prenatal davrning sabablari:

- yuqumli omillar: qizilcha, yuqumli gripp, virusli gepatit;

- bakterial omillar: konjenital sifiliz;

- toksik omillar: kimyoviy moddalar bilan zaharlanish, oziq-ovqat, nurlanish, kuchli qo'rquv, qabul qilmaslik homiladorlik, Rh ning mos kelmasligi;

- onaning tug'ilish paytidagi jarohati;

- onaning endokrin kasalliklari (qandli diabet).

3. Perinatal davrda ular aqliy nuqsonlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- akusherlik travmasi, bu esa o'z navbatida quyidagilarga bo'linishi mumkin: mexanik shikastlanish (qo'llanilishi tufayli tug'ilish paytida turli xil tibbiy asboblar) va gipoksiya sabab bo'lishi mumkin.

- tug'ilishning uzaytirilishi, kindikning siqilishi, yo'ldoshning yorilishi, homila juda katta bo’lishi.

- yangi tug'ilgan chaqaloqning muddatidan oldin tug'ilishi, vazni 2500 grammdan kam bo'lgan homila.

- yangi tug'ilgan chaqaloqning kamolotga yetishi, aqliy va psixomotor, xatti-harakatlarning buzilishiga olib keladi.

4. Postnatal davrda quyidagi omillar toifalari ta'sir qilishi mumkin:

- yuqumli kasalliklar, yallig'lanishli miya kasalliklari (meningoensefalit);

- miya po’stlogida qon aylanishining buzilishi;

- psixo-ijtimoiy omillar: oilaning iqtisodiy sharoiti, oiladagi affektiv munosabatlar.

Aqliy buzilishlarni aniqlash ko'rsatadiki, aqliy etishmovchilik "aqliy zaiflik”ni ifodalaydi. Intellektual faoliyat o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada past, bu turg'unlik bilan namoyon bo'ladi;

Etiologik-biologik tomonidan belgilanadigan rivojlanishning sekinlashishi yoki yo'qligi muhit-kontseptsiya paytidan boshlab yetuklikning oxirigacha harakat qiladigan va adaptiv xulq-atvorga ta'sir qiladi."

Ta'kidlanganidek: "Intellektual yetishmovchilik butun borliqqa qaratilgan yetishmovchilikni anglatadi. Shaxsiyat, tuzilma, tashkilot, intellektual rivojlanish, affektiv, psixomotor, xulq-atvorga moslashish, irsiy yoki markaziy asab tizimining organik yoki funktsional shikastlanishlari natijasida olingan; hayotning birinchi yillaridan boshlab, o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan turli darajadagi tortishishlarda namoyon bo'ladi. Aholining ijtimoiy-professional moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadigan darajasi malaka darajasi, shaxsiy va ijtimoiy avtonomiya.

"Aqliy yetishmovchilik organik shikastlanish hodisasini anglatadi yoki markaziy asab tizimining funktsional buzilishi, salbiy oqibatlarga olib keladi

Ruhiy kamolot jarayoni, shaxsning turli jihatlari bo'yicha rivojlanishini belgilaydi. Aqliy nuqsonlarning tasnifi ko'rsatadiki, boshqalarni adabiyotda aqliy nogironlik deyilishi mumkin, tasnif ayniqsa, berilgan qiymatlar IQ boshqacha, lekin u shunday tasnifni qabul qildi ko'proq natijaga ega bo'lib, butun dunyo bo'ylab ko'plab mualliflar va ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan qo'llaniladi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. IQ bilan chegara yoki chegaraviy intellekt. 85 va 90 orasida taxmin qilingan va qaysiki normallik va nogironlik o'rtasidagi chegarani belgilaydi.

2. Aqliy zaiflik (engil aqliy zaiflik) 50 dan 85 gacha bo'lgan IQ 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan xronologik yoshdagi normal rivojlanishga to'g'ri keladi.

3. IQ bilan og‘ir aqliy nuqson (imbetsil). 20 dan 50 gacha va 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan xronologik yoshdagi normal rivojlanishga to'g'ri keladi.

4. Chuqur intellektning nogironligi (idiot) 20 yoshgacha bo'lgan aqliy yosh bilan chegaralanadi.

Aqliy yetishmovchilikning eng jiddiy shakli chuqur aqliy nuqsondir. Bunga ega bo'lgan odam har doim nazorat va yordamga muhtoj bo'lib, yolg'iz o'zi hal qila olmaydi. O'rtacha hayot oraliq taxminan 19 – 20 yil kechadi.

Xususiyatlari orasida biz quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- chuqur kechikish;
- sensor-motor sohasida juda yomon ish qobiliyati;

Aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlarning akademik ta'limga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xususiyatlari, shuningdek ularning uy, maktab va jamoat sharoitlariga moslashish qobiliyati quyida keltirilgan:

Umumiy bilish aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlar jismoniy va hissiy jihatdan, shuningdek, shaxsiyatiga qarab farqlanadi. moyillik, e'tiqod. Ularning o'rganishdagi sezilarli sekinligi kechikish bilan bog'liq bo'lishi mumkin intellektual rivojlanish tezligi kattalar aqliy nuqsonlari taqdim etilgan o'quv stimullarining mos tomonlari va nomaqbul tomonlari bilan shug'ullanish o'rganish tezligi va miqdori maqbul bo'lishi mumkin. Agar maxsus ta'lim yordamlari amalga oshirilsa, Bir nechta ishlar shuni ko'rsatadiki, aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalar bir xil pog’onalarga erishishlari mumkin lekin umuman olganda, tengdoshlaridan orqada qoladi. IQ balli test umumiy idrokni yoki olish qobiliyati va imkoniyatini aniqlashda unchalik ahamiyatga ega emas aqliy nogironligi bo'lgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, zarur bo'lgan yordam turlari va miqdoridan ko'ra belgilangan vazifalar yoki darajalarda ishlash.

O'rganish va xotira aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlarning o'rganish va xotira qobiliyatlari sezilarli darajada nogironligi bo'lmagan tengdoshlariga nisbatan o'rtacha ko'rsatkichdan past. Aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlar o'quv majmualarini nogironligi bo'lmagan tengdoshlariga qaraganda sekinroq rivojlantiring va ular kam ma'lumotni yangi vaziyatlarga bog'lashda bolalar intellektual nogironlar o'z-o'zidan tegishli o'rganish yoki xotirani saqlashdan foydalana olmaydi strategiyalar va o'rganishga yordam beradigan shartlar yoki harakatlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin xotira. Biroq, bu strategiyalarni o'rgatish mumkin.

Odamlar aqliy nuqsonlari bo'lganlar o'rganishda va real hayotda tegishli stimullarga e'tibor qaratishda muammolarga duch kelishadi, ba'zida noto'g'ri narsalar bilan shug'ullanishadi.

Ma'lumotga ega bo'lish uchun bolalar kerakli vaqt davomida o'quv vazifasini bajarishlari kerak va chalg'itadigan narsalarni nazorat qilishlari kerak. Aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalar farqlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin va o'quv va ijtimoiy vaziyatlarda tegishli savollarga qatnashish.

Aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlarning moslashuvchan qobiliyatlari ko'pincha ularning nogironligi bo'lmagan tengdoshlari bilan taqqoslanmaydi. Aqli zaif bola ikkalasida ham qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bir qator sabablarga ko'ra ko'nikmalarni o'rganish va qo'llash, shu jumladan chalg'itishning yuqori darajasi, e'tiborsizlik, ijtimoiy signallarni o'qimaslik va impulsiv xatti-harakatlar engil bolalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sifatini o'rgandilar aqliy nuqsonlari va nogiron bo'lmagan tengdoshlari va bolalari yo'qligini aniqladilar nogironlar aqliy nuqsonlari bo'lgan sinfdoshlarini do'st sifatida qabul qilishdi.

O'z-o'zini tartibga solish

Vazifani takrorlash qobiliyati o'z-o'zini tartibga solish yoki o'zini o'zi boshqarish deb nomlanuvchi keng tushuncha bilan bog'liq o'z xatti-harakatlariga vositachilik qilish yoki tartibga solish qobiliyati. Axborotni qayta ishlash nazariyotchilari odamning ma'lumotni sensorli stimullardan motorikgacha qanday qayta ishlashini o'rganadilar chiqdi. Axborotni qayta ishlash nazariyasida odamlarning o'rganishdagi farqlari aqliy nuqsonlari bilan metakognitiv jarayonlarning rivojlanmaganligi sifatida qaraladi.

Ushbu ko'nikmalarning etishmasligi yoki kam rivojlanganligi xotiraga, mashq qilish qobiliyatiga, tashkilotchilikka ta'sir qiladi qobiliyat va o'rganish jarayonini nazorat qilish.

Aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlarda nutq, tilni tushunish va tushunish kechikishi mumkin shakllantirishdagi qiyinchiliklar. Til muammolari odatda tildagi kechikishlar bilan bog'liq.

Tilning foydalanishi bilan emas, balki rivojlanishi aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlarda kechikishlar paydo bo'lishi mumkin. Tilning pragmatik jihatlari, masalan, navbat olish, suhbat uchun maqbul mavzularni tanlash.

Aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlar ko'pincha motivatsiyaning etishmasligi yoki tashqi tomondan yo'naltirilgan deb ta'riflanadi xatti-harakati. O'tmishdagi muvaffaqiyatsizlik tajribalari va bu muvaffaqiyatsizliklar natijasida paydo bo'lgan tashvish paydo bo'lishi mumkin ular kamroq maqsadlarga yo'naltirilgan va motivatsiyaga ega emas, ko'pincha muvaffaqiyatsizlik natijasidir ojizlikni o'rgandi. Muvaffaqiyatsizlik tarixi tashqi manbalarga qaramlikka olib kelishi mumkin ichki mukofot manbalariga emas, balki mustahkamlash yoki mukofotlash. Ularning ehtimoli kamroq o'z-o'zini tasdiqlash bilan rag'batlantirilgan o'z-o'zini boshlaganlar.

Akademik muvaffaqiyat Engil va o'rtacha darajadagi aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalarning kognitiv samarasizligiga olib keladi akademik yutuqlardagi doimiy muammolar bilan bolalar engil aqliy nogironlar so'zlarning ma'nosini tushunishdan ko'ra ularni dekodlashda yaxshiroqdir va o'zlarining aqliy yoshi darajasidan pastroqda bo’ladi. Bolalar aqliy nuqsonlari bo'lganlar asosiy hisob-kitoblarni o'rganishlari mumkin, ammo qo'llash imkoni bo'lmasligi mumkin muammoni hal qilish vaziyatida tegishli tushunchalar. O'sib borayotgan ishilar shuni ko'rsatdiki, o'rtacha yoki og'ir aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalar akademiklarni ma'lumot olish, ijtimoiy muhitda ishtirok etish, oshirish vositasi sifatida o'rgatish mumkin ularning orientatsiyasi va harakatchanligi va tanlov qilishlari. Jismoniy xususiyatlar Turli xil biologik etiologiyalarga ega bo'lgan aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalar birgalikda mavjud bo'lishi mumkin. jismoniy, vosita, ortopedik, ko'rish va eshitish qobiliyatining buzilishi va sog'liq kabi muammolar. Og'irlik darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjud aqliy nogironlik va jismoniy farqlar darajasi. Bolalarning aksariyati og'ir va chuqur intellektual nogironlar aqliy va jismoniy jihatdan deyarli barcha jihatlarga ta'sir qiladigan bir nechta nogironliklarga ega rivojlanish bilan kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxsus psixologiya asoslari / Ed. L.V.Kuznetsova. Moskva: Akademiya, 2002. 480 P.

2. Parygin B.D. Ijtimoiy-psixologik nazariya asoslari. Moskva: Mysl nashriyoti, 1971, 256 p.

3. Pevzner M.S. Bolalar oligofrenik. Moskva: 1959. 205 p.

4. Daughter, Husanova Iroda Ulugbek. "LOGOPEDIC WORK WITH DYSARTHRIC CHILDREN." Science Promotion 1.1 (2023): 117-122.

5. Lazizbek Xaitov. (2020). Bo'lajak logopeda o'qituvchisining ijtimoiy-pedagogik kompetentsiyasining mohiyati va tarkibi. Evropa ta'lim fanlari bo'yicha tadqiqot va mulohazalar jurnali.

6. Murodjon, Xovodillayev. "METHODS FOR THE FORMATION OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Academia Repository 4.10 (2023): 332-335.

7. Xabibullo o'g'li, Xovodillayev Murodjon, and Komilov Otabek Iqboljon o'g'li. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." Science Promotion 2.1 (2023): 28-34.

8. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Babayeva Azizabonu Hamidjonovna, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "TEACHING SPEECH FORMATION TO PRESCHOOL-AGE DYSARTIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 52-55.

9. Azizabonu, Babayeva, and Kabirova Zarnigor. "METHODOLOGY FOR CHECKING THE SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 40-43.

10. Makhmudov, Khurshidjon, and Khovodillayev Murodjon. "THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 44-47.

11. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Havodullayev Murodjon, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "ORIGIN OF DYSLALIA AND WAYS OF ITS ELIMINATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 48-51.

12. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, and Babayeva Azizabonu Hamidjonovna. "USE OF WORD FORMATION MODELS IN DYSARTHRIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 61-64.

13. Murodjon, Khovodillayev, and Kabirova Zarnigor Rakhmonjonovna. "TECHNOLOGIES OF SPEECH FORMATION IN MENTALLY DEAD CHILDREN 9-13 YEARS OLD." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 56-60.

14. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 547-552.

15. Muradkhan, Khovadillayev. "DEVELOPMENT OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 343-347.

15. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 547-552.

16. Muradkhan, Khovadillayev. "DEVELOPMENT OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 343-347.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Maxkamova Masturaxon Baxromjon qizi,
Qo’qon universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy jarayonlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda o‘qituvchining roliga aloxida urg‘u beriladi. Maqolada muallifning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy nuqsonlarini bartaraf etishga oid ilmiy qarashlari aks etgan. Nutq madaniyati va texnikasini ushbu yoshdagi o‘quvchilarda rivojlantirishga doir mualliflik tavsiyalari berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf oquvchisi, nutq, nutqiy buzilish, nutq madaniyati, nutq texnikasini rivojlantirish.*

Yoshlar ta‘lim-tarbiyasi tamal toshi bolalik davrlarida mustaxkam tarzda qo‘yilmog‘i lozim. Bolanihg xar tomonlama rivojlanishi va kamol topishida boshlang‘ich sinf davrida tashkil etilgan ta‘lim va tarbiya jarayonining roli aloxida ahamiyatlidir. Aynisa bu davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish jarayonlari va nutqiy xususiyatlari jadallashgan palla sifatida namoyon bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda nutq taraqqiyoti ko‘p jixatdan uning atrofidagi olam bilan va tashkil etilgan o‘quv va tarbiya jarayonlarining sifati bilan bog‘liqlik kasb etadi.

Bolalar maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo‘lgan bo‘lsa, endi maktab o‘qituvchisi, sinf rahbari bilan muloqotda bo‘ladi. Bolalarda bu davrda mas‘uliyat hissi shakllanadi.

Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi o‘z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o‘z nutqida 500 – 600 so‘zni ishlatsa, olti yoshli bola 3000 – 7000 so‘zni ishlatadi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe’l, sifat, son va bog‘lovchilardan iborat bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar o‘z nutqlarida qaysi so‘zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6 – 7 yoshli bola o‘z jumlalarini murakkab gramatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab boradilar va nutqni o‘zlashtirish ma’lum bir faoliyatga aylana boradi. 7 – 9 yoshli bolalarning o‘ziga hos yana bir xususiyati bola nutqida o‘z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o‘z suhbatdoshining diqqatini o‘ziga jalb qilishini ham biladilar.

Bola maktabgacha yoshda o‘ylamasdan gapiradi, maktabda esa u gaplashayotgan til o‘qitiladigan va o‘rganiladigan ilm bo‘lib qoladi. Maktabda o‘qitilayotgan hamma fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchi nutqining lug‘ati boyiydi, so‘zlarning mazmuni uning uchun chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o‘sishida muhim bosqich bo‘ladi. Bola o‘z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O‘quvchi o‘qituvchining topshirig‘iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o‘zining shu ishiga o‘z fikrining qanday til bilan bayon qilayotganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O‘quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o‘ziga o‘zi gapirib berishni mashq qilib turishi nutqining o‘sishiga katta ta‘sir qiladi.

Bolalar nutqining o‘sishida o‘qituvchining nutqi katta rol o‘ynaydi, chunki uning nutqi o‘quvchilar uchun namuna hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalar uchun eng avvalo faol ishlatiladigan so‘zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o‘qish va yozishni o‘zlashtirish o‘quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlami bir-biriga qo‘shish orqali so‘z tuzish malakasini egallab olgach, ba‘zida matn mazmunini noto‘g‘ri tushunadilar. Unga o‘quvchilarning so‘z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo‘ladi. Shu munosabat bilan o‘qituvchi oldida bolalarda lug‘at boyligini oshirish va uiami o‘qigan narsalari

yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o‘rgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va so‘zlami yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola butun e‘tiborini yozish texnikasiga va o‘tirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning og‘zaki nutqi orqali belgilanadi, ya‘ni u so‘zni qanday talaffuz etsa shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqarib aytish bo‘yicha muntazam mashqlar o‘tkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishida katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydalanilmaydi. Shu bois bolalarning yozma nutqlari ulaming og‘zaki nutqiga qaraganda ancha bo‘sh bo‘ladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi ta‘sirida o‘sadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish bilan birga nutq madaniyatini ham o‘rgatib borishlari zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishda eng asosiy namuna obekti bu o‘qituvchidir. O‘qituvchining nutqi bolalar tomonidan xar tomonlama o‘zlashtirildi. Shuning uchun o‘qituvchi nutq qoidalariga va chiroyli gapirish madaniyatiga ega bo‘lishi, o‘z nutqida madaniyatning nutqiy shaklini nomoyon eta olishi zarur. O‘qituvchi shaxsininng nutqiy malakasi bilan birga bolalarning nutq malakasini va madaniyatini shakllantirish malakasi xam bo‘lishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish asosida quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- so‘zlashuv jarayonida so‘zni to‘gri qo‘llashni tashkil etish;
- adbiy tilda suxbat qurishni yo‘lga qo‘yish;
- so‘zlarning sinonimlaridan foydalanishni tashkil etish;
- ko‘ch so‘zlaridan foydalanmaslikni targ‘ib qilish;
- kitob o‘qishni targ‘ib etish.


Yuqoridagi bu tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nafaqat nutq madaniyatini balki psixikasi va xulqiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Boshlangich sinf o‘quvchilarining nutq texnikasini shakllantirish jarayoni ham uning psixik xolati bilan aloqador jarayondir. Bu yoshdagi bolalarda nutqiy buzilishlar xodisasi tez-tez uchrab turadi. Masalan:

- tez shoshib gapirish;
- noto‘g‘ri nafas olish;
- nutqda duduqlanish;
- so‘zlarni chalkashtirib yuborish.

Bu nutqiy buzilishlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida asosan ikki sabab, fiziologik va psixologik ta‘sit natijasida vujudga keladi.

Boshlang‘ich sinf yoshdagi o‘quvchilarda nutqiy buzilishlarning sabablarida biri bu uning ovoz imkoniyatlarini nomoyon etuvchi fiziologik xususiyatdir. Bolada to‘liq shakllanmagan ma‘lum bir defektga ega bo‘lgan og‘iz aparati uning ravon gapirishiga monelik qiladi. Bu xolatda o‘qituvchi maxsus mutaxasisga murojat etish orqali bola imkoniyatlarini o‘rganadi. O‘quvchida fiziologik nuqson bo‘lgan taqdirda u doimiy nutqiy buzilishlarga sabab bo‘ladi.



Nutqiy talaffuzdagi kamchiliklarning psixologik xodisa sifatida namoyon bo‘lishi asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fiziologik sog‘lom bo‘lsada shoshib gapirganda, kuchli hayajon, strestga tushganda sodir bo‘ladi. Bu xolat esa o‘qituvchining mahorati asosida bartaraf etilishi zarur. O‘qituvchi bolaga vazmin, shoshmasdan gapirish zarurligini uqtirishi zarur.

Nutqiy buzilishlarda xayajon, qo‘rquv, strest holatlari asosan avtoretar uslubli o‘qituvchi rahbarlik qilayotgan sinflarda ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchining o‘ta qattiqo‘l ekanligi o‘quvchilarda qo‘rquvni vujudga keltiradi natijada, bilgan narsasini han nutqda ifoda eta olmaydi, ko‘p kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. O‘qituvchi o‘quvchilarda psixik xodisa sifatida namoyon bo‘lgan nutqni anglagandan so‘ng o‘quvchi bilan ishlashda quyidagilarga amal qilishi zarur:

- bolaga xushmuomala bo‘lish;
- tortinchoq, uyatchan bolalarni ko‘proq savol-javob qilish orqali muhitga moslashtirish;
- strestga moyil bolalarga vazminlik asosida muomalada bo‘lish hamda qo‘rquvini yengishiga yordam berish;
- bolani maqtash, qo‘llab-quvatlash orqali uning psixikasiga ta‘sir ko‘rsatish;
- shoshilmasdan ifodali gapirishga mashqlantirish.

Xulosa qilib aytganda nutq bu xar bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan madaniyatini aks ettiruvchi murakkab jarayondir. Shunday ekan millatimiz ko‘zgusi bo‘lgan yosh avlodni go‘zal, jozibali, ta‘sirchan nutq egalari bo‘lishi eng dolzarb vazifadir. "Qobusnoma" muallifi Kaykovus hamma xunarlaridan so‘z xunari – notiqlikni a‘lo deb bilgan: "Bilgilni hamma xunardan so‘z xunari yaxshi" – deb bejiz ta‘riflamagan. Unutmaslik kerakki nutq bu ijtimoiy xodisadir. Demak xar bir insonning nutq madaniyati boshqa insonlar nutqini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Zufarova. “Bolalar psixologiyasining muammolari”. Toshkent. 2008-yil.
2. M.Maqsudova. “Muloqot psixologiyasi”. “Turon-iqbol”. Toshkent. 2006-yil.

STRESS – O’SMIRLIK DAVRIDA SHAXS SALOHIYATI SHAKILLANISHIGA SALBIY TA’SIR KO’RSATUVCHI OMIL SIFATIDA

G’aniyeva Nargiza Odiljonovna,
NamDU Psixologiya kafedrasi 2-bosqich tayanch doktoranti

> “Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”
>
> **Shavkat Mirziyoyev**

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo’lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan hulq-atvor va dunyoqarashga ega bo’lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’yekti va ob’yekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi sifatida ta’riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo’lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish intelektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo’nalishi bo’yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va ta’lim-tarbiya kerak bo’ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Bola shaxsini rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlari birgalikda ta’sir etadi va ularni bir-biridan ajratib bo’lmaydi. O’smirni kelajakda o’zining sog’lom va mustaqil fikriga ega bo’lgan yetuk salohiyatli shaxs sifatida tarbiyalash hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayonini dolzarb masalalaridan biri xisoblanadi.

O’smirlik davri psixologik adabiyotlarda “o’tish davri”, “inqiroz davri”, “og’ir davr” kabi nomlar bilan ataladi. Bu davrning “keskinligi”, “og’irligi”, “murakkabligi” nimalar bilan asoslanadi? G’.B.Shoumarovning fikricha, o’smirlik davrining og’ir, murakkab davr ekanligi ko’plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog’liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o’zgaradi. Bu davrda o’smir hayotida, ruhiyatida, organizmning fiziologik jarayonlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o’zgarishlar sodir bo’ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan turli xil holatlar kuzatiladi. O’smir bolaning jismoniy va psixik taraqqiyoti intensiv tarzda tezlashadi, atrof-muhitdagi barcha narsa va munosabatlarga qiziqishi, yangilik va axborotlarga intilishi ortadi, ma’naviy qarashlari kengayadi, individual xususiyatlari shakillanadi, xatti-harakatlarida ziddiyatlar avj oladi. Ya’ni o’smir rivojida keskin o’zgarishlar ro’y bera boshlaydi.

Mana shu o’zgarishlardan biri psixologik o’zgarishlardir. O’smir bola kattalar ta’sridan qutilishga (emansipatsiya), mustaqil bo’lishga va o’zini kattalardek tutishga harakat qiladi. Buni biz ularning layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini oila a’zolari, o’qituvchilari va do’stlariga ko’rsatishlariga urunishlarida ko’rishimiz mumkin. O’smir endi o’zini anglay boshlaydi va u o’zining yosh bola emasligini tushungan xolda o’z shaxsini ulug’lab, o’zini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakt qiladi. O’smir kattalarning erkinligini, dadil harakatlari va qiziqarli ishlarini, odamlar orasidagi obro’ va muvaffaqiyatlarini ko’radi hamda xavas qiladi. Natijada o’smirda katta yoshli odam bo’lishga yoki hech bo’lmaganda ulardek ko’rinishga qiziqish va o’zining ahamiyatga ega ekanini ko’rsatish uchun unda kuchli, qo’rqmas, epchil bo’lishga intilish paydo bo’ladi. Vaholanki, kimningdir xatti-harakatiga o’smir tomonidan imitatsiya (taqlid) qilish yuzaga keladi. Bir so’z bilan aytganda mana shu xolat va jarayonlarda o’smir shaxsiy saloxiyati rivojlanadi.

Biz bilamizki, o’smirlarni tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuning uchun ham o’smirlarga ta’lim-tarbiya berishda ularning xususiyatlarini to’la hisobga olish zarur.

O’smirlik davrida o’z vaqtida aniqlab, bartaraf etilmasa, shaxsning salohiyatiga jiddiy va salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hissiy holatlardan biri stressga moyillik yoki hissiy zo’riqishdir. Bu holatlar shaxsda o’ziga-o’zi beradigan bahoning yanada pasayib ketishiga, nevroz holatining vujudga kelishiga va hatto psixik buzilishlarga sabab bo’lishi ham mumkin. Afsuski, mana shunday vaqtda ota-onaning farzandini tushunmasligi, maktab pedagoglari va psixologi tomonidan bo’ladigan befarqliklar xatto suitsid holatini ham keltirib chiqarmoqda. Insonlar ko’pincha stress holatini xavf-xatar vaqtida, ba’zan biror nizoli vaziyatlarda, o’qish va ishda muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda, og’ir jismoniy va murakkab aqliy zo’riqishlarda boshdan kechiradilar. Shuning uchun o’smirlarning muammolari asosan tengqurlari va uni qurshab turgan jamoa muhitida o’z shaxsining ahamiyati, oldinda turgan kattalar hayot yo’nalishini tanlash, o’qish faoliyati bilan bog’liq xavotirlik, qo’rquv va boshqa hissiy zo’riqishlarga bog’liq holda namoyon bo’lishi mumkin.

Ko’pgina insonlar bolalikni qayg’usiz va baxtli davr deb hisoblaydilar, ammo hayotning bu bosqichi ham turli xil qayg’u va zo’riqishlardan xoli emas. Darhaqiqat bolalarning ko’p qismi notanish vaziyatlarga duch kelib qolganlarida ba’zi bir hissiy va xulq-atvorga xos og’ishlarni nomoyon qiladilar. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, o’smirlarning deyarli yarmi ko’pincha qo’rquv va stresslardan aziyat chekishadi. Maktab, sog’lik va shaxsiy xavfsizlik bilan bog’liq muammolar ularni hayajonga soluvchi mavzular hisoblanadi. O’smirlardagi psixologik

zo’riqishlar organizmning turli funksional tizimlaridagi o’zgarishlarda namoyon bo’lsa, uning jadalligi yoki kuchi kayfiyatning buzilishidan tortib oshqozon yarasi yoki yurak infarktiga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy rollardagi vazifalarga xos buzilishlar – o’smirlarda yaqinlar va do’stlar bilan munosabatga vaqtning yetishmasligi, nizolarning kuchayishi, muloqot davomida sezgirlikning pasayishi, ijtimoiy qoidalarga zid xulq-atvor belgilarining ko’rinishida namoyon bo’ladi. Uzoq muddat hissiy zo’riqishda bo’lgan o’smir ijtimoiy me’yor va standartlarga e’tiborsiz bo’lib qoladi. Hatto o’zining tashqi ko’rinishiga ham befarq bo’lishi mumkin.

O’smirlardagi stress va bezovtalik o’ziga adekvat baho bera olmaslik asosida yuzaga keladi. Ota-onalar tomonidan farzandining qilgan xato va kamchiliklariga urg’u berilishi, ko’p tanqid qilinishi stressga moyillikni kuchayishiga zamin yaratadi.

O’smirlardagi stress va hissiy zo’riqish holatlarini oldini olish hamda korreksiya qilish uchun maktab psixologining vazifalari:

- Bolalarning psixik taraqqiyoti, rivojlanishini muntazam kuzatib borish, salbiy buzilishlarning oldini olish, nuqsonlarni tuzatish va bartaraf etish chora tadbirlarini ko’rish.
- Xavotirlanish va bezovtalik darajasi yuqori, o’ziga baho berishi noadekvat, tajavvuzkorligi kuchli bo’lgan o’smirlar va ularning ota-onalari bilan psixokorreksion ishlar olib borish.
- Shaxslararo munosabatlarni faollashtirish, ziddiyat va nizoli holatlarning oldini olish, bartaraf etish, jamoada mo’tadil psixologik muhitni yaratish.
- O’smirlar uchun o’zini-o’zi tarbiyalash, hayot yo’lini tanlash, qiziqishi, layoqati, iqtidorini hisobga olib kasb-hunar tanlash va boshqa muammolar yuzasidan individual, guruhiy maslahatlar o’tkazish.
- Ijtimoiy – psixologik trening mashg’ulotlarini tashkil etish.
- Shaxsda o’z kuchi va imkoniyatiga ishonch hissini tarbiyalash.
- Mustaqil fikr yuritish malakalarini tarkib toptirish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kelajak yoshlar qo’lida ekan, o’zining sog’lom fikriga ega bo’lgan, o’z fikrini erkin bayon eta oladigan, o’z kuchiga ishongan salohiyatli insonni voyaga yetkazishda o’smirlik davri va bu davrda yuzaga keladigan psixologik muammolar, qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar, konfliktlar, inqirozlarni oldini olish hamda o’smirga ijobiy ta’sir etish, ulardagi shaxsiy salohiyatni to’g’ri taraqqiy etishiga salbiy ta’sir etuvchi psixologik sabablarini bilish va korreksiyalash muammoning yechimidan biri bo’la oladi. Amaliyotga joriy etishda esa maktab psixologining yordami ta’lim tizimida psixologik xizmatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Z.T.Nishanova, N.G’.Kamilova, D.U.Abdullayeva,M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya” Toshkent, 2019.

2. E.G’oziyev Ontogenez psixologiyasi. “NIF MISH” T., 2020.

3. Адлер А. Индивидуальная психология [Текст] А.Адлер // История зарубежной психологии / ред. П.Я.Гальперин, А.Н.Ждан. – М.: Изд-во МГУ, 1986. – С. 131 – 140.

4. Галажинский Э.В. Системная детерминация самореализации личности [Текст] / Э.В.Галажинский // Дисс. … доктора психол. наук. – Томск, 2012. – С. 320.

O’SMIRLIK DAVRIDAGI KASB TANLASH MUOMMASI

Daribaev Atabay Baxit o’g’li,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti Pedagogika psixologiya kafedrasi amaliy psixologiya yo’nalishi 1-kurs student

Annototsiya. *Ushbu maqolaning maqsadi o’smirlik davridagi kasb tanlashda boladigan muommalarini aniqlash hamda ularni bartaraf qilishda amaliyotshi psixologlarnin vaziyfasini hamda ahamiyatini o’rganish xisoblanadi*

Kalit so’zlar: *kasb, ta’lim, davr, o’smir.*

Annotation. *The purpose of this article is to identify the problems faced by adolescents in choosing a profession and to study the role and importance of practicing psychologists in solving them.*

Key words: *occupation, education, era, teenager.*

Аннотация. *Цель данной статьи – выявить проблемы, с которыми сталкиваются подростки при выборе профессии, и изучить роль и значение практикующих психологов в их решении.*

Ключевые слова: *род занятий, образование, эпоха, подросток.*

O’smirlik – bolalikdan kattalikka o’tish davri bo’lib, fiziologik va psixologik jihatidan o’ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O’smirlik balog’atga yetish davri bo’lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo’lishi bilan ham xarakterlanadi. Bola shu davrga kelib ko’pgina o’zgarishlardi boshdan keshirish bilan bir qatorda uning oldidan kelajakdagi kasbini tanlash muommasi ham keladi. V.A.Krutetskiy o’smirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi: a) Biror o’quv faniga qiziqish; b) vatanga foyda keltirish istagi (o`ziga xos psixologik xususiyatini hisobga olmagan holda); v) shaxsiy qobiliyatini ro’kach qilish; g) oilaviy an’analarga rioya etish (vorislik); d) do’stlari va o’rtoqlariga ergashish; e) ish joyi yoki o’quv yurtining uyiga yaqinligi; f) moddiy ta’minlanishining yaxshi ekani; g) o’quv yurti ko’rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi.

Shuningdek boshqa turdagi motivlar masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to’g`risidagi ma’lumoti, o`zining sihat salomatligi, asab tizimining va temperamentining xususiyati va hokazolar ham bo’lishi mumkin.

Ko’pgina o’smirlarda kasb tanlashida muommalar boladi. Ular gohida qaysi kasbni tanlash kerakligin bilmasligi, yoki yoqtirgan bir necha kasblar orasidan qaysi birini tanlash kerakligini bilmasligi, ota-onasining zorligi bilan tanlangan kasbni tanlashlari, yoki ummuman hech bir kasbga qiziqmasligi kuzatiladi. Bu esa bu davrning yana bir muommasi hisoblanadi.

Ta’lim tizimida faoliyat ko’rsatayotgan amaliyotchi psixologlar ishida o’quvchilarda qanday kasblarga moyilliklari mavjudligini aniqlash, ularni kasb-hunarga to’g’ri yo’naltirish, ular bilan kasb-hunarga oid maslahat ishlari olib borish eng muhim ahamiyatga ega bo’lgan masalalar qatoriga kiradi. Inson shaxsini rivojlanishining shu bosqichda to’g’ri yo’lni tanlay olishi, uning kelgusi hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buning uchun psixologik amaliyotda keng qo’llanilib, o’zining samaradorligi, foydalanish uchun qulayligi bilan xarakterlanib kelayotgan metodikalardan biri Ye.A.Klimov tomonidan taklif etilgan «Differentsial-diagnostik so’rovnoma» (DDS)dir. Bu so’rivnoma natiyjasiga ko’ra o’smirlarda har xil natijalar chiqishi mumkin. Masalan bolada ikki yoki unnan ko’p yo’nalishga moyillik, o’zi hohlamagan yonalishga moyilliklar ham kuzatilishi mumkin. Bunday hollarda amaliyotshi psixologlar bu bolalar bilan alohida suhbat o’tkazishlari, so’rovnomani qaytadan olishlari yoki boshqa qo‘shimcha metodlar olishlari mumkin.

Biz o‘ylaymizki amaliyotchi psixologlarimiz o’smirlarning kasb tanlashlariga tog’ri yo’l yo’riq berishlari kelajagimiz bo‘lgan yoshlarimizning o‘zlari qiziqqan kasb egasi bo‘lishlari hamda o’z kasbining yuqori kadri bolishlari ushin juda katta zamin yaratib beradi.

Refereneces

1. O’SPIRINLIK DAVRIDA KASB TANLASH MUAMMOLARI. Ne’matov Faxriddin Begmat o’g’li https://doi.org/10.5281/zenodo.7940145

2. SAGINDIKOVA N. RESPONSIBILITY AND ITS MANIFESTATION IN YOUTH PSYCHOLOGY.

3. Nargiza S. STUDENTS’SELF-CONFIDENCE AND MOTIVATION FEATURES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.2016. Т. 4. – №. 9.

4. Сагиндикова Н.Д.Ж. ОСОБЕННОСТИ САМОУВЕРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ // PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет. №. 2. С. 100 – 102.

5. Сагиндикова Н.Ж. К вопросу об ответственности студентов в учебной деятельности // Казанский педагогический журнал. 2014. №. 5 (106). – С. 155 – 162.

6. Сагиндикова Н. РАЗРАБОТКА СТРУКТУРНОЙ СТРУКТУРЫ ГЕНДЕРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА // Академические исследования в современной науке. 2023. Т. 2. – №. 24. – С. 169 – 174.

7. Сагиндикова Н. ПСИХОЛОГИЯДА “ЛОКУС ТЕКСЕРИЎ” КОНЦЕПЦИЯСЫНЫҢ ИЗЕРТЛЕНИЎИ Сагиндикова Н.Ж. // ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2016. – Т. 31. – №. 2. С. 58 – 60.

8. Сагиндикова Н.Д.Ж. ОСОБЕННОСТИ САМОУВЕРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ // PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет. №. 2. – С. 100 – 102.

9. Сагиндикова Н.Ж. Психологияда ижтимоий масъулиятнинг ўрганилиши // Современное образование (Узбекистан). 2017. №. 2. – С. 41 – 46. Сагиндикова Н.Ж. УУК: 370.153 ТАЛАБАЛАРДА МАСЪУЛИЯТ ХУСУСИЯТИНИНГ НАМОЁН БУЛИШИ //ХАБАРШЫСЫ. С. 58.

10. Sagindikova N.J. THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF GENDER RESPONSIBILITY // International Scientific and Current Research Conferences. 2023. С. 127 – 130.

11. Sagindikova N.J. FACTOR ANALYSIS OF GENDER CHARACTERISTICS OF STUDENTS’RESPONSIBILITY FOR LEARNING ACTIVITIES // Journal of Positive School Psychology. 2022. Т. 6. №. 2. С. 3388-3395.

12. Сагиндикова Н.Ж. Психологияда ижтимоий масъулиятнинг ўрганилиши // Современное образование (Узбекистан). 2017. №. 2. С. 41 – 46.

13. Sagindikova N. J. THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF GENDER RESPONSIBILITY//International Scientific and Current Research Conferences. 2023. – С. 127 – 130.

14. Сагиндикова Н. РАЗРАБОТКА СТРУКТУРНОЙ СТРУКТУРЫ ГЕНДЕРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ Личности ПЕДАГОГА // Академические исследования в современной науке. 2023. Т. 2. №. 24. – С. 169 – 174.

15. SAGINDIKOVA N. RESPONSIBILITY AND ITS MANIFESTATION IN YOUTH PSYCHOLOGY.

16. Daribaev A., Sagindikova N. HISTORY OF PSYCHOLOGY // Modern Science and Research.2024. Т. 3. №. 1. С. 1162 – 1166.

17. Venera M. Socio-Psychological Features of Relationships of Children and Their Parents // American Journal of Social and Humanitarian Research. 2022. Т. 3. №. 8. – С. 151 – 152.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA TRIZ TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

O‘rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi,
JDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativligini rivojlantirishda TRIZ texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati mazmuni yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *TRIZ texnologiyalari, ijodiy qobiliyatlar, tasavvurini rivojlantirish, kompyuter ta’lim jarayoni, ta'lim, tarbiya, bilish faoliyati, fan, shaxs, til, tafakkur, nutq, mantiqiy, ijodiy fikrlash, usul, og‘zaki usul, o`yin, ijodiy ish, kuzatish, suhbat.*

Аннотация. *В данной статье освещается важность использования цифровых технологий в развитии творчества дошкольников.*

Ключевые слова: *ТРИЗ-технологии, творческие способности, развитие воображения, компьютерный образовательный процесс, обучение, обучение, познавательная деятельность, наука, личность, язык, мышление, речь, логика, творческое мышление, метод, устный метод, игра, творчество, наблюдение, беседа.*

Annotation. *This article highlights the importance of using digital technologies in the development of creativity in preschoolers.*

Key words: *TRIZ-technologies, creativity, imagination development, computer educational process, learning, learning, cognitive activity, science, personality, language, thinking, speech, logic, creative thinking, method, oral method, game, creativity, observation, conversation.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga asosiy e’tibor qaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq yangi tizim yaratildi. Maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ni kengaytirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim - tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, manaviy-yetuk, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sifatini oshirish uchun pedagoglarning ijodiy salohiyatini faollashtirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, faoliyat jarayonlariga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish kerak. Bunday yangiliklardan biri TRIZ texnologiyalari elementlaridan foydalanish misol bo‘la oladi. (TRIZ – ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi). TRIZning asosiy g‘oyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: nazariyalar ijodiy muammolarni hal qilish uchun katalizator hisoblanadi; bilim ijodiy mehnat quroli, har kimga ijodiy qobiliyatlar berilgan (har kim ixtiro qilishi mumkin); ijodkorlik, har qanday faoliyat kabi, o‘rganish mumkin.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotida TRIZ texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, bir tomondan, moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektika, ikkinchi tomondan, qidiruv faolligi, yangilikka intilish, nutq va nutqni rivojlantirish kabi fikrlash fazilatlarini rivojlantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ bu asosiy dasturni o‘zgartirish uchun emas, balki uning samaradorligini oshirish uchun mo‘ljallangan jamoaviy o‘yinlar, tadbirlar tizimidir. Bu nazariyaning asoschisi G.S.Altshuller “aniq hisoblash, mantiq, sezgi birlashtirgan yangisini yaratishning boshqariladigan jarayonidir” – deb ta’kidlaydi [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishda TRIZdan foydalanish katta yoshdagi ixtirochi, yangi g‘oyalar generatoriga aylangan bolalardan haqiqiy ixtirochilarni yetishtirishga imkon beradi. Shuningdek, TRIZ texnologiyasi boshqalarning muvaffaqiyatidan quvonish, yordam berish istagi, qiyin vaziyatdan chiqish yo‘lini topish istagi kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi. TRIZ texnologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi o‘rtasidagi asosiy farq bolalarga mustaqil ravishda savollarga javob topish, muammolarni hal qilish, tahlil qilish va kattalarning aytganlarini takrorlamaslik imkoniyatini berishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaga nisbatan TRIZ konsepsiyasining boshlang‘ich nuqtasi o‘qitishda tabiatga muvofiqlik tamoyilidir. Bolaga ta’lim berishda o‘qituvchi uning tabiatidan kelib chiqishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ – bu asosiy dasturni o‘zgartirish uchun emas, balki uning samaradorligini oshirish uchun mo‘ljallangan jamoaviy o‘yinlar va tadbirlar tizimi. TRIZ elementlari maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonini sifat jihatidan o‘zgartirishga imkon beradigan ta’sirchan potentsialni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O’zbekiston”, 2021 yil

2. O’zbekiston Resrublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O’RQ-637-son.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so’zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11.

4. G.S.Altshuller “Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi” 1940-yil 82-b.

KOMPLEKS GENDER YONDASHUVI GENDER TENGLIGIGA ERISHISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA

Toshxo‘jayeva Nodirabegim Sotiboldi qizi,
NamDUPedagogika-psixologiya yo’nalishi 3- kurs talabasi

Mamlakatimizda keyingiyillarda xotin-qizlar mavqeini oshirish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ma'lumki, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangan edi. Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, qonunning 1moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. To'g'ri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir.

Xususan, 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilinib, uni 2021 – 2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturning 1-bandida “gender audit” tushunchasini va uni o‘tkazish

tartibini belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish belgilangan. Shundan kelib chiqib “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Qonunchilik palatasiga kiritildi. [3]

Mazkur qonun loyihasi 4 ta moddadan iborat bo‘lib, unda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunga “gender audit” va “kompleks gender yondashuv”ni gender tenglikni ta’minlashning yangi mexanizmlari sifatida kiritish taklif etilmoqda. Shuningdek, “gender auditning vazifalari” va “gender auditni o‘tkazish tartibi” maxsus moddalarda belgilanmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” nomi “Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi” nomiga o‘zgartirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida muhokama qilinayotgan edi. Parlament quyi palatasining yaqinda bo‘lib o‘tgan majlisida qonun loyihasini moddama-modda muhokama qilish davomida ayrim normalar bo‘yicha asosli savollar ko‘tarilib, e’tirozlar bildirilgan edi. Xalq vakillarining fikr va takliflari inobatga olinib, qonun loyihasi mas’ul qo‘mitaga qaytarilgan edi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bo‘lib o‘tgan majlisida mazkur qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda yana qayta ko‘rib chiqilib, deputatlarning taklif va tavsiyalari asosida takomillashtirilgani qayd etildi. Qonun loyihasi bilan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunga “gender audit” va “kompleks gender yondashuv” gender tenglikni ta’minlashning yangi mexanizmlari sifatida kiritilmoqda. Shuningdek, gender auditning vazifalari va gender auditni o‘tkazish tartibi belgilandi. “O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” nomi “Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi” nomiga o‘zgartirildi. Ushbu komissiyaga davlat organlari va boshqa tashkilotlarda gender auditni o‘tkazish uslubiyotini belgilash, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning gender audit sohasidagi faoliyatiga uslubiy rahbarlikni amalga oshirish, gender audit natijalari to‘g‘risidagi hisobotni ko‘rib chiqish va ular bo‘yicha tavsiyalar berish kabi vakolatlar berildi.[3]

2019-yil 1-maydan e’tiboran quyidagilar belgilangan:

- ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo‘llash bo‘yicha taqiqlar bekor qilindi;
- tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan soha yoki kasblar ro‘yxati tasdiqlandi;
- bola parvarishlash ta’tilining kamida 3 oyi ota tomonidan foydalanilgan taqdirda, ota yoki onadan biriga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 405-moddasi tartibida qo‘shimcha bir oy nafaqa to‘lanadigan bola parvarishlash ta’tili beriladi;
- 2 yoshga to‘lmagan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi beriladi;
- ayollarning pensiya yoshiga to‘lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to‘lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish taqiqlandi;
- erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog‘liq ishlarning sudlarda ko‘rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko‘ra davlat hisobidan qoplanadi.[1]

Mahallalarda ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish ishlarini kompleks tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga «oilabay» yondashuv tizimini joriy etish, ko‘rsatilayotgan

ijtimoiy xizmatlarning soni va sifatini oshirish, bunga javobgar bo‘lgan vazirlik va idoralarning mas’uliyatini kuchaytirish hamda xotin-qizlarni kasbga o‘qitish tizimini yanada jadallashtirish maqsadida 2022-yil 1-iyuldan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi Mahallalarda kompleks yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish tizimi bosqichma-bosqich joriy qilindi.[2]

Gender strategiyasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilganyuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyoti kengaytiriladi;

- siyosiy partiyalarni rag‘batlantirish orqali xotin-qizlar saylov jarayonlariga keng jalb qilinadi;
- aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlar, shuningdek ular uchun munosib ish o‘rinlari yaratiladi, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan, ayniqsa qishloq joylardagi oilalar ish bilan ta’minlanadi, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligi oshiriladi, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ko‘lami kengayadi;
- xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish tizimi takomillashtiriladi, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan salbiy qarashlar darajasi kamaytiriladi;
- xotin-qizlar va erkaklar uchun mehnat faoliyatini, jamiyat hayotida ishtirok etishni oilaviy majburiyatlar bilan birga olib borish uchun zarur sharoitlar yaratiladi;
- mehnat migrantlari bo‘lgan xotin-qizlar va erkaklarning huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimi rivojlantiriladi, ularning huquqiy savodxonligi yuksaltiriladi;
- jamiyatda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, farzandlarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishda xotin-qizlar va erkaklarning mas’uliyati hamda roli oshiriladi;
- oilaviy ajrimlarning oldini olish, bu kabi salbiy holatlarda xotin-qizlar, erkaklar hamda bolalarning huquqlarini ta’minlash mexanizmlari rivojlantiriladi;
- xotin-qizlar va erkaklarning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyati oshiriladi, zarur axborot va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi;
- hududlarda, ayniqsa qishloq joylarida xotin-qizlar va erkaklarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifati yaxshilanadi, ijtimoiy ahamiyatli va yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi takomillashtiriladi;
- xotin-qizlarning ehtiyoji yuqori bo‘lgan sohalarda mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalari tashkil etiladi;
- maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, tibbiyot hamda erkaklar ulushi kam bo‘lgan boshqa sohalarga erkaklar jalb qilinadi;
- ochiq va shaffof budjet siyosatini amalga oshirish orqali xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, xotin-qizlar va erkaklarga manzilli davlat xizmatlari ko‘rsatish, ularning sifati va samaradorligini oshirish choralari ko‘riladi;[3]

“Genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi;vazirlik va idoralarning gender nuqtai nazaridan rejalashtirish va budjetlashtirish bo‘yicha salohiyati oshiriladi, budjet masalalariga doir barcha normativ-huquqiy va boshqa tusdagi hujjatlar loyihalari majburiy tartibda gender ekspertizasidan o‘tkazish amaliyoti joriy etiladi.[5]

Xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqli bo'lish bilan bir qatorda siyosatda o'zlarini ko'rsatish imkoniyatlariga ega bo'lishdi. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar ro`yxati

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi “Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko`rsatish va ijtimoiy ximoyaga muxtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko`tarish hamda xotin qizlarni kasbga o`rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to`grisidagi’’ qarori

3. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O`zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida’’ qarori

4. https://yuz.uz/uz/news/

O‘QUVCHILARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Usmonova Yulduzxon Baxtiyor qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti
Namangan filliali 2-kurs magistranti

Annatatsiya. *Maqolada o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish yo‘llari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Muammoli ta’lim orqali o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish yo‘llari qiyosiy tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish muhokama qilindi.*

Kalit so'z: *ijodkorlik, ijodiy fikrlash, tafakkur, pedagogika, intuitiv protsedura, rivojlantirish, ijodiy qobiliyat, bolalar, boshlang‘ich maktab.*

Аннотация. *В статье научно исследованы способы развития творческого мышления у студентов. Сравнительно проанализированы пути формирования творческой активности студентов посредством проблемного обучения. Обсуждалось целенаправленное развитие творческих способностей учащихся начальных классов.*

Ключевые слова: *творчество, творческое мышление, мышление, педагогика, интуитивная процедура, развитие, творческие способности, дети, начальная школа.*

Abstract. *The article scientifically studies the ways of developing creative thinking in students. Ways of forming students' creative activity through problem-based education were comparatively analyzed. Purposeful development of creative abilities of primary school students was discussed.*

Key words: *creativity, creative thinking, thinking, pedagogy, intuitive procedure, development, creative ability, children, primary school.*

Maktablarda shaxsning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga juda kam e'tibor berilmoqda. Umumta'lim dasturida kichik maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan, ammo hozirgi paytda san'at bilan bog'liq o'rta maktab fanlari deyarli yo'q. Agar xohlasa, bolalar ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari, turli guruhlarga va bo'limlarga tashrif buyurishlari mumkin. Ammo, qo'shimcha qilib, agar ota-onalar bolani rivojlantirishda faol ishtirok etmasalar, qo'shimcha darslarga borish istagi kamdan-kam hollarda paydo bo'ladi.

Kichik maktab davri 6 – 7 yoshdan boshlanib to 9 – 10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola u maktab o’quvchilariga qo`yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o’rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o’tkirligi, ravshvnligi, sofligi, aniqligi, o’zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta`limiga tayyorlanyotgan bolada diqqat nisbatan o’zroq muddatli va shartli barqaror bo’ladi. Bolalarning

ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha yoshda bo'lishni boshlashi kerak. Odatda, maktabda bunga e'tibor berilmaydi, agar bola dastlab mashg'ul bo'lmaganda edi, kelajakda o'quvchiga qiziqish va qiziqish topish qiyin. Maktabda o'qiyotgan bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bu yoshdagi ehtiyojlarni tushunish muhimdir. Birinchidan, bu ota-onani maqtash orzusi, yoki sevimli o'qituvchidir. Ushbu istak ijodiy faoliyat uchun motivatsiya sifatida ishlatilishi mumkin. Lekin faoliyatni o'zi tanlab olish bolaning manfaatlariga va shaxsiy xususiyatlariga bog'liq. Kichik sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bolalarning keyingi o'zini o'zi anglashida muhim ahamiyatga ega. Maktablarda sub'ektlar taqdim etiladi, ularning maqsadi bolani turli xil ijodkorlik turlariga kiritishdir. Ota-onalar qaysi ob'ektni bolalarning qiziqishini keltirib chiqarishi kerak. Yoshlar maktab o'quvchilarining badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish chizmachilik sinfida bo'lib o'tadi, bolalar musiqiy qobiliyatlari musiqa va qo'shiq kurslarida namoyon bo'ladi, bolalar darsliklari esa dekorativ va amaliy san'at turlari bilan tanishadilar. Biroq, maktab dasturi san'at sohalarini chuqur o'rganishni nazarda tutmaydi, shuning uchun agar u qandaydir faoliyatga qiziqish bildirsa, uyda, davradagi yoki kurslarda qo'shimcha darslar talab etiladi. Ota-onalar va o'qituvchilar qiziqish uyg'otadigan va rivojlanishga ko'maklashadigan bo'lsa, maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlari tez va oson rivojlanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o’qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o’rni nihoyatda katta. Bola o’quv faoliyatida o’qituvchi raxbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an`analar asosida harakat qilishni o`rganadi. O’quv faoliyatida bola o’z irodasini o’quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O’quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan xolda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi.Birinchi bor maktabga kelgan bola o’z atrofidagilar bilan psixologik jixatdan yangi munosabat tizimiga o`tadi. U o’zining hayoti tubdan o’zgarganini, unga yangi majburiyatlar nafaqat har kuni maktabga borish, balki o’quv faoliyati talablariga bo`ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a`zolarining bola o’quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi shakllaridagi muomala munosabat uning ijtimoiy mavqei o’zgarganligini to’la his etishiga, o’ziga nisbatan munosabatining o’zgarishiga asos bo’ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o’z vaqtlarini to’g’ri taqsimlash borasida yaxshi o’qish, o`ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug’ullanishga o’rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashishadigan, maslahatlashishadigan yangi bir o’rinni egallaydi. O’quvchining maktabdagi muvafaqqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to’liq ijobiy asos bo’ladi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o’rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilar unga yosh boladek emas. Balki o’z vazifalari, majburiyatlari bor bo’lgan, o’z faoliyat natijasiga ko’ra hurmatga sazovor bo’lishi mumkin bo’lgan alohida shaxs deb munosabatda bo’ladilar. Buning natijasida bolaning o’z-o’zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o’z o’rnini anglay boshlaganini ko’rish mumkin. Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so`ralgan. Va bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo’lgan idishlarda ko’rganlaridan so’nggina o’z javoblari noto’g’riligni bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizishda, shuningdek ertak va hikoyalar to’qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo’ladi. Ayrim o’quvchilar asosan real borliqni tasavvur etsalar boshqalari fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shunga bog’liq kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko’pincha o’zlariga ma`lum obrazlar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar asosida ularning qo’rquvni yengish, do’st topish, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo’lishi mumkin.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar badiiy ijod qilishni juda yaxshi ko‘radilar. Bu bolaga o‘z shaxsiyatini eng to‘liq erkin shaklda ochib berishga imkon beradi. Barcha badiiy

faoliyat faol tasavvurga, ijodiy fikrlashga asoslanadi. Ushbu funktsiyalar bolaga dunyoning yangi, g‘ayrioddiy ko‘rinishini beradi. Ular tafakkurni, xotirani rivojlantirishga hissa qo‘shadi, uning individual hayotiy tajribasini boyitadi, bu esa tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Kichik maktab yoshi – bu bolaning hayotidagi muhim o‘zgarishlar davri, bu maktabga qabul qilish paytiga qarab belgilanadi, bu taxminan 6 – 7 yoshdan 9 – 10 yoshgacha bo‘lgan davr. Ushbu davrda bolaning jismoniy va psixofiziologik rivojlanishi sodir bo‘lib, tizimli ravishda o‘rganish imkoniyatini beradi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish samaradorligi, asosan, vazifa tuzilgan materialga bog‘liq. Boshlang‘ich sinf darsliklarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ulardagi ijodiy vazifalar asosan “shartli ijodiy” bilan bog‘liq bo‘lib, uning mahsuli insholar, bayonotlar, rasmlar, hunarmandchilik va h.k. Ba’zi vazifalar talabalarning intuitivligini rivojlantirishga qaratilgan; bir nechta javob variantlarini topish, qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni talab qiladigan ijodiy topshiriqlar maktablarda qo‘llaniladigan dasturlarning hech biri tomonidan taqdim etilmaydi. Taklif etilayotgan vazifalar kichik o‘quvchilarning ijodiy faoliyatida intuitiv protseduralarga asoslangan usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi (masalan, variantlarni sanash usuli, morfologik tahlil, o‘xshashlik va boshqalar). Modellashtirish, resursga yondoshish, xayol qilishning ba’zi usullari faol qo‘llaniladi. Ammo dasturlarda ushbu usullardan foydalangan holda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish ko‘zda tutilmagan.

Ayni paytda, maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchunevristik usullardan foydalanish ijodkorlikning algoritmik usullaridan foydalanish bilan birlashtirilishi kerak. Adabiyotni tahlil qilish asosida (G.S.Altshuller, V.A.Buxvalov, A.A.Gin, M.A.Danilov, A.M.Matyushkin va boshqalar) ijodiy vazifalarga qo‘yiladigan quyidagi talablarni ajratish mumkin:

– Ochiqlik (muammoli vaziyat yoki ziddiyatning mazmuni);

– Shartning tanlangan ijod usullariga muvofiqligi;

– Turli xil echimlarni topish imkoniyati;

– Hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda;

– Talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Ijodiy vazifalar tizimi uchun tarkibni tanlashda ikkita omil hisobga olindi:

1. Kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyati asosan jamiyat tomonidan hal qilingan muammolar bo‘yicha amalga oshiriladi,

2. Boshlang‘ich maktab predmetlari mazmunining ijodiy imkoniyatlari.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari quyidagilardir:

– Faoliyatning mohiyatini o‘zgartirish;

– Bolalarning ta’lim faoliyatida xayrixohlik muhiti;

– Jamoaning shakllanishi.

Badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil qilishda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir strategiyasini tanlash muhimligini esga olish lozim. Amalda, tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, o‘zaro ta’sir strategiyasini tanlashda odatda ikkita usul qo‘llaniladi:

- tashqi tomondan rivojlanish, shaxsning ichki dunyosiga aralashish sifatida, unga ishlab chiqilgan usullar, faoliyat normalari va xatti-harakatlarini yuklash;

- faollik, mustaqillik, mas’uliyatni rag‘batlantirish, shaxsga hurmat ko‘rsatish, unga xos bo‘lgan imkoniyatlarni ochib berish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish kabi ichki tomondan rivojlanish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi. Zero, 1 – 4 sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni noan’anaviy tarzda

o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G’oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1 – 2 kitob.
2. Югай А.Х. Мираширова Н.А. “Общая психология” Тошкент, 2014.
3. Дружинина В. “Психология”. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002. – 383 с.
5. Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan.
6. S.K.Mangal: “General Psychology” 2013 y.
7. D.B.Sharapova. “QOBILIYAT RIVOJLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR” Scientific Impulse, 2022
8. Alieva E.G. Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari // Ta’lim faoliyatini psixologik tahlil qilish M.: IPRAN. 1991.
9. Ponomarev Ya.A. Ijodiy fikrlash psixologiyasi. – M., 1960.
10. Vygotskiy L.S. Ta’lim psixologiyasi // Psixologiya: klassik asarlar. № 3. – M., 1996.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДЕРЕВЯННЫХ ИГРУШЕК ДЛЯ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА ОТ 1 ДО 3 ЛЕТ

Рафикова Рената Анатольевна,
Преподаватель кафедры Методика преподавания
педагогических и психологических наук
Наманганского государственного педагогического института
natalistratilat2089@gmail.com
Адашева Сабохат,
Студентка 1 курса Педагогического факультета
Направления Дошкольное образование
Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. *В статье раскрывается понятие игрушка и деревянные игрушки, что такое дерево и в чём польза игрушек из него. Анализируются плюсы и минусы использования деревянных игрушек. Рассматривается польза деревянных игрушек для детей 1 – 3 лет, использование деревянных игрушек в дошкольных учреждениях.*

Ключевые слова: *дерево, игрушка, преимущества, польза, деревянные, использование, ранний возраст.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'yinchq nima, yog'och nima va qanday foydasi borligi,yog'och oyinchoqlarni ijobiy va salbiy tomonlari, 1 – 3 yoshli bolalar uchun yog'och o'yinchqlarning foydalari, maktabgacha ta'lim muassasalarida yog'och oyinchoqlardan foydalanish haqida aniq ma'lumotlar ochib berilgan*

Kalit so'zlar: *daraxt,yog'och, afzalliklari, yog'och o'yinchqlardan foydalanish.*

Дерево – самый экологически чистый материал, известный миру с давних времен. Теплая и приятная на ощупь древесина сохраняет в себе тепло самой природы, а игрушки, сделанные из нее, становятся в руках ребенка отличным инструментом для эстетического, умственного и физического развития. Игрушки необходимы для развития логики, чувств и навыков ребёнка. Во всем мире деревянные игрушки считаются экологически чистыми и безопасными.

Деревянные игрушки всегда ценились родителями и не только как дань прошлому. В первую очередь, дерево экологичный материал, не вызывающий аллергии и токсического отравления у ребенка. Во-вторых, такой подарок помогает малышу познавать окружающий внешний мир и быть ближе к природе. В настоящие дни актуальность деревянной игрушки вполне оправдана, она помогает развить моторику, мышление, тактильные ощущения ребенка.

Рассмотрим важность традиционных деревянных игрушек. Всем известно, что дерево дарит умиротворение. Есть даже такие народные приметы – «подержаться за дерево в лесу, чтобы получить от него силу и состояние спокойствия». Ребенок, играя, в деревянные игрушки «подзаряжается» теплом дерева.

Деревянные игрушки очень приятны на ощупь, они более гладкие и теплые. Соответственно деревянные игрушки очень положительно влияют на развитие мелкой моторики и сенсорного восприятия ребенка.

Как правило, деревянные игрушки не перегружены огромным количеством функций, что так свойственно для современным пластиковым игрушкам. Деревянная игрушка оставляет место для творчества, фантазии ребенка. Стимулирует активные действия ребенка, побуждает его исследовать.

Деревянные игрушки – это уже история нашего народа. Такие игрушки не дают традициям исчезнуть. Формируют причастность к культуре.

Деревянные игрушки являются более стойкими к ударам, чем другие игрушки. Некоторые дети постоянно ломают свои игрушки. Поскольку деревянные игрушки не могут быть легко повреждены, они живут гораздо дольше.

Деревянные игрушки очень красивы. Чаще всего деревянные игрушки изготавливаются вручную, а это значит, что их можно рассматривать и как произведение искусства! Это и можно считать их плюсом.

На наш взгляд минусами деревянных игрушек являются следующие положения:

1. Деревянные игрушки стоят дороже пластмассовых, правда, сложно сказать, является ли это минусом, ведь в данном случае цена обусловлена более высоким качеством и более сложной технологией производства.

2. Деревянные игрушки не подходят для длительного нахождения в воде. Поэтому после ополаскивания потребуется тщательная просушка.

3. Деревянные игрушки могут быть покрашены не безопасными (по содержанию химических элементов или по качеству покраски) для детей краской или лаком. Поэтому лучше приобретать игрушки, не имеющие химических покрытий. Натуральная текстура и «теплый» цвет древесины в разы приятнее для восприятия и развития тактильных ощущений вашего малыша

Во все времена развития человечества игрушка – это предмет, который позволяет ребенку удовлетворить познавательные потребности, войти в мир людей, человеческих отношений, природы, науки, техники, культуры. Игра и игрушка, по мнению ученых, – важнейшие составляющие любой культуры. Игрушка считается неизменным спутником ребенка с первых дней рождения.

Д.В.Менджерицкая считала, что игрушка должна воспитывать у детей интерес к труду, способствовать формированию пытливости, любознательности. Давая детям представления о людях разных профессий, разных национальностей, она в тоже время может помочь воспитанию чувства симпатии, уважения к ним. Игрушка во все исторические эпохи была связана с игрой – ведущей деятельностью, в которой формируется типичный облик ребенка: ум, физические и нравственные качества. Однако, конкретно-исторические условия каждой эпохи накладывают отпечаток на содержание игрушек и направленность игр.

Одна из первых отечественных классификаций принадлежит Е.А.Аркину. Он писал об изначальных игрушках и относил к ним:

а) звуковые игрушки – трещотки, жужжалки, бубенцы, погремушки и т.д.;

б) двигательные игрушки – волчок, мяч, змей, примитивные варианты бильбоке;

в) оружие – лук, стрелы, бумеранги;

г) образные игрушки – изображения животных, кукол;

д) веревочку, из которой делают различные, порой замысловатые фигуры.

Исследователь В.Б.Богданов выделяет два вида игрушек.

Игрушка бывает специально-игрушка, это все, что изготовляется для забавы и игры детей: а) самими детьми и б) взрослыми, применительно к детской психологии.

Среди игрушек самыми наилучшими и полезными для ребенка считаются деревянные игрушки. Такие игрушки учат ребенка рассуждать и концентрироваться, а также развивают навыки осмысливания, ведь в отличие от модных высокотехнологических игрушек, разработанных так, что они отвлекают и раздражают ребенка, оказывая на него сильное эмоциональное воздействие. У этих игрушек никогда не сядет батарейка и они бесшумны. Их сложно поломать и можно ронять сколько угодно, ведь они довольно прочные, и даже если ребенок наступит на них, от них не отвалится кусок. Они приятны на ощупь и перенимают температуру рук ребенка, отчего ему захочется проводить с ними больше времени.

В дошкольном возрасте игрушки из дерева развивают навыки взаимодействия. Поскольку игрушки беззвучны, они поощряют детей к взаимодействию, когда малыши начинают озвучивать процесс игры, выстраивая свою коммуникацию. Играя с такими игрушками, ребенок тренирует интеллект – будет более сообразительным и умным, становиться более любознательным и всесторонне развитым, что помогает ему познавать окружающий мир и адаптироваться в нем. Они помогают малышу научиться концентрировать внимание, тренируют память и воображение.

К деревянным игрушкам относятся бизиборды, лабиринты, пазлы, кубики, часы, животные, пирамидки, погремушки. К национальным узбекским деревянным игрушкам можем отнести деревянный волчок (раскручивали на льду), музыкальные игрушки, куклы, люльки для кукол и т.д.

Детям до 1 года рекомендуют простые крупные неокрашенные игрушки – кубики, сортеры и др. Чем меньше составных элементов (3 – 4 максимум), тем легче сконцентрировать внимание.

В возрасте от 1 года допускаются окрашенные изделия, развивающие мелкую моторику, ловкость. Ребенок учится манипулировать предметами, произносить первые слова и фразы.

В период от 2 до 3 лет количество элементов в конструкторах и паззлах увеличивается. Полезны игрушки на сравнение и классификацию по общему признаку, цвету, форме, текстуре.

От 3 до 5 лет ребенок больше знакомится с миром цифр и букв. Приветствуются предметы с алфавитом, циферблатом, счеты.

Среди полезных свойств для развития детей, можем перечислить следующее:

- **Развитие тактильных ощущений.** Гладкая фактура натурального дерева прекрасно подходит для детей. Такие игрушки не выскальзывают из рук, их удобно брать, изучать и приятно осязать.
- **Обучение цветам и формам.** Деревянные игрушки обычно окрашивают в приятные глазу оттенки, а в деревянных конструкторах и сортерах все элементы имеют правильную геометрическую форму. Все это помогает ребенку с ранних лет научиться отличать основные фигуры и цвета.
- **Развивают понимание природной красоты и гармонии.** Взаимодействуя с деревянной игрушкой, ребенок ощущает живое теплое дерево. Многие детали сохраняют натуральную фактуру, прожилки, кольца. Так ребенок учится понимать и любить природу, ее естественную красоту.
- **Развивают логику.** Конструкторы, сортеры, пирамидки, головоломки тренируют память, мышление и логику. Такие игрушки учат ребенка сравнивать предметы в поисках

какого-то одинакового признака. Кроме того, у деревянных игрушек нет никаких дополнительных механизмов, которые могли бы что-то озвучить или подсказать. Малышу приходится самостоятельно предполагать, что нужно делать с фигурками.

• **Развивают творческое мышление.** Деревянные игрушки дают простор фантазии, дарят возможность самостоятельно придумывать сценарии для игр и различные сюжеты.

Кроме того, доказано, что игрушки из дерева оказывают благотворное влияние на сон, дарят ощущение уюта, приводят в порядок нервную систему ребенка.

Вывод: Эти игрушки редко ломаются и при надлежащем уходе могут радовать ещё многие поколения детей. Их прочность также обеспечивает и безопасность игры, ведь, в отличие от пластмассы, которая может лопнуть или надломиться, поранив Вашего ребёнка, деревянные игрушки сохраняют свою целостность.

Игрушки из дерева развивают навыки взаимодействия. Поскольку игрушки беззвучны, они поощряют детей к взаимодействию, когда малыши начинают озвучивать процесс игры, выстраивая свою коммуникацию. В основном деревянные игрушки делают простыми, для того чтобы дети могли их использовать в разных играх. Это хорошо способствует развитию воображения и творческому потенциалу. Особенно важны такие игрушки для детей от 1 – 3 лет. Так как у них начинается развиваться мелкая маторика. А деревянные игрушки то что нужно для развития детей именно малых лет.

Использованная литература:

1. Буденная Я. "Развивающие игрушки из дерева".
2. Левенберг С.Я. "Технология игрушек из дерева".
3. Тарановская. Н.В. "Русская деревянная игрушка".
4. Тахтаджан А. "История деревянных игрушек".
5. Щедровицкий Г. "Система и структура дерева" Издательство "Наука" 1977.

РАЗВИТИЕ МЕЛКОЙ МОТОРИКИ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕЙ ГРУППЫ С ПРИМЕНЕНИЕМ МЕТОДИКИ МАРИИ МОНТЕССОРИ

Рафикова Рената Анатольевна,
Преподаватель кафедры Методика преподавания
педагогических и психологических наук
Наманганского государственного педагогического института
natalistratilat2089@gmail.com
Амиржонова Мохинур Акмалжон қизи,
Студентка 1 курса направления Дошкольное образование
Наманганского государственного педагогического института
mohinuramirjonova@gmail.com (33)-109-18-08

Аннотация. *Данный тезис посвящен анализу влияния методики Марии Монтессори на развитие мелкой моторики у детей младшей группы. Рассматриваются принципы системы воспитания детей дошкольного возраста в подходе М.Монтессори. Анализируется эффективность специально разработанных занятий по методики Марии Монтессори на формирование моторных навыков детей начиная с раннего возраста.*

Ключевые слова: *мелкая моторика, методика Марии Монтессори, принципы в подходе М.Монтессори.*

Мелкая моторика рук развивает познавательные способности у ребенка, считается делом интересным и полезным для выявления будущих способностей внутреннего мира ребенка. Занятия и игры способствуют развитию мелкой моторики и координации движений рук, стимулируют зрительное и слуховое восприятие, внимание, память,

связную речь и словарный запас. Развитие мелкой моторики ребенка, т.е. тонких движений кистей и пальцев рук, в психологии имеет большое значение и расценивается как один из показателей психического развития ребенка.

Развитие мелкой моторики рук начинается с раннего детства, когда родители направляют малыша, обеспечивая первое поступление информации в активный мозг, нуждающийся в впечатлениях. Важны и значимы не только первые годы жизни, однако ранний опыт и ранние впечатления, которые действительно закладывают основы развития личности.

Любые ежедневные задания и сложные задачи, с которыми родители помогают справляться маленькому ребенку, прямым образом влияют на то, сохранит ли он свою природную любознательность, сможет ли совершенствовать интеллектуальные способности, будет ли уверенно чувствовать себя в новых ситуациях. Первые несколько лет жизни – это возможность помочь стать ребенку тем, кем он может стать. Психологи считают, что мозг ребенка воспринимает любое внимание к нему. Внимание заставляет мозгу обрабатывать информацию, а значит развиваться.

Воспитание детей является трудным делом. Особенно трудно приучить ребенка одеваться самому, шнуровать обувь, приносить игрушки, застегивать пуговицы, чистить зубы и научить самостоятельно помыть руки. Для помощи детям в этих трудных задачах, итальянским педиатром Марией Монтессори была разработана уникальная система дошкольного воспитания. Главный принцип этого метода является идея самовоспитания малыша. Родителям и воспитателем нужно понять, что ребенку интересно, создать необходимые развивающие условия и объяснить, как можно получить знания.

Метод Марии Монтессори акцентирует внимание на самостоятельности и активном участии ребенка в своем обучении. В контексте развития моторики этот метод предлагает специально разработанные материалы и упражнения, которые способствуют развитию мелкой моторики и координации движений у детей.

Несколько ключевых принципов метода Марии Монтессори, относящихся к развитию моторики, включают:

1. *Использование специальных обучающих материалов*: Монтессори – материалы разработаны с учетом потребностей детской моторики и психического развития. Например, различные виды пазлов, конструкторы, различные формы и размеры для развития тонкой моторики.

2. *Фокус на самостоятельности*: дети в методе Монтессори могут самостоятельно выбирать материалы для занятий и определять темп и порядок выполнения упражнений. Это способствует большей мотивации и активности, что благоприятно влияет на развитие моторики.

3. *Признание уникальности каждого ребенка*: метод Монтессори учитывает индивидуальные особенности каждого ребенка и стимулирует их развитие в соответствии с собственными темпами и способностями.

Метод Монтессори ориентирован на создание стимулирующей среды для развития детей, в том числе и в области моторики. Используя специальные методики и материалы этого метода, можно помочь детям активно и эффективно развивать мелкую моторику. Для развития мелкой моторики рук, дети проводят время в сенсорной зоне, которая включает в себя предметы, отличающиеся формой, размерами, цветом и весом. Игры с подобными материалами (поролоновые мячи различного диаметра, набор крышек разного размера для баночек и бутылочек) развивают у детей моторику рук и пальцев, тактильные ощущения, а также психические процессы развивают память и внимание.

Таким образом, в результате проделанной аналитической работы, мы пришли к выводу, что развитие мелкой моторики и тактильного восприятия у детей, позволяет им овладеть навыками письма, рисования, ручного труда, что в будущем поможет избежать многих проблем школьного обучения, лучше адаптироваться в практической жизни, научиться понимать многие явления окружающего мира и что целенаправленная,

систематическая и планомерная работа по развитию мелкой моторики рук у детей дошкольного возраста во взаимодействии с родителями способствует формированию интеллектуальных способностей, а самое главное – способствует сохранению физического и психического здоровья ребенка.

Список литературы:

1. https://nsportal.ru/detskiy-sad/matematika/2019/07/28/ispolzovanie-metodiki-marii-montessori-dlya-razvitiya-melkoy
2. https://infourok.ru/proekt-na-temu-razvitie-melkoj-motoriki-detej-rannego-vozrasta-v-kontekste-sistemy-m-montessori-6253978.html
3. https://prioritet1.com/blog/razvivayushie-zanyatiya-s-detmi-po-metodike-marii-montessori

ЎСМИРЛАРДА ЎЗ-ЎЗИГА БАҲО БЕРИШНИНГ ЁЛҒИЗЛИК ҲИССИ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИРИ

Дарвишхожаев Хасан Абдулхакимович,
University of Business and Science нодавлат олий таълим муассасаси
“Педагогика ва психология” кафедраси магистранти

Аннотация. *Мақолада ўсмирлик даврида ёлғизлик ҳиссининг шаклланиши, ўсмирларда ўз-ўзига баҳо беришнинг ёлғизлик ҳисси шаклланишига таъсири, руҳий тушкунликка тушган ўсмирлар билан ишлашнинг психологик жиҳатлари ёритилган.*

Калит сўзлар: *ёлғизлик муаммоси, шахс ижтимоийлашуви, депрессия, шахс эгоцентризми, руҳий тушкунлик.*

Ёлғизлик муаммоси инсониятнинг энг жиддий муаммоларидан бири бўлиб, бунда инсон у ёки бу сабабларга кўра, ижтимоий муносабатларни ўрната олмайди. Инсон ўз муносабатларининг тўлақонли ва аҳамиятли эмаслигини ҳис қилганида, мулоқот эҳтиёжлари қондирилмаганда янада ўзини ёлғизроқ ҳис қила бошлайди. Ёлғизлик назарияларини фалсафий ва психологик таҳлил қилиш натижасида унинг объектив ва субъектив, ижобий ва салбий жиҳатларини фарқлаш мумкин. Ёлғизликнинг объектив томони ижтимоий муносабатлар ва фактлар билан боғлиқ.

Субъектив томони эса шахснинг хусусиятлари билан боғлиқ ҳолда намоён бўлишидир. Ёлғизликнинг ижобий (позитив) жиҳати унинг шахс ижтимоийлашуви ва индивидуаллиги шаклланишининг ажралмас қисми эканлигидадир. Ёлғизликнинг ижобий имконияти: ўзини-ўзи билиш, ўзини-ўзи бошқариш, ижод қилиш, ўзини-ўзи такомиллаштириш, психофизик ҳолатларини барқарорлаштириш, ташқи таъсирлардан ўз “Мен”ини муҳофаза қилиш каби вазифаларда намоён бўлади.

Ўсмирлик даврида ёлғизлик ҳиссининг пайдо бўлишига бир неча омиллар сабаб бўлиши мумкин. Ўсмир унинг ёлғизлигига сабаб бўлган вазият олдида ўзини ожиз ҳис қилса, руҳи тушиб кетади ва уни бартараф этиш учун ҳеч қандай қарорлар қабул қила олмайди ёки аксинча, ёлғизлигига сабаб бўлган вазиятни тўлиқ англаш уни қатъият билан ҳаракат қилишга ундайди.

Тадқиқотларда аниқланишича, ёлғизлик ўсмирнинг ўзига берадиган баҳосига боғлиқдир. Кўпчилик ўсмирларда ёлғизлик ҳисси ўзини паст баҳолаш, ҳеч нарсага яроқли эмаслиги, мослашувчан эмаслигини англаш билан боғлиқдир.

Ёлғизлик ҳисси нормал шахслараро муносабатларнинг индивидуал қабул қилинган стандартлари ўзгариш динамикасига боғлиқ тарзда кучайиши ёки сусайиши натижаси ҳамдир. Бундай стандартлар одатда субъектив типда бўлиб, аниқ тавсифларга эга бўлмасада, “мени кўпроқ дўстларим бўлсайди”, “ҳеч ким мени чин дилдан тушунмайди”

деган фикрларда яққол ифодаланади. Шу билан бирга мазкур стандартлар нисбий бўлиб, аввал дўстлари кўп бўлган ўсмирда мулоқот доираси салгина торайиши билан ёлғизлик ҳиссининг кучайишига, авваллари дўстлари кам бўлганларда эса ёлғизликнинг камайишига олиб келади.

Ёлғиз ўсмирлар кўп ҳолларда ўзларининг ёлғизлиги сабабини характердаги нуқсонлар, қобилият йўқлиги, унчалик жозибадор эмасликлари билан боғласалар, онгли иродавий назоратнинг етишмаслиги, муносабатларни тиклаш учун етарли даражада куч сарфламаслик, бунинг учун сарфланаётган воситаларнинг самарали эмаслиги омилига унчалик эътибор қаратмайдилар. Бу ўсмирларда кўп ҳолларда уятчанлик, муносабат ўрнатишга уринишларининг рад этилишидан қўрқиш, мазкур вазиятда ўзини қандай тутишни билмаслик каби сифатлари билан боғлиқдир.

Ўсмирларнинг ёлғизликка эътибор беришидаги асосий жиҳат тажовуз ёки депрессия билан боғлиқдир. Назоратнинг ички локусида кўп ҳолларда депрессия, ташқисида эса тажовузкорлик вужудга келади. Итоаткорликка бўлган юқори даражадаги мойиллик ёки душманликнинг намоён бўлиши ўсмирнинг одамлар орасидаги ёлғизлиги билан ижобий корреляцияга эга. Ёлғиз ўсмирлар кўп ҳолларда ўзларини ҳеч нарсага ярамайдиган, ҳеч ким яхши кўрмайдиган одам деб ҳисоблашади, бунинг натижасида уларда ўзини-ўзи танқид қилиш ҳисси кучаяди.

Ўзини паст баҳолаш билан ёлғизлик ўртасидаги ўзаро алоқани икки хил тарзда тушунтириш мумкин. Биринчидан, ўзига баҳо беришнинг пастлиги кишида ички ўзидан бегонасирашни вужудга келтиради; иккинчидан, ўзини паст баҳолаш ўсмирнинг хулқ-атвор тенденциялари ва установкаларининг шундай тизими билан боғлиқки, улар ўз навбатида шахслараро муносабатларни қийинлаштиради.

Ёлғизликнинг аффектив белгилари кўпинча ранг-баранг тарзда ифодаланади. Ўзини чуқур ёлғиз ҳис қиладиганлар жуда бахтсиздирлар. Аффектив кечинмаларнинг ўзи ёлғизлик каби ёқимсиз ҳисни ифодалаш учун етарли эмас. Ёлғизлик билан ассоциацияланувчи эмоциялар тўплами мавжуд эмас. Рубинстайн ва Шейверлар ёлғизлик билан боғлиқ эмоцияларнинг тўрт гуруҳини ажратиб кўрсатишган. Инсонлар негатив эмоцияларни ичдан кечирсалар ҳам, “нимадир кўнгилдагидек эмас”лигини англасалар ҳам ўзларини ёлғиз деб ташхис қўймасликлари мумкин. Унинг ўрнига депрессия, толиқиш ва жисмоний чарчоқ деб баҳолашади. Инсонлар одатда ёлгизликларини идентификациялаш учун хулқ-атворга хос бўлган хусусиятлардан фойдаланишади. Яккаланиш ёлғизлик билан боғлиқ бўлиши шарт эмас. Агар инсон доимо ёлғиз эканлигини ўйлаб, ўзини бахтсиз ҳис қилса, бу ҳолда ёлғизлик деб ташхис қўйиш мумкин. Агар инсонлар ўз ҳолати ҳақида когнитив изоҳларга эга бўлишмаса, ўзларини ёлғиз деб ҳисобламайдилар. Инсонлар ўзларининг ёлғизлик ҳолатини кечинмалар, хатти-ҳаракатлар ва фикрлар мажмуидан келиб чиққан ҳолда баҳолайдилар.

Ўзини-ўзи баҳолашнинг ёлғизликка таъсирини икки хил нуқтаи назардан изоҳлаш мумкин. Биринчи назарияга кўра, ёлғизликнинг сабаби ички ўзини-ўзи бегоналаштиришдир. Иккинчи нуқтаи назар тарафдорлари фикрича эса, қуйи даражадаги ўзини-ўзи баҳолаш билан боғлиқ хулқ-атвор йўл-йўриқ ва қадриятлари ижтимоий ўзаро таъсирнинг қониқарли бўлишини қийинлаштиради, натижада ёлғизлик ҳиссининг шаклланишига қулай шароит яратади.

Ёлғизликни ўрганишга қаратилган биринчи гуруҳ тадқиқотлар асосий эътиборни шахснинг ўз ҳолатини қандай идрок қилишига қаратишади. Роджерс ёлғизликни шахснинг ҳақиқий ички ҳис-туйғуларидан бегоналашуви деб таърифлайди. Бошқаларнинг ҳурмат-эътибори ва меҳр-муҳаббатига сазовор бўлиш учун шахс ўзини ташқи томондан намоён этади, натижада ўзидан бегоналашиш вужудга келади. Эддининг фаразига кўра эса, ёлғизлик ўзини-ўзи идрок қилишнинг учта жиҳати – шахснинг ўзини идрок қилиши (долзарб “Мен”), идеал “Мен” ва бошқалар уни қандай кўраётганлигини тасаввур қилиш (акс эттирилган “Мен”) ўртасидаги номутаносиблик билан боғлиқдир.

Ўзини паст баҳолаш қониқарли ижтимоий ўзаро муносабатларни ташкил этиш ва қўллаб-қувватлашга халақит берувчи фикрлар ҳамда хулқ-атвор йиғиндисидир. Ўзини-ўзи паст баҳоловчи кишилар учун ижтимоий ўзаро алоқалар камситувчи ҳолат деб интерпретация қилинади. Мулоқот жараёнидаги омадсизликни ички, ўзини айбловчи омиллар таъсирида рўй берди деб ўйлашади, уларни бошқалар ҳам кераксиз ҳисоблашади деган фикрга борадилар. Инсонларнинг ўзига ўзи берадиган баҳосини экспериментал тадқиқ этган мутахассисларнинг аниқлашича, ўзини паст баҳолайдиган кишилар дўстларига жуда илтифотли, эътиборли бўлсалар, уларни рад этганларга нисбатан душманларча муносабатда бўладилар. [1]

Ёлғизлик муаммосига бағишланган тадқиқотлардан бирида талабаларга ёлғиз кишининг ёлғизлигини бир неча сабаблар билан изоқлаш сўралган. Эксперимент давомида ёлғизлик ички сабаблар билан изоҳланган бўлса, унда бу кишиларга нисбатан эготцентрик, севилмаган, ўзига баҳонинг пастлиги хос деб таърифланган.

Инсоннинг ўзи ҳақидаги тасаввурлари кўп жиҳатдан унинг бошқа кишилар билан бўладиган ўзаро муносабатларига боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Муллабоева Н.Ш. Ёлғизлик ҳиссининг индивидуал хусусиятлари, Психологияда шахс индивидуаллиги шаклланишининг долзарб муаммолари мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2012.

2. Нишанова З.Т. Психологик маслаҳат. – Т., 2011.

OILADAGI SOGLOM MUXIT SHAXS SHAKLLANISHINING MEZONI SIFATIDA

Utamurodova G., Ablyakimova R.I.,
JDPI o‘qituvchilari

Annotatsiya. *Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb mavzularidan bulib, oiladagi soglom muxitning shaxs shakllaniga tasir etuvchi omillari masalalariga qaratilgan.*

Kalit suzlar: *Oila, tarbiya, sog‘lom muhit, mahalla, maktab.*

Аннотация: *Эта статья является одной из наиболее актуальных тем сегодняшнего дня и фокусируется на преимуществах использования интерактивных методов обучения. Распространяется на основе современных педагогических технологий.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, интерактивное обучение, проблемное обучение, знания, навыки, мышление, восприятие.*

Annotation. *The article is one of the most relevant topics of todey and focuses on the benefits of using interactive teaching methods.Distributed on the basis of modern pedagogical technologies.*

Key words: *innovative technologies, interactivelearning, problem-based learning, knowledge, skills, thinking, perception.*

Oila, maxalla, va maktab kishini shaxs darajasiga yetkazuvchi tarbiya o‘chog‘idir. XX asning boshlarida Turkiston zaminida o‘tgan milliy uygonish davrining nafaqat adabiyoti, balki ijtimoiy-siyosiy, manaviy-ma’rifiy xayotiga xam kuchli turtki bergan qomusiy ilm egasi, professor Abdurauf Fitratning" Oila" risolasi, mana qariyb yuz yildirki uz axamiyatini zaracha yuqotmay kelayotir, buning sababi, asarda ilgari surilgan g’oya va muloxazalarning insoniy muxabbat mexru vafo, oila, nikox farzand tarbiyasi, millat kelajagi singari boqiy qadriyatlarga bag‘ishlangani bilan izoxlanadi. Uning asarida shunday bir xikmat bor: "qayerda oila mustaxkam asosga eega bulsa, shu erdagi xalk baxtli buladi". [1.44].

Ma’lumki, oilada ota-onalar va bolalar urtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yulga quyish, oilaviy munosabatlarda soglom muxitning yuzaga kelishiga bolalar tarbiyasining to‘g‘ri olib borilishiga, bolalarda ijobiy fazilatlarning va individual-psixologik xususiyatlarning shakllanishiga katta tasir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov takidlaganidek, "xayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini taminlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasillar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita tasir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanligini tan olishimiz darkor. Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muxitida yashaydi. Oilaga xos ananalar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi, eng muximi farzandlar oilaviy xayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, xis etadi". [2.76].

Bugungi jarayon oila va maktabda ijtimoiy tarbiyani qattiy yo‘lga qo‘yishni taqozo etmoqda. Darxaqiqat, oila asrlar davomida tarbiya maskani bo‘lib kelgan. Unda o‘zaro xurmat, mexr – oqibat, xalollik, poklik, mexnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar shakllangan, ajdoddan avlodga yetqazilgan. Shu sifatlar ona suti, oila a’zolari mexri va na’munasi bilan inson xulqi, xatti-xarakati mazmuniga singib borgan.

Sharq tarbiyasining moxiyatida ota-onaga mexr-muxabbat, xurmat-izzat,yotadi. Ularni ranjitmaslik,ularga nisbatan xushmuomala bulish, istak xoxishini vojib etish, xafa qilmaslik sodiq va sadoqatlik bulish farzandning ota-ona oldidagi farzi xisoblanadi.

Bu borada ayniqsa onalar, ayollar ana shunday ulug‘ insonlardir. Payg‘ambarlarni xam voyaga etkazgan ana shu ayollar, onalardir. Binobarin, Muxammad payg‘ambar takidlab o‘tganlaridek, "Ayollarni faqat ulug‘ odamlar xurmat qiladi. Ularni faqat pastkash odam xorlaydi".

Ayniqsa onaga nisbatan kursatadigan lutf diniy nuqtai nazardan xam, dunyoviy nuqtai nazardan xam juda murakkab va mas’uliyatli. Shuning uchun Xadislardan birida Rasulloxdan ummatlaridan biri: "Ey Rasulloh men yaxshiligimni kimga qilsam bo’ladi? – deb suraganda "Onangga", deydilar, shu savolni uch marta takrorlaganlarida xam "Onangga" degan javobni oladi. Turtinchi marotaba esa "Otangga va yaqin qarindoshlaringga degan javobn oladi. Xadislar xar bir insonni ona degan ulug zotni nixoyatda ezozlashga chaqiradi,ularning xaqqiga farzandlar qanchalik savobli ishlar qilsa xam,onaning farzandini duyoga keltirishdagi to‘lg‘oqlaridan bittasiga barobar emasligini. Ularning ongiga tasirli tarbiyaviy ifoda yo’li bilan yetkazadi. [3. 64].

Darxakikat, bola shaxsining shakllanishida butun ijtimoiy voqeylik xususan uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan oila muxiti xal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati mexnat xarakteri ota-onaning axloqiy saviyasi, ijtimoiy masalaga, bolaning komil inson bulib o‘sishiga tasir kursatadi.

Unga ko‘ra, oila azolarining va murabiy o‘qituvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish zarur. Shundagini oila, maxalla va maktabda tarbiya olib voyaga yetayotgan avlod ijtimoiy faol uz mustaqil fikriga va voqea-xodisalarga munosabat bildiruvchi shaxslar bulib voyaga yetadi. Azal-azaldan yoshlar tarbiyasi butun jamoatchilik shug‘ullanib kelgan. Bunday usul faqat bizda bor,uning umidbaxsh imkoniyatlaridan bugun unumli foydalanmoq zarur.

Ijtimoiy psixologik muxit va uning soglom bola tarbiyasiga tasirida ota-onaning roli beqiyosdir. Ayniqsa globallashuv davrida oiladagi ijtimoiy psixologik muxit va uning soglom bola tarbiyasiga tasirida psixologik muxit bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bulib, oiladagi ilik psixologik iqlimni ratishda ota-onaning, ayniksa onaning axamiyati katta ekanligi xammamizga sir emas. Bunda bola yoshi psixologik xususaiyatlari xolatlari oiladagi psixologik iklimxisobga olinishi lozim. Bolaning yoshi xolatini yaxshirok tushunish uchun uning o‘rniga o‘zimizni ko‘yib ko‘rsakgina uning psixik olamini xolatini, xoxish-istagini anglab etamiz. Kuzatishlar shuni kursatadiki, soglom muxit yaratish uchun bolalar bilan muomala-munosabatga kirishishda ularning psixologiyasiga etibor karatish kerak. Ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning ijobiy tus olishi uchun ota-ona farzandlari bilan muomala munosabatta kirishayotganlarida pedagogik odobga katiy rioya kilish darkor.

Shunday ekan, Oila kanchalik inok, uyushgan va mustaxkam bulsa, uning normativ tasiri xam shunchalik samarali buladi. Bunday oilada uzining kadriyatlaridan tashkari, jamiyatning kadriyatlari, konun-koidalar va normalar xurmat kilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o‘rgatilishi zarur.Oilada bola tarbiyasida xar bir xarakatni kuzatib borish kerak, lekin xadeb tanbex beravermaslik yoki mayda-chuyda ishlarga fakat "norozilik kuz" bilan karash kerak emas. Balki usha kamchiliklarni bartaraf etish yullarini kidirib topish, bolaga sabr-tokat bilan buni tushuntirish zarur. Xozir zamon shiddat bilan o‘zgarib borayotgan, bolalar tarbiyasiga, ruxiyatiga tasir etadigan vokea-xodisalar kuplab ruy berayotgan bir paytda ota-onalar farzandlari tarbiyasiga nixoyatda extiyot bo‘lishlari lozim. Bolaga kattik gapirib, tanbex berish kerak emas. O‘larga yaxshi gapirib, ishonch bildirilsa, ko‘prok samara beradi.

Malum bo‘lishicha soglom bola onalik va soglom turmush tarziga psixologik shakllan-tirishning asosiy o‘chog‘i – ota-ona oilasi bulib, birinchi urinda ona, uning ijtimoiy ustanovkasi, ona-bola munosabatlar tizimi, oila turmush tarzining bir butunligi xisoblanadi. Oilada farzandlar tarbiyasi bilan ko‘prok onalar shugullanadilar. Uning axamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya muassasasida xam, keyinchalik maktab, litseyda o‘kiganda xam tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriklarni masuliyat bilan vijdonan bajdaradigan bulib, bolalar jamiyatida xamisha uzining urniga ega bula oladi.

Oila insonlarga xos bo‘lgan axlokiy kadriyatlar uzaro xurmat, ishonch, muxabbat, jamkorlik, xamdardlik tuygularining konkret shaklda namoyon bulishini taminlashda onaning vazifasi muxim. Bola aklli, odobli, mexnatsevar, xalol, iymonli, insofli bulishidan ota-onagina emas, balki birinchi navbatda butun jamiyat manfaatdordir. Chunki, jamiyatning tarakkiyotini, insoniyatning yorkin istikbolini manaviy stuk, jismoniy soglom yoshlargina taminlay oladi. Oilada kamol topgan bola nafakat jismonan, balki muayyan manaviy fazilatlarni egallagan, ijtimoiy va xukukiy burchini anglagan inson sifatida tarbiyalanadi. Insonning asosiy moxiyati manaviyat ekan, uning dastlabki kurtaklari xam oiladagi tarbiya jarayonida shakllanadi.

V.S.Toroxtiy Oila psixologik salomatliginiga sosiy mezonlari sifatida kuyidagilarni kursatib utgan: oilaviy kadriyatlarning bir-biriga mos kelishi, funksional-rolli o‘zaro muvofiklik, ijtimoiy-rolli adekvatlik, mikro ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchanlik, emotsional tuyinganlik, oilaviy munosabatlarnig uzok davom etishiga intilish [3. 88].

Oila va uning soglom manaviy muxiti soglom bolani jamiyatda yashashga, uziga uxshash shaxslar bilan murosa kilish, xamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-xunarli bulish, muomalada axlok-odob normalariga buysunishga urgatadi, psixologik jixatdan tayyorlaydi.

Shuningdek, Ona farzandiga xayotning maksadi va manosini, turmushda uchraydigan murakkab vaziyatlarni tushuntirishi, turli ishlarni tugri bajarish koidalarini urgatmogi lozim. Bazi onalarda xayotiy tajriba etishmasligi sababli kizlar noshud, bazan esa engiltak bo‘lib koladilar. Tajribalar shuni kursatadiki, xar kanday mexnat sharafli ekanini, xalol mexnat kilgan kishi yuksak, kadrlanishini. Mexnatdan kochadigan axloksiz odamlarni xech kim xurmat kilasliklarini, boshkalar xisobiga yashash umuman akli, zukko odamga tugri kelmasligini, maktabda ota-onalarining suxbatlaridan va ularning kuzatishlaridan iloji boricha ertarok bilibolishlari lozim. Ona farzandini ijtimoiy ishlab chikarishning turli soxalardagi mexnat faoliyatiga tayyorlash asosan maktabning urta sinflarida amalga oshiradi. Ayrim onalar " Xali kizim yosh, uynab kulsin, uy ishlarini, odatlarimizni o‘rganadigan vakti kelar, deydilarki, bu nafakat notugri, balki zararli xamdir. Olimlarning tatkidlanishicha, ijobiy odatlar bolada kancha erta shakllantirilsa, uning mexnat va idrok etish kobiliyati shuncha tez vu mukammal rivojlanadi. Bolani yoshligidanok pok tabiatlikka, mustakillikka, saranjom-sarishtalikka o‘rgatilsa xam kiz uchun foydali buladi. Shu bilan birga boladagi muxim fazilatlardan biri odob, sharmu – xayo bulib, nomusli, oriyatli bo‘lish tushunchalari xam onalar tomonidan o‘rgatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, sog‘lom bola mustaxkam oila tayanchi, mustaxkam oila esa jamiyatning, davlatning tayanchidir. Oilada sog‘lom bola tarbiyasi, uning xayotida baxtli bulishi uchun oilada ilik psixologik iklim yaratilishi lozim.

Adabiyotlar ruyxati

1. Mustaxkam oila manaviyati A. Abdusamedov va boshkalar. Sano-standart nashriyoti 2012-y. 44-b.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – engilmas kuch. – T.: Matnaviyat, 2018-y. 76-b.
3. O.Musurmonova va b. Maznaviy barkamol shaxsni shakllantirish-jamiyat tarakkiyotining asosi. T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008-y. 64-b.
4. В.С.Торохотий. Выделение и подробное описание: Психология сотсиалной работы с семей – М.: 1996. 88 с.

PAST O'ZLASHTIRUVCHI BOSHLANGICH SINFLARIDA KOGNITIV EXTIYOJLARNI SHAKILLANTIRISH

Adasheva Hilola,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
Boshlangich ta'lim mutaxassisligi 2-bosqich magstranti

Annatatsiya. *Maqolada yosh avlodning bugungi kundagi bo`sh o`zlashtirishining asosiy sabablari hamda ularni o`quv faoliyatiga moslashuviga doir pedagog olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan. Zamonaviy pedagogika uchun boshlang`ich sinf o`quvchilarning ta`lim-tarbiyasi eng muhim xususiyatlardan biri. Past o'zlashtiruvchi bolalar bilan qanday vazifalar olib borilishi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tarbiya kognitiv faoliyat yangi sharoitga moslashish.*

Annotation. *The article presents the main reasons for today's idle learning of the young generation and the opinions of pedagogic scientists on their adaptation to educational activities. Education of elementary school students is one of the most important features for modern pedagogy. What tasks are carried out with low-assimilation children.*

Key words: *education, upbringing, cognitive activity, adaptation to new conditions.*

Аннотация. *В статье представлены основные причины сегодняшнего праздного обучения молодого поколения и мнения ученых-педагогов об их адаптации к образовательной деятельности. Обучение учащихся начальной школы является одной из важнейших задач современной педагогики. Какие задания выполняются с малоассимилируемыми детьми.*

Ключевые слова: *образование, воспитание, познавательная деятельность, адаптация к новым условиям.*

Hozirgi kunda yosh avlod ijtimoiy faol hayotiy ko'nikmalarga ega. Ijtimoiy faoliyat mavzusi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda juda ko'plab boshlang`ich sinf o`quvchilari pessimistlar, sarosimaga tushgan, kelajakka ishonmaydigan va xohlamaydiganlar yoshlar sifatida ko`rishimiz mumkin. Agar bunday yoshlar soni ko'paysa, bu shaxsiy tanazzulga olib kelishi va butun jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Har qanday shaxs jamiyatning bir qismi sifatida ma'lum bir o'rinni egallash uchun o'zini namoyon qilishi, ya'ni faoliyat turini namoyon qilishi kerak. Bu masala ko'plab olimlarning diqqat markazida bo'lib, chunki ijtimoiy faoliyatning rivojlanishi va namoyon bo'lish jarayonini tushunish ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning yanada samarali konsepsiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Fuqarolik jamiyatini barpo etish, shuningdek, kelajagi buyuk yoshlarni tarbiyalash eng muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Atrofdagi jamiyatning ortib borayotgan dinamikligi va o'zgaruvchanligi darajasi jamiyat hayoti subyektining ijtimoiy shakllanishining eng dolzarb vazifalari qatoriga shaxsni atrof-muhit bilan transformativ o'zaro munosabatlarga faol qo'shish vazifasini qo'yadi. Zamonaviy pedagogika fani uchun yosh avlodning bo`sh o`zlashtiruvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammosi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u doimo jamiyat va davlatning diqqat markazida bo'ladi. Ijtimoiy faollik insonning eng muhim

fazilatlaridan biridir. Ijtimoiy ahamiyatga molik motivlar bilan ajralib turadigan va ijtimoiy qimmatli natijalar beradigan faoliyatda rivojlanadi.

Boshlang`ich sinf o'quvchilari jamiyatning faol fuqarosi hisoblanib, bo`sh o`zlashtiruvchilarni o'z vaqtida bu jarayondan olib chiqib katta sinflarga o'tgunga qadar tengdoshlari yani bilim darajasi yetarli o'quvchilar qatoriga qo'shish lozim bunda o'qituvchining tajribasi hamda malakasiga bo'g'liq. Boshlang`ich sinf o`quvchilarning bo`sh o`zlashtiruvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir hisoblanadi

Boshlang`ich sinf o`quvchisining bo`sh o`zlashtirishiga sabab – bu bolaning xatti-harakatlari va faoliyatini yangi sharoitlarda qayta qurish jarayonidir.

Z.L.Shintar fikiricha birinchi sinf o'quvchilarini bo`sh o`zlashtirish jarayonini tahlil qilib, bilimlari umumta'lim maktabi o'qituvchisi ishida uzluksizlik g'oyalarini amalga oshirishga imkon beradigan shakllarni aniqlaydi:

1. Tananing yangi yashash va faoliyat sharoitlariga, jismoniy va intellektual yuklarga moslashishi. Bunday holda, moslashish darajasi maktabga borgan bolaning yoshiga bog'liq bo'ladi, u bolalar bog'chasiga borganmi yoki uni maktabga tayyorlash uyda amalga oshirilganmi; organizmning morfofunktsional tizimlarining shakllanish darajasiga; bolaning xulq-atvori va tashkilotchiligini o'zboshimchalik bilan tartibga solishning rivojlanish darajasiga; oiladagi vaziyat qanday o'zgarganiga.

2. Yangi ijtimoiy munosabatlar va aloqalarga moslashish ko'proq vaqt-makon munosabatlariga taalluqlidir (kun tartibi, o'quv qurollarini saqlash uchun maxsus joy, maktab formasi, darslarni tayyorlash, bolani katta aka-uka va opa-singillar bilan tenglashtirish, uning "voyaga yetganligini" tan olish, mustaqillik berish va boshqalar); shaxsiy va semantik munosabatlar (sinfda bolaga munosabat, tengdoshlar va kattalar bilan muloqot, maktabga munosabat, talaba sifatida o'ziga nisbatan); bolaning faoliyati va muloqotining xususiyatlariga (oiladagi bolaga bo'lgan munosabat, ota-onalar va o'qituvchilarning xulq-atvor uslubi, oilaviy mikroiqlimning xususiyatlari, bolaning ijtimoiy kompetentsiyasi va boshqalar).

3. Kognitiv faoliyatning yangi sharoitlariga moslashish maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uyda olingan bolaning ta'lim darajasining (bilim, ko'nikma, ko'nikma) dolzarbligiga bog'liq, intellektual rivojlanish, ta'lim faoliyati ko'nikmalari va ko'nikmalarini egallash qobiliyati sifatida o'rganishga, bilim faoliyati asosi sifatida qiziqishga, ijodiy tasavvurni shakllantirishdan, kommunikativ qobiliyatlar (bilim, ko'nikma, ko'nikmalar bilan muloqot qilish qobiliyati). kattalar, tengdoshlar).

I.F.Xarlamov o'quvchining bo`sh o`zlashtiruvchi bolalarni rivojlantirishni unga maqsadli ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida belgilaydi, buning natijasida u jamiyatda hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy tajribani va jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlar tizimiga faol munosabatda bo'ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining dastlabki bosqichida jamiyat hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy faol bo'lishi mumkin. Shunday qilib, shaxsning ijtimoiy faolligini bir necha turlarga bo'lish mumkin:

1) mehnat;
2) ijtimoiy-siyosiy;
3) jismoniy faoliyat;
4) aqliy faoliyat;
5) estetik faoliyat;
6) axloqiy faoliyat Ta'lim tashkilotida kichik maktab o'quvchilarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish shakllari:

1. guruh shakllari;
2. jamoaviy shakllar;
3. o`quvchilarning o`zini-o`zi boshqarishi;
4. pedagogik muloqot.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchi va o`quvchilar o'rtasidagi ta'lim va tarbiyaviy o'zaro ta'sirning bir shakli bo'lib, unda o'qituvchi yosh o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olishi

kerak. Muloqotda kichik maktab o'quvchisi nafaqat boshqalarni, balki o'zini ham bilib oladi, ijtimoiy hayot tajribasini o'zlashtiradi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj odamlar bilan turli xil aloqalarni o'rnatishga yordam beradi, bilim va tajriba, histuyg'ular va fikrlar almashinuvini rag'batlantiradi va do'stga bo'lgan shaxsiy ehtiyoj, jamoaviy munosabatlar fonida do'stona aloqalar shaklida namoyon bo'lishi mumkin

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish yaxshi samara beradi.

O‘quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli bajarishda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvuri yorqin, so‘z boyligi yetarli emas. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘qituchi rahbarligida ishlaganda, tezroq mulohaza qiladilar. Bu holga o‘rganib qolmasliklari uchun ko‘proq ularning o‘zini mustaqil fikrlashga da’vat etish lozim. O‘quvchilar e’tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega shunday bo‘ldi? Seningcha qanday bo‘lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma’qullab, “yana o‘ylasang topasan”, “juda yaxshi”, “juda soz!” kabi rag’batlantiruvchi so‘zlarni ishlatish foydalidir. Masalan, “O‘roq va Kombayn” mavzusi yuzasidan: O‘roq nega afsuslanadi? Kombayn unga nima dedi? Kabi savollar berib, har ikkisini solishtirish orqali texnikaning kuch-quvvatiga bolalar e’tibori tortiladi, har bir texnika asbobining hayotimizdagi ahamiyatini baholashga o‘rgatiladi.

Dastlabki bajargan mustaqil ishdan bola mamnun bo‘lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshishrish lozim. Tekshirish og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin. Bola yozishidan oldin o‘ylaydi, fikrini og’zaki jamlaydi, so‘ng uni yozishga kirishadi. O‘z fikrini bayon qilish, yo‘l qo‘yilgan biror savol yoki masala yuzasidan mushohada yuritishga urinadi. Bu jarayon (og‘zaki) nutq asosida paydo bo‘ladi va mustahkamlanadi. Masalan, o‘quvchi o‘z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o‘ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o‘zicha gapiradi(pedagogikada bu aktiv faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o‘qib, og‘zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o‘ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalaydi.

Xulosa. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning pedagogik xususiyatlarini o'rganib chiqib, xulosa qilishimiz mumkinki, boshlang'ich maktab yoshi har bir bolaning hayotidagi muhim bosqichdir, chunki bu davrda u birinchi marta ijtimoiy ahamiyatga ega, ijtimoiy baholangan ta'lim faoliyati bilan shug'ullana boshlaydi. Bu vaziyatda o’qituvchining ro’li kattta shu orqali pedagogik faoliyatga va o’quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirishga to’g’ri yondashish va passiv o’quvchilarning bilim, ko’nikma, malaka va kompitensiyalarini o’z o’rnida shakllantirishga erishamiz. Bundan tashqari, ijtimoiy ish, topshiriqlarni bajarishda mas'uliyat, mehnatsevarlik va tashabbuskorlik, o'ziga va o'rtoqlariga nisbatan talabchanlik, jamoat topshiriqlarini bajarishda boshqalarga yordam berishga tayyorlik, mavjudlik tashkilotchilik qobiliyatlari shakilantirishga ham yordam beramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андромонова И.М. Воспитание социальной активности школьников в теории и практике отечественной педагогики. Казань. 1999.

2. Байбородова Л.В. Методика изучения мотивов участия школьников в деятельности. URL: http://gigabaza.ru/doc/15773.html (дата обращения: 14.10.2017)

3. Безрукова С.Б. Особенности работы с детьми младшего школьного возраста. // Начальная школа. 2014.

4. Pedagagik maxorat 2024.

5. Boshlangich ta’lim jurnali.

O’QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI PSIXOLOGIK AXAMIYATI

Tursunova Dilbar,
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o`qituvchisi

Annotatsiya. *Mustaqil fikrlash yoshlarni psixologik bilimdonlik, psixologik ong asosida psixologik hayotga tayyorgarlik darajasini ta'minlovchi mezon vazifasini o‘taydi. Ushbu maqolada o’quvchilarning mustaqil fikrlashini psixologik ahamiyati haqida so’z borgan.*

Kalit so’zlar*: psixologik faollik, psixologik bilimdonlik, psixologik ong, mahoratli mutaxassis, kasb tanlash, dunyoqarash, kasb tarbiyasi, mustaqil fikrlash.*

Аннотация. *Самостоятельное мышление, служит критерием обеспечивающим уровень подготовки молодежи к общественной жизни на основе социальных знаний, общественного сознания. В этой статье обсуждается педагогическая важность формирования у студентов независимого мышления.*

Ключевые слова: *социальная активность, социальное знание, общественное сознание, квалифицированный специалист, выбор карьеры, мировоззрение, профессиональное образование, независимое мышление.*

Annotation. *Independent thinking serves as a criterion that ensures the level of preparation of young people for social life on the basis of social knowledge, social consciousness. This article discusses the pedagogical importance of building students' independent thinking.*

Keywords: *social activism, social knowledge, social consciousness, skilled professional, career choice, worldview, professional education, independent thinking.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o’zining nazariy metodik asosini yangi “Ta’lim to’g’risidagi” qonunda topdi. Bu qonunda ta’limning 2030-yilgacha bo’lgan rivojlantirish konseptsiyasi asosida O’zbekiston Respublikasini ilg’or 30 ta mamlakat qatoriga kirishi maqsad qilib qo’yilgan. Bu konseptsiyaga muvofiq, umumiy o’rta ta’lim tizimini metodik jihatdan rivojlantirish, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. qilib qo’yilgan. Bu konseptsiyaga muvofiq, umumiy o’rta ta’lim tizimini metodik jihatdan rivojlantirish, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi psixologiya va unga davr munosabati masalasini o‘rganish alohida ilmiy muammoga aylanib bormoqda. Shaxs o‘zining ijtimoiy faolligi va o‘z sohasining mahoratli mutaxassisi sifatida millat ijtimoiy tafakkurining rivojiga o‘z ta'sirini ko‘rsata olmog‘i lozim.

Mustaqil fikrlash yoshlarni psixologik bilimdonlik, psixologik ong asosida psixologik hayotga tayyorgarlik darajasini ta'minlovchi mezon vazifasini o‘taydi. Ma’lumki, ijtimoiy faol va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy zamini oliy ta'limgacha bo‘lgan davrda, ya'ni o‘quvchi yoshlarni ongli va asosli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, oliy ta'lim muassasasida kasb tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu jarayonda yangicha fikrlash va yangicha dunyoqarash tarkib topadi. O‘z navbatida yangicha dunyoqarash esa, dunyoviy va taraqqiyparvar mazmunga ega bo‘ladi. Dunyoviylik tafakkuri ilmiylik prinsipiga tayanish asosida o‘z e'tirofini topadi. O‘qituvchi hamisha ijtimoiy munosabatlar qurshovida yashaydi. Ijtimoiy faol o‘quvchi esa munosabatlar muvozanatini ko‘ra bilishga, uni rivojlanish sari unday olishga qodir bo‘lmog‘i lozim. Mustaqil fikrlash har doim yangicha psixologik idrokni talab etadi. O‘qituvchi shaxsiga xos bo‘lgan kasbiy qobiliyatlar tuzilmasi V.A.Slastenin tomonidan ishlab chiqilgan. Tarbiya jarayonining milliy-ijtimoiy xarakteri, yoshlarni psixologik hayotga tayyorlashning psixologik tamoyillari ham asoslab berilgan. Respublikamizda Yoshlar tashkilotlarining o‘rni hamda ularni ma'naviy psixologik faolliklarini oshirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Kuzatishlarga qaraganda, psixologik faollik, avvalambor, yangi savol, yangi muammoni ko‘ra bilish va qo‘ya bilish, so‘ngra uni o‘z kuchi bilan hal qilishda namoyon

bo‘ladi. Yoki, mustaqil fikrlash o‘quvchilarning shunday faoliyatiki, unda eng yuqori darajadagi faollik, ijodkorlik, ijtimoiy faol hukm chiqarish va tashabbuskorlik namoyon qilinadi.Natijada o‘quvchilar shu jarayonda:

• bilimlarni ijtimoiy faol ravishda yangi vaziyatda qo‘llash va mavzularni o‘rganish davomida yangi muammoni ko‘ra bilish;

• bir muammoning bir nechta (alternativ) yechimlari bo‘lishi mumkinligini anglash;

• avval ma'lum bo‘lgan muammolarni hal qilish usullarini kombinasiyalash;

• muammoni hal qilishning original usullarini topa bilish malakalarini egallay boradilar.

Yuqorida sanab o‘tilgan va boshqa shu kabi ishlarni bajarish davomida o‘quvchi faoliyatida ongli mustaqil fikrlashdarajasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: bilish, fikrlash, eslab qolish yoki ma'lum tushunchalar asosida yangi faktlar, hodisalar, voqealarni keltirish. Shaxsda ijtimoiy faol fikr yuritishni shakllantirish – bu nafaqat keng qamrovli yondashuvni talab qiladigan ilmiy psixologik muammolardan biridir, balki fan va texnikaning bugungi kundagi jadal rivoji, yangicha ta'lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etilganligi ijtimoiy faollikni ta'minlovchi eng qulay va oqilona o‘quv jarayonini tashkil etish muammosini dolzarb qilib qo‘ymoqda.Mustaqil fikrlash shaxsning xislati sifatida har qanday faoliyat turida individual yoki guruhiy yutuqlarga erishishda yuqori ko‘rsatkichni ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo‘lib, uning fenomenologiyasi talqinida tafakkurning ijodiyligi alohida o‘rin tutadi.

Psixologiyada ushbu muammoning ham nazariy hamda amaliy tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab izlanishlar mavjuddir. O‘zbekistonlik olimlar E.G‘.G‘oziev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalar ijtimoiy faol tafakkur muammosiga asosan pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan yondashadilar. E.G‘.G‘oziev tadqiqotida inson tafakkuri ijtimoiy faol va noijtimoiy faol tafakkurga ajratilishi ta'kidlanadi: «Tafakkurning ijtimoiy faolligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz, uning aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib, psixologik faol ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunishdir. Maqsad, muammo va vazifalar o‘zga shaxs tomonidan qo‘yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o‘zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilish jarayonida biroz ishtirok etgan tafakkur esa noijtimoiy faol tafakkur deyiladi».

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda o`qish,ona tili ta'limi katta imkoniyatlarga ega ekanligini inobatga olib, umumta'lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilar mustaqil fikrlash darajalarini bir qancha tadqiqot usullari yordamida aniqlashga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.I. Nishonova Yosh darlar psixologiyasi. Molyachi, 2015 yil.

2. K.Husanboeva Tafakkur psixologiya. Muxlis, 2008.

3. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatinishakllantirishning didaktik asoslari: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2002.

4. G‘afforova T. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2012 y. 9-son.

5. https//www.lex.uz

6. www.google.uz

7. http//library.ziyonet.uz

BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI VA PSIXOLOG HAMKORLIGINING O‘RNI

Rahmatullayeva Zamira Olimjonovna,
NamDPI, Pedagogika va psixologiya fanlarini o`qitish metodikasi kafedrasi katta o`qituvchisi

Zamonaviy ta’lim tizimida bolaning aqliy, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga, uning yosh va individual xususiyatlariga, ruhiy va psixologik salomatligini saqlash va mustahkamlashga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Ushbu murakkab masalalarni hal etish esa ko‘p jihatdan ta’lim tizimida psixologik xizmatni yanada rivojlantirish va mustahkamlash bilan bog‘liq hisoblanadi.

Chunki, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan psixologining vazifasi ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan barcha toifadagi bolalarga ularning yoshi, individual, psixofizik imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning shaxsiy va kognitiv rivojlanishiga yordam berish hamda qulay shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bunday murakkab vazifalarni albatta amaliyotchi psixolog turli soha vakilllari jumladan: tarbiyachilar, ota-onalar, sog‘liqni saqlash tashkilotlari, vasiylik va homiylik organlari, huquq-tartibot idoralari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Chunki, muhitning bola uchun psixologik qulayligi va xavfsizligini ta’minlash, psixologik yordam ko‘rsatish, bolalar va ularning ruhiy salomatligi va hissiy farovonligini saqlash va mustahkamlash, yosh va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy ijobiy faoliyatda o‘z-o‘zini anglash uchun sharoit yaratish yuqorida keltirilgan soha vakillarining o‘zaro hamkorligini talab etadi. Ayniqsa tarbiyachilar va psixologning birgalikdagi faoliyati bolalarning har tamonlama rivojlanishiniga katta imkon beradi.

Rus pedagogik psixologlari A.S.Makarenko, A.V.Suxomlinskiy, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, D.B.Elkonin, V.V.Davidovlarning asarlarida ham hamkorlikni zamonaviy ta’limning belgilovchi asoslardan biri sifatida ta’kidlanadi. Chunki, ma’lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta’lim va tarbiya berib bo’lmaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonini to’g’ri, ilmiy asosda tashkil qilish uchun ta’lim jarayonining o‘ziga xos psixologik qonuniyatlarini, ya’ni bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini, ko‘nikma va malakalarni, faol, mustaqil hamda ijodiy tafakkur jarayonlarini tarkib toptirishni yaxshi bilish lozim bo‘ladi. Shuning bilan birga ko‘rib va eshitib idrok qilish xususiyatlarini hamda ularning o‘zaro munosabat xarakterini aniqlash ham mashg‘ulotlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘tilgan materiallarni qanday yo‘l bilan psixologik jihatdan samarali qilib mustahkamlash mumkin? Tarbiyalanuvchiga savolni qanday berish mumkin: umumiy qilibmi yoki konkret shakldami? Bir xil savollarni beraverish to‘g‘rimi? Yordamchi savollarning roli qanday? Shu kabi muammolarni hal qilishda tarbiyachilar albatta psixologlar bilan hamkorlikda ishlashlari muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari tarbiyachilar tarbiya ishlarida ham psixologik bilimlarga tayanishlari zarurdir. Chunki, shaxs tarkib topishi jarayonining psixologik qonuniyatlarini, jumladan, axloqiy odatlar va ishonch – e’tiqod tarkib topishining qonuniyatlarini bilmay turib, to‘g‘ri tarbiya berish mumkin emas. Bolaning har bir yoshi o‘z qiyinchiliklariga ega bo‘ladi va o‘ziga nisbatan maxsus munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan psixologik jihatdan to‘g’ri keladigan va yaroqli bo‘lgan usul, ko’pincha o‘smirlarga nisbatan yaroqsiz bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari bir davrga mansub bolalarning individual xususiyatlari ham bir xil emas. Bu esa o‘z navbatida tarbiyachi ta’lim va tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur o‘rganishini taqozo etadi.

Mana shu yuqorida ko’rsatilgan qonuniyatlarni hammasini bilish o‘z-o‘zicha hali ta’lim-tarbiya ishlarida muvaffaqiyatning garovi bo‘la olmaydi, lekin juda ko‘p xatolarning oldini olish imkonini beradi, chunki bu qonuniyatlar tarbiyachini ko‘r – ko‘rona harakat qilish zaruratidan qutqaradi. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun har bir tarbiyachi psixolog bilan hamkorlik qilishi zarur. O‘z navbatida

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan psixologlar tarbiyachilarning psixologik bilimlarini oshirib borishlari, yuzaga keladigan psixologik muammolarni hal qilishda tarbiyachilarga ko‘mak berishlari keak.

Yana shuni ham unutmaslik kerakki faqat tarbiyachilarning psixologik bilimlarini oshirish bilan to‘la samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan psixologlar bolalar bilan guruh va yakka tartibda psixodiagnostik ishlarni ham olib borishlari, shuningdek ota-onalar bilan farzandlarining rivojlanish qonuniyatlari, individual psixologik xususiyatlari va bu xususiyatlarga bola bilan muloqot va munosabatlarda e’tibor qaratish haqida tushuntirish ishlarini olib borishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan psixologlar ta‘lim muassasasida sog’lom psixologik muhitni hosil qilish, uning barqarorligini ta’minlash, tarbiyalanuvchilarning mashg`ulotlar bo’yicha o’zlashtirish ko’rsatkichlarini yaxshilash, pedagogik faoliyat sub’ektlari o’rtasidagi munosabatlarning ijobiy mazmunga ega bo’lishini ta’minlash, iqtidorli bolalarni aniqlash hamda komil insonni shakllantirish kabi vazifalarning ijobiy yechimini topishda tarbiyachilar bilan o`zaro hamkorlik ishlarini yo`lga qo`yishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Baratov Sh.R.«Ta’limda psixologik xizmat asoslari», Toshkent, 1999 y.
2. Зинченко В. П. Психологическая педагогика. Материалы к курсу лекций. Часть 1. Живое знание (2-е испр. и доп. изд.). Самара: «Самарский дом печати», 1998.
3. Леонтьев А.Н., Гальперин П.Я., Эльконин Д.Б. Реформа школы и задачи психологии // Вопр. психологии. 1959.
4. Рогов Э.А. «Настолная книга практического психолога. М. 1999.г.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF LEARNING MOTIVATION IN SCHOOL STUDENTS

Khodjaeva Dilnovoz Djumoyevna,
Doctoral student of the departmentof psychology of UzMU.

The psychological characteristics of the formation of educational motivation depend on the restoration of the educational content, and it is necessary for adolescents to independently acquire knowledge and develop understood interests. Currently, the formation of cognitive motivation is important. Because motivation is necessary, because it gives a special personal meaning to the student's activity and acquires an independent value for him as a result of studying the subject. Motivation lies in an inexhaustible thirst knowledge, which increases the desire to learn new things every time. It is with such motivation that the student overcomes obstacles on the way to learning with great ease [1, 75].

Currently, there is no unified opinion in psychology about the meaning of the motive of activity related to mastering. As a result, this creates the problem of formation of motivation in adolescents during the educational process, because this age is the most sensitive period to various influences related to educational motivation of adolescents. Knowing the motives helps us to predict and motivate the desired actions and additionally helps to avoid unnecessary mistakes [2, 81].

Educational motivation is a complex process that supports efforts and directs efforts to complete educational activities. It is a complex system that creates the student's motivation and integrity, determination [3, 42]. Motivation itself is the process of motivating oneself and other people to achieve personal goals of the organization. In other words, we can say that it represents an internal state, which in turn determines human behavior [4, 98].

It should be noted that success motivation is aimed at a certain result obtained by a person's own abilities, for example: achieving success or avoiding failure. Hence, achievement

motivation is focused on the goal itself [1, 28]. This motivation is also characterized by constant revision of goals. The main educational activity is the development of the individual during the years from kindergarten to secondary and higher professional institutions. Education is an indispensable requirement, which, in turn, society imposes on an individual, so the problem of motivation in the educational process is one of the central problems of educational psychology.

In turn, educational motivation is, first of all, an internal motive, and then external motives – self-affirmation, prestige, necessity, achievement, etc. [3, 105]. The level of satisfaction of students depends on the level of satisfaction of this need. This need forces students to concentrate more and put more effort into studying, and at the same time increases their social engagement. Creating the problem situation itself, confronting the students with a problem that they cannot solve with the help of the stock of knowledge they have, plays a big role in the formation of interest in learning. In this regard, they are convinced of the need to acquire new knowledge or apply old knowledge in a new situation. Light material that does not require mental effort does not arouse their interest. The complexity of the learning material and the learning task leads to an increase in interest only when this difficulty is overcome as much as possible, in other words, interest quickly decreases [6, 77].

The teaching material and teaching methods should be very diverse. Diversity is provided not only by the fact that students encounter different objects in the course of their studies, but also by the discovery of new aspects in one object. The novelty of the material is the most important condition for interest in it. However, learning new things, in turn, should build on the knowledge the student already has. You can use previously acquired knowledge, which is one of the main conditions for the emergence of interest.

In conclusion, it can be said that the analysis of scientific literature has shown that there are many approaches to the study of motives and motivation. it should be noted that it was considered as motivations and others. But according to all scientists, the motive is why the activity is carried out, and the motivation determines the direction of the person in general. Many domestic and foreign psychologists have paid attention to the problem of learning motivation. However, in the science of psychology, a single concept of "learning activity motivation" has not been formed, various approaches and methods are used to study it. Several approaches to its understanding have been formed in history. It is during adolescence that the main new formation is the "sense of adulthood", which leads to a decrease in interest in learning and an increase in interest in adult life. As a result, conflicts arise with teachers and parents, who do not want to understand and accept their new position in life. The willingness of schoolchildren to obey the demands of adults is sharply decreasing. All this leads to strengthening the reputation of the peer group. Communication becomes a leading activity. But despite all this, the emotional well-being of a teenager largely depends on the assessment of his educational activities by adults.

References.

1. Арестова О.Н. Влияние мотивации на структуру целеполагания. – М., 1998.
2. Бакурадзе А. Факторы-мотиваторы. М., 1997.
3. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М., 1986.
4. Вилюнас В.К. Психологические механизмы мотивации человека. – М., 1990.
5. Вилюнас В.К. Психологические механизмы биологической мотивации. – М., 1986.
6. Виллиам С. Гриффис. Понимание и применение исследований в области мотивации. – Интернет, 1999.

TA'LIMDA-PSIXOLOGIK XIZMATLARNING DOLZARB MUAMMOLARINI TANQIDIY TEKSHIRISH

Mustafoev Abduvohid Abduhafiz o‘g’li,
Jizzax politexnika instituti,
radioelektronika kafedrasi assistenti
abduvohid030898@gmail.com
Uralov Abubakr Azamat o‘g’li
Jizzax politexnika instituti talabasi
abduvohid030898@gmail.com

Abstrakt. *Maktabdagi psixologik xizmatlar o'quvchilarning farovonligi va akademik muvaffaqiyatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, bu xizmatlar ularning samaradorligiga to'sqinlik qiladigan ko'plab muammolarga duch keladi. Ushbu maqola ta'lim psixologiyasi bilan bog'liq asosiy muammolarni, jumladan cheklangan resurslar, ish yuki bosimi va xizmat ko'rsatish va talabalar ehtiyojlari o'rtasidagi uzilishni o'rganadi.*

Kirish

Maktab psixologlari ta'lim tizimida muhim ruhiy salomatlik mutaxassislari sifatida xizmat qiladi. Ular akademik qiyinchiliklar va hissiy muammolardan tortib, ijtimoiy integratsiya va inqiroz aralashuvigacha bo'lgan keng ko'lamli talabalarni tashvishga soladi. Ularning ahamiyatiga qaramay, ko'plab omillar maktablarda psixologik xizmatlarning optimal ishlashiga to'sqinlik qiladi.

Pedagogik psixologik xizmatning asosiy muammolari:

Resurslar taqchilligi: yetarlicha mablag‘ ajratilmaganligi ko‘pincha malakali maktab psixologlarining yetishmasligiga olib keladi, natijada ish yuklari ko‘p bo‘ladi va o‘quvchilarni individual qo‘llab-quvvatlash uchun vaqt chegaralanadi [1].

Ish yukining haddan tashqari yuklanishi: maktab psixologlari ko'pincha ma'muriy vazifalar, inqirozga aralashuv va individual o'quvchilar maslahatlari bilan shug'ullanadilar, bu esa ularga har tomonlama baholash va chuqur aralashuvlar uchun etarli vaqtni qoldiradi [2].

Ehtiyojlar va xizmatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik: maktab psixologik xizmatlarining diqqat markazi har doim ham o'quvchilarning eng dolzarb ehtiyojlariga mos kelmasligi mumkin. An'anaviy baholashlar ijtimoiy-emotsional o'rganish yoki madaniy kompetentsiya kabi masalalarni e'tiborsiz qoldirishi mumkin [3].

Stigma va xabardorlikning etishmasligi: ruhiy salomatlik bilan bog'liq stigma talabalar va oilalarni psixologik xizmatlarga murojaat qilishdan qaytarishi mumkin [4]. Maktab psixologik xizmatlari ko'lami to'g'risida xabardorlikning etishmasligi o'quvchilarning yordam olish imkoniyatini yanada cheklaydi.

Hamkorlik muammolari: Maktab psixologlari, o'qituvchilari, ma'muriyatlari va oilalar o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchilar muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Biroq, aloqa uzilishlari va turli xil ustuvorliklar bu hamkorlikka to'sqinlik qilishi mumkin [5].

Ushbu muammolarning oqibatlari: Talabalarni qo'llab-quvvatlashning etarli emasligi: Cheklangan resurslar va vaqt cheklovlari talabalarga o'z vaqtida va har tomonlama kerakli yordamni olmasliklariga olib kelishi mumkin. **Talabalar kurashining kuchayishi:** noma'lum yoki hal etilmagan ruhiy salomatlik muammolari o'quvchilarning akademik samaradorligiga, ijtimoiy munosabatlariga va umumiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. **O'qituvchi yuki:** Maktab psixologlarining etarli yordamisiz, o'qituvchilar o'quvchilarning ruhiy salomatligi ehtiyojlarini qondirish uchun kurash olib borishlari mumkin, bu ularning ish yukini qo'shishi va sinf dinamikasiga ta'sir qilishi mumkin.

Yaxshilash bo'yicha tavsiyalar:

Mablag'larning ko'payishi: **Maktab psixologiyasi dasturlariga ko'proq resurslarni ajratish qo'shimcha malakali mutaxassislarni yollash va ish yuklarini kamaytirish imkonini beradi.**

Oddiylashtirilgan ish yuki: Ma'muriy vazifalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik bo'yicha aniqroq siyosatlar psixologlarning vaqtini talabalarga ko'proq to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash uchun bo'shatishi mumkin. **Ehtiyojlarga asoslangan xizmatlarni taqdim etish:** dalillarga asoslangan amaliyotlar va madaniy jihatdan vakolatli yondashuvlar orqali talabalar populyatsiyasining rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlarni moslashtirish.

Stigmani kamaytirish: Ogohlantirish kampaniyalarini amalga oshirish va ruhiy salomatlik haqida ochiq muloqotni targ'ib qilish yordam so'rash xatti-harakatlarini rag'batlantirishi mumkin.

Hamkorlikni mustahkamlash: maktab psixologlari, o'qituvchilari, ma'murlari va oilalari o'rtasida muloqotni kuchaytirish va hamkorlik muhitini rivojlantirish o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilashi mumkin.

Xulosa

Kuchli ta'lim psixologik xizmatlariga sarmoya kiritish sarmoyadan sezilarli daromad keltiradi. Mavjud muammolarni hal qilish orqali biz maktablarni har tomonlama ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash, barcha o'quvchilarning farovonligi va akademik muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun jihozlanganligini ta'minlashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Maktab psixologlari milliy assotsiatsiyasi (2023). Maktab psixologiyasining etishmasligi: milliy inqiroz. https://www.nasponline.org/research-and-policy/policy-priorities/critical-policy-issues/shortage-of-school-psychologists.
2. Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (2022). Maktab psixologining roli. https://www.apa.org/ed/graduate/specialize/school
3. Greenwood, G.D. va McLaughlin, M.W. (1998). Birinchi kurs o'qituvchilarining samaradorligini shakllantirish: hamkorlik madaniyatlarining kuchi. Ta'lim bo'yicha tadqiqotchi, 27(1), 14-20.
4. Xenderson, A.M. va Snow, C.E. (2003). Oilalar, maktablar va talabalar yutuqlari. Blackwell Publishing Ltd.
5. Suares-Orozko, C. va Paez, M. (2004). Maktab psixologlari va immigrant yoshlar: madaniy kompetentsiya va hamkorlikdagi hamkorlik. Maktab psixologiyasi har chorakda, 19 (4), 352-369.
6. Mustafoyev, A.A. (2024). HETEROSTRUCTURED BIPOLAR TRANSISTOR BASED ON HIGH-VOLTAGE MULTILAYER EPTAXIAL STRUCTURE ALGAAS/GAAS. Ilm-fan va ta'lim, 2(1 (16)).
7. Mustafoev, A.A. (2024). CDS NING YUZA QATLAMIDA YASHIRIN UCH KOMPONENTLI FAZALAR VA QATLAMLARNI TAYYORLASH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 29-32.
8. Mustafoev, A.A., & Uralov, A.A. (2024). YARİMO’TKAZGİCHLAR YUZASİNİNG REAL HOLDAGİ ENERGETİK TUZİLİSHİ. Interpretation and researches
9. Mustafoev, A.A. (2024). COMPOSITION AND STRUCTURE OF NANOSIZED GA1-X NAXAS LAYERS CREATED IN THE NEAR-SURFACE REGION OF GAAS BY IMPLANTATION OF NA+ IONS. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 84-90

4-YO‘NALISH. KELAJAK O‘QITUVCHISINI TAYYORLASH JARAYONIGA IJTIMOIY, PSIXOLOGIK YONDASHUV

КЕЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРИДА ИЖТИМОИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Ориббоева Дилафрўз Дадамирзаевна,
Наманган давлат институти

Таълим муассасаларини йил сайин янги кадрлар билан таъминланиши ва ёш мутахассиларнинг иш стажига эга эмаслиги ҳам касбий компетентлик билан боғлиқ муаммоларни вужудга келтиради. Бугунги кунда бўлажак мутахассисдан юқори даражада шахсий ва касбий етукликка эга бўлиш талаб этилади. Шунинг учун мамлакатимизда малакали мутахассислар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш орқали касбий фаолиятни юқори савияда мувафаққиятли амалга оширадиган кадрлар тайёрлаш имконияти пайдо бўлади.

Педагог фаолиятнинг ўзига ҳос ҳусусиятлари шундан иборатки мутахассис касбий кийинчиликларни енгиб ўтиши, перцептив қобилятларни намоён қилиши, ўқувчи шахсининг индивидуалаллиги ва ўзига хослигини тушуниши, ўқувучи шахсига ҳамдардлик билдириши, ўз ҳиссий холатни тўғри баҳолаши ва бошқара олиши керак. Компенетцияга эга педагогнинг бошқалар фикр-мулохазаларини тез ва адекват тушуниши, ўқувчининг ёш хусусиятлари ва индивидуаллигини инобатга олган ҳолда ёндошиши фаолиятида сезиларли даражад самара бериши барчага маълум.

Олий таълимда бўлажак педагогларни тайёрлашнинг турли жиҳатлари Г.В.Акопова, О.А.Антонова, А.А.Вербицкий, И.Е.Высотова, Е.А.Климов, М.П.Кравцова, Ф.Г.Мухаметзянова, В.Д.Шадриков ва бошқаларнинг ишларида ўрганилган, бироқ бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни ривожлантириш методикасини такомиллаштириш билан боғлиқ муаммолар етарлича тадқиқ этилмаган.

Педагогик фаолиятда касбий психологик компетентлик умумий тузилмасининг мухим таркибий қисмларидан яна бири – бу ижтимоий компетентликдир, зеро замонавий ўқитувчи нафақат ўқувчига билим беради, маълумот, ахборот етказади, балки ривожланаётган шахс ва жамият ўртасида воситачи ролини ҳам бажаради. «Бола-жамият» муносабатлари ўзаро алокасининг мақсадга мувофиқ бўлиши ўқитувчининг қанчалик ижтимоий ҳаётда компетентли, омилкор эканлигига ҳам боғлиқдир.

Ижтимоий компетентликнинг асосий функциялари сирасига мослашиш, ижтимоий йуналганлик, шахсий ва умумижтимоий тажрибаларнинг уйғунлашуви каби тушунчаларни киритиш мумкин. Шахс ижтимоий компетентлигининг кай даражада эканлиги ўзаро мулоқот, фаолиятни йулга қўйиш жараёнида муҳим ахамият касб этади.

Шу билан бирга психологлар ўтказган тадқикотлар натижаларига кўра, фукаролар-нинг янги ижтимоий, глобаллашув шарт-шароитларига мослашуви жараёнида инсонлардаги ижтимоий компетентлик даражасининг шаклланганлиги алоҳида ўрин тутади. Экологик, сиёсий, мафкуравий, ижтимоий ўзгаришлар нафакат ижтимоий тафаккур ривожини белгилайди, балки инсонларнинг ўзини ўзи англаши, хаётий қадриятлари шахсий муаммоларига ҳам таьсир курсатади. Бу эса психология фани олдига инсоннинг ижтимоийлашуви, ижтимоий мослашуви билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилиш борасида унинг компетентлик даражасини юксалтиришга йуналтирилган дастурлар яратиш вазифасини қўяди. Назаримизда, мазкур вазифа нафақат ўзи, балки ўқувчиларининг ҳам баркамол шахс сифатида шаклланишига масъул бўлган педагоглар фаолиятига алоҳида тегишлидир.

Ижтимоий компетентлик асосини жамият, ундаги хулқ-атвор усуллари ва қоидалари ҳақидаги билимлар ташкил этади. Мактаб ўқувчиси учун жамият, кенг (дунё, мамлакат) ва тор (оила, мактаб, махалла) даврада акс этади.

Унинг ижтимоий компетентлиги турли маълумотлар оқимидан хабардорлиги орқали аниқланади. Бу ерда сўз фақат, дунё, мамлакат, минтақа, ижтимоий институтлар хақидаги маълумотлардан бохабарлик тўғрисида эмас, балки кишиларнинг ўзаро биргаликда фаолият кўрсатиш хусусиятлари, анъаналар, хулқ-атвор меъёрлари ва қоидалари ҳақида кетади.

Шунинг учун, ижтимоий компетентликни ривожлантиришнинг муҳим йўлларидан бири, болада ўзини ўраб турган кишилар билан биргаликда ҳаракат қила олиш, ўзини тутиш усулларига доир билимларни шакллантиришдан иборат.

Ижтимоий компетентлик тузилмасидаги билим, кўникма ва малакалар жамланмасига эътибор берган ҳолда, шуни таъкидлаш лозимки, уларнинг ўзи ижтимоий компетент хулқни таъминлай олмайди. Компетентликни янада кенгроқ маънода изоҳлаш, яъни билимларни зарур вазиятларга боғлай олиш имкониятлари, муаммоли жараённи ҳис этиш қобилиятини хисобга олиш мақадга мувофиқдир.

Ижтимоий компетентлик – бу:

- ҳаётга мослашганлик,
- ўзгарувчан шарт-шаротларга мослашувчанлик кўникмаси, турли-туман вазиятларда ўзини йўқотмаслик, турли жамоаларда фаолият кўрсата олиш,
- масъулиятли танловни амалга ошириш қобилияти.

Ижтимоий компетентлик компонентлари:

- жамиятдаги ижтимоий институтларнинг тузилиши ва фаолият олиб боришига доир билимлар;
- ижтимоий ролга қўйилган талаблар ва кутишларга оид билимлар;
- ижтимоий ролга хос бўлган хулқни эгаллаш малакаси;
- умуминсоний нормалар ва қадриятларга оид билимлар;
- кишининг ўзи ҳақидаги тасаввурлари, ўзини ижтимоий
- субъект сифатида идрок этиш;
- самарали ижтимоий ҳамкорлик кўникмалари ва малакалари.

Ижтимоий хулқ малакалари:

- ўзаро биргаликдаги ҳаракат малакалари;
- стресс (зўриқиш)ли вазиятлардаги адекват хулқ малакалари;
- ижобий мулоқот малакалари;
- бошқаларни тушуниш ва ўз-ўзини баҳолаш малакалари;
- ўз хулқини идора этиш малакалари;
- ҳиссий холатлар ва эмоцияларни бошқариш;
- муаммоли вазиятни ҳал этиш малакаси;
- ўз шахсига нисбатан ижобий муносабат, ўз қадрини билиш малакаси.

Боладаги шахсий тузилмаларнинг шаклланганлик даражаси ижтимоий адаптация (мослашиш)га кўмаклашади ва бу ижтимоий кўникмани хосил қилади. Ижтимоий компетентликка замин яратиб берадиган шахсий тузилмалар:

Биринчидан, мактабда ижтимоий фойдали фаолият мотивацияси ривожланади ва мустаҳкамланади. Жумладан, у иккита қутбдан бирига жойлашган бўлади:

- муваффақиятга эришишга интилиш;
- муваффақиятсизликдан хавотирланиш(қочиш).

Агар ўқувчи ўз фаолияти давомида муваффақиятсизликка дуч келса, унинг мотивация соҳасида “муваффақиятсизликдан қочиш” мотиви устунлик қила бошлайди. Психологик тадқиқотларда аниқланишича, “муваффақиятга эришишга интилиш” мотиви ижтимоий адаптация (мослашиш)га қулайлик яратиб беради.

Фаолиятнинг ушбу мотивацияси амалий, ижобий натижаларга эришишга йўналтирилган бўлади ва шахс фаоллигини белгилаб беради.

Муваффақиятсизликдан хавотирланиш мотивацияси ижтимоий компетентликка эришишга тўсқинлик қиладиган, салбий холат хисобланади. Мотивациянинг ушбу типида ўқувчи ҳатолар, муваффақиятсизликлар, танбеҳ ва жазодан қочишга ҳаракат қилади, барча

интилишларидан салбий натижани кута бошлайди ва бу унинг жамиятдаги хулқига таъсир кўрсатади.

Ҳали фаолият бошламасдан олдин, у ўзининг муваффақиятсизлигини башорат қила бошлайди ва фаолиятдан воз кечади. Ижтимоий компетентликни эгаллаш учун, “муваффақиятга эришишга интилиш” мотивининг аҳамияти катта бўлади.

Иккинчидан, билиш соҳасининг интенсив ривожланиши ва ундаги сифат ўзгаришлари туфайли бола, ўз билиш жараёнларини идора этишни ўрганади, улар билвоситалик касб этиб, иҳтиёрий ва англанган шаклда ифодаланади. Бу эса, хулқ-атворни иҳтиёрий бошқариш қобилиятига замин яратади.

Хулқ-атворни ихтиёрий тарзда идора этиш (ўз хулқини онгли бошқариш, ижтимоий меъёрлар ва қоидаларга риоя этиш, ўз-ўзини бошқариш қобилияти), ижтимоий компетентликнинг тараққий этиши учун аҳамиятли бўлган муҳим янгиланишлардан бири саналади.

Учинчидан, ўсмир ўзига бошқалар назари билан қарашга ўрганади, унда ўзига ва бошқаларга нисбатан танқидий муносабат пайдо бўлади, ҳамда ўзига-ўзи баҳо бера бошлайди. Ўз-ўзига баҳо беришнинг юзага келиши, шахс тузилмасидаги энг муҳим бўғин хисобланиб, кўп ҳолларда шахснинг ижтимоий мослашувини таъминлаб беради ва ўқувчи хулқини идора этади.

Ўз шахсидан қониқиш ҳисси ва ўз-ўзига берилган баҳо, ижтимоий компетентликнинг муҳим таркибий қисмидир.

Тўртинчидан, ўқув жараёнида болаларда теварак атрофдаги кишилар билан муносабатларнинг янги типи шаклланади. Болалар ижтимоий нормаларни ўзлаштирадилар, шахслараро муносабатларда “нима яхши – нима ёмон” эканлигини фарқлайдилар, катталардан кўра ўз тенгдошларига яқинлаша бошлайдилар.

Ушбу холатда ижтимоий мослашиш учун ўзаро ҳамкорликдаги фаолият ижобий таъсир кўрсатади, ўқувчи ўз тенгдошлари ва катталар билан биргаликда фаолият олиб боради. Ўз фикрини бошқаларникидан ажрата олиш туфайли ўқувчи ўз шахсий “Мен”ининг имкониятларини чамалай олади, кўпгина ҳаётий вазиятлар унинг хулқ-атвори, ўзини тутишига боғлиқ эканлигини тушуниб етади, шу аснода муаммоли вазиятларни ҳал этиш кўникмаларини эгаллайди.

Бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни шаклланишида ижтимоий-психологик тренинглардан фойдаланиш яхши самара беради. Бунинг учун ижтимоий-психологик тренинглардан фойдаланиб ижтимоий компетентликни шакллантириш бўйича махсус дастур ишлаб чиқилган бўлиб уни босқичма босқич амалга ошириш керак. Бу дастур назарий умумий тасаввурни, синф ва синфдан ташқари ишларнинг ўқувчилар билан уйғунлигини ва ижтимоий-психологик тайёргарликни ўз ичига олгани ҳолда ўқитиш билим, ижтимоий муносабат, ижтимоий интеллект, кўникма ва тажрибани ривожлантириш учун зарурдир.

Тажрибанинг янгилиги инсон ҳаракатлари ва ҳаракатлари, оғзаки ва новербал ифода (яъни, ижтимоий ақлни ривожлантириш) ҳақида тушунча берувчи ақлий қобилиятлар тизимини ишлаб чиқиш орқали ўқувчига, бўлажак педагог шахсининг ижтимоий муносабатларда ва унинг ижтимоий шароитларга мослашувида ёрдам бериш мумкинлиги билан боғлиқ.

Бўлажак педагогларда ўз-ўзини тасдиқлаш ва ўз-ўзини ишонч кўникмаларидан ташқари, албатта, бошқа ҳаётий ёки ижтимоий кўникмаларни ҳам шакллантириш зарур бўлиб улар сирасига тинглаш, мулоқотчанлик, очиқ гапириш ёки музокара олиб бориш малакаларини шакллантириш хам киради.

Ушбу тренинг жараёнида ижтимоий компетентлик икки босқичда – асосий кўникмаларни тўлиқ ўзлаштириш натижасида (биринчи қадам-ижтимоий кўникмаларни, шу жумладан ўзига бўлган ишончни шакллантириш) ва уларни қўллаш соҳаларини ва муайян кўникмалардан фойдаланганда юзага келадиган оқибатларни англаш (иккинчи қадам-ижтимоий муҳитда кўникмаларни қўллаш) намоён бўлади.

Бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни шакллантиришнинг яна бир усули сифатида аудиториядан ташқари олиб бориладиган ишлар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Бўлажак педагоглардаги ижтимоий компетентликни шакллантиришга кўмаклашувчи аудиториядан ташқари фанларга оид хафталикларни ташкил этишини ҳамда ушбу тадбирларда барча талабаларнинг фаол иштирок этишларини назарда тутган ҳолда, талабларнинг олган билимларини чуқурлаштириш ва намоён этишлари, ижодий қобилиятларини ривожлантиришлари, илмий-тадқиқот ишларига қизиқишлари учун имконият яратади.

Фанларга оид ташкил этилган ҳафталиклари доирасида ўтказиладиган тадбирлар назарий курсларнинг амалий жиҳатдан мустаҳкамлаш билан бирга талабаларга ўзларини мутахассис сифатида исботлаш имкониятини ҳам беради ҳамда ижтимоий компетентликни шакллантиришда амалий жиҳатдан ёрдам беради.

Бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликнинг компоненти ҳисобланган мулоқотмандлик, ўзгалар билан ўзаро таъсирга киришиш, қийин вазиятлардан чиқиб кета олиш малакаларини шакллантириш мақсадида ўқув жараёни билан амалиётни боғлаш, ўқитувчиларнинг умумтаълим мактабларида амалиёт машғулотларидаги фаолиятига ўзгартиришлар киритиш, ҳамда ўқувчилар билан муваффақиятли ўзаро таъсирга киришиши учун шарт-шароитлар яратишдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар

1. А.Г. Асмолов Социальная компетентность // М., 2012.
2. И.П.Гладилина, М.В.Жирова, О.С.Михно Социальная компетентность личности // Современные проблемы науки и образования. – №1. М., 2012.
3. И.А.Зимняя Педагогическая коммуникативная компетентность: теоретические и практические аспекты, Ижевск, 2011.
4. Д.А.Почебут Компетенции в образовании: формирование и оценивание. – Москва, Издательство «Национальное образование», 2012.
5. Л.М.Спенсер, С.М.Спенсер Компетенции на работе. – Пер. с англ. М.: HIPPO, 2013. – 384 с.
6. В.Г.Ромек Развитие уверенности в межличностных отношениях // Журнал практического психолога. – 2013. – № 12. – С. 74 – 113.
7. И.А.Зимняя, Е.В.Земцова Интегративный подход к оценке единой профессионально-социальной компетенции выпускников вузов // Издательский центр проблем качества подготовки специалистов. Компетентность специалиста. – М., 2011.
8. А.А.Демчук Психологическое содержание жизнестойкости личности студентов // автореф., дис. … канд. психол. наук. Ярославль, 2011.
9. Федеральный Государственный образовательный Стандарт среднего профессионального образования по специальности 40.02.01 «Право и организация социального обеспечения» М., 2015.

PSIXOLOGIK TRENINGLARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH MA’NAVIY YUKSALISH GAROVIDIR

Mirzabdullayeva D.,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali dotsenti,
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Xalqimizning milliy ongi, milliy g’ururi, milliy iftixori o’sib, ma’naviy dunyosi kundan kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma’naviy asosini yanada mustahkamlashga imkoniyat yaratib bermoqda. Lekin bundan ma’naviyat sohasida hech qanday

muammo yo’q degan xulosani chiqarib bo’lmaydi. Bugungi kunda erkin fuqaro ma’naviyati, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir.

Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning, ta’lim muassasalari mutaxassislari hamda ota-onalarning oldiga qo’yilayotgan vazifalar bevosita psixologiya sohasida yaratilayotgan turli psixodiagnostik metodlar (trening – o’kitish tarbiyalash, diagnostika – tashhis qilish, psixoterapevtik suhbatlar, so’z orqali davolash, anketa usuli-so’rov varaqasi yordamida muammoni o’rganish, test usuli aqliy taraqqiyotni aniqlash maqsadida ishlatiladigan standart topshiriq) yordamida amalga oshiriladi [1].

Psixologiya sohasi keyingi o’n yillar mobaynida anchagina rivojlandi. Shuningdek, psixologiya sohasining alohida yo’nalishlari sifatida trening tarmog’i ham rivojlandi. Trening insonlarda mavjud bo’lgan xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasi hisoblanib, insonlarni rejalashtirilgan faolligini oshirish uchun, kasbiy bilimlarini oshiruvchi, ko’nikmalarini yaxshilashga yo’naltirilgan, yoki maqsadli faoliyatlari talablariga mos keluvchi attityudlar modifikatsiyasi va jamoatning ijtimoiy xulq-atvorini tuzatish uchun zarurdir.

Psixologiya tarixida trening o’qitishning eng keng tarqalgan shakli faol ijtimoiy-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya ijtimoiy psixologik treningga ta’rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: «Trening-shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, ijtimoiy ustanovkalar, ko’nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir», shuningdek «Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir» [2].

Bugungi kunda erkin fuqaro ma’naviyati, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifa hisoblanadi. “Boshqacha qilib aytganda, – deydi O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev – o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo’layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan, erkin jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak” [3].

Hozirgi davrda yoshlar orasida ruhiy zo’riqish hollari avvalgi paytlardagiga nisbatan ancha ko’p uchrayotganligi va buning natijasida ko’pgina hayotiy muammolar (jinoyatchilik, suitsid, huquqbuzarlik) vujudga kelayotganligi ko’pchilikni, ayniqsa keng jamoatchilikni, shuningdek aynan psixolog mutaxassislarni ham tashvishga solayotganligi bejiz emas. Aytish mumkinki, bunday holatlar turli darajadagi zo’riqishlar natijasida vujudga kelmoqda.

Ayni kunlarda asabiylashish holatlari kuzatilayotgan quyidagi kishilar guruhini alohida ta’kidlab o’tish joiz [3]:

I. Bolalar orasida:

1. Bog’cha bolalari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

2. Maktab o’quvchilari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

3. O’smirlar orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

II. Kattalar orasida:

1. Ish joylarida (rahbar yoki xodimlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;

2. Oilada (er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzandlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;

3. Keksalar orasida (psixologik o’zgarishlar natijasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari.

Yuqorida sanab o’tilgan asabiylashishlardan kelib chiqadigan muammolar mavjud bo’lib, bu muammolarni yechish imkonini topa olmaslik natijasida psixologik maslahat va psixologik korrektsiyaga muhtoj bo’lib qoladigan bir necha xil guruhlar vujudga keladiki, bular [4]:

1. Muloqotchanlikning yetishmasligi muammosidan siqilgan kishilar guruhi.

2. Iqtisodiy yetishmovchilikdan siqilgan kishilar guruhi.

3. O’z yaqinlarini yo’qotib siqilgan kishilar guruhi.

4. Turli baxtsiz hodisalardan keyin qandaydir kasallik orttirib olgan kishilar guruhi.

5. Begona joyga ko’chib kelib, tub aholining bosimidan siqilgan kishilar guruhi.

6. Rahbarlar tomonidan yoki o’zidan kattalar tomonidan shaxsiyatiga tegilgan hollarda siqilishga duch kelgan kishilar guruhi.

7. Yangi o’qish yoki ish joyiga moslasha olmasdan siqilishga duch kelgan kishilar guruhi.

8. Chekish, ichish, narkotik moddalar iste’mol qilishdan qutula olmasdan siqilayotgan kishilar guruhi.

Yuqorida sanab o’tilgan muammolarni hal qilishda psixologik trening deb ataluvchi o’yin va mashqlar seriyasidan iborat mashg’ulotlar yordam beradi.

Yuqoridagi guruhlar o’zi istab, o’z xohishi bilan treningga keladi va trenerning ko’rsatmalariga amal qiladi. Lekin ba’zi guruhlar bo’ladiki, bu guruh a’zolari treningga istamasdan, xohlamasdan keladi: Masalan, jinoyatchilar, bezorilar, o’g’rilar, narkotik bilan shug’ullanuvchilar. Lekin guruh a’zolarining istagidan qat’iy nazar treningning vazifasi ularning muammolarini hal etishga qaratilgan bo’ladi.

Har qanday psixologik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi [5].

1. Guruhni tashkil etish yoki yig’ish bosqichi.
2. Boshlang’ich bosqich.
3. Ishni olib borish bosqichi.
4. Yakunlash bosqichi.

Eng muhimi guruhni tashkil qilish bosqichi bo’lib, bunda quyidagi jihatlarga e’tibor berish kerak:

- Har qanday treningda (faqat nogironlar bilan o’tkaziladigan maxsus treninglarni hisobga olmaganda) tashqi jismoniy defektga ega bo’lgan va psixik holatida buzilishlar bo’lgan kishilar ishtirok etmasligi lozim. Negaki, bunday holatlarda aynan ana shunday kamchilikka ega bo’lganlarda aks ta’sir bo’lishi ehtimoli kuchliroqligi har qanday mutaxassis uchun tushunarli bo’lsa kerak.

- guruh a’zolarining soni 8 tadan 12 tagacha (ba’zi hollardagina 20 tagacha) bo’lgani ma’qul.

- ishtirokchilarning yoshi iloji boricha taxminan teng bo’lishi, ya’ni ular orasidagi farq 4 – 5 yoshni tashkil etishi mumkin (Alohida qayd etish lozim, 45 – 50 yoshdan kattalar uchun trening juda katta va ahamiyatli ta’sirga ega bo’lmasligi va ular kutganchalik natija bermasligi ham mumkin).

- ishtirokchilar orasida ayol va erkaklar soni imkoni boricha teng bo’lishi kerak.

Bundan tashqari yana quyidagilarga xam e’tibor berish lozim bo’ladi:

Treningda muammosi bir xil bo’lgan odamlarni to’plash kerak. Trening ishtirokchilari iloji boricha bir-biriga notanish bo’lishlari lozim. Trening o’tkaziladigan xona albatta izolyatsiyalangan bo’lishi shart, ya’ni hech kim ularni bezovta qilishi mumkin emas va ular ham boshqalarga halaqit bermasligi kerak.

Rasmiylashgan guruh bo’lishiga yo’l qo’ymaslik lozim. Trenerdan auditoriya erkin bo’lishini ta’minlash va auditoriyani yaxshi bilish talab etiladi.

Inson eshitganlarining 10% ni, ko’rganlarining 50% ni, aytib berganlarining 70% ni va nihoyat o’zi qilganlarining 90% ni o’zlashtiradi. SHunday ekan treningning samarali bo’lishi ma’lum bir jihatdan trenerning spetsifik printsiplariga ham bog’liqdir [6].

Trener har doim trening o’tkazishga kirishishdan avval o’ziga:

Men qanday maqsadga erishmoqchiman?

Men nima uchun shu maqsadga erishmoqchiman?

Men qanday vositalar bilan unga erishmoqchiman? kabi savollarini berishi lozim.

Bu savollarga javobni trenerga guruh bilan ishlash davomida diagnostik tadqiqotlar ochib beradi.

Trener ish rejasining mundarijasi, guruhning rivojlanish va inoqlik darajasi, munosabatlar xarakteri, guruhdagi har bir ishtirokchining holati, uning o’ziga va boshqalarga nisbatan munosabati, treningga nisbatan munosabati, trenerning o’zining munosabati kabilar diagnostika ob’ekti bo’lib hisoblanadi.

Demak-ki, treningni shaxsda mavjud bo’lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida bahs-munozara (o’zaro fikr almashish) o’yin va mashqlar orqali o’tkaziladigan mashg’ulotlar yig’indisi

ekanligini inobatga olib, bunday psixologik treninglarni amaliyotga to'liq tadbiq etish vaqti keldi.

Zero, bunday treninglar insonlarni ruxiy dunyosini boyitib mustaqil qaror qabul qila olishiga yordam beribgina qolmay "Menga yurtim nima berdi deb emas" balki "men yurtimga nima berdim?" deb yashash xissini uyg'otsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gorbushina O.P. Psixologicheskiy trening. Sekreti provedeniya. SPb.: Piter, 2007. – 176 s: il. – (Seriya «Prakticheskaya psixologiya»).

2. Zaxarov V.P., Xryasheva N.Yu. Sotsial'no-psixologicheskiy trening. L., 1990.

3. Praktikum po sotsial'no-psixologicheskomu treningu. Pod.red. B.D.Parigina. Sankt-Peterburg, 1994.

4. E.G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi" – Toshkent, 2005.

5. Asranbaeva, M.H. (2020). CHARACTERISTICS OF FORMING MOTIVES OF LABOUR ACTIVITIES IN AN INCOMPLETE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 121-123.

6. Badritdinova, M.B., & Rustamova, T.N. (2021). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF THINKING IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Science and Education, 2(2), 331-337.

EMOTSIONAL KREATIVLIK KELAJAK O`QITUVCHISINING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA

Kurbanova Zarifa Bokijanovna,
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti

Emotsional kreativlik muammosini tadqiq etish shaxslararo munosabatlardagi o'zaro ta'sirga xos qonuniyatlarni bilish, boshqaruv, pedagogik va badiiy-estetik faoliyat sohalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Insonning hissiy olamini aks ettirilishi uning emotsional kreativligi natijasidir.

Emotsionál kreativlik-hissiyotlarni ijodiy qayta o'zgartirish qobiliyatidir. [1.140] Mazkur tushuncha birinchi marta Jeyms Everill (J.R.Averill) tomonidan 1980 yilda hissiyotning konstruktiv nazariyasida tavsiflab berilgan. J.Everill nazariyasining asosini emotsional sindrom yoki emotsiya ijodiy faollikning natijasi ekanligi haqidagi g'oya tashkil etadi. Emotsional sindrom, uning fikricha- qisqa muddatli va oraliq ijtimoiy rollardan iborat.

Psixologiya fanida emotsional kreativlikning boshqa ta'riflari ham mavjud bo'lib, ular:

1. Yangi emotsiyalarni (me'yoriy holatlardan farq qiluvchi) yaratish, emotsional sindrom tarkibi va mazmuniga ta'sir ko'rsatish qobiliyati; [3. 114]

2. Keng ma'noda emotsional sohaning divergent sezuvchanlik bilan bog'liq bo'lgan va his-tuyg'ularni tashkil etishning barcha darajalarida namoyon bo'luvchi emotsional sohaning xususiyati, tor ma'noda – artistlik faoliyatini o'zlashtirish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan umumiy kreativlikning bir qismini tashkil etuvchi qobiliyati; [2. 58]

3. Shaxsning o'z emotsional imkoniyatlaridan faoliyat va muloqotda ijodiy foydalana olish qobiliyati; [1. 137]

4. Ijtimoiy hayotdagi ob'yektiv va sub'yektiv jihatdan zo'riqishli hamda stressogen vaziyatlarda o'z hissiyotlarini ijodiy boshqarish, odatiy, stereotip emotsional reaksiyalarni yangi hissiy holatlarga o'zgartira olish. [4. 64]

Yuqorida keltirilgan ta'riflarning barchasida asosiy jihat sifatida yangi emotsiyalarni yaratish va stereotip, odatiy, maqbul bo'lmagan holatlarni o'zgartirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda emotsional kreativlikning yangi hamda muhim (samarali) emotsiyalarni yaratish vazifasi ta'kidlab o'tilgan. [1. 136] Emotsional kreativlik – hissiy holatlarni samarali

ichdan kechirish va boshqarish qobiliyati bo'lib, u umumiy emotsional iqtidorning bir qismi sifatida vaziyatni hisobga olgan holda his-tuyg'ularni noodatiy va mustaqil ifodalay olishda namoyon bo'ladi. T.N.Berezina va R.N.Tereshenko emotsional kreativlik muammosiga sotsial kreativlikning tarkibiy qismi sifatida yondashib uni ikkita jihatdan, ya'ni divergent sezuvchanlik va qobiliyat tarzida talqin etishadi. [2. 60]

Psixologik adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni umumlashtirgan holda emotsional kreativlikni shaxsning emotsional axborotlarni idrok qilish, tushunish, qayta ishlash va yaratish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Emotsional kreativlik motivatsion, intellektual, estetik, ekzistensional komponentlar bilan birgalikda emotsional tajribaning samaradorligi va yangiligi, ijodiy faoliyatning noyobligi hamda natijaviyligini belgilaydi.

Emotsional kreativlik tarkibida quyidagi komponentlar ajratib ko'rsatiladi:

- yangilik, betakrorlik – noodatiy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi;
- autentlik – shaxsning faqat o'zigagina xos bo'lgan haqiqiy emotsiya va hissiyotlarini namoyon etishi, hissiy namunalardan voz kechish qobiliyati;
- murakkablik (divergentlik) – turli modallikka ega bo'lgan emotsiyalar, ambivalent kechinmalar, yuksak hislarni kechirish qobiliyati;
- qayta yaratish – emotsional mazmunni o'zgartirish, ko'chirish (transformatsiya);
- refleksivlik – o'zining hissiy olamini bilish;
- empatiya – hamdardlikka, boshqalarning hissiy-ma'naviy olamini bilishga qobiliyatlilik;
- emotsional xayol – hissiy jihatdan boyitilgan tasavvur, obraz, vaziyatlarni yaratish qobiliyati;
- boshqarish – o'zining emotsional holatlarini nazorat qilish;
- ekspressivlik – emotsiyalarni yorqin va rang-barang shakllarda namoyon etish, ifodalilik.

J.Everill emotsional kreativlikni shaxs xususiyati sifatida talqin etib, uning tarkibida quyidagi tuzilmalarni ajratib ko'rsatgan:

- tayyorlik – avvalgi tajribalarga asoslangan holda hissiy kechinmalarni tushunishga o'rganish qobiliyati. Hayotida hissiy holatlar muhim ahamiyat kasb etadigan kishilar o'zining va boshqalarning hissiy kechinmalarini tahlil qilish hamda tushunishlari uchun tayyorgarlikning yuqori darajasiga ega bo'lishadi;
- yangilik, odatiy bo'lmagan, tavsiflash qiyin bo'lgan hissiy holatlarni ichdan kechirish qobiliyati;
- samaradorlik – shaxsiy va boshqalar manfaati uchun hissiy holatlarni ifodali yetkazib bera olish qobiliyati;
- autentlik – hissiy holatlarni samimiy va adekvat ifodalay olish. [1. 72]

T.N.Berezina va R.N.Tereshenko esa qobiliyat sifatidagi emotsional kreativlikni quyidagilardan tashkil topgan deb ko'rsatishadi:

1) tezkorlik – rang-barang emotsional kechinmalarning miqdori;
2) egiluvchanlik – bir hissiy holatdan boshqasiga tez o'ta olishi qobiliyati;
3) originallik – odatiy vaziyatlarda ham yangi, nostandart hissiy holatlarni kechirish;
4) mukammallik – ichdan kechirilayotgan hissiy holatlarni barcha jihatlarini ifodalab bera olish qobiliyati. [2. 54]

Emotsional kreativlik shaxsning o'ziga-o'zi baho berish, o'zini hurmat qilish, mehribonlik, hamkorlikka moyillik kabi shaxs xususiyatlari bilan ijobiy aloqadorlikka ega ekanligini tadqiqotlarda tasdiqlangan. Emotsional kreativlik shaxsning emotsional o'zini-o'zi boshqarishini ta'minlaydi, ijobiy kechinmalarni faollashtiradi, stressni boshqarishda ishtirok etadi. Emotsional kreativlikka ega shaxs kechinmalarini chuqur tahlil qila oladi, o'zi va boshqalarning nizolashuvchanlik xususiyatlariga nisbatan murosali, shukronalik, mehr-oqibat, umidvorlik, hayotdan mamnunlik kabi his-tuyg'ularni faollashtiradi.

Emotsional kreativlik bir nechta darajaga ega bo'lib, uning quyi darajasi mazkur madaniyatda yaratilgan mavjud emotsiyalardan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. Yuqori kompleks darajasi esa guruh va individning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish maqsadida shakli

o’zgartirilgan standart emotsiyalardan iborat. Oliy daraja emotsiyalarning yangi shakllarining rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, emotsional kreativlik keng tushuncha bo’lib emotsional reaktsiyalarning yangiligini ifodalaydi. Uning emotsional intellektdan farqi emotsional axborotni qayta ishlashga bo’lgan yondashuvda namoyon bo’ladi. Emotsional intellekt – konvergent intellektga asoslansa, emotsional kreativlikning asosini divergent intellekt tashkil etadi. Ularning bir-biri bilan uzviy bog’liqligi muloqot va faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

Shaxsning o`zaro munosabatlari, kasbiy sohada muvaffaqiyatlarga erishishi, shaxslararo munosabatlarda boshqalarga ta’sir etish usullaridan samarali foydalana olishi, ijtimoiy-psixologik jarayonlardagi faolligini oshirish emotsional kreativlikning rivojlanganlik darajasi bilan ta’minlanishini nazarda tutgan holda zamonaviy psixologik ta’lim va xizmat ko’rsatish jarayonida emotsional kreativlikni tarbiyalash usullarini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Андреева И.Н.* Эмоциональный интеллект и эмоциональная креативность: специфика и взаимодействие. – Новополоцк: Полоцкий государственный университет, 2020. – 356 с.

2. *Березина Т.Н.* Эмоциональная креативность личности: определение и структура / Т.Н.Березина, Р.Н.Терещенко // Психология и психотехника. – 2012. – № 2 (41). – с. 43 – 50.

3. *Валуева Е.А.* Диагностика эмоциональной креативности: адаптация опросника Дж. Эверилла // Социальный и эмоциональный интеллект: от процессов к измерениям / Рос. акад. наук, Ин-т психологии; под ред. Д.В.Люсина, Д.В.Ушакова. – М., 2009. – с. 216 – 227.

4. *Фролова С.В.* Апробация авторского теста и тренинга эмоциональной креативности / С.В.Фролова // Изв. Сарат. ун-та. Нов. сер. Сер. Философия. Психология. Педагогика. – 2017. – Т. 17. – вы п. 4. – С. 471 – 477.

“KELAJAK O’QITUVCHISI” NI TAYYORLASHDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Maxsudova M.A.,
NamDU Psixologiya kafedrasi dotsenti

Oliy ta’lim tizimida bo’lajak mutaxassislarni o’qitish va tarbiyalash kabi murakkab va ko’p qirrali vazifani muvaffaqiyatli hal etishni faqat malakali, yuqori pedagogik mahoratga ega bo’lgan o’qituvchi bilan amalga oshirish mumkin. Ammo pedagogik mahorat – tug’ma talant yoki nasldan-naslga o’tuvchi xususiyat emas, balki u izlanish, ijodiy mehnat orqali qo’lga kiritiladigan yutuq hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo’yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o’qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko’mak beradigan muhitni yaratish zarur...”[1] deb ta’kidlab o’tganlar.

Malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimida umumkasbiy va ixtisoslik o’quv predmetlarini o’rganish katta ahamiyatga ega. Chunki ixtisoslikka oid kasbiy va shaxsiy kompetentlik (bilim, ko’nikma va malakalar) asosan umumkasbiy va ixtisoslik o’quv

[1] Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т. “Ўзбекистон”, 2017 й. – 45-б.

predmetlarini o’rganish jarayonida shakllantiriladi. Talabalar tomonidan ixtisoslik o’quv predmetlari mazmunini o’zlashtirilishi bilan ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi o’rtasida bog’liqlik kelib chiqadi.

Oliy ta’lim muassasalarida o’qitish metodikasini noan’anaviy tarzda takomillashtirish natijasida ta’lim maqsadlari belgilanadi yoki loyihalanadi, kutilayotgan yakuniy natija-ijobiy sifat o’zgarishi kafolatlanadi, o’quv jarayonining kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi. Bu jarayon barcha fanlar qatori Pedagogika va psixologiya yo’nalishida o’qitiladigan “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” faniga ham to’la tatbiq etilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirish, o’quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o’quv jarayonini amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirish, bu borada o’quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalar, o’quv dasturlari va o’quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish[1] borasida chora-tadbirlar belgilab berildi.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida Pedagog xodimlarning o’quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o’qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o’quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko’rsatish[2] huquqiga ega ekanliklari ta’kidlab o’tilgan.

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta’lim sohasining rivojlanishiga bog’liq. Ta’lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo’nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limni texnologiyalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo’llari izlanmoqda, shuningdek, ta’limda pedagogik texnologiyalarini joriy etish ta’lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o’rin olgan. Shaxsni tadqiq etish psixologiya fanidagi asosiy muammo sanaladi. Shaxs keng ko’lamli tadqiqot predmeti sifatida psixolog-tadqiqotchilarning diqqat markazidadir. Ammo mamlakatimizda psixologiyaning jamiyat talabidan kelib chiqib yangi bosqichga qadam qo’yganligi shaxs muammosiga atroflicha e’tibor qaratishni talab etadi. Buning uchun shaxsni tadqiq etishda jahon psixologiyasi tajribalarini inobatga olgan holda muammoni tahlil etish ko’zlangan maqsadni to’laqonli baholash imkoniyatini beradi.

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlami voyaga yetkazish masalasiga katta e’tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatisiz sog‘lora ijtimoiy munosabatlami o'matish mushkul. Muloqot bilan bog'liq muammolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan. Unga tayanib insonning ruhiy taraqqiyotini, uning atrofdagilar bilan boMadigan aloqasini, individning shaxs bo‘lib shakllanishini muloqotsiz tasawur qilib bo‘lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki muloqot ham insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biri. Insonning go‘daklik va o‘smirlik davrlarida muloqot yetakchi, ya’ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta,’sir ko‘rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi. (4.3.)

Biz bo‘lajak mutaxassislarda quyidagi muomala xususiyatlarini shakllantirishimiz zarur:

— muomala madaniyatining nazariy asoslari;

— shaxslararo munosabatlar qonuniyatlari;

— pedagogik muloqotning qonuniyatlari;

— oilada, guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan asosiy talablar haqida tasawurga ega bo‘lish;

— shaxsda muloqot shakllanishini o‘rganish;

— muomala madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish;

[1] https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019.

[2] Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь. *(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон)*

— shaxslararo munosabatlarda muloqotning ahamiyatini kuzatish;
— muloqot xossalarini bilish va qo'llay olish;
— guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish;
— oilada muloqot madaniyati, muloqot xossalaridan boxabar bo'lish;
— muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil etish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish. (4.9.)

Kattalar muloqotida ko'pincha muloqot madaniyati amalga oshiriladi, ya'ni bir-birlarini hurmat qilish, ishonish, anglash kabilar. Ammo ba'zi paytlarda muloqot buzilishi ham mumkin. Chunki ular ham ayrim paytlarda bir-birlarini tushunmasdan xafa qilib qo'yishlari, ko'ngilga og'ir botadigan gaplar aytib yuborishlari, natijada nizolarni keltirib chiqarishlari mumkin. Agar muloqot madaniyati kishilarda yaxshi shakllangan bo'lsa, ular bir-birlarini tushunishlari oson kechadi. Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash jarayonida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi. **«Oltin so'zlar»** (azizim, aylanay, o'rgilay, juda ham ajoyibsiz, bugun boshqachasiz, ochilib ketibsiz, kiyimingiz juda yarashibdi kabi)dan kundalik hayotimizda ko'proq, ammo o'mi kelganda foydalanishimiz zarur. Kattalar muloqotiga yoshlaming taqlid qilishlari orqali ularda muomala san'ati, madaniyati shakllanib boradi. Ayniqsa, oilada biz bu holatlarga e'tibor berishimiz kerak. Chunki «qush uyasida ko'rganini qiladi», degan naql bejiz emas. (4.22.)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т.: "Ўзбекистон", 2017 й. – 45-б.
2. https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь. *(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон)*
4. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. "Turon-iqbol" nashr. 2006 y.

БЎЛҒУСИ ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЕРЛАШДА КОММУНИКАТИВ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК УСУЛ ВА ВОСИТАЛАРИ

Сулейманова Т.Г.,
П.ф.н. Андижон давлат университети
Умумий психология кафедраси доценти

Мамлакатимизда амалга оширалаётган турли хил таълим ислоҳотларини амалга оширишда, хусусан, таълим тизими Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли Фармонининг янги давлат стандартларига ўтишида ва бўлажак мутахассисларни тайёрлашда эътиборга олиниши мумкин бўлган илмий тавсияларнинг аҳамияти ўсиб бормоқда. [1]

Бўлғуси ўқитувчиларнинг касбий компетентлиги, шахсий ва касбий қобилиятлари, билим, кўникма ва малакаларини ривожлантириши уларда нафақат академик билимларга, балки турли соҳалар ва фаолиятлардаги муаммоларни ижобий ҳал қилиш қобилиятига эга бўлиши зарур саналади.

Коммуникатив кўникмаларни шаклланиши бўлажак ўқитувчиларда келажакдаги педагогик фаолиятни самарали олиб боришга имкон беради.

Таниқли олим Н.А.Муслимовнинг таъкидлашича шахсга йўналтирилган замонавий таълим технологияларини самарали амалга ошириш учун талабалар зарур даражада коммуникатив компетентликка эга бўлиши, таълим-тарбия жараёнида ўзаро таъсир жараёнларига мослашувчан бўлиши, коммуникатив технологияларни қўллаганда талабалар ва ўқитувчи ўзаро бир-бирини тушуниши талаб этилади. [2]

Ф.Э.Зеер таълим жараёнидаги қулай ахлоқий ва руҳий муҳит, талабалар билан мулоқотнинг инсонпарварлиги ва демократлашуви, ўзаро алоқаларнинг самарадорлиги, муаммоларни ҳал қилишдаги самарадорлик, ўқитувчи ва талабаларнинг ўз фаолиятидан қониқиш ҳосил қилиши кўп жиҳатдан ўқитувчининг коммуникатив компетентлигига боғлиқ эканлигини эътироф этади. [2]

Педагогик соҳадаги мулоқот ўқитувчининг коммуникатив компетентлигининг таркибини белгилайдиган бир қатор хусусиятлар билан тавсифланади. [5]

Коммуникатив қобилиятлар таркибига қуйидагилар киритилади:

● мулоқот ўрнатиладиган коммуникатив вазиятнинг ижтимоий-психологик прогнозини бериш қобилияти;

● коммуникатив вазиятнинг ўзига хослигига асосланган мулоқот жараёнини ижтимоий-психологик дастурлаш;

● коммуникатив вазиятда мулоқот жараёнларини ижтимоий-психологик бошқаришни амалга ошириш. Тадқиқот усуллари. Тадқиқотимиз мақсади ва вазифаларига мувофиқ, биз илгари сурилган гипотезани тасдиқлаш учун қуйидаги тадқиқот усулларидан фойдаландик:

● умумий илмий усуллар: фалсафий назарий таҳлил, психологик, педагогик, услубий адабиётлар, ўрганилаётган масалалар бўйича меъёрий ҳужжатлар, педагогик тажрибани таҳлил қилиш, қиёсий таҳлил, таснифлаш, таркибни таҳлил қилиш, моделлаштириш.

● эмпирик усуллар: сўров ўтказиш, тест ўтказиш, коммуникатив компетентсия ривожланиш даражасини диагностика қилиш жараёнида талабалар фаолияти маҳсулотларини таҳлил қилиш, эксперт баҳолаш усули, кузатув, педагогик тажриба (аниқлаш ва шакллантириш).

Бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик фаолиятга тайёрлашда мулоокт кўникмаларини шаклланишининг ахамияти катта. Мулоқот талабалар, уларнинг ота-оналари, ҳамкасблари ва маъмурият билан самарали ҳамкорлик муваффақиятли ўқув жараёнининг асосини ташкил этади.

Мулоқот кўникмаларини шакллантириш эмпатияни ривожлантириш ва талабаларнинг эҳтиёжларини тушунишни талаб килади. Муваффақиятли ўқитувчи ўзини талабанинг ўрнига қандай қўйишни билади, бу еса яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

Таълим жараёнида мулоқотнинг жиҳатларининг таснифига қуйидаги киритиш мумкин: [4].

1. **Талабалар билан дўстона ўзаро эмоционал яқинликка асосланган муносабатларни ўрнатиш**:

- Ижобий таълим муҳитини яратиш ўқитувчининг талабалар билан самарали мулоқот қилиш қобилиятидан бошланади.

- Аниқ ва очиқ мулоқот ҳар бир талабанинг individual еҳтиёжлари ва хусусиятларини яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

2. Самарали таълимни яратиш:

- Ўқув материалини аниқ тушунтириш ва турли хил алоқа усулларидан фойдаланиш талабаларга ўқув материалини яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

- Мулоқот услубини талабаларнинг индивидуал хусусиятларига мослаштириш қобилияти материални ўзлаштиришни яхшилайди.

- Ота-оналар билан ижобий муносабатларни ривожлантириш:

Ота-оналар билан мунтазам мулоқотнинг ўрнатилиши талабанинг муваффақиятлари ва қийинчиликлари ҳақида фикр-мулоҳазалар ўқитувчи ва ота-оналар ўртасидаги ўзаро

эмоционал яқинликка асосланган ҳамкорлиги талабаларда танланган мутахасисиликка нисбатан ўқув мотивацияларини шакллантиришга ёрдам беради.

- Ўқув мақсадлари ва усуллари тўғрисида маълумот бериш талабаларнинг муваффақиятини таъминлаш учун зарурий вазифалардан бири хисобланади.

- Кучли мулоқот қобилиятига эга ўқитувчилар синфни янада самарали бошқаришлари, ўқувчиларни билим олишга нисбатан ижобий мотивацияларни шакллантириш имкониятига эга

- Талабаларнинг ижтимоий ва ҳиссий ривожланишига кўмаклашиш:

Мулоқот қобилиятларини ривожлантириш бўлажак ўқитувчиларни касбий ва шахсий тайёрлашнинг муҳим жиҳати ҳисобланади. Ушбу кўникмалар нафақат талабалар билан ўзаро муносабатларни осонлаштиради, ота-оналар, ҳамкасблар ва маъмурият билан самарали муносабатда бўлишга ёрдам беради. Бўлажак ўқитувчиларда мулоқот қобилиятларини ривожлантиришда қуйидаги усуллар ва стратегияларни қўллаш тавсия этилади:

1. Ролли ўйинлар ва тренинглар:

- Турли вазиятларда самарали мулоқот қилишни ўрганиш учун ўқувчилар ўқитувчи, талаба ва ота-она ролларини ўйнашлари мумкин бўлган ролли ўйинларни ташкил етиш.

- Аниқлик, ҳамдардлик ва фаол тинглашнинг муҳимлигига қаратилган мулоқот тренингларини ўтказиш.

2. Ишбилармонли ўйинлари:

3. Таълим муҳитида ҳақиқий мулоқот сценарийларини муҳокама қилиш учун кейс усулидан фойдаланиш.

- Талабалар ва уларнинг ота-оналари билан муваффақиятли ва муваффақиятсиз ўзаро муносабатлар ифодаланган вазиятларни,мисолларини таҳлил қилиш.

- Амалиётдан фикр-мулоҳазаларни тахлил қилиш:

- Талабаларга тажрибали ўқитувчилар ва амалиётчиларнинг мулоқот қобилиятлари тўғрисида фикр-мулоҳазаларини олиш имкониятини бериш.

- Мулоқот кўникмаларини такомиллаштириш учун турли мазмундаги муаммоларни тизимли муҳокама қилиш.

4. Талабаларда ўз фикр ва мулохазаларинии эркин ифода эта олиш кўникмаларини ривожлантириш учун нотиқлик тренингларини ташкил этиш:

Ушбу психологик тренингларда кичик гуруҳлар ва турли аудитория олдида материалларни тақдим этиш амалиётини қўллаш.

5. Шахслараро мулоқот кўникмаларни шакллантириш:

- Шахслараро муносабатларда низоларни самарали ҳал қилиш ва синфдаги нохуш вазиятларни бошқариш.

- Турли ёшдаги ва маданият талабалари билан умумий тил топиш қобилиятини ривожлантириш бўйича тренинглар.

6. Электрон алоқа воситаларидан фойдалана олиш:

- Ота-оналар ва ҳамкасблар билан самарали мулоқот қилиш учун электрон алоқа воситаларидан фойдаланишга ўргатиш.

- Ахборот алмашиш ва ота-оналар билан ўзаро муносабатлар учун электрон платформаларни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш.

7. Ота-оналар билан ҳамкорлик:

- Учрашувлар, семинарлар ва конференциялар каби ота-оналар билан ўзаро муносабатлар учун тадбирларни ташкил етиш.

- Ота-оналар билан самарали мулоқот қилиш кўникмаларини ўргатиш ва уларни таълим жараёнига киритиш.

8. Интроспекция ва ривожланиш:

- Талабаларнинг мулоқот қобилиятларини мунтазам равишда интроспекциясини тарғиб қилиш.

- Уларнинг мулоқот қобилиятларини доимий равишда такомиллаштириш стратегиясини ишлаб чиқиш.

Бўлажак ўқитувчиларда мулоқот кўникмаларини шакллантириш жараёни комплекс характерга эга бўлиб юқорида таснифланган усул ва воситалардан комплекс тарзда фойдаланиш ва профессор ўқитувчиларнинг талабалар билан олиб борадиган таълим ва тарбия ишларида ўзаро эмпатияга асосланган шахслараро муносабатларни ўрнатилиши асосида амалга ошади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. – https://lex.uz/docs/3107036

2. Амиров Н.И.Таълим жараёнида талабалар коммуникатив компетентлигини шакллантириш Замонавий таълим 2020 №3.

3.Ашихмина Т.А. Формирование коммуникативной компетентности студентов // Мир науки, культуры, образования. – 2012. – №4(35). – с. 52 – 54.

4. Зеер Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход // Образование и наука. Известия. Урал. отделение РАО. 2004. – № 3. – С. 42 – 53.

5. Лукъянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя // Москва, Педагогика. – 2001. – № 10. – с. 56 – 61.

6. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: “Фан”, 2004. – 126 б.

МЕТОДИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ НАЧЕРТАТЕЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ

Хамракулова Матлуба Муйдиновна,
Ташкентский Архитектурно-Строительный Университет, доцент

Аннотация. *В статье обсуждаются проблемы, возникающие при объяснении студентам новых тем по строительному черчению, и методы, имеющие значение для их решения.*

Ключевые слова: *форма, графика, пространственное воображение, строительное черчение, фактология, психология.*

Известно, что люди различаются множеством аспектов. Например, некоторые могут хорошо запоминать свои переживания и вспоминать их в нужный момент. Другие способны детально описывать любой объект, который видели. Есть те, кто более точно размышляет о слышанном, в то время как некоторые выражают свои чувства простым и понятным языком, а другие полагаются на фантазии различного содержания и формы. Область архитектурного черчения также не исключение, где некоторые склонны добавлять элементы фантазии в каждый чертёж.

С другой стороны, существуют профессии, которые способствуют развитию определённых качеств у человека. Например, операторы в крупных автоматизированных системах управления учатся концентрировать внимание на мельчайших изменениях, а конструкторы становятся мастерами абстрактных математических расчётов.

Развитие компьютерных технологий усилило интерес человека к собственным психическим процессам. Теперь мы часто обсуждаем приём информации (похожий на традиционное восприятие), её переработку (похожую на мышление) и сохранение (память), что повышает значимость и воспитание этих естественных способностей и процессов в человеке.

Аналогичная ситуация часто наблюдается и в нашей памяти. Сталкиваясь с задачей, связанной с предметом изучения, мы задаем себе вопрос: где я это видел? Мы не можем вспомнить, но структура задачи, принцип ее работы и другие аспекты кажутся знакомыми. Это можно объяснить тем, что то, что человек видел или испытал, на самом деле сохраняется в мозгу, и мы можем вспомнить только часть этого опыта. Только когда мы болеем или испытываем сильное беспокойство по поводу чего-то, в нашем мозгу возникают различные мысли и идеи. Это непроизвольное восстановление существующих вещей.

Наши наблюдения показывают, что в процессе обучения строительному черчению у студентов наблюдается снижение показателей усвоения материала. Например, некоторые теоретические знания и графические навыки, которые входят в содержание графического образования, формируются в школьных курсах черчения. Поэтому, когда студенты приходят в высшие учебные заведения, у них уже есть определенный уровень знаний по этому предмету. Обучение геометрии в школе также создает основу для строительного черчения. Однако соотношение усвоенных знаний к знаниям, полученным из курса строительного черчения, оказывается недостаточным. В результате у некоторых студентов отсутствует до 30%, а у других – до 60% пространственных представлений.

Эта проблема остается актуальной для дисциплины черчения. Поскольку ее негативные последствия в конечном итоге приводят к тому, что у студентов не развивается пространственное воображение, которое является основой дисциплины черчения, что в свою очередь приводит к нехватке квалифицированных специалистов в данной области. Суть и основы этой дисциплины могут усвоить и понять только те люди, у которых развиты и сформированы пространственные представления, навыки и умения. Это может быть связано со следующими психологическими, педагогическими и методическими аспектами, а именно:

- трудности, возникающие у студента при восприятии дисциплины или непонимание ее;
- информация, представленная в новой теме, может быть знакома студенту и казаться ему повторяющейся, то есть не вызывать интереса;
- отсутствие пространственного воображения;
- неполное понимание темы;
- отсутствие пространственного воображения в темах, требующих такого представления;
- недостаток интереса со стороны учителя в процессе обучения, отсутствие независимой работы, домашних заданий, графических работ;
- недостаток укрепления знаний у студента по мере роста его интереса к графическому образованию;
- отсутствие стремления у студентов, заинтересованных в графическом образовании, к расширению, улучшению и развитию своих знаний;
- занятость студентов во время урока другими делами и невнимание и т.д.

Такие ситуации, хотя и редко, но встречаются в практике опытных учителей. В академических лицеях и профессиональных колледжах темы, изученные в школе, преподаются в более широком и сложном виде. Поэтому эта дисциплина предоставляет студентам возможность заинтересоваться графическим образованием. В традиционном образовательном процессе учитель организует урок в основном для студентов с низким уровнем успеваемости. В этом случае для отличников объяснение темы может быть скучным и уменьшать их интерес, в то время как студенты, которым трудно усваивать материал, могут отставать в учебном процессе даже при желании. Поскольку различия в показателях усвоения материала студентами не позволяют активизировать учебный процесс. Такой процесс можно наблюдать даже среди студентов в их способности к пространственному воображению. Поскольку интерес студентов к графическому

образованию может быть на низком, среднем, направленном на формирование или сформированном уровне, это создает проблемы для учителя. Поэтому развитие пространственного воображения у студентов должно быть исследовано как педагогическая и психологическая проблема.

Преподаватель, ориентируясь на уровень заинтересованности студентов в начертательной геометрии и учитывая их навыки, должен структурировать учебный процесс, в котором студенты с недостаточно развитыми или низким уровнем интереса к графическому обучению будут мотивированы участием в уроках и исследованиях. В то время как учитель, пренебрегающий этим, приведет к тому, что студенты с низким уровнем интереса к графическому обучению будут чувствовать себя отчужденными. Поэтому необходимо исследовать различные факторы, которые могут стимулировать интерес студентов к графическому обучению, исходя из их психологических особенностей. Психологическое понятие воображения – это способность чего-либо существующего или реального проявляться или оказывать воздействие на человека. Поэтому мотивация студентов к интересу к графическому обучению в этих дисциплинах может быть достигнута не только путем передачи знаний в виде бумажных материалов, но и через использование тонны бумаги и учебных материалов.

Поэтому интерес к графическому обучению может способствовать укреплению и усвоению знаний. Преподаватель передает свои знания студентам с помощью учебных материалов и стимулирует интерес к графическому обучению, что делает урок более продуктивным. Студенты используют эти материалы для усвоения знаний и, в свою очередь, пытаются формировать и развивать полученную информацию в своих представлениях через интерес к графическому обучению. Например, на уроках строительного черчения, такие задачи, как изображение видов здания, четкое представление, построение сечения на основе двух видов, рисование четкого изображения на основе видов или выполнение сечений и разрезов с помощью мысленно представляемых плоскостей, осуществляются на основе представлений студентов. В этом процессе интерес к графическому обучению играет важную роль. Поэтому интерес к графическому обучению рассматривается как серьезная психологическая и педагогическая проблема в учебном процессе студента. Решение этой важной психологической и педагогической проблемы считается важным фактором в развитии интереса студентов к графическому обучению. Рациональное использование интереса к графическому обучению является эффективным средством решения этой проблемы.

Исследование этих проблем в системе образования, активизация учебного процесса в вышеупомянутом порядке отражены в исследовательских работах психологов и педагогов. В них подчеркивается, что внедрение новых методов и учебных средств в область образования в будущем приведет к дальнейшему совершенствованию учебного процесса. Применение учебных средств, особенно на основе интереса к графическому обучению, в процессе обучения студентов высших учебных заведений дисциплинам черчения приводит к ряду положительных результатов.

Учебный процесс является интеллектуальной деятельностью студента, то есть деятельностью мышления. Для этого необходимо ставить перед студентами проблемные задачи, в результате чего они учатся активизировать свою интеллектуальную деятельность, стремиться к решению. В обычных уроках преподаватель тратит большую часть времени на изложение новой темы. В результате, во многих случаях не успевают укрепить изученную тему, связать ее с новой и, что самое главное, контролировать и оценивать знания студентов. К сожалению, многие наши педагоги считают организацию учебного процесса – только передачей новых знаний и считают это второстепенным вопросом для активности студентов, для развития их интеллектуального потенциала. В результате студенты теряют интерес к предмету и вынуждены ждать звонка.

Существует ряд способов решения этих проблем, включая обогащение содержания урока интересными фактологическими, историческими материалами, а также

рациональное использование интереса к графическому обучению. Для этого необходимо развивать интерес студентов к графическому обучению с помощью нестандартных методов обучения, что, естественно, требует разработки содержания и методики. Это очень важная педагогическая проблема. Ведь учебные программы не только развивают индивидуальные рабочие качества студента, интерес к графическому обучению, но и способствуют выведению их на передний план в их деятельности. Последовательность интересных сведений в темах, образовательные тестовые программы для самоконтроля, программные дидактические игры, разработанные для облегчения усвоения и интересного понимания, стимулируют студентов к индивидуальной работе. Даже при необходимых условиях можно организовать учебную деятельность без учителя и без отрицательного воздействия.

Степень понимания учебного материала, его отражение в сознании и формирование знаний на основе этой информации определяется принципом наглядности обучения. Он повышает качество учебного процесса, облегчает студентам получение знаний. Потому что с психологической точки зрения в этом процессе все сенсорные анализаторы студента активно работают, в результате чего научные знания о предмете-объекте отражаются и сохраняются в памяти. Формирование того или иного явления, исторической памяти в мозгу во-первых, с психологической точки зрения повышает у студента стремление к получению знаний, во-вторых, ожидаемый результат от обучения (образования) педагогически гарантирован. После длительного времени наблюдается, что именно это изображение, то есть архитектурный рисунок, демонстрация картинки, вызывает в памяти информацию. Также необходимо обеспечить учебный процесс техническими средствами.

Способность личности к мышлению, то есть развитие мысли происходит с помощью операций мышления. Еще одна важная сторона использования интересов к графическому обучению заключается в том, что оно помогает студенту полно и точно представить себе тему или понятия, связанные с темой, отражение элементов представления-объекта и его свойств в сознании человека. Подводя итог, можно сказать, что непосредственное обучение чертежной геометрии, уроки черчения совершенствуют интересы к графическому обучению, усваивают каждую тему и повышают у студентов уровень пространственного воображения до 100%.

Использованная литература:

1. С.К.Мардов, З.Х.Фархатова. (2022). “ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДИЗАЙНА И ЕГО ВИДЫ”. Евро-Азиатские конференции, 54–57. Получено с http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/604

2. М.М.Хамрокулова. “Начертательная геометрия и инженерная графика”. Ташкент. ООО “АКТИВ ПРИНТ” 2020.

3. Азизходжаева Н.Н. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. – Т.: Чолпон, 2005.

4. Рўзиев Е.И., Аширбоев А.О. “Методика преподавания инженерной графики”. Т., “Фан и технология”, 2010.

5. http://www.referat.arxiv.uz/chizmachilikni-oqitish-metodikas

УДК 159.99

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО ЗНАЧИМЫХ КАЧЕСТВ И ЦЕННОСТЕЙ ПОД ВЛИЯНИЕМ ПОДГОТОВКИ К ЕГЭ

Казанцева Наталья Александровна,
студент
Лизунова Галина Юрьевна,
к.филос.н., доцент
Горно-Алтайский государственный университет

Аннотация. *В данной статье рассматривается развитие социально значимых качеств и ценностей у выпускников, посредством подготовке к единому государственному экзамену (ЕГЭ). Также, более подробно рассматриваются методы, посредством которых развиваются ценности у учащихся. Данные способы популярные в онлайн-школах и муниципальных бюджетных общеобразовательных учреждениях.*

Ключевые слова: *подготовка, ценности, ЕГЭ, ученики, развитие, образование.*

Abstract. *This article examines the development of socially significant qualities and values among graduates, through preparation for the unified State exam (USE). Also, the methods by which students develop values are discussed in more detail. These methods are popular in online schools and municipal budgetary educational institutions.*

Keywords: *preparation, values, USE, students, development, education.*

Ценности играют важную роль в жизни каждого человека, включая школьников, которые готовятся к ЕГЭ.

Настойчивость, ответственность, организованность, креативность, дисциплина и самодисциплина, помогают ученикам не только в процессе подготовки к экзамену, но и в их личностном развитии. В этой статье рассмотрим, как эти ценности могут влиять на жизнь школьника, который готовится к ЕГЭ и посредством каких методов их стоит развивать.

Единый государственный экзамен (ЕГЭ) является одним из самых важных испытаний для подростков, стоящих перед переходом в высшую школу. Однако, многие школьники сталкиваются с рядом проблем при подготовке к данному экзамену, давайте разберемся с какими:

Конечно же, самая насущная и актуальная проблема это недостаток времени. Школьники часто сталкиваются с тем, что им приходится совмещать учебу, дополнительные занятия и другие обязанности. Ведь подростки до активной подготовки, много уделяют внимания хобби, друзьям, семье, да и внеурочной деятельности. Но, казалось бы, решение очень простое, всего лишь стоит на год отказаться от увлечений, сократить общение с друзьями. Но я, как человек, прошедший через подготовку, уверяю сделать это очень тяжело, да и к тому же не многие на это способны. И в результате, у учеников остается мало времени на подготовку к экзамену.

Но всё-таки, решение этой проблемы может быть найдено в организации своего времени и расстановке приоритетов. Но преодолеть данное пропитие обычным составлением расписания на день не получится, поскольку выполнять однотипные задачи изо дня в день никто не «горит желанием», особенно подростки.

Именно поэтому на первом уроке в онлайн школе ЕГЭ Land преподаватель по обществознанию Александр Филатов задал мне очень интересное домашнее задание. Суть его заключалась в определении своей цели и вуза мечты. Но это не самое главное, поскольку дело стоит не за выбором, который совершить не составляет труда.

Основной аспект данного задания заключается в «цене слова». Разберем подробнее, что это такое: школьнику необходимо пообещать своему окружению и самому себе, что поставленная цель будет достигнута, после такого громкого заявления ни один человек не

захочет упустить возможность достичь своей цели, поэтому охотно переходит к другому пункту домашней работы, а именно – расписанию.

На этом этапе всего лишь необходимо приобрести дневник, в котором отображаются часы и дни. Каждую неделю требуется составлять расписание, придерживаясь основного, то есть того, которое есть на курсе. Стоит обратить внимание на то, что в расписании обязательно должен быть выходной день, чтобы подросток не «выгорел» и дошел до своей цели, без вреда эмоциональному здоровью.

Итак, рассмотрим, какие ценности это развивает у подростка.

Во-первых, самодисциплину, во-вторых, ответственность, в-третьих, настойчивость.

Перейдем к другой проблеме, с которой сталкиваются почти все школьники, и это, конечно же, недостаток мотивации. Некоторые ученики могут чувствовать себя перегруженными и не видеть смысла в подготовке к экзамену. При моей подготовке эта проблема решилась очень просто: цель и «цена слова» в начале обучения уже стали отличным стимулом и мотивацией для подготовки к ЕГЭ, но этого не достаточно, поскольку через месяц азарт уже покидает ученика.

Поэтому во многих онлайн-школах, и у репетиторов действует система «перевод на лайт». Давайте более подробно рассмотрим, что же это такое и как он связан с мотивацией.

При регулярном невыполнении домашних работ, ученику предоставляют возможность выбора, остаться на стандартном пакете, или же перейти на пакет «минимал», где количество домашних работ ниже. Казалось бы, такой вариант идеален для подготовки, но есть и недостаток. Все мы знаем, если сократить практику у ученика, то он меньше приобретает опыта в решении задач с реального экзамена, соответственно это негативно влияет на поставленную цель и результат на ЕГЭ.

Но если ученик делает выбор в пользу пакета «стандарт», то его обязывают следовать индивидуальному плану. Это необходимо для того, чтобы до экзамена успеть ознакомиться со всеми темами и «тонкостями» экзамена, соответственно, если ученик не выполняет данные требования, его переводят на пакет «минимал», на котором он автоматически лишает себя возможности достичь желаемого результата, без усиленной самоподготовки. Этого, конечно же, никто из учеников не хочет. Потому что каждый, кто поставил цель, хочет достичь желаемого результата, поэтому это хорошо работает в качестве мотивации.

Данная система развивает у подростка важную ценность – умение сдержать обещание, пунктуальность, ответственность. Именно данные качества в жизни личности занимают лидирующую позицию, поскольку поступки человека позволяют делать выводы о нем. А от этого зависит качество выстраивания взаимоотношений между сверстниками, то есть к подростку, у которого развиты выше перечисленные качества окружение относится с уважением и доверием. Это в свою очередь положительно влияет на эмоциональное состояние школьника.

Перейдем к другой не менее важной проблеме – недостаток знаний: Некоторые ученики могут столкнуться с проблемой нехватки знаний по определенным предметам.

Зачастую, многие преподаватели, как в муниципальных школах, так и в онлайн-школах, ориентируясь накодификатор и другие документы, которые содержат в себе темы, необходимые для экзамена.

Соответственно, за короткий промежуток времени выпускники усваивают большое количество информации.

Чтобы проверить качество приобретаемых знаний существует всем известий метод «зачет». Несколько лет назад ЕГЭ Land приводили масштабное исследование, которое позволило сделать следующие выводы:

Во-первых, зачет это стресс для подростка, но данный уровень стресса не критичен, а способствует выработки у ученика важности изучения теории, которая необходима на экзамене. Соответственно, при подготовке к зачету у учащегося развивается сила воли,

усидчивость и стрессоустойчивость. Все данные качества важны для реализации потенциала подростка, его взаимодействия с обществом.

Во-вторых, данный метод позволяет понять истинные желания человека, то есть показывает, сколько усилий он готов приложить для достижения цели. Это позволяет преподавателю понять, на каких темах стоит сделать акцент при изучении, а также как выстроить индивидуальную траекторию подготовки ученика.

Всё это в свою очередь формирует у подростков оперативность выстраивания логических связей, что является основой развития такой ценности, как интеллектуальность.

Пожалуй, самая неприятная проблема это стресс и тревога. Подготовка к ЕГЭ может вызывать стресс и тревогу у школьников. Они могут, бояться неудачи или не справиться с экзаменом.

Решение этой проблемы может быть найдено в управлении стрессом и тревожностью. Школьникам рекомендуется проводить дни «разгрузки», то есть день, в который ученик не занимается никакой деятельностью, связанной с подготовкой.

Исходя из личного опыта, советую выполнять медитации, аутогенные тренировки, они не только улучшат физическое и эмоциональное состояние ученика, но и настроят на позитивный лад, избавят от тревожных мыслей, вследствие чего готовиться к экзамену станет намного легче и безопасней для подростка.

Это является отличным упражнением для развития таких моральных ценностей личности, как внутренняя. Именно от того, насколько человек научился владеть этим, зависит его отношение к окружающему миру, которое в свою очередь значительно влияет на результат деятельности.

Резюмируя, выделю основные моменты, на которые стоит обратить внимание:

1. При подготовке к экзамену подросток учится организовывать день, грамотно выстраивать планы на будущее, соответственно вырабатывает у себя такое качество характера, как пунктуальность, которое со временем меняет форму и становится ценностью личности.

2. При регулярном выполнении схожих задач у личности развивается сила воли, это в свою очередь способствует развитию таких ценностей, как такие качества, как самодисциплина, ответственность, настойчивость.

3. Совершая выбор, готовиться к экзамену или нет, подросток развивает в себе такую ценность как, отвага.

4. Готовясь к Единому Государственному экзамену, подросток развивает такую социально значимую ценность как, верность своему выбору. Об этом свидетельствуют приложенные усилия ученика и его стремление достичь поставленной цели.

В целом, ценности школьников, готовящихся к ЕГЭ, включают настойчивость, ответственность, организованность, креативность, дисциплину и самодисциплину. Развитие этих ценностей не только помогает успешно сдать экзамен, но и формирует личность ученика для достижения успеха в будущем.

Список литературы:

[1] Блинов И. Мотивация: что это простыми словами, виды, методы и способы мотивации / И.Блинов. – URL: https://www.vbr.ru/sovety/help/people-and-economic/motivaciya/ (дата обращения: 01.03.2024).

[2] Суровицкая Ю.Ю. Понятие о мотивации в психологии / Ю.Ю.Суровицкая, М.Н.Мадимухаметов. – Кокшетау: Кокшетауский универститет имени Абая Мырзахметова. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-o-motivatsii-v-psihologii/viewer (дата обращения: 01.03.2024).

[3] Абатаева П.Н. Понятие ценностей в психологических исследованиях / П.Н.Абатаева. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-tsennostey-v-psihologicheskih-issledovaniyah (дата обращения: 02.03.2024).

[4] Домрачев П.В. 34 способа как дисциплинировать себя / П.В.Домрачев. – URL: https://www.b17.ru/article/100040/ (дата обращения: 04.03.2024).

[5] Васильева М.В. Единый государственный экзамен: как подготовиться? / М.В.Васильева. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/edinyy-gosudarstvennyy-ekzamen-kak-podgotovitsya (дата обращения: 04.03.2024).

УДК 159.9

ЭТНИЧЕСКАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ САМОСОЗНАНИЯ ЛИЧНОСТИ

Лизунова Галина Юрьевна,
канд.филос.н., доцент
Таскина Ирина Анатольевна,
канд.психол.н., доцент
Горно-Алтайский государственный университет

Аннотация. *В статье рассматривается вопрос влиянии этнической идентичности на самосознание личности. Автор приводит определение понятия «самосознание», особенности его формирования. Этническая принадлежность автором статьи представлено как центральное направление процесса самосознания личности. Кроме того, в статье рассмотрены этапы в развитии этнических характеристик согласно Жану Пиаже, современным ученым и этапы становления этнического самосознания человека.*

Ключевые слова: *личность, самосознание, этническая принадлежность, этническое самосознание, самоидентификация.*

Abstract: *The article examines the issue of the influence of ethnic identity on the self-consciousness of a person. The author gives a definition of the concept of "self-awareness", the features of its formation. Ethnicity is presented by the author of the article as the central direction of the process of self-awareness of the individual. In addition, the article examines the stages in the development of ethnic characteristics according to Jean Piaget, modern scientists and the stages of the formation of human ethnic identity.*

Key words: *personality, self-awareness, ethnicity, ethnic identity, self-identification.*

В настоящее время в научном сообществе придается все больше внимания вопросам этнической идентичности и ее влиянию на развитие самосознания личности. Рассматриваемая тема актуальна и важна исходя уже из федерального государственного образовательного стандарта дошкольного образования. Согласно ему при рассмотрении содержания образовательной Программы должно обеспечиваться развитие личности, мотивации и способностей детей в различных видах деятельности и охватывать следующие структурные единицы, представляющие определенные направления развития и образования детей: познавательное развитие детей дошкольного возраста предполагает «... становление сознания; ...; формирование первичных представлений о себе, других людях..., о малой родине и Отечестве, представлений о социокультурных ценностях нашего народа, об отечественных традициях и праздниках, о планете Земля как общем доме людей, об особенностях ее природы, многообразии стран и народов мира» [1].

Определение понятия «сознание» и «самосознания» до сих пор находятся в центре научных дискуссий. Сознание рассматривается как состояние психической жизни организма, выражающееся в субъективном переживании событий внешнего мира и, а также в отчёте об этих событиях и ответной реакции на эти события. Самосознание – это осознание человеком своих действий, чувств, мыслей, мотивов поведения, интересов,

своего положения в обществе. Самосознание предполагает выделение человеком самого себя, своего «Я» от всего, что его окружает [2].

Возникновение и развитие самосознания человека неразрывно связаны с развитием межличностных отношений с другими. В связи с этим можем говорить об этнической идентичности. Это составная часть социальной идентичности личности, психологическая категория, которая относится к осознанию своей принадлежности к определенной этнической общности. Рассматриваются два основных компонента этнической идентичности. Первым является когнитивный компонент. Он представляет собой знания, представления об особенностях собственной группы и осознание себя ее членом на основе этнодифференцирующих признаков. вторым является аффективный компонент. Он представляет оценку качеств собственной группы, отношение к членству в ней, значимость этого членства.

Этническая принадлежность не является «иллюзорным самосознанием», она выступает как важная связующая сила сообщества. В процессе своего становления этническая идентичность проходит ряд этапов, соотносимых с этапами психического развития ребенка.

В процессе своего становления этническое самосознание проходит ряд этапов, которые соотносятся с этапами психического развития ребенка. Одним из первых концепцию развития у ребенка осознания принадлежности к национальной группе предложил Жан Пиаже. Он проанализировал как две стороны одного процесса – формирование понятия «Родина» и одновременно с ним развивающихся образов «других стран» и «иностранцев». Развитие этнической идентичности швейцарский ученый рассматривает, прежде всего, как создание когнитивных моделей, ответом на которые являются этнические чувства. Ж.Пиаже выделяет три этапа в развитии этнических характеристик: в шесть-семь лет ребенок приобретает первые фрагментарные и несистематичные – это знания о своей этнической принадлежности; в восемь-девять лет ребенок четко идентифицирует себя со своей этнической группой и выдвигает основания идентификации – национальность родителей, место проживания, родной язык; в десять-двенадцать лет этническая идентичность формируется в полном объеме, в качестве особенностей разных народов ребенок отмечает уникальность истории, специфику традиционной бытовой культуры. Возникают патриотические чувства [3].

Результаты исследований отечественных психологов предлагают следующие этапы становления этнического самосознания. Первоначальный этап приходится на дошкольный и младший школьный возраст (пять-десять лет). Для данного этапа характерно нечеткое осознание детьми общности с людьми своей национальности, немотивированный выбор своей этнической принадлежности, слабые этнические знания. На этом этапе становления этнического самосознания, семья выполняет ведущую роль в передаче этнокультурной информации.

Очень важным, по нашему мнению, является тот момент, что этническая идентичность представляет одну из трех основных констант, осознания неизменности. Она формируется к двинадцати-тринадцати годам [4].

Существуют факторы, влияющие на становление этнической идентичности как основы самосознания. К ним относятся особенности этнической социализации в семье, школе и ближайшем социальном окружении; особенности этноконтактной среды, прежде всего ее гетерогенность/гомогенность; статусные отношения между этническими группами.

Республика Алтай поликультурная, многонациональная республика, здесь проживают не только русские, алтайцы и казахи, но и представители других национальностей. В нашем университете уделяется огромное внимание межкультурному общению, установлению межэтнического позитивного взаимодействия. У нас в университете учатся студенты из разных стран, например, Киргизии, Тувы, Монголии, Китая и др. В связи с этим традиционно проводятся такие мероприятия как:

«Межкультурный фестиваль: ГАГУ – дом дружбы», социально-психологическая игра «Цивилизация», «Неделя межнационального взаимодействия», научно-практические конференции разного уровня, затрагивающие актуальные вопросы этнического взаимодействия в регионе, стране и мире, например, «Диалог культур в современном многонациональном образовательном пространстве» и «Ценностные ориентации молодежи в условиях модернизации современного общества» и др. На базе Центра социально-психологической помощи университета проводятся тренинговые занятия, помогающие студентам не просто адаптироваться к вузовскому обучению, но и понять друг друга, уважительно относиться к культуре, традициям представителей разных народов и этносов.

Таким образом, самосознание личности это относительно устойчивая система осознанных представлений и оценок о себе, об окружающих и о группе, частью которой является человек. На развитие самосознания личности с детских лет оказывает влияние социальное окружение, культура, традиции, язык родителей, близких, значимых групп для человека. Ориентируясь на рассмотренные акценты, учитывая многонациональность нашего государства и региона, мы, как специалисты, работающие с детьми и молодежью, должны строить свою работу.

Список литературы:

[1] Приказ Минобрнауки России от 17.10.2013 N 1155 (ред. от 21.01.2019) «Об утверждении федерального государственного образовательного стандарта дошкольного образования». – URL : https://fgos.ru/fgos/fgos-do/ (дата обращения: 30.03.2024).

[2] Лисина М.И., Силвестру А.И. Психология самосознания у дошкольников / М.И.Лисина, А.И.Силвестру. – М., 2009. – 271 с.

[3] Романенко О.П. Развитие этнической идентичности у детей: Автореферат О.П.Романенко. – М., 2014. – 391 с.

[4] Стефаненко Т.Г. Этническая идентичность и некоторые проблемы ее изучения / Т.Г.Стефаненко // Этнос. Идентичность. Образование. – Том V. Выпуск 6. – М., 1998. – 445 с.

O’QUVCHILAR TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA KIMYOVIY MASALALAR YECHISHNING O’RNI

Xojiyeva Sarvinoz Sadridinovna,
JDPU o’qituvchi
Abduvaliyeva Komila Xudoyberdiyevna,
JDPU katta o’qituvchi

O’qituvchining bevosita ishtirokisiz, ma’lum bir belgilangan vaqtda berilgan topshiriqlarning o’quvchilar tomonidan mustaqil holda bajarilishi o’quvchilarning mustaqil ishlari hisoblanadi. Mustaqil ishlash usullari o’qitishning ta’lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi. Ta’limiy jihatdan bu usullar nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni mustaqil egallashga, ularni takrorlash, mustahkamlash hamda, chuqurlashtirishga yordam beradi. Tarviyaviy jihatdan esa mustaqil holda masalalar yechish o’quvchi shaxsining mustaqillik, mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik kabi xislatlarini tarbiyalaydi. Rivojlantiruvchi jihati shundaki masala yechish mobaynida o’quvchilarda mustaqil holda fikrlash, tafakkurini boyitish, turli vaziyatlarda tez qaror qabul qilish kabi xislatlar shakllanadi. Masala yechishning rivojlantiruvchi ahamiyati yuqori bo’lib, u o’quvchilarning kimyoviy bilimlarini shakllantiradi va rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga o’rgatadi.

Kimyoviy masala yechishning ahamiyati shundan iboratki, o’quvchilarning masalalar yechish jarayonida modda va jarayonlar to’g’risidagi kimyoviy bilimlari mustahkamlanadi.

Kimyoviy jarayonlarning borishi, undagi omillar (temperatura, bosim, katalizator va b.)ning ahamiyati to’g’risidagi fikrlari ortadi.

O’quvchilarni kimyo fanidan kimyoviy masalalar yechishga o’rgatish uchun eng avvalo maktab yoshidagi bolalarga moddalarni bir-biri bilan taqqoslash, moddalarning agregat holatlarini solishtirish, moddalarning miqdoriga oid eng oson masalalar beriladi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad o’quvchi shaxsini maqsadga yo’naltirilgan tarzda, o’quvchining shu fanga bo’lgan qiziqishini, bilimini rivojlantirishdan iboratdir.

Kimyoviy masalalar yechish o’qitishni ishlab chiqarish bilan bog’laydi, mehnat tarbiyasi ko’nikmalarini shakllantiradi, ixtisoslikni egallashga yo’naltiradi, matematika, fizika, biologiya, geologiya va boshqa fanlar bilan uzviy bog’liqlik borligini ko’rsatadi. O’quvchilarda maqsadga intilish xususiyatini shakllantiradi.

Kimyoviy masalalar yechish jarayonida kuzatiladigan qiyinchiliklar tegishli moddalarning aniq fizik va kimyoviy xossalarini bilmasliklaridangina kelib chiqmay, balki masalada esga olingan ayrim holat va hodisalarni bir-biri bilan mantiqiy bog’lashdagi ko’nikmalar kamligidan yoki, yo’qligidan ham kelib chiqadi.

O’quvchilarda doimiy izlanishga intilish ko’nikmasini tarbiyalashdek muhim vosita murakkab masalalarni yechishga ishtiyoqni uyg’otishdir. Ko’pincha kimyo olimpiadalarida standart yechish usullariga ega bo’lmagan masalalar beriladi. Bunday masalalarni yechish kimyoviy fikrlash orqali amalga oshiriladi. O’qitishdagi jamiki ta’lim, tarbiya, rivojlantirish jarayonlari o’quvchining kimyoviy tafakkurini shakillanishiga olib keladi. Bu jarayondagi ta’lim oluvchilarning faolligi, bilimlarni mustahkam egallash zaruriyati kimyoviy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ko’p yillik kimyoni o’qitish ish tajribalari shuni ko’rsatadiki, bilimlarni o’quvchi ongida o’chmas holda mustahkam egallanishi masalalar yechish orqali amalga oshadi. Kimyodan masalalar yechish shaxmat o’yiniga o’xshash tafakkurni rivojlantiruvchi g‘oyat muhim didaktik vositaki, u nafaqat egallagan bilimlarni mustahkamlaydi, balki bilimlarni shakllanishi va rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko’rsatadi. Shuning uchun kimyoviy olimpiadalardan masalalar yechish orqali o’quvchilarning kimyoviy tafakkuri sinab ko’riladi. Kimyo fanida kimyoviy masalalarning xili juda ko’p bo’lib, ularning ko’pchiligi hisoblashga doir masalalardir. Bunday kimyoviy masalalarni yechish kimyo fanini ilmiy-nazariy bilim asoslarini egallashning muhim omilidir. Masalalar yechish o’quvchilarda kimyo fanidan nazariy bilim va tushunchalarini mustahkamlashda, mantiqan o’ylash, mustaqil fikrlash qobilyatini rivojlantirishda, egallangan nazariy bilim va tushunchalarni hayotda tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyoviy masalalar yechish kimyo fanining nazariya bilan amaliyotni bog’lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyoviy masalalarni yechmasdan kimyo fanini o’zlashtirishni tasavvur qilib bo’lmaydi, chunki masalalarni yechish, ayniqsa bu masalalarni har xil usullar bilan yechish o’quvchilarning logik tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o’quvchilarda masala yechishlarida uchraydigan qiyinchiliklarni yechish uchun qat’iylik va matonatni tarbiyalaydi. K.Marks aytib o’tganidek “20 ta masalani bir xil usul bilan yechgandan ko’ra, bitta masalani 20 xil usul bilan yechgan afzal”. Haqiqatdan ham biz bolalarga bitta masalani har xil usullar bilan yechishni o’rgatsak ularning fikrlash doiralarini, bilim olish qobilyatlarini, shu fanga shu masalaga bo’lgan qiziqishlarini yanada orttirgan bo’lamiz.

Kimyo darslari davomida kimyoviy masalalar yechish o’quvchilarda kimyoga oid ko’nikma va malakalarni shakllantiradi, o’quvchilar tomonidan egallangan bilimlarning haqqoniyligini asoslab beradi, bilimlarning mustahkam o’zlashtirilishini ta’minlaydi. Kimyoviy bilimlarning masalalar yechish orqali egallanishi esa, o’quvchilar ongida o’quv materialini yanada chuqurroq tushunib olishga olib keladi va natijada bilimlarning o’quvchilar xotirasida uzoqroq saqlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Sh.Ahadov Kimyodan masalalar yechishning ilmiy-ommabop usullari mavzusidagi disertatsiyasi. Navoiy – 2013.

2. A.G.Muftaxov organik kimyodan olimpiada masalalari va ularning yechimlari. “O’qituvchi” 1997.

3. M.Nishonov, Sh.A.Mamajonov Kimyo o’qitish metodikasi fanidan muammoli ma’ruzalar matni. Farg’ona – 2007.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MAFKURAVIY KOMPETENTLILIGI MASALALARI

To‘xtasinov Muhammadjon,
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri

Ma’lumki, mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan, globallashuv jarayonlari o‘zining ijobiy ta’sirlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham ko‘rsatayotgan hozirgi murakkab davrda kimki o‘zining mafkurasiga ega bo‘lsa, shu mafkurasida sobit tura olsagina o‘zligini, milliyligini saqlab qola oladi.

Oxirgi paytlarda dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni kuzatib shuni xulosa qilish mumkinki, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmagan shaxs nafaqat o‘zini, balki millati, mamlakati va dunyo hamjamiyati hayotini buzishga harakat qilayotgan vayronkor kuchlarga tayyor o‘lja bo‘lib qolmoqda.

Yosh avlodni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalash, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ayniqsa, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashishidan kuch olib, tinchlik va barqarorlikki raxna solayotgan yot g‘oyalarning ta’sirlari kuchayib borayotgan hozirgi o‘ta murakkab davrda hal qiluvchi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘quvchi-yoshlarni mafkuraviy immunitetini shakllantirish esa ko‘p jihatdan shu avlod vakiliga ta’lim-tarbiya berayotgan ustoz-murabbiyning, shu bilan birga bo‘lajak o‘qituvchi-pedagogning bilimiga, kasb malakasi va mahoratiga, dunyoqarashi va saviyasiga, ma’naviyati, g‘oyaviy yetukligi va axloqiga ko‘p jihatdan bo‘g‘liqdir. Zamonaviy o‘qituvchining bu kabi fazilatlarini bir jumla bilan aytganda mafkuraviy kompenetentlik deyishimiz mumkin.

Fanga yangi kirib kelgan mafkuraviy kompetentlik jumlasiga “… bu shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va o‘zi ishongan mafkura bo‘yicha kuchli e’tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o‘z mafkurasidagi g‘oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olish malakasidir”, – deb ta’rif beriladi.

Shuningdek, ushbu manbada mafkuraviy kompetentlilik yaxlid ko‘rinishda bo‘lsada, biroq unda uchta asosiy komponent mavjud ekani ta’kidlanadi. Ya’ni, ular:

1. Mafkura sohasida chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega bo‘lish;
2. Muayyan mafkura (nazariyasidagi g‘oya va tomoyillar)ga nisbatan kuchli ishonch va e’tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi;
3. O‘zi ishongan mafkuraning g‘oyalarini boshqa insonlarda ham shakllantira olish uchun muayyan (ichki, ilmiy-nazariy va tashqi tashkiliy-metodik) ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish kabilardir[1].

Kim hozirgi mafkuraviy kurashlar ta’sirlari kuchayib ketayotgan tahlikali bir davrda o‘quvchi-talabalarga chuqur ilmiy-tahliliy, hayotiy va milliy harakterdagi ta’lim-tarbiya bera oladi. Kimki o‘quvchi-yoshlarga ma’naviy-mafkuraviy jihatdan to‘liq va sifatli ta’lim bera olsa, o‘zi bu ma’noda namuna bo‘la olsa, kimki avvalo, o‘zining mafkuraviy immuniteti shakllangan bo‘lsa. Bu esa o‘qituvchi-pedagoglar oldiga qator vazifalarni qo‘yadi.

Hozirgi davr pedagogi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi talab etiladi:

- ❖ *Mahoratni egallashga jon-dilidan intilish;*
- ❖ *Mehnatga mas’uliyat, o‘z ishiga sodiqlik;*
- ❖ *Mustaqil ijodiy intilishiga qiziqish;*

❖ *Manmanlik, bamaylixotirlik kabi salbiy xarakterga berilmaslik;*

❖ *Xayrixohlik va ishda o‘rtoqlarga yordam berishga hozirlik;*

❖ *O‘quvchilar bilan samimiy munosabat o‘rnata olish;*

❖ *Zamonaviy o‘quv vositalaridan (AKT) foydalana olish va hokazo.*

Buning uchun hozirgi kun pedagogi o‘zining ma’naviy-ma’rifiy savodxonligini muntazam oshirib borishi uchun quyidagi muhim vazifalarni ado etib borishi kerak bo‘ladi:

✓ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmon, qaror va farmoyishlari, asar va ma’ruzalarini o‘rganish;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qaror va farmoyishlarni o‘rganib borish;

✓ televideniye dasturlarini kuzatib, kundalik yangiliklarni o‘rganib borish;

✓ ta’lim muassasasi, boshqa ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy muassasalardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish, o‘quv-uslubiy seminarlarda ishtirok etish;

✓ xalqimiz ma’naviyati mezonlarini o‘rganib borish;

✓ o‘z ustida muntazam ishlash, ta’lim-tarbiyaga oid asar va qo‘llanmalar bilan tanishib borish;

✓ turli seminar va tanlovlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish;

✓ pedagogik o‘quvlar va yig‘ilishlarda qatnashish, shuningdek, o‘qituvchi-murabbiy ta’lim-tarbiya ishlarining samarali usullaridan foydalanishi, yanada yangi qirralarini qidirib topishi, bu borada buyuk ma’rifatparvarlarning ulkan tajribalariga tayanishi lozim [2].

Shundan so‘ng milliy mafkuramizga asoslangan mafkuraviy kompetenlilikka ega bo‘lish orqali ta’lim tizimi o‘qituvchi va murabbiylari:

✓ chuqur g‘oyaviy bilim va kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo‘ladi;

✓ dunyoni mafkuraviy manzarasini tushunish va uni tahlil qilishda adashmaydi;

✓ hozirgi mafkuraviy murakkab davrda milliy mafkuramiz asosidagi pedagogik pozitsiyasiga ega bo‘ladi;

✓ ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi-yoshlarni g‘oyaviy bilimi va ma’naviyatini yanada yuksaltirish uchun yetarli darajada amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi.

O‘qituvchi-pedagog, ta’lim-tarbiya ishiga mas’ul bo‘lgan har qaysi shaxs hozirgi davrda o‘zining vazifalarini to‘liq anglagan holda ishlarini yo‘lga qo‘yishi yoshlarimizni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. Ta’lim tizimi xodimlarining mafkuraviy kompetentliligini shakllantirish zaruriyati // masofa.uz

2. Mustaqil O‘zbekiston: ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy hayot. Ma’lumotnoma // Tuzuvchi: M.To‘xtasinov. – Namangan VXTXQTMOI, 2016. – B. 11, 30.

BO’LAJAK PEDAGOGLARDA MULOQATCHANLIK VA TASHKILOTCHILIK XUSUSIYATLARINING TADQIQ ETILISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Rustamova Go’zal Xolmuhammad qizi,
Namangan davlat pedagogika institute
Pedagogika va psixologiya fanlarni o’qitish
metodikasi kafedrasi stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, hozirgi kundagi bo’lajak pedagoglarning faol ijtimoiy hayotga kirishib ketishida muloqotchanlik va tashkilotchilik xususiyatlarining o’rni, shaxsiy pedagogik uddaburonligi, ijobiy xislatlari shuningdek, didaktik, akademik, perseptiv, nutqiy, tashkilotchilik, avtoritar, kommunikativ qobiliyatlari yoritib o’tilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagog, tashlikotchilik, muloqot, jamiyat, verbal, perseptiv, didaktik.*

Abstract. *In this article, the role of sociability and organizational characteristics, personal pedagogical perseverance, positive qualities, as well as didactic, academic, perceptive, speech, organizational, authoritarian, communicative abilities in the participation of future pedagogues in the active social life of today are highlighted.*

Keywords: *pedagogical, organizational, communication, community, verbal, perceptive, didactic*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль коммуникабельности и организаторских качеств, личной педагогической настойчивости, положительных качеств, а также дидактических, академических, перцептивных, речевых, организаторских, авторитарных, коммуникативных способностей в участии будущих педагогов в активной общественной жизни современности. выделены.*

Кючевые слова: *педагогический, организационный, коммуникативный, общественный, речевой, перцептивный, дидактический.*

Kelajak o’qituvchisi siymosi o’qituvchilar uchun kasbiy ideal vazifasini o’tashi bilan muhim hisoblanadi. Uni yaratishda ta’lim, fan, jamiyat, pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari kabi bir necha sohalarning ilg’or yutuqlarini bir nuqtada jamlash, umumlashtirish lozim. Kasbiy va shaxsiy mukammallik kelajak o’qituvchisi siymosining asosiy shartidir. Keyingi paytlarda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, ularni o’zini o’zi uddalashga o’rgatishdan boshlamoq zarur. Shaxsning o’z faoliyatini va xulq-atvorini shaxsiy xohish – irodasiga bo’ysundirish mustaqil fikrlarni barqarorlashtiradi, ko’zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirlaydi, har xil qiyinchiliklar oldida matonat, sabr-toqat, tuyg’ularini namoyish etishga chorlaydi. Bo’lajak pedagoglarning muloqatchanlik va tashkilotchilik xususiyatlarini o’rganish hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. [4]

Hozirgi jamiyatimizda o‘qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o‘z malakasini oshirib borishi bir tomondan o‘qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli amalga oshayotganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat bermoqda. Chunki bu kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan bilimsizlikda qutqarib qoladi. Psixologik nuqtayi nazardan o‘qituvchi doimo o‘z bilimlarini oshirish bilan shug‘ullanishi zarurdir. Chunki o‘qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo’larkan, u birinchidan, odamlarni ko‘pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o‘z qarashlari bo‘yicha to‘g‘ri tushuntirib berishi lozim.

Shaxs doim ijtimoiy institutlarga ketma-ketlikda kirib boradi. Agar unda muloqatchanlik va tashkilotchilik xususiyatlari past darajada bo’lsa, u holda bu shaxs biror bir notanish muhitda o’ziga-o’zi ishonmaslik holati, o’ziga past baho berish holati, o’ziga nisbatan tahdid yuqori bo’lib ketishi mumkin. Shu sababli pedagoglarda muloqotchanlik va tashkilitchilik xususiyatlarini o’rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta’lim xarakterining o’zgarishi, yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e’tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy xis-tuyguning vujudga kelishiga, bilimni o’zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi Tashkilotchilik faoliyati amalda ob'yekt (boshqariluvchi) va sub'yekt (boshqaruvchi) mavjud bo‘lgan paytda, pirovard maqsadni amalga oshirish jarayonida kechadi. [2] Ko‘rinib turibdiki, tashkilotchilik tor ma'noda bir kishining ish jarayonida boshqa kishilarni boshqarishi, ularning amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishi, keng ma'noda esa, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, muassasalar va davlatlarning ana shunday faoliyati tushuniladi. Tashkilotchilikning alohida faoliyat ekanligi boshqarish jarayonini ko‘zdan kechirganimizda aniq ko‘rinadi Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlarning rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Ba'zi insonlar kasb tanlashda xatolikka yo'l qo'yadi, o'sha kasb bo'yicha ishlash oqibatida unda zo'riqish, charchash, asabiylik holatlari yuzaga keladi, shuning uchun kasb tanlashda adashmaslik, o'zi qiziqadigan kasbida faoliyat yuritishlari lozim. [1]

Har bir kishining o’z ‘‘Men’’i atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo'llari awal oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ayrim hollarda esa qoniqmaslikni his qilamiz. [3]

Pedagogik muloqot bu – muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi. Ba’zan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar yoshlarni benuqsonroq, himoyalanganroq bo'lish uchun o'zidagi eng yaxshi xislatni yashirishga, buzishga majbur etadi. [5] Pedagogga qo‘yiladigan asosiy, bosh va o‘zgarmas talablar bolalarga bo‘lgan mehr, pedagogik faoliyat, o‘zi ishlaydigan soha bo‘yicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi xulqqa ega bo‘lish, bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning turli uslublaridan mohirona foydalana olishni bilishdan iborat. Kelajak o’qituvchisi shaxsining professiogrammasida uning pedagogik qobiliyatlari quyidagilardan iborat:

- didaktik qobiliyatlar – bolalarga o’quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib etkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg’otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg’ota oladigan qobiliyatlardir;
- akademik qobiliyatlar – muayyan fan sohasi va uni tadqiq etish bilan bog’liq qobiliyatdir;
- perseptiv qobiliyatlar – bu o’quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o’quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog’liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir;
- nutqiy qobiliyat – kishining o’z tuyg’u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir;
- tashkilotchilik qobiliyati – bu birinchidan, o’quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o’zining shaxsiy ishini to’g’ri tashkil qila olish qobiliyatidir;
- avtoritar qobiliyati – bu o’quvchilarga bevosita emotsional irodaviy ta‘sir etib, ular orasida obro’ orttira bilishdan iborat qobiliyatdir;
- kommunikativ qobiliyati – bu bolalar bilan muloqotda bo’lishga, o’quvchilarga yondashish uchun to’g’ri yo’l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o’zaro aloqa. [6]

Xulosa o’rnida, O‘quvchini hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun pedagogning o‘zi mustaqil fikrlovchi, yuqori saviyadagi bilimli, dunyoqarashi keng bo‘lmog‘i va bu xususiyatlarni muntazam rivojlantirib bormog‘i lozim. Ota-onalar o‘qituvchining ish staji va yoshidan qat’i nazar undan farzandlarini tarbiyalash va o‘qitish mahoratini kutadilar. O’z ustida ishlagan, izlanuvchan pedagog ta’lim tizimida ham muvoffaqiyatga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo'llanma. – T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006. – 119 b.

2. Zufarova, M.E. Umumiy psixologiya: o'rta maxsus, litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilari uchlln o'quv qo'llanma / M.E.Zufarova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – T.: O'zbekiston faylasllflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 304 b.

3. U.A. Butayeva shaxs psixologiyasi samarqand – 2021.

4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.: Sharq. 2000.

5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – T.: Fan. 2003.

6. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.

7. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1 – 2 kitob.

BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA HISSIY MUVOZANATNI SAQLASH KO’NIKMASINI TARBIYALASH

Dexkonova Marg’uba Erkinovna,
Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna,
Namangan Davlat Universiteti
Psixologiya kafedrasi o’qituvchilari

Zamonaviy o’qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo’la olishi kerak (so’z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o’qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo’lgan vazifa, burch va mas’uliyatlarini ifodalaydi):

1. O’qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro’y berayotgan o’zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o’quvchilarga to’g’ri, asosli ma`lumotlarni bera olishi lozim.
2. Zamonaviy o’qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo’lishi talab etiladi.
3. O’qituvchi o’z mutaxassisligi bo’yicha chuqur, puxta bilimga ega bo’lishi, o’z ustida tinimsiz izlanishi lozim.
4. O’qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta`limtarbiya jarayonida o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.
5. O’qituvchi ta`lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo’lmog’i lozim.
6. O’qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo’lishi shart.
7. O’qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo’l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o’zlashtirib olishi kerak.

Ko’rsatib o’tilgan talablar orasida bo’lajak o’qituvchining hissiy muvozanatini saqlash katta ahamiyatga ega. Bu esa o’z navbatida psixologik bilimlar, xususan, hissiyot haqida ma’lum tushunchaga ega bo’lishni talab etadi.

Hissiyotlar o‘zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg‘usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo‘ladi. Odamning hissiyotlari uning mazmuni hamda shakllari, ijtimoiy- tarixiy sharoit bilan bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida odamning ehtiyojlari o‘zgarib boradi. Natijada odamda borgan sari yangi, yangi hissiyotlar, chunonchi, ma’naviy, intellektual va estetik hissiyotlar paydo bo‘ladi.

Hissiyot odamda sodir bo‘layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo‘lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a’zolariga ta’sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo‘zg‘ovchilardan aniq bo‘lib ajraladi, ba’zilari bir-birlari bilan qo‘shilib ketadi va paydo bo‘lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg‘otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma’lum qo‘zg‘atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo‘ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi. Impressiv so‘zi lotincha taassurot degan ma’noni anglatadi.

I.P.Pavlov tirik mavjudotlarning atrofimizdagi muhitga moslashuvida hosil qiladigan buziladigan dinamik streotiplar orqali biror hissiyot va emotsional kechinmalarning ijobiy va salbiy sifatlarini tushuntirib beradi.

Dinamik stereotip deganda tashqi qaytarilish natijasida hosil qilingan shartli reflekslar, nerv bog‘lanishlarining barqaror tizimi tushuniladi. Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelishi natijasida dinamik stereotiplarning «o‘zgarishi» salbiy emotsional holatni yuzaga keltiradi. Hissiyot bu uning kechirilishining turli shakllari faqat darak vazifasini emas, balki boshqaruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Emotsiya harakatlari juda ko‘p tana o‘zgarishlar ifodalanadi. Odam organizmidagi o‘zgarishlar kechirilayotgan hissiyotning ob’ektiv ko‘rsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid bo‘lgan, ya’ni ovozning o‘zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo‘ladigan jarayonning qayta o‘zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emotsional harakatlarning ekspressiv tomoni deb ataladi.

Hissiy holatlarning ifodalanishi birinchidan, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo‘l, oyoq harakatlari), ikkinchidan organizmdagi turli hodisalarni, ya’ni ichki a’zolar faoliyatining va holatining o‘zgarishida, uchinchidan tabiatda, ya’ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o‘zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘z tarkibiga oladi.

His-tuyg‘ularning tashqi ifodasiga yuz ifodasi, imo-ishora, vajohat va qaddu-qomatning o‘zgarishi, ayiruv, tashqi chiqaruv bezlarining faoliyati (so‘lak, ter ajralishi) va ayrim harakatlar xususiyatlaridagi o‘zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning faol o‘zgarishlari, «ovoz mimikasi» va gaplar tarkibining sintaksis o‘zgarishi, «tutilmasdan gapirish», yoki alohida «silliqlik» hamda «ifodalilik»ning yuzaga kelishi nihoyat hissiyot o‘zining to‘la qisman ifodasini topadigan xatti-harakatlarga taalluqlidir. Kishining emotsional kechinmalari vaqtida nutqining tezligi o‘zgaradi. Ko‘pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o‘zgaradi. O‘tkazilgan tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, g‘amginlik va ma’yuslik hislarini ifodalovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, so‘zlashgan kishining tovushi ham bo‘linib-bo‘linib chiqadi.

Psixik jarayonlardan ayniqsa, emotsiya o‘zining aniq tashqi ifodasiga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Emotsional o‘zgarishlar organizmning tashqi o‘zgarishlarida shu qadar yaqqol ifodalanadiki, biz odamni tashqi ko‘rinishiga qarab, unda qanday xususiyatlar yuz berayotganini, uning xursand yoki xafaligini, g‘azablanganligini yoxud biror narsadan qo‘rqib ketganini va shu kabi his-tuyg‘ularning ko‘pini aytib bera olamiz. Hissiyotlarning tashqi alomatlari ifodali harakatlar deb ataladi.

Emotsiyalarning tashqi ifodasi turli ko‘rinishlarda ro‘y beradiki, unda asosiy o‘rinni ko‘rgazmali jihatlar asosiy o‘rin egallaydi.

Birinchidan, emotsiyalar nafas olish a’zolarining ishlarida o‘zgarish yasaydi. Masalan, yoqimli his-tuyg‘ular ishga tushganda nafas olishning tezligi va ampilitudasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg‘ular ustun kelganda kamayadi, qo‘zg‘algan vaqtida nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo‘r berish vaqtida-sekinlashadi va yuzakilashadi, hayajon vaqtida tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo‘rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Turli emotsional holatlarda nafas olishning o‘zgarishi

a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;

b) faol xafalikda 9 marta;

v) qo‘rqishda 64 marta;

d) jahl chiqqanda 40 marta.

Ikkinchidan, emotsiya imo – ishoralarda, mimikada, ya’ni kishining yuzida bo‘ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma’nodor harakatlarida ko‘rinadi.

Uchinchidan, gumoral harakatlardagi, ya’ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o‘zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo‘ladigan yanada chuqur o‘zgarishlarni o‘z tarkibiga oladi.

Demak, emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, aft-bashara va qad-qomatning o‘zgarishlari, ayrim tashqi sekresiya bezlarining faoliyati yosh so‘lak, ter ajralishi hamda ayrim harakatlarning xususiyatlaridagi o‘zgarishlar, ya’ni ularning tezligi, kuchi, koordinatsiyasi va hokazolar kiradi.

Emotsiyalarning eng aniq va yaqqol koʻrinishlaridan biri kulgi bilan yigʻidir.

L.N.Tolstoy oʻz asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi nigohlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvir etgan. «Har xil sabab bilan yigʻlagan paytda odamning boshi va ogʻzi har xil qiyofada oʻzgaradi» – degan edi. Leanardo da-Vinchi.

Emotsional stress-taʼqiq qilish, falokat, hayotiy oʻzgarishlar (oilaviy mojarolar, toʻsatdan ishdan boʻshatish yaqin kishisini yoʻqotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik sababli, xavf ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan notoʻgʻri munosabat qilinganda va hokazolarda) koʻrinadi.

Cannon-Bard nazariyasi. Nazariya shundan iboratki, fiziologik va hissiy bir vaqtni ozida nerv impulse orqali ishlab chiqariladi.

Schachter yagona nazariyasi. Nazariyasining fikriga kora, biz atrof muhitini kuzatish va boshqalar bilan o'zimizni solishtirish orqali his-tuyg'u turini aniqlaymiz, deb ta'kidlaydi.[1] Darvin fikricha, faqatgina insonlar his tuyg'ularga ega bolmay hayvonlar ham, qo'rquv g'azabni, va hamda sevgi holatlar uchrab turishini aytgan.[2]

U.Kennon yana shuni taʼkidlab oʻtadiki, organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak urishi tezlashadi, qon aylanishi buziladi, yaʼni maqsadga intilish uchun tayyorgarlik koʻrishda organizmda qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani u organizmni moslashish tizimi deb ataydi.

Kanadalik olim vrach G.Sele (1936 – 1976 yillar) oʻzini 40 yillik ilmiy izlanishlari bilan U.Kennon nazariyalariga qoʻshimchalar kiritib, stress psixologiya va tibbiyotda asosiy tushunchalarda biri ekinligini aytib oʻtgan. G.Sele stress har doim ham zararli emas, baʼzan inson organizmiga yordam, koʻmak foyda berishi mumkin. Ayrim hollarda stressga tushib qolganda odam yashash uchun kurashish oʻz ehtiyojini qondirish uchun faollashib, oʻzi bilmagan zahiradagi energiyasini ishga solishi mumkin degan. U tirik organizmning noqulay tashqi sharoitlariga moslashuvchanlik muammosini oʻrganib chiqqan.

G.Seleni fikricha, shu sabablar muhim va nomuhim stressni keltirib chiqaradi. Bu vaziyatlar bir-biriga bogʻliqdir. Bunda 3 bosqich ajratiladi.

- xavotirlik bosqichi;
- moslashish bosqichi;
- oʻta charchash bosqichi.

Xavotirlik bosqichida taloqning kichrayishi, yogʻ qavatining yoʻqolishi, oshqozonda oʻtkir yalligʻlanishning sodir boʻlishi, buyrak tepasida likotsidlarning kamayishi kuzatiladi. Shu bilan birga teri jarohatini pasayishi, koʻz yoshlanishi, soʻlakning ajralishi kuzatiladi. Agarda taʼsir kuchli boʻlsa, bu bosqichda xavotirlik holati boshlanadi.

Moslashish bosqichida buyrak usti bezlari kattalashadi, organlar va toʻqimalarning ishlashi sekinlashadi. Agar stressni keltirib chiqaruvchi omil organizmga kuchli taʼsir etsa etmasa shu holat uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar taʼsir kuchli boʻlsa, uchinchi bosqich boshlanadi.

Oʻta charchash bosqichi – organizmda kuzatilayotgan yutuqlarga koʻra bosqich xavotirli bosqichga yaqin. Bunda odatda organizm kasallanadi.

Tirik mavjudotlarning hissiyotlari spektrining kengligi strukturaning uning fiziologik va ruhiy murakkabligiga bog'liq. Axir, aslida insonning evolyutsiyasi va hayotida hissiyotlarning ahamiyati tushunarli emas – bu kishining hayot shartlariga nisbatan qoniqishlarini ko'rsatib, norozilikni engib o'tish haqida fikr bildiradi.

Yaratguvchining azoblanishi, kashfiyot quvonchi – bu qanday, qanday hissiyotlar emas? Ijodkorlikdagi hissiyotlar roli motivatorning vazifasidir. Tuyg'ular bizni qo'llarni qo'zg'atadigan paytlarda harakat qilish va qo'llab-quvvatlashga undaydi, chunki odam qimorbozga aylanadi – u yordam berishga qodir emas, g'olibning quvonishini rad etadi.

Ko'pgina olimlar ijodiy va intellektual fikrlashning bo'linishi mumkin emasligiga ishonishdi. Axir, ta'sir (his-tuyg'ular) eng murakkab aqliy jarayonlarga asoslangan bo'lib, unda

[1] General Psychology – 129 – 131 betlar.

[2] General Psychology – 126 bet.

o'ylamaslik kerak edi. Yozuvchining olimi yoki dahosi haqidagi fikrlar uning tasavvurlari tomon yo'naltiradimi? Tuyg'ulari – tendentsiyalari, sabablari, ehtiyojlari, qiziqishlari.

Biroq inson faoliyatidagi hissiyotlarning ahamiyati bu bilan cheklanmaydi. Hissiyotlar tanani o'limdan himoya qilishi mumkinmi deb o'yladingizmi? Tuyg'ularni anglash qobiliyati mobilizatsiya qilish, aksincha, tushirishga yordam beradi. Shunday qilib, xavf ostida bo'lish uchun kuchlar to'siqlarni bartaraf qilish, hech qanday energiya sarflashdan himoya qilish uchun yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda pedagoglik ma’suliyatli, murakkab, shu bilan bir qatorda sharafli kasblardan biri. Bo’lajak o’qituvchilarda hissiy muvozanatni saqlash ko’nikmasini tarbiyalash ikki yoqlama ahamiyatga ega. Birinchisi pedagog hissiy muvozanat orqali o’z sog’lig’ini muhofaza qiladi. Ikkinchi tomondan o’quvchi yoshlarga ibrat bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik. 3-nashr. – T., 2019. 494 b.
2. Samarov R.S. Shaxs va stress. O’quv-uslubiy qo’llanma. – T.: 2004. – 40 b.
3.Davletshin M.G., To‘ychieva S.M. Umumiy psixologiya. – T., 2002.
4. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. – T, 2003. 16 b.

TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK METODIKALARDAN FOYDALANISH YO`LLARI

Jo`rayeva Ikbolxon Po`latovna,
NamDU psixologiya kafedrasi doktoranti

Annotasiya. *Maqolada talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda psixologik metodikalardan foydalanish yo`llari tahlil etilib, amaliy va nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so’zlar: *talaba, innovatsion, psixika, metod, metodika, faoliyatm kreativlik, tafakkur.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash va uning bardavomiligini ta'minlashda faol ishtirok etadigan avlodni voyaga yetkazishdir. Shu bois, yoshlar tafakkuri sofligini saqlash, ularning kayfiyatlari, orzu-umidlari, intilishlarining mazmun-mohiyatini o‘rganish ulardan tegishli xulosalarni chiqarish o‘ta dolzarb vazifadir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi”.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o‘quvchining faol shaxs sifatida shaxsiyati, uning "o‘z xatti-harakatlari va ishlariga sub’yektiv munosabati", ta'lim faoliyati asosidagi ehtiyojlar va motivlarning mohiyati shaxs faoliyatining yo‘nalishi va mazmunini belgilaydi, xususan, sodir bo‘layotgan narsalarga aralashish yoki begonalashtirish, qoniqish yoki norozilik.

So‘nggi yillarda o‘qituvchilar va psixologlar o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabat, o‘quvchining aniq ichki motivasiyasi bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradi, deb ta'kidladilar».

Talabalarning o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabati, undagi tashabbuskorlik, o‘z-o‘zidan va ularning natijalaridan qoniqish mazmunli bo‘lish tajribasini, sodir bo‘layotgan voqealarning ahamiyatini ta'minlaydi va insonning o‘zini yanada rivojlantirish va o‘zini anglashi uchun asosdir. Yolg‘izlik, passivlik va norozilik tajribalari, faoliyatning buzilishi, shuningdek, xatti-harakatlarning buzg‘unchilik shakllariga olib kelishi mumkin.

Ta’lim jarayonida innovatsiyalar- ta'lim va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, kreativ yondashuvlar hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Innovatsion jarayon innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish, ulardan foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyatni anglatadi.

Biz tavsiya etayotgan metodikalar ta’lim jarayonida talabalarga dars mashg`ulotlari davomida amaliy olib borilganda, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o’rgatish yo`llarini hamda qanday faoliyatida foydalanish bo`yicha yo`nalish beradi. Shu bilan birga ularning tafakkurini egiluvchanlik darajasini, kreativlik qay darajada ekanini o’rganishimizga ham yordam beradi.

Quyida metodikalardan pedagog amaliy darslarda talabalar bilan qanday olib borishi haqida ko`rib chiqamiz. Bu jarayonga qanday yondashish o’qituvchining kreativligi (yaratuvchanligi)ga bog’liq. O’qituvchi, amaliyotchi psixologlar individual yoki guruh shaklida olib borsalar, qanchalik ijodkor va o’z ustida ishlaydigan bo’lsa, u bilim berayotgan o’quvchilar ham darslarni boshqa tengdoshlariga qaraganda tezroq o’zlashtirib boradi.

Verbal kreativlik. Mazkur metodika verbal kreativlikning eng muhim hususiyati bo’lgan divergent tafakkur mahsuldorligini o’rganishga harakat qiladi.

Yo’riqnoma: 8-minut vaqt berilib, D, M, T harflaridan boshlanuvchi uchta so’zdan nechta gap tuzish mumkin. Berilgan vaqt ichida tuzilgan gaplar soni hisoblab chiqariladi va divergent tafakkur mahsuldorligi haqida fikr yuritiladi.

1-ko’rinishi: O’qituvchi D, M, T harflarini bosh harf sifatida foydalanib uchta so’z ishtirok etgan gap tuzish topshirig’ini beradi.O’quvchilarga tushunarli bo’lishi uchun gaplardan misollar keltiradi.

Masalan,

1. Men daryo to’lqinidayman.
2. Dadam mening tayanchim.
3. Dars mohiyatini tingla.
4. Dangasaning men talqini.
5. Mehr daryo tomchisiday.
6. Manman tantini demaydi.
7. Motsort dardini tushungandayman
8. Mening do’stim Tamara.

2-ko’rinishi: O’qituvchi M, D, T harflaridan boshlanuvchi so’zlardan yozuv taxtasiga yozib qo’yadi.

Masalan, daftar, tong, dala, mashina, murabbo, darslik, maktab, do’st, musiqa, to’garak, taxta, tesha, daryo, dengiz, meva, tikuvchi, to’lqin, tushunmoq,

3-ko’rinishi: O’qituvchi yozuv taxtasiga M, D, T harflaridan boshlanuvchi suratlardan ular gap tuzayotganida foydalanishi uchun ilib qo’yadi.

Masalan,







O’qituvchi metodikani olib borish davomida birinchi ko’rinishdan foydalansa, yaxshiroq natijaga erishadi. Chunki o’quvchilar tayyor berilgan so’zlardan yoki rasmlardan foydalanib gap tuzadigan bo’lsa, ularning tafakkurini qay darajadaligini yaxshi tekshira olmaymiz. Agar o’quvchi birinchi ko’rinishdagiday, ya’ni o’qituvchi misol tariqasida bir yoki ikkita gap tuzib tushuntirib bergandan so’ng o’zi mustaqil tarzda berilgan harflarga so’zlar topib gap tuzadigan bo’lsa, uning tafakkurini qay darajada egiluvchan ekanligini aniqlay olamiz. O’qituvchi o’quvchilarning tuzgan gaplarining soniga emas, ko’proq uni qanday tuzganiga e’tibor berishi talab qilinadi. Ayrim o’quvchilar bir xil so’zlarni juda ko’p takrorlaydilar ya’ni “Tamara mening do’stim”, “Temur mening do’stim” bunday o’quvchilar bilan ko’proq mashqlar olib borish kerak. Agar bola ko’p kitob va jurnallar o’qigan, fikrlash dunyosi keng bo’lsa, uning tuzgan gaplari ham ma’noli va bunday o’quvchilarning tafakkuri ham egiluvchan bo’ladi.

Yuqorida berilgan metodikadan talabalarda trening yoki didakdik o`yin ko`rinishida, boshlang’ich sinf va yuqori sinflarda metodika shaklida ham foydalanish mumkin, faqat qanday va qaysi o’rinlarda qo’llay olishni bilish kerak.Metodikaning yaxshi natija berishi uchun avvalo o’qituvchi ularga yetkazib bera olishi va o’tkazish mobaynida o’qituvchi kuzatuvchan bo’lsa, o’quvchilarda yon atrofidagi o’rtog’idan ko’chirib olish imkoniyati bo’lmaydi. O’qituvchi bu metodikani darslarda qo’llash orqali qaysi o’quvchisining tafakkuri qanday ekanligini va mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini tekshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Евгений Павлович Ильин. Психология творчества, креативности, одаренности: П.; 2009.

2. Ильин Е.П. Работа и личность. Трудоголизм, перфекционизм, лень. / Е.П.Ильин – СПб.: «Питер», 2011. – 224 с.

3. Мищенко Л.В. К проблеме диагностики отношения студентов к учебной деятельности / Л.В.Мищенко // Вестник практической психологии образования. – 2014. – №3 – С. 122 – 128.

TALABALARDA IJODIY TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi,
University of Business and Science
Pedagogika va Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqish talabasi
Ilmiy rahbar: ***Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o‘g‘li,***
University of Business and Science o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tafakkur turlari va uning rivojlanishi, talabalarda ijodiy tafakkurini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari, nazariy va amaliy tahlili haqida so’z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tafakkur, nutq, ong, sezgi, ichki nutq, obraz, psixika, aqliy faoliyat, tushunchali tafakkur, obrazli tafakkur, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur, ko‘rgazmali-harakatli tafakkur, amaliy tafakkur diskursiv tafakkur, reproduktiv tafakkur, realistik tafakkur.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni 1-ilova O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan [1]. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlari ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Oliy ta’lim tizimining rivojlanishi mazkur Konsepsiya ilovasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishga asoslanadi.

Quyidagilar oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish;

yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;

oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shartdir. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo‘ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq – til bilan chambarchas bog‘langan. Insonda tafakkur va nutq bo‘lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o‘z atrofidagi olamda bo‘lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi.

Sezgi va idroklarga, xotira va tasavvurlarga nisbatan tafakkur odamlarning bilish va amaliy faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Kishi fikr qilish faoliyati jarayonida o‘z idroki, tasavvuri va fikrlarining to‘g‘riligini, aniqligini va haqiqiyligini belgilab oladi, bularning voqelikka muvofiqmi yoki muvofiq emasligini belgilab oladi. Masalan, biz quyoshning har kuni Sharqdan chiqib, G‘arbga botayotganligini hammamiz ko‘ramiz va idrok qilamiz. Biz Yerning qimirlamay turganligini, quyosh esa yer atrofida aylanayotganligini ko‘ramiz. Ko‘p asrlar davomida juda ko‘p kishilarning qilgan fikriy faoliyati natijasidagina, uzoq davom etgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasidagina haqiqatda quyosh yer atrofida aylanmasdan, balki yer o‘z o‘qi atrofida va quyosh atrofida aylanayotganligi aniqlandi. Quyoshning harakati to‘g‘risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka, haqiqatga to‘g‘ri kelmas ekan, voqelikning to‘g‘ri aks etishi, ya'ni haqiqat – bunda tafakkur yordami bilan aniqlanadi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonlaridagi hosil bo‘lgan hukmlar va tushunchalar ularning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi. Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismli va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi [2]. Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta’sir ko‘rsatmay, ko‘pchilik hollarda asboblar ko‘magida olingan qo‘shimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini yaratuvchi vositali tarzda aks ettirishdir. Hodisalarning qonuniyatlari, ichki aloqalari bizning ongimizda hodisalarning tashqi belgilarida vositali tarzda namoyon bo‘lishi bilan inson ichki, barqaror o‘zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi.

Tafakkurning o‘ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu vazifani bajarish bilan bog‘liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo‘lgan savolga javobdan boshlanadi. Tafakkurning alohida muhim o‘ziga xos xususiyati – bu uning nutq bilan uzluksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto nutq tovush shakliga ega bo'lmagan holat, masalan, kar – soqov odamlarda ham nutq shakliga majassamlashtirilishida o‘z ifodasini topadi. Biz doimo so‘zlar orqali fikr yuritamiz. Qisqartirilganlik muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo‘lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo‘lib hisoblanadi. Nutq tafakkur qurolidir. Ma’lum fikr so‘zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi.

Tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g‘oyalar harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma’lum bir fikrdir. Tafakkur bu kiritilgan yo‘nalishli tadqiqiy, qayta o‘zgarishli va bilish xususiyariga ega bo‘lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo‘lgan nazariy va amaliy faoliyat. Tafakkur moddiy olam qonuniyatlari, tabiat va ijtimoiy – tarixiy hayotdagi sababiy – oqibat aloqalari, insonlar psixikasi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Aqliy faoliyat natijalarini qo‘llash sohasi bo‘lgan amaliyot tafakkur faoliyatining manbai bo‘lib xizmat qiladi. Tafakkur psixik faoliyat sifatida miyaning vazifasi hisoblanadi. Oddiy psixik jarayonlar, masalan, sezgilar uchun asos vazifasini o‘taydigan yuqoriroq darajadagi miya jarayonlari tafakkurning fiziologik asosini tashkil etadi. Lekin hozirda tafakkur jarayonini ta’minlovchi barcha fiziologik tuzilmalarning o‘zaro ta’sir etish tartibi va ahamiyati haqida aniq fikr mavjud emas. Tafakkur faoliyatida miya peshona qismlari alohida ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Bundan tashqari, bosh miya po‘stlog‘ining tafakkurni gnostik vazifasi bilan ta'minlovchi doirasi, shuningdek, tafakkur jarayonini ta’minlovchi miya nutq markazlari ham katta ahamiyatga ega.

Tafakkur turlari. Tafakkur odatda nazariy va amaliy tafakkurlarga bo‘linadi. Nazariy tafakkurda tushunchali va obrazli tafakkur, amaliy tafakkurda esa – ko‘rgazmali – obrazli va ko‘rgazmali – harakatli tafakkur ajratiladi. Tushunchali tafakkur – bu ma’lum tushunchalar qo‘llaniladigan tafakkur [3]. U yoki bu aqliy masalalarni yechishda boshqa odamlar tomonidan aniqlangan va tushunchalar, mulohazalar, xulosalar shaklida ifodalangan tayyor bilimlardan foydalanamiz. Obrazli tafakkur – bu obrazlar yordamida mulohaza yuritish jarayonining bir turi. Ular xotiradan olinadi yoki tasavvurda hosil qilinadi.

Ko‘pincha tafakkurning bu turi badiiy ijodkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi odamlarda ustun bo‘ladi. Tushunchali tafakkur voqelikni aniq va umumlashtirgan holda aks ettiradi, lekin bunday aks ettirish mavhumdir.O‘z navbatida, obrazli tafakkur atrofimizdagi olamni aniq va suv'ektiv aks ettirish imkonini beradi.

Bundan bilishimiz mumkinki tushunchali va obrazli tafakkurlar bir-birini to‘ldiradi. Ko‘rgazmali – obrazli tafakkur obrazlarni qo‘llash bilan bog‘liq. Bu tafakkur odam biror masalani yechishda turli obrazlarni, hodisalar va jismlar haqidagi tasavvurlarni tahlil qilishida, qiyoslashtirishida, umumlashtirishida namoyon bo‘ladi.

Ko‘rgazmali – harakatli tafakkur – mohiyati real jismlar bilan amalga oshiriladigan amaliy o‘zgartiruvchi faoliyatdan iborat bo‘lgan tafakkurning alohida turi. Tafakkurning bu turi biror bir moddiy mahsulot ishlab chiqarish maqsadidagi mehnat bilan mashg‘ul bo‘lgan odamlarda kengroq ifodalanadi. Yana til vositalari asosida vazifa bajaruvchi so‘z mantiqiy tafakkur mavjud bo‘lib, u tafakkur tarixiy rivojlanishining so‘nggi bosqichidir. Unga tushunchalar va mantiqiy hosilalarni qo‘llash xosdir. Amaliy tafakkur tajriba, amaliy harakatlar asosida amalga oshiriladi va aniq vazifalarni bajarishga qaratilgan, nazariy – tajriba bilan ish ko‘rmasdan tushunchalardan foydalanadi. Diskursiv tafakkur – kengaytirilgan tafakkur, ichki sezgi kechishining tezligi, aniq ifodalangan bosqichlarning mavjud emasligi, oz darajada anglanganligi bilan xarakterlanadi. Reproduktiv, ishlab chiqaruvchi tafakkur – bu namuna bo‘yicha tafakkur, ijodkorlik esa – yangi kashfiyotlar, yangi natijalarga olib boruvchi tafakkur. Realistik tafakkur voqelikni to‘g‘ri aks ettiradi, odam o‘z hulq – atvorini anglaydi, autistik tafakkur esa, asosan, ob'ektga emas, affektga mos bo‘lganlarni ifodalaydi, ehtiyojni qondirishga, kelib chiqqan hissiy zo‘riqishni kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Tafakkurning aqliy jarayonning natijasi hisoblangan uch xil shakli: tushuncha, mulohaza va xulosa farq qilinadi [4]. Tushuncha – bu jism va hodisalarning umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan va farqlanuvchi belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushunchalar asosida hodisalar va jismlar haqidagi mavjud bilimlarimiz yotadi. U aniq va mavhum bo‘lishi mumkin. Talabalar shuni anglashlari kerakki, ijod murakkab ruhiy jarayon bo’lib, unda shaxs ruhiyatining barcha qatlamlari ishtirok etadi. “Ijod – mehnatning yuksak shakli bo’lib, insonlar ehtiyojini qondiradigan va ijtimoiy foyda keltiradigan mehnatdir”.

Demak, ijod orqali insonlar o’zlarining ehtiyojlarini qondiradi. Bundan ko’rinib turibdiki, talaba o’zini qiziqtirgan ma’lumotlarni izlab topishga harakat qiladi. Bunday harakat ularni zavqlantiradi. Bu jarayonlarda talabalar – o’z fikrini bir joyga to’plash, – fikrni oydinlashtirish, –

mantiqiy tafakkurga tayanish, – fikrini vositalar yordamida bayon qilish, – fikrni mantiqan yakunlash kabi tafakkur jarayonlarini sifat bosqichiga olib chiqadi. Bunday tafakkur sifatlariga erisha olgan talabalar ijod namunalarini boshqalar bilan baham ko'radi. Bunda talabalar buyuk siymolarning hayotini, ular yashab o'tgan davrni, faoliyatini o'z ijodlari orqali namoyon qilishida fikr, mantiq, tafakkur mashqlar yordamida pishitiladi va shakllantiriladi. Masalan, talabalar fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligini, aniqligini hamda borliqqa munosabatini anglash natijasida ijodiy tafakkur munosabatlari shakllanadi. Talabalar tafakkur bosqichlari jarayonlarida o'zini qurshab turgan olam sirlarini o'rganib boradi. Uning yordamida talabalar bu olamdagi voqea va hodisalarning va ular borasidagi mulohazalarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini bilib oladi. Talabalar bu olamdagi voqea va hodisalarni kuzatib, bu borada mulohaza yuritib, mazkur borliq va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga o'rganib boradi. Talabalar o'z tafakkur jarayonlari orqali qalbi va ruhiyati bilan uzviy bog'liqlikda ijodiy munosabatga kirishadi. Bunda munosabatlarning sifati talabalarning ma'naviyati, ichki dunyosi, fikrlash saviyasiga bog'liq bo'ladi [5]. Shuning uchun ham ular tomonidan amalga oshirilayotgan munosabatlar, tafakkurning ijod qila olish imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham biz o'z ilmiy izlanishlarimizda talabalardagi mavjud tafakkurni sifat darajasiga olib chiqish masalasini ko'targanmiz. Buning uchun biz birinchi inavbatda butun olamni o'zining ilmiy salohiyati va ma'naviyati bilan lol qoldirib kelayotgan buyuk mutafakirlarimizning «Al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, imom Buxoriy, imom Termiziy, Najmiddin Kubro, Xoja Bahouddin Naqshband Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Primqul Qodirov, Shuxrat, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuflar tafakkuri qanday bo'lganligini talabalarga chuqur o'rgatishni maqsadga muoffiq deb bildik. Buyuk siymolarning fikrlarini ular yaratgan asarlari orqali o'qib borganimizda shu narsaga amin bo'lamizki, fikrlar judayam tiniq, ravshan, mantiqan kuchli, qaramlikdan xoli bo'lib erkin, mustaqil hamda insonni lol qoldiradigan darajada badiiyligi, ijodiyligi bilan ajralib turadi. Bular o'z navbatida ulardagi mavjud tafakkur imkoniyatining sifatini belgilaydigan mezonlar desak bizning fikrimizcha hato qilmagan bo'lamiz. Buyuk bobokalonlarimiz tafakkurning aynan shu sifatlari orqali borliqdagi voqyea va hodisalarning sirlariga yechim topganligi sababli ularga ijodiy yondoshgan va natijalarga erishgan. Talabalarga buyuk siymolar va zamonamizda yashab ijod qilgan yozuvchi va shoirlarning ibratli hayotini namuna sifatida ko'rsatib berish orqali biz ularda mustaqil fikrlash malakasini shakllantiramiz. "Mustaqil fikrlash inson oldida turgan muammolari, maqsad va vazifalari belgilangan holda o'z bilimi, dunyoqarashi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l va usul, vositalari yordamida o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatdir. Kishi tafakkuri mustaqilligi belgilaridan biri – tashabbuskorlik bo'lib, u insonning o'z oldiga aniq maqsad, yaqqol vazifalar qo'yish, ularni amalga oshirish yo'lidagi muammolar yechimini topish, nihoyasiga yetkazish uchun zarur bo'lgan usul va vositalarni o'zi belgilashida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda tafakkur qilish har bir insonga hayoti davomida kerak bo'ladi. Agar har bir kishi o'ziga kerakli narsalarni yaxshi tafakkur qila olsa undan ham yaxshi narsani ko'ra oladi yoki yaratadi. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan cheklanib qolmasligi, balki hodisa mohiyatini ochishga intilishi, oddiy turmush haqidagi umumiy qonuniyatlarini yaratishga harakat qilishi kerak. Inson tafakkuri hali izlanmagan, to'la foydalanilmagan zahira va imkoniyatlarga egadir. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu zahirani to'la ochish fan-texnika rivojini intensivlashdan iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, rivojlanish inson aql-zakovatining mahsulidir. Shu boisdan ham fan va

texnikaning rivojlanishi insonshunoslik fanining rivojiga hamda pedagogika fanining imkoniyatlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.

2. G‘oziyev E.G. "Umumiy psixologiya". Toshkent. 2002-y.

3. P.I.Ivanov. M.E.Zufarov. "Umumiy psixologiya". Toshkent. 2014-y.

4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T., “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 b.

5. Mavlonova R.A. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. – T., “Innovatsion rivojlanish” nashriyot-matba uyi, 2020. – 528 b.

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Axmedov Akmal Yusufovich,
Farg’ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada psixologning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbati. Psixologning kommunikativ kompetentligini shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *kommunikativ kompetentlik, muloqot, psixolog, pedagogik odob, psixologik xamdardlik, avtoritar, liberal, demokratik uslub, kommunikativ madaniyat, kommunikativ ta’sir ko‘rsatish, takt, pedagogik takt.*

Psixologning kommunikativ kompetentligi uning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning o‘quvchilar jamoasi bilan o‘zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Psixolog o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo‘lishiga intiladi.

Psixologning kommunikativ kompetentligi – psixologning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbati.

Ta’lim jarayonida psixologning kommunikativ kompetentligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Yo‘nalishlar:

psixologning alohida o‘quvchi bilan muloqoti;
psixologning butun guruh bilan muloqoti;
psixologning alohida o‘quvchi orqali guruh bilan muloqoti;
psixologning guruh orqali alohida o‘quvchi bilan muloqoti.

Psixolog muloqot ruhiy-psixologik ta’sir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo‘lishini ta’minlash pedagogning zimmasiga katta mas’uliyatni yuklaydi. Agarda to‘g‘ri tashkil etilgan psixologik muloqot o‘quvchida qo‘rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug‘ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me’yorining buzilishi kabilarga sabab bo‘lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada o‘quvchilarda o‘qishga va mustaqil o‘rganishga, fikrlashga bo‘lgan qiziqish ortadi. Psixologik muloqot o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi.

Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar bajariladi:

1) shaxsni o‘rganish (bilish);

2) axborot almashish;
3) faoliyatni tashkil etish;
4) hamdard bo‘lish.

Muloqot jarayonida o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. O‘quvchi shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo‘lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik o‘quvchi shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi.

Muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi o‘quvchining o‘zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma’lumotlar almashishini ta’minlaydi. Pedagog va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi samarali ro‘y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog o‘quvchilarning eng yaqin maslahatchisi, yo‘lboshchisi va rahbariga aylanadi. Muloqot chog‘ida o‘quvchilar tomonidan o‘z shaxsini, “meni”ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o‘z oldidariga hayotiy maqsadlarni qo‘ygan holda olg‘a intilishlarini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

Pedagog rahbarligi yoki uning yo‘l-yo‘riqlari, ko‘rsatmalariga asosan o‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtda muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasini namoyon bo‘ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etishda pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o‘ringa chiqdi. Endilikda aksariyat hollarda o‘quvchilarning o‘zlari ta’lim va tarbiyaviy jarayonlarni mustaqil uyushtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Biroq, bu degani, ta’limiy va tarbiyaiy ishlarni tashkil etish davrida pedagogning o‘rni va roli mutlaqo aks etmaydi, degani emas. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo‘ladi va o‘quvchilarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri uyushtirishga yo‘naltiradi. Pedagogik muloqotning muhim vazifalaridan yana biri – pedagog va o‘quvchilarning o‘zaro hamdard bo‘la olishlari (pedagogik empatiyaga egaliklar) sanaladi.

Psixologik hamdardlik – psixolog tomonidan o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblarining xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me’yorda tashkil etilishini ta’minlash. Psixologik hamdardlik asosida pedagog o‘quvchi shaxsi, uning istaklarini tushunish va u orqali o‘quvchilarga samarali ta’sir etish zarurligini anglaydi. Psixologik muloqotni tashkil etishda pedagog, ayniqsa, yordamiga muhtoj o‘quvchilarga alohida e’tibor berish, har bir o‘quvchida turli o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtirishga qiziqtirish usullarini, hamkorlik, ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o‘ylab qo‘yish lozim.

Psixologik amaliyot psixolog tomonidan tashkil etilayotgan muloqotni bir necha turga ajratish mumkinligi ko‘rsatadi. Pedagoglar o‘z faoliyatlarida muloqotning quyidagi turlariga tayanib ish ko‘radi:

1) o‘zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot;
2) o‘zaro do‘stona munosabatga asoslangan muloqot;
3) muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot;
4) qo‘rqitish, tahdid qidishga asoslangan muloqot;
5) hazil-mutoyibaga, yumorga asoslangan muloqot.

Psixolog tomonidan jamoa bilan muloqotni uyushtirishtexnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ma’lum vaziyatlarda pedagog rahbar sifatida o‘quvchilar faoliyatlarini boshqaradi. Bu jarayonda ham muloqot yetakchi omil hisoblanadi. Biroq, muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo‘layotgan pedagog tomonidan qanday muloqot uslubining tanlanganligi bilan belgilanadi.

Odatda, pedagogning rahbar sifatidagi muloqot usullari quyidagi uch turga ajratiladi:

1. Avtoritar uslub. Bunga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan barcha turdagi faoliyatning tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat pedagog tomonidan belgilanadi. O‘quvchilarning har qanday tashabbuslari rag‘batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko‘rsatma, yo‘llanma berish, shuningdek, jazolash choralariniko‘rish orqali o‘quvchilarga ta’sir etiladi. Hatto o‘quvchilarning faoliyatlari ijobiy baholangan vaqtda ham ularga bo‘lgan ta’sir turli kesatiqlar bilan bayon etiladi. Ya’ni: “Sendan ijobiy xatti-harakatni kutmagan edim?!”, “Buni qara-ya, nahotki o‘zgargan bo‘lsang!?”, “Qara-ya, birgina a’lo baho olish bilan o‘zingni yaxshi inson bo‘lib qolgan deb hisoblaysanmi!?” va h.k. mazmundagi rag‘batlar, ular asli ijobiy holatni e’tirof etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, o‘quvchini yangi yutuqlariga ilhomlantirmaydi. Aksincha, unda ta’lim olishga, ta’lim muassasasiga va pedagoglarga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltiradi.

2. Demokratik uslub. Unga ko‘ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko‘radi. O‘quv mashg‘ulotlariva tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir o‘quvchining fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog‘ida barcha o‘quvchilarning ishtiroklari ta’minlanadi. O‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu uslubdan foydalanayotgan pedagog zimmasidagi vazifa faqatgina o‘quvchilarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini anglab yetadi. Asosiy e’tiborni o‘quvchilarning yutuqlarini e’tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o‘zlariga anglatgan holda samarali tarbiya chorasini ko‘rishga qaratadi. Har bir o‘quvchining yutug‘i alohida e’tirof etiladiki, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlantiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko‘radigan pedagog har bir o‘quvchining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to‘g‘ri taqsimlashga harakat qiladi, faol o‘quvchilarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Pedagog o‘quvchilar bilan muloqotni o‘rnatishda iltimos, maslahatga tayanib ish ko‘radi.

3. Liberal uslub. Odatda bu uslub pedagog va o‘quvchi munosabtlarining kelishuvchanlikka asoslanishini ta’minlaydigan uslub sifatida e’tirof etiladi. Bu uslubga ko‘ra ish yuritadigan pedagog o‘quvchilar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarga ham e’tibor bermaslikka intiladi. O‘quvchilarni tartibga chaqirish, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to‘g‘ri baholab, jazolash zarur bo‘lgan vaziyatlarda ham indamaslikni odat qilib oladi. Bu esa o‘quvchilarning odobsiz, yalqov, mas’uliyatsiz bo‘lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma’qul ko‘radigan pedagog o‘quvchilar hayoti bilan mutlaqo qiziqmaydi, ularning faoliyatlariga aralashmaydi, hal qiluvchi vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasidan soqit qiladi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo‘lgan fikrlarni ham birdek ma’qullaydi. Bu tahlitda ish ko‘radigan pedagog obro‘ga ega bo‘lmaydi. Chunki unga ishonish mumkin emas. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning nafaqat o‘zi, balki uning ijobiy ta’siri asosida o‘quvchilar ham muloqot madaniyatini o‘zlashtirib borishlari lozim.

Muloqot madaniyati – muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosidasuhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik.

Ta’lim amaliyoti pedagogik muloqot jarayonida pedagoglar tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishidan dalolat beradi: ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshni ortiqcha majburlash; sustkashlik, o‘zini juda yuqori yoki past qo‘yish; haddan tashqari jonbozlik ko‘rsatish. Pedagog o‘quvchilarga samarali kommunikativ ta’sir ko‘rsatish malakalarini o‘zlashtira olishi zarur.

Kommunikativ ta’sir ko‘rsatish – o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lish, ularga to‘g‘ri yondashish, pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, irodaviy va hissiy ta’sir etish.

Mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik takt ham o‘ziga xos o‘rin tutadi:

Pedagogik (nazokat) takt – pedagogning o‘quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondashish malakalariga egaligi.

Pedagogik takt pedagog faoliyatiga g‘oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Takt (dahldorlik) – axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat bo‘lib, o‘zida barcha obyektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan subyektiv qabul qilishni avvaldan ko‘ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo‘llarini izlashning namoyon bo‘lishi. O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik takt ijodiy izlanishni talab etadigan amaliy harakatdir. Pedagogga xos bo‘lgan pedagog taktning asosiy tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

1) shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

2) yuksak talabchanlik;

3)suhbatdoshni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan qayg‘urish malakasi;

4) ruhiy barqarorlik, dadillik va og‘ir vazminlik;

5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan so‘zlay olish;

6) qat’iyatlilik (qaysarlik emas);

7) o‘quvchilarga nisbatan e’tiborli va xushyor bo‘lish.

Psixolog takt, shuningdek, pedagogning o‘quvchi javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e’tibor qaratishida, bordi-yu, o‘quvchi xatoga yo‘l qo‘yadigan bo‘lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to‘g‘rilashda, o‘quvchi faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo‘yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda javob berayotgan o‘quvchiga jilmayish, turli imo-ishoralar bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari, qo‘l harakatlari bilan uning javoblarini ma’qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O‘qituvchi – o‘quvchi munosabatlarida psixologning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim muammo hisoblanadi. Ota-onalar bilan samarali muloqot qilish maktab va o‘qituvchilar ishlarining muhim qismidir. O‘qituvchilar bolalarning bilim olishlariga yordam berish uchun ularning oilalari, tili va madaniyati haqida bilishlari kerak. Maktab bilan muloqotdan ota-onalar foyda olishadi, chunki ular maktabda nima sodir bo‘lishi haqida ko‘proq bilib olishadi va uyda o‘rganishni rag‘batlantirishi mumkin. Eng muhimi, bolalar yaxshilangan muloqotdan foyda ko‘rishadi, chunki uy va maktab o‘rtasidagi aloqa bolalarga o‘rganish va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. O‘z ishini yaxshiroq bajarish uchun o‘qituvchilar bolaning maktabdan tashqari hayoti to‘g‘risida bilishlari kerak. Ba'zi o‘qituvchilar ota-onalarning ish vaqtiga mos keladigan majlis va tadbirlarni rejalashtirishadi. Mumkin bo‘lgan hollarda bolalarni parvarish qilish yoki transport bilan ta’minlashni taklif qilish, shuningdek, ota-onalarning maktabga kelishini osonlashtirar edi. Mehmonlarni iliq kutib oladigan yoki ota-onalar markazi mavjud maktablarda ota-onalar o‘zlarini yanada qulay his qilishadi. Ba‘zi o‘qituvchilar ota-onalarga qo‘ng‘iroq qilishadi. Ba’zi o‘qituvchilar ota-onalarga eslatmalar yozadilar yoki boshqa oila a’zolari bilan birga bola haqida ma’lumot yuboradilar.

O‘qituvchilar va maktablar oilalar bilan aloqani osonlashtirish uchun ko‘p narsalarni qilishlari mumkin. Ikkala tomon uchun ham yaxshiroq bo‘lgan muloqot usullarini aniqlash muhimdir.

Muloqot sinfda muhim o‘rin tutadi: muvaffaqiyatli o‘qitish odatda 50% dan 100% gacha bo‘lgan muloqot qobiliyatlarini talab qiladi deb hisoblanadi. Natijada, o‘qituvchi barcha to‘rtta aloqa usullarini – tinglash, gapirish, o‘qish va yozishni yaxshi bilishi va ushbu bilimlardan maktab sharoitida qanday samarali foydalanishni bilishi kerak.

Buning uddasidan chiqish o‘quvchilarning akademik hayotida erishgan yutuqlariga hamda o‘qituvchining martaba yutuqlariga ta'sir qilishi isbotlangan.

Ushbu maqolada biz sinfdagi muloqotning shunday muhimligi sabablarini bayon qilamiz. Shuningdek, siz o‘zingiz va o‘quvchilaringiz eng yaxshi natijalarga erishishda yordam beradigan ba'zi strategiyalarni bilib olasiz.

O‘qituvchilar uchun samarali muomala ko‘nikmalariga ega bo‘lish nega muhim?

O‘qituvchilar uch xil yo‘nalishdagi muloqot qobiliyatlaridan foydalanadilar: o‘quvchilar bilan, ota-onalar bilan va hamkasblar bilan muloqot qilishda.

O‘quvchilar bilan muloqot qilish. Muloqot qobiliyatlari o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlar uchun eng muhim ahamiyatga ega, chunki o‘qitishning o‘zi ularni talab qiladi. O‘zingizning rolingizda siz murakkab ma’lumotlarni anglash va tushuntirish, bu ma'lumotlarni o‘quvchilaringizga aniq yetkazish (og‘zaki va yozma manbalarda), ularning e’tiborini jalb qiladigan tarzda taqdim etish, ularning savollari yoki muammolarini tinglash va hal qilish uchun javobgarsiz.

Sizdan tarkibni turli xil o‘quv uslublariga moslashtirish, o‘quvchilarni o‘rganishga undash, rag‘batlantirish va hamdardlik yordamida qo‘llab-quvvatlovchi aloqalarni o‘rnatish, sinfni boshqarish va fikr-mulohaza bildirish talab etiladi – bu sizning sinfingizni xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitiga aylantiradi.

Bularning barchasi yaxshi muloqot qobiliyatini, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlanganligini talab qiladi.

Muloqot qobiliyatingiz qanchalik yaxshi bo‘lsa, ushbu vazifalarni shunchalik samarali bajarishingiz mumkin. O‘z navbatida, sizning o‘quvchilaringiz ko‘proq ilmiy yutuqlarga erishadilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning muvaffaqiyati qobiliyatli o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan interaktiv, qiziqarli o‘qitish muhitlari bilan bevosita bog‘liq. Bundan tashqari, sizning o‘quvchilaringiz bilan muloqot tarzingiz ularning maktab haqidagi tasavvurlariga, ularning sinfdagi o‘rni, o‘zlari va qobiliyatlari va muvaffaqiyat motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin (qarang: Dobbs va Arnold, 2009).

Biroq, salbiy muloqot qobiliyatlari va buning natijasida o‘qitishning samarasiz usullari – o‘quvchilarning tushunish darajasining pasayishiga olib keladi va ularning o‘quv yutuqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu, shuningdek, o‘quvchilarda motivatsiyaning yetishmasligiga, maktabni yoqtirmasliklariga va muvaffaqiyatga erisha olmayotganiga ishonishiga olib kelishi mumkin. Bu o‘quvchilarning kelajaklariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida samarali aloqa juda muhimdir. Bu sizning vazifangizni yaxshi bajarishingizga, o‘quvchilaringiz uchun ijobiy natijalarga imkon beradi. Qo‘shimcha afzallik shundaki, sizning sinfingiz sizni rivojlanishi va kelajakda o‘rganishlari uchun muhim bo‘lgan o‘zlarining muloqot qobiliyatlarini oshirish uchun namuna sifatida foydalanishi mumkin

Ota-onalar bilan samarali muloqot qilish**.**Psixolog sifatida siz ota-onalar bilan samarali muloqot qilishingiz kerak bo‘ladi. Bu turli xil vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin, jumladan, telefon qo‘ng‘iroqlari, elektron pochta xabarlari va shaxsiy uchrashuvlar, shuning uchun siz og‘zaki va yozma tillarni bilishingiz kerak.

Bu juda muhimdir, chunki siz ota-onani chalkashtirib yubormaslik yoki o‘zini himoya qilmasdan, sezgir mavzular – masalan, xatti-harakatlar, o‘quv muammolari va o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini muhokama qilishingiz kerak bo‘ladi. Siz har doim jiddiy, ammo muloyim bo‘lishingiz juda muhimdir. Ota-onalar bilan yaxshi aloqada bo‘lmaslik, ular sizning o‘qitishingizga shubha tug‘dirishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shikoyatlarga, shuningdek, farzandining faoliyati va ta’lim ehtiyojlarini tushunmaslikka olib kelishi mumkin. O‘qitish har doim ham mustaqil ishni o‘z ichiga olmaydi – bu hamjihatlikni talab qiladi. Birgalikda darslarni rejalashtirishni xohlaysizmi, hamkasblaringizni muayyan o‘quvchilarning yutuqlari to‘g‘risida xabardor qilasizmi yoki sinfdagi muammolarni hal qilish bo‘yicha maslahatlar bilan bo‘lishasizmi, yaxshi muloqot qobiliyatlari siz uchun foydalidir.

Shuningdek, siz ushbu ko‘nikmalarni xodimlar yig‘ilishlarida va o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llashingiz mumkin – yig‘ilishlarni olib borish, turli xil auditoriyalar oldida chiqish qilish va boshqa xodimlar bilan fikr-mulohaza bildirish sizning hamkasblaringiz va yuqori lavozimlarga ko‘tarilish uchun yaxshi nomzod ekanligingizni ko‘rsatishi mumkin.

Ko‘rsatib o‘tganimizdek, samarali muloqot qobiliyatlari o‘qituvchilik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lishining sabablari juda ko‘p.

Keyingi bo‘limda biz sizga sinfda muloqotni yaxshilash uchun ba’zi strategiyalarni taqdim etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar // Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020-yil 29-dekabr).

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2021.

4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil, 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3907 son Qarori.

10. Djaylavov A. Ta'lim sohasida interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish texnologiyalari (malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun uslubiy qo'llanma). – A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2016.

11. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". T.: "Nihol" nashriyoti, 2013.

12. Paxrutdinov Sh. Global axborot jamiyati va mediata'lim. – T.: 2015.

13. Rustamova N. Mediata'lim va mediamadaniyat: nazariya va amaliyot. – T.: "Muharrir", 2015.

14. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: "Akademiya", 2007.

15. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. – T.: YuNISEF, 2005 y.

16. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.

Elektron ta'lim resurslari

17. https://onlinedu.uz/

18. https://avloniy.uz/uz

19. https://ru.wikipedia.org

20. http://ziyonet.uz/ru

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KELAJAK O’QITUVCHISI TOMONDAN SHAXMATCHILARNI PSIXOLOGIK VA JISMONIY TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xoliqov Umidjon Qo‘chqarovich,
Guliston davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi
shax75.75@mail.ru tel:+998999178075

Annotatsiya. *Maqolada Shaxmat murabbiysi faqat shaxmatni sevadigan inson bo’lmasligi lozim, u pedagog, psixolog bo’lishi va ayrim tibbiy-biologik masalalar bo’yicha jiddiy bilimlarga ega, ya’ni shaxmat, uning inson psixikasi va sog’ligiga qanday ta’sir qilishini yaxshi tasavvur eta oladigan bo’lishi kerak. Psixologik tayyorgarlik shaxmatchi sport shaklini belgilovchi juda muhim element haqida ma’lumotlar ketyapti.*

Kalit so’zlar: *shaxmat, intellektual, asabiy-emotsional zo’riqish, jismoniy tayyorgarlik, gipodinamik, psixologik tayyorgarlik, to’sqinlik, chidamlilik.*

Hozirgi kunda zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko’nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatni nazorat qilish, talabalar tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.[1]

Ko’plab olimlarning ta’kidlashicha, shaxmat – umumiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta’limning bir turi hisoblanib, psixologik jarayonlarni rivojlantiruvchi, insonni aqliy, ijodiy va tarbiyaviy komolotga erishishiga yo’naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxmat murabbiysi faqat shaxmatni sevadigan inson bo’lmasligi lozim, u pedagog, psixolog bo’lishi va ayrim tibbiy-biologik masalalar bo’yicha jiddiy bilimlarga ega, ya’ni shaxmat, uning inson psixikasi va sog’ligiga qanday ta’sir qilishini yaxshi tasavvur eta oladigan bo’lishi kerak. Gap avvalo shaxmat o’yini, u bilan shug’ullanish salomatlikka noxush ta’sir etmay, balki foyda keltirishi lozimligi haqida ketyapti**.** Ma’lumki, bu o’yin sportning aksari ko’p turlaridan farqli o’laroq, muskullarning qattiq ishlashi bilan bog’liq emasligiga qaramay, shaxmat sportga kiradi. Buning ustiga shaxmatni ifodali tarzda sportning gipodinamik turi deb atash mumkin, chunki shaxmatchi professional faoliyati davrida talay vaqtni shaxmat taxtasi yonida o’tirib o’tkazadi, ya’ni kam harakat turmush tarzini kechiradi. Bu xususiyatga e’tibor berish kerak, nega deganda, sport faoliyatining boshqa turlarida, ayniqsa musobaqalar o’tkaziladigan vaqtda emotsional zo’riqish odatda yuksak darajadagi harakat aktivligi bilan uyg’unlashib turadi. Bu harakat aktivligi organizm emotsional zo’riqishining yurak-qon tomir va asab tizimsining funktsional holatiga noxush ta’sir ko’rsatishidan asrashi tufayli muhim ahamiyatga egadir. [3]

Shaxmat esa, sport faoliyatining shunday shakliki, u qattiq asabiy-emotsional zo’riqish bilan amalga oshadi va ayrim hollarda salomatlikka noxush ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Kuchli asabiy-emotsional zo’riqishning salomatlikka noxush ta’siri nimalarda namoyon bo’ladi? Salomatlikning yomonlashish belgilari turli-tuman bo’lib, yakka tartibda har xil namoyon bo’ladi. Masalan, ko’pchilikda nodastirlik xissi paydo bo’ladi: ular «qandaydir boshqacha» bo’lib qolganliklari, «horg’inlik» sezgisi paydo bo’lganidan shikoyat qiladilar; ayni vaqtda vaximaga tushish, yuksak hayajon, navbatdagi uchrashuvga tayyorlanish uchun diqqatni bir joyga to’plash qobiliyatining yo’qolish holatlari yuz beradi. [4]

Ba’zilarning ishtaxasi bo’g’iladi, ko’pincha ularda uyqusizlik paydo bo’lib, buning natijasida ularning salomatligi asta-sekni yomonlasha boradi.

E.Lasker matchning 10-partiyasini X.R.Kapablankaga yutqazgandan keyin o’z holatini shunday baholagan edi. Jahon chempioni haddan ziyod asabiylashish natijasida og’ir kasallikka duchor bo’lay deb qolgan edi. U shunday yozgan edi: «... o’yinning 4-soati tugab, belgilangan

kontrol vaqt yaqinlashib qolganda, men deyarli butunlay holdan toygan edim... shaxmat taxtasini g'ira-shira ko'rar, boshim esa xunuk og'rirdi. Bu menga ehtiyotkorlik chorasi bo'lib, unga quloq soldim... Men kubalik vrach bilan maslahatlashdim. U menga boshim aylanayotganligi, o'yin oxirida pozitsiyami baholashga va hatto vaziyatni aniq ko'rishga qurbim yetmayotganligi nima bilan bog'liq ekanligini tushuntirib berdi». Lasker o'yinni to'xtatishga qaror qildi, biroq rasman matchni yana to'rtta o'ynalgan partiyadan so'ng (shundan ikkitasini yutqazgan edi) topshirdi. [5]

Kamroq hollarda asabiy-emotsional zo'riqish ta'siri depressiya va seruyqulikning kuchayishiga yoki tez charchash, loqaydlikka olib keladi. Shunda ruhiyati mustaxkam bo'lmagan kishilarda shubhalanish, o'zining keraksizligi haqidagi miyaga umashib qoladigan fikrlar yoki qandaydir og'ir dardga giriftor bo'lib qolganiiklari to'g'risidagi xayollar paydo bo'ladi. Shaxmatchi hadiklarini eshitib, uni yupata va bu bilan ruxiy azoblarini yengillata oladigan vrach, murabbiy yoki biror do'sti bilan baham ko'rish imkoniyati bo'lsa-ku yaxshi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa ruhiy yozilish xolatidan chiqish qiyinlashishi mumkin.

Salomatlikka qarab muntazam ravishda shaxmat o'ynaganda noxush ta'sirdan qanday qutulish mumkin? Bunda meditsina nazorati va shaxmatchining maqbul rejimga rioya qilishi juda katta ahamiyatga ega. Gap nafaqat ortiq darajadagi o'yin nagruzkalari haqida, balki juda muhim sanaluvchi dam olishni uyushtirish to'g'risida ham ketyapti.

Mana shunda jismoniy tayyorgarlik birinchi darajaga ko'tariladi. Jismoniy tayyorgarlikka sport mashg'ulotlarining qaysi turlarini qo'shish kerak? Bu savolga bir hilda javob berib bo'lmaydi. Faqat shaxmatchining ularga nisbatan sub'ektiv munosabatini inobatga olish lozimligini aytib qo'yish mumkin. Albatta, kundalik rejimga ertalabki jismoniy tarbiya, «sog'lomlashtiruvchi» yugurish, uyqu oldidan sayr boshqa ba'zi umumiy tavsiyalarni berish mumkin. Tajriba ko'p shaxmatchilar sport o'yinlari – katta va stol tennisiga, vollebol, futbolga havasmand ekanliklarini ko'rsatadi. Shaxmat bilan jiddiy shug'ullanuvchi ko'p talabalar bu o'yinlarni sevadilar. Demak, jiddiy shaxmat mashg'ulotlariga xamroh bo'luvchi gipodinamiya va emotsional zo'riqishning noxush oqibatlarining oldini olish uchun ularni kundalik rejimga kiritish maqsadga muvofiq. [6]

Shaxmatdagi nagruzka miqdorini rejaga solishdek muhim masalaga kelganda, avvalo boshlang'ich o'rgatish jarayonidayoq uning asta-sekin ortib borishi tamoyiliga amal qilish kerak.

Shu munosabat bilan shaxmatchiga va ayniqsa, shaxmat murabbiyga o'rgatish jarayonida sof maxsus tayyorgarlikdan tashqari birinchi qarashda shaxmat ijodiyoti, shaxmatchining sport o'suvida durustroq ahamiyati yo'qdek ko'rinuvchi masalalarga ham ma'lum o'rin ajratilishi lozim.

Psixologik tayyorgarlik shaxmatchi sport shaklini belgilovchi juda muhim elementdir. Psixologik tayyorgarlik ikkita asosiy vazifani hal qilishni o'zida mujassamlashtirishi kerak.

Birinchisi – emotsional turg'unlik, uzoq vaqt diqqatni bir joyga to'plash qobiliyati, uzoq muddatli, operativ xotirani, yuksak tashqi va ichki to'sqinliklarga bardosh berish singari o'z psixologik fazilatlarini takomillashtirishdan iboratdir.

Ikkinchisi – paqib psixologiyasi, uning shaxsiga xos kuchli va zaif tomonlarni va albatta, o'yinning alohida xususiyatlarini o'rganishdir. Shaxmatchi birinchi vazifani uddalash uchun albatta o'ziga baayni chetdan qaray bilishi, bunda imkoni boricha ob'ektivlikni saqlashi lozim. Bunday vazifani uddalash juda qiyin. Uni muvaffaqiyatli hal qilish uchun nafaqat shaxmat material ustida uzoq ishlash – qo'pol xatolarni aniqlovchi sabablarni tinmay qidirib o'z partiyalarini tahlil qilish kerak, balki qisqa kundaliklar – unda o'z salomatligi, kayfiyati, o'yingacha va o'yin paytidagi shaxsiy kechinmalari haqidagi va boshqa ma'lumotlar aks eta oladigan yozuvlar olib borish ham maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Bu sport shaklini yaxshilashda psixologik kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshigina yordam berishi mumkin. [2]

Tashqi va ichki to'sqinliklarga chidamlilikni oshirish ustida ishlashda ham shu jihatdan jiddiy e'tibor berilishi kerak. O'yin paytida shaxmatchiga navbatdagi yurishni o'ylashga diqqatni to'plash uchun halaqit beruvchi barcha real ta'sir ko'rsatuvchi va ba'zi chunonchi, xonadagi shovqin singari uni muvozanatdan chiqaruvchi omillarni tashqi to'sqinliklarga kiritish kerak.

O’yin paytida raqibga «to’sqinliklar» barpo qilish maqsadini ko’zlovchi shaxmatchi xulqini turli shakllari, chunonchi o’yin bo’layotgan xonadan tez-tez g’oyib bo’lish, yuzaga kelgan pozitsiyani ular bilan muhokama qilinayotgandek taassurot tug’diruvchi musobaqaning boshqa ishtirokchilari bilan muloqotda bo’lish yoki, nihoyat shaxmat stoli yonidagi g’alati qiliqlar (ko’z o’rishtirishga urinish, raqib yuziga kattiq tikilib qarash va hokazo) ham shu hildagi to’sqinliklar katoriga kiradi.

Ichki to’skinliklarga yo shaxmatchi o’ynayotgan partiyaga aloqasiz va aniq tarzda o’zi sezmayotgan, yoki oldingi uchrashuvlarda muvaffaqiyasiz o’ynagani, yoki o’ynalayotgan partiyada oldinroq yo’l qo’yilgan xato bilan bog’liq bo’lgan kechinmalar kiradi. Binobarin, ichki to’sqinliklarga chidamlilik tashqi to’sqinliklarnikidan aslo kam bo’lmasligi kerak.

Charchash oqibatida kelib chiquvchi xatolarning oldini olish ham muhim masaladir. Bunda charchoq turli shaxmatchilarda bir xil namoyon bo’lmasligini aytib o’tish lozim. Ba’zilarda charchoqning kuchayishi uchun xarakterli belgilar paydo bo’ladi; eng ko’p uchraydigani fikrni to’plash qobiliyatining yo’qolishi bo’lib, shaxmatchida variantlarni hisoblashda katta qiynichiliklar yuzaga keladi va bitta variantning o’zini bir necha bor qaytadan hisoblash zarurati tug’iladi; bir vaqtning o’zida ba’zilar yurishni tanlashda ikkilanib qoladilar. Boshqalarda loqaydlikning paydo bo’lishi, o’yinga hafsalasizlik bilan qarash, yurishni tanlashda zarur bo’lgan iroda kuchining pasayishi charchoq alomatlaridir. Shunisi e’tiborga loyiqki, ko’p shaxmatchilar jang paytida charchoq kuchayayotganini sezmaydilar, ular o’zlarini odatdagidek his qiladilar va faqat o’yinlari qat’iyasiz bo’lib qoladi, qo’pol xatolar paydo bo’ladi. O’yindan so’ng ular xatolarining paydo bo’lishini raqib yoki zalda o’tirgan boshqa birovlar «sehrlab» qo’yganligi bilan izohlash hollari ham yuz berib turadi... .[6]

Ayni chog’da ma’lumki, o’yin paytida raqiblar o’rtasida muayyan o’zaro psixologik ta’sir ko’rsatish paydo bo’ladi. Bu narsa yurishni tanlashda ma’lum darajada ahamiyat kasb etishi mumkin. Masalan, ko’p hollarda shaxmatchi raqibining qat’iyasizligi va hayajonini juda yaxshi his qiladi. Ma’lumki, shaxmatchilardagi shovqindan o’ta ta’sirchanlik, ayniqsa ular unchalik yaxshi sport shaklida bo’lmagan davrlarda yoki uzoq davom etuvchi emotsional jihatdan qattiq kurash jarayonida ularda charchash alomatlari paydo bo’lgan hollarda sezilib qoladi. Bu belgi alomatlar o’yinning 4 – 5-soatlarida ayniqsa bilinadi.

Bu psixologik kamchilikni bartaraf etish uchun u oddiygina, lekin, chamasi, ta’sirchan metodni qòlladi. Musobaqalarga tayyorlanish paytida Botvinnik variantlarni tahlil qilayotgan yoki mashq partiya o’ynayotganda radio priyomnikni qo’yib, sun’iy ravishda shovqinga beparvo bo’lish, uni sezmaslik qobiliyatini tarkib toptirgan edi.

Raqib vujudga keltiradigan to’sqinlnklarga beparvo bo’lish qobiliyatini tarkib toptirish murakkabroq masala. Bu vazifani muvaffaqiyatli uddalash uchun raqiblar o’rtasidagi o’yin jarayonida paydo bo’luvchi o’zaro psixologik ta’sir haqida ma’lum tasavvurga ega bo’lmoq lozim.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki Shaxmatchilarning o’zaro psixologik ta’sir ko’rsatishiga xozircha katta e’tibor berilgani yo’q va xolanki, shaxmat kodeksida o’yin paytida raqiblarning o’zini tutish qoidalari ko’rsatib o’tilgan. Albatta, bu qoidalar shaxmatchilar xulq-atvorining barcha xususiyatlarini to’la hajmda qamrab ololmaydi. Kodeksda, chunonchi, shaxmatchi o’yin paytida raqibi bilan gaplashmasligi va biror kimsa bilan vujudga kelgan pozitsiyani muhokama qilmasligi kerak, deyilgan. Biroq kodeksda, shaxmatchi turnir zaliga raqibini o’yindan chalg’ituvchi har hil begona narsalar olib kelishga haqqi yo’q, deyilmagan; yana yurishni o’ylayotgan raqib nigohini kuzatish, ko’z urishtirish, kulish va hokazolar qoidalar man etiladi, deb ham aytilmagan. Shunga o’xshash beodob qiliqlar dam-badam uchrab turadi va kurashning normal davom etishiga xalaqit beradi. Raqiblardan birining «tashabbusi» bilan taxta uzra boshlangan muzokaralar qo’pol xatoga sabab bo’lgan hollar ham yuz bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada shakllantirish va ommaviyllashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida" PQ-4954-son qarori.
2. Xoliqov U. O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali 1 (2), 28-37 Boshlang’ich sinf o’quvchilarda shaxmat o’rgatish orqali mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini baholashning innavotsion usullari.
3. Khalikov U. Pedagogical value of developing playing chess among primary schoolchildren Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), P. 17-23.
4. Xoliqov U. Shaxmat o‘yinida shaxs psixologiyasini shaklantirishda nazariy va amaliy muammolari Eurashian journal of technology ana innovation Innovative Academy Research Support Center Volume 1, Issue 6, June 2023 ISSN 2181-2020. 122-126 betlar.
5. Isabekov Sh. “Shaxmat tarixi va uning asoslari”. – uslubiy qo’llanma 2022 y.
6. B.Estrin «Shaxmat nazaryasi va amaliyoti” (ruschadan M.Muhitdinov tarjimasi), Toshkent O'qituvchi 1983 yil
7. Данг В.З. Тренировочные и соревновательные нагрузки в годичном цикле подготовки шахматистов: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Данг Ван Зунг; РГУФК. – М., 2006. – 191 с.: ил. 129897

SHAXMATCHILARNING MANTIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINING TIZIM ASOSLARI

Xoliqov Umidjon Qo‘chqarovich,
Guliston davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi
shax75.75@mail.ru tel :Q998999178075

Annotatsiya. *Maqolada shaxmatchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish jarayoniga asosiy talablarni talabaning shaxsiy rivojlanishining uzluksizligini ta’minlash; jismoniy va jismoniy tarbiya fazilatlari, faoliyatini shakllantirish zaruriyatilari haqida ma’lumotlar keltirganmiz.*

Kalit so’zlar: *mantiqiy, pedagogika tizimi, xotira, diqqat, intizom, o’z-o’zini baholash, jamiyatda o’zini tuta bilish.*

Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, mantiqiy fikrlashni shakllantirishning integratsiyalashgan tizimini yaratish zarurati mavjud bo’lib, uning tarkibiga umumta’lim maktablari, qo’shimcha ta’lim muassasalari va oliy o’quv yurtlari kiradi. Shu bilan birga, ushbu tizimdagi Universitet asosiy tashkiliy-uslubiy markaz hisoblanadi, o’quv jarayonida fikrlash faoliyatini shakllantirishda tizimli xususiyat va uzluksizlikni ta’minlaydigan asosiy tashkiliy-uslubiy markaz bo’lishi kerak.

Mantiqiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimining asosiy maqsadi: yosh talabalarning kasbiy tayyorgarligini samarali ta’minlash; shaxsning yuqori intellektual salohiyatini shakllantirish, rejalashtirilgan bosqichlarga erishish uchun barqaror g’ayratli istakni yaratish. Shaxmatga nisbatan, bu sportchi eng qisqa vaqt ichida usta darajasiga erishishga qodir va ongli ravishda intiladigan shart-sharoitlar va omillar to’plamini yaratishni anglatadi. [1]

Bizning fikrimizcha, shaxmat o’rganish asosida talabalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish g’oyasini amalga oshirishga imkon beradigan pedagogik tizimni taklif qilamiz. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik tizimning mavjudligi nisbiydir. Uning funktsional tadqiqot maqsadlari uchun mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayonining pedagogik quyi tizimlarining o’zaro ta’sirini aniq ifodalash uchun zarurdir.

Ta’limning zamonaviy tushunchasi inson shaxsini tobora shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va muhim shaxsiy sifatlarni yanada tarbiyalash g’oyasiga qaratilgan. Bularning barchasi va yana ko’p narsalar shaxmat treninglari orqali katta yordam beradi. Shunday qilib, shaxmat o’qituvchisi shaxs rivojiga yordam beradi. [2] Bular:

1. mantiqiy fikrlashni shakllantirish;
2. mantiq, izchillik, intizom va bosiqlik, shoshmaslik elementlari;
3. xotira, diqqat va kuzatish;
4. ijodiy tasavvur va assotsiativ tafakkur;
5. adabiyotlarni o’rganish ko’nikmalari;
6. mustaqil tadqiqot ishlari ko’nikmalari va xokzo.

Shaxmat mashg’ulotlarining rivojlantiruvchi rolining ayrim jihatlarini batafsilroq ko’rib chiqish mumkin.

Dastlabki shaxmat darslarida ham o’quvchining g’alabaga bo’lgan intilishining o’zi yetarli emasligiga ishonch hosil qiladi. Bu vakolatlar oldingi harakatlar tomonidan tayyorlangan faqat harakat kuchli bo’ladi. Shaxmat darsi: to’g’ri yechimlarni tanlash uchun mavjud sharoitlarni ob’ektiv hisobga olish va baholashga tayanish kerak.

Mustaqil (mantiqiy) fikrlashni shakllantirish

Shaxmat darslarida o’yinchi o’z bilim va ko’nikmalaridan turli pozitsiyalarda foydalanishni o’rganadi. Shunday qilib, shaxmatni o’rgatishda inson qiyosiy tahlil san’atini, tashqi ko’rinishdagi turli xil vaziyatlarda va o’xshashliklarda sezilarli farqlarni topa olish qobiliyatini egallaydi.

Xotirani rivojlantirish

Shaxmat mashg’ulotlarining xotira rivojlanishiga ta’siri o’z isbotini topgan. Shaxmat darslarida o’qituvchi o’quvchiga ob’ektlarning joylashishi va o’zaro ta’siri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma’lumotlarni semantik, mantiqiy eslab qolish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Fikrlash va fikrlash intizomi

Shaxmatni o’rgatish fikrlash va fikrlash intizomini rivojlantiradi. Shaxmat o’qituvchisi rahbarligida o’quvchi fikrlash va qaror qabul qilishning besh bosqichli sxemasini: pozitsiyani tahlil qilish, pozitsiyani umumiy baholash, rejani tanlash, harakatni tanlash, tanlangan harakatni tekshirish va bajarishni qat’iy o’rganishni o’z ichiga oladi. Bu tafakkur sxemasi kasbiy xarakterga ega bo’lib, ta’limiy, ilmiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa vazifalarni hal qilishda ham qo’llaniladi.

Diqqatning rivojlanishi

Shaxmat o’qituvchisi o’yin uchun kerakli konsentratsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Shaxmat darslari uzoq muddatli, barqaror, intensiv va katta e’tibor talab qiladi. Zero, bir lahza sustlashsangiz, bitta qo’pol xatoga yo’l qo’ysangiz, avvalgi barcha ishlarning mevalari yo’qoladi. Shaxmat murabbiyining bunday xususiyati refleksiv xususiyatlariga tayanish bilan bog’liq bo’ladi. Shaxmat o’qituvchisi rahbarligida o’yinchi vaqtni oqilona ajratishni, vaqt oraliqlarini xolisona baholashni va stressli vaziyatda tezda qaror qabul qilishni o’rganadi.

Intizom

Shaxmatni o’rganish nafaqat mantiqiy fikrlash qobiliyatini, balki xarakterning rivojlanishiga ham katta ta’sir ko’rsatadi. Shaxmat intizomni, doimiy o’z-o’zini nazorat qilishni talab qiladi va musobaqa davomida amalga oshirilmaydigan har bir harakat uchun javobgarlikni o’rgatadi. Shaxmatdagi dars jasorat va qat’iyatni mas’uliyat va ixtiyor bilan birlashtirishdir.

Ko’chirma

Har bir o’yin va umuman raqobat muqarrar ravishda yoshlar uchun jiddiy psixologik sinovga aylanadi. Bu tayyorgarlik kuchli va chiroyli harakat, real va xayoliy xatolar uchun his-tuyg’ular bilan to’lgan raqib va muxlislar, kurash o’z huzurida qiyin raqib, kurashni kutish (u faqat o’yindan so’ng tahlil ikkinchi birinchi ajratish ko’pincha mumkin), natija uchun javobgarlik, shu jumladan, ota-onalar, shaxmat o’qituvchisi, jamoadoshlari oldida. Mas’uliyatni xis etishni o’z ichiga oladi. Shaxmat darsi ekstremal vaziyatlarda vazminlik, o’z-o’zini nazorat

qilish, qat’iyat va qat’iyat ko’rsatish, noaniqlik va salbiy hissiyotlarni engib o’tish, muddatidan oldin tasalli berish va ob’ektivlikdan mahrum etishdan iborat. Shuning uchun maktab o’qituvchilari va o’quvchilar, yuqori martabali shaxmatchilar turli imtihonlarni bir-biri bilan teng darajada joriy ko’rsatkichga ega bo’lgan shaxmatchilardan ko’ra ancha yaxshi topshirishlari bejiz emas.

O’z-o’zini baholash Shaxmat darsi sizning da’volaringizni boshqalarning shaxsiy natijalari va qiyosiy yutuqlari bilan to’g’ri taqqoslash natijasida xolisona o’z-o’zini baholashga o’tishdan iborat. Shaxmat sizni nafaqat argumentlar bilan o’z fikringizni himoya qilishga, balki boshqa birovlarni ham hurmat qilishga o’rgatadi. Shaxmatga o’rgatish nafaqat o’zingizga, balki raqiblaringizga va umuman boshqa odamlarga nisbatan xolislikni uyg’otadi. Shaxmatchi nafaqat taxtadagi pozitsiyalarni, balki raqibning kuchli va kuchsiz tomonlarini, xarakterining o’ziga xos xususiyatlarini ham tahlil qilishga to’g’ri keladi. Shu bilan birga shaxs o’zini aqlan boshqa joyga qo’yishni o’rganadi. Shubhasiz, bu tajriba turli vaziyatlarda bir-birini tushunish va o’zaro hamkorlikni osonlashtiradi.

Jamiyatda o’zini tuta bilish

Shaxmat saboqlari va musobaqalari o’zining aniq va adolatli qoidalari bilan o’quvchilarni to’g’rilikka, jamiyatda o’zini tuta bilishga va odamlarga hurmat bilan qarashga undaydi. Shaxmatga bo’lgan ishtiyoq o’quvchiga kattalar shaxmatchilar bilan qiziqqanlar va ma’lum ma’noda teng tarzda muloqot qilish imkonini bergan.

Shaxmat o’qituvchisi bilan o’yin nazariyasi va tarixini o’rganar ekan, o’quvchilar ko’plab mamlakatlar va xalqlarning iste’dodli shaxmat vakillarining o’z taraqqiyotiga qo’shgan hissasini, rol chaqiruvi, interpenetratsiyasi va shaxmat g’oyalarini o’zaro boyitishni ko’radilar. [3]

Fikrlashni tarbiyalash – bu oddiy bilimlarni berish, degani emas. Bu aqliy sifatlarni, aqliy qobiliyatning usul va metodlarini shakllantirishdir. Buni hech qaysi darslik bera olmaydi. O’quvchilarda bu sifatlarni faqatgina o’qituvchi trener shakllantiradi, qachonki, o’zi bu sifatlarni egallagan bo’lsagina, qo’yilgan maqsad amalga oshadi.

Shaxmat darslarida talabalarining mantiqiy fikrlashning muhim vazifasi – o’quv ishlari usullarini o’rgatishdir. Real izlanish jarayonini va noma’lumni topishni o’rgatish lozim. O’qituvchining o’zi vazifani tadqiq etib, hal qilish yo’llarini tashkil etishni ko’rsatib berishi lozim. O’quvchilar bu misollardan shaxsiy harakatlarini tahlil qilish va baholashni o’rganadi, o’zining xatol va kamchiliklarni ko’ra oladi. O’qituvchi ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyatini yo’lga qo’yadi va tadqiq etishga qiziqtiradi. Natijada ularning mantiqiy fikrlash ko’nikmalari oshadi. Dalillar, nazariy qoidalar, xulosalar, umumlashmalar, ularga mos ravishda o’quvchilarning o’quv ish usullari shaxmat o’quv predmetini o’qitishning mazmunini o’zida aks ettiradi. O’quvchilarning shaxmat o’rganish bilimlarini egallash jarayoni fikrlash, tasavvur va boshqa bilish jarayonlari, mantiqiy operatsivlar, motivatsion-irodaviy va hissiy (emotsional) faoliyat sohalarining rivojlanganlik darajasi bilan bog’liq holda qaraladi. Shaxmat o’quv predmetini o’qitishning shakl, metod, metodik usul va vositalarini tanlash asosida mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish ta’lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Demak, shaxmat darslarida fikrlash-masalalar echish, debyut, meteshpel va enshpel o’zaro munosabatini va aloqadorligini mohiyatini umumlashtirish yo’li bilan borliq jarayonlarni o’quvchilar ongida hayotiy aks ettirishning oliy shakli sifatida tushunchalar orqali bilishga qadrligi ma’lum bo’ladi. [5]

Tadqiqotga oid izlanishlar o’laroq, shaxmat darslarida talabalarining mantiqiy fikrlashda quyidagi jihatlarni tarkib toptirish lozim bo’ladi. Bular:

- shaxmatning ijtimoiy-shaxsiy sifatlar salohiyatini ochib berish yo’nalishlari va xususiyatlari;
- sport va shaxmat o’yinlarida shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarbiyalash;
- zamonaviy shaxmatchining axloqiy tarbiyasini oshirish shakllantirish:
- shaxmat sohasiga oid pedagogik tizimlarni yaratish va uni faollashtirish;
- shaxmatchi shaxsini tarbiyalashda sport turlarining mutanosibligi;

- har bir shaxmat masalasida aks etgan mantiqiy shaklantirishdagi o’ziga xosliklarni izlash va boshqalar.

Shaxmatchining mantiqiy fikrlashga imkon beruvchi bunday vakolatlarni tarkib toptirishda shaxmat o’quv predmetini o’qitish mazmunini belgilab beruvchi DTS, o’quv dasturi, darsliklar alohida o’rin tutadi.

Umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartining asosiy tamoyillari negizida o’quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari mantiqiy fikrlashi, ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalarga asoslanganli darajalari, o’quvchilarda fanlarni o’rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch fanlarga oid umumiy kompetentsiyalarni rivojlantirish va hokazo.

Shuningdek, tayanch va fanga oid umumiy kompetentsiyalarda o’quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda mantiqiy fikrlashni shakllantiruvchi kompetentsiyalarda shakllantiriladi. Shaxmatni o’rganish jarayonida yosh o’quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishida hissa qo’shadigan psixologik va pedagogik sharoitlarga tayainaladi. [6]

O’tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar shaxmatga o’rgatish jarayonida talabalarning intellektual rivojlanishiga yordam beradigan quyidagi psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirishga imkon beradi:

1) ta’lim jarayonida axborotni kodlash turlaridan foydalanish: samarali, tasvirli, ramziy-belgili;

2) ta’lim jarayonida modellash va sxemalash usullaridan foydalanib, sxemaga asosan vazifalarni bajarishga va grafik modellar bilan ishlashga o’rgatish;

3) ta’lim jarayonida o’quv mavzusini eslab qolish uchun maxsus usullardan foydalanish; axborotni kodlash tilini boshqasiga tarjima qilishni amalga oshirish; emotsional manbalarni kiritish, “generatsiya natija”siga erishish maqsadida, berilgan ichki qonuniyatlarga asoslanib, pozitsiyalarni mustaqil ravishda tuzish. O’quv materialini eslab qolish mexanizmini cheklab, tushunish jarayonini rivojlantirishni rag’batlantirishga e’tibor qaratish;

4) ta’lim jarayonida o’quvchilarning fikrlash harakatini faollashtirishga qaratilgan usullardan foydalanish. Ta’lim jarayonida o’quv hamkorligi munosabatlarini tashkil qilish va xokazo.

Yuqorida aytib o’tilganlar bilan bir qatorda, u asosiy komponent sifatida mantiqiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik tizimiga ham kiritilgan. biz diagnostika quyi tizimini, ya’ni mantiqiy fikrlashning operatsion-funktsional va refleksiv tarkibiy qismlarini etarli darajada shakllantirish uchun mas’ul bo’lgan quyi tizimni kiritdik. Ushbu quyi tizim mantiqiy fikrlash tarkibiy qismlarining shakllanish darajasini nazorat qilish, ularning mazmuni va ishlash xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.[7]

Shaxmat talabalarining asosiy diagnostik ko’rsatkichlari:

shaxmat o’yinining mantiqiy fikrlashni bo’yicha bilimlarni shakllantirish darajasi quyidagilar:

a. ochilish sohasidagi nazariy tayyorgarlik darajasi;
b. odatda o’rta o’yin pozitsiyalarini o’ynash bo’yicha bilim va ko’nikmalar to’plami;
c. enshpel o’ynashda texnik tayyorgarlikning mavjudligi;
d. o’yinga, raqibga, umuman turnirga psixologik tayyorgarlik darajasi;
e. maxsus tayyorgarlikning zarur elementlari to’plamiga ega bo’lish. Ushbu kompleks quyidagilarni anglatadi:
f. ta’lim sharoitlari va shaxmatchi yutuqlari talablariga shaxmat xususiyatlari majmuini ta’minlash qobiliyati [12];
g. o’quv va o’quv jarayoni samaradorligini muntazam ravishda yaxshilashga hissa qo’shadi [90];
h. shaxmat fanining hozirgi yutuqlarini va individual sportdagi taraqqiyotning asosiy yo’nalishlarini hisobga oliish.
i. shaxmatchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, bu bilan biz quyidagilarni nazarda tutamiz:

- pozitsion o’yin malakasi;
- variantlarni hisoblash texnikasi;
- kombinatsiya-taktik ko’rish;
- partiya davomida vaqt hissi (vaqt bosimining yo’qligi yoki mavjudligi);

Xulosa qilib aytganda, mantiqiy fikrlash ta’sir etuvchi omillar yaxlit ko’rinishga ega bo’lib, tadrijiy tavsifga egadir. Ya’ni mazkur jarayonga ta’sir etuvchi omillar sabablarning to’planib borishi, ularning tabaqalashuvi, ta’sir doirasi ularni umumiy omillar tarzida jamlashga imkon beradi. Shaxmat darslarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni bilish va ularning ta’sir etish darajasini baholay olish o’qituvchidan ijodkorlikni, maxsus kompetentsiya-larga ega bo’lishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada shaklantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida" PQ-4954-son qarori.

2. Xoliqov U. O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali 1 (2), 28-37 Boshlang’ich sinf o’quvchilarda shaxmat o’rgatish orqali mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini baholashning innavotsion usullari.

3. Khalikov U. Pedagogical value of developing playing chess among primary schoolchildren Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), P. 17 – 23.

4. Xoliqov U. Shaxmat o‘yinida shaxs psixologiyasini shaklantirishda nazariy va amaliy muammolari Eurashian journal of technology ana innovation Innovative Academy Research Support Center Volume 1, Issue 6, June 2023 ISSN 2181-2020. 122 – 126 betlar.

5. Isabekov Sh. “Shaxmat tarixi va uning asoslari”. – uslubiy qo’llanma 2022 y.

6. B.Estrin «Shaxmat nazaryasi va amaliyoti” (ruschadan M.Muhitdinov tarjimasi), Toshkent O'qituvchi 1983 yil

7. Dang V.Z. Trenirovochno’e i sorevnovatelno’e nagruzki v godichnom tsikle podgotovki shaxmatistov: dis. ... kand. ped. nauk: 13.00.04 G’ Dang Van Zung; RGUFK. – M., 2006. – 191 s.: il.129897.

SHAXS KAMOLOTIDA ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHIGA CHET TILLARINI O'RGANISHNING TA‘SIRI

Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi,
NamDPI 1-bosqich magistranti
E-mail: dilnozabdullayeva1700@gmail.com Tel: +998-94-171-33-24

Annotatsiya: *ushbu maqolada chet tillarini o‘rganish bolaning dunyoqarashini kengaytirish, madaniy ongini rivojlantirish, muloqot qobiliyatlarini oshirish, kognitiv rivojlanishni kuchaytirish, obro‘ ortira olish qobiliyatlarini rivojlantiriish va shaxsiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutishi va bu bolaning ta’limga yordam berishi haqida yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *madaniy ong, kognitiv rivojlanish, shaxsiy o‘sish, global xabardorlik, diplomatiya va xalqaro munosabatlar, kasbiy rivojlanish, kreativlik, innovatsiya.*

Аннотация. *В этой статье изучение иностранных языков играет важную роль в расширении мировоззрения ребенка, развитии культурного сознания, совершенствовании коммуникативных навыков, усилении когнитивного развития, развитии навыков самооценки и стимулировании личностного роста, а также помогает охваченному образованию ребенка.*

Ключевые слова: *культурная осведомленность, когнитивное развитие, личностный рост, глобальная осведомленность, дипломатия и международные отношения, профессиональное развитие, творчество, инновации.*

Abstract. *In this article, learning foreign languages plays an important role in expanding a child's worldview, developing cultural awareness, improving communication skills, enhancing cognitive development, developing self-esteem skills, and stimulating personal growth, and that it helps the child's education covered about.*

Key words and concepts: *cultural awareness, cognitive development, personal growth, global awareness, diplomacy and international relations, professional development, creativity, innovation.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga binoan ishlab chiqilgan 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning to‘rtinchi va beshinchi boblari alohida ta’lim tarbiya masalalari, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ma’naviy taraqqiyot va inson manfaatlarini rivojlantirishga qaratilganligi mamlakatimizda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi va ta’limga e’tibor nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi. Jumladan, ushbu taraqqiyot strategiyaning 44-maqsadida: Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo‘yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilashni qonun doirasiga kiritilishini ta’kidlashlari mamlakatimizda chet tillarini o‘rganish qanchalik muhim ekanligini ko’rsatadi. [1-32 b]. Bundan tashqari muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev xorijiy tillarni o‘rganish boshqa davlatlar bilan muloqot va hamkorlikni rivojlantirishning muhim yo‘li ekanini ta’kidlaydi. Prezident O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarini mustahkamlash borasidagi sa’y-harakatlari doirasida ingliz, rus, xitoy va boshqa tillarni o‘qitishni ilgari surdi. Bundan tashqari, Prezident Mirziyoyev O‘zbekistonlik yoshlarni ish imkoniyatlarini yaxshilash va dunyoqarashini kengaytirish uchun til o‘rganishga undadi. Mirziyoyev rahbarligidagi mamlakat ta’lim siyosatida xorijiy tillarni o‘rganish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. [2-67 b]. Xorijiy tillarni o‘rganishning bolaning dunyoqarashining o‘sishiga ta’siri bugungi kunda o‘zaro bog‘liq va butun dunyoda ko‘plab madaniyatlarni bir biriga bog’lanishida juda ham muhim o’rin tutadi. Chunki bugungi globallashuv davrida madaniyatlar va chegaralar o‘rtasida muloqot qila olish juda muhim.

Chet tillarini o‘rganish bolalarni turli millatga mansub odamlar bilan muloqot qilish odatiy hol bo‘lgan globallashgan dunyoda harakat qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Bu esa ularning ularning nafaqat dunyoviy bilimlarni o’rganishga bo’lgan qiyinchiliklarini yengishgan yordam beradi balki ularning ilmiy dunyoqarashini ham kengayishiga tasir ko‘rsatadi. Qolaversa, chet tillarini o‘rganish,madaniy farqlarni tushunish va qadrlash turli jamiyatlarda uyg‘unlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Chet tillarini o‘rganish orqali bolalar turli madaniyatlar, an’analar va qarashlar haqida tushunchaga ega bo‘lib, madaniy sezgirlik va inklyuzivlikni rivojlantirishi mumkin. Keyingi o‘rinda chet tillarni bilish diplomatiya, xalqaro biznes va global siyosatga qiziqqan shaxslar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa mamlakatlardan kelgan odamlar bilan samarali muloqot qila olish muzokaralarni osonlashtirishi, diplomatik munosabatlarni yaxshilashi va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishi mumkin. Bu esa nafaqat shaxsning o‘zi uchun balki millat jamiyat va davlat uchun ham juda foydali jarayon hisoblanadi. [3-18 b]. Chet tilini bilish bolalarga mahalliy hamjamiyatlar bilan yanada chuqurroq bog‘lanish, notanish muhitlarni o‘rganish va mazmunli madaniyatlararo almashinuvlarni amalga oshirish imkonini berib, sayohat tajribasini oshirishi mumkin. Bu ularning dunyoqarashini kengaytira oladigan chuqur madaniy tajribalar uchun imkoniyatlar ochadi. Qolaversa, bugungi raqobatbardosh mehnat bozorida chet tillarini bilish bolalarga o‘z kareralarida raqobatbardosh ustunlikni berishi mumkin bo‘lgan qimmatli boylikdir. Ko'pgina ish beruvchilar til ko‘nikmalarini qadrlashadi va bir nechta tillarda, ayniqsa transmilliy kompaniyalarda va global sanoatda samarali muloqot qila oladigan nomzodlarni izlaydilar. Buning misoli sifatida mamlakatimizda ham chet tillarini talab darajasida bilgan o‘qituvchilarga qoshimcha haq to‘lanishi ham chet tillarini o‘rganish nechog‘lik muhim ekanligini ko’rsatadi.

[4-54 b]. Chet tillarni o‘rganish bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, empatiyasini va moslashish qobiliyatini oshirishi mumkin, chunki ular turli til va madaniy kelib chiqishi bo‘lgan shaxslar bilan muloqot qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularga ishonch hissini beradi. Ko‘plab olimlarning fikricha chet tillarini o‘rganish yangi tilni bilish orqali miyyaning muammoni hal qilish, xotira va ko‘p vazifalarni bajarish qobiliyatlari kabi kognitiv funktsiyalarni yaxshilaydi bu esa bolalarning ilmiy dunyoqarashini o‘stiradi. Chet tilini o‘rganish boshqa fanlar bo‘yicha akademik ko‘rsatkichlarni oshirishi mumkin, chunki bu tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Umuman olganda, chet tilini o‘rganish ko‘plab shaxsiy, kasbiy, kognitiv va madaniy imtiyozlarni taqdim etadigan foydali va boyitish tajribasidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikki tillilik kognitiv foyda keltirishi va qarilik jarayon boshlanishini kechiktirishi mumkin. [5-486 b]. Qolaversa, chet tillarni o‘rganish bolaning dunyoqarashining o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Chet tilini o‘rganish ham shaxsiy o‘sish va o‘z-o‘zini kashf etishga hissa qo‘shishi mumkin. Bu bolalarni o‘zlarining konfort zonalaridan chiqishiga, o‘sish tafakkurini rivojlantirishga va yangi va notanish vaziyatlarga tez moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Umuman olganda, olimlar chet tillarini o’rganishni shaxs rivojlanishiga ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qimmatli tajriba sifatida qarashadi.

Ko‘plab olim va tadqiqotchilar chet tillarini o‘rganishning shaxs rivojlanishida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga ta’sirini o‘rganishgan.

1. Ikki tillilik bo‘yicha yetakchi mutaxassis, doktor Ellen Bialystokning tadqiqotlari ikki tillilikning kognitiv afzalliklari va til ko‘nikmalarining diqqat, muammolarni hal qilish va kognitiv moslashuvchanlik kabi kognitiv jarayonlarga qanday ta’sir qilishiga qaratilgan. Uning ishi ko‘p tillarni o‘rganish va undan foydalanish ilmiy fikrlash va fikr yuritish uchun zarur bo‘lgan kognitiv qobiliyatlarni qanday oshirishi mumkinligiga oydinlik kiritdi. [6-384 b]. Uning fikricha, ikki tilni bilgan odam muammoning ikki tarafini ko‘ra oladi va boshqaralarga qaraganda tezroq muammoni hal qila oladi.

2. Italiyalik faylasuf va pedagog Luidji Giberti kishilarning intellektual rivojlanishi va axloqiy xarakterini shakllantirishda til o‘rganish muhimligini ta’kidlagan. [7-12 b]. Uning fikricha, chet tillarini o‘rganish insonning dunyoqarashini kengaytirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, shaxsga ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan turli madaniyatlar va dunyoqarashlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. U o‘quvchilar iloji boricha ko‘proq til o‘rganishi tarafdori bo‘lgan.

3. Birinchi intellekt testini ishlab chiqish bilan mashhur bo‘lgan fransuz psixologi Alfred Binet kognitiv rivojlanish va intellektual qobiliyatlarda tilni bilishning rolini tan oldi. U ilmiy izlanish va innovatsiyalar uchun zarur bo‘lgan xotirani yaxshilash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va aqliy moslashuvchanlik kabi ko‘p tillarni o‘rganishning kognitiv afzalliklarini ta’kidladi. [8-92 b]. Uning fikricha chet tillarini bilgan o‘quvchi boshqa o‘quvchilarga qaraganda aqlliroq va matemmatik misol-masalalarni bajarishda tezkoorroq bo‘lishadi. Chunki xorijiy tillarni o‘rganayotgan bolalar maktab dasturida matematikaga ko‘proq soat ajratilgan, ammo chet tillarni umuman o‘qimaydigan o‘quvchilarga nisbatan, matematika bo‘yicha yaxshiroq natijalarni ko‘rsatgani aniqladi.

4. Sapir-Uorf gipotezasi bilan tanilgan amerikalik tilshunos Benjamin Li Uorf til odamlarning dunyoni idrok etishini shakllantiradi va ularning fikrlash shakllariga ta’sir qiladi, deb taklif qildi. Uning ta’kidlashicha, chet tillarini o‘rganish insonning kognitiv va madaniy ufqlarini kengaytirib, ularga ilmiy fikrlash va dunyoqarashni shakllantirish uchun muhim bo’lgan yangi istiqbollar va kontseptual asoslarni qabul qilish imkonini beradi. [9-74 b]. Ushbu qobiliyat turli chalg‘ituvchi omillarni bloklab, bitta vazifaga diqqatni qaratishga yordam beradi.

5. Kognitiv psixolog va tilshunos Stiven Pinker til, bilish va inson tabiati haqida ko‘p yozgan. Pinker o‘z ishida tilning fikrlash, muloqot va ijtimoiy o‘zaro ta’sirga, odamlarning kognitiv jarayonlari va intellektual rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. U ko‘p tillilikning kognitiv afzalliklari va til xilma-xilligining ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va madaniy

tushunishni rivojlantirishdagi rolini ta’kidlab o’tadi, bular ilmiy izlanish va shaxsni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu olimlar va tadqiqotchilar chet tillarini o‘rganish shaxs rivojlanishida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishini takidlaganlar. Ulari til o‘rganishning kognitiv, madaniy va intellektual afzalliklarini ta’kidlab, ko‘p tillilikning ilmiy izlanish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va shaxslarning shaxsiy va kasbiy o‘sishida madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishdagi muhim rolini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytadiganda, shaxs kamolotiga ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda chet tillarini o‘rganishning ta’siri katta. Bu bolalarning bilim qobiliyatini, akademik qiziqishini, madaniyatlararo tushunishni, global istiqbolni, muloqot qobiliyatlarini va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishi mumkin, bularning barchasi ilmiy fikrlashni rivojlantirish uchun ajralmas hisoblanadi. Til o‘rganishni qamrab olgan holda, bolalar ilmiy izlanishlarga yaxlit va xabardor yondashuvni rivojlantirishlari va ilmiy hamjamiyatda bilim va tushunishni rivojlantirishga mazmunli hissa qo‘shishlari mumkin. Bu bolaning ta’lim olishiga qo‘yilgan qimmatli sarmoya bo‘lib, bugungi kunda ham, kelajakda ham keng ko‘lamli foyda keltirishi mumkin. Chet tilini o‘rganishda yangi axborotni eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi, bu o‘qish vaqtini kamaytiradi. Buning ustiga, ko‘p til biladiganlar bir vaqtning o‘zida ko‘p vazifalarni bajarishga moyil bo‘ladi. Xorijiy tilni o‘rganish mohiyati – boshqa odamlar bilan muloqotdan iborat. Suhbatlashish malakalarini takomillashtirish uchun esa, yaxshisi, shu tilda so‘zlashuvchi yoki bu tilni allaqachon o‘rganib bo‘lgan kishilar bilan shug‘ullangan ma’qul. Xorijiy tilni o‘rganibgina, o‘z ona tilimizni ko‘proq qadrlay boshlaymiz. Unda bolalikdan gapirishni boshlaganimiz uchun, u qanday qurilgani haqida o‘ylamaymiz, ko‘pincha uning go‘zalligini anglamaymiz. Chet tillarini o‘rganish natijasida kommunikativ imkoniyatlaringiz kengayishi, nufuzliroq ishga kirish imkoniyatingiz oshishi, filmlarni va kitoblarni original tilda ko‘rish va o‘qish mumkin. Chet tillarini o‘rganishning bolaning dunyoqarashining o‘sishiga ta’siri zamonaviy dunyoda juda dolzarb bo‘lib, unda madaniyatlararo muloqot, global xabardorlik va madaniy sezgirlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til o‘rganishni qamrab olgan holda, bolalar o‘z nutqlarini kengaytirishlari, kengroq nuqtai nazarni rivojlantirishlari va yanada ochiq fikrli, empatik va global miqyosda vakolatli shaxslarga aylanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. T.: 2022.

2. Sh.Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti 2022.

3. Ishmatov K. Pedagogik texnologiyalarni nazariy asoslari. Ta’lim muammolari, Toshkent: 1999.

4. B.M.Umarov, Psixologiya. “Voris-nashriyot”. T.: 2012.

5. Badritdinova, M.B. (2019). THE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.

6. Badritdinova, M.B. (2019). COGNITIVE METHODS AND PERSON NATIONAL PECULIARITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(10), 380-386.

7. Badritdinova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKUR USLUBINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to’plami.

8. D.Abdullayeva “Shaxs intellektual kamolotida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari” “RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA UZLUKSIZ TA’LIM:

INNOVATSIYA VA ISTIQBOLLAR XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA” ikkinchi jildi.

9. D.Abdullayeva “Bo’lajak pedagoglarning ilmiy dunyoqarashni shakllanishi haqida yevropa va sharq mutafakkirlarining fikrlari” “UBS Ilmiy Axborotnomasi” jurnalining 3-soni.

UCHINCHI RENESSANS DAVRI O`QITUVCHISI SHAXSIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK YONDASHUV

Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi,
Namangan Davlat Univeriteti Psixologiya kafedrasi Stajyor-o’qituvchisi
O’rolova Sojida Xayitboy qizi,
Namangan Davlat Universiteti Psixologiya kafedrasi stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya. *Hozirgi davrda “Kelajak o‘qituvchisi”ni tayyorlash har qachongiga qaraganda dolzarblashib, har tomonlama jiddiy e’tiborni talab qiladigan muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada hozirgi zamon o‘qituvchisi shaxsiga qo‘yiladigan talablar va ijtimoiy-psixologik omillari haqida so’z borgan.*

Kalit so’zlar: *renessans, o‘qituvchi shaxsi, kelajak o‘qituvchisi, ijtimoiy-psixologik omillar, streotip, ijtimoiy omil, ijtimoiy status, rivojlanish, axborot tehnologiyalari, faollik.*

Zamonaviy yoki “Kelajak o‘qituvchisi” deganda ko‘z oldimizga mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, tadqiqotchi, loyihalovchi, tashkilotchi va albatta yuksak muloqot madaniyatiga ega bo‘lgan shaxs gavdalanadi. Shu bilan birga o‘qituvchilik kasbi murakkab faoliyat bo‘lib, zamonaviy sharoitda o‘qituvchi shaxsiga bir qancha talablarni qo‘yadi. Biz g`aroyib davrda yashayabmiz. Atrofimizdagi olam juda tez sur`atlarda, tanib bo`lmas darajada rivojlanib, o`zgarib, takomillashib boryabdi. Har birimiz ta'lim tizimining o'zgarishsiz qolmasligini tushunamiz, shuning uchun o'qituvchilar pedagogik mahoratini oshirishga, bolalar ongi va yuragiga yangi yondashuvlarni izlashga, namuna bo'lishga majbur. Guruhdagi psixologik iqlim, har bir bolaning hissiy qulayligi, o'quvchilar o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlarning tabiati va bolaning faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi ko'p jihatdan o‘qituvchi va tarbiyachilarga bog'liq.

3-ming yillik bolalariga zamonaviy o'qituvchilar kerak. Zamonaviy bolalar faolroq, o'zini namoyon qilishda harakatchan, ma'lumotli, endi bir-biriga o'xshamaydi, oilada yashash sharoitlari va tarbiyasi boshqacha. Bularning barchasi o'qituvchining shaxsiga ma'lum talablarni qo'yadi. Zamonaviy, o`z ustida ishlaydigan o`qituvchi shogirdlari bilan oson til topisha oladigan ideal psixolog bo`lishi kerak. Shuning uchun o`sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan 3-Renesans davri o`qituvchisi quyidagi xususiyatlarga ega bo`lishi kerak:

Faol (o`quvchilarni faoliyatining namoyon bo'lishida qo'llab-quvvatlash, ularga mos kelish). Ko'pincha stulda o'tirgan va undan o`quvchilar faoliyatini boshqaradigan o'qituvchini o`quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga intiladigan, faol deb atash qiyin;

O'zgarishga qodir – tez o'zgarib borayotgan dunyoni, o'zgargan bolalar va ularning ota-onalarini kuzatib borish;

Diqqatli – o'zingizga, sizning xatti-harakatingizga, o'zingizni og'zaki ifoda etishingizga, o'zingizning xatti-harakatlaringiz, nutqingiz boshqalarga, shu jumladan o`quvchilarga qanday ta'sir qilishiga.

Vakolatli – o'z -o'zini tarbiyalashni takomillashtirishga intiladi, kasbga malakali.

3-ming yillik o'qituvchisining vazifasi – ijodiy, do'stona shaxsni tarbiyalash, har bir bolaning individual qobiliyatlarini rivojlantirish. Buning uchun 3-ming yillik o`qituvchisi o'zi bilimli, ijodkor, g'ayrioddiy odam bo'lishi kerak. U ko'p narsani bilishi kerak, shunda bizning bolalarimiz unga ishonishadi va hamma narsani o'rganishni xohlashadi. O`quvchilar bilan mashg'ulotlar muvaffaqiyat, qiziqish, bilimga qaratilishi kerak. Zamonaviy kelajak o‘qituvchisi

doimo takomillashib, o'rganib, zamon bilan hamnafas bo'la olishi kerak. O'qituvchi – mas'uliyatli va qiyin kasb. Ota-onalardan ham talablar ko'p.

O‘zgarish. Bu eng qiyini, biroq to‘laqonli shaxs sifatida mavjud bo‘lish uchun zarur bo‘lgan shart.

O‘z xatolarini tan olish. Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi. O‘qituvchi esa bundaylar toifasiga kirmasligi aniq.

Rivojlanish. Hozirda zamonamiz shu qadar tez sur'atlarda rivojlanyaptiki, “Alisa Ko‘zgu orti mamlakatida”gi Qora qirolicha aytganidek, o‘z joyida qolish uchun “oyoqni qo‘lga olib yugurish kerak”. O‘qituvchi o‘quvchilar nima bilan yashayotganini, nimalarni his qilayotganini ham tushunishi kerak.

Bundan tashqari, o‘qituvchi zamonaviy o‘quvchilar boshqacha ekanini yodda tutishi lozim. Ular internetda yashashmoqda, ularda katta odam madaniyati yo‘q. Odatda “O‘qituvchi bolalarni yaxshi ko‘rishi kerak” deyishadi. Biroq bu fikr juda mavhum va turli talqinlarga sabab bo‘lishi mumkin. Axir yaxshi ko‘rish tushunchasi juda ko‘p qirrali. Hurmat tushunchasi bilan bari oddiy. O‘quvchini hurmat qilish – demak, unda oppoq qog‘ozni emas, shaxsni ko‘rish demakdir.

Shuni unutmasligimiz kerakki, insonlarning bari turlicha. Shuningdek, har bir o‘quvchining o‘ziga xos individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyartlari shu bilan birga gayriodatiy odatlari, ijtimoiy hayatga munosabat va qarashlari bo‘ladi. Ba'zida odam o‘zgalarga o‘xshamaganligi uchun ham g‘ashimizni keltiradi, bosh kiyimini boshqa kiyadi, o‘zgacha qaraydi. Agar u o‘zini tabiiy tutayotgan va axloq-odob qoidalarini buzmayotgan bo‘lsa, bunga e'tibor berish kerakmi? Odamning shaxsiy fikrga ega bo‘lish huquqi haqida ham shunday deyish mumkin. Gap yagona to‘g‘ri javob berish mumkin bo‘lmagan savollar haqida ekan, kutilmagan va original takliflarni darhol o‘chirib tashlash yaramaydi. Ular standart javoblarga qaraganda ko‘proq mos keladigan bo‘lishi mumkin. Bolalar kattalar kabi “qolipga tushib qolgan fikrlar” bilan o‘ylashmaydi, shuning uchun erkin fikrlashadi.

O‘quvchining o‘zgacha bo‘lish huquqini, qiziqishlarini, intilishlarini tan olish kerak. Balki ayni daqiqalarda yangi kashfiyotchi, olimlarni kamol toptirayotgandirmiz. Albatta, xislatlarning bariga ega bo‘lish ham oson emas. Xar bir kasbning o`z mashaqqati bor. Biroq shunga qaramay, idealga qarab itilish, kasbiy mashaqqatlarga chidamli bo‘lish va doimiy ravishda rivojlanishga intilish zarur. Zero, sobiq sovet psixologi L.S.Vigotskiy aytganidek: “Bola bugun hamkorlikda va rahbarlikda nima qila olsa, ertaga u mustaqil ravishda qila oladi. Bolani bunga olib kelish zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasidir”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. X.I.Ibragimov, U.A.Yo`ldoshev. X.Bobomirzayev. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2009-y.
2. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova Kasb psixologiyasi. Toshkent 2016.
3. “O’zbekiston Respublikasining Oila kodeksi” Toshkent “Adolat” 1998 yil.
4. V.Karimova “Oila ma’rifati” Toshkent – 2009 yil.

MULOQOT JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISHGA PSIXOLOGIK YONDASHUV.

Mamadaliyeva Lola Abduvahobovna,
University of Business and Sciens nodavlat oliy ta’lim muassasasi
Pedagogika-psixologiya ixtisosligi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muloqot, muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari, muloqot uslublari, turlari, shaxsning tafakkuri, olamni va o'zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanishi haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *muloqot, shaxs, faoliyat, jarayon, munosabat, psixologik, ijtimoiy, muhit, vosita, tarbiya, xulq-atvor.*

Abstract. *This article discusses communication, problems that arise in the process of communication, ways to solve them, communication styles, types, thinking of a person, the formation of the ability to analyze and evaluate the world and one's image in the process of communication.*

Key words: *communication, person, activity, process, attitude, psychological, social, environment, tool, education, behavior.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается общение, проблемы, возникающие в процессе общения, способы их решения, стили, типы общения, мышление человека, формирование умения анализировать и оценивать мир и свой образ в процессе общения*

Ключевые слова: *общение, личность, деятельность, процесс, отношение, психологическое, социальное, среда, средство, образование, поведение.*

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi.

Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o'zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog Ye.Melibruda quyidagilarni ta'kidlaydi: «Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir».

Muloqot o'ta murakkab jarayon bo'lganligi sababli unga yagona to'g'ri ta'rifni berish juda mushkul. Shuning uchun odatda muloqot tushunchasining mazmuni uning ayrim tomonlariga urg'u berish orqali ta'riflanadi.

Muloqot – hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqazolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni. Muloqot – sub'ektlarning belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sirlanishuvi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan «Umumiy psixologiya» o'quv qo'llanmasida muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv

baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir" – deb ta'kidlanadi.

Rahbar faoliyatidagi eng muammoli masalalardan biri — xodimlar bilan bo'ladigan ziddiyat, nizolar. Ushbu masala bo'yicha psixologlar Yershov A.A. (Shaxs va jamoa: Jamoadagi shaxslararo nizolarni bartaraf etish), Kichanov I.M. (Ziddiyatlar: yoqlaydiganlar va qarshilar.), Smolin G.L. (Ziddiyatlami tadqiq qilish tamoyillari) bir qancha ishlarni amalga oshirganlar. Bizning asosiy maqsadimiz – rahbarlarda nizoga nisbatan konstruktiv munosabatlami shakllantirish, ziddiyat ham boshqaruvning asosiy vositasi ekanligini anglatish, nizolar bartaraf etilmasa jamoadagi ishni to'g'ri yo'lga solish qiyin ekanligini tushuntirish. Ayrim rahbarlar ziddiyatni kelib chiqish mexanizmlarini chuqur o'rganmaydi, ba’zilari esa ziddiyatdan qochadi, befarq bo'ladi. Bu ikkala qarash noto'g'ri. Befarqlik nizolarning chuqurlashib ketishiga olib keladi.

Ziddiyatlar – qarama-qarshi fikr, qarashlarning to`qnashuvi bo`lib, muloqot jarayonida kelib chiqadi. Ziddiyatlar motiv, qiziqish, qarashlarning mos kelmasligiga ko`ra shaxsning ichki holati ijtimoiy muhit bilan bo`ladigan munosabatlarida ushbu ko`rinishlarga ega:

oilada ota-ona va farzand orasidagi qarashlar mos kelmasligida;

shaxslarda, jamoalarda, hamkasblar orasidagi o`z qarashlarini amalga oshirishda;

shaxsning o`zga odamlar bilan ishlash jarayonida ulardan ustunlik qilishida yuzaga keladi.

XX asr boshlarida bir kator nemis, avstriyalik va amerikalik sotsiologlar G.Zimmel, L.Gumplovich, D.Smolli, U.Samnerlarning tadqiqotlari ziddiyatlar nazariyasiga asos soldi. Ulardan eng mashhuri G.Zimmel bo`lib, u ziddiyatlarni jamiyat hayotidagi muqarrar hodisa deb qaragan, ziddiyatlar inson hayotining xususiyatidan kelib chiqadi va shaxsga xos bo`lgan hujumkorlik instinktdan paydo bo`ladi, deb disoblaydi.

K.Tomas va R.Kilmenn ziddiyatli vaziyatda xulq-atvorning moslashish, bosh tortish, sarshi ko`rashish, uamkorlik, murosaga kelish kabi beshta asosiy uslubini ajratib ko`rsatganlar.

Ziddiyatlar ko`p hollarda ortiqcha asab tarangliklariga olib keladi, stressli vaziyatlarga, stresslarni boshqarish zarurligiga sabab bo`ladi. Stress – bu shunday bir bosimki, u hissiy diskomfort (komfortning tanqisligi) holatiga olib keladi.

Stress tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Unchalik ahamiyatga ega bo`lmagan stresslar muqarrar va zararsiz bo`lib, haddan tashqari ortib ketgan stress esa, shaxs uchun ham, korxona va tashkilotlar uchun ham qiyinchiliklar, qo`yilgan maqsadlarni qo`lga kiritishda muammolar keltirib chiqaradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, muloqot jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatli holatlarda o`zini tug`ri tutish malakalari psixologik treninglar yorhamida hosil qilinadi.

Har qanday nizoning asosida qaysidir ma’noda maqsad va manfaatlar o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar yotadi. Odamlar bir-birining fikri bilan kelishmasligi va o‘zaro bahslashishi mumkin, har biri o‘z fikrida qoladi, lekin baribir ko‘p hollarda kelishib ishlashga majbur bo‘ladi, qarama-qarshilik ba’zan yoqtirmaslik, hissiyot, tushunmaslik, ko‘ra olmaslik va boshqalarda aks etib, nizoning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Nizo nafaqat qarama – qarshilik, shuningdek o‘ziga xos kurashish hamdir. Har ikki tomon ham bunday holatda o‘zini xaq deb biladi va o‘zaro kurashadi. Nizo bu qarama-qarshi dunyoqarashlar negizida yuzaga keladi. Nizoni albatta, o‘z vaqtida bartaraf etish kerak, chunki buning oqibatida hayot me’yorida davom etmaydi.

Yuqorida aytib o‘tganimizni tahlil qilib psixologik nuqtai nazardan biz shunday ta’rif beramiz: "Nizo – shaxslarning qarashlari, qiziqishlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik natijasida vujudga kelgan psixologik holat bo‘lib, bu ularning faqat bir-biri bilan hamkorligi jarayonida paydo bo‘ladi.

